# SHARQSHUNOSLIK
# ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
# ORIENTAL STUDIES

2
2026
ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096

ISSN 2181 – 8096

# SHARQSHUNOSLIK
# ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
# ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES

**№ 2, 2026**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro‘yxatidan qayta o‘tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – **ISSN 2181 – 8096**

**Bosh muharrir** – **Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna**
*filologiya fanlari nomzodi, professor*

**Tahrir hay’ati**

| | |
|---|---|
| **D. Sayfullayev** | *tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)* |
| **D. Muxiddinova** | *filologiya fanlari doktori (mas’ul kotib)* |
| **A. Mannonov** | *filologiya fanlari doktori, professor* |
| **R. Xodjayeva** | *filologiya fanlari doktori, professor* |
| **Sh. Shomusarov** | *filologiya fanlari doktori, professor* |
| **Q. Omonov** | *filologiya fanlari doktori, professor* |
| **U. Muxibova** | *filologiya fanlari doktori, professor* |
| **X. Xamidov** | *filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)* |
| **B. Abduhalimov** | *tarix fanlari doktori, professor* |
| **A. Xodjayev** | *tarix fanlari doktori, professor* |
| **M. Is’hoqov** | *tarix fanlari doktori, professor* |
| **A. Doniyorov** | *tarix fanlari doktori, professor* |
| **I.Xaydarov** | *tarix fanlari nomzodi, dotsent* |
| **X. Fayziyev** | *tarix fanlari nomzodi, dotsent* |
| **N.Karimov** | *tarix fanlari doktori, dotsent* |
| **D.Xodjimuratova** | *tarix fanlari doktori, dotsent* |
| **Sh. Yovqochev** | *siyosiy fanlar doktori, professor* |
| **N.Abdullayev** | *siyosiy fanlar doktori, dotsent* |
| **A. Vahobov** | *iqtisod fanlari doktori, professor* |
| **R. Abdullayev** | *iqtisod fanlari doktori, professor* |
| **I. Mavlanov** | *iqtisod fanlari doktori, professor* |
| **R. Bahodirov** | *falsafa fanlari doktori, professor* |
| **E. Izzetova** | *falsafa fanlari doktori, professor* |
| **G. Glizon** | *AQSHning New Mexico universiteti professori* |
| **A. Shonazarova** | *AQSHning Kolumbiya universiteti professori* |
| **Ono Masaki** | *Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori* |
| **Li Dji In** | *Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori* |
| **V. Mesamed** | *Isroilning Quddus universiteti professori* |
| **A. Gurer** | *Turkiyaning Anqara universiteti professori* |
| **A. Vorobyov** | *Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi* |
| **G. Avda** | *Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori* |
| **A. Tohir** | *Misr Arab Respublikasining “Al-Hivar” siyosiy tadqiqotlar markazi direktori* |
| **H. Baydemir** | *Turkiyaning Otaturk universiteti professori* |

**Nashrga tayyorlovchilar:**
***J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, D. Sodiqova***

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2026

# MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

## ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

***M.Abdurahmonova, Robina Shaheen*** Hazrat Alisher Navoiy va Muhammad Sharif Ojiz qalamiga mansub “Layli va Majnun” dostonining syujet va kompositsiyasi – o‘xshash va farqli jihatlar.....5
***M.Murtazaxodjayeva*** Chinappa Bharatining “Pavlayi” romanida *ayol* taqdiri va ijtimoiy tengsizlik masalalari .....15
***D.Asadova*** Badiiy asar – o‘ziga xos badiiy –estetik hodisa .....26
***M.Shamsimatova*** Ummon romanchiligining o‘rganilish masalasi .....41

## TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND TRANSLATION STUDIES

***M.Abdullayeva*** Bevosita va bilvosita tarjima: afzalliklari, kamchiliklari va qo‘llanish doiralari.....51
***А.Иванова*** Такесика как лингвокультурный код современной китайской коммуникативной нормы .....60
***S.Nargiza*** Ingliz tilidan o‘zbek tiliga metaforalar tarjimasi: ilmiy bahslar va nazariyalar.....78
***D.Qodirova*** Vyetnam tilshunosligida hisob so‘z va uning so‘z turkumlari tizimidagi o‘rni.....86
***N.Mirxamidova*** Koreys va o‘zbek tillarida er-xotin orasida qo‘llaniladigan murojaat birliklari .....98
***F.Ismoilova*** Ingliz va o‘zbek tillarida diniy terminlarning morfologik tahlili va tarjimasi muammolari .....111
***N.Tohirov*** Sharq olimlari tadqiqotlarida fonologik reduplikatsiyaning nazariy va amaliy masalalari .....120
***A.Xoshimov*** Turk quruqlik qo‘shinlari terminologiyasining leksik manbalari.....135
***T.Ma*** Language Contact, Retention and Semantic Evolution of Old Turkic Lexicons: A Study on Linguistic and Cultural Changes of the Salar Language.....144

## MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

***A.Xudayberdiev, X.Mirzayev*** Harbiy diplomatiya evolyusiyasining o‘ziga xos xususiyatlari .....154
***K.Rahimov***. Buxorodagi ilk madrasalar tarixidan .....168
***O.Mahmudov*** Lotin ilmiy an’anasida Ahmad Farg‘oniy haqidagi tasavvurlar (“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm” lotincha tarjimalari nashrlarining qiyosiy tahlili asosida) ....174
***Q. Imamnazarov*** Mo‘g‘ullarning mahfiy tarixi manbasi tavsifi.....206
***S.Hafizov*** Mahmud ibn Vali va uning “Bahr ul-asror” asari.....216

## XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

***I.Xayrullayeva*** Hindistonda ta’lim tizimi rivojlanishining tarixiy bosqichlari va islohotlar tahlili .....226
***H.Sadibaqosev*** AQSh va Xitoy munosabatlarida Tayvan muammosi .....238
***R.Nurimbetov, Z.Karimova*** Eski” va “yangi” mintaqaviylik: nazariy yondashuvlar va zamonaviy ahamiyati .....247
***J. Abdazimov*** O‘zbekiston Xitoy munosabatlari “Xavfsizlik aloqalari modeli” sifatida.....253
***I.Gafarov*** The Revival of U.S.-Pakistan Relations as the Formation of a New Geopolitical Configuration in South Asia .....262
***M.Otamurodov*** The Wakhan Corridor as a Space of Security and Geoeconomic Communication in China–Afghanistan Relations .....274
***K.Tashev*** Strategik sherik davlatlarning jahonda yuz berayotgan voqea va xodisalarga nisbatan pozitsiyalari qiyosiy tahlili .....286
***S.Maxatov*** Markaziy Osiyo davlatlarining innovatsion salohiyati: global innovation index reytingi tahlili .....297
***J.Abdurasulov*** O‘zbekistonning Afg‘onistonga nisbatan geoiqtisodiy tashabbuslari:barqarorlikni ta’minlash mexanizmlari sifatida.....307
***Ф.Бекмирзаев*** Механизмы цифрового взаимодействия государственных органов с бизнес-сообществом в Узбекистане: на пути к “Цифровому регуляторному диалогу” .....319
***I.Raxmonkulov*** Afg‘oniston va Tojikistonning mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri: nazariy asoslar va ilmiy yondashuvlar .....331

# ADABIYOTSHUNOSLIK // ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERARY STUDY

***MUHAYYO ABDURAHMONOVA***
*Professor, TDSHU*
***DR. ROBINA SHAHEEN***
*Professor, Peshovar Universiteti*

## Hazrat Alisher Navoiy va Muhammad Sharif Ojiz qalamiga mansub “Layli va Majnun” dostonining syujet va kompositsiyasi – o‘xshash va farqli jihatlar

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Hazrat Alisher Navoiy va Muhammad Sharif Ojiz qalamiga mansub “Layli va Majnun” dostonlarining syujet va kompozitsion xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sharq adabiyotida keng tarqalgan “Layli va Majnun” mavzusining tarixiy ildizlari, uning arab xalq og‘zaki ijodidan boshlab fors, turkiy va dakhiniy adabiyotdagi rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Asosiy e’tibor Alisher Navoiy hamda Muhammad Sharif Ojiz tomonidan yaratilgan dostonlarning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlashga qaratilgan.*

*Maqolada har ikki asarning syujet asosini Qays va Laylining fojeali muhabbati tashkil etishi, qahramonlarning maktab davridan boshlangan muhabbati, jamiyat va ota-onalar qarshiligi hamda voqealarning fojeali yakun topishi kabi umumiy jihatlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, dostonlar orasidagi farqlar ham ko‘rsatib berilgan. Alisher Navoiy dostoni tasavvufiy-falsafiy mazmuni, ramziy obrazlari, inson ruhiyati va ilohiy ishq talqini bilan ajralib turishi ta’kidlangan. Muhammad Sharif Ojiz esa voqealarni xalqona ruhda, sarguzasht va dramatik epizodlar vositasida bayon etib, syujet rivojiga ko‘proq e’tibor qaratadi.*

*Tadqiqot davomida dostonlarning kompozitsion tuzilishi ham qiyoslangan. Navoiy asarining muqaddima boblari, hamd, munojot, na’t va me’roj tasvirlari bilan boyitilgani, Ojiz dostonida esa kompozitsiyaning ixcham va sodda shaklda qurilgani ko‘rsatib o‘tiladi. Natijada har ikki doston bir syujetga asoslangan bo‘lsa-da, badiiy maqsad, uslub va g‘oyaviy yo‘nalish jihatidan o‘ziga xos adabiy hodisa ekanligi xulosalanadi. Maqola Sharq mumtoz adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik va “Layli va Majnun” an’anasi tadqiqotlari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur maqola Sharq mumtoz adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlaridan bo‘lgan Sifatli ta’lim hamda Tinchlik, adolat va samarali institutlar yo‘nalishidagi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:*** *Alisher Navoiy, Muhammad Sharif Ojiz, Layli va Majnun, syujet, kompozitsiya, qiyosiy tahlil, tasavvuf, ishq, dakhiniy adabiyot, sharq mumtoz adabiyoti, sifatli ta'lim, madaniyatlararo muloqot, gumanistik ta'lim.*

***Abstract.*** *This article presents a comparative analysis of the plot and compositional structure of the epic poems Layli and Majnun written by Hazrat Alisher Navoi and Muhammad Sharif Ojiz. The study examines the historical development of the Layli and Majnun narrative, which originated in Arabic oral tradition and later became one of the most influential themes in Persian, Turkic, and Dakhini literature. Particular attention is devoted to identifying the similarities and differences between the two poets' interpretations of this classical love story.*

*The research demonstrates that both epics share a common storyline centered on the tragic love between Qays and Layli. Key plot elements include their meeting and falling in love at school, the opposition of society and family members, his withdrawal into the wilderness, and the lovers' tragic fate. Despite these similarities, the two works differ significantly in their artistic objectives and narrative approaches. Navoi's poem is distinguished by its profound philosophical and Sufi dimensions, where earthly love symbolizes divine love and spiritual perfection. In contrast, Ojiz's version emphasizes adventure, dramatic events, and a more popular narrative style that is closer to folk tradition.*

*The article also compares the compositional organization of the two epics. Navoi's work contains an extensive introduction, including sections of praise to God, supplication, praise of the Prophet, and descriptions of the Mi'raj, while Ojiz's poem follows a more concise and straightforward structure. The study concludes that although both works are based on the same classical plot, they differ considerably in style, symbolism, and ideological content. These differences highlight the richness of the Layli and Majnun tradition and its adaptation within different literary and cultural environments. This article holds significant scientific importance for research in Eastern classical literature and comparative literary studies, as well as within the framework of the United Nations Sustainable Development Goals concerning Quality Education and the Promotion of Peace, Justice, and Strong Institutions.*

***Keywords:*** *Alisher Navoi, Muhammad Sharif Ojiz, Layli and Majnun, plot, composition, comparative analysis, Sufism, classical literature, Dakhini literature, Eastern literary tradition, quality education, intercultural dialogue, humanistic education.*

***Аннотация.*** *В данной статье проводится сравнительный анализ сюжета и композиции поэм «Лейли и Меджнун» выдающегося поэта Алишера Навои и поэта литературы дакхини Мухаммада Шарифа Аджиза. Исследование рассматривает историческое развитие сюжета о Лейли и Меджнуне, который возник в арабском народном творчестве и впоследствии получил широкое распространение в литературных традициях. Особое внимание уделяется выявлению общих и отличительных черт в художественной интерпретации данного сюжета двумя авторами.*

*Анализ показывает, что обе поэмы основаны на единой сюжетной линии, повествующей о трагической любви Кайс и Лейли. В обоих произведениях присутствуют такие ключевые эпизоды, как зарождение любви героев во время обучения, противодействие со стороны родителей и общества, его уход в пустыню и*

*трагическая развязка истории. Вместе с тем произведения существенно различаются по своему идейному содержанию и художественным задачам.*

*Поэма Навои отличается глубоким философским и суфийским осмыслением любви, которая выступает не только как земное чувство, но и как символ духовного совершенствования и стремления к Божественной истине. В версии Аджиз повествование имеет более народный и приключенческий характер, а внимание автора сосредоточено на развитии событий и драматических эпизодах.*

*В статье также рассматриваются композиционные особенности обоих произведений. Отмечается, что поэма Навои обладает сложной структурой, включающей обширное вступление, восхваление Бога, молитвы, наат и философские размышления, тогда как композиция поэмы Аджиз отличается большей лаконичностью и простотой. В результате исследования делается вывод, что, несмотря на общность сюжета, оба произведения представляют собой самостоятельные художественные явления, отражающие особенности мировоззрения, литературной традиции и авторского стиля каждого поэта. Статья имеет важное научное значение для исследований в области восточной классической литературы, сравнительного литературоведения, а также в контексте реализации Целей устойчивого развития Организации Объединенных Наций в области Качественного образования и содействия укреплению мира, справедливости и эффективных институтов.*

***Ключевые слова:*** *сюжет, композиция, сравнительный анализ, суфизм, классическая литература, литература дакхини, восточная литературная традиция, качественное образование, межкультурный диалог, гуманистическое образование.*

**Kirish.** Sharq adabiyotida “Xamsa” yaratish qadimiy adabiy an’ana hisoblanadi. “Xamsa” besh masnaviydan iborat dostonlar majmuasidir. Bu yo‘lda ko‘plab shoirlar ijod qilgan bo‘lsalar-da, eng mashhur “Xamsa” mualliflari sifatida Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy nomlari alohida tilga olinadi.

“Layli va Majnun” qissasi dastlab arab xalq og‘zaki ijodida shakllangan bo‘lib, VII asr oxirlarida keng tarqalgan ishqiy rivoyatlardan biri edi. Rivoyat markazida Qays va Laylining fojeali muhabbati tasvirlanadi. Ayrim tarixiy manbalarda Majnun tarixiy shaxs sifatida tilga olinadi, boshqa manbalarda esa u afsonaviy obraz sifatida talqin qilinadi.

Fors tilida ushbu mavzuni birinchi bo‘lib Nizomiy Ganjaviy masnaviy shaklida yozgan. Keyinchalik Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa shoirlar ham bu mavzuga murojaat qilganlar. Turk dunyosida esa bu qissa eng yuksak badiiy darajada Alisher Navoiy tomonidan chig‘atoy tilida yaratilgan.

Bijopur adabiy maktabi vakili Shayx Muhammad Sharif Ojiz ham Hotifiy asari asosida dakhniy tilida “Layli va Majnun” dostonini yozgan. Uning dostoni syujet jihatidan klassik an’anaga tayansa-da, ayrim voqealar va obrazlar talqinida o‘ziga xoslik mavjud.

**Tadqiqotning maqsadi.** Mazkur tadqiqotning maqsadi Hazrat Alisher Navoiy va Muhammad Sharif Ojiz qalamiga mansub “Layli va Majnun” dostonlarining syujet

hamda kompozitsion xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash hamda har ikki asarning Sharq mumtoz adabiyoti rivojidagi o‘rnini yoritishdan hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri bo‘lgan Sifatli ta’lim tamoyillari doirasida mumtoz adabiy merosni zamonaviy gumanitar ta’lim tizimida o‘qitish va tadqiq etishning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** “Layli va Majnun” qissasining Sharq adabiyotidagi shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish;

Alisher Navoiy va Muhammad Sharif Ojiz dostonlarining yaratilish tarixi hamda adabiy manbalarini tahlil qilish;

Har ikki dostonning syujet qurilishi va asosiy voqealar tizimini qiyosiy o‘rganish;

Asarlardagi bosh qahramonlar obrazlari va ularning talqinidagi o‘xshash hamda farqli jihatlarni aniqlash;

Dostonlarning kompozitsion tuzilishi, muqaddima va xotima qismlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

Navoiy va Ojiz asarlaridagi badiiy-uslubiy hamda g‘oyaviy-falsafiy xususiyatlarni solishtirish;

Dostonlarda ishq mavzusining tasavvufiy, ijtimoiy va xalqona talqinlarini qiyosiy baholash;

Tadqiqot natijalari asosida har ikki asarning Sharq mumtoz adabiyoti va “Layli va Majnun” an’anasi taraqqiyotidagi ahamiyatini aniqlash.

**Tadqiqot usullari.** Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Qiyosiy-tahliliy metod – Alisher Navoiy va Muhammad Sharif Ojizning “Layli va Majnun” dostonlaridagi syujet, kompozitsiya, obrazlar tizimi hamda g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarni o‘zaro solishtirish uchun qo‘llanildi.

Tarixiy-adabiy metod – asarlarning yaratilish davri, adabiy manbalari va “Layli va Majnun” mavzusining Sharq adabiyotidagi taraqqiyotini o‘rganishda foydalanildi.

Matnshunoslik (tekstologik) metodi – dostonlarning matni va tarkibiy qismlarini tahlil qilish, kompozitsion qurilishidagi o‘ziga xos jihatlarni aniqlashda qo‘llanildi.

Tavsifiy metod – asarlardagi voqealar rivoji, qahramonlar xarakteri va badiiy vositalarni izohlash hamda tavsiflash uchun xizmat qildi.

Interpretatsion (talqin) metod – dostonlarda aks etgan ishq, tasavvuf, ma’naviy kamolot va insoniy qadriyatlar bilan bog‘liq g‘oyalarni sharhlashda qo‘llanildi.

Mazkur metodlar yordamida har ikki dostonning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, ularning Sharq mumtoz adabiyoti an’analari doirasidagi o‘rni va badiiy ahamiyati yoritildi.

**Natijalar va mulohaza:** Majnun arab amirlaridan birining tilab olgan o‘g‘li bo‘lib, ismi asli Qays. U chiroyli, esli-hushli bo‘lib o‘sadi. Lekin Qays tug‘ilishidayoq ishq uchun tug‘ilgan edi. Bu ishq maktabdayoq zohir bo‘ladi, saboqdoshi

Layliga bog‘lanib qoladi va bu kundan-kun kuchayib boradi. Laylining otasi buni eshitib nomus qiladi, qizini unga bermaydi.

Har ikki dostonda ham Qays va Laylining maktabda bir-birini sevib qolishi, jamiyat va ota-onalar tomonidan bu muhabbatning rad etilishi, Qaysning telbalik holatiga tushib “Majnun” nomini olishi, sahroga ketishi hamda fojeali yakun asosiy syujet chizig‘ini tashkil etadi.

Biroq dostonlar orasida muhim farqlar ham mavjud. Alisher Navoiy o‘z asarida tasavvufiy va falsafiy ma’nolarga katta e’tibor beradi. Dostonda ishq ikki ma’noda — zohiriy va botiniy tarzda talqin qilinadi. Zohiriy ma’no Layli va Majnun muhabbati bo‘lsa, botiniy ma’no ilohiy ishq va insonning ruhiy kamolotini anglatadi. Navoiy ishq orqali insoniylik, adolat, ayol erkinligi va ma’naviy poklik kabi masalalarni yoritadi.

Muhammad Sharif Ojiz talqinida esa voqealar ko‘proq xalqona va sarguzasht ruhida tasvirlanadi. Masalan, Majnunning Layli uyiga ko‘r yoki faqir qiyofasida kelishi, Navfalning Layliga oshiq bo‘lib qolishi va zaharli sharbat voqeasi kabi epizodlar dostonning dramatikligini oshiradi.

Ojiz dostonida syujet voqealari ancha sodda va ravon rivojlanadi. Asarda hissiyotlar ochiq va xalq tiliga yaqin uslubda ifodalanadi. Navoiy esa murakkab badiiy tasvirlar, falsafiy mushohadalar va ramziy ma’nolar orqali voqealarni chuqurlashtiradi. Shu sababli Navoiy dostoni nafaqat ishqiy qissa, balki yuksak falsafiy va ijtimoiy asar sifatida ham qadrlanadi.

Har ikki shoirning maqsadi ishq fojeasini tasvirlash bo‘lsa-da, ular bunga turlicha yondashganlar. Ojiz ko‘proq voqeabandlik va xalqona tasvirga urg‘u bergan bo‘lsa, Navoiy ishqni inson ruhiyatining oliy darajasi sifatida ko‘rsatgan.

«Layli va Majnun» Alisher Navoiy «Xamsa»sining uchinchi dostoni bo‘lib, 1484 yilda yozilgan. Dostonning kirish boblaridan birida Navoiy an’anani davom ettirib, bu mavzuda asar yozgan salaflariga chuqur hurmat-ehtiromini bildirib, ulardan farqli o‘laroq asarini turkiyda yozganini alohida ta’kidlaydi.

Navoiy Nizomiyning dostonini «qal’a»ga, Dehlaviynikini yaxshi bezakli «qasr»ga o‘xshatib, o‘zining dostonini esa «qal’a» va «qasr» atrofidagi shahar va bog‘larga qiyos etadi. Shoir o‘z asarini «Firoqnoma», «Nomai dard» deb ham ataydi[1].

1958-yilda Dr.Muhiyuddin Qodiriy Zo‘r tomonidan urducha qo‘lyozmalarning to‘rtinchi fihristi (katalogi) tuzilayotgan paytda dakhiniy shoirlari orasida Ojiz taxallusi bilan qalam tebratgan shoir Muhammad Sharif Ojizning “Layli va Majnun” masnaviysi qo‘lyozmasi topilgan.

Urdu tilida, aniqrog‘i dakhiniyda “Layli va Majnun” dostoniga masnaviy shaklida javob yozgan shoirlar orasida Muhammad Sharif Ojizning masnaviysi badiiy qimmati nuqtai nazaridan “Layli va Majnun” ning dakhiniydagi boshqa variantlari orasida alohida o‘rin tutadi.

[1]A. Hayitmetov. Navoiyning ijodiy metodi masalalari, T., 1963, 117-6.

Masnaviyning oxiridagi misralarda uning 1040(h.) yilda bitilgani yozilgan. Masnaviy xotimasidagi tarqimada quyidagilar bitilgan: “1040 hijriy shavvol oyining 8-sanasida shanba kuni Avrangobod shahrida yozib tugatildi”. Masnaviy quyidagi misra bilan boshlanadi:

Xudoning nomi ila qildim ibtido,
Tilga olganlarimga bo‘lsin jon fido.

Oxirgi misra esa :

Ming va qirqda hijrat qilgan yil
Qalamga oldim Layli Majnun qissasin.

Bizgacha yetib kelgan “Layli va Majnun” dostonining o‘zida mavjud shoir haqidagi bir-ikki misralardan Movlaviy Nasiruddin Hoshimiy va dr. Zo‘r quyidagilarni aniqlaganlar:

مدد پاک پنجتن و بار امام مدد پیر میراں منزہ مقام

“پیر میراں” (pir Miron ) deyishdan murod – Ojiz o‘z piriga ishora qilyapti. Shunga asoslanib, Nasiruddin Hoshimiy bu asarni 1040 (h.) da yozilgan deb hisoblaydi va quyidagilarni yozadi:” Dekanda shoh Mironjiy nomi bilan uch shoir yashab o‘tgan, biri – shoh Aminuddin A’loning mashhur xalifasi shoh Miron bo‘lib, 1125 (h.) da Haydarobodda vafot etgan. Ikkinchisi – Bijopurda yashab ijod qilgan shoh Mirohjiy Shams-ul ushshoq, uchinchisi – sulton Muhammad Quli Qutubshoh davrida Haydarobodga kelib, shu yerda muqim bo‘lgan Sayyad Miron Husayniydir. U 1049 (h.) da vafot etgan”[1]. Uning ta’kidlashicha, Ojiz masnaviyni 1040 (h.) da yozgan, chunonchi ayni shu Sayyad Miron Husayniyni Ojiz o‘z asarida tilga olgan.

Dr. Zo‘r ham Ojizning mazkur baytini quyidagicha izohlaydi: “Shoir tilga olgan piri Miron bijopurlik mashhur shoir Mironjiy Shams-ul ushshoq bo‘lib, u shoh Burhoniddin Janamning otasi, dakhiniy so‘fiy adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan shoir, uning nabirasi shoh Aminuddin A’lo ham qator kitoblar muallifidir”[2].

“Piri Miron” deyishdan murod yana hazrat Abdulqodir Giloniyga ishora bo‘lishi ham mumkin. Dakhiniy shoirlari ko‘pincha o‘z asarida hamdu na’tdan keyin juda katta ehtirom ila hazrat Abdulqodir Giloniy nomini “Piri Miron” deya tilga oladi, bayt quyidagicha:

مدد پاک پنجتن و بار امام مدد پیر میراں، محی الدین نام

---

[1] نصیر الدین ہاشمی دکن میں اردو لکھنو ۱۹۶۳ ، ص ۱۱۱ Bu zot ko‘proq Shoh Abdal nomi bilan mashhur, sulton Muhammad Quli davrida Haydarobodga keladi va Golkonda qal’asiga yaqin masjidda umrguzaronlik qiladi. Rivoyatlarga ko‘ra, uning ba’zi karomatlaridan ta’sirlangan Istiqlol Xon unga murid tushadi. Pirining ko‘rsatmasiga binoan Haydarobod (Malikapur) da muqim qoladi, 1049 yilda vafot etadi. Mozori Golkonda qal’asiga yaqin Langar Hovuz bo‘yida joylashgan. Nasabi hazrat Abdulqodir Giloniyga borib taqaladi.

[2] تذکرہ مخطوطات ادارہ ادبیات اردو، جلد چہارم، ص ۱۱۳

*Pok panjatan*[1] *va 12 imom,*
*Muhiyuddin nomli piri Mirondan madad olurman.*

( د) harfi ostida berilgan nusxada esa ayni shu misra quyidagicha:

مدد پیر میراں ہے مجھ پر مدام

*Pirim Mironning ko‘magi hamisha men bilan.*

Sharq mumtoz adabiyotidagi aniq an’anaga ko‘ra har qanday asar Xudoning madhi— hamd, undan iltijo — munojot, Muhammad Payg‘ambar ta’rifi — na’t kabi maxsus boblar bilan boshlanadi. Hazrat Navoiy va M.Sh.Ojizning masnaviysi ham an’anaviy boblar bilan boshlanadi. Ikkala shoir «Layli va Majnun» dostonining birinchi bobini shu an’anaga muvofiq Xudo madhiga bag‘ishlaganlar. Bunda shoirlar olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, yil fasllari va ulardagi tabiatning o’ziga xos jilolari, insonning tabiat ichida yaratilishi, yo’qdan bor, bordan yo’q bo’lishi – bularning hammasi Allohning beqiyos qudrati va ulug‘ligining ifodasi ekanini ta’kidlab, unga hamdu sanolar o’qiydi.

Navoiy bobda g‘oyat ustalik bilan Allohning yerdagi tajallisi tasvirini ushbu yozilayotgan dostoni g‘oyasi bilan bog‘liq holda bayon qiladi. Yaratuvchining har yerdagi tajallisi jahonda Layli bo’lib ko’rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilishdan iboratdir:

Ey har sorikim, qilib tajalli,
Ul mazhar o’lub jahonda Layli.
Ey oniki Layli aylab otin,
Majnun qilmoq qilib sifotin.

Navoiyning dostoni 3623 байтдан иборат, Ojizning dostoni esa 649 baytni o‘z ichiga oladi. Bunda Navoiy dostoni 38 bobdan iborat bo‘lib, shundan muqaddima 9 bobni o’z ichiga oladi. 1-bob 75 baytdan iborat hamdni o‘z ichiga olsa, Ojizning dostoni yetti bobga bo‘lingan bo‘lib, har bir bobning fors tilida yozilgan qisqacha izohi mavjud. Uning dostonidagi hamd 14 baytdan iborat.

Navoiy dostonining 2-bobi munojotni o’z ichiga oladi. Mazkur bobda Navoiy Allohga murojaat qilib, uni borliqni yaratgan yagona va oliy zot deb deb ataydi va o’z gunohlarini, xatolarini kechirishni iltijo qiladi. Shoir dostonni yozishga kirishar ekan, Xudodan o’ziga madad va ko’mak so’raydi:

Yo Rab, eshigingda ul gadomen, Kim, boshtin ayoqqacha xatomen.

M.Sharif Ojizning dostonida hamddan so‘ng na’t boshlanadi.

Navoiy dostonning 3-bobini Muhammad payg‘ambar (s.a.v) madhiga bag‘ishlagan bo‘lib, u 50 baytdan iborat. Ojiz dostonida na’t 40 baytlikdir.

[1] پنجتن پاک — shia tarafdorlari faqat 5 kishini — Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam, ul zotning jiyanlari va kuyovlari, jannat bashorati berilgan o‘n kishining biri Hazrat Ali roziyallohu anhu, ularning jufti haloli, payg‘ambar alayhissalomning qizlari Fotima va farzandlari Hasan va Husaynni tan oladilar.

Navoiy 100 baytdan iborat 4-bobni Me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlagan, Ojizda bu kuzatilmaydi.

Navoiy dostonida 10- bobdan dostonning asosiy qismi boshlanadi.

Navoiyning «Layli va Majnun»ida ruhiyat tasviriga alohida urg‘u berilgani bois voqea haybatli tun taviri bilan boshlanadi. Unda ikki yoshning dardga to‘la ishq-muhabbati haqida so‘z boradi. Bahor faslida sevishib qolgan ikki pok qalb egasi tabiat so‘lg‘in tus olgan kuz faslida halok bo‘ladi.

Navoiy dostonidagi Ka’ba ziyorati lavhasi Ojizning dostonidan joy olmagan. “Tasavvuf” kitobida keltirilishicha, Ka’ba ziyorati lavhasi, tasavvuf ahlining har qanday suratlar, timsollarga sig‘inishni inkor etishlariga ishoradir, ya’ni, Ilohning o’ziga oshiq bo’lgan, faqat uni deb yongan kishiga bu ishlar ortiqchadir. Qaysning otasi o‘g‘lini Ka’ba ziyoratiga olib boradi. Ollohdan ishqdan xalos etishini tilamoqchi bo‘ladi. Qays esa, «kam bo‘lsa, ko‘p qil» deb iltijo qiladi. Ota umidlari uzilib, o‘g‘lini olib qaytadi. Qays Majnunga aylanib, sahrolarga bosh olib ketadi. Hayvonlar orasida panoh topadi.

Muhammad Sharif Ojiz dostonida bundan farqli o‘laroq Qaysning otasi shaharda bir dono inson yashashi haqida eshitib, odamlar uni muammolarni hal qiluvchi, ziyrak va ma’rifatli kishi deb bilgani uchun uning huzuriga boradi va uning bir yosh, chiroyli va yaxshi xulqli o‘g‘li ishq dardiga mubtalo bo‘lib qolganini aytadi.

Ota shu donishmanddan yordam so‘rab: Biror chora qilingki, u zor-zor yig‘lashni bas qilsin, — deydi.

Donishmand esa unga maslahat berib, Laylining otasi huzuriga borib, niyatini ochiq aytishni buyuradi.

Majnunning otasining ahvolini ko‘rgan qabila ahli ham unga hamdard bo‘lib, birgalikda Najad tomon yo‘l oladilar.

Laylining otasi bu xabarni eshitib juda xursand bo‘ldi va kelgan mehmonlarni katta hurmat bilan kutib oladi. Shunda Majnunning otasi uni Layliga uylantirmoqchi ekanini ochiq-oydin aytadi.

Bunga javoban Laylining otasi:

— Qaysning aqli-hushi o‘zida emas. Kim u bilan bir soat o‘tirsa, o‘zi ham telbaga aylanadi, deb eshitdim, deya javob beradi. Agar Laylini Majnunga bersam, odamlarning malomatidan yashay olmayman, — deydi. Bu qaror Qaysning otasi qalbini qattiq ranjitadi.

Navoiy dostoniga ko‘ra Majnunning otasi o’g‘lini uyga qaytarib olib keladi va u yana sahroga chiqib ketadi. Sahroda u ovga chiqqan lashkarboshi Navfalni ko’rib qoladi. Navfal ham bir vaqtlar ishq dardiga uchragani uchun Majnunning qalbini tushunadi, unga rahmi keladi:

Navfal dag‘i ishq ko’rgan edi,
G‘am dashti aro yugurgan erdi.

Navfal ishq dardidan xabardor bo’lsa-da, lekin Majnun darajasiga ko’tarila olmagan, uning sulukdagi maqomi ma’lum bir bosqichga yetgandan keyin to’xtab qolganligini ko’ramiz. Shu sababli u Majnunni Layliga uylantirish bilan uning dardiga malham topish mumkin deb o’ylayli va Layliga sovchi yuboradi. Lekin Laylining otasi rozi bo’lmagach, urush ochadi. Laylining otasi urushda yengilishini sezib, qizini o’ldirishga qasd qiladi. Bu holat Majnunga tush orqali ayon bo’lgach, Navfaldan urushni to’xtashini so’raydi. Navfal Majnun uchun yana bir chora vositasi sifatida o’z qizini Majnunga berishga qaror qiladi. Laylini esa Bani Asad qabilasining boshlig‘i Ibn Salomga unashtiradilar. Navfalning qizi boshqa insonni sevishini aytib, Majnunga aka-singil bo’lishni taklif qiladi. Ibn Salomning esa quyanchiq (tutqanoq) kasali qo’zg‘ab, behush yiqiladi. Layli va Majnun ishq dashtida uchrashadilar.

Tasodif bilan ushbu voqeaning ustidan chiqqan jo‘mard Navfal unga yordam qilmoqchi bo‘ladi, o‘rtaga tushadi. Laylining otasi ko‘nmagach, qizni Qaysga zo‘rlik bilan olib bermoqni o‘ylaydi. Layli boshiga o‘lim xavfi tushadi. Majnun bundan tushi orqali ogoh bo‘ladi. Urushni to‘xtatadi. Navfal uni oz qiziga uylab qo‘yadi. Biroq Majnun o‘sha to‘y kechasiyoq Laylini qo‘msab, sahroga chiqib ketadi. O‘sha kuni soxta oshiq — lbn Salomga nikoh qilingan Layli bilan sahroda uchrashadi... Xullas, asar har ikkovlarining o‘limi bilan yakun topadi.

Asar xotimasida quyidagi baytlar keltirilgan:

Ya’ni bu sifat Firoqnoma,
Bo‘ldi manga qatrarez хоти.
So‘gin nechakim uzottim oxir,
Yig‘lay-yig‘lay tugottim oxir.

Asarning so‘ngida «Ishq ta’rifida» degan maxsus bob bor. Shoir unda Layli va Majnun taqdiriga uyg‘unlashgan mazmunni sharhlaydi. Ishqni misni oltinga aylantiruvchi kimyoga va jahonni yoritguvchi oynaga o‘xshatadi.

Layli bu dunyodan ketish fursati yaqinlashganini sezib, onasiga Majnun kelsa, uni huzuriga kiritishlarini vasiyat qiladi. Majnun Laylining bu dunyodan ketayotganini ilohiy bir kuch bilan sezib, uning qabilasi tomon keladi:

Yuz urdi qabila sori xoli,
Og‘zida tarannumi visoli.

Shu tariqa umr bo’yi bir-birining ishqida kuygan, visoliga intilganlar Ruhi mutlaq tomon ravona bo’ladilar.

Sharq mumtoz adabiyotida, xususan Alisher Navoiy va Muhammad Sharif Ojiz dostonlarida ilgari surilgan gumanistik va falsafiy g‘oyalar zamonaviy ta’lim tizimida yoshlarning emotsional va ma’naviy intellektini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Asarlardagi yuksak insoniylik, sabr-toqat va komillikka intilish tamoyillari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri bo‘lgan Sifatli ta’lim dasturi, xususan uning Global fuqarolik, gumanizm va madaniy xilma-xillikni anglash bo‘yicha ta’lim vazifalari bilan uzviy bog‘lanadi. Ikki xil til va

adabiy muhitda (turkiy va dakhiniy) yaratilgan bir syujet tahlili o‘quvchilarda madaniyatlararo bag‘rikenglik va hamjihatlik tuyg‘ularini shakllantirishga hamda Tinchlik, adolat va kuchli institutlar tamoyillarini qaror toptirishga zamin yaratadi.

**Xulosa.** Hazrat Alisher Navoiy va Muhammad Sharif Ojiz qalamiga mansub “Layli va Majnun” dostonlarini qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, har ikki asar Sharq mumtoz adabiyotining yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Ular bir xil syujet manbaiga tayangan bo‘lib, Qays va Laylining fojeali muhabbati, jamiyat va an’analar bilan to‘qnashuvi, Majnunning ishq yo‘lida ruhiy va ma’naviy o‘zgarishi kabi voqealarni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan dostonlar o‘rtasida syujet asoslari va bosh qahramonlar tizimi jihatidan yaqinlik kuzatiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Alisher Navoiy va Muhammad Sharif Ojiz mazkur syujetni turli badiiy maqsadlar asosida talqin qilganlar. Navoiy dostonida ishq nafaqat ikki yoshning o‘zaro muhabbati, balki ilohiy haqiqatga yetishish vositasi sifatida ham talqin etiladi. Asarda tasavvufiy qarashlar, falsafiy mushohadalar, insonning ma’naviy kamoloti, ruhiy poklanish va ilohiy ishq g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. Shu sababli Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni oddiy ishqiy qissa doirasidan chiqib, chuqur falsafiy va ijtimoiy mazmun kasb etgan yirik badiiy asarga aylangan.

Muhammad Sharif Ojiz dostonida esa voqealar rivojiga, sarguzasht va dramatik holatlarga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Asar xalqona ruh, sodda va ravon bayon uslubi bilan ajralib turadi. Muallif ayrim voqealarni o‘ziga xos tarzda talqin qilib, syujetni yangi epizodlar bilan boyitgan. Natijada doston keng kitobxonlar ommasiga tushunarli va ta’sirchan shaklda yaratilgan.

Kompozitsion jihatdan ham asarlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Navoiy dostoni hajman kattaroq bo‘lib, hamd, munojot, na’t, me’roj tasviri kabi an’anaviy kirish qismlari va keng falsafiy chekinishlar bilan boyitilgan. Ojiz dostoni esa ixchamroq tuzilishga ega bo‘lib, voqealar izchil va sodda tarzda bayon etiladi.

Umuman olganda, har ikki doston “Layli va Majnun” an’anasining turli adabiy muhit va estetik qarashlar asosida qayta talqin qilingan yorqin namunalaridir. Navoiy asari tasavvufiy-falsafiy chuqurligi bilan, Ojiz dostoni esa xalqona ifoda va voqeabandligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning qiyosiy tahlili Sharq adabiyotidagi adabiy an’analar davomiyligi, milliy adabiyotlararo aloqalar hamda bir syujetning turli davr va muhitlarda qanday badiiy talqin qilinishini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Alisher Navoiy asari tasavvufiy-falsafiy chuqurligi bilan, Muhammad Sharif Ojiz dostoni esa xalqona ifoda va voqeabandligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning qiyosiy tahlili Sharq adabiyotidagi adabiy an’analar davomiyligi hamda milliy adabiyotlararo aloqalarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri bo‘lgan Sifatli ta’lim tamoyillari doirasida oliy ta’lim muassasalarida mumtoz va

xalqaro adabiy aloqalarni o‘qitish sifatini oshirishga, bo‘lajak sharqshunos va filologlarning ma’naviy-ma’rifiy hamda madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga amaliy hissa qo‘shadi.

***MAKTUBA MURTAZAXODJAYEVA***
*Katta o‘qituvchi, TDSHU*
*ORCID ID: 0000-0002-8550-5512*

# Chinnappa Bharatining “Pavlayi” romanida ayol taqdiri va ijtimoiy tengsizlik masalalari

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada tamil yozuvchisi K.Chinnappa Bharatining “Pavlayi” romanida ayol obraziniing ijtimoiy va ruhiy qiyofasi tahlil qilinadi. Asardagi Pavlayi va Tankamma obrazlari misolida hind jamiyatida xotin-qizlar huquqlarining poymol qilinishi, kastachilik, beva ayolga nisbatan munosabat hamda jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlar yoritib berilgan. Muallif romanni realistik va tanqidiy ruhda tahlil qilish orqali ayol taqdirining ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq ekanini asoslab beradi.*

*Chinnappa Bharatining “Pavlayi” romanida ayol obrazi orqali tamil jamiyatidagi gender tengsizlik badiiy vositalar yordamida batafsil ifodalanishi va bu holat XX asr hind adabiyotidagi umumiy gender diskursi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatish mazkur maqolaning asosiy maqsadidir.*

***Kalit so‘zlar:*** *Pavlayi, Tankamma, ayol taqdiri, kastachilik, tamil adabiyoti, realizm, xotin-qizlar huquqi*

***Аннотация.*** *В данной стате анализируется социально-психологическое изображение женских образов в романе тамильского писателя К. Чиннаппы Бхарати «Павлаи». На примере образов Павлаи и Тангаммы раскрываются проблемы нарушения прав женщин в индийском обществе, кастовой дискриминатсии, отношения к вдовам, а также конфликта между обществом и личностю. Рассматривая роман с позиций реализма и критического анализа, автор показывает, что судьба женщины тесно связана с соыиалными факторами. Основная цель статьи — продемонстрировать, как гендерное неравенство в тамильском обществе художественно отражается через женский образ в произведении Чиннаппы Бхарати «Павлаи», а также установит его тесную связь с более широким гендерным дискурсом в индийской литературе XX века.*

***Ключевые слова:*** *Павлаи, Тангамма, женская судьба, кастовая система, тамильская литература, реализм, права женщин.*

***Abstract.*** *This article analyzes the social and psychological portrayal of female characters in the Tamil writer K.Chinnappa Bharati’s novel Pavlai. Through the images of Pavlai and Thangamma, the work highlights the violation of women’s rights in Indian society, caste discrimination, attitudes toward widows, and the conflicts between society and the*

*individual. By examining the novel from a realist and critical perspective, the author demonstrates that a women's fate is closely intertwined with social factors. The main objective of this article is to show how gender inequality in Tamil society is artistically represented through the female image in Chinnappa Bharati's Pavlai, and to establish its close connection with the broader gender discourse in twentieth-century Indian literature.*

***Keywords:*** *Pavlayi, Tankamma, women's destiny, caste system, Tamil literature, realizm, women's rights*

**Kirish.** Hind adabiyotida ayol taqdiri, ijtimoiy tengsizlik va an'anaviy jamiyat qonunlarining inson hayotiga ta'siri masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Tamil yozuvchisi Chinnappa Bharatining "Pavlayi" romanida ushbu muammolar ayol ruhiyati va jamiyat bosimi o'rtasidagi ziddiyat asosida yoritiladi. Asarda muhabbat, majburiy nikoh, beva ayolning jamiyatdagi o'rni, kastachilik va gender tengsizligi kabi masalalar badiiy tahlil qilinadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, ayolning shaxsiy tanlov huquqi, uning ijtimoiy mavqei va qadr-qimmatiga munosabat bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Romanda Pavlayi va Tankamma obrazlari orqali ikki ayolning ikki xil taqdiri — isyon va bo'ysunuv yo'li qarama-qarshi qo'yiladi.

Shu nuqtai nazardan quyidagi ilmiy savol tug'iladi: yozuvchi ayol obrazlari orqali an'anaviy jamiyat qonunlariga qanday munosabat bildirgan va ayolning shaxsiy erki hamda ijtimoiy mas'uliyati o'rtasidagi ziddiyatni qanday badiiy yechimga olib chiqqan? Tadqiqotning ilmiy yangiligi mana shu masalani qiyosiy-psixologik tahlil asosida yoritishda namoyon bo'ladi.

**Maqsad va vazifalar:**

Maqolaning asosiy maqsadi – Chinnappa Bharatining "Pavlayi" romanida ayol obrazlarining badiiy talqinini tahlil qilish, ular orqali jamiyatdagi gender tengsizligi, kastachilik va an'anaviy qarashlarning inson taqdiriga ta'sirini ochib berishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- romandagi Pavlayi, Tankamma va ona obrazlarini qiyosiy tahlil qilish;
- ayolning shaxsiy erki va jamiyat qonunlari o'rtasidagi ziddiyatni aniqlash;
- beva ayol va majburiy nikoh muammosining badiiy ifodasini yoritish;
- asardagi ijtimoiy tanqid va muallif pozitsiyasini tahlil qilish;
- ayol obrazlarining ruhiy-psixologik qirralarini ochib berish.

Maqolaning mazmun-mohiyati mana shu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda tizimli ravishda tahlil qilinib, ayol taqdiri masalasi ijtimoiy-falsafiy hamda badiiy nuqtai nazardan yoritiladi.

**Tadqiqot usullari**

Mazkur maqolada qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda bir qator ilmiy-tahliliy usullardan foydalanildi. Avvalo, badiiy tahlil usuli orqali Chinnappa Bharatining "Pavlayi" romanidagi ayol obrazlari, ularning xarakter xususiyatlari va ruhiy kechinmalari matn asosida izchil o'rganildi.

Qiyosiy-tahlil usuli yordamida Pavlayi, Tankamma va ona obrazlari o‘zaro solishtirilib, ularning jamiyat qonunlariga munosabati, ichki ziddiyatlari va hayotiy pozitsiyasi aniqlandi. Shu bilan birga, ijtimoiy-tipologik tahlil orqali asardagi kastachilik, gender tengsizligi va beva ayol taqdiri kabi muammolar muayyan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda talqin etildi.

Psixologik tahlil usuli vositasida qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va qaror qabul qilish jarayoni chuqur o‘rganildi. Matnshunoslik (germenevtik) yondashuv asosida esa asar mazmuni, ramziy ifodalar va muallif pozitsiyasi tahlil qilinib, badiiy g‘oyaning ichki qatlamlari ochib berildi.

Shu tariqa tadqiqotda kompleks yondashuv qo‘llanilib, asar mazmuni badiiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan tizimli ravishda tahlil etildi.

**Natija va mulohazalar.** Chinnappa Bharati romanlarida asosan ijtimoiy masalalar ko‘tarilgan, bular orasida “Pavlayi” romani alohida o‘rin tutadi. Romanda adib ishchilar hayoti masalasidan chiqib, beva ayolning muhabbat mavzusiga yuzlanadi. Asarda adib o‘ziga xos sevgi hikoyasini, ya’ni o‘z huquqlariga ega bo‘lmagan ayol sevgini tasvirlashga harakat qilgan. “Pavlayi” romanida asosan uchta ayol obrazi bor, ular Pavlayi, Pavlayining onasi va Tankamma. Romandagi Pavlayi o‘z sevgan yigitiga emas, boshqa insonga turmushga chiqqan ayol sifatida tasvirlangan. Yosh qizning benikoh homilasini onasi dori berib tushirib, boshqa qishloqda yashovchi yetim bolaga, ya’ni Periyannanga turmushga beradi. Pavlayi umr yo‘ldoshi bilan 10 yil birga yashab, dalada birga mehnat qilib, farzandlik bo‘ladi. Ammo, bu ayol sobiq oshig‘ini unuta olmaydi. Uning betobligidan boxabar bo‘lgan Pavlayi erini tashlab, uning yoniga ketadi. Pavlayi ketganidan so‘ng umr yo‘ldoshining hayotiga past tabaqadan bo‘lgan Tankamma ismli ayol kirib keladi. Bu esa asarda hind jamiyatiga xos bo‘lgan yuqori va quyi tabaqa o‘rtasidagi ziddiyatlarning keskin tus olishiga turtki bo‘ladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, yozuvchi bu romanida ikki ayolni bir maydonga qo‘yadi, ya’ni taqdir zanjirini uza oladigan, kerak paytida o‘zida shijoat topa oladigan, jamiyatning adolatsiz qonunlarini buzishga o‘zida kuch topa oladigan ayol – Pavlayini bir tomonga qo‘ysa, ikkinchi tomonga Pavlayiga zid xarakter egasi bo‘lgan Tankammani qo‘yadi. Yozuvchi Tankammani Pavlayining aksi, ya’ni o‘z baxti uchun kurasha olmaydigan, orzulari uchun, onalik baxti uchun ham kurasha olmaydigan, jamiyatdagi nohaqliklarga bosh egib ko‘nikib ketuvchi ayol sifatida tasvirlaydi.

Romanning bosh qahramoni Pavlayi o‘zi xohlamagan yigitga turmushga chiqishi oqibatida uzoq yillar o‘z sevgisini yurak tubida yashirib yashashga majbur bo‘lgan edi. Qizning turmushga chiqishida undan rozilik olinmaganligi, benikoh homilasini ra’yiga qarshi nobud qilib, uni uyga qamab qo‘yilishini xotin-qizlar huquqlari poymol bo‘lishi va ushbu holat Pavlayining ichki ziddiyatlarini kuchayishiga sabab bo‘lganligini kuzatish mumkin:

*Endi Pavlayi “uy” deb atalmish qoziqqa bog‘lab qo‘yilgandi. Echkilar, o‘rmon, bog‘lar, ekinzor, dalalar – hammasi endi unga begona edi. Bo‘yi yetgan qiz bolaning*

*nomusini saqlash uchun uni to‘rt devor ichida saqlay boshladilar. To‘ydan so‘ng ota uyini tark etadigan qiz uch-to‘rt kun erkin bo‘lishi uchun bundan yaxshi bahona bormi?! Shu orada unga yigit topilgani xususida gap yurib qoldi. Yigitning uyidagilari qizni ko‘rgani kelishdi. Ikki yosh bir-birini ko‘rmadi. Masala ikkala tomon keksalari o‘rtasida hal bo‘ldi. Ikkala tomonning ham fikri bir joydan chiqdi. Bunaqa ishni pishirishga, yoshlarning boshini qovushtirishga mana shu qariyalar o‘zlarini haqli va burchli deb biladilar. Bu avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan bir an’ana bo‘lib, asrlardan buyon davom etib kelar edi. An’ana tevaragida mayda-chuyda voqealar kechib turishi tabiiy bo‘lib, aytarli katta ahamiyat kasb etmasdi. Barchasi ana shu an’analarga xizmat qilar edi. Zero, rasm-rusumlaru diniy urf-odatlar shunday ta’sir o‘tkazar ediki, ulardan faqat kimsasiz, inson ovozi yetmaydigan joylarga qochib qutulish mumkin edi, xolos. Binobarin, Pavlayidan nimani xohlaysan, nima istaging bor deb so‘rab o‘tirish shart emasdi. Buva-buvisining birdan-bir istagi shu ediki, bu qizga ota-onasiz, aka-opasiz, kuyovbop bir yolg‘iz yigit bo‘lsa. Ular xohlagandek bir yigit topildi-yu, murodlariga yetishdi-qo‘yishdi.*[1]

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, jamiyatda qizlar va ayollarning o‘z jufti haloli, o‘z hayot yo‘lini tanlashida hech qanday imkoni yo‘qligini yozuvchi ishonarli misralar bilan ochib bergan. Fikrlarning hayotga yaqinligi o‘quvchini real hayotga yetaklaydi. Bunday holat nafaqat tamil jamiyatida, balki boshqa sharq mamlakatlari hayotida ham mavjudligi ayni haqiqat.

Realizm unsurlari bilan yo‘g‘rilgan ushbu romanda adolatsizlik, kastachilik, tengsizlik kabi ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda yuqorida atilga olingan uch ayol bilan bog‘liq hayotiy voqealar orqali kuzatish mumkin. Ushbu obrazlar orqali muallif tamil jamiyatidagi ayollarning ruhiy kechinmalarini ifodalaydi. Adib Pavlayining ona obrazi orqali har bir jamiyatda onaning fikri, azobi, dardi va orzu-havasi bir xil ekanligini mujassam etadi. Nima bo‘lganda ham u ona, farzandining baxtli bo‘lishini istaydi. Pavlayining onasi qizining mushkul ahvolidan tushkunlikka tushib qoladi, qismatning ayanchli sinovi uni ham imtihon qilayotgandek bo‘ladi:

*Peshonasiga yozilganni ayol sho‘rlik qanday o‘zgartira olsin? Unday onaning yuragidagi dard tog‘dek yuk bo‘lib bosib turadi. Qiziga gumon ko‘zi bilan qaragan ona iymonidan ayiriladi. Mehr bilan to‘lib-toshgan yurakni dahshatli yong‘in chulg‘aydi. Sho‘rlik ona ikki o‘t orasida qoladi: “Bu qizni nima qilay? O‘ldiraymi? Biron kimsasiz joyga olib borib tashlaymi? Gumonasini yo‘qotaymi?”*[2]

Ona o‘z qizining taqdiri masalasini o‘ylayverib o‘zi ham tushkunlikka tushib qolganligini adib savollarni ketma-ket berish orqali ochib beradi. Bu holat jumlalarning va ular ortiga yashiringan fikrning ta’sir doirasini kuchaytiradi. Chinnappa Bharati ikki ayol yuzlashuvida Pavlayi obrazini kuchli ekanligini ifodalaydi. Onabola suhbati har ikki tomon uchun ham og‘riqli, Pavlayi ichidagi g‘alayonni sirtiga

[1] “Jahon adabiyoti” jurnali, 2015 yil, 1-soni, 59-bet
[2] O‘sha manbaa, 59-bet

chiqarishga, onasining fikrlariga qarshi isyon ko‘tarishga o‘zida kuch topadi. Bu o‘rinda xotin-qizlarning ra’yi, istagi aslida, jamiyatda muhim emasligini, biroq Pavlayining isyonkor xatti harakatlari va so‘zlari uning o‘z davri ayollariga nisabatan kuchli iroda egasi ekanligini ko‘rish mumkin:

*Odamlarga bildirmay homilamni yo‘q qildingiz. Endi his-tuyg‘ularimning, sevgimning boshiga yetmoqchi bo‘layapsiz. Bular tanadan ajraladigan narsa bo‘lganday-ku, shu zahoti tagi bilan yulib tashlar edim. Afsuski, bu unday emas. Uni o‘yladim deguncha tomirimdagi qon gupiradi, ko‘zlarimni yumgan zahoti uning qiyofasini ko‘raman. Uni ko‘rsam, majruh yuragim sirqib og‘riy boshlaydi. Homilamdan, o‘sha go‘dakdan ajralganimda, unga qo‘shib meni ham o‘ldirib qo‘ya qolishmasmidi? Yoshligingizda siz hech kimni sevmaganmisiz? Yoki qalbingizda o‘sha muhabbatning xotiralarini bo‘g‘ib o‘ldirgansiz-u, endi menga ham shunday qil deb aql o‘rgatyapsizmi?*

*Onasining ko‘ksiga boshini qo‘yib, u nafasi tiqilguncha ho‘ngrab yig‘ladi. Onaning dilidagi o‘t-alanga ko‘ksiga qo‘yilgan boshning og‘irligidan sal bosilganday bo‘ldi, tomirlari titrab ketdi. Tangri ayollarning taqdirini nega bunday yaratdi ekan? U o‘zicha allanimalar deb g‘uldiradi.* [1]

Pavlayi to‘yidan so‘ng qizlik uyiga kelganida ona sezadiki, qizining sevgisi so‘nmagan, kul bosgan cho‘g‘dek ko‘rinib turibdi. Uchqun chiqsa, qizining hayoti barbod bo‘lishidan xavotirga tushgan mushtipar ona qizini yo‘lga solishni o‘z burchi va vazifasi deb bilib, Pavlayiga nasihat qiladi. Uning bu so‘zlaridan jamiyatdagi ayollarning mavqeini bilish qiyin emas:

*“Qizim Pavlayi! Suv qaerda oqsa, o‘sha yerga qarab rangini ham o‘zgartiradi. Ayol kishining hayoti ham shunday. Ayolning niyati erining niyati bilan bir xil bo‘lishi kerak. Suvning o‘zi bo‘lsa hech nima bo‘lmaydi, biroq tuproqqa qo‘shilsa, undan har xil o‘t-o‘lan o‘sib chiqadi. Shu tariqa erning ra’yiga qaramagan ayol ham baxtli bo‘la olmaydi. Eski gaplarni qo‘y, sevgini unut. Ayol kishining hayotida unga tegishli hech narsa bo‘lmaydi. Ko‘nglidagini ayta olmaydi, o‘z xoxshicha yashay olmaydi. Yuragingni o‘ldirib, orzularingni o‘tda yoqib, barcha dard va hasratlaringni ichingga yutib yashasang, marra seniki, zero ayolning qismati – shu!”* [2]

Sharq ayollariga xos bo‘lgan oilaga moslashish tamil ayollarida ham mavjud. Pavlayi onasining obrazi orqali Chinnappa Bharati moslashuvchan, egiluvchan va qayishuvchanlik onani o‘z qiziga berayotgan nasihatlarida ko‘rish mumkin. Onaning topib-topib aytgan bu gaplariga javoban Pavlayida kechgan kechinmalar, gaplardan ayollarning taqdiri azaldan poymol qilinib kelinganligini adib quyidagi misralarga muhrlagan. Qiz ichidagi g‘alayonni jilovlay olmadi, u qanchalik o‘zini bosmasin ichki kechinmalar isyon ko‘tardi. Bu o‘rinda ham pishib yetilayotgan isyonkor Pavlayining ichki ziddiyatlarini, fikrlarining o‘sishini ko‘zatish mumkin:

[1] “Jahon adabiyoti” jurnali, 2015 yil, 1-soni, 62-bet
[2] O‘sha manbaa, 61-bet

*“Oʻu, siz ham qachondir qiz bola boʻlgansiz, oʻshanda yoshlikdagi qiziqqonlik va muhabbat olovida yonib, kul boʻlgan boʻlsangiz kerak. Ehtimol, siz hech kimni sevmagansiz, shuning uchun ham sevishganlar yuragini tushunmassiz? Toʻy va bola-chaqa boʻlsa, hammasi iziga tushib ketadi, deb oʻylaysiz. Buni qanday tushunish mumkin, ona?! Mening muhabbatim faqat bola-chaqa qilish uchun, deb oʻylaysiz-mi? Boshqa bolani oʻz jigaringizdan boʻlgan boladek seva olasizmi? Birinchi muhabbat, bu muhabbatdagi kuyib-yonishlar – bularni butunlay oʻchirib tashlash mumkinmi? Agar shunday qilish mumkin boʻlsa, u muhabbat emas, ikki tananing bir-biridan jismoniy qoniqishi boʻlur edi, unda muhabbatdan nom-nishon boʻlmasdi. Nikoh iplari bilan meni bogʻladingiz ham deylik, lekin yuragimni qay zanjir bilan bogʻlaysiz?”*[1]

Kutilmaganda Pavlayining javobidan onaning boshiga musht tushgandek boʻldi. Biroq, ona vaziyatni qoʻldan boy bermay, hayotda pastu balandni koʻrgan kanvoyilar-dek fikr yuritdi:

*Nikohdan oʻtib, kelin boʻlgan qizning miyasida bunday oʻylarga balo bormi? Butun qishloqni guvoh qilib, bir yigit bir qizning boʻyniga nikoh tumorini taqqach, qiz unga xasmi halol boʻladi, yaʼni bir umr oʻsha nikohning hurmatini joyiga qoʻyadi – bu jamiyatning oʻzgarmas qonuni. Tosh boʻlsin, togʻ boʻlsin – oʻsha yigit unga er boʻladi, taqdiri azal ayolning qismatini shunday bitgan. Bu qonunni buzishga qaysi bir qizning haddi sigʻadi? Bunaqasi hali boʻlmagan. Ona Pavlayiga yotigʻi bilan tushuntirishga urindi:*

*–Qizim, bunaqa dema. Bu dunyoda qanchadan-qancha ayollarning taqdiri shun-day boʻlgan. Mana, ularning hammasi yashayapti-ku! Erini tashlab, avvalgi oshigʻi bilan qochib ketibdi, degan gapni eshitmaganman ham, koʻrmaganman ham.* [2]

Onaning quyidagi javobi jamiyatda turmush oʻrtogʻidan ajragan ayolga boʻlgan munosabatni qisqa va loʻnda, biroq qochirim bilan ifodalash Chinnappa Bharatiga xos uslubdir. Bu uslub bizga hind yozuvchilaridan Yashpal va Premchandni eslatsa, oʻzbeklarning Abdulla Qahhori mazkur adiblarga ustozlik qilgandek tuyuladi:

*Sari*[3] *ning rangi oʻchsa xaridor topilmaydi. Er uyiga sigʻmagan xotin hech qaerga sigʻmaydi.*[4]

Ushbu satrlardagi tashbehda milliy kolorit ham bor, bu holat yozuvchining qalami oʻtkirligidan, mahoratidan dalolat beradi.

Hayot ummoniga choʻmib, taqdirga tan bergan Pavlayi eri bilan dalada yelkama-yelka turib mehnat qiladi, uy-roʻzgʻor yumushlarini bajaradi, tinimsiz mehnatdan hech nolimay yashaydi. Vaqti kelib Pavlayi oʻgʻil koʻradi. Biroq asar davomida bu

[1] Oʻsha manbaa, 63-bet
[2] “Jahon adabiyoti” jurnali, 2015 yil, 1-soni, 64-bet
[3] Sari –hind ayollarining milliy libosi
[4] Oʻsha manbaa, 65-bet

farzand haqida ortiq so‘z yuritilmaydi. Yillar o‘tsa-da, unutilmagan sevgi mojarosi roman maydoniga kirib keladi.

Pavlayining qalbida ilk sevgisi g‘alaba qozonadi va ayolni bugungi oilaviy baxtiga o‘z qo‘li bilan qum sepishga majbur qiladi. Bu kabi xotin-qizlarning haq-huquqlarining poymol bo‘lishini ifodalovchi misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Bu o‘rinda xotin-qizlar huquqlarining kastachilik, tabaqalashtirish, bevalarning rangsiz hayoti kabi namunalarini o‘z ichiga olgan lavhalarni ayol taqdiri misolida tahlilga tortishni joiz deb bildik.

Romandagi yana bir jabrdiyda ayol Tankamma bo‘lib, uning hech kimi yo‘q, farzand ko‘rmagan beva, xat-savodsiz, jamiyatda hech qanday huquqqa ega bo‘lmagan quyi tabaqa vakili bo‘lishiga qaramasdan, vazmin, hayot qiyinchiliklarini ko‘rgan ayol obrazi sifatida gavlantiriladi. Hind jamiyatida esa bevalarga ancha past nazar bilan qaraladi, odatda, ular hayotning rangin jabhalaridan uzilgan holda yashaydilar. Tankamma ham shular jumlasidan. Pavlayi ketib qolgach, Periyannanning rangsiz, befayz hayotiga Tankamma avvaliga xizmatkor ayol sifatida kirib keladi. Keyinchalik hamdard, maslakdosh va jamiyat tish-tirnog‘i bilan qarshi chiqsa ham benikoh yostiqdosh darajasiga yetib boradi. Asarda jamiyatda ayollarning tuprog‘i yengilligi, ularga asossiz turli ayblovlar, kamsitishlar qo‘yilaverishi, erkak zoti esa har qanday vaziyatda ham suvdan quruq chiqa olishi mumkinligi haqida Tankammaning mulohazasi bildirilgan:

*Tankamma o‘yga toldi: “Erkak zoti har qanaqangi isnod va gap-so‘zdan o‘zini soqit qila oladi. Ayol esa xoh u turmushga chiqqan, xoh beva, xoh qiz bo‘lsin, odamzod shu paytgacha uning isnodi dog‘ini yuvadigan davoni topmagan. Uning sha’niga tushgan dog‘ni o‘lim bilan yuvish mumkin, xolos”. Shularni o‘ylab, yuragi qattiq zo‘riqib ketdi.* [1]

Hind jamiyatidagi ayolning o‘rni Tankamma qiyofasida ham ochib beriladi. Ushbu obraz orqali yozuvchi hind jamiyatidagi beva ayolga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabatga o‘z munosabatini bildirgan holda, beva ayol ham qayta oila qurib, baxtli hayot kechirishi mumkin, degan g‘oyani ilgari suradi. Holbuki, Hindistonda hozirgi kungacha saqlanib qolayotgan eskicha qarashlarga ko‘ra, beva ayolning (necha yosh bo‘lishidan qat’iy nazar) turmush qurishi mumkin emas, deb qaraladi[2]. Muallif esa bunday yondashuvlarni tanqid ostiga olib, ayolga buyum sifatida qarash yana qachongacha davom etishi mumkin, nahot inson taqdiri, qadr-qimmatining, qalb tuyg‘ularining zarracha ham ahamiyati bo‘lmasa, degan keskin fikrlarni o‘rtaga tashlaydi:

[1] “Jahon adabiyoti” jurnali, 2015 yil, 2-soni, 82-bet

[2] Chinnappa Bharati ushbu romanini XX asr o‘rtalarida yozilgan. Hind kinoindustriyasida XXI asrda ham ayni shu mavzuga bag‘ishlab maxsus film(“Babul”–“Qaynota”) olingan. Beva ayolning qaynotasi rolida chiqqan hind kino yulduzi Amitabh Bachchan o‘z kelinini ayni shu urfga qarshi chiqib turmushga berish uchun kurashadi va bu yo‘lda o‘z maqsadiga erishish uchun butun oilasi va aka-ukalariga qarshi chiqib kelinini turmushga beradi. Bu esa hind jamiyatidagi ushbu masalaning XXI asrda ham dolzarbligini yo‘qotmaganligini ko‘rsatadi.

*Men uchun qaysi yo‘l qoldi? Nikoh tumori uzilgan kun ayol o‘z or-nomusidan mahrum bo‘ladi. Mandirda o‘rnatilgan toshni Xudo bilib, unga sig‘inamiz. Yo‘lda qo‘yilgan toshga hech kim nazar solmaydi. Mandir ichidagi haykalga bir kunda uch mahal sig‘inadilar. Yo‘ldagi toshga-chi? Hattoki, it va cho‘chqalar ham goho unga peshob qilib ketaveradi. Toshlar orasida esa u oddiy toshdan boshqa hech narsa emas. Erim bilan oiladek muborak go‘shada yashagan paytlarimda izzat-hurmatim joyida edi, erim soyabon edi. Endi bu soyabon yo‘q, ko‘chada qolib ketdim. Qadrim ko‘chadagi toshchalik ham emas. O‘tgan-ketgan ham menga luqma tashlab, egri niyatda qarashi mumkin... – xuddi har bir so‘zga narx qo‘yib aytayotgandek u to‘xtab-to‘xtab gapirardi.* [1]

Bevalikning yuki qanchalik og‘ir bo‘lishini, turmushning nonini yeyish uchun temirdan tish kerakligi Tankammaning qalb nolalariga aylangan:

*Tankamma bir lahza hang-mang bo‘lib qoldi. Bir beva uchun bunday fikrga borish va hoyu havasga berilish yarasharmikan? Jamiyatda asrlardan beri yashab kelayotgan an’analarni shuncha osonlik bilan buza oladimi? Nima, bu ijtimoiy qoida shunchalik mustahkammidiki, uni hech qachon buzib bo‘lmasa? Beva ayolga rafiqa bo‘lish yana nasib etmaydimi? Xo‘sh, jamiyatning barcha qonun-qoidalari faqat bevalar uchun yaratilganmi? Ishlash istagi bo‘lgan ayollar fohisha hisoblanadilar, ular uchun boshqa yo‘l yo‘q. Din, huquq va yaxshi xulq-atvorga e’tiqod qiluvchilar bu masalalarda churq etmaydilar. Bunda madaniyat, tarbiya tarafdorlari ayol tuyg‘ulariga nega g‘ov bo‘ladilar? Ayolning tuyg‘usi, or-nomusini ro‘kach qila turib, unga dog‘ tushiradilar. Beva qolgan biron ayol o‘z xohishiga ko‘ra qadrini bilib yashashni istasa, jamiyat nima uchun uning bunday yashashiga imkon bermaydi? Unga nega yaramas va axloqsiz degan tamg‘ani bosadilar? Ayolning husni tavajjuhiga maftun bo‘lib, unga boladay osilib oladigan erkak uning bevaligini eshitgach, bu bir erkakning xotini bo‘lishga arzimaydi, deb nega hammadan ajratib qo‘yadilar? Lekin, eng yomoni shundaki, o‘sha ayol lazzat vositasiga aylanganda erkaklar uning badanidan lazzat olish uchun o‘zlarini tomdan tashlaydilar. Pokdomon bo‘lib yashasam ham bu odamlar o‘ylab-netib o‘tirmay, sharmandalik tamg‘asini yopishtiradilar. Shundan so‘ng kimgadir bog‘lanib yashagandan nima foyda? Sho‘rlik Tankammaning vujudi larzaga kelib, ma’sum dili pora-pora bo‘ldi.*[2]

Taqdir taqozosi bilan Tankamma Periyannan bilan bir tom ostida yashay boshlaydi. Bir qarashda hayot bir me’yorda ketayotgandek, lekin Tankamma ichida ikki dunyo yashayotgandek, bir-biri bilan kurashayotgandek edi. Ichki tuyg‘ulari orqali beva ayolga ikkinchi turmush qanchalik qiyin kechishini, ojiza boshiga jamiyatning malomat toshlari yog‘ilishini ko‘rish mumkin:

*Bevalik belgisi bo‘lmish oq sarini kiyib, begona erkakning ro‘zg‘orini tebratyapti. Xotin degan uhdasi yo‘q, qishloqdagilarning so‘zlari bilan aytganda, u bir ma’shuqa*

[1] O‘sha manbaa, 83-bet

[2] “Jahon adabiyoti” jurnali, 2015 yil, 2-soni, 84-bet

*cho‘ri. Bevani boshqatdan nikohdan o‘tkazib, oq sari o‘rniga guldor sari kiydirib, xotin qilib olinmaydi. Qishloq va jamoa bunga yo‘l qo‘ymaydi. Aks holda u tabaqadan chetlashtiriladi, boshqalar bilan birga yeb-ichib, o‘tirib-turish taqiqlanadi. Bironta ayolga bevaligida ega chiqib, uyiga olib kelsa ham jamoa buni gunohga yo‘yadi, orqavarotdan aytadiganini aytadi, vaqt o‘tishi bilan bunga o‘rganib qolishadi. Erkak uchun hamma narsa joiz, biroq ayol uchun... Turmushdagi baxt mevasi sifatida uning bo‘yida bo‘lib qolsa, siri fosh bo‘lib, yuziga qora surtiladi. Bevaning homilador bo‘lishi gunohi azim.* [1]

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, Tankammaning Periyannan bilan birga yashashini jamiyat tomonidan qoralanishini adib kuyidagi misralarda aytib o‘tadi:

*U jamiyatning shafqatsiz qoidalarini bilar edi. Ersiz bevaga qavm va tabaqasi uning yana qayta turmush qurishiga ruxsat bermaydi. Uning bilishicha, bunday gunoh sababli bir ayol bir umr isnod yukini ko‘tarib yurishga mahkum edi. U ikkisining bir tom ostida yashashi ijtimoiy chegaradan chiqishdek bir gap.* [2]

Adib jamiyatdagi ayol, ayniqsa, beva ayolning ichki kechinmalarini, hayotiy xulosalarini shunday real asosda tasvirlaydiki, xuddi ijodkorning boshidan bu kechinmalar kechgan, yoki bir tishlam bevalik nonidan yeb ko‘rgandek. Aslida unday emas, Chinnappa Bharati ziyrak kuzatuvchidir, u o‘zining kuzatuvlari asnosida shunday real tasvirga erisha olgan:

*Ayol kishi uchun, xususan himoyasiz beva uchun jamiyatning ba’zi qonun-qoidalari bor. Bu qonun-qoidalarni buzganlarning yashashga haqqi yo‘q. Agar u yashashni istasa, uning mas’uliyatini zimmasiga oluvchi bir erkak kerak. Mana shu mas’uliyat evaziga ayol o‘zining baloyi nafsini tiyib yurishi, umidlarini qurbon qilishi kerak. Bolaligidanoq qiz bolaning qulog‘iga erkaksiz hayot kechirgandan yashamagan yaxshi, deb quyib kelinadi. Bu gap uning vujudiga ona suti bilan kiradi. E’tiqod va urf-odatlar iskanjasidan shuncha osonlik bilan qutulib bo‘larmikan? Tankamma, “Mana shu iskanja meni shu ko‘yga soldi”, deb o‘ylay boshladi. Boshida na eri, na erki bor. Bir umr jabr-sitamlar chodiri ostida yashashga mahkum. Bir erkakning nafsi tufayli og‘iroyoq bo‘lib o‘tiribdi. Sir oshkor bo‘lgudek bo‘lsa bormi, odamlar xuddi axlatni ko‘rgandek, burunlarini jiyirib, teskari qarab o‘tishadi. Aysh chog‘ida erkakda uyat bo‘lmaydi, lekin ayshning natijasiga javobgar bo‘lishga kelganda esa sharmanda bo‘lishlarini o‘ylab, oyog‘i kuygan tovuqday pitillab qolishadi.* [3]

Tamil jamiyatida (balki butun hind jamiyatida) nikohsiz tug‘ilgan farzand qabul qilinmaydi. Oddiy mardikor bo‘lsa-da, or-nomusi o‘zidan baland turadigan Tankamma onalik baxtini o‘z qo‘li bilan yo‘qqa chiqarib, homilasini tushiradi.

*Aslida ayol kishi uchun onalik katta baxt. Onalik uning sha’nini ulug‘laydi. Lekin vaziyat taqozosi bilan orttirgan bu isnodga u aslo chidayolmaydi. Kechqurun*

[1] O‘sha manbaa, 88-bet
[2] O‘sha manbaa, 92-bet
[3] “Jahon adabiyoti” jurnali, 2015 yil, 2-soni, 90-bet

*Periyannan kelguncha, u bu isnoddan forig‘ bo‘lish chorasini qilmasa bo‘lmaydi. Shunday qildi ham.* [1]

Tankamma jamiyatning barcha gap-so‘zlariga qaramay ortga chekinmayotgan edi. Biroq har bir onaning ojiz nuqtasi farzandidir. Farzandi tug‘ilganidan xayot dash-nomlariga duch kelib, katta bo‘lganida xarom farzand dngan tamg‘a bilan yashamasin deb, ortga chekinadi. Quyidagi misolda Tankamma ham kuchli bir ayol sifatida shakllantirilgan, garchi o‘zining holati bir ahvolda bo‘lsa ham taqdirdoshi Peri-yannanga dalda berishga o‘zida kuch topa oladi:

*Periyannanning sochlarini qo‘llari bilan silab, Tankamma dedi:*

*- Bunda biz ikkimizning aybimiz yo‘q, bunga aybdor jamiyat va tabaqachilik. Agar men bu bolani dunyoga keltirganimda, “fohishaning bolasi”, degan nom olar-di. Umr bo‘yi o‘chmas tamg‘a edi bu. Men-ku ozgina bo‘lsa ham kun ko‘rib yasha-dim, biroq uning hayoti naqd do‘zaxga aylanar edi, – uning ovozida qahr bor edi.* [2]

Ayol kishining taqdirga tan berib yashashi sharq xalqlariga xos holat. Yozuvchi bu holatni yuqoridagi misollar orqali realistik uslubda ko‘rsatib bergan. Tanganing ikkinchi tomoni, kuchli jins vakillari bu erkaklardir. Ma’lumki, jamiyatda gunoh ish qilinsa har doim ayollarga ayb qo‘yiladi, erkakka emas, erkak har doimgidek suvdan quruq chiqadi. Yozuvchi bu yondashuvni ham chetlab o‘tmagan:

*Erkak bilan ayolning o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va ishlarga har ikki tomon teng javobgardir. Ammo yo‘l qo‘yilgan gunoh va isnoddan negadir erkak xoli bo‘ladi, lekin ayolga sharmandalik tamg‘asi bosiladi. Bundan katta gunoh qilib ham erkak kishi el ichida boshini ko‘tarib yura oladi, lekin ayolning oldida ikkita yo‘l qoladi, xolos: yo joniga qasd qilish yoki odamlardan yashirib homilani oldirib tashlash. Nojoiz yo‘lga qadam qo‘ygan qizlarning peshonasiga ana shu qismat yozilgan bo‘ladi va erkaklarning gunohi ana shu yo‘l bilan osongina yuvilib ketadi.*[3]

Bizga ma’lumki, hind yozuvchilarining asarlarining nihoyasi ezgulik bilan yakun topadi. Ammo, Chinnappa Bharatining “Pavlayi” romani bundan istisno. Roman yakunida Periyannan barcha molk-mulkini xizmatkori Ra’manga xatlab beradi, Tankamma hayotdan ko‘z yumadi, Pavlayi, uning o‘g‘li va Periyannanning taqdiri mavhumligicha qoladi. Bu hind adabiyotidagi yangi uslub kitobxonni chuqur mushohadaga undaydi. Ming yillik urf-odatlarga ko‘r-ko‘rona ergashish, ojizlik, xotin-qizlar haq-huquqining poymol bo‘lishi, jamiyatdagi tengsizlik, adolatsizlik, tabaqalarga ajratish romandagi uch ayolning ma’naviy kurashi misolida ochib berilgan.

Mazkur romandagi barcha ayollarning ichki kechinmalari va ruhiy holati badiiy tasvir vositalari orqali mahorat bilan ochib berilgan. Jumladan, Pavlayining bolaligi, muhabbati, oila va umr yo‘ldoshi oldidagi burchi, mas’uliyati hamda asar so‘ngida

[1] O‘sha manbaa, 90-bet
[2] O‘sha manbaa, 91-bet
[3] Jahon adabiyoti” jurnali, 2015 yil, 1-soni, 58-bet

aqliga bo‘ysunmagan tuyg‘ularining kuch-qudrati juda ta’sirli chiqqan. U muhabbatidan voz kechib, butun umrini o‘z oilasiga bag‘ishlagan ayol sifatida yashashi mumkin edi. Biroq Pavlayi qalbidagi ozod tuyg‘ulariga erk berdi va u hech kim kutmagan yo‘lni tashlashga ahd qiladi. Muallif bu bilan ayolning ham inson ekani, u ham xuddi erkak kabi baxtli yashashga haqliligi, ayolga ojiza deb qarash noo‘rinligi, agar u istasa, hayotning har qanday to‘sig‘ini yengib o‘tishi mumkinligi, har bir ayolning jamiyatda o‘z o‘rni borligini ta’kidlamoqchi bo‘ladi.

**Xulosa.** Yuqoridagi mulohazalardan “Yozuvchi ayol har qanday vaziyatda qalbiga quloq solib, ish tutishi kerak, degan fikrni ilgari suradi” qabilida xulosa chiqarmaslik kerak. Aslo! Pavlayi hayot tarozisining bir pallasiga bir vaqtlar ko‘ngil qo‘ygan, hanuzgacha unuta olmagan, bugun tuzalmas og‘ir dardga chalingan bir insonni, ikkinchi pallasiga o‘tmishi uchun uni hech qachon ayblamagan, unga baxt bera olgan qonuniy umr yo‘ldoshini qo‘yadi va o‘ziga-o‘zi savol beradi: “Bugun tarozining qaysi pallasini tanlashim kerak?!” Javob muqarrar: Pavlayi yuragining tubiga yashiringan ilk muhabbat degan bebosh tuyg‘uning qayta jonlanishi, uni deb bir umr bo‘ydoq o‘tgan, hozirda yotib qolgan insonning oldida burchi mavjudligini ustun qo‘yib, o‘n yillik oiladan voz kechishga o‘zini majbur qiladi.

O‘quvchini tobora murakkablashib borayotgan ayollarning huquqlarini poymol etuvchi qarashlarni isloh etishga chaqirar ekan, yozuvchi asarda har ikki ayol taqdirini bag‘ri keng va ayol qadrini tushuna oladigan Periyannanga borib taqaydi. Lekin, birgina uning qo‘lidan nima ham kelardi? Uning bir o‘zi butun jamiyatga qarshi chiqa olarmidi?..

Bir so‘z bilan aytganda, Chinnappa Bharatining “Pavlayi” romani hind jamiyatidagi ayollar taqdiri, beva ayollarga bo‘lgan munosabat masalasini xususan, ayol qalbining kuch-qudratini Pavlayi va Tankamma obrazlari orqali hind jamiyati uchun noan’anaviy tarzda ochib beradi. Yozuvchi ayollarning jamiyatdagi o‘rni qanday bo‘lishi lozim va ayol zotining ichki tug‘yonlari nimalarga qodir, degan savollarga o‘ziga xos tarzda yechim topishga urinadi.

Realistik yo‘nalishda qalam tebratuvchi tamil yozuvchisi Chinnappa Bharatining “Pavlayi” romanida ishchilar va dehqonlar muammosi emas, aksincha ayolning chin muhabbati uchun kurashi asarning asosiy g‘oyasi qilib olingan. Adibning ushbu romani XX asrning ikkinchi yarmida Hindistonda xotin-qizlar o‘z haq-huquqlarini talab qilayotgan vaqtda nashr etiladi.

Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda “Pavlayi” romanidagi ayol obrazi gender nazariyasi nuqtai nazaridan ilk bor tizimli ravishda tahlil qilindi. Adibning ushbu romani orqali jamiyatda ayollar ham ovozga ega ekanligini, qizlarni turmushga berish arafasida ularning istak-xohishlarini ham e’tiborga olish zarurligini ilgari suradi. Hind jamiyatida ayollar masalasida uchrab turadigan ayrim qoloq, eskirgan urf-odatlarni, qarashlarni keskin qoralaydi.

***DILBARXON ASADOVA***
*Stajyor-o‘qituvchi, mustaqil tadqiqotchi, TDShU*
*ORCID ID: 0009-0007-1522-5877*

# Badiiy asar – o‘ziga xos badiiy-estetik hodisa

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada mashhur turk yozuvchisi, Nobel mukofoti laureati O‘rxon Pamuqning “Mening ismim Qirmizi” romanidagi tasvir vositalaridan biri – o‘xshatishga bog‘liq holda mulohazalar keltirilgan.*

*O‘rxon Pamuq qahramonlar tasvirining badiiy talqinida ularning har biriga xos bo‘lgan xislat va fazilatlarni, ularning yoshi va kasbi, ijtimoiy mavqeiga ham alohida urg‘u beradi.*

*“Mening ismim Qirmizi” postmodernizm yo‘nalishining o‘ziga xos namunasi sifatida badiiy tasvir vositalarining xilma-xilligiga ko‘ra yuksak badiiy-estetik qiymatga ega. Ayrim o‘xshatishlar misolidayoq bu jihatlarning qanchalik muhim va jiddiy xulosalarga asos bo‘lishi ravshan ko‘zga tashalanadi. Ular roman qahramonlarining o‘ziga xos jihatlarini, takrorlanmas badiiy obrazlar sifatida ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga asar muallifining bu borada o‘tkir qalam egasi ekanini, yuksak mahoratini namoyish etadi. Ushbu tadqiqotning adabiyotshunoslik sohasidagi muayyan bo‘shliqni to‘ldira olishi maqsad qilingan.*

***Tayanch so‘z va iboralar:*** *O‘rxon Pamuq, “Mening ismim Qirmizi”, roman, postmodernizm, qahramonlar, badiiy tasvir vositalari, o‘xshatish badiiy-estetik xususiyat.*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с одним из средств художественного изображения — сравнением — в романе известного турецкого писателя, лауреата Нобелевской премии Орхан Памук «Меня зовут Красный».*

*В художественной интерпретации образов героев Орхан Памук уделяет особое внимание их индивидуальным чертам и качествам, а также возрасту, профессии и социальному статусу.*

*Роман «Меня зовут Красный» как своеобразный образец постмодернизма обладает высокой художественно-эстетической ценностью благодаря разнообразию средств художественного выражения. Уже на примере отдельных сравнений становится очевидной значимость и глубина данных аспектов, позволяющих делать серьезные научные выводы. Они способствуют раскрытию индивидуальных особенностей персонажей, представляя их как уникальные художественные образы. В то же время это демонстрирует высокий уровень мастерства автора и его выразительный художественный стиль. Настоящее исследование направлено на восполнение определённого пробела в области литературоведения.*

***Ключевые слова и фразы:*** *Орхан Памук, «Меня зовут Красный», роман, постмодернизм, персонажи, средства художественного изображения, сравнение, художественно-эстетические особенности.*

***Abstract.*** *This article presents reflections on simile as one of the artistic devices used in the novel My Name is Red by the famous Turkish writer and Nobel Prize laureate Orhan Pamuk.*

*In the artistic representation of characters, Orhan Pamuk pays special attention to their individual traits and qualities, as well as to their age, profession, and social status.*

*As a distinctive example of postmodern literature, My Name is Red possesses high artistic and aesthetic value due to the diversity of its expressive means. Even a few examples of similes clearly demonstrate the significance of these elements and their capacity to serve as a basis for serious scholarly conclusions. They reveal the unique characteristics of the novel's characters, presenting them as distinctive and inimitable artistic images. At the same time, they demonstrate the author's exceptional skill and artistic mastery. This study aims to fill a specific gap in the field of literary studies.*

***Key words and phrases:*** *Orhan Pamuk, My Name is Red, novel, postmodernism, characters, artistic devices, simile, artistic and aesthetic features.*

O‘zbek adabiyotshunosligining ko‘zga ko‘ringan, ulug‘ vakillaridan biri Umarali Normatov roman janrining umumjahon adabiyotidagi muhim va muqim o‘rni haqida gapirib, shunday degan edilar: “Keyingi ikki asr davomida roman jahon adabiyotida yetakchi janr bo‘lib keldi, XXI asrga o‘tib ham u o‘sha mavqeini aslo boy bergani yo‘q. Har bir millat adabiyotining bo‘y-basti, darajasi, avvalo, shu janr kamolotiga qarab belgilanadi desam, buni hech kim mubolag‘aga yo‘ymaydi. Buning boisi shundaki, bashariyat dahosi yaratgan adabiy janrlar orasida eng universali, kanonlarni, milliy chegaralarni tan olmaydigani, betinim yangilanib, o‘zgarib borishga moyili, hamma davrlarga, oqimlarga moslasha oladigani ayni shu roman janri bo‘lib chiqdi. Romantizm deysizmi, realizm, sotsrealizm, neorealizm, syurealizm, magik realizm, postrealizm deysizmi, modernizm, postmodernizm deysizmi – barcha adabiy oqimlarda uning yetuk namunalarini topish mumkin”. Ushbu mulohazalarni hozirgi zamon turk adabiyotining yirik vakillaridan biri, xalqaro Nobel mukofotining laureati O‘rxon Pamuq ijodi misolida ham to‘la tasdiqlash mumkin.

Badiiy asar o‘ziga xos takrorlanmas badiiy-estetik hodisa sifatida insoniyatni har doim o‘ziga maftun etib keladi. Bu bejiz emas. Agar adabiyotshunoslikda har qanday badiiyat namunalarining alohida va mustaqil matn ekanligi nazarda tutilsa, ularning har safar yangi yangi shakl va ko‘rinishlarga ega bo‘lishi e’tiborni tortadi, zero, “Matn – qiziqish bilan, ammo xotirjam va xolis tarzda idrok etiladigan kuzatuv obyektidir”[1]. Ushbu maqolada turk yozuvchisi, Nobel mukofoti laureati O‘rxon Pamuqning Mening ismim Qirmizi romanidagi tasvir vositalaridan bittasi – o‘xshatishga bog‘liq holda mulohaza bildiraladi.

O‘xshatish — tashbeh (ar. o‘xshatish) muayyan bir predmet, hodisani aniq tasavvur qilish uchun uni boshqa tanish bo‘lgan predmet, hodisalarga solishtirishdir. O‘xshatishlar «dek», «day», «larcha», «o‘xshash», «xuddi», «deganda», «tahlit», «yang‘lig‘», «misli», «go‘yo» kabi qo‘shimchalar, leksik vositalar, ko‘makchilar

[1] Теория литературы: Учеб. пособие для студ. филол. фак. Т338 высш. учеб. заведений: В 2 т. / Под ред. Н. Д.Тамарченко. — Т. 1: Н.Д.Тамарченко, В.И.Тюпа, С.Н.Бройтман. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. — М.: Издательский центр «Академия», 2004, с. 172.

yordamida yaraladi[1]. Xuddi shu vazifalarni turk tilida[2] **“gibi, kadar, renginde, tıpkı, suratlı, misali”** kabi so‘zlar hamda **-ca/-ce** kabi qo‘shimchalar ado etadi.

O‘rxon Pamuq qahramonlar tasvirida ularning har biriga xos bo‘lgan xislat va fazilatlarni, ularning yoshi va kasbi, ijtimoiy mavqeini ham alohida e’tiborda tutadi. Masalan, Tiflis qal’asidagi ayollar o‘rtasida qor yoqqan paytida ko‘plashib kir yuvishga chiqish odatlari bo‘lgan ekan. Muallif ayni shu holatga “kadınların çiçek renginde şarkılar söylediğini”[3] tarjimasi: “xotinlar chechakdek ochilib qo‘shiqlar aytishi”[4]ni munosib ko‘radi. Ta’kidlash lozimki bu o‘xshatish Qoraga tegishli. Agar Qoraning u paytda uylanmagan yigit ekani va ayollarga nisbatan o‘ziga xos qarashi borligini, qolaversa, mazkur nutqning o‘sha manzarani ko‘rsatishda bu boradagi tasavvurlarni oydinlashtirish uchun qo‘llangani nazarga olinsa, o‘xshatishning qanchalik muvaffaqiyatli chiqqanini e’tirof etish lozim bo‘ladi.

“Tıpkı Kuran-ı Kerim gibi, — yanlış anlaşılmasın, hâşa!- bu kitabın sarsıcı gücü asla resimlenemez oluşundan da gelir. Bunu anlayabildiğinizden kuşkuluyum”[5]. Tarjimasi: “Boshimizga kelganlar bir kitobda hikoya qilinsa, hatto eng usta naqqoshlar ham unga rasm chiza olmasligini aytay sizga. Zero Qur’oni karim kabi — yanglish anglanmasin — bu kitobning zalvarli kuchi aslo rasmlanmas bo‘lganidan kelib chiqadi. Buni tushuna olishingizga shubham bor”[6]. “Qur’oni karim kabi yanglish anglanmasin” ifodasida birdaniga ikki xil ma’noni anglatish imkoni mavjud. Unda “Qur’oni karim hech qachon yanglish (xato) tushunilmaydi” degan ma’no ham, uni “tushunish oson emas” degan ma’no ham teng huquqlarda ishtirok etayotir.

“Zavallı köpekler boyunlarında zincir, en sefil köleler gibi zincirlenmiş olarak tek tek sürüklene sürüklene sokaklarda gezdirilirlermiş”[7]. Tarjimasi: “Bechora ko‘ppaklar bo‘ynilarida zanjir, eng baxtsiz qullar kabi zanjirlangan ahvolda ko‘cha kezdirilarmish”[8]. O‘xshatish qahramonning o‘ziga xosligini alohida ta’kidlash vazifasini ado etmoqda. Unda tarixiy koloritning kuchi ham mavjud. E’tiborlisi shundaki, qulni itga o‘xshatish odatdagi hodisa bo‘lishi mumkin, ammo matnda ko‘rilganidek, itlarni qullarga o‘xshatish yozuvchi fantaziyasining kuchi bergan natijadir.

---

[1] Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o’quv yurtlari uchun darslik/Mas’ul murarrar: B. Valixo’jayev. —T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004, 162-163 betlar.

[2] Türkiye Türkçesi Grameri: (Şekil Bilgisi) / Zeynep KORKMAZ.— 3- bsk — Ankara: Türk Dil Kurumu, 2009. – S. 1066.

[3] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı* / Orhan Pamuk. — 23. baskı. — İstanbul: Yapı Kredi Yayınları, 2022. — 520 s. — (Yapı Kredi Yayınları; 3934. Edebiyat; 1109). — s. 63. Misollarning barchasi shu kitobdan olingan.

[4] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi, roman.Tarjimon: Eldar Asanov. – Toshkent, “Iqro-Nashr”, 2025. – B. 624. 77-bet. Tarjimalarning barchasi shu kitobdan olingan.

[5] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 12.

[6] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 8.

[7] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 21.

[8] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 20.

“Bu da aranızda bir hayalet gibi gezinen adsız, hüviyetsiz bir katil olmaktan çıkarır da beni, yakayı ele vermiş, yüzü belirgin, kafası vurulacak sıradan bir suçlu durumuna düşürür”[1]. Tarjimasi: “Bu ham bo‘lsa, orangizda arvoh kabi kezgan nomsiz, o‘zliksiz bir qotil bo‘lishdan meni ozod qiladi, yoqasidan tutilgan, yuzi tanish, boshi uzilajak oddiy aybdor vaziyatiga tushiradi”[2]. Bu o‘xshatish obrazining Qotil nutqida qo‘llanishi bejiz emas. Ayni mana shunday holatlar O‘rxon Pamuqning badiiy mahoratini bevosita ta’kidlab turadigan misollar sirasiga kiradi.

“Arvoh” so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday izoh berilgan: “1.Diniy tasavvurlarga ko‘ra: faqat odam tirikligida, hayotida u bilan bo‘ladigan, vafotidan keyin tandan chiqib, abadiy mavjud bo‘ladigan g‘ayrimoddiy asos; ruh”...2. Marhumning kishi xayolida ko‘ringan sharpasi”[3]. Lug‘atda bu so‘zning arab tiliga oidligi, hamda uning “ruh” so‘zining ko‘plikdagi shakli ekani ham ta’kidlangan.

Arvohda qiyofa yo‘q. U sharpadangina iborat tushunchadir. Muallif bu o‘xshatishni ayni mana shuning uchun, ya’ni qotillik egasining har doim ham aniq va belgili bo‘lavermasligini, buning uchun ancha-muna kuch va bilim, ko‘pchilikning birgalkdagi harakati zarurligiini alohida ta’kidlaydi.

Agar rassomlikning tom ma’nosi bilan qiyofashunoslik ekani nazarda tutilsa bu yerdagi qiyofasizlikni o‘ziga xos yangi bir obraz sifatida qabul qilish mumkin bo‘ladi. Ayni qotilning qiyofasiz holda tasvir va talqin etilishi bu obraz zamrida yashiringan o‘ziga xos bir ishorani anglashga yordam beradi. Demak, qiyofqasizlik O‘rxon Pamuq ijodida o‘ziga xos bir ramz darajasiga ko‘tariladi.

“İki âşık ne maceralar ve fırtınalardan sonra evlenirler, ama Hüsrev’in önceki karısından olan çocuğu genç Şiruye Şeytan gibidir, onları rahat bırakmaz”[4]. Tarjimasi: “Ikki oshiq ne mojaro va talato‘plardan so‘ng turmush quradi, ammo Xisravning oldingi turmush o‘rtog’idan bo‘lgan farzandi Sheruya shayton kabi edi, ularni tinch qo‘ymaydi”[5].

Yozuvchining qalami har doim charxlangan bo‘ladi. Shuning uchun, ezgulik tasvirida ham, yovuzlik tasvirida ham bu qalam kitobxonni befarq qoldirmaydi. Aslida, yaxshining yaxshiligini ko‘rsatish qanchalik muhim bo‘lsa, yomonning yomonligini ko‘rsatish ham, shu qadar o‘rinlidir. Postmodernizm mana shu nuqtada, o‘zini ancha keng va batafsil ko‘rsata olgan deyish mumkin. Bu haqiqatning achchiq va og‘riqli sahifalari sifatida kitobxonni befarq qoldirmaydi. Uni ruhiy muvozanatdan chiqaradi. Ochig‘i aytiladigan bo‘lsa, bu o‘zbek kitobxoni uchun biroz “quyushqondan tashqariga chiqish”dir.

---

[1] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 25.
[2] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 24.
[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. 1-жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 94-бет
[4] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 25.
[5] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 25.

Inson bolasining “shayton”ga o‘xshatilishi nihoyatda katta va salmoqli ma’no noziklikariga ega. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da unga shunday izoh berilgan: “1. din. Odamlarni din yo‘lidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig‘i; iblis”[1].

Ma’no nozikliklari orasida quyidagilar ham bor:

2. ko‘chma Ayyor, quv odam; aldamchi.

3. ko‘chma Sho‘x, o‘ynoqi”.

Bu yerda mazkur o‘xshatish lug‘atda ko‘rsatilgan barcha ma’nolar bilan uyg‘unlik topishi e’tiborga loyiqdir.

Sheruyaning shaytonga o‘xshatishini bu sifatlarning barchasi jamuljam. Haqiqatda ham u qilgan ishlarni inson zotining qo‘lidan kelishiga ishonish qiyin. Modomiki, Nizomiy shunday tasvirlagan ekan, bu yomonning yomonligini hamma bilishi kerak tarzidagi aqidaning badiiy ifodasi bo‘lib yuzaga chiqadi. Ayni paytda,ushbu rivoyat Qotilning o‘z xatti harakatlarini oqlashi, o‘ziga tasallinamo bir narsalarni izlash jarayonidagi ruhiy holatni tushuntirish yo‘llaridan biridir.

“Babasının tahtında ve genç karısı Şirin’de gözü vardır bu şehzadenin. Nizami’nin "Ağzı aslanlar gibi pis kokardı," dediği Şiruye, bir yolunu bulup babasını esir alır ve tahtına oturur”[2]. Tarjimasi: “Shahzoda otasining taxtiga va uning yosh xotini Shiringa ko‘z tikadi. Nizomiy “Og‘zi arslonlarniki kabi sasirdi” deya ta’riflagan Sheruya bir yo‘lini topib otasini asir oladi va uning taxtiga o‘tiradi”[3].

Arslon kuchli yirtqich hayvon. U o‘z o‘ljasiga nisbatan rahm-shafqatni bilmaydi, ularni mutlaqo ayamaydi. Ayni mana shu xislatlarning Sheruyaga nisbat berilishi kitobxonning u haqdagi tasavvurlarini oydinlashtiradi, unga nisbatan yozuvchi ko‘rsatayotgan nafratning mazmun va mantig‘ini ilg‘agandek bo‘ladi. Hech bo‘lmaganda, yirtqich hayvonning og‘zidan kelishi mumkin bo‘lgan badbo‘y hidning Sheruyaga nisbat berilishi bu salbiy qahramondagi yaramasliklar salmog‘ining ortishiga sabab bo‘ladi.

“"Kara’nın elini öp," dedi. Elini öptüm. Kokusuzdu. "Çok sevimli," dedi Kara beni yanağımdan öptü. "İleride aslan gibi olacak"”[4]. Tarjimasi: “- Qoraning qo‘lini o‘p, — dedi. — Qolini o‘pdim. Hidsiz edi. -Yoqimtoy, — dedi Qora va yonog‘imdan o‘pdi. -Arslon kabi bo‘lajak” [5]. Qora nutqidagi bu so‘z erkalash ma’nosida qo‘llangan. Bolaning kelajakda arslon kabi kuchli va dovruqli bo‘lishiga ishora

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. 4-жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008, 534-бет

[2] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 25.

[3] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 25.

[4] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 36.

[5] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 37.

sifatida qo‘llangan. Bu jihatdan mazkur o‘xshatishni o‘zbek adabiyotida qo‘llanadigan ayni so‘z[1] bilan bir xil maqomga egaligini qayd etish mumkin.

“Evimize girip çıkan, bizim hakkımızda anlatılanları işiten, uzaktan da olsa onun varlığından haberdar her genç erkek gibi Kara da tabii ki tek ve güzel kızım Şeküre’ye âşık olmuştu”[2]. Tarjimasi: “Uyimizga kirib chiqqan, biz haqimizdagi gaplarni eshitgan, uzoqdan bo‘lsa-da uning borligidan xabardor yosh yigit kabi Qora ham, tabiiyki, yagona va go‘zal qizim Shakuraga oshiq bo‘lgandi”[3].

Pochchaning bu ifodasi bejiz qo‘llanmagan. U Qoradagi bir xususiyatga ishora qiladi: gap uning qiziga oshiq bo‘lgan yosh ygitlar ustida borayotgandek tuyulsa-da, sinchiklab qaralsa, asl muddaoning mana shu yosh yigitlarga o‘xshashga harakat qilayotgan odam – Qoraga tegishli ekani ilg‘anadi. Zero, Qora hozirgi holatda, Pochcha gapirayotgan zamonda allaqachon yigirma to‘rt yoshda edi. Vaholanki, Shakura ayni shu damlarda bor-yo‘g‘i o‘n ikki yoshda bo‘lgan.

Bu yerda turkcha matndagi “erkek” so‘zi o‘ziga xos qo‘llanishga ega. O‘zbek tilidagi bola so‘ziga o‘xshab (qiz bola, o‘g‘il bola) turk tilida ham, “çocuk” so‘zi “erkak” bilan qo‘shilib (“erkek çocuk”), o‘zbek tilidagi “go‘dak” yoki “yosh bola” ma’nosini anglatishi mumkin.

“Cinin, Şeytan’ın gölgesi ve sonra babasının yanında güzeller güzeli rüya gibi kızı”[4]. Tarjimasi: “Jinning, shaytonning ko‘lankasi hamda otasining yonida ro‘yo kabi go‘zallar go‘zali bo‘lmish qizi”[5]. Bu o‘xshatishni mantiqan o‘z o‘rniga tushgan deyishga qiynaladi o‘zbek kitobxoni. Turk kitobxoni esa uni afsonaviy go‘zallikga ega bo‘lgan, nihoyatda go‘zal ma’nolar anglashiladi[6].

“Orhan’ın yüzü gibi Şeküre’ninki de inceydi, çenesi de hatırladığımdan daha uzundu”[7]. Tarjimasi: “O‘rxonning yuzi kabi Shakuraniki ham ingichka edi, iyagi ham xotirlaganimdan uzunchoqroq”[8]. Bu so‘zning o‘zbek tilidagi matnda hozirgi holati kishida e’tiroz uyg‘otadi. Vaholanki, asliyatda uning o‘rnida **“ince”** so‘zi qo‘llangan. Bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi:

1. Ingichka, yupqa (qalinning aksi);
2. Nozik, nimjon;
3. Batafsil, puxta;
4. Suyuq, quyuq bo‘lmagan;
5. (Ovozga nisbatan) ingichka;

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. 1-жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 100-бет
[2] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 31-32 .
[3] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 34.
[4] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 34 .
[5] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 37.
[6] Türkçe Sözlük. – 11.bsk.– Ankara: Türk Dil Kurumu, 2011.– S. 1990.
[7] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s.40.
[8] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 43.

6. Yengil, kuchsiz;

7. Nafis, nazokatli (ko‘chma ma’noda)dir[1]. Bu ma’nolarning barchasi matndagi ma’nolar doirasiga deyarli to‘laligicha mos keladi. Bu turk tilidagi faol qo‘llanadigan so‘zlar silsilasiga mansub. Shunga qaramay, o‘zbek tilidagi tabdilida ayni shu ifoda uchun tanlangan “ingichka”so‘zi o‘zini oqlamaydi. Zero, “ingichka [2] ”ning lug‘atlardagi ma’nosi:

1. Ko‘ndalang kesimi me’yordan kichik; zid. Yo‘g‘on;
2. Chiyildoq, o‘tkir (tovush haqida)
3. Ko‘chma: nozik ifodali, noziklardan iboratdir.

Ko‘rinib turganiday, bu ma’nolarning birortasi ham turk tilidagi ma’noga uyg‘un kelmaydi. Agar e’tibor qilinsa, yuzning katta emas kichik, xunuk emas chiroyli, yalpoq yoki yapaloq emas balki cho‘zinchoqroq shakli ustida gap bormoqda. Shunday ekan tarjimada ham shunga mos bo‘lgan “nozik” yoki “cho‘zinchoq” varintlaridan birini tanlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shundagina, bolaning yuzi bilan onasining yuzi o‘rtasidagi o‘xshashlikni aniqroq tasavvur etish mumkin bo‘ladi.

**Insonni jonsiz lekin qo‘pol narsaga o‘xshatish:**

“Sokağa çıkar çıkmaz, tam bir hamlede atımın üzerine atlamak üzereydim ki, tam bir daha hiç dönmem diyen masalsı atlı gibi dar sokaklardan kaybolacaktım ki, nereden çıktığını hiç anlayamadığım koskocaman bir kadın, baştan aşağı pembeler giyen bir Yahudi, elinde bohçası üzerime geldi. O kadar büyük ve genişti ki, dolap gibiydi. Ama hareketli, canlı, hatta işveliydi de”[3]. Tarjimasi: “Ko‘chaga chiqar-chiqmas bir hamlada ustiga minish niyatida edim, boshqa qaytib kelmayman degan ertaknamo otliq kabi tor ko‘chalarda g‘oyib bo‘lay deb turgandim hamki, qayoqdan chiqganini payqamay qolganim ulkan bir xotin, bosh-oyoq pushti rang kiyingan bir yahudiy, q’olidagi bo‘g‘chasi bilan oldimga keldi. Shu qadar katta va keng ediki, javon singari edi”[4].

Muddaoga o‘tishdan oldin, yana, tarjima haqida to‘xtamay o‘tish o‘zbek kitobxonini asosiy masaladan chalgi’tishga, matnga nisbatan undagi hurmat va e’tirofning pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Zero, “ertaknamo” emas, “afsonaviy”: keng emas “yo‘g‘on” so‘zlari qo‘llanganida, tasvirdagi aniqlik va yorqinlik tarjimada ham aks etgan bo‘lardi. Zero, “afsonaviy otliq” Qoraning o‘ziga nisbat berib aytayotgan sifati, “yo‘g‘on” esa, Esterning – bohchachi[5] ayolning tashqi ko‘rinishiga berilgan bahodir. O‘rni kelganda, ta’kidlash joyizki, bu so‘zlarning

[1] Türkçe Sözlük. – 11.bsk.– Ankara: Türk Dil Kurumu, 2011.– S. 1187.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. 1-жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 207-бет
[3] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 42.
[4] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 47.
[5] Türkçe Sözlük. – 11.bsk.– Ankara: Türk Dil Kurumu, 2011.– S. 373. Bohçacı kadın - Qo‘lida bohcha bilan yurib, ichidagi to‘qima buyumlarni sotadigan ayol – bohchachi.

birinchisida ijobiylik, ikkinchisida salbiylik bilan aloqador bo‘lgan ma’no qirrasi bo‘rtib ko‘rinadi.

“Ata bindim, ama hayatında ilk defa ata binen acemi gibi”[1]. Tarjimasi: “Otga mindim, ammo hayotida ilk dafa otga mingan havaskor kabi edim”[2]. Otga mingan havaskor – ot minishni orzu qilgan va bu ish bilan ilk marta shug‘ullanayotgan kishiga nisbat berib aytiladigan so‘z. Vaholanki, Qora bu borada nihoyatda katta tajriba to‘plagan kishi edi. Ayni ifoda uning hozirgi ruhiy holatini ifodalash uchun qo‘llangan. U o‘z sevgilisi tomon ketayotganida tanasidan o‘tayotgan tuyg‘ular uning mana shunday hissiyot ichida turganini ta’kidlash uchun qo‘llangan.

“Belki benim merakımı-siz de en azından berberler kadar meraklı değil misiniz sankiayıplar, bor görürsünüz beni”[3]. Tarjimasi: “Balki, qiziqishimni — siz ham eng kamida sartaroshlar kabi[4] qiziquvchan emasmisiz — ayb sanarsiz”[5]. Romanda qo‘llangan o‘xshatishlar qatorida bir namuna e’tiborni tortadi, U bo‘g‘chachi ayol Esterning nutqida qo‘llangan. O‘xshatishning mohiyati mishmishlarga, bo‘lar bo‘lmas gaplarni tarqatishdan zavqlanadigan kishilarga nisbat berilgan. Bo‘g‘chachi ayol o‘zini suhbatdoshlarda ana shunday tasavvur bilan saqlanib qolmaslik uchun “sartaroshlarga o‘xshab” o‘xshatishni qo‘llaydi. Bunda, sartaroshlarning mijozlar bilan bo‘lganda ichidagini yashirib tura olmasligi, sergapligi, umuman, ularning muloqot jarayonida “axborotlarning tugamaydigan manbayi” vazifasini ado etishi ko‘zda tutiladi. Ayni motiv bilan shakllangan ayrim latifalarni o‘zbek folklorida ham ko‘rish mumkin. Buning eng yaxshi namunasi “Shoxli Iskandarning[6]” ertagidir.

“Kâğıdın dibine adının ilk harfini, küçük, ürkek bir kuş gibi atmış, o kadar”[7]. Tarjimasi: “Qog‘oz pastiga otining ilk harfini kichik, hurkak bir qush kabi yozibdi, xolos”[8]. Xat tashuvchining bu ifodasi Shakura haqida. U o‘z ismini xat yakunida dangaliga emas, balki imkoni boricha bildirmaslikka, sezilmasligiga harakat qilib yozgan edi. Muallif xuddi mana shu ma’noni bo‘rttirish uchun “hurkak bir qush” obrazini qo‘llagan. Bunda Shakuraning ustamonligi ham, xavotiri ham, kuzatuvchanligi ham tegishli tarzda o‘z ifodasini topgan.

“Babamın eve çağırdığı ve hepsini tek tek dikizlediğimi sizden saklamayacağım nakkaşlardan zavallı Zarif Efendi’nin kocam gibi kayıp olmasına üzüldüm. En çirkin ve fakir ruhluları da oydu”[9]. Tarjima:“Otam uyga chaqirgan (“bildirmay qaraganim,

[1] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 43.
[2] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 48.
[3] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 44.
[4] https://eksisozluk.com/berber-vs-dedikoducu-teyze--5713604
[5] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 51.
[6] O‘zbek xalq ertaklari, III jildlik, Uchinchi lild, Tuzuvchilar: M.Afzalov, X,Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 2007, 264-265-betlar.
[7] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 45.
[8] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 51.
[9] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 49.

poylaganimni sizdan yashirmayman” ayni mana shu kiritma gap uning mazkur holatini juda yaxshi tasdiqlaydi o‘z tili bilan) naqqoshlardan bechora Zarif afandining erim kabi g‘oyib bo‘lishidan xafa bo‘ldim. Eng xunuk va faqir ruhli naqqosh edi”[1]. (Shakura) Shakura otasining atrofidagi erkaklarning o‘zini va xulq-atvorini turli maqsadlar bilan kuzatadi. Bu kuzatishlar, albatta, maqsadli bo‘lib, u o‘ziga juft izlayotgan edi. (Undagi bu xususiyatni Qora ham juda yaxshi biladi. Hatto uning bir o‘rinda Shakuraga bergan savoli mazkur holatni juda ravshan ko‘rsatib beradi. )

“Bu ürpertiyi içimde duyduğumda, ben de, tıpkı bir gözü kitabın içindeki hayata, bir gözü de kitabın dışına bakan o güzel kadınlar gibi, beni kimbilir tâ hangi yerden ve zamandan seyretmekte olan sizlerle de konuşmak isterim”[2].Tarjimasi: “Bu hisni tuyganimda men ham bir ko‘zi kitob ichidagi hayotga, bir ko‘zi esa kitob tashqarisiga boqqan u go‘zallar kabi, kim bilsin, qay mamlakatdan va qay zamondan tomosha qilayotgan sizlarga saslanishni istadim” [3] . Istakning cheku chegara bilmasligi haqidagi mushohadalar ham Shakuraga xosdir.

“Babama kalsa beni vereceği adam hem en büyük âlim olacak, hem nakıştan, sanattan anlayacak, hem güç iktidar sahibi olacak, hem de Karun gibi zengin”[4] .Tarjimasi: “Otamga qolsa meni beradigan odami ham eng buyuk olim bo‘lardi, ham naqshni, san’atni tushunadigan, ham kuch-iqtidor sohibi, ham Qorun kabi boy”[5]. Shakura tilga olgan nomlar (masalan: Qorun) uning Sharq madaniyati va san’atini, ayniqsa, adabiyotini har holda rasmlardan bo‘lsa-da tasavvur qila oladigan bir ayolni ko‘z oldiga keltira oladi.

“İddiasız, ama tutkulu oluşunu, çocuklarımla oynamayı sevişini ve bana bazen sanki o susuzluktan ölen birisi, ben de bir bardak soğuk vişne şerbetiymişim gibi özlemle bakışını seviyordum” [6] . Tarjimasi: “Iddaosiz, ammo ehtirosli ekanini, bolalarim bilan o‘ynashni sevishini va menga ba’zan go‘yo suvsizlikdan o‘layotgan odamday, men go‘yoki bir piyola sovuq olcha sharbati kabi sog‘inchla boqishini yoqtirardim”[7]. Bunday holatlar Shakuraning o‘zi ham, ayniqsa, Qora kelgunicha bo‘lgan davrda Hasanga nisbatan munosabatidagi o‘ziga xoslikni anglatib turadi. Uning nutqidagi “yoqtirardim” so‘zi ayni shu xulosani alohida ta’kidlaydi.

“Yolculuklarım sırasında ne zaman nakşetmeyi, resmetmeyi düşlesem, Behzat gibi hayallerim içinde hayranlıkla beliren büyük usta, Ayasofya tarafına bakan pencereden gelen kar beyazı ışığın içinde beyaz kıyafetleriyle sanki çoktan öteki dünyanın hayaletlerine karışmıştı bile”[8]. Tarjimasi: “Yo‘lchiliklarim mobaynida ne

[1] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 58.
[2] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 51.
[3] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 58.
[4] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 51.
[5] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 61.
[6] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s.53 .
[7] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 64.
[8] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s.62 .

zamon naqsh etishni, rasm chizishni tush ko‘rsam, Behzod kabi xayollarim ichida hayronlikla ko‘zga tashlangan buyuk usta Ayo Sofiya tomonga qaragan panjaradan kelgan qorning oq jilosi ichida oppoq kiyimlari bilan go‘yoki ancha oldin narigi dunyo xayolotlariga qorishgan edi”[1]. O‘xshatishlarda sharqning mashhur kishilari, xususan Behzodning tanlanishi Usmon singari rassom – naqqosh obrazi uchun mos va munosib bo‘lgan.

“Sanatında ustalaşa ustalaşa körleşen ve bir yaştan sonra yarı evliya yarı bunak hayatı süren ve bitip tükenmez efsaneleri anlatılan eski Acem üstatları gibi davranıyordu, ama cin gibi gözlerinden Eniştemden şiddetle nefret ettiğini, benden şüphelendiğini görebildim hemen”[2]. Tarjimasi: “San’atida ustalashib-ustalashib ko‘r bo‘lib qolgan va bir yoshdan so‘ng yarim avliyo, yarim chol hayotini yashagan, bitmas-tuganmas afsonalarda anglatilgan Ajam ustodlari kabi tutardi o‘zini, ammo sergak ko‘zlaridan pochchamdan shiddat ila nafrat etishini, mendan shubhalanayotganini ko‘ra bildim”[3]. Usmonga xos xususiyatlar mana shunaqa replikalarda yanada aniqroq va ta’sirliroq tarzda yoritiladi.

“Çoğu mahallesinde bakkal kimdir, komşu manavla niye kavgalıdır, ekmeğin okkası kaçadır bilmeyen bu insanların Tebriz’de, Kazvin’de, Şiraz ve Bağdat’ta kimin nasıl nakış yaptığından, hangi hanların, şahların, padişahların, şehzadelerin kitap için kaç para döktüğünden haberdar olduklarından, en azından bu çevrelerde veba gibi hızla yayılan en son dedikodu ve söylentileri fazla fazla işitmiş olduklarından hiç kuşkum yoktu, ama yine de anlattım”[4].Tarjimasi: “Ko‘pi mahallasida baqqol kim, qo‘shni mannop bilan nega janjallashadi, nonning o‘qqasi necha pul bilmagan bu insonlar Tabriz, Qazvin, Sheroz va Bag‘dodda kim qanday naqsh chizishidan, qaysi xonlar, shohlar, podshohlar, shahzodalar kitob uchun qancha pul berishidan xabardor ekaniga, eng kamida bu davralarda vabo kabi tez va yashirin yoyiladigan eng so‘nggi mish-mish va g‘iybatlarni juda ko‘p eshitishlariga hech shubham yo‘q edi, lekin shunda ham aytib berdim”[5]. Mishmishning vaboga o‘xshatilishi O‘rxon Pamuqning bu hodisaga nisbatan munosabatini aks ettiradi. Zero, mishmishni ham shiddat va keng qamrov bo‘lgani holda, biror bir jihatdan ham ijobiy jihat mavjud emas.

“Resmi bir suç gibi, benim görebileceğim bir yere bırakmış kaçmıştı”[6].Tarjimasi: “Rasmni bir gunoh kabi ko‘rib qolishim uchun ko‘zim tushadigan yerga qo‘yib, bekingandi”[7]. Shakuraning o‘z maqsadlarini nihoyatda pinhoniy, yashirin tarzda utishi, bilib-bilmaslikka solishdan boshlab, to arqonni uzun tashlay olishigacha

[1] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b.77.
[2] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 66.
[3] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b.77.
[4] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 63.
[5] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b.78.
[6] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 48.
[7] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b.56.

bo‘lgan oraliqdagi ayyorlik, makru hiylalarning ustasi ekani ham O‘rxon Pamuq tomonidan juda ishonarli va ta’sirchan tarzda ifoda etilgan. Bir o‘rinda u buni Shakuraning o‘z tili orqali ko‘rsatsa boshqa bir o‘rinda boshqa vositalardan foydalanadi.

“Hanlar, şahlar birbirlerini boğazlayıp, nakkaşlar da harem kadınları gibi şehirden şehire yeni efendilere gidince, yeni nakkaşhanenin üslubu, onun çizdiği yapraklarda, çimende, eşyaların kıvrımında, onun sabrının gizli kıvrımlarında belirirdi ilk”[1]. Tarjimasi:“Xonlar, shohlar bir-birlarini bo‘g‘izlab, naqgoshlar haram ayollari kabi shahardan shaharga yangi afandilar huzuriga ketib golaverganida yangi naqqoshxonaning uslubi ilk u chizgan yaproqlarda, chamanda, ashyolarning qatlarida, uning sabr-toqati qatlarida ko‘zga tashlanardi”[2]. Bu o‘xshatish katta bir ijtimoiy hodisaning asl mohiyatini yaqqolroq tasavvur etish imkonini beradi. Bu yerda ijodkor naqqoshlar ayollarga shunchaki, yo‘l yo‘lakay o‘xshatilayotgani yo‘q. Hukm egalari o‘zgarganida boshqaruv tepasida turganlar yangilanganida, ularning ayollari shunchalik erksiz, ixtiyorsiz, oddiy huquqlarsiz bo‘lib qolganlariday, san’at ahli, ijodkorlar , hozirgi misolimizda esa, naqqoshlar ham ana shunday oddiy huquqlardan mahrum kimsalar qatoriga tushib qolgan edilar. Muallif mana shu manzarani kitobxon ko‘z oldida aniq gavdalantirisjh uchun mazjur o‘xshatishdan foydalangan. Ko‘chirmaning aynan naqqoshlardan biri – Laylak tilidan aytilayotgani ham buni tasdiqlab turadi.

O‘rxon Pamuq o‘rni o‘rni bilan qahramonlar nutqida musulmon olamiga xos bo‘lgan ayrim o‘ziga xosliklardan yaxshi foydalanadi. Musulmon dunyosida insonning to‘g‘ri yo‘ldan og‘ishi ba’zan xayolan nomunosib andishalarga berilishi “shayton” obrazi orqali yuzaga chiqariladi. Haqiqiy muslimda shayton yo‘ldan ozish va bu jarayonning oqibatini tasavvur qilish va his etish natijasida o‘ziga xos tabiiy qo‘rquv paydo bo‘ladi. Quyidagi parcha buning yorqin misoli bo‘la oladi: “"Bazıları işleri öyle ileri götürmüşlerdi ki," dedi Enişte‌m, sanki Şeytan’ın çekiminden söz eder gibi korkuyla, "sırf resimde yer alabilmek için, resmin kalabalığı içinde kadehlere içki dolduran bir uşak, zinacı kadını taşlayan bir acımasız, ya da eli kanlı bir katil olmaya bile razı olmuşlardı”[3]. Tarjimasi: “Ba’zilari ishlarni shunchalik ilgarilatgan ediki, dedi pochcham shayton maylidan so‘z etayotgan kabi qo‘rquv bilan, — rasmdan joy olish uchun rasmdagi olomon ichida qadahlarga ichkilik to‘ldirayotgan xizmatkor, zinokor ayolni toshbo‘ron qilayotgan beshafqat yoki qo‘li qonga botgan qotil bolishga hatto rozi edilar”[4]. Bu Qoraning Pochcha haqidagi mulohazalari sifatida qo‘llangan. Zero, Pochchada zohiriy qo‘rquv bo‘lishiga qaramasdan, uning botinida tasvirda ko‘rsatilgan salbiy hodisalarga nibatan mayl va rag‘batning mavjudligi ham qistirib o‘tiladi.

[1] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 81.
[2] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b.105.
[3] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 120.
[4] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b.157.

Pochchadagi bu tuyg‘ularning onda sonda ko‘rinadigan bir sifat bo‘lmasdan, uning tabiatiga yaxshigina joylashib olgan g‘arbona hayot tarzidan lazzat tuyish anchagina muntazamlikga ega bo‘lib ulgurgan edi. Navbatdagi o‘xshatish mana shu jarayon mohiyatini ancha tiniq va yorqin ifodalashi bilan e’tiborni tortadi: “Bir keresinde, Korno Gölü kıyısındaki bir zengin malikanesinde çılgın bir meraklının, krallardan kardinallere, askerlerden şatere, Frenk tarihlerinin bütün meşhurlarının yüz tasvirlerini topladığı muhteşem bir portreler bahçesinin odalarında nasıl kaybolduğunu anlattı”[1]. “Bir safar Korno ko‘li qirg‘og‘idagi bir boyvachchaning ko‘shkida devona ishqiboz kabi qirollardan kardinallarga, askarlardan shotirlarga, xullas, farang tarixining butun mashhurlarining yuz tasvirlarini to‘plagan muhtasham portretlar bog‘chasining xonalarida qanday g‘oyib bo‘lganini gapirib berdi”[2].

Pochcha g‘arbning ashaddiy muxlisi va quli. Faqat, bu tuyg‘ular imkoni boricha, oshkora tarzda yuzaga chiqarilmaydi. Uning ich ichida bu tuyg‘ular g‘ujg‘on o‘ynaydi. O‘sha tuyg‘ularni yashira olmagan kezlaridagina (Bu Qoraga o‘xshash suhbatdoshga “yorilish” mumkin bo‘lgan lahzalarda) lop etib yuzaga chiqgandek tasavvuir uyg‘otadi: “Konuksever ev sahibim beni iftiharla gezdirdiği evinin odalarında, biraz da kendim dilediğimce gezineyim diye beni serbest bırakınca," dedi, "çoğu hakiki gibi gözüken ve bazısı dimdik benim gözlerimin içine bakan bu sözümona mühim gâvur şahsiyetlerinin, sırf portreleri yapıldığı için bu dünyayı daha fazla dolduran kişiliklere dönüştüklerini gördüm”[3]. Tarjimasi: “Mehmonsevar uy sohibi meni iftixor ila kezdirgan uyining xonalarida biroz o‘zim xohlaganday kezishim uchun yolg‘iz qo‘yganida, — dedi, — Ko‘pi haqiqiy kabi ko‘rinadigan va ba’zilari tippa-tik ko‘zlarimga qaragan bu soxta muhim kofir shaxsiyatlari faqat portretlari chizilgani uchungina bu dunyoni yanada ko‘proq to‘ldirgan kishilarga aylanganini ko‘rdim”[4]. Bu yerdagi “soxta muhim kofir shaxsiyatlar” silsilasida aslida Pochchaning o‘zi ham turishi kerak.

Inson xom sut emgan banda. Unda ahyon ahyonda dinu diyonatdan, iymonu e’tiqoddan chetlashish botil yo‘llarga yurish singari holatlarga yaqinlik kuzatilishi mumkin. Bu aslida e’tiqodning butun emasligi, ilohiy haqiqatlarga to‘liq bo‘lmagan ishonch, iymondagi saktalik tufayli ro‘y berishi mumkin. Ayniqsa, ayni shu insonga o‘xshash yana bir boshqa insonning ro‘para kelishi ushbu jarayonlarning shiddatiga sabab bo‘lishi mumkin. Podshoh qalbidagi istak va ishtiyoqning Pochchadagi shunga yaqin keladigan tuyg‘ular bilan ro‘para kelishi ularning har ikkisini ham yagona bir maqsad yo‘lida birlashishga olib kelgan. Bu hodisa Pochchaning Podshoh bilan bo‘lgan muloqoti tafsilotlarining ixcham bayonlari tarzida Qoraga bayon etgan holatlarida yaxshi tasvirlab berilgan:

[1] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 120.
[2] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b.157.
[3] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 120.
[4] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b.158.

“Sonra merkezine, bir cüceyi yerleştirdiğin resmi duvara asmak isteyeceksin," demiş Padişahımız, Eniştemin korktuğunu sandığım gibi. "Ama resim duvara asılamaz. Çünkü duvara astığımız bir resme, amacımız ne olursa olsun bir süre sonra tapınmaya da başlarız. Gâvurların yaptığı gibi, Hazreti İsa’nın aynı zamanda -hâşa- Allah olduğuna inansaydım, o zaman, Allah’ın dünyada görülebileceğini, hatta insanda belirebileceğini de anlayacak, insan resmi yapıp duvara asmayı kabul edebilecektim. Duvara asılan her resme, en sonunda, farkına varmadan tapmaya başlayacağımızı anlıyorsun değil mi?"…Bu yüzden resmimin duvara asılmasına razı olamam," demiş Padişahımız. "Ama bunu istiyordu," diye fısıldadı Eniştem bana şeytanca gülümseyerek”[1].Tarjimasi: “So‘ng markaziga bir pakanani joylashtirganing rasmni devorga osishni istaysan, — so‘zida davom etdi podshohimiz. — Ammo rasm devorga osilishi mumkin emas. Chunki devorga osgan rasmimizga, maqsadimiz nima bo‘lsa-da, bir muddat so‘ngra topinishni boshlaymiz. Kofirlar kabi hazrat Iso ayni zamonda – astag‘firulloh — Alloh ekaniga ishonsaydim, Alloh dunyoda ko‘rilishi mumkinligini, hatto insonda namoyon bo‘lishini anglab, inson rasmini devorga osishni qabul etardim. Devorga osilgan har rasmga eng oxirida o‘zimiz bilmagan holda topinishni boshlashimizni tushunyapsanmi?... -Shu sababdan rasmim devorga osilishiga rozi bo‘lolmayman, — degan edi pochchamga podshohimiz. -Ammo u buni istardi, — shivirladi pochcham menga shaytoniy kulgi bilan”[2].

Pochchaning asl qiyofasi uning Qoraga aytgan mulohazalarida ham yaxshi ochiladi. Jumladan, quyidagi ko‘chirmada Pochchaning bir paytlar aytgan mulohazalari ushbu aqidaning tasdig‘i bo‘la oladi: “Ama herkesten ayrı olduğumu, değişik olduğumu, benzersiz olduğumu hissetmek de istiyordum sanki," dedi. Böylece Seytan’ın bizi günaha sürükleyeceği zamanlarda olacağı gibi korktuğu şeye doğru güçlü bir isteğin çekimiyle sürüklendiğini hissetmiş. "Nasıl desem, sanki günahkârca bir istekti bu, sanki Allah’a karşı büyüklenmek, kendini önemli bir şey sanmak, dünyanın merkezine kendini yerleştirmek gibiydi”[3]. “Ammo hammadan alohidaligimni, boshqachaligimni, o‘xshashi yo‘q ekanimni his etishni istardim go‘yo, — dedi. Shunday gilib, shayton bizni yo‘ldan ozdirgan paytlari bo‘lgani kabi qo‘rqgan narsamizga nisbatan kuchli istak tug‘dirib amallaganini his etibdi. — Nima desam, go‘yoki gunohkorona bir istak edi bu, go‘yoki Allohga qarshi buyuklanish, o‘zini muhim deb hisoblash, dunyo markaziga o‘zini joylashtirish kabi edi”[4].

“Kâğıdı yumruk yaptığım avucumun içinde bir mücevher gibi sıkıca sakladım. Bunun Şeküre’den bana yollanmış bir küçük mektup olduğunu iyice idrak edince, az daha mutluluktan sersemce Enişte’ye gülümseyecektim”[5]. Tarjimasi: “Qog‘ozni musht

[1] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 122.
[2] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b.160.
[3] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 121.
[4] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... 158-159 betlar.
[5] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 130.

qilganim hovuchim ichida bir javhar kabi mahkam saqladim. Bu Shakuradan menga yo‘llangan bir kichik maktubligini yaxshi idrok etib, azbaroyi baxtimdan pochchamga jinniday tirjayardim”[1]. Oshiq uchun ma’shuqaning iltifotidan ortiq e’tirof va e’tibor mavjud emas. Ayniqsa, intiqlik darajasi nihoyatda baland bo‘lgan bir paytda bu iltifotning maktub shaklida namoyon bo‘lishi har qanday oshiqni olamlar ichiga sig‘may ketishi uchun sabab bo‘la oladi. Matnda maktubni ushlashning “javhar”ga o‘xshatilishida ana shunday qadr qimmat, e’zoz va ikrom mujassamlashgan. Baxtga qarshi, keyinroq ma’lum bo‘ladiki, bu maktub oddiygina bir varaq qog‘ozdan, qog‘oz bo‘lganda ham biror chiziq tortilmagan bo‘sh qog‘ozdan iborat bo‘lib chiqadi.

“Esmerdi, bembeyaz tenli, yeşil gözlü bir güzeldi; güçlü kolları vardı, ama aslında uyuyakalmış çocuk gibi hep masum ve sessizdi”[2]. Tarjimasi: “Qora soch edi, oppoqqina, yashil ko‘zli bir suqsurdek; mushaklari baquvvat, ammo aslida uxlab yotgan go‘dak kabi ma’sum va kamgap edi”[3]. Shakura erining portretini chizganida unga nisbatan qadimiy simpatiyasi har holda issiqroq seziladi.

“Nakşedilen kitapların çoğunun yazarı Şehnamecibaşı Lokman Efendi elden ayaktan düşüp evinden çıkmaz olduğu, Bâşnakkaş Osman sürekli bir kırgınlık ve öfkenin dumanları içinde kaybolduğu ve Kelebek, Zeytin, Leylek ve Zarif takma adlı dört üstat evlerinde çalıştığı ve Padişahımız da artık nakkaşhanede çocuk gibi heyecanlanamadığı için artık hiç yapılmayan bu tören yerine onun bir taklidinin yapılması beni kederlendirdi”[4]. Tarjimasi: “Naqsh etilgan kitoblarning ko‘pchiligini yozgan shohnomachiboshi Luqmon afandi qo‘l-oyoqdan qolib uydan chiqmay qo‘yishi, bosh naqqosh Usmon doimiy xafalik va o‘pka tumanlarida g‘oyib bo‘lishi, Kapalak, Zaytun, Laylak va Zarif taxallusli to‘rt ustod uylarida ishlayotgani hamda podshohimiz ortiq naqqoshxonada go‘dak kabi hayajonlanmay qo‘ygani uchun bajarilmay qo‘ygan bu odat o‘rniga uning taqlidi bajarilishi meni ranjitdi”[5]. Bu parchadagi Podshohning “go‘dak kabi” xursand bo‘lishi ostida, dabdurustdan tasavvur qilish qiyin bo‘lgan bir vaziyat mavjud. U vaziyat mazmunini bilmasdan turib, mazkur o‘xshatishning mazmun qamrovini ham, ta’sir doirasini ham tasavvur qilish mumkin emas. Vaziyat tavsifi esa, romanda Pamuq tomonidan shunday berilgan: ““Vaziyet”, nakkaşhanede olup bitenleri çok yakından takip ettiği o heyecanlı zamanlarda, Padişahımızın her iki ayda bir nakkaşhane binasını ziyaretleri sırasında yapılan bir törendi. Hazinedarbaşı Hazım, Şehnamecibaşı Lokman ve Başnakkaş Üstat Osman’ın eşliğinde Padişahımıza nakkaşhanenin üstatlarının, hangi kitapların hangi sahifeleri üzerinde çalıştığı, kimin hangi tezhibi yaptığı, kimin hangi resmi renklendirdiği, renkbazların, cetvelkeşlerin, müzehhiplerin, ellerinden her iş

[1] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b.170.
[2] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 52.
[3] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 61.
[4] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 65.
[5] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 81.

gelir on parmağında on marifet usta nakkaşların tek tek hangi işlerin üzerinde oldukları anlatılırdı”[1]. Tarjimasi: ““Vaziyat” naqqoshxonada bolib o‘tgan voqealarni yaqinda kuzatganim u hayajonli zamonlarda podshohimiz har ikki oyda bir naqqoshxona binosini ziyorat qilishida amalga oshiriladigan odat edi. Xazinadorboshi Hazim, shohnomachiboshi Luqmon va bosh naqqosh ustod Usmon eshligida podshohimizga naqqoshxona ustodlari qaysi kitoblarning qaysi safhalari ustida ishlayotgani, kim qaysi tazhibni bajargani, kim qaysi rasmni ranglagani, rangbozlar, jadvalkashlar, muzahhiblar, qo‘llaridan har ish keladigan, o‘n barmog‘ida o‘n ma’rifat bor usta naqqoshlar qaysi ish ustida ekanligi birma-bir ko‘rsatilar edi”[2].

“Sanki kıskançlıktan, hırstan, açgözlülükten söz ediyormuş gibi kelimeleri küçümseyiciydi, ama Venedik’te gördüğü portrelerden söz ederken, yüzü bazen bir anlığına bir çocuğunki gibi aydınlanıp hayatla doluyordu”[3]. Tarjimasi: “Hasad, shuhratparastlik, ochko‘zlikdan so‘zlayotgan kabi kalimalarni iltifotsizlik bilan tilga olar, ammo Venetsiyada ko‘rgan portretlaridan so‘zlarkan, yuzi ba’zan bir onga go‘dakniki kabi oydinlashib, hayotga to‘lardi”[4].

Qoraning bu mulohazalarida muallif – O‘rxon Pamuq ayrim axloqiy masalalarga urg‘u beradi. Xususan, sharq bilan g‘arb tarozisini tortayotganda toshni g‘arbning posangisiga ko‘proq yon bergani ko‘rinadi. Zero, insondagi ayrim ma’naviy ojizliklar yoki qusurlar haqida gapirib turgan Venetsiya san’ati mavzusiga ko‘chishi bilan undagi o‘zgarishlarning ko‘tarinki bir kayfiyatga almashinuvi aniqrog‘i, uning yuzida “go‘dakniki kabi” ifodaning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi.

**Xulosa.** O‘xshatishlarning personajlar nutqida qo‘llanishi ustoz D.Quronov aytganlaridek “xarakter ruhiyatini ochish, umuman, inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan yana biri”ga[5] aylanadi. Umuman, Mening ismim Qirmizi postmodernizm adabiyotining o‘ziga xos namunasi sifatida tasvirning turli shakl va usullarining qo‘llanishiga ko‘ra ancha boy va takrorlanmas badiiy jiloga ega. Ayrim o‘xshatishlar misolidayoq bu jihatlarning naqadar muhim va jiddiy xulosalarga asos bo‘lishi ochiq ko‘rinadi. Ular, bir tomondan, asar qahramonlarining o‘ziga xosliklarini, ularning takrorlanmas badiiy obrazlar sifatida ko‘rsatib bersa, ikkinchi tomondan, asar muallifining bu borada o‘tkir qalam egasi ekanini, turk adabiyotida chinakamiga buyuk mavqe egasi sifatidagi yuksak mahoratini namoyish etadi. Bularning barchasi asarni atroflicha tadqiq etishning zarurati va juda katta ahamiyatini ham ta’kidlab turadi.

[1] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 65.
[2] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 81
[3] Orhan Pamuk. *Benim Adım Kırmızı...* s. 119.
[4] Pomuq O‘rxon. Mening otim Qirmizi... b. 156.
[5] Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn] : darslik / — Toshkent: «Noshir» nashriyoti, 2019, 77-bet.

# UMMON ROMANCHILIGINING O‘RGANILISH MASALASI

***MAXFUZA SHAMSIMATOVA***
*Tayanch doktorant, TDSHU*

***Annotatsiya.*** *Ko‘rfaz mintaqasida yuz bergan iqtisodiy yuksalish bu mamlakatlar hayotida misli ko‘rilmagan ijobiy burilishlarga sabab bo‘ldi. Bu rivojlanish davlatlarning siyosiy, ijtimoiy, ayniqsa, madaniy hayotida o‘zining ulkan tasirini ko‘rsatdi. Fan, ta’lim, san’at va adabiyotda yangilanish boshlandi. Buning ortidan necha yillar davomida turg‘un, rivojlanishsiz yashab kelgan mintaqa adabiyoti yangidan-yangi adabiy janrlarni qabul qildi. Ko‘rfaz mamlakatlari uchun hali notanish bo‘lgan shunday janrlardan biri roman janri edi. Roman kirib kelishi bilanoq ijodkorlarga tamomila yangicha ruhda ijod qilish, hali qo‘l urilmagan ko‘plab mavzularni qalamga olish imkonini berdi. Muhimi shundaki, roman Ko‘rfaz mamlakatlarining barchasiga deyarli bir vaqtning o‘zida kirib kelgan bo‘lsa-da, rivojlanish bosqichlarida bir-biridan keskin farq qiladi. Bu adabiy janrning yuksalish bosqichlari biroz kech kuzatilgan mintaqa davlatlaridan biri Ummon sultonligi hisoblanadi.*

*Mazkur maqolada ummon adabiyotida romanchilikning o‘rganilish masalasi haqida so‘z boradi. Tadqiqotda ushbu ishga qo‘l urgan ummonlik adabiyotshunoslar, munaqqidlar va ularning amalga oshirgan ilmiy kuzatuvlari haqida mulohaza yuritilgan. Shu bilan birga, taniqli ummonlik adiba Joxa Harisiy va uning nomini mashhurlikka olib chiqqan ikki romani “Oy xonimlari” va “Apelsin daraxti” xususida qilingan ilmiy kuzatuvlar ham mazkur maqolaga jalb qilingan. Bu ish doirasida izlanishlar olib borgan olimlar nomi sanab o‘tilgan va ularning ilmiy kuzatuvlari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *XX asrning ikkinchi yarmi, roman janri, Abdulloh Toiy, 90-yillari ummon adabiyoti, Joxa Harisiy, “Oy xonimlari” romani, “Apelsin daraxti” romani.*

***Аннотация.*** *Экономический подъём, произошедший в регионе Персидского залива, привёл к беспрецедентным позитивным изменениям в жизни этих стран. Данное развитие оказало значительное влияние на политическую, социальную и особенно культурную сферы государств. Началось обновление в науке, образовании, искусстве и литературе. Вслед за этим литература региона, которая на протяжении многих лет оставалась застойной и неразвитой, стала воспринимать новые литературные жанры. Одним из таких жанров, ранее незнакомых для стран Персидского залива, стал роман. С появлением романа у писателей появилась возможность творить в совершенно новом духе и обращаться к множеству ранее не затронутых тем. Важно отметить, что, несмотря на то что роман практически одновременно появился во всех странах Персидского залива, этапы его развития существенно различаются. Одной из стран региона, где развитие этого литературного жанра наблюдалось несколько позже, является Султанат Оман.*

*В данной статье рассматривается вопрос изучения жанра романа в оманской литературе. В исследовании подробно анализируются труды оманских литературоведов, критиков и их научные наблюдения в данной области. Вместе с*

*тем в статью включены научные исследования, посвящённые известной оманской писательнице Джохе Альхарти и двум её романам — «Небесные тела» и «Апельсиновое дерево», которые принесли ей широкую известность. В рамках данной работы перечислены имена учёных, занимавшихся исследованиями в этой области, и проанализированы их научные выводы.*

***Ключевые слова:*** *вторая половина XX века, жанр романа, Абдуллах ат-Таи, оманская литература 1990-х годов, Джоха Альхарти, роман «Небесные тела», роман «Апельсиновое дерево».*

***Annotation.*** *The economic boom that occurred in the Gulf region led to unprecedented positive changes in the lives of these countries. This development had a significant impact on the political, social, and especially cultural spheres of the states. Renewal began in science, education, art, and literature. As a result, the literature of the region, which had remained stagnant and underdeveloped for many years, began to adopt new literary genres. One of such genres, previously unfamiliar to the Gulf countries, was the novel. With the introduction of the novel, writers gained the opportunity to create in an entirely new spirit and to address many previously unexplored themes. Importantly, although the novel entered almost all Gulf countries at nearly the same time, its stages of development differ significantly from one country to another. One of the states where the development of this literary genre was observed relatively late is the Sultanate of Oman.*

*This article discusses the study of the novel genre in Omani literature. The research provides a detailed analysis of Omani literary scholars, critics, and their academic contributions to this field. At the same time, the study also incorporates scholarly observations on the prominent Omani writer Jokha Alharthi and her two famous novels, "Celestial Bodies" and "Bitter Orange Tree." Within the framework of this work, the names of scholars who have conducted research in this area are mentioned, and their academic findings are analyzed.*

***Keywords:*** *second half of the 20th century, novel genre, Abdullah al-Tai, Omani literature of the 1990s, Jokha Alharthi, "Celestial Bodies" novel, "Bitter Orange Tree" novel.*

**Kirish.** XX asrning ikkinchi yarmida Koʻrfaz davlatlari adabiyotida roman janri paydo boʻldi. Bu diyorda neft manbalari topilishi bilan sodir boʻlgan iqtisodiy yuksalishdan keyingina roman janri shakllandi va jadal rivojlanishni boshladi. Koʻrfaz mamlakatlarining har qaysisida roman oʻzaro umumiy jihatlarga ega boʻlsada, bu janrning ushbu mintaqadagi tarixiy taraqqiyot yoʻli va rivojlanish bosqichlari bir-biridan keskin farqlanadi. Ushbu mintaqa davlatlarining har qaysisi oʻziga xos tarixiy sharoitlar va ijtimoiy omillar ta'sirida bu janrni qabul qilgan. Arab mamlakatlari oʻrtasidagi adabiy aloqalar va ularning oʻzaro munosabati ham bu rivojlanish jarayoniga muhim ta'sir koʻrsatgan. Darhaqiqat, roman janrining paydo boʻlishi birmuncha kechroq sodir boʻlgan davlatlardan biri Ummon sultonligi hisoblanadi. Ummon adabiyotida e'lon qilingan ilk roman 1958-yilda nashr qilingan boʻlib, adib Abdulloh Toiyga tegishlidir.

Ummon adabiyotida roman janrining yuzaga kelishi xususida bir qancha olimlar ilmiy kuzatuvlar olib borganlar. Bu o‘rinda, Mahmud Hamad, Ali ibn Hamad Farisiy, Yusuf Ma’mariy, Hamad Siyobiy, Salim Ajmi, Sayf ibn Ali Fahdiy, Ahmad Samaraiy, Ahmad Hoshim Samroiy, Ahmad Avad Karaki, Salim Za’aniyya kabi olimlar nomini alohida qayd qilish lozim.

**Maqsad va vazifalar.** Mazkur maqolaning maqsadi ummon romanchiligining o‘rganilish masalasini yoritish va ushbu ishga hissa qo‘shgan olimlarning ilmiy kuzatuvlarini tadqiq qilishdan iborat.

Ummon adabiyotida roman janrining adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilishi, ushbu mavzu yuzasidan olib borilgan ishlarning o‘ziga xosliklarini talqin etish, yetuk munaqqidlarning ilmiy tadqiqotlaridan misollar keltirish va ularni tahlilga tortish maqola oldiga qo‘yilgan vazifalardan hisoblanadi.

**Usullar.** Sultonlikda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy islohotlar va iqtisodiy yuksalish ortidan ummon adabiyotiga tamomila yangi bir adabiy janr roman janri kirib keldi. Ummon romanchiligining o‘rganilish masalasiga bag‘ishlangan mazkur ilmiy tadqiqot tarixiy-qiyosiy tahlil, badiiy tahlil jarayonida tizimli tahlil metodlaridan va qiyoslash usullaridan foydalangan holda o‘rganildi.

**Natijalar va mulohaza.** Darhaqiqat, ummon adabiyoti bugungi kungacha yangidan-yangi umidli qalamkashlarni kashf qildi va shu bilan jahon adabiyotshunoslarining e’tiborini o‘ziga torta oldi. Yozuvchilar orasida oddiy kishilarni roman bosh qahramoni sifatida tanlab olish va ularni haqqoniy tasvirlash kuchaydi. Ushbu janr ummonlik yozuvchilarga ilgari yaratilmagan yangi inson qiyofasini qalamga olish imkonini berdi. Bir so‘z bilan aytganda, roman janri ummon adabiyotida paydo bo‘lgach, uzoq yillar hukm surgan she’riyatning tanho rivojlanishiga chek qo‘ydi. Shu zayl nasrning bu janrida ijod qilishga bo‘lgan qiziqish ortib bordi.

O‘tgan asrning 90-yillari ummon adabiyotida tub burilishlar yili bo‘ldi. Ushbu fikrlarni adabiyotda yetuk romannavislar adadi ko‘paygani bilan izohlash mumkin. Ali Ma’mariy, Hamad Nasiriy, Muborak Umariy, Ali Ma’riy, Husayn Abriy, Muhammad ibn Sayf Rahbiy, Azhar Ahmad, Huda Hamd, Aziza Toiya va Joxa Harisiy kabi ijodkorlar yuqoridagi fikrlarga yorqin misol bo‘la oladi. Albatta, ummon adabiyotida romannavislikning rivojiga o‘zining benihoya hissasini qo‘shgan va ushbu adabiyot nomini jahon sahnasida bot-bot tilga olinishiga sabab bo‘lib kelayotgan mazkur yozuvchilardan biri Joxa Harisiy hisoblanadi.

“Orzular”, “Oy xonimlari”, “Apelsin daraxti” “Jayronning ipagi” kabi o‘zining keng qamrovli romanlari bilan shuhrat qozongan, ko‘plab jahon va sultonlik mukofotlariga sazovor bo‘lgan ummonlik adiba Joxa Harisiy bugun adabiyotshunoslarning ko‘plab ilmiy kuzatuv va tadqiqotlariga sabab bo‘lmoqda.

Dastlab hikoyalar yozish bilan ijodini boshlagan adiba 2004-yilda ilk romani bo‘lgan “Orzular” asarini o‘z kitobxonlariga taqdim qildi. Ushbu roman garchi

adibaga shuhrat olib kelmagan bo‘lsa-da, uning nomini romannavislar qatorida tilga olinishiga sabab bo‘ldi. Bu o‘rinda alohida qayd qilish joizki, “Orzular” romani adiba uchun o‘z iste’dodini kashf qilish va haqiqiy ijodiy tajriba to‘plash imkonini berdi. Yozuvchi o‘z badiiy mahoratini oshirish va uslubini yaratish yo‘lida tinimsiz mehnat qildi. Albatta, ushbu mehnat besamar ketmadi. Oradan ko‘p o‘tmay, aniqrog‘i, 2010-yilda adibaga katta shuhrat va ko‘plab mukofotlar olib kelgan ikkinchi romani “Oy xonimlari” chop etildi. Yaratilishi bilanoq katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan ushbu roman jahonning nufuzli mukofotlaridan biri sanalgan Man Bookerga loyiq ko‘rilgan. Bu hodisa ortidan olimlarning nafaqat ummon adabiyotiga, balki sultonlik ijtimoiy hayotiga, madaniyatiga bo‘lgan qiziqishi ortdi. Adibaning keyingi asari bo‘lmish “Apelsin daraxti” romani ham ijodkorga katta muvaffaqiyat olib keldi. Bir so‘z bilan aytganda, “Oy xonimlari” va “Apelsin daraxti” romanlari tom ma’noda adibani kitobxonlarning sevimli yozuvchisiga aylantirdi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Joxa Harisiyning romanlari, shu jumladan, “Oy xonimlari” va “Apelsin daraxti” asarlari xususida ko‘plab adabiyotshunoslar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ummonlik olimlar Liliya Bulmaash, Hind bin Abdulaziz, Omaima Tobiy, Met’eb Ali Alnvairan, Ahmad Muhammad Nosir Rahbiy, Zohir bin Marhun Davudiy shular jumlasidandir. Olimlar Liliya Bulmaash va Hind bin Abdulaziz “Joxa Harisiyning “Oy xonimlari” romanida tatris estetikasi” nomli dissertatsiyani e’lon qilgan[1]. Muhimi shundaki, mazkur tadqiqotda roman janrining mustaqil adabiy janr sifatida arab adabiyotiga kirib kelganiga va ushbu mintaqa davlatlarida qay tarzda yoyilganiga e’tibor berilgan. Shu bilan birga, Ko‘rfaz mamlakatlarida roman janrining rivojlanish bosqichlari haqida ham so‘z borgan. Bundan tashqari, dissertatsiyaning dastlabki boblarida “tatris” (yangi shaklda qayta yaratish) estetikasi va uning mohiyatiga ham to‘xtab o‘tilgan. Ushbu bobda taniqli faylasuflar Aflotun, Kant, shu bilan birga, arab mutafakkirlaridan Abu Hamid G‘azzoliy, Abu Hayyon Tavhidiy qarashlari ham batafsil yoritilgan. Tadqiqotning keyingi qismlarida tatris san’atining “Oy xonimlari” romanida qo‘llanilishiga e’tibor berilgan. Ilmiy ish doirasida romandan misollar keltirib o‘tilgan va ular atroflicha tahlilga tortilgan.

Omaima Tobiy va Met’eb Ali Alnvairan kabi ummonlik olimlar ham Joxa Harisiyning “Oy xonimlari” romani xususida ilmiy ishlar olib borgan bo‘lib, ulardan biri “Oy xonimlari romanida erkakning obyekt sifatida tasvirlanishi: dekonstruktiv tahlil” deb nomlanadi[2]. Mazkur ish romanda ko‘p ham e’tibor berilmagan erkak qahramonlarni obyekt sifatida tasvirlashni maqsad qilgan. Bundan tashqari, ushbu ilmiy maqola dekonstruktiv yondashuv asosida romandagi erkak va ayollarni qay

[1] ليليا بولمعاش.، هند بن عبد العزيز. جمالية التطريس في رواية (سيدات القمر) ل"جوخة الحارثي". مذكرة مكملة لنيل شهادة الماجستر. – الجزائر، ٢٠٢١. — ٢٠٠ ص.؛

[2] Omaima T., Me’teb A. Male Objectification in Jokha Alharthi’s Celestial Bodies: A Deconstructive Reading // World Journal of English Language. – Oman, 2023. – P. 414-420.

tarzda zulmga qarshi kurashayotganligini tahlil qilgan, shuningdek, an’anaviy arab olamida feminizmning rivojlanishi va sultonlikda hukmron bo‘lgan qoidalarni ham tanqid qilgan.

Ummonlik yana bir adabiyotshunos olim Zohir bin Marhun Davudiy “Apelsin daraxti” romani xususida samarali tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, ulardan biri “Apelsin daraxti romanida muallif niyati: Joxa Harisiy asari asosida lingvistik tadqiqot” [1] deb nomlanadi. Ushbu maqolaning maqsadi “Apelsin daraxti”ning lingvistik tuzilishini yoritishdan iborat. Shu bilan birga, u asarda ijtimoiy ziddiyatlar qanday ochib berilganligiga ham e’tibor beradi.

So‘nggi tadqiqotlar Ko‘rfaz mintaqasi olimlarining bir qanchasi ummon adibasi ijodiga befarq emasligini ko‘rsatdi. Saudiyalik adabiyotshunos Shabih Nafis Ahmad va qatarlik olim Muneera Kubaisiyning say-harakatlari yuqoridagi fikrlarga yorqin misol bo‘la oladi. Shabih Nafis Ahmad “Oy xonimlari” asarini tadqiq etgan ilmiy ishlarni e’lon qilgan, shulardan biri “Joxa Harisiyning “Oy xonimlari” romani: obraz yaratish san’ati”dir[2]. Mazkur tadqiqot Joxa Harisiyning obraz yaratish mahoratini tahlil qilgan, shuningdek, romanda ko‘tarilgan qullik, kambag‘allik va hur yashashga bo‘lgan intilish kabi muammolarni yoritib bergan. Bundan tashqari, ushbu ilmiy maqola kitobxonlarga adabiy asarning o‘ziga xos xususiyatlarini va tahlil qilish usullarini yanada yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi.

Qatarlik olim Muneera Kubaisiy olib borgan ilmiy tadqiqot ham Joxa Harisiyning romanlarini o‘rganishda qimmatli manbalardan hisoblanadi. Muneera Kubaisiy “Ummon romani “Oy xonimlari” narrativini arab va ingliz tillarida talqin qilish: sharhlar va qo‘shimcha matnlar asosida qiyosiy tahlil” [3] deb atalgan o‘z dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Tadqiqot kitobxonlarning roman haqidagi fikrlarini paratekstlardan (yordamchi matnlar) yaratilgan umumiy qarashlar bilan mos kelishi yoki farq qilishini o‘rganadi. Dissertatsiyaning maqsadi yordamchi matnlarning roman va unda ko‘tarilgan muammo haqida haqli tasavvurlar hosil qilish, shuningdek, boshqa millat madaniyatini noto‘g‘ri talqin qilinishiga qarshi turishdagi o‘rnini ko‘rsatishdan iborat.

Joxa Harisiy romanlarini o‘rganishda rus olimlari ham salmoqli ishlarni amalga oshirishgan. Jumladan, Yuliya Vlasova “Ummon sultonligining an’analari va ularning “Oy xonimlari” romanida aks etishi” deb nomlangan maqolasini e’lon qilgan [4]. Ushbu ilmiy kuzatuv doirasida olim ummon xalqining urf-odatlari,

[1] Al-Davudiy. Intentionalism in the Novel Naranjeh by the Writer Jokha Al-Harithiya Linguistic Study // Dirasat: Human and Social Sciences. – Oman, 2024, 51(6). – P. 422–431.
[2] Shabih N.A. Jokha Alharthi’s Celestial Bodies: Art Of Characterization // Literary Herald An International Refereed/Peer-reviewed English e-Journal. – Saudi Arabia, 2021, № 5. – P. 163-170.
[3] Al-Kubaisi. Framing the narrative of the omani novel Sayyidat al-qamar in arabic and english: a cross-examination of reviews and paratexts. Diss. … mas. – Qatar, 2020. – 166 p.
[4] Власова Ю. Обычаи традиции Султаната Оман и их отражение в романе Джохи Аль-Харти «Небесные тела» // Филология: научные исследования. – Москва, 2021, № 11. – С. 27-37.

an’analari, sultonlikdagi turmush hayotining o‘ziga xosliklari, to‘y tantanasi, farzand tug‘ilishi va dafn marosimlarida amalga oshiriladigan udumlarni muallif tomonidan haqqoniy ifodalanishini tadqiq etgan. Yuliya Vlasovaning fikricha, ummonning etnografik hayoti Joxa Harisiy tomonidan ilk bor badiiy ifoda etilgan va aynan shu jihat asarning yangiligi hisoblanadi. Bundan tashqari, romanda qishloq hayoti zamonaviy shahar hayoti bilan zid qo‘yiladi. Olim asarda ifodalangan mana shu qarama-qarshiliklarga diqqat qiladi. Uning xulosasi shuki, Joxa Harisiyning “Oy xonimlari” romani nihoyatda keng qamrovga ega. Asarni turli nuqtayi nazardan tadqiq qilish mumkin. Negaki asar bir oilaning uch avlodi, bir insonning tug‘ilishidan to bu yorug‘ olamni tark etgungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan.

Adibaning “Oy xonimlari” romani ustida ilmiy kuzatuvlar olib borgan rus olimlaridan yana biri Viktoriya Zaritovskaya hisoblanadi. U taniqli ummon yozuvchisi va adabiyotshunosi Rahbiy bilan hammualliflikda “Ummon romani – Man Booker (2019) g‘olibi”[1] nomli maqolasini e’lon qilgan. Mazkur ilmiy tadqiqotda romanning nufuzli mukofotni qo‘lga kiritishdagi bosib o‘tgan yo‘li va Joxa Harisiy bilan o‘tkazilgan suhbat asosida “Oy xonimlari”ning yozilish tarixi tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada Joxa Harisiyning badiiy mahorati, o‘ziga xos uslubiga e’tibor berilgan va romanning badiiy qiymati, bugungi kundagi ahamiyatiga ham to‘xtab o‘tilgan. Adabiyotshunoslarning fikricha, ushbu roman zamonaviy arab adabiyotini, ayniqsa, Ko‘rfaz mintaqasidagi ayollar prozasini tamomila yangi bosqichga chiqqanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, olimlar asarda mikrokompozitsiya, polifoniya va ong oqimi kabi uslublardan muallif muvaffaqiyatli foydalanganligini ham qayd qiladi. Viktoriya Zaritovskaya va Rahbiy fikricha, ushbu roman mamlakatning yaqin tarixini aks ettiradi, ko‘plab dialektal so‘zlar, maqollarni o‘z ichiga oladi, shuningdek, sultonlik an’analarini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Shu jihatiga ko‘ra uni “ensiklopediya” sifatida baholash mumkin. Joxa Harisiy zamon ruhini aniq his qilgan, yangi davr ummon kishisining ruhiy qiyofasini, uning ichki iztiroblarini tasvirlay olgan. Munaqqidlar ta’kidlashicha, o‘tgan yarim asr Ummonning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy jihatdan yuksalish davri bo‘ldi. Sultonlikni qamrab olgan savodsizlik bartaraf etildi va shu bilan, iqtidorli yozuvchilar avlodining shakllanishiga yo‘l ochildi. “Oy xonimlari”da mana shu jarayonlar yorqin ifodalangan va roman shu jihatiga ko‘ra ham qimmatli asar hisoblanadi.

Adabiyotshunoslar Viktoriya Zaritovskaya va Rahbiyning “Oy xonimlari” romani xususida e’lon qilgan yana bir ilmiy maqolalari mavjud bo‘lib, u “Tarixiy kontekstda ayol obrazlari: ummonlik adiba Joxa Harisiyning Man Booker xalqaro mukofotini qo‘lga kiritishi”[2] deb nomlanadi. Olimlar navbatdagi maqolalarida “Oy xonimlari”ni

[1] В.Н. Зарытовская В., Аль-Рахби М. А. Роман из омана — победитель the Man Booker International Prize – 2019 // Азия сегодня и Африка. — Москва, 2020, № 9. – С. 75-80.

[2] В.Н. Зарытовская В., Аль-Рахби М. А. Женские образы на историческом фоне: победа оманской писательницы Джохи альХарти в The Man Booker International Prize – 2019 //

o‘rganish barobarida ummon adabiyotiga ham nazar solgan. Viktoriya Zaritovskaya va Rahbiyning ilmiy kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, ummon adabiyoti uzoq yillar yopiq muhitda turg‘un holda qolgan va hech bir o‘zgarishsiz yashab kelgan. Vaqt o‘tishi bilan sultonlikda uyg‘onish davri boshlangan va barcha sohalar qatori adabiyot ham keskin o‘zgarishlarni o‘z boshidan o‘tkazgan. Zamonaviy badiiy uslublar ummon adabiyotiga kirib keldi va an’anaviy janrlar bilan uyg‘unlashuvi yuz berdi. Bundan tashqari, tadqiqot ummon adabiyoti va umuman og‘zaki-yozma madaniyatining ilk o‘rta asrlardan to bugungi kungacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘lini tadqiq etadi. Ummon adabiyotiga xos bo‘lgan muhim xususiyatlarni ifodalash ham maqolaning maqsadlaridan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Ummonlik adibaning romanlari ustida tadqiqotlar yaratgan rus olimlaridan yana biri Seredina hisoblanadi. Munaqqid “Joxa Harisiyning “Oy xonimlari” romanida o‘zga nutq va uning rus hamda ingliz tillarida ifodalanishi”[1] nomli maqolasini chop etgan. Ushbu tadqiqot romanning rus, ingliz tillariga o‘girmalari o‘rtasida o‘zga nutq xususiyatlarini aniqlash va ularni qiyosiy o‘rganishni maqsad qilgan. Ishning ilmiy yangiligi esa romandagi o‘zga nutq va muallif nutqning asosiy belgilarini tavsiflash, shuningdek, bu belgilarni ikki xil tarjima orqali qiyoslashda namoyon bo‘ladi. Natijalar Joxa Harisiy uslubining o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi va arab tilidan rus-ingliz tillariga o‘girishning o‘ziga xos tomonlarini ko‘rsatadi.

Joxa Harisiy romanlari xususida bir qancha ilmiy tadqiqot va kuzatuvlar olib borgan adabiyotshunoslar orasida eronliklar ham bor. Ali Akbar Muhammadiy, Hojatulloh Fesanqariy, Nasiba Shahamat Dehsorx, Maryam Ixtiyoriy, Ali Najafiy Ivakiy, Muhsin Sayfiy, Zahra Farid kabi olimlar shular jumlasidandir. Ali Akbar Muhammadiy, Hojatulloh Fesanqariy, Nasiba Shahamat Dehsorx kabi olimlar “Joxa Harisiy qalamiga mansub “Oy xonimlari” va Nasim Marashining “Kuz – yilning so‘nggi fasli” romanlarida ong oqimining dinamik jarayoni nuqtayi nazaridan narrativ texnikalar va lingvistik vositalarning qo‘llanishi” nomli ilmiy tadqiqotni e’lon qilganlar[2]. Mazkur tadqiqot doirasida, avvalo, ong oqimining hikoya qilishdagi ahamiyatiga to‘xtab o‘tilgan. Bundan so‘ng, Joxa Harisiy va Nasim Marashining yuqorida zikr qilingan “Oy xonimlari” va “Kuz – yilning so‘nggi fasli” romanlari olimlar tomonidan analitik-tavsifiy metodni qo‘llash orqali o‘rganilgan. Shu bilan birga, olimlar har ikki romanni qiyoslab, yozuvchilar tomonidan jamiyatdagi

---

Вестник РУДН. Серия: Литературоведение. Журналистика. – Москва, 2020. № 4. – С. 692–704.

[1] Середина Е.В. Чужая речь в романе Джоха аль-Харти «Небесные тела» и его переводов на русский и английский языки // International journal of advanced studies in language and communication. – Белгород, 2025, vol. 8, №1. – С. 49-59.

[2] Mohammadi A. A., Fesanghari H., Shahamat Dehsorkh, N. The Application of Narrative Techniques and Linguistic Tricks in the Novels Sayyid al-Qamar by Al-Harithi Squad and Autumn is the Last Season of the Year by Nasim Marashi from the Perspective of Fluid Flow of Mind // Research in Comparative Literature. – Iran, 2022, № 12 (2). – C. 131-150.

ayollarning o‘rni, ularni qiynab kelayotgan muammo va ichki kechinmalari qay tarzda qalamga olinganligiga ham e’tibor berishgan. Qiyosiy o‘rganishlar so‘ngidagi adabiyotshunoslarning yakdil ilmiy xulosalari romanda qahramonlarning ichki dunyosini kitobxonlarga ochib berishda Joxa Harisiy ko‘proq muvaffaqiyat qozonganligini ko‘rsatadi.

Yozuvchining “Apelsin daraxti” romani xususida Maryam Ixtiyoriy, Ali Najafiy Ivakiy, Muhsin Sayfiy kabi olimlar ““Apelsin daraxti” va “Suvashun” romanlarida an’ana va zamonaviylikning qiyosiy tahlili” deb atalgan tadqiqotni olib borgan[1]. “Apelsin daraxti” romani ikki davrni qamrab olgan bo‘lib, an’ana va zamonaviylik orasida qolgan avlodning turmush tarzini tasvirlaydi. Eronlik ijodkor Simin Daneshvar qalamiga mansub “Suvashun” romani esa ikkinchi jahon urushi vaqtida yashagan bir eronlik oilaning hayot yo‘lini hikoya qiladi. Yuqorida nomi zikr qilingan ilmiy ish mana shu ikki romanda qo‘llanilgan an’ana va zamonaviylikni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish orqali qiyosiy o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Har ikki romanda qalamga olingan nikoh, oila, qishloq va shahar hayotini tasvirlash asarlarning birlashtiruvchi jihatlaridan sanaladi. “Apelsin daraxti” romanida o‘tmish – an’ana, bugungi kun esa zamonaviylashuv sifatida, “Suvashun” romanida esa an’anaviylik va zamonaviylashuv bir vaqtning o‘zida tasvirlangan va bu romanlarning bir-biridan keskin farqlovchi jihatlari hisoblanadi.

Ummonlik adibaning romanlari ustida ilmiy ish olib borgan eronlik olimlardan yana biri Zahra Farid hisoblanadi. Olimning ““Oy xonimlari” romanida karnaval unsurlari: Mixail Baxtin nazariyasi asosida” deb nomlangan maqolasi nashr qilingan[2]. Mazkur maqolada Joxa Harisiyning ko‘p qatlamli hikoya qilish usuli orqali karnaval olamini yaratganligi ta’kidlanadi. Ilmiy tadqiqotga ko‘ra, romanda Ummon jamiyati, shuningdek, ayollar va qullarning hayot tarzi, qullik davri va sultonlikning siyosiy, ijtimoiy va madaniy yuksalishlari qalamga olingan. Bularni tasvirlashda ilgari hukmron bo‘lgan qarashlar adiba tomonidan tanqid qilingan va an’anaviy qoidalar chetlab o‘tilgan. Romandagi karnaval unsurlarini to‘laqonli tadqiq etish maqolaning oldiga qo‘ygan maqsadi hisoblanadi.

Joxa Harisiy ijodini o‘rganishga hindistonlik olimlar ham qiziqish bildirishgan. Bu o‘rinda, Atriy Ghosh, Manshi, Sunil Mishra, Chhabi Seth, Bani Dayal Dhir kabi olimlarning nomini alohida qayd qilish lozim. Hind munaqqidi Atriy Ghosh Joxa Harisiyning “Oy xonimlari” va “Apelsin daraxti” romanlari bilan yaqindan tanishgan va ular xususida o‘z fikrlarini kitobga taqriz berish shaklida nufuzli jurnallardan

[1] Ixtiyoriy M., Ivakiy N. A., Sayfiy M. Comparison of tradition and modernity in the Novels ’Narenjeh’ by Jokha Alharthi and ’Suvashun’ by Simin Daneshvar // Literature Research Quarterly. – Iran, 2025, № 4. – P. 193-226.

[2] Farid Z. Components of carnival in novel “Sayyidat al-Qamar” by Jokha Al Harthi based on Bakhtin’s Theory // The Quarterly Journal of Lisān-i mubīn (Research in Arabic language and literature). – Iran, 2023, vol. 14, № 51. – P. 109-129.

birida e’lon qilgan[1]. Olim taqrizida “Apelsin daraxti” romani xususida batafsil so‘z yuritadi. U Joxa Harisiyning ushbu romani undan oldin yaratilgan “Oy xonimlari” asari singari muvaffaqiyat qozonganligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Shu bilan birga, olim “Apelsin daraxti” romani “Oy xonimlari”dan mavzu ko‘lami, qahramonlar ruhiyati, voqealar yuz beradigan nuqtalarning farqliligi bilan ajralib turishini ham qayd qilgan. Munaqqid shunday to‘xtamga kelgan, asar qahramonlari bo‘lgan ayollar uchun g‘am, qayg‘u va yolg‘izlik manzaralari begona emas. Til esa romanda muhim detallardan biri sifatida tasvirlangan. U orqali aytilmagan gaplar “Apelsin daraxti”da markaziy o‘rinni egallagan. Butun roman davomida til – o‘zining barcha xususiyatlari bilan go‘yo faqat erkaklar uchun xizmat qiladi, ayollarning ichki olami, ularning haqiqiy “men”ini ifodalashga qodir bo‘lmaydi. Atriy Ghosh romanda Sumayyaning mushtimzo‘r eri oldida hissiyotlarini to‘liq namoyon qilib berolmasligini, Kuhlning o‘z sevgisini himoya qilish uchun oilasiga biror so‘z demasligini yuqoridagi fikrlariga misol sifatida ko‘rsatadi. Romanda til go‘yoki har ishda kechikadi. U faqat barchasi tamom bo‘lgach harakatga keladi. Olim asardagi bu hodisalardan nihoyatda ta’sirlanganligini ham taqrizida alohida qayd qilgan.

Manshi va Sunil Mishra kabi olimlar esa adibaning “Oy xonimlari” romani ustida tadqiqotlar olib borishgan. “Joxa Harisiyning “Oy xonimlari” romanida madaniyatdagi dinamik o‘zgarishlarni aniqlash”[2] deb nomlangan ilmiy ish shular jumlasidandir. Tadqiqotda olimlar Joxa Harisiy o‘z romanini sultonlikning tarixi bilan uzviy bog‘laganligini ta’kidlash barobarida, bir ummonlik oilaning uch avlodi misolida ijtimoiy o‘zgarishlar va bu o‘zgarishlarning madaniyatga bo‘lgan ta’siriga ham to‘xtab o‘tishgan. Shu bilan birga, adabiyotshunoslar ilmiy kuzatuvlarida romandagi qadim an’analar va zamonaviylikning uyg‘unlashuvi, ijtimoiy taqiqlarning buzilishi, ta’limga bo‘lgan munosabat, sof muhabbatning inson hayotidagi o‘rni kabi masalalar haqida ham batafsil so‘z yuritishgan.

Yuqorida zikr qilingan romanlar xususida Chhabi Seth, Bani Dayal Dhir kabi hind olimlarining maqolalari ham e’lon qilingan bo‘lib, “Tizimlar nazariyasi va adabiyot: “Oy xonimlari” romanida interpretativ strukturaviy modellashtirishni qo‘llash”[3] deb atalgan maqolasi, ayniqsa, diqqatga sazovor. Mazkur tadqiqotda interpretativ strukturaviy modellashtirish usuli “Oy xonimlari”da qay tarzda foydalanilgani tadqiq etilgan. Ilmiy ishdan ko‘zlangan maqsad romanning murakkab tuzilishini soddaroq ifodalash va uni atroflicha tahlilga tortishdan iboratdir.

[1] Ghosh A. Book Review BITTER ORANGE TREE by Jokha Alharthi // An Interdisciplinary Social Science Journal of Criticism, Practice and Theory. – Delhi, 2021. – P. 298-301.

[2] Manshi., Mishra S. Determining the Cultural Dynamic Shift in Jokha Alharthi’s Celestial Bodies // International Journal of Linguistics, Literature and Translation. – India, 2020. – P. 46-50.

[3] Seth Ch., Dhir B.D. Systems theory and literature: application of interpretive structural modeling to Jokha Alharthi’s Celestial Bodies // International Journal for Multidisciplinary Research. – India, 2024, vol. 6, № 3. – P. 1-9.

Ummonlik adibaning romanlarini o‘rgangan turkiyalik olimlardan biri Merve Dishengidir. U Joxa Harisiyning “Oy xonimlari” romani ustida ilmiy ish olib borgan. “Oy xonimlari romanida ayol obrazi” deb atalgan dissertatsiya Merve Dishengining tadqiqotlaridan hisoblanadi[1]. Ushbu dissertatsiya asarda tilga olingan ayol obrazlarni chuqur tahlil qilishi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari, dissertatsiya zamonaviy arab ayol yozuvchilari va ularning asarlarini, Ummondagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanishlarni, “Oy xonimlari”da o‘ziga xos ifodalangan ayol personajlarni ham atroflicha tadqiq etgan. Shu bilan birga, zamonaviy ummon adabiyotida ayol masalasiga e’tibor berish har qachon muhim ekanligi ta’kidlangan. Nihoyat, ayol yozuvchilarning sultonlik adabiyotida muhim rol o‘ynashi va ularsiz adabiyotni to‘la-to‘kis tadqiq etishning imkoni yo‘qligi qayd qilib o‘tilgan.

Malayziya olimlari ham adibaning romanlari ustida tadqiqotlar amalga oshirgan. Ren Jianing, Pabiyah Hajimaming, Pabiyah Toklubok va Nik Farhan binti Mustapha kabilar shular jumlasidandir. Ushbu olimlar hammualliflikda “Oy xonimlari romanida dialogik retrospekt: polifonik asar tahili”[2] nomli ilmiy kuzatuv olib borgan. Ishning asosiy maqsadi dialoglardan romanda qanday foydalanilganligiga diqqat qilishdan iborat. Bu jarayon katta va kichik dialoglarni tahlil qilish orqali amalga oshirilgan.

**Xulosa.** Umuman olganda, Ko‘rfaz mamlakatlari, xususan, ummon adabiyotiga roman janri mustaqil adabiy janr sifatida kirib kelgach arab adabiyotida uzoq yillardan beri hukm surib kelayotgan she’riyatning yakka hokimligiga chek qo‘ydi. Boshqa ko‘plab arab shoirlari kabi ummonlik shoirlar ham o‘zlarini roman yozishda sinab ko‘rdi. Buning ortidan sultonlik adabiyotida romanlarning adadi ko‘paydi. Bu asarlar, albatta, keng qamrovli hayotning barcha sohalarini o‘z ichiga olgan edi. Joxa Harisiyning “Oy xonimlari” va “Apelsin daraxti” romanlari shunday asarlardandir. Adabiyot maydoniga kirib kelgan va o‘zining ko‘plab katta-kichik kitobxonlariga ega bo‘lgan ushbu romanlar munaqqidlarning tadqiqot manbalariga aylandi. Natijada, ummon adabiyotida nafaqat bu romanlarni, balki umuman romanchilikni tadqiq etilish adabiyotshunoslik oldidagi yechimini topib ulgurmagan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoldi. Ushbu zarurat munaqqidlarning yangi janrni sultonlik adabiyotida yuzaga kelishi va jadal rivojlanish bosqichlarini jiddiy o‘rganishiga sabab bo‘ldi. Yuqorida zikr qilinganidek, ish yuzasidan bir qancha ilmiy kuzatuvlar va tadqiqotlar olib borildi, biroq bu tadqiqotlar mavzu hali to‘liq o‘rganilmaganligini va hamon adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib turganini ko‘rsatadi.

[1] Dishengi M. Cûha el-Hârisî’nin Seyyidâtu’l-kamer adli romaninda kadin imaji. Diss. … mag. – Türkiye, 2022. – 137 s.

[2] Jianing R., Pabiyah H., Pabiyah T., Mustapha N.F. Dialogic retrospect in Jokha Al-Harthi’s polyphonic Novel Celestial bodies // International journal of academic research in progressive education and development. – Malaysia, 2025, vol. 14, № 1. – P. 2271-2281.

# TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND TRANSLATION STUDIES

## BEVOSITA VA BILVOSITA TARJIMAGA TURLI YONDASHUVLAR

***MARXABO ABDULLAYEVA***
*Garb tillari kafedrasi dotsenti, PhD, TDSHU*
*ORCID:0000-0001-9868-599X*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) va bilvosita (bilvosita) tarjimaning lingvistik va madaniy jihatlari atroflicha tahlil qilinadi. Bevosita tarjima asliyat tilidagi leksik, grammatik va sintaktik birliklarni imkon qadar so‘zma-so‘z ifodalashga qaratilgan bo‘lsa, bilvosita tarjima mazmunni qayta shakllantirish, ekvivalent vositalar orqali kitobxonga tushunarli tarzda yetkazishga asoslanadi. Madaniy jihatdan qaralganda, bevosita tarjima milliy-madaniy rang-baranglikni saqlashga yordam bersa, bilvosita tarjima orqali qabul qiluvchi auditoriya uchun qiyosiy ravishda qulayroq va sodda matn yaratiladi. Mustaqillik yillarida ingliz tilini mukammal biladigan tarjimonlar faoliyatining kengayishi natijasida o‘zbek kitobxonlari jahon adabiyoti durdonalari bilan asl manbadan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ayniqsa, J.Oruellning “1984” va “Molxona”, F.Skott Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi”, J.Grinning “Tepaga qaragan yulduz” kabi asarlarning ona tilimizga tarjimasi jarayonida bevosita va bilvosita yondashuvlarning o‘ziga xos imkoniyatlari hamda cheklovlarini ochib berdi. Tadqiqot davomida ikki tarjima usulining lingvistik imkoniyatlari, estetik samarasi, madaniy ekvivalentlikni ta’minlashdagi o‘rni, afzallik va kamchiliklari ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *tarjimashunoslik, badiiy tarjima, bevosita tarjima, bilbilvosita tarjima, lingvistik jihat, madaniy jihat, ekvivalentlik, milliy-madaniy xususiyat, semantik moslik, qiyosiy tahlil.*

***Annotation:*** *This article provides a comprehensive analysis of the linguistic and cultural aspects of direct (literal) and indirect (free) translation methods. Direct translation aims to reproduce the lexical, grammatical, and syntactic units of the source language as literally as possible, while indirect translation is based on reformulating the content and conveying it to the reader through equivalent means in a more understandable form. From a cultural perspective, direct translation helps to preserve national and cultural diversity, whereas indirect translation creates a comparatively simpler and more accessible text for the target audience. Since the years of independence, with the increasing activity of translators proficient in English, Uzbek readers have had the opportunity to become acquainted with the masterpieces of world literature directly from the original source. In particular, the translations of George Orwell’s 1984 and Animal Farm, F. Scott Fitzgerald’s The Great Gatsby, and John Greening‘s The Star Turned Upwards have revealed both the specific possibilities and limitations of direct and indirect approaches in the translation process. The*

*study examines the linguistic potential, aesthetic effect, role in ensuring cultural equivalence, as well as the advantages and disadvantages of both methods.*

***Keywords:*** *direct translation, indirect translation, linguistic aspect, cultural aspect, equivalence, national-cultural specificity, semantic correspondence, literary translation, comparative analysis, translation studies.*

***Аннотация:*** *В данной статье проанализированы лингвистические и культурные аспекты прямого (с оригинала) и опосредованного перевода. Прямой перевод направлен на максимально буквальную передачу лексических, грамматических и синтаксических единиц языка-источника, тогда как косвенный перевод основывается на переработке содержания и передаче его читателю посредством эквивалентных средств в более понятной форме. С культурной точки зрения прямой перевод способствует сохранению национально-культурного колорита, тогда как косвенный перевод создает для целевой аудитории более доступный и упрощённый текст. В годы независимости благодаря расширению деятельности переводчиков, свободно владеющих английским языком, узбекские читатели получили возможность познакомиться с шедеврами мировой литературы в оригинале. В частности, переводы таких произведений, как «1984» и «Скотный двор» Дж. Оруэлла, «Великий Гэтсби» Ф. Скотта Фицджеральда, «Звезда, устремлённая ввысь» Дж. Гринингa выявили как специфические возможности, так и ограничения прямого и косвенного подходов в процессе перевода. В исследовании рассматриваются лингвистический потенциал обоих методов, их эстетический эффект, роль в обеспечении культурной эквивалентности, а также их преимущества и недостатки.*

***Ключевые слова:*** *прямой перевод, косвенный перевод, лингвистический аспект, культурный аспект, эквивалентность, национально-культурная специфика, семантическое соответствие, художественный перевод, сравнительный анализ, переводоведение.*

**Kirish.** Tarjima insoniyat madaniyatining eng qadimiy va eng muhim hodisalaridan biri bo’lib, u nafaqat xalqlar o’rtasida madaniy, ilmiy va adabiy aloqalarni mustahkamlaydi, balki milliy tafakkur va madaniyatlararo muloqot taraqqiyotida ham alohida o’rin tutadi. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda tarjima jarayonining turli usullari mavjud bo’lib, ular orasida bevosita (to’g’ridan-to’g’ri) tarjima va bilvosita tarjima alohida ahamiyat kasb etadi. Har ikki usul ham lingvistik, madaniy va estetik jihatdan o’ziga xos imkoniyatlar hamda cheklovlarga ega.

Bevosita tarjima asliyat tilidagi leksik, grammatik va sintaktik birliklarni imkon qadar so’zma-so’z ifodalashga asoslanadi. Bu usul muallifning uslubiy xususiyatlarini, milliy-madaniy rang-baranglikni saqlashda samarali hisoblanadi. Biroq u ba’zan kitobxon uchun qiyin, tushunarsiz yoki begona tuyulishi mumkin. Bilvosita tarjima esa mazmunni qayta shakllantirish, ekvivalent vositalar orqali qabul qiluvchi til va madaniyatga moslashtirishni ko‘zda tutadi. Natijada matn yanada ravon va o‘qishli bo‘ladi, lekin muallif uslubining ayrim nozik jihatlari yo‘qolib ketishi ehtimoli ham mavjud.

Mustaqillik yillaridan keyin O‘zbekistonda ingliz tilini mukammal biladigan

tarjimonlar faoliyatining kengayishi tufayli kitobxonlar jahon adabiyotining eng sara namunalarini asl nusxadan o‘zbek tiliga qilingan tarjimalar orqali o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Jumladan, J.Oruellning *“1984”* va *“Molxona”,* F.Skott Fitsjeraldning *“Buyuk Getsbi”,* J.Grinning *“Tepaga qaragan yulduz”* kabi asarlarning tarjimasi bevosita va bilvosita tarjima usullarining amaliy ahamiyatini yorqin ko‘rsatib berdi. Ushbu jarayon o‘zbek tarjimashunosligida nafaqat nazariy, balki amaliy muammolarni ham dolzarb qilib qo‘ydi.

Неформальная межличностная сфера обнаруживает наиболее богатый репертуар тактильных знаков. Исследование Янь Пин, посвящённое невербальной коммуникации в разговорной китайской речи, показывает, что лёгкое прикосновение к руке, символическое похлопывание и «тактильная координация» при совместных действиях активно используются в неформальном общении как знаки аффилиации – сближения, одобрения, поддержки [Yang, 2019]. Российские синологи подтверждают, что именно в неформальном контексте китайская такесическая норма способна вызвать у иностранца культурный диссонанс: например, физическое «подталкивание» гостя за стол или к более удобному месту воспринимается носителями китайского языка как форма настойчивого, но искреннего гостеприимства [Цзян, 2022], тогда как человеку из другой культурной среды этот жест может показаться бесцеремонным.

Гендерный аспект китайской такесики заслуживает отдельного внимания. В неформальной среде прикосновения между женщинами значительно более частотны, чем между мужчинами или в разнополой паре [Тань Аоушан, 2004]. Подруги могут держаться за руки в публичном пространстве без какой-либо социальной стигматизации: в китайском культурном контексте это интерпретируется как нейтральный знак дружбы и доверия. Мужское тактильное взаимодействие ограничено преимущественно рукопожатиями и символическими похлопываниями по плечу. Прикосновения между мужчиной и женщиной, даже знакомыми, регулируются значительно строже, что напрямую связано с конфуцианскими предписаниями о разграничении мужского и женского социальных пространств [Yum, 1988]. Данная тенденция подтверждается и психологическими исследованиями на китайских выборках. Так, в исследовании валидизации китайской версии опросника Touch Experiences and Attitudes Questionnaire (TEAQ), проведённом на выборке из 499 китайских студентов, было показано, что женщины статистически значимо чаще демонстрируют положительное отношение к социальному прикосновению и более высокий уровень тактильных контактов в круге близких отношений, тогда как мужчины проявляют более выраженную сдержанность в телесном взаимодействии, особенно в публичной коммуникации [Yang, Li, Xie, Shen, 2024].

При сопоставлении с западными такесическими особенностями ряд отличий китайской нормы прослеживается достаточно отчётливо [Sorokowska A. et al., 2023]:

- частотность прикосновений в официальной и полуофициальной сфере у китайцев заметно ниже, чем у представителей романских или восточноевропейских культур;
- интенсивность рукопожатия: китайская норма предполагает мягкое и непродолжительное пожатие, тогда как западная ценит твёрдость и уверенность;
- инициирование контакта строго иерархично в китайской традиции и значительно менее регламентировано в западной деловой норме;
- публичная аффективность (объятия, поцелуи в разнополых парах) в китайской норме сведена к минимуму – в отличие от многих западных культур;
- однополая тактильная близость в публичном пространстве более распространена и культурно нейтральна в китайской среде, чем в ряде западных контекстов.

Следует подчеркнуть, что описанные паттерны претерпевают постепенные изменения под воздействием урбанизации и интенсивного межкультурного контакта. Среди молодых городских китайцев тактильный репертуар заметно расширился по сравнению с нормами предыдущего поколения, особенно в мегаполисах. Например, данные нейролингвистических исследований, проведённых на китайской выборке, свидетельствуют о том, что установки по отношению к прикосновению у молодых носителей китайского языка демонстрируют большую вариативность, чем у их родителей [Li et al., 2022]. Сдвиг, впрочем, касается скорее поверхностного репертуара, нежели глубинной логики: конфуцианская матрица иерархии и сдержанности по-прежнему задаёт рамку, внутри которой конкретные тактильные формы могут варьироваться, но не произвольно.

Итак, на основании рассмотренного материала [Classen, 2005; Yang, 2019; Knapp, Hall, Horgan, 2013; Fang, Faure, 2011; Тань Аошуан, 2004] нам представляется возможным выделить тактильные знаки, воспроизводимые в китайском коммуникативном пространстве с наибольшей регулярностью и поддающиеся описанию в терминах правил:

- ритуальное рукопожатие, сопровождающее первое знакомство и официальные встречи;
- направляющее прикосновение к локтю — жест вежливого сопровождения, адресованный гостю или старшему;
- похлопывание по плечу или спине, функционирующее как знак одобрения и солидарности в кругу «своих» (zìjǐrén);
- удержание за руку между близкими людьми, передающее поддержку и взаимное доверие;

- настойчивое физическое подведение гостя к месту за столом — жест, который в китайской коммуникативной традиции прочитывается не как бесцеремонность, а как проявление подчёркнутого уважения к приглашённому.

Перечисленные знаки устойчиво воспроизводятся в конкретных коммуникативных ситуациях, что делает их наиболее важными единицами такесического кода. Показательно при этом, что тактильный контакт в китайской коммуникации нередко выполняет функцию семиотической «компенсации» отсутствующего вербального сигнала: принцип *hanxu* предписывает сдержанность в словах, однако тактильный знак – поддерживающее прикосновение, разделённое физическое действие – способен передать то, что не произносится. Именно в этой компенсаторной функции такесика наиболее явно проявляет себя как часть единого лингвокультурного кода, органично дополняющего вербальную коммуникацию [Ван Ляньцэнь, 2021; Ягуфаров, 2013].

## Заключение

Обобщая, отметим, что такесика в китайской коммуникативной норме представляет собой культурно маркированную знаковую систему, функционирование которой определяется устойчивыми аксиологическими основаниями: конфуцианскими принципами иерархии, ритуальности и сдержанности (*hanxu*), концептом «лица» (*mianzi* / *lian*) как регулятором социальной репутации и достоинства, а также феноменом *guanxi* как сетевой матрицей межличностных отношений. Такесический код китайской коммуникации чётко разграничен по ситуации, статусу, гендеру и степени близости коммуникантов; при этом он остаётся функционально незаменимым – выступая семиотическим дополнением к вербальному каналу именно там, где принцип имплицитности требует сказать без слов. Сопоставление с западными такесическими паттернами, подкреплённое как отечественными психологическими исследованиями [Новикова, Гридунова, 2011], так и зарубежными эмпирическими работами [Yang, Li, Xie, Shen, 2024 ; Schirmer, Croy, Schweinberger, 2022], выявляет принципиальные расхождения, имеющие прямое прикладное значение для межкультурной коммуникации, преподавания китайского языка и синологических исследований. Рассмотренный материал указывает на то, что дальнейшее изучение данного направления предполагает формирование эмпирической базы – систематического сбора данных о реальном тактильном поведении носителей китайского языка в различных ситуативных контекстах, с учётом региональной, возрастной и субкультурной вариативности.

## Список литературы

Борисова Е. А. Вербализация жестов касания в современном английском языке // Вестник Московского государственного лингвистического университета. 2015. № 3(714). С. 40–52.

Ван Ляньцэнь. Сопоставительный анализ речевого этикета в современном русском и китайском языках // Мир русскоговорящих стран. 2021. № 4 (10). С. 52–67.

Гофман Э. Ритуал взаимодействия: Очерки поведения лицом к лицу / Пер. с англ.; под ред. Н. Н. Богомоловой, Д. А. Леонтьева. М.: Смысл, 2009. 319 с.

Даулет Ф. Н. Лингвокогнитивный эксперимент как ключ к китайской языковой картине мира: концепт «потеря лица» // Вестник Московского университета. Серия 13: Востоковедение. 2020. № 3. С. 20–36.

Крейдлин Г. Е. Невербальная семиотика: язык тела и естественный язык. М.: Новое литературное обозрение, 2002. 592 с.

Лебедева Н. О. Переговоры: китайский стиль // Вестник Удмуртского университета. Социология. Политология. Международные отношения. 2018. № 4. С. 450–458.

Луцькая Е. Е., Леонтьев С. В., Лю Вэй. Китайская система взаимоотношений «гуаньси» и её влияние на деловую этику и организационное поведение // Социально-гуманитарные знания. 2017. № 4. С. 282–295.

Любимов Н. А., Чеджемов Г. А. Влияние эмоциональных прикосновений на человека // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2019. № 6-1. С. 56–58. DOI: 10.24411/2500-1000-2019-11247

Малышева Е. В. Невербалика в коммуникативном пространстве: феномен прикосновения (часть II) // Мир лингвистики и коммуникации: электронный научный журнал. 2017. № 4. С. 164–182.

Насирова С. А. Влияние конфуцианских ценностей на формирование новых общественно-политических терминов в современном китайском языке // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. 2022. Т. 2. № 20. С. 622–631. DOI: 10.24412/2181-1784-2022-20-622-631

Новикова И. А., Гридунова М. В. Межкультурные различия представлений о невербальной коммуникации у российских и китайских студентов // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Психология и педагогика. 2011. № 3. С. 40–45.

Прощенкова Н. В. Специфика делового общения в Китае — взгляд извне // Проблемы современной науки и образования. 2014. № 5(23). С. 45–47.

Пэй С. Лингвопрагматика в Китае: коммуникативное поведение русских и китайцев глазами китайских лингвистов // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки. 2020. № 3(832). С. 147–158.

Семенова Т. И., Степаненко Е. А. Коммуникативное тактильное поведение: лингвистические аспекты // Научно-педагогический журнал Восточной Сибири Magister Dixit. 2011. № 4. С. 6.

Тань Аошуан. Китайская картина мира: Язык, культура, ментальность. М.: Языки славянской культуры, 2004.

Цзян Ш. Анализ различий русского и китайского речевого этикета в деловом банкете // Litera. 2022. № 10. С. 1–6. DOI: 10.25136/2409-8698.2022.10.38815

Ягуфаров Р. А. Невербальные формы китайского речевого этикета в метаязыковом представлении носителей русского языка // Мир науки, культуры, образования. 2013. № 1(38). С. 188–191.

Allen B. Difference Matters: Communicating Social Identity. Long Grove: Waveland Press, 2010. 236 p.

Argyle M. Bodily Communication. 2nd ed. London: Routledge, 2013. 398 p.

Chui K. Language and Gesture in Chinese Conversation. London: Routledge, 2022. 174 p.

Classen C. (ed.). The Book of Touch. London; New York: Berg Publishers, 2005. 432 p.

Fang T., Faure G. O. Chinese communication characteristics: A Yin Yang perspective // International Journal of Intercultural Relations. 2011. Vol. 35. № 3. P. 320–333.

Frank L. K. Tactile communication // Genetic Psychology Monographs. 1957. Vol. 56. P. 209–255.

Gao G., Ting-Toomey S. Communicating Effectively with the Chinese. Thousand Oaks: Sage, 1998. 176 p.

Hall E. T. Beyond Culture. New York: Anchor Press, 1976. 256 p.

Hall E. T. The Hidden Dimension. New York: Anchor Books, 2003. 217 p.

Heslin R. Steps toward a taxonomy of touching // Midwestern Psychological Association Conference. Chicago, 1974.

Jia Yuxin. Intercultural Communication and Chinese Culture. Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press, 2002.

Knapp M. L., Hall J. A., Horgan T. G. Nonverbal Communication in Human Interaction. 8th ed. Boston: Wadsworth Cengage Learning, 2013. 496 p.

Li M., Hao L., Ren Z., Qiu J., Ward J. Vicarious experiences of touch (mirror touch) in a Chinese sample: Cross-cultural and individual differences // PLoS ONE. 2022. Vol. 17. № 11. e0266246. DOI: 10.1371/journal.pone.0266246

Schirmer A., Croy I., Schweinberger S. R. Social touch — a tool rather than a signal // Current Opinion in Behavioral Sciences. 2022. Vol. 44. 101100.

Sorokowska A. et al. Love and affectionate touch toward romantic partners all over the world // Scientific Reports. 2023. Vol. 13. 5497.

Suvilehto J. T., Glerean E., Dunbar R. I., Hari R., Nummenmaa L. Topography of social touching depends on emotional bonds between humans // Proceedings of the National Academy of Sciences of the United States of America. 2015. Vol. 112. № 45. P. 13811–13816.

Suvilehto J. T., Cekaite A., Morrison I. The why, who and how of social touch // Nature Reviews Psychology. 2023. Vol. 2. P. 606–621. DOI: 10.1038/s44159-023-00217-5

Yang L., Li X., Xie Z., Shen L. Reliability and validity of a simplified touch experiences and attitudes questionnaire for Chinese college students // PLoS ONE. 2024. Vol. 19. № 1. e0295812. DOI: 10.1371/journal.pone.0295812

Yang P. Nonverbal Communication in Mandarin Chinese Talk-in-Interaction // SSRN Electronic Journal. 2019. URL: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3412023

Yum J. O. The impact of Confucianism on interpersonal relationships and communication patterns in East Asia // Communication Monographs. 1988. Vol. 55. № 4. P. 374–388. DOI: 10.1080/03637758809376178

**References**

Allen B. Difference Matters: Communicating Social Identity. Long Grove, Waveland Press, 2010, 236 p.

Argyle M. Bodily Communication. 2nd ed. London, Routledge, 2013, 398 p.

Borisova E. A. Verbalization of touching gestures in modern English. Vestnik of Moscow State Linguistic University, 2015, no. 3(714), pp. 40–52 (in Russ.)

Chui K. Language and Gesture in Chinese Conversation. London, Routledge, 2022, 174 p.

Classen C. (ed.). The Book of Touch. London; New York, Berg Publishers, 2005, 432 p.

Daulet F. N. Linguocognitive experiment as a key to the Chinese language worldview: the concept of "loss of face". Vestnik of Moscow University. Series 13: Oriental Studies, 2020, no. 3, pp. 20–36 (in Russ.)

Fang T., Faure G. O. Chinese communication characteristics: A Yin Yang perspective. International Journal of Intercultural Relations, 2011, vol. 35, no. 3, pp. 320–333.

Frank L. K. Tactile communication. Genetic Psychology Monographs, 1957, vol. 56, pp. 209–255.

Gao G., Ting-Toomey S. Communicating Effectively with the Chinese. Thousand Oaks, Sage, 1998, 176 p.

Goffman E. Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior. Moscow, Smysl publ., 2009, 319 p. (in Russ.)

Hall E. T. Beyond Culture. New York, Anchor Press, 1976, 256 p.

Hall E. T. The Hidden Dimension. New York, Anchor Books, 2003, 217 p.

Heslin R. Steps toward a taxonomy of touching. Midwestern Psychological Association Conference. Chicago, 1974.

Jia Yuxin. Intercultural Communication and Chinese Culture. Beijing, Foreign Language Teaching and Research Press, 2002.

Knapp M. L., Hall J. A., Horgan T. G. Nonverbal Communication in Human Interaction. 8th ed. Boston, Wadsworth Cengage Learning, 2013, 496 p.

Kreidlin G. E. Nonverbal semiotics: body language and natural language. Moscow, Novoe literaturnoe obozrenie publ., 2002, 592 p. (in Russ.)

Lebedeva N. O. Negotiations: Chinese style. Bulletin of Udmurt University. Sociology. Political Science. International Relations, 2018, no. 4, pp. 450–458 (in Russ.)

Li M., Hao L., Ren Z., Qiu J., Ward J. Vicarious experiences of touch (mirror touch) in a Chinese sample: Cross-cultural and individual differences. PLoS ONE, 2022, vol. 17, no. 11, e0266246. DOI: 10.1371/journal.pone.0266246

Lutskaya E. E., Leontiev S. V., Liu Wei. The Chinese guanxi relationship system and its influence on business ethics and organizational behavior. Sotsial'no-gumanitarnye znaniya, 2017, no. 4, pp. 282–295 (in Russ.)

Lyubimov N. A., Chedzhemov G. A. The influence of emotional touch on humans. Mezhdunarodnyy zhurnal gumanitarnykh i estestvennykh nauk, 2019, no. 6-1, pp. 56–58. DOI: 10.24411/2500-1000-2019-11247 (in Russ.)

Malysheva E. V. Nonverbalics in the communicative space: the phenomenon of touch (part II). Mir lingvistiki i kommunikatsii: elektronnyy nauchnyy zhurnal, 2017, no. 4, pp. 164–182 (in Russ.)

Nasirova S. A. The influence of Confucian values on the formation of new socio-political terms in modern Chinese. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2022, vol. 2, no. 20, pp. 622–631. DOI: 10.24412/2181-1784-2022-20-622-631 (in Russ.)

Novikova I. A., Gridunova M. V. Intercultural differences in perceptions of nonverbal communication among Russian and Chinese students. RUDN Journal of Psychology and Pedagogy, 2011, no. 3, pp. 40–45 (in Russ.)

Pei S. Linguopragmatics in China: communicative behavior of Russians and Chinese through the eyes of Chinese linguists. Vestnik of Moscow State Linguistic University. Humanities, 2020, no. 3(832), pp. 147–158 (in Russ.)

Proshchenkova N. V. Specifics of business communication in China: an outside view. Problems of Modern Science and Education, 2014, no. 5(23), pp. 45–47 (in Russ.)

Schirmer A., Croy I., Schweinberger S. R. Social touch — a tool rather than a signal. Current Opinion in Behavioral Sciences, 2022, vol. 44, 101100.

Semenova T. I., Stepanenko E. A. Communicative tactile behavior: linguistic aspects. Magister Dixit. Scientific and Pedagogical Journal of Eastern Siberia, 2011, no. 4, p. 6 (in Russ.)

Sorokowska A. et al. Love and affectionate touch toward romantic partners all over the world. Scientific Reports, 2023, vol. 13, 5497.

Suvilehto J. T., Glerean E., Dunbar R. I., Hari R., Nummenmaa L. Topography of social touching depends on emotional bonds between humans. Proceedings of the National Academy of Sciences of the United States of America, 2015, vol. 112, no. 45, pp. 13811–13816.

Suvilehto J. T., Cekaite A., Morrison I. The why, who and how of social touch. Nature Reviews Psychology, 2023, vol. 2, pp. 606–621. DOI: 10.1038/s44159-023-00217-5

Tan Aoshuang. Chinese worldview: Language, culture, mentality. Moscow, Yazyki slavyanskoy kul'tury publ., 2004 (in Russ.)

Van Lian'tsen'. Comparative analysis of speech etiquette in modern Russian and Chinese. Mir russkoyazychnykh stran, 2021, no. 4 (10), pp. 52–67 (in Russ.)

Yang L., Li X., Xie Z., Shen L. Reliability and validity of a simplified touch experiences and attitudes questionnaire for Chinese college students. PLoS ONE, 2024, vol. 19, no. 1, e0295812. DOI: 10.1371/journal.pone.0295812

Yang P. Nonverbal Communication in Mandarin Chinese Talk-in-Interaction. SSRN Electronic Journal, 2019. URL: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3412023

Yagufarov R. A. Nonverbal forms of Chinese speech etiquette in the metalinguistic representation of Russian native speakers. World of Science, Culture, Education, 2013, no. 1(38), pp. 188–191 (in Russ.)

Yum J. O. The impact of Confucianism on interpersonal relationships and communication patterns in East Asia. Communication Monographs, 1988, vol. 55, no. 4, pp. 374–388. DOI: 10.1080/03637758809376178

Tszyan Sh. Analysis of the differences between Russian and Chinese speech etiquette at a business banquet. Litera, 2022, no. 10, pp. 1–6. DOI: 10.25136/2409-8698.2022.10.38815 (in Russ.)

# Ingliz tilidan o‘zbek tiliga metaforalar tarjimasi: ilmiy bahslar va nazariyalar

***NARGIZA SODIQOVA***
*Tayanch doktorant, TDSHU*
*ORCID: 0009-0003-1638-3894*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola metafora tarjimasining nazariy asoslarini yoritish hamda ingliz tilidan o‘zbek tiliga metaforalarni tarjima qilish tamoyillarini qiyosiy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda metafora nafaqat stilistik vosita, balki kognitiv va madaniy omillar natijasida yuzaga kelgan murakkab lingvistik hodisa sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv kognitiv tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalaridagi nazariy qarashlarga, xususan, J.Lakoff va M.Jonson tomonidan ishlab chiqilgan “Konseptual metafora nazariyasi”, shuningdek, P.Nyumark va E.Nida tomonidan taklif etilgan tarjima tamoyillariga tayanadi. Shuningdek ushbu maqolada, metafora tarjimasi masalalari bilan shug‘ullangan olimlarning qarashlari xronologik tartibda ko‘rib chiqilib, ularning nazariy yondashuvlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.*

*Tarjima jarayonida metafora o‘ziga xos til birligi sifatida alohida yondashuvni talab qiladi. U nafaqat leksik ma’noni, balki obrazlilik, stilistik ifoda va madaniy konnotatsiyani ham o‘zida mujassam etadi. Shu sababli metaforani bir tildan ikkinchi tilga adekvat tarzda yetkazish tarjimon uchun murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil metodidan foydalanilgan bo‘lib, olingan natijalar metaforani samarali tarjima qilish nafaqat lingvistik ekvivalentlikni ta’minlashni, balki manba va maqsad tillari o‘rtasidagi kognitiv moslik hamda madaniy uyg‘unlikni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *konseptual metafora, metafora tarjimasi, kognitiv yondashuv, tarjima nazariyasi, universal metafora, tarjimada ekvivalentlik, tarjima muammolari, qiyosiy tahlil, dinamik va formal ekvivalentlik.*

***Аннотация.*** *Данная статья посвящена освещению теоретических основ перевода метафоры, а также сравнительному анализу принципов перевода метафор с английского языка на узбекский язык. В исследовании метафора интерпретируется не только как стилистическое средство, но и как сложное лингвистическое явление, возникающее в результате когнитивных и культурных факторов. Данный подход основывается на теоретических взглядах в области когнитивной лингвистики и переводоведения, в частности на «Теории концептуальной метафоры», разработанной Дж. Лакоффом и М. Джонсоном, а также на принципах перевода, предложенных П. Ньюмарком и Ю. Найдой. Кроме того, в статье в хронологическом порядке рассматриваются взгляды ученых, занимавшихся проблемами перевода метафоры, а их теоретические подходы освещаются на основе сравнительного анализа.*

*В процессе перевода метафора как особая языковая единица требует отдельного подхода. Она воплощает в себе не только лексическое значение, но и образность, стилистическую выразительность и культурную коннотацию. По этой причине*

*адекватная передача метафоры с одного языка на другой считается одной из наиболее сложных задач для переводчика. В ходе исследования был использован метод сравнительного анализа, а полученные результаты показывают, что эффективный перевод метафоры требует не только обеспечения лингвистической эквивалентности, но и учета когнитивного соответствия и культурной гармонии между исходным и целевым языками.*

***Ключевые слова:*** *концептуальная метафора, перевод метафоры, когнитивный подход, теория перевода, универсальная метафора, эквивалентность в переводе, проблемы перевода, сравнительный анализ, динамическая и формальная эквивалентность.*

***Abstract.*** *This article is devoted to highlighting the theoretical foundations of metaphor translation and comparatively analyzing the principles of translating metaphors from English into Uzbek. In the study, metaphor is interpreted not only as a stylistic device, but also as a complex linguistic phenomenon shaped by cognitive and cultural factors. This approach is based on theoretical perspectives in cognitive linguistics and translation studies, particularly the "Conceptual Metaphor Theory" developed by J. Lakoff and M. Johnson, as well as the translation principles proposed by P. Newmark and E. Nida. In addition, the article examines, in chronological order, the views of scholars who have studied issues of metaphor translation, and their theoretical approaches are discussed through comparative analysis.*

*In the translation process, metaphor as a unique linguistic unit requires a specific approach. It embodies not only lexical meaning, but also imagery, stylistic expression, and cultural connotation. Therefore, the adequate transfer of metaphor from one language into another is considered one of the most challenging tasks for a translator. The study employs the method of comparative analysis, and the findings demonstrate that the effective translation of metaphor requires not only ensuring linguistic equivalence, but also taking into account cognitive compatibility and cultural harmony between the source and target languages.*

***Keywords:*** *conceptual metaphor, metaphor translation, cognitive approach, translation theory, universal metaphor, equivalence in translation, translation problems, comparative analysis, dynamic and formal equivalence.*

**Kirish.** Jahon tilshunosligi tarixida metafora turli davrlarda turlicha talqin qilingan. So‘zning ekspressiv ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi metaforalarga bo‘lgan qiziqish qadimgi davrlardan boshlangan bo‘lib hozirgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ko‘plab olimlar tomonidan metafora, dastavval, nutqni bezovchi, uning ekspressivligiga xizmat qiluvchi stilistik vosita sifatida qaralgan bo‘lsa[1], keyinchalik inson tafakkurining muhim mexanizmi, dunyoni anglash va ma’no hosil qilishning asosiy usullaridan biri sifatida tadqiq etilgan[2]. Shu nuqtayi

[1]Kholmatovna, J. K. (2025). The historical stages in the development of theories of metaphor. International Journal of Literature and Languages, 5(11), p.51–54. https://doi.org/10.37547/ijll/volume05issue11-10

[2] Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. – University of Chicago Press, 1980. – 256 p. Richards, I. A. *The Philosophy of Rhetoric*. – New York: Oxford University Press, 1936. – 276 p.

nazardan, metafora nafaqat til hodisasi, balki tafakkur va madaniyat bilan chambarchas bog‘liq murakkab konsept sifatida e’tirof etiladi. Metafora til tizimida: yangi ma’no hosil qilish, predmet va hodisalarni nomlash, nutqning obrazliligini oshirish hamda mavhum tushunchalarni konkret tushunchalar yordamida ifodalash kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Aynan shu xususiyatlari sababli metafora tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning kesishgan nuqtasida faol tadqiq etib kelinmoqda.

Tarjima jarayonida metaforani bir tildan boshqa tilga tarjima qilish tarjimondan nafaqat lingvistik bilim, balki ma’daniy tavofutlar hamda muallif maqsadini anglay olish qobilyatiga ham ega bo‘lishni talab qiladi. Bundan tashqari, metafora tarjimasi jarayoniga janr, diskurs turi va kommunikativ maqsad kabi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, badiiy-fantastik janrda metaforalar tarjimasi janr xususiyatlariga mos ravishda muallif tasavvuri natijasida shakllanib, ularning tarjimadagi talqiniga ta’sir etadi. Bu, o‘z navbatida, metafora tarjimasida nafaqat lingvistik ekvivalentlikni, balki kognitiv, madaniy moslik, shuningdek muallif maqsadini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Metaforalarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida esa, tillar o‘rtasidagi tipologik farqlar va madaniy tavofutlar sababli bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Metafora kognitiv jihatdan universal hodisa hisoblansada, biroq uning lingvistik ifodasi har bir tilda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, tarjimada alohida e’tibor talab etadi. Mazkur tadqiqot metaforani kognitiv, lingvistik va madaniy hodisa sifatida ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish tamoyillarini o‘rganishga qaratilgan. Kognitiv tilshunoslik va tarjima nazariyasi yutuqlarini uyg‘unlashtirgan holda, tadqiqot metaforik ma’nolarning tillararo qanday saqlanishi, o‘zgarishi yoki qayta yaratilishini tahlil qilishni maqsad qiladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Metafora tadqiqi an’anaviy yondashuvlardan tortib zamonaviy kognitiv va tarjimashunoslikka oid yondashuvlargacha turli nazariy qarashlar asosida tadqiq etib kelingan. Xususan, I.A.Richards[1] va M.Blek[2] kabi olimlarning dastlabki ilmiy izlanishlari natijasida, metafora faqatgina stilistik vosita sifatida emas, balki ma’no hosil qilish mexanizmi sifatida talqin qilina boshlandi. Jumladan, M.Blek tomonidan ilgari surilgan ikki konseptual soha o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir nazariyasi metafora borasidagi tadqiqotlarning keyingi rivoji uchun muhim zamin yaratdi.

Metafora tadqiqi kognitiv tilshunoslikning shakllanishi bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, G.Lakoff va M.Jonson[3] tomonidan ishlab chiqilgan “Konseptual

[1] I.A.Richards “The philosophy of rhetoric”, New York, London, Oxford University Press, 1936, p.151 https://metaphorsofmovement.co.uk/richards-interaction-theory-of-metaphor-tenor-and-vehicle/

[2] Max Black, Metaphor, 1977, Vol. 31, No. 3/4, pp. 431-457 https://www.jstor.org/stable/42969757

[3] George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors We Live By – Chicago: Chicago University Press, 1980. – p. 4-25.

metafora nazariyasi” metaforaning nafaqat lingvistik hodisa, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri ekanligini namoyon etdi. Ushbu yondashuv Z.Kovesches [1] tomonidan yanada rivojlantirilib, u metafora tarjimasi tillardagi universal modellar va madaniy o‘ziga xosliklarni o‘rganish zaruriyatini taqozo etishini asoslab berdi.

Metafora nazariyasiga oid turli yondashuvlar uning tarjimasi borasida ham ko‘plab olimlarning izlanishlari va tarjima tamoyillarini yaratishga asos bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, E.Nida [2] va P.Nyumark [3] tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida P.Nyumarkning metaforani tarjima qilishning 7 xil strategiyasi, E.Nida tomonidan 3 xil tarjima prinsiplari yaratildi. Keyinchalik R.van den Broyek [4], D.Shafner [5] va M.Snell-Hornbay [6] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida metaforani tarjima qilish jarayonida kontekst, funksional omillar va madaniy jihatlarni ahamiyatga olish zarurligi ta’kidlab o‘tildi.

N.Mandelblit [7] tomonidan tillar o‘rtasidagi konseptual moslik muhimligini ta’kidlangan bo‘lsa, A. al-Hasnaviy[8] tomonidan arab tilidagi metaforalarning ingliz tiliga tarjima qilishdagi o‘ziga xos xususiyatlari chuqur tadqiq etilgan. Mavjud tadqiqotlarga qaramay, ushbu sohada ayrim muammolar hanuz to‘laligicha o‘z yechimini topmagan. Nazariy modellar metaforaning mohiyatini tushuntirishda muhim natijalar bergan bo‘lsa-da, ularning amaliy qo‘llanilishi ko‘pincha kontekstga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, kognitiv yondashuvlar keng qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, ularning tarjimashunoslikdagi integratsiyasi hali to‘liq shakllanmagan.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqot ingliz tilidan o‘zbek tiliga metaforalar tarjimasini kognitiv va lingvomadaniy kontekstda o‘rganish maqsadida qiyosiy tahlil yondashuviga asoslanadi. Tadqiqotda metaforik ma’nolarning tillararo qanday saqlanishi, o‘zgarishi yoki moslashtirilishi jarayoni tahlil qilinib, bunda konseptual va madaniy omillar hisobga olinadi. Tadqiqot materiali turli manbalardan, jumladan badiiy matnlar, tarjima qilingan asarlar hamda zamonaviy nutq namunalaridan

[1] Z.Kovecses. Metaphor in culture: Universality and Variation. Cambridge University Press, 2005. – p.314

[2] Eugene Nida. Toward a Science of Translating. Netherlands: Leiden, E.J. Brill, 1964. – p.70-171

[3] P.Newmark. Approaches to Translation. Pergamon Press, 1981. – p. 84-104

[4] Raymond van den Broeck. The Limits of Translatability Exemplified by Metaphor Translation. Poetics Today, Vol. 2, No. 4, Duke University Press,1981. – p.73-87 http://www.jstor.org/stable/1772487

[5] Christina Schäffner. *Metaphor and Translation: Some Implications of a Cognitive Approach.* Journal of Pragmatics, Volume 36, 2004. – p. 1253–1269.

[6] Mary Snell-Hornby. *Translation Studies: An Integrated Approach*. Revised edition. Amsterdam: John Benjamins Press, 1995. – 176 p.

[7] Mandelblit, G. The Cognitive View of Metaphor and its Implications for Translation Theory. Translation and Meaning, Volume 3, 1995. – p. 483–495.

[8] Al-Zoubi, M. Q., Al-Ali, M. N. & Al-Hasnawi, A. R. (2007). Cogno-Cultural Issues in Translating Metaphors. Perspectives. Vol 14(3). – pp. 230–239.

to‘plangan. Shuningdek, izohli lug‘atlar va tarjimashunoslikka oid ilmiy manbalardan qo‘shimcha ma’lumotlar olinib, ularni tahlil qilish va tasniflashda foydalanildi.

Metaforik birliklar bir qator mezonlar asosida tanlab olindi: ularning konseptual ahamiyati, matndagi qo‘llanish darajasi va muhimligi, shuningdek, turli tillarda talqin qilinishidagi farqlanish imkoniyati. Tahlilga faqat aniq obrazli ma’noga ega bo‘lgan va tarjima jarayonida madaniy yoki kognitiv tafovutlar tufayli qiyinchilik tug‘diruvchi metaforalar kiritildi. Tadqiqotda bir nechta tahlil usullari qo‘llanildi. Konseptual va semantik tahlil orqali manba va maqsad sohalari o‘rtasidagi asosiy mosliklar aniqlanib, ikki tildagi ma’no tuzilmasi o‘rganildi. Komponent tahlili metafora tarjimasi jarayonida semantik elementlarning qanchalik saqlanishi yoki o‘zgarishini aniqlashga xizmat qildi. Bundan tashqari, pragmatik tahlil yordamida metaforalarning kommunikativ vazifasi va ularning maqsadli auditoriyaga ta’siri baholandi. Qiyosiy tahlil metodi manba va maqsad matnlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashda qo‘llanilib, bunda metaforalarni saqlash, almashtirish, izohlash va o‘zgartirish kabi tarjima strategiyalariga e’tibor qaratildi. Shuningdek, lingvomadaniy tahlil elementlari ham qo‘llanilib, madaniy omillar metaforalarni anglash va tarjima qilish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganildi.

Mazkur tadqiqot turli metodlarni uyg‘unlashtirgan holda metafora tarjimasini kompleks tarzda tahlil qilishni maqsad qiladi hamda madaniyatlararo muloqotda kognitiv jarayonlar, lingvistik tizimlar va madaniy kontekst o‘zaro bog‘liqligini asoslab beradi.

**Natijalar.** Ingliz tilidagi metaforik ifodalar va ularning o‘zbek tilidagi tarjimalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, metafora tarjimasi konseptual moslik va madaniy kontekst o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir asosida shakllanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, metaforik birliklar uch asosiy turga ajratilishi mumkin: saqlangan metaforalar, moslashtirilgan metaforalar va demetaforizatsiya jarayoniga uchragan ifodalar.

| Tarjima usullari (Nyumark) | Ekvivalentlik turlari (E.Nida) | Ingliz tilida | O‘zbek tilidagi tarjimasi | Tavsif |
|---|---|---|---|---|
| Metaforani aynan saqlab qolish | Formal ekvivalentlik | ray of hope | Umid nuri | Metafora bir xil strukturada qolgan va ma’nosi o‘zgarmagan |
| Metaforani tarjima qilinayotgan tildagi ekvivalent obraz bilan | Dinamik ekvivalentlik | life hangs on a thread | hayoti qil ustida | “thread” so‘zining aynan tarjimasiga qaraydigan bo‘lsak, uning lug‘aviy |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **almashtirish** | | | | **ma’nosi “ip” deb tarjima qilinadi, o‘zbek tilida “hayoti ip ustida turibdi” deb so‘zma-so‘z tarjima qilinishi mumkin, lekin tinglovchiga tushunarsiz bo‘lib qoladi, shu sababli ham bu yerda obraz o‘zgargan lekin mazmun saqlangan.** |
| **Metaforani o‘xshatish orqali berish** | **Formal ekvivalentlik** | **Irresponsible bankers behaving like swindling gold-manufacturers** | **Mas’uliyatsiz bank xodimlari o‘zlarini firibgar oltin ishlab chiqaruvchilardek tutmoqda** | **Metaforani tarjimada o‘xshatish qo‘shimchalarini olgan so‘zlar orqali ifodalash** |
| Metaforani o‘xshatish + izoh bilan berish | **Formal ekvivalentlik** | **a tide of panic swept through the city** | **shaharda to‘lqin kabi kuchli vahima boshlandi** | **Tarjimada to‘liq obraz saqlanadi va qo‘shimcha izoh bilan beriladi** |
| Metaforani oddiy ifodaga aylantirish | **Dinamik ekvivalentlik** | **Spill the beans** | **Sirni ochmoq** | **Metafora tarjima qilinayotgan tilda ekvivalenti bo‘lmaganligi sababli oddiy ifodaga** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | aylantiriladi |
| Metaforani saqlab qolgan holda, qo‘shimcha izoh bilan berish | Formal ekvivalentlik | The tongue is a fire | Til bu olovdir. Olov barcha narsalarni yo‘q qilishga qodir bo‘lgani kabi bizning so‘zlarimiz ham barcha narsani barbod qila oladi. | Metafora saqlangan holda qo‘shimcha izoh beriladi |

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, formal ekvivalentlik mavjud bo‘lgan hollarda metaforalar ko‘pincha saqlanadi. Bunday vaziyatlarda metaforaning tuzilishi va obrazliligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri maqsad tilga o‘tkaziladi. Masalan, “He broke my heart” ifodasi “U yuragimni parchaladi” tarzida tarjima qilinib, ikki tilda ham bir xil konseptual asos saqlanmoqda.

Xuddi shunday, “At the peak of her career” iborasi “Faoliyatining cho‘qqisida” shaklida berilib, muvaffaqiyatning yuqorilik bilan bog‘lanishi saqlangan. Biroq ayrim hollarda metaforalar moslashtirishni talab qiladi. Bu esa Nyumarkning metaforani maqsad tildagi obraz bilan qayta yaratish, oddiy tasvir usulida tarjima qilish hamda E.Nidaning dinamik ekvivalentlik nazariyasiga mos keladi. Bunday vaziyatlarda tarjimon asl shakldan ko‘ra, maqsad til o‘quvchisiga ta’sirni ustuvor deb biladi. Masalan, “Time is money” iborasi “Vaqt oltindan qimmat” tarzida tarjima qilinib, ma’no saqlanadi, lekin madaniy jihatdan mos ifoda tanlanadi. Shuningdek, “Cold personality” iborasi “Sovuqqon inson” shaklida berilib, metafora tabiiy o‘zbekcha ifoda bilan moslashtiriladi. Bu misollar metafora tarjimasida muallif maqsadi va madaniy moslik o‘rtasidagi muvozanat qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili ko‘proq idiomatik va barqaror metaforalarga tayanadi, ular ko‘pincha madaniy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjimaga har doim ham mos kelavermaydi.

O‘zbek tili esa ko‘proq moslashuvchan va kontekstga bog‘liq ifodalardan foydalanadi, bu esa tarjimonga metaforik ma’noni qayta talqin qilish imkonini beradi. Masalan, “He carries a heavy burden” iborasi “U katta mas’uliyatni o‘z zimmasiga

olgan” tarzida tarjima qilinib, jismoniy og‘irlik metaforasi mas’uliyat tushunchasi bilan almashtiriladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari metafora tarjimasi formal va dinamik ekvivalentlik o‘rtasidagi uzluksiz jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Agar tillar o‘rtasida konseptual moslik mavjud bo‘lsa, metafora saqlanadi. Agar lingvistik yoki madaniy farqlar yuzaga kelsa, moslashtirish strategiyalari qo‘llaniladi. Metaforaga mos ekvivalent mavjud bo‘lmagan hollarda esa metafora tushurib qoldirilishi yoki oddiy ifoda tasvirida berilishi mumkin.

**Muhokama.** Olingan natijalar metafora tarjimasi jarayoni faqat lingvistik ekvivalentlik bilan cheklanmasligini, balki kognitiv va lingvomadaniy omillar bilan uzviy bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan uch asosiy strategiya: *metaforani saqlash, moslashtirish va demetaforizatsiya* usullari amaliy tarjima jarayonida nazariy modellarning qanday ishlashini ko‘rsatib beradi. Natijalar P.Nyumark tomonidan taklif etilgan metafora tarjimasi strategiyalari bilan uyg‘unlikda ekanligi kuzatildi. Xususan, formal ekvivalentlik mavjud bo‘lgan holatlarda metaforaning strukturasi va obrazliligi saqlanishi, dinamik ekvivalentlik talab etilgan vaziyatlarda esa mazmunni ustuvor qo‘ygan holda ifoda qayta yaratilishi aniqlangan. Bu holat E.Nida nazariyasidagi “ta’sirga yo‘naltirilgan tarjima” prinsipini amalda tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari Zoltan Kovesches tomonidan ilgari surilgan metaforalarning qisman universal, qisman madaniy xususiyatga ega ekanligi haqidagi qarashlar bilan hamohangdir. Ya’ni, ayrim metaforalar turli tillarda umumiy konseptual asosga ega bo‘lsa-da, ularning lingvistik ifodasi va semantik kengayishi milliy tafakkur va madaniy tajriba bilan belgilanadi. Muhim jihatlardan biri shundaki, ingliz tilidagi metaforalarning katta qismi idiomatik xarakterga ega bo‘lib, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi har doim ham kommunikativ jihatdan samarali bo‘lavermaydi. Shu sababli tarjimada moslashtirish strategiyasining ustunligi kuzatiladi. Bu esa tarjimonning nafaqat til bilimiga, balki madaniyatlararo kompetensiyasiga ham tayanishini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, metafora tarjimasida kontekstning hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Bir xil metaforik birlik turli kontekstlarda turlicha tarjima qilinishi mumkin, bu esa qat’iy universal model ishlab chiqishni murakkablashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, mavjud nazariy yondashuvlar umumiy yo‘nalish beruvchi vosita bo‘lib xizmat qilsa-da, ularning amaliy qo‘llanilishi har doim kontekstual tahlilni talab etadi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot metafora tarjimasini ko‘p darajali jarayon sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Unda lingvistik, kognitiv va madaniy omillar o‘zaro ta’sirda bo‘lib, tarjima natijasining sifatini belgilaydi. Bu esa metafora tarjimasini oddiy til almashtirish emas, balki interpretativ va ijodiy faoliyat sifatida baholash lozimligini anglatadi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot ingliz tilidan o‘zbek tiliga metaforalarni tarjima qilish jarayonini kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar asosida tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, metafora tarjimasi oddiy lingvistik

birliklar almashinuvi emas, balki inson tafakkuri, madaniy qadriyatlar va kommunikativ maqsadlar uyg‘unligiga asoslangan murakkab jarayondir. Tahlillar asosida metaforik birliklarning tarjimada turli strategiyalar orqali ifodalanishi aniqlanib, ularning tanlanishi manba va maqsad tillari o‘rtasidagi konseptual moslik hamda madaniy tafovutlarga bog‘liqligi isbotlandi. Ayniqsa, formal ekvivalentlik mavjud bo‘lgan hollarda metaforaning saqlanishi, aks holda esa moslashtirish yoki neytrallashuv strategiyalarining qo‘llanishi kuzatildi. Shuningdek, tadqiqot metafora tarjimasida kontekstning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Bir xil metaforik birlik turli kommunikativ sharoitlarda turlicha talqin qilinishi mumkinligi tarjima jarayonining moslashuvchanligini taqozo etadi. Bu esa tarjimonda yuqori darajadagi lingvistik, kognitiv va madaniy kompetensiya mavjud bo‘lishini talab qiladi. Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda metafora tarjimasi kognitiv va lingvomadaniy omillar uyg‘unligida ko‘rib chiqilib, mavjud nazariy yondashuvlarning amaliy qo‘llanishi asoslab berildi. Natijalar tarjimashunoslikda metaforani o‘rganish bo‘yicha nazariy bilimlarni boyitadi hamda amaliy tarjima faoliyatida samarali strategiyalarni tanlashga yordam beradi. Kelgusida metafora tarjimasini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida turli janrlar, xususan, badiiy, publitsistik va ilmiy matnlar kesimida kengroq korpus asosida tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

## “VYETNAM TILSHUNOSLIGIDA HISOB SO‘Z VA UNING SO‘Z TURKUMLARI TIZIMIDAGI O‘RNI

***QODIROVA DILBARXON***
*Katta o‘qituvchi, TDSHU*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada vyetnam tilining grammatik tizimida markaziy o‘rin tutuvchi hisob so‘zlar, xususan, “cái” va “con” birliklarining terminologik tabiati va ularning so‘z turkumlari tizimidagi o‘rni tahlil etilgan. Tadqiqotda vyetnam tilshunosligidagi milliy maktab (Nguyễn Tài Cẩn, Cao Xuân Hạo) hamda G‘arb va rus vyetnamshunosligi (L.C. Thompson, V.M. Solnsev) yondashuvlari qiyosiy o‘rganilgan. Maqolada hisob so‘zlarining sintaktik obligatorlik xususiyatini, ularning leksik-semantik ildizlarini hamda kognitiv toifalashdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida deskriptiv, komponent tahlil va sintaktik modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Olingan natijalar hisob so‘zlar shunchaki yordamchi unsurlar emas, balki til egalarining dunyoni anglashdagi kognitiv modelini aks ettiruvchi murakkab grammatik kategoriya ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, maqolada “Loại từ”, “Danh từ đơn vị” va “Từ chỉ loại” terminlarining ilmiy salohiyati va ular o‘rtasidagi farqlar tanqidiy baholangan.*

***Tayanch so‘zlar:*** *vyetnam tili, hisob so‘z, “cái”, “con”, grammatikalizatsiya, kognitiv tilshunoslik, sintaktik obligatorlik, funksional grammatika, danh từ đơn vị.*

***Аннотация.*** *В статье анализируется терминологическая природа счетных слов (классификаторов), в частности единиц «cái» и «con», занимающих центральное место в грамматической системе вьетнамского языка. В исследовании сопоставляются подходы национальной вьетнамской школы лингвистики (Нгуен Тай Кан, Као Суан Хао) и западной/российской вьетнамистики (Л.К. Томпсон, В.М. Солнцев). Автор раскрывает характер синтаксической обязательности счетных слов, их лексико-семантические корни и роль в когнитивной категоризации. В ходе работы использованы описательный метод, компонентный анализ и синтаксическое моделирование. Результаты показывают, что счетные слова являются не просто вспомогательными элементами, а сложной грамматической категорией, отражающей когнитивную модель восприятия мира носителями языка. В статье также критически оценивается научный потенциал терминов «Loại từ», «Danh từ đơn vị» и «Từ chỉ loại».*

***Ключевые слова:*** *вьетнамский язык, счетные слова, «cái», «con», грамматикализация, когнитивная лингвистика, синтаксическая обязательность, функциональная грамматика, danh từ đơn vị.*

***Annotation.*** *This article analyzes the terminological nature of measure words (classifiers), specifically the units “cái” and “con,” which hold a central position in the grammatical system of the Vietnamese language. The study compares approaches from the national Vietnamese linguistic school (Nguyễn Tài Cẩn, Cao Xuân Hạo) and Western/Russian Vietnamese studies (L.C. Thompson, V.M. Solnsev). The author reveals the syntactic obligatoriness of these words, their lexical-semantic roots, and their role in cognitive categorization. The study employs descriptive, componential analysis, and syntactic modeling methods. The results confirm that measure words are not merely auxiliary elements but a complex grammatical category reflecting the cognitive model of how native speakers perceive the world. Furthermore, the article critically evaluates the scientific potential of the terms “Loại từ”, “Danh từ đơn vị”, and “Từ chỉ loại”.*

***Keywords:*** *Vietnamese language, measure words (classifiers), “cái”, “con”, grammaticalization, cognitive linguistics, syntactic obligatoriness, functional grammar, danh từ đơn vị.*

**Kirish:** Vyetnam tilidagi hisob so‘zlar tizimi tilshunoslikda borliqni lisoniy kategoriyalashning muhim vositasi sifatida tadqiq etiladi. Ushbu so‘zlar nafaqat miqdorni ifodalash, balki otlarning tabiiy xususiyatlarini, jumladan, jonlilik, shakl va funksiya kabi semantik belgilarni aks ettirish vazifasini bajaradi. Izolyatsiyalovchi (amorf) tillar guruhiga mansub vyetnam tilida hisob so‘zlar nafaqat miqdoriy ko‘rsatkich, balki borliqni lisoniy kategoriyalashning asosiy vositasidir.

Vyetnam tilshunosligidagi hisob so‘zlar (*loại từ*) tizimi eng ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan grammatik masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ularning grammatik maqomi, semantik tabiati va *danh ngữ* (ot birikmasi) tarkibidagi sintaktik vazifasi masalalari Nguyễn Tài Cẩn hamda Cao Xuân Hạo kabi olimlarning

tadqiqotlarida batafsil muhokama qilingan.[1] Xususan, eng yuqori chastotaga ega bo‘lgan “cái” va “con” birliklarining terminologik tabiatini belgilashda turli ilmiy maktablar o‘rtasida yagona yondashuv mavjud emas.[2]

Mazkur tadqiqot vyetnam tilidagi hisob so‘zlarning semantik funksiyasi, ularning grammatik maqomi, leksik-semantik ildizlari hamda sintaktik obligatorlik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik va kognitiv aspektda tadqiq etishga qaratilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

– **Terminologik aniqlik:** Darsliklardagi terminologik chalkashliklarni (*loại từ*[3] vs *danh từ đơn vị*[4]) bartaraf etishga xizmat qiladi.

– **Tipologik ahamiyat:** Izolyatsiyalovchi tillar tipologiyasini o‘rganishda yangi nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

– **Kognitiv yondashuv:** Vyetnam xalqining dunyoqarashi va kognitiv madaniy kodlarini til strukturasi orqali tushunish imkonini beradi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, hisob so‘zlari shunchaki yordamchi vosita emas, balki vyetnam tili kabi amorf tillarda leksik va grammatik sathlar o‘rtasidagi “ko‘prik” hisoblanadi. So‘z turkumlari orasidagi chegaralarning diffuz (noaniq) xarakteri aynan shu tizimda yaqqol namoyon bo‘ladi. Tadqiqot kognitiv tilshunoslik va funksional grammatika tamoyillariga tayangan holda, deskriptiv, komponent tahlil va sintaktik modellashtirish metodlari yordamida vyetnam tilidagi hisob so‘zlarining dual funksiyasi (sanash + kategoriyalash)ni ilmiy asoslab beradi.

**Erishilgan natijalar:** Vyetnam tilshunosligida “cái” va “con” birliklarining terminologik tabiati va tasnifi masalasi yuzasidan mavjud ilmiy yondashuvlarni quyidagi asosiy maktabga ajratish mumkin:

**Vyetnam milliy tilshunoslik maktabi, g‘arb va rus vyetnamshunosligi.**

Ushbu yo‘nalish vakillari hisob so‘zlarni tilning ichki sintaktik qonuniyatlaridan kelib chiqib tadqiq etadilar:

**Nguyễn Tài Cẩn (1975):** Olim ushbu birliklarni “yordamchi otlar” (*danh từ phụ*) guruhiga kiritadi. Uning kontseptsiyasiga ko‘ra, *cái* va *con* “haqiqiy klassifikatorlar” (*loại từ đích thực*) bo‘lib, ular son va ot o‘rtasida majburiy sintaktik ko‘prik vazifasini bajaradi (**Num + HS + N** modeli).[5]

---

[1] Nguyễn Tài Cẩn. Ngữ pháp tiếng Việt: Tiếng – Từ ghép – Đoản ngữ. Hà Nội: NXB Đại học và Trung học chuyên nghiệp, 1975. 302 Tr. 11–32-betlat; Cao Xuân Hạo. Tiếng Việt: Mấy vấn đề ngữ âm, ngữ pháp, ngữ nghĩa. Hà Nội: NXB Giáo dục, 1999. Tr. 305–346.;

[2] Cao Xuân Hạo. *Tiếng Việt: Mấy vấn đề ngữ âm, ngữ pháp, ngữ nghĩa*. Hà Nội: NXB Giáo dục, 1999. Tr. 305–346.

[3] Lưu Văn Lăng. Một số vấn đề về loại từ trong tiếng Việt // *Loại từ trong các ngôn ngữ ở Việt Nam*. Hà Nội: NXB Khoa học Xã hội, 2000. Tr. 9–31.

[4] Nguyễn Tài Cẩn. *Ngữ pháp tiếng Việt: Tiếng – Từ ghép – Đoản ngữ*. Hà Nội: NXB Đại học và Trung học chuyên nghiệp, 1975. Tr. 140–186.

[5] Nguyễn Tài Cẩn. *Ngữ pháp tiếng Việt: Tiếng – Từ ghép – Đoản ngữ*. Hà Nội: NXB Đại học và Trung học chuyên nghiệp, 1975. 302 tr. 140-170-betlar.

**Cao Xuân Hạo (1991):** Funksional grammatika nuqtai nazaridan yondashib, ularni “determinator” (aniqlovchi) deb hisoblaydi. Muallif vyetnam tilidagi otlarning nomarkazlashgan (*mass nouns*) tabiatini hisobga olgan holda, *cái* va *con* birliklarining asosiy vazifasi predmetlarni “individuallashtirish” (birlik holiga keltirish) ekanligini isbotlaydi.[1]

**G‘arb va rus vyetnamshunosligi**

Xorijiy tadqiqotchilar ko‘proq tipologik va kognitiv tahlilga urg‘u berishadi:

**L.C. Thompson (1965):** Hisob so‘zlarni “kategoriyali otlar” (*categorical nouns*) deb atab, ularni ot iborasining (*noun phrase*) yadroviy elementi sifatida talqin qiladi.[2]

**V.M. Solnsev (1960-70):** Analitik tillar, jumladan, vyetnam tilidagi klassifikator konstruktsiyalarni sintaktik va grammatik jihatdan yaxlit birlik sifatida tahlil qiladi hamda hisob so‘zlarning ot bilan birgalikda grammatik funksiyani bajarishini ta’kidlaydi.[3]

**VYETNAM TILSHUNOSLIGIDA HISOB SO‘Z TERMINLARINING QIYOSI**

Terminologik yondashuvlar: Loại từ vs. Danh từ đơn vị vs. Từ chỉ loại

| KRITERIY | LOẠI TỪ (An’anaviy yondashuv) | DANH TỪ ĐƠN VỊ (Zamonaviy-grammatik yondashuv) | TỪ CHỈ LOẠI (Kognitiv-semantik yondashuv) |
|---|---|---|---|
| Termin ma’nosi | So‘z turkumi (Xitoycha 量词 – liàngcí ta’siri) | Yakka birlik ot (unit noun) | Tasniflovchi so‘z (kategoriyalovchi birlik) |
| Nazariy asos | Xitoy grammatik an’anasi | Struktur-funksional grammatika (L.C. Thompson) | Kognitiv-semantik yondashuv (Cao Xuân Hạo, Diệp Quang Ban) |
| Grammatik status | Mustaqil so‘z turkumi | Otning kichik sinfi (yordamchi birlik) | Leksik-grammatik kategoriya |
| Vazifasi | Son + ot birikmasini hosil qilish | Son va ot o‘rtasida bog‘lovchi halqa | Olamni kognitiv tasniflash vositasi |
| Misollar | cái, con, chiếc, quyển, người, cây... | cái, con | cái (jonsiz), con (jonli) |
| Asosiy afzalligi | Tarixiy-madaniy uzviylikni aks ettiradi | Grammatik tizimga aniq joylashtiradi | Kognitiv va semantik chuqurlikni ochadi |

Tadqiqot kognitiv tilshunoslik va funksional grammatika tamoyillariga tayanadi. Vyetnam tilidagi amorf tizimda otlarning “to‘da” (*mass*) xarakterini inobatga olib, quyidagi metodlar majmuasi qo‘llanildi:

1. **Deskriptiv (tavsifiy) metod:** *Cái* va *con* birliklarining zamonaviy tildagi qo‘llanilish holatlarini tizimlashtirishda.
2. **Komponent tahlil:** Ushbu birliklarning semantik tarkibidagi “jonli/jonsiz”, “shakl”, “vazifa” kabi semalarni aniqlashda.

[1] Cao Xuân Hạo. *Tiếng Việt: Mấy vấn đề ngữ âm, ngữ pháp, ngữ nghĩa.* Hà Nội: NXB Giáo dục, 1999. Tr. 305–346.

[2] Thompson, Laurence C. *A Vietnamese Grammar*. Seattle: University of Washington Press, 1965. 398 p. (124–129-betlar – *Categorical nouns* tushunchasi; 130–136-betlar – noun phrase tarkibida categorical nounsning vazifasi; 137–143-betlarda – *cái*, *con*, *cây*, *quyển* kabi birliklarning grammatik xususiyatlari.

[3] Солнцев В. М., Лекомцев Ю. К., Мхитарян Т. Т., Глебова И. И. Вьетнамский язык. М.: Издательство восточной литературы, 1960. – 100 с. (Серия «Языки зарубежного Востока и Африки»).

3. **Sintaktik modellashtirish:** Hisob so‘zlarning ot birikmalari

Ushbu hisob so‘z turkum birliklarining terminologik belgilanishi va ularning so‘z turkumlari tizimidagi o‘rni tilshunoslik maktablarining o‘zgarishi bilan turlicha rivojlandi.

Vyetnam tilining Xitoy mustamlakasi ostidagi davrida (miloddan avvalgi 111-yildan milodiy 939-yilgacha bo‘lgan qariyb ming yillik muddat) qadimgi vyetnam tili o‘zining sof Mon-khmer tabiatini saqlagan holda, Xitoy tili va madaniyatining kuchli bosimiga uchradi.[1]

Ilk davrlarda so‘z turkumlari tizimi **funksional-semantik** xarakterga ega bo‘lgan. Ya’ni, so‘zlar grammatik shakliga ko‘ra emas, balki dunyodagi narsa va hodisalarni qanday ifodalashiga qarab guruhlangan.

XVII asr (O‘rta vyetnam tili)da “cái” va “con” birliklari tadqiqiga oid manbaa sifatida **Alexandre de Rhodes**ning *“Dictionarium Annamiticum Lusitanum et Latinum”* – Roma, 1651 lug‘ati va unga yozilgan sharhlar asos hisoblanadi. Bu lug‘atda “cái” va “con” birliklarining o‘sha davrdagi qo‘llanilishi va ularning leksik-grammatik statusi ilk bor qayd etilgan.

Klassik G‘arb grammatikasi (Ot + Son + Hisob so‘zi) XIX asr oxiridan boshlab Trương Vĩnh Ký[2] kabi olimlar tomonidan tahlil qilinishi natijasida tizimga tushgan.




XIX asrgacha (Ilk Mon-khmer va O‘rta vyetnam davri) vyetnam tilidagi “cái” va “con” kabi birliklarni qanday nom ostida mavjud bo‘lgani yuzasidan manbalarni tadqiq etish albatta mavzuni chuqur va tizimli o‘rganishga asos bo‘ladi.

Ular Xitoy iyerogliflaridan (Chữ Hán) va keyinchalik o‘zlarining **Chữ Nôm** (janubiy yozuv) tizimidan foydalanishgan. Maxsus ilmiy termin bo‘lmagan. Ular bu so‘zlarni shunchaki **“Chữ”** (belgi/so‘z) deb bilishgan. Masalan, “cái” va “con” kabi birliklar o‘sha paytda ham ishlatilgan, biroq, Professor Nguyễn Tài Cẩn “cái” va

[1] Haudricourt A.G. De l’origine des tons en viêt-namien // Journal Asiatique. – 1954. – Vol. 242. – P. 247-282.

[2] *Izoh:* Trương Vĩnh Ký (Petrus Ky) — XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan vyetnamlik mashhur olim va poliglottir. 1883-yilda fransuz tilida yozgan “Grammaire de la langue annamite” (Annam tili grammatikasi) asari bilan mashhur U vyetnam tilini g‘arbiy (fransuz) grammatika qoliplari asosida tizimlashtirishga harakat qilgan ilk tadqiqotchilardan biri hisoblanadi.

“con” birliklarini shunchaki hisob so‘zi emas, balki Mon-khmer tillari oilasiga mansub, **mustaqil ma’noli** genetik ildizlarga ega [Xitoy mustamlakasi davrigacha mavjud bo‘lgan] leksik birliklar sifatida isbotlab bergan. Bunga ko‘ra:

– **Cái:** Qadimgi ma’nosi **“Ona”** yoki **“Katta/Asosiy”,** degan ma’nolarni ifodalagan bo‘lgan.[1] (Hozir ham vyetnam tilida *sông cái* – “ona daryo/katta daryo” degan ibora saqlanib qolgan).

– **Con:** Qadimgi ma’nosi **“Bola”** yoki **“Kichik/Tirik mavjudot”** [2] degan ma’noni ifodalab, ular “grammatik termin” sifatida emas, balki “leksik ma’no tashuvchi so‘zlar” deb qaralgan.[3]




**1. An’anaviy bosqich (XIX asr oxiri):** G‘arb andozasidagi ilk tavsiflar. Vyetnam tilshunosligining shakllanish davrida ushbu birliklar mustaqil turkum sifatida e’tirof etilmagan. Trương Vĩnh Ký o‘zining **“Grammaire de la langue annamite” (1883)** asarida ularni **“Chữ”** (yozuv birligi/so‘z) yoki fransuzcha *“Mots de quantité”* nomi ostida ko‘rsatib, ular otlarning miqdorini belgilovchi yordamchi unsurlar (artiklga yaqin) deb qaralgani haqida ma’lumotlar mavjud.[4]

**Fransuz tilshunosligi (strukturizm) ta’siri (1940–1960 yillar): “Loại từ” terminining kirib kelishi.** 1940-yillargacha vyetnam tilidagi **“cái”** va **“con”** kabi birliklar shunchaki “yordamchi so‘zlar” deb qaralardi. 1940–1960-yillarda fransuz tilshunosligi (strukturizm) ta’sirida vyetnamlik olimlar bu so‘zlarni alohida **turkum** sifatida ajratishga qaror qilishdi va **“Loại” — (tur/toifa):** narsalarni guruhlarga ajratish; **Từ (so‘z):** ya’ni “turga ajratuvchi so‘z” termini krib keldi. Bu termin orqali

[1] Từ điển tiếng Việt. Viện Ngôn ngữ học. 2003. 105-bet. https://archive.org/details/tu-dien-tieng-viet-vien-ngon-ngu-hoc/page/12/mode/2up
[2] Từ điển tiếng Việt. Viện Ngôn ngữ học. 2003. 198-bet. https://archive.org/details/tu-dien-tieng-viet-vien-ngon-ngu-hoc/page/12/mode/2up
[3] Nguyễn Tài Cẩn. Giáo trình lịch sử ngữ pháp tiếng Việt (Sơ thảo). – Hà Nội: NXB Giáo dục, 1996. – Tr. 98-105.
[4] Trương Vĩnh Ký. Grammaire de la langue annamite. – Saigon: Imprimerie du Gouvernement, 1883. – P. 24-27.

*“cái”* (buyumlar uchun) va *“con”* (tirik mavjudotlar uchun) *so‘zlarining vazifasi* – otlarni turli mantiqiy guruhlarga bo‘lish ekanligi ilmiy asoslandi.[1]

1948 yilga kelib, vyetnamlik tilshunos Lê Văn Lý hisob so‘zi vazifasini bajaruvchi birliklarga nisbatan ilk bor tizimli yondashuvni qo‘lladi. U o‘zining **“Le parler vietnamien” (1948)** asarida **“Loại từ”** (Klassifikator / Tur-jins so‘zi) terminini fanga kiritdi. Muallif ushbu birliklarni otlarning “grammatik jinsi”ni (gender) ajratuvchi vosita sifatida baholaydi. Bunga ko‘ra:

- *Con* – sub’ektning “faol/jonli” tabiatini;
- *Cái* – “passiv/jonsiz” tabiatini belgilaydi.[2]

“Loại từ” (loại + từ) terminining **etimologiyasi va qo‘llanishi.** Ushbu termin xitoy tilshunoslik an’anasidagi “量词” (*liàngcí*) tushunchasiga mos kelib, asosan an’anaviy va maktab grammatikalarida keng qo‘llaniladi. Mazkur yondashuvda hisob so‘zlari (masalan, *dona, nafar*) va o‘lchov birliklari (masalan, *kilogramm, litr*) yagona turkum — “Loại từ” ostida birlashtiriladi.

Tadqiqotchi Nguyễn Tài Cẩn ushbu atamani o‘ta keng qamrovli va noaniq ekanligi va “birlik so‘zlar” (*đơn vị từ*) bilan aralashib ketishi sababli tanqid qiladi.[3] Uning izohlashicha, masalan, “bir dona olma” degandagi **“dona”** (hisob so‘zi) bilan “bir kilo olma” degandagi **“kilo”** (o‘lchov birligi) orasida katta grammatik farq bor, lekin “Loại từ” ularni bitta narsa deb qaraydi. Ya’ni, “loại từ” terminidagi juz’iy kamchiliklarini quyidagicha tushuntirish mumkin.

***Birinchidan,* grammatik majburiylikni tushuntira olmaydi:** Vyetnam tilida “uchta mashina” deyish uchun *ba chiếc xe* deyish shart. Shunchaki *ba xe* deb bo‘lmaydi. “Loại từ” termini bu birliklarning nima uchun **majburiy** ekanini, ularsiz gap xato bo‘lishini ilmiy jihatdan to‘liq asoslab bera olmaydi. U shunchaki “bu so‘zlar turini ajratish uchun kerak” deydi, xolos.

***Ikkinchidan,* leksik tanlovda “ojiz”:** Nima uchun aynan hayvonlarga **“con”**, buyumlarga esa **“cái”** ishlatiladi? Bu tanlov shunchaki ma’no bilan bog‘liqmi yoki grammatik qoidami? “Loại từ” yondashuvi bu so‘zlarning gapdagi murakkab o‘rni (statusi) haqida chuqur ma’lumot bermaydi.

“Loại từ” ko‘p hollarda morfologik-sintaktik kategoriya sifatida aniq belgilanmagan, semantik jihatdan “narsalarni turiga ko‘ra ajratuvchi so‘z” deb tushuntiriladi, lekin “cái”, “con” kabi birliklarning grammatik majburiyligini (obligatoriness) va leksik tanlovini izohlashda sust.

Demak, “Loại từ” — bu eski va an’anaviy qarash bo‘lib, u hisob so‘zlarini shunchaki **“narsalarni guruhlarga ajratuvchi yordamchi so‘z”** deb tushuntiradi.

[1] Trương Văn Chình, Nguyễn Hiến Lê. Khảo luận về ngữ pháp Việt Nam. – Huế: Đại học Huế, 1963. – Tr. 124-130.
[2] Lê Văn Lý. Le parler vietnamien. – Paris: Hương Anh, 1948. – S. 142-145.
[3] Nguyễn Tài Cẩn. Ngữ pháp tiếng Việt: Tiếng — Từ ghép — Từ đơn. – Hà Nội: Đại học và Trung học chuyên nghiệp, 1975. – P. 135-140.

Biroq, u “cái” va “con” birliklarining vyetnam tili grammatikasidagi **o‘ta muhim (poydevor)** rolini va ularning ishlatilishi shartligini tushuntirishda sustlik qiladi.

Quyida Nguyễn Tài Cẩn taklif qilgan **“Đơn vị từ”** (Birlik so‘zlari) yondashuvini ham ko‘rib chiqamiz. Bu tushuncha maqolamizning ikkinchi muhim ustuni hisoblanadi.

Amerika tilshunoslari (L.C. Thompson kabi) vyetnam tilida so‘zning nima ma’no berishiga (masalan, hayvonmi yoki buyummi) emas, balki **gapda qayerda kelishiga** e’tibor berishdi. Thompson bu so‘zlarni (cái, con, chiếc) alohida turkum emas, balki **“son bilan asosiy otning o‘rtasida turib, miqdorni o‘lchab beruvchi maxsus otlar”** deb atadi.[1] Ya’ni, ular mustaqil turkum emas, balki otning bir kichik turi (birlik bildiruvchi ot) deb hisoblandi.

Amerikalik olimlar vyetnam tilini o‘rganishda **“sub’ektivlikdan”** (ma’noga qarab ajratishdan) **“ob’ektivlikka"** (shakl va o‘ringa qarab ajratishga) o‘tishni ta’minladi. Bu yondashuv bugungi kunda kompyuter lingvistikasi va avtomatik tarjima dasturlari uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

L.C. Thompson o‘zining fundamental **“A Vietnamese reference grammar” (1965)** tadqiqotida ushbu masalaga sintaktik funksiya nuqtai nazaridan yondashdi va **“Danh từ đơn vị”** (Birlik otlari) terminini taklif qildi. Hisob so‘zlarni otlarning bir kichik sinfi (“unit nouns”) deb hisoblab, ularni son va ot o‘rtasidagi “sintaktik ko‘prik” deb ataydi.[2]

Bu termin “Loại từ”ga nisbatan aniqroq va ilmiyroq hisoblanadi.

1970–80-yillarda Nguyễn Tài Cẩn va Đỗ Hữu Châu kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuvda hisob so‘zlar ot turkumining bir subkategoriyasi (kichik turi) sifatida qaraladi. Buning asosi sifatida ularning o‘zak jihatdan otlardan kelib chiqqanligi (masalan: *cái* – qadimiy vyetnamchada “qobiq, buyum”; *con* – “bola, jonzod”) ko‘rsatiladi.[3]

Garchi bu termin hisob so‘zlarning sonlar bilan birikishini yaxshi tushuntirsa-da, Nguyễn Văn Lợi ta’kidlaganidek, u klassifikatsiya (turga ajratish) funktsiyasini ikkinchi o‘ringa surib, faqat miqdoriy o‘lchov birligi funktsiyasiga urg‘u beradi.[4]

Nguyễn Tài Cẩn hisob so‘zlarini shunchaki “turga ajratuvchi” emas, balki **“sanoq birligini hosil qiluvchi”** so‘zlar deb atashni taklif qilgan.[5]

---

[1]Thompson L. C. A Vietnamese Reference Grammar. – Seattle: University of Washington Press, 1965. – S. 192–200.

[2] Thompson L.C. A Vietnamese Reference Grammar. – Seattle: University of Washington Press, 1965. – P. 192-198.

[3] Đỗ Hữu Châu. Từ vựng ngữ nghĩa tiếng Việt [Vyetnam tili leksik semantikasi]. – Hà Nội: Giáo dục, 1981. – P. 92-95.

[4] Nguyễn Văn Lợi. Loại từ trong các ngôn ngữ tày-thái va vấn đề loại từ trong tiếng Việt. – Hà Nội: Khoa học xã hội, 1990. – P. 45-48.

[5] Nguyễn Tài Cẩn. Ngữ pháp tiếng Việt: Tiếng — Từ ghép — Từ đơn. – Hà Nội: Đại học và Trung học chuyên nghiệp, 1975. – P. 135-140.

**1970–1990 yillarga kelib, Milliy tilshunoslikning yuksalishi kuzatildi.**

Professor Nguyễn Tài Cẩn o‘zining **“Từ loại tiếng Việt” (1975)** asari orqali hisob so‘zlar tahlilini yangi bosqichga olib chiqdi. U **“Danh từ chỉ đơn vị”** (Birlik ko‘rsatuvchi otlar) terminini tizimlashtirdi. Muallif *cái* va *con* birliklarini “turkumlashtiruvchi” (classifying) xususiyatiga ko‘ra tahlil qilib, ularni ot turkumining maxsus, ajralmas qismi sifatida isbotladi.[1]

1990-yillarda Cao Xuân Hạo boshchiligidagi funksional-semantik yondashuv vakillari tomonidan kiritilgan ushbu “từ chỉ loại” termin bevosita xalqaro “classifier” tushunchasining ekvivalenti – narsa/predmet turini ko‘rsatuvchi so‘z.hisoblanadi. Uning asosiy afzalligi – otlarni semantik sinflarga ajratish (masalan, “cái” – narsalar, “con” – hayvonlar, “người” – odamlar) – vazifasini aniq ko‘rsatib berishidir.[2]

Biroq, ushbu termin ba’zan o‘lchov birliklarini (như “thước” – metr, “lít” – litr) “từ chỉ loại”dan chiqarib tashlaydi, ularni “danh từ đơn vị” deb qoldiradi, bu esa terminologik ikkilanishni keltirib chiqaradi hamda vyetnam tilidagi hisob so‘zlarning sintaktik majburiylik xarakterini to‘laqonli aks ettirmaydi.[3]

“Từ chỉ loại” atamasi Vyetnam tilidagi hisob so‘zlarlarning grammatik jihatdan majburiy ekanligini, ularsiz son+ot kombinatsiyasi ko‘pincha (animat, aniq referentlar uchun) mumkin emasligini ta’kidlamaydi.

***Qiyosiy jadval***

| Termin | Yondashuv | Kuchli tomoni | Zaif tomoni |
|---|---|---|---|
| Loại từ | An’anaviy/xitoy | Keng qamrovli, sodda | Noaniq, measure word bilan aralashadi |
| Danh từ đơn vị | Morfologik (ot asosli) | Birlik otlari bilan bog‘laydi, etimologik | Klassifikatsiya funksiyasini xiralashtiradi |
| Từ chỉ loại | Funksional-semantik | Hisob so‘z semantikasini aniq ko‘rsatadi | Measure wordlardan farqlashda muammo |

**“Con” va “Cái” o‘rtasidagi kontrast (Personifikatsiya darajasi)**


Ba’zi so‘zlar bilan har ikki birlik ham kelishi mumkin, ammo ma’no keskin o‘zgaradi:

[1] Nguyễn Tài Cẩn. Từ loại tiếng Việt (Danh từ). – Hà Nội: ĐH và THCN, 1975. – S. 64-82.
[2] Cao Xuân Hạo. Tiếng Việt: Sơ thảo ngữ pháp chức năng [Vyetnam tili: Funksional grammatika asosi]. – TP. Hồ Chí Minh: Khoa học xã hội, 1991. – P. 45-50.
[3] Cao Xuân Hạo. Tiếng Việt: Sơ thảo ngữ pháp chức năng. – TP. Hồ Chí Minh: Nhà xuất bản Giáo dục, 2006. – P. 210-212.

| Ob’ekt | “Cái” bilan (Statik) | “Con” bilan (Dinamik/Personifikatsiya) |
|---|---|---|
| Mắt (Ko‘z) | *Cái mắt* (Shunchaki tana a’zosi sifatida) | *Con mắt* (Hissiyot aks etuvchi, “boquvchi” ko‘z) |
| Rối (Qo‘g‘irchoq) | *Cái rối* (Shunchaki buyum) | *Con rối* (Boshqarilayotgan shaxs, “o‘yinchoq” odam metaforasi) |
| Cờ (Shaxmat donasi) | *Cái cờ* (Plastmass bo‘lagi) | *Con cờ* (Siyosiy yoki strategik o‘yindagi “piyoda”) |

Hisob so‘zlar endilikda nafaqat grammatik birlik, balki til egalarining dunyoni kognitiv idrok etish modellari (shakl, jins, ijtimoiy maqom) sifatida talqin qilinadi.[1]

Ushbu davriylashtirish vyetnam tilshunosligida hisob so‘zlarining oddiy “yordamchi so‘z” darajasidan murakkab “kognitiv-grammatik kategoriya” darajasigacha bosib o‘tgan yo‘lini ko‘rsatadi.




Tadqiqot davomida aniqlangan faktik materiallar va nazariy qarashlar sintezi quyidagicha shakllantirildi:

**1. Grammatikalizatsiya va etimologik uzviylik**

Vyetnam tilidagi **“cái”** va **“con”** birliklari shunchaki yordamchi grammatik elementlar emas, balki chuqur genetik ildizga ega bo‘lgan leksik birliklardir. Ularning Mon-khmer qatlamiga mansub qadimiy ma’nolari (ona/katta va bola/kichik) vaqt o‘tishi bilan abstraktlashib, grammatik ko‘rsatkich (klassifikator) darajasiga

[1] Diệp Quang Ban. Ngữ pháp tiếng Việt. – Hà Nội: NXB Giáo dục, 2005. – S. 115-120.

ko‘tarilgan. Bu jarayon vyetnam tili grammatik tizimining shakllanishida **leksik semantika va grammatik funksiya** o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni isbotlaydi.

**2. Terminologik tizimning takomillashuvi**

Vyetnam tilshunosligida qo‘llanib kelgan an’anaviy **“Loại từ”** termini zamonaviy ilmiy talablarga to‘la javob bermaydi, chunki u sof hisob so‘zlarini miqdor o‘lchov birliklari bilan qorishtirib yuboradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, **“Danh từ đơn vị”** (birlik otlari) yoki **“Từ chỉ loại”** terminlari ushbu birliklarning ham morfologik (ot turkumi bilan bog‘liqlik), ham funksional (toifalash) tabiatini aniqroq ifodalaydi.


**3. Sintaktik obligatorlik va tizimiy rol**

Vyetnam tili sintaksisida hisob so‘zlari ixtiyoriy element emas, balki son va ot o‘rtasidagi **“obligator (majburiy) ko‘prik”** vazifasini bajaradi. Ularsiz miqdoriy birikmalarning (ayniqsa aniq predmetlar uchun) shakllanishi imkonsizdir. Bu holat hisob so‘zlarini vyetnam tili grammatikasining o‘zak elementlaridan biri sifatida baholashga asos bo‘ladi.

**4. Kognitiv toifalash modeli**

Hisob so‘zlarining tanlanishi (masalan, hayvonlar uchun *“con”*, buyumlar uchun *“cái”*) tasodifiy til hodisasi emas, balki vyetnam xalqining dunyoni anglashdagi **kognitiv-lisoniy modelidir**. Ushbu model olamni “faol/jonli” va “passiv/jonsiz” qutblarga ajratish orqali inson tafakkurining tilda aks etishini ta’minlaydi. Shuningdek, bu tizim tilning ichki mantiqiy tartibini belgilaydi.

Vyetnam milliy tilshunoslik maktabi (Nguyễn Tài Cẩn, Cao Xuân Hạo) va G‘arb strukturizmi (L.C. Thompson) yondashuvlarining sintezi shuni ko‘rsatadiki, vyetnam tili hisob so‘zlari xalqaro tilshunoslikdagi **“classifier languages”** (klassifikatorli tillar) nazariyasini boyitishda muhim model bo‘lib xizmat qiladi. Bu integratsiya vyetnam tili grammatikasini universal til qonuniyatlari doirasida tushunish imkonini beradi.



Manba: Qodirova D.M. "Vyetnam tilshunosligida hisob so'z termini va so'z turkumlardagi o'rni haqida". Tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

Tahlillar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Vyetnam tilida hisob so‘zlar nafaqat miqdorni ifodalaydi, balki borliqni kognitiv-lisoniy tasniflash vositasi sifatida xizmat qiladi.

2. An’anaviy “Loại từ” termini hisob so‘zlarning mohiyatini to‘liq aks ettirmaydi; “Danh từ đơn vị” va “Từ chỉ loại” terminlari ilmiy jihatdan aniqroq hisoblanadi.

3. “cái” va “con” birliklari asosida hisob so‘zlarning semantik dikotomiyasi (jonsiz/jonli) va ularning kognitiv asoslanganligi isbotlandi.

4. Hisob so‘zlar vyetnam tilida sintaktik jihatdan majburiy element bo‘lib, son va ot o‘rtasida bog‘lovchi halqa vazifasini bajaradi.

5. Hisob so‘zlar tarixan leksik birliklardan grammatik ko‘rsatkichlarga o‘tgan bo‘lib, bu grammatikalizatsiya jarayonini tasdiqlaydi.

**6.** Tadqiqot hisob so‘zlarning dual funksiyasini (sanash + kategoriyalash) ilmiy asoslab beradi va ularning tipologik hamda amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

# KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA ER-XOTIN ORASIDA QO‘LLANILADIGAN MUROJAAT BIRLIKLARI

***NOILA MIRXAMIDOVA***
*Tayanch doktorant,TDSHU*
*ORCID: 0000-0002-9516-5101*

***Annotatsiya:*** *Maqolada koreys va o‘zbek tillarida nikohdan keyin er-xotin orasida qo‘llaniladigan murojaatlardagi gender tavofutlar tahlil qilingan. Xususan, erning xotiniga nisbatan ishlatadigan murojaat birliklarida lisoniy diskriminatsiyaning namoyon bo‘lishi yoritib berilgan. Lisoniy kamsitishning lingvistik va ekstralingvistik omillari ko‘rsatilib, betakalluf munosabatning ifodalashdagi lisoniy va madaniy jihatlari aniqlangan. Shuningdek, koreys va o‘zbek tillarida ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan ayrim murojaat so‘zlarining etimologiyasi, ularning qadimgi shakllari haqida mulohazalar bildirilgan.*

*Murojaat birliklarining muloqot jarayonida o‘zaro aloqani ta’minlovchi, milliy, madaniy va ijtimoiy omillarga asoslanadigan asosiy kommunikativ birlik ekanligi ko‘rsatilgan. Murojaat birliklarining aksariyati qarindoshlik atamalaridan tashkil topadi. Koreys va o‘zbek muloqotidagi murojaatlarda genderga oid lisoniy kamsitish, asosan, nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik atamalarida uchraydi. Nikohdan so‘ng er-xotin va ularning qarindoshlariga nisbatan butunlay boshqa atamalardan foydalaniladi. Bu atamalar turmush qurgan erkak va ayolning oiladagi mavqeyini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Nikohdan keyin qo‘llaniladigan murojaatlar orqali er-xotin va qarindoshlar orasidagi munosabatlarda “erkakning ustunligi, hukmronligi”, “ayolning tobeligi, itoatkorligi” ziddiyati namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada ana shu ziddiyatlarning sabablari misollar vositasida ochiq berishga harakat qilingan.*

*Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi jinsiy farqlar shunchaki biologik omillardan kelib chiqmaydi. Ayol va erkak o‘rtasidagi munosabatlar, ular orasidagi gender farqlari muayyan ijtimoiy-madaniy jarayonlarni, tajribalarni, ma’lum bir ijtimoiy tuzilma doirasidagi kamsitish mexanizmlarini boshdan kechirish orqali shakllanadi. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi muammo nafaqat gender farqlari, balki gender rolining farqlanishi bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy omillarda ham kuzatiladi. Aslida erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri oilaviy munosabatlarga emas, balki ijtimoiylashuv bilan bog‘liq oilaviy munosabatlarni tashkil etuvchi asosiy munosabatlarga bog‘liq bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarni, ular orasidagi gender farqlarini koreys va o‘zbek tillaridagi murojaatlar misolida ko‘rib chiqish tilni jamiyat va madaniyat bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib beradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *murojaat, lisoniy kamsitish, salbiy munosabat, gender asimmetriya, iyerarxiya, etimologiya.*

***Аннотация:*** *В статье анализируются гендерные различия в обращениях между супругами после заключения брака в корейском и узбекском языках. В частности, освещается проявление языковой дискриминации в обращениях, используемых мужем к жене. Показаны лингвистические и экстралингвистические факторы языковой*

*дискриминации, а также выявлены лингвистические и культурные аспекты выражения бессердечного отношения. Также комментируется этимология некоторых обращений к женщинам в корейском и узбекском языках, а также их древние формы.*

*Показано, что обращения являются основной коммуникативной единицей, обеспечивающей взаимодействие в процессе общения, основанном на национальных, культурных и социальных факторах. Большинство обращений представляют собой термины родства. В обращениях в корейском и узбекском общении гендерная языковая дискриминация в основном встречается в терминах родства, появившихся после заключения брака. После заключения брака используются совершенно другие термины по отношению к супругам и их родственникам. Эти термины служат для уточнения положения женатого мужчины и замужней женщины в семье. В отношениях между супругами и родственниками проявляется конфликт между «доминированием, господством мужчины» и «подчинением, послушанием женщины», проявляющийся в обращениях, используемых после заключения брака. В данной статье предпринята попытка на примерах четко объяснить причины этих конфликтов.*

*Половые различия между мужчинами и женщинами возникают не только из биологических факторов. Отношения между женщинами и мужчинами, гендерные различия между ними формируются в результате переживания определенных социокультурных процессов, опыта и механизмов дискриминации в рамках определенной социальной структуры. Проблема между мужчинами и женщинами наблюдается не только в гендерных различиях, но и в социокультурных факторах, связанных с дифференциацией гендерных ролей. Фактически, отношения между мужчиной и женщиной зависят не напрямую от семейных отношений, а от основных отношений, составляющих семейные отношения, связанные с социализацией. С этой точки зрения, изучение отношений между мужчинами и женщинами и гендерных различий между ними на примерах корейского и узбекского языков показывает, что язык неразрывно связан с обществом и культурой.*

***Ключевые слова:*** *обращение, лингвистическая дискриминация, негативное отношение, гендерная асимметрия, иерархия, этимология.*

***Abstract:*** *The article analyzes gender differences in the addresses used between spouses after marriage in Korean and Uzbek. In particular, the manifestation of linguistic discrimination in the address units used by the husband towards his wife is highlighted. The linguistic and extralinguistic factors of linguistic discrimination are shown, and the linguistic and cultural aspects of the expression of non-callous attitude are identified. Also, the etymology of some address words used towards women in Korean and Uzbek, as well as their ancient forms, are commented on.*

*It is shown that address units are the main communicative unit that provides interaction in the process of communication, based on national, cultural and social factors. Most of the address units consist of kinship terms. In addresses in Korean and Uzbek communication, gender-related linguistic discrimination is mainly found in kinship terms that appeared after marriage. After marriage, completely different terms are used towards spouses and their relatives. These terms serve to clarify the position of a married man and woman in the family. Through the appeals used after marriage, the conflict between the "dominance, dominance of*

*the man" and the "subordination, obedience of the woman" is manifested in the relations between spouses and relatives. This article attempts to clearly explain the reasons for these conflicts through examples.*

*Sexual differences between men and women do not arise solely from biological factors. Relations between women and men, gender differences between them, are formed by experiencing certain socio-cultural processes, experiences, and mechanisms of discrimination within a certain social structure. The problem between men and women is observed not only in gender differences, but also in socio-cultural factors associated with the differentiation of gender roles. In fact, the relationship between a man and a woman depends not directly on family relations, but on the basic relationships that constitute family relations associated with socialization. From this point of view, examining the relationship between men and women, and the gender differences between them, using the examples of Korean and Uzbek language references, shows that language is inextricably linked to society and culture.*

***Keywords:*** *forms of address, linguistic discrimination, negative attitudes, gender asymmetry, hierarchy, etymology.*

**KIRISH.** Tilning asosiy funksiyasi ham, bundan tashqari qator vazifalari ham u yoki bu darajada, albatta, murojaat bilan bog‘lanadi. Masalan, appellyativ vazifa – chaqiruv bevosita murojaat bilan aloqadordir. Chaqiruv tinglovchiga qaratilgan bo‘ladi va bu orqali u nutqni eshitish hamda qabul qilishga chaqiriladi. Aloqa o‘rnatish funksiyasi zaminida ham murojaat bilan bog‘liq tushunchalar yotadi: bu vazifa tinglovchini xabar-ma’lumotni qabul qilishga tayyorlash, uning e’tiborini tortish orqali bajariladi (Акбарова, 2007, б. 15).

Nutq odob-axloqi muammolarini tadqiq etgan mutaxassislarning fikricha, suhbatdoshga murojaat qilish – tilda eng ko‘p qo‘llaniladigan nutqiy muomala birligidir. Murojaat birliklarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u suhbatdoshning e’tiborini tortadi va ayni zamonda unga xitob qiladi. Murojaat birliklari kommunikatsiya jarayonida o‘zaro aloqani ta’minlovchi, milliy, madaniy va ijtimoiy omillarga asoslanadigan asosiy kommunikativ birlikdir. Murojaat birliklarining kommunikativ roli kishilar orasidagi shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarda yuzaga chiaqdi. Kommunikatsiya jarayonida kommunikantlar muayyan ijtimoiy qoidaga amal qilgan holda, gender, yosh, ijtimoiy maqom, suhbat vaziyati va h.k. omillardan kelib chiqqan holda murojaat shakllarini tanlaydilar.

Har qanday jamiyatdagi muloqot jarayoni etnik va ijtimoiy-madaniy nutqiy me’yorlarga bo‘ysunadi. Muayyan lingvomadaniy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan ushbu me’yorlar, boshqa bir jamoa uchun begona bo‘lishi mumkin. Aynan ana shu me’yorlar shaxslararo aloqalarni o‘rnatishga va muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar darajasini boshqarishga xizmat qiladi.

Nutq ishtirokchisi ayni paytda turli ijtimoiy guruhlarga (ish jamoasi, oila yoki do‘stlar davrasida) mansub bo‘lishi mumkin va u guruhlarning har birida turlicha ijtimoiy rol bajaradi. Shu bois unga qaratilgan murojaat turlari ham xar xil bo‘ladi.

**TADQIQOTNING USULLARI.** Tavsiflash, tasniflash, qiyoslash hamda lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

**NATIJALAR.** Koreys va o‘zbek muloqot madaniyatida murojaat birliklari ko‘p qirrali, murakkab tizim bo‘lib, uning shakllanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Koreys va o‘zbek tillaridagi murojaat birliklarining kommunikativ-pragmatik aspektdagi tahlili shuni ko‘rsatdiki, nutqiy vaziyatlarda qarindosh-urug‘chilikka oid murojatlar ko‘p uchraydi. Ular kommunikantlarning faqatgina qarindosh ekanligidan dalolatgina berib qolmasdan, balki notanish kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat ko‘rsatkichi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Koreys jamiyatida qavm-qarindoshchilik 친촉명칭 [chinchokmyeongching] atamasi bilan nomlananib, 부계 [buge] ota tomondan qarindoshlar, 모계 [moge] ona tomondan qarindoshlar va 인척 [incheok] er-xotin qarindoshlarini o‘z ichiga oladi. Ular ham o‘z navbatida yana kichik guruhchalarga (avlod bo‘yicha) ajraladi (왕한석, 2005, p.135).

Qarindoshchilik – umumiy ajdoddan kelib chiqganligi yoki turmush qurish orqali yuzaga kelgan ijtimoiy guruh va rolini tashkil qilish orqali individlar orasidagi aloqadir. Qarindoshlik terminlari qadim davrlardan boshlab nutq jarayonida bir kishining ikkinchi kishiga murojaati yoki uchinchi kishini anglatish uchun ishlatiladi. Shu jihati bilan qarindoshlik terminlari atoqli otlarga o‘xshab ketadi. Lekin qarindoshlik terminlari atoqli otlardan farqli ravishda bir kishining ikkinchi bir kishiga shaxsiy munosabatini anglatib, har bir shaxsga o‘zining qarindoshlik munosabatini, o‘zga shaxsga nisbatan qarindoshlik nuqtayi nazaridan kim bo‘lishini anglatishi bilan farq qiladi. Shunday ekan, qarindoshlik munosabati bilan bog‘liq murojaat birliklari orqali ifodalangan munosabatlar markazida so‘zlovchi turadi, bunda so‘zlovchi qarindoshlik termini bilan yoki unga tinglovchining ismini qo‘shgan holda murojaat qiladi (Ахмедова, 2008, б. 131).

Tadqiqotchi M.Narziyeva qarindoshlik terminlarini ikki guruhga ajratadi:

a) qon-qarindoshlik otlari: *aka, amma, amaki, bobo, buvi, jiyan, nevara, ota, ona, singil, uka, xola, chevara, evara, qiz, o‘g‘il, tog‘a*;

b) nikoh qarindoshligi otlari: *boja, kelin, kuyov, ovsin, pochcha, xotin, er, yanga, qayin, quda, qayiq, o‘gay* (Нарзиева, 1992, б. 49).

Koreys va o‘zbek tillaridagi qavm-qarindoshlik atamalarini ham yuqoridagi tasnif asosida ikkita guruhga ajratish mumkin:

1. Qon-qarindoshlik atamalari
2. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik atamalari.

Koreys va o‘zbek tillaridagi qavm-qarindoshlik atamalarining gender tahlili shuni ko‘rsatadiki, murojaatlardagi lisoniy kamsitish, asosan, nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik atamalarida uchraydi. Zero, nikohdan so‘ng yangi qarindoshlik munosabatlari yuzaga chiqadi. Koreys va o‘zbek jamiyatida erkak va ayol turmush qurgach, turmush o‘rtog‘i va uning qarindoshlariga nisbatan butunlay boshqa

atamalarni o‘zlashtiradi. Bu atamalar, ayniqsa, turmush qurgan ayolning oiladagi mavqeyini yanada oydinlashtiradi.

Ayollar mavqeyini “oilaviy munosabatlar” orqali ochib berish eng ko‘p kuzatiladigan xususiyatlardan biri hisoblanadi. Bu ayollar bilan bog‘liq murojaatlarning muhim jihati bo‘lib, “patriarxga asoslangan oilaviy munosabatlar” ayollarning barcha harakatlarini o‘lchash uchun mezon bo‘lib xizmat qilgan. Patriarxal-markazli oila madaniyati ayollarning uy ichidagi faoliyati doirasini cheklab qo‘ygan, ayollarning o‘zaro munosabatlari xonadondan tashqariga chiqa olmagan.

Ayollarga qaratilgan bunday munosabatni, ayniqsa, erning o‘z turmush o‘rtog‘iga nisbatan ishlatadigan atamalarda, aniqrog‘i, murojaat birliklarida yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, Koreyada erkak kishi o‘z turmush o‘rtog‘ini boshqalarga tanishtirganda tez-tez ishlatadigan atamalar sifatida 아내 [anae] “xotin”, 집사람 [jibsalam] “uy bekasi”, 안사람 [ansalam] “ichkaridaga odam”, 안주인 [anjuin] “ichkarining bekasi”, 내자 [naeja] “ichkaridagi”, 지어미 [jieomi] “uydagi ona”, 여편네 [yeopyeonne] “xotin”, 마누라 [manula] “xotin”, 가시 [gasi] “xotin” va h.k.larni ko‘rsatish mumkin (김욱동, 2012, p. 118).

Quyida misollarga murojaat qilamiz:

– 어떤 **아내가** 매번 흔쾌히 찬성만 하겠는지요[1]. [eotteon anaega maebeon heunkwaehi chanseongman hagessneunjiyo]

*Qaysi xotin har safar biror narsaga rozi bo‘ladi?*

Mazkur jumlada 아내 [anae] “xotin” leksemasi ayol kishi, ya’ni umuman, “ayol” ma’nosida kelgan.

조카가 얼른 **제 아내** 역성을 들고 나섰다[2]. [jokaga eolleun je anae yeogseong-eul deulgo naseossda]

*Jiyanim tezda oldinga chiqib, xotinimning ismini chaqirdi.*

Keltirilgan misolda esa, 아내 [anae] so‘zi turmush o‘rtoq, ya’ni “rafiqa”, “xotin” ma’nosini ifodalaganini ko‘rish mumkin.

**MUHOKAMA.**

Kim Ukdong (김욱동) ning fikricha, “아내 [anae]. “xotin” so‘zi asli 안해 [anhae] bo‘lib, u “안” [an] “ichki” va “해” [hae] qo‘shimchasining birikmasidan shakllangan murojaat so‘zidir. Hatto bir necha o‘n yillar oldin ham 안해 [anhae] so‘zi iste’molda qo‘llanilgan. 안해 [anhae] aslida “아내 [anae] so‘zining dastlabki shakli bo‘lib, bu so‘z Shimoliy Koreya va Yanbianda hozirgi kunda ham keng qo‘llaniladi (김욱동, 2012, p. 118).

[1]신경숙, 감자 먹는 사람들. 2005. 4 쪽.

[2]박완서, 엄마의 말뚝 1982. 36 쪽.

So Cheongbom (소정범)ning qayd etishicha, “아내 [anae].ayrim o‘rinlarda 안사람 [ansalam] deb ham aytilgan. Chunonchi, koreys milliy uylaridagi 안채 [anchae] ichki xonada ayollar yashashgan. 안 [an] (內, “ich”) 해 [hae] 人, “odam”ni anglatadi. 해 – 핟>할>할이>하이>해 shakllangan bo‘lib uni qadimiy shakli 핟(할) deb aytiladi. Manjur tilida “har” (haranga, haral) “inson” ma’nosini anglatadi” (소정범, 2000, p. 405~406).

Bizning fikrimizcha, “아내 [anae]. “xotin” so‘zi eski koreys tilida “uy ayoli, bekasi” ma’nosida qo‘llanilgan 아낙 [anak] ← 안 (內, “ich”) + 낙 / 낭 (人, “odam”) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “uy ichidagi odam”, ya’ni “uy bekasi” ma’nosini anglatgan. Chunonchi, 안사람 [ansalam] “ichkaridaga odam” so‘zi ham “안” [an] “ichki, ichkari” va “사람” [salam] “odam” yoki 안주인 [anjuin] “ichkarining bekasi” “안” [an] “ichki, ichkari” hamda “beka” so‘zlarining birikuvidan yasalgan. 집사람 [jibsalam] “uy bekasi” atamasi esa 집 [jib] “uy” hamda 사람 [salam] “odam” so‘zlaridan tarkib topgan.

Biroq 바깥주인 [bakkattjuin] “tashqarining sohibi”, ya’ni “er” atamasiga qarama-qarshi bo‘lgan 안주인 [anjuin] “ichkarining bekasi” betaraf ma’noda kelgan 안사람 [ansalam] “ichkaridaga odam” emas, balki turmush o‘rtog‘iga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat shaklidir. 집사람 [jibsalam] “uy bekasi”, 안사람 [ansala] “ichkaridaga odam” kabi, asosan, tashqarida emas, balki uyda yashaydigan odamni anglatadi.

Ko‘rinadiki, qayd etilgan so‘zlarning deyarli barchasida, asosan, “uyda qoladigan odam” ma’nosining ustuvorligi namoyon bo‘ladi.

O‘zbek lingvomadaniyatida ham shunga o‘xshagan holatni kuzatish mumkin. “O‘zbek kishisi oila a’zolari haqida gapirganda uydagilar yoki uy ichi ifodalarini qo‘llaydi. Misollarga e’tibor bering: *Qo‘ying, o‘ladiganning o‘lgani durust,* ***uydagilarning*** *tingani durust. – Sizga kim aytdi masalangiz ko‘riladi, deb?* (Said Ahmad. Azob); *Bizning* ***uy ichimizda*** *mendan kichik ikkitagina o‘g‘il ukalarim bo‘lsa ham, ularning qo‘lidan hali hech ish kelmas edi* (G‘afur G‘ulom. Ko‘ngilsizning «qilig‘i»)”(https://cdn.uza.uz/2024/06/07/15/51/qEJtmI3faQ2pLPGluwlaTPjornJtZU1N.pdf).

O‘zbek tilida “turmushga chiqqan, erkak kishi bilan jinsiy aloqada bo‘lgan” ma’nosida bir qator leksemalar qo‘llaniladi. Masalan: *xotin, ayol, turmush o‘rtoq, zaifa, zavja, rafiqa, xonim, onasi, yostiqdosh, kampir* shular jumlasidandir.

Qayd etilgan leksemalar orasida *xotin* so‘zining funksiyonal-semantik imkoniyatlari ancha keng ekanligini kuzatish mumkin. Chunonchi, “o’zbek tilida *xotin (ayol)* leksemasi ko‘p ma’noli bo‘lib, quyidagi to‘rt leksik-semantik variantlarni (LSV) jamlaydi:

LSV 1 – turmush o‘rtoq (“xotin”);

LSV 2 – ayol kishi (umuman “ayol”);
LSV 3 – “keksa ayol”;
LSV 4 – “beka”” (Каримова, 2020, б. 97).

“Bundan tashqari, *xotin* leksemasi “turmushga chiqqan, erkak kishi bilan jinsiy aloqada bo‘lgan” ma’nosini bildirib, “turmushga chiqmagan, erkak kishi bilan jinsiy aloqada bo‘lmagan” *qiz* leksemasiga nisbatan semantik qarama-qarshilikni aks ettiradi” (Бердиалиев, 2016).

V.Karimova “xotin” (turmush o‘rtoq) denotatining “er” (turmush o‘rtoq) denotatiga bo‘ysunishi haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Ayol jinsidagi yaqinlik ma’nosidagi keng tarqalgan ifoda vositalaridan biri *“ota(m)ning turmushurtogi”,* ya’ni *“xotin”* leksemasi hisoblanadi. *“Ota(m)ning turmush o‘rtog’i”* denotati *“ona(m)ning turmush o‘rtogi” “er”* denotati bilan birga oilaning asosiy a’zolaridan biri hisoblanadi. *“Xotin” (turmush o‘rtoq)* denotati *“er”(turmush o‘rtoq)* denotatiga bo‘ysunadi, shuning uchun *“er”* denotati boshqa barcha oila a’zolariga nisbatan yagona dominant oila a’zosidir” (Каримова, 2020, б. 96).

Demak, o‘zbek muloqotida betakalluf munosabatni ifodalashda ko‘proq *xotin* so‘zidan foydalaniladi. Ayniqsa, erkaklarning nutqida turmush o‘rtog‘iga nisbatan faol qo‘llaniladigan murojaat hisoblanadi:

*– **Xotin**, o‘gil bolani urib bo‘lmaydi. O‘g‘il bola xudoning bir inoyati. Arabistonning allaqaysi viloyatida o‘gil bola tug‘ilgan kuni podshoning maxsus farmoni bilan ertalabgacha to‘p otilarkan. Hindistonnnng allaqaysi bir yurtida o‘g‘il tuqqan xotin bir kuni kechgacha podshoning taxtida bola emizib o‘tirarkan. Missisuri degan yurtda o‘g‘il bola tug‘ilsa podshoning xotini sarpo qilib borib, tuqqan xotinni o‘z kajavasida shahar aylantirarkan. Ko‘rdingmi, o‘g‘il bola qanaqa...* (Аҳмад, 1976, б. 95).

O‘zbek tilidagi *xotin* so‘zi O‘rxun-Yenisey yozma yodgorliklarida *qatun,* eski uyg‘ur tilida *qat/ kat → katun* shakllarida uchraydi. Mazkur so‘z qadimda “malika, bekach”; “hokimning xotini, amaldorning xotini” ma’nolarini ifodalab, undan murojaat qilish uchun unvon sifatida foydalanilgan. Hozirgi zamon turkiy tillarida, jumladan, uyg‘ur tilida *xotun*, qirg‘iz tilida *katin,* qozoq tilida *katyn*, turk tilida *kadin*, *hatun,* boshqird tilida *qatin,* tatar tilida *kazin* singari fonetik jihatdan o‘zgargan variantlarda uchraydi.

*Xotin* leksemasining etimologiyasi haqida turlicha qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar *xotin* so‘zining tarixan *“ka-”* o‘zagidan kelib chiqqan, degan fikrni ilgari surishadi. Binobarin, *“ka-”* ko‘p ma’noli bo‘lib, asl ma’nosi “qo‘yish, qo‘shish” bo‘lib (Кормушин, 1971, с. 9).

A.Berdialiyevga ko‘ra, *xotin* leksemasi *“ka-”* o‘zagidan kelib chiqqan, ya’ni “yaqin” degan ma’noni anglatadi. Bu o‘rinda olim “er uchun eng yaqin odam – uning *xotini*” (Бердиалиев, 2018) degan mantiqqa asoslanadi. Bundan tashqari turkiy tillardagi *qatun* so‘zini “qat, qavat, qatlam” ma’nosidagi *qat* so‘zidan yasalgan degan

qarashlar ham bor.

Sh. Usmanovaning fikricha, *qatun* so‘zining kelib chiqishini “qat, qavat, qatlam” ma’nosidagi *qat* so‘ziga bog‘lab bo‘lmaydi. Shuningdek, *qatun*ni bir morfema deb qarash fikri ham noto‘g‘ri. Olima *qatun* so‘zining etimologiyasini eski uyg‘ur tilidagi ← *katun* ← *qat/ kat* “beka” so‘ziga bog‘laydi. *Qatun* so‘zining tarkibidagi *un* uzvini “yashash joyi, uya” ma’nosidagi *in* deb taxmin qiladi: *un* > *in* > *hi:n.* “Shunday qilib, *“qatun* so‘zi *qat/ kat* “beka, ayol” va *in/ un* “yashash joyi, uy, uya” uzvlaridan tashkil topgan bo‘lib, “uyda o‘tiradigan, yoki uydagi ayol” ma’nosini anglatadi” degan xulosaga keladi. Shuningdek, olima “turkiy tillarda *qayin* so‘zi er uchun xotinning, xotin uchun esa erning yaqinlariga nisbatan qo‘llaniladi: *qayin+ona, qayin+ota, qayin+ini, qayin+og‘a, qayin+egachi, qayin+singil.* Mazkur so‘zning qadimgi turkiy tildagi shakli *qadïn* bo‘lib, “xotinning otasi, qaynata” ma’nosini ifodalagan. Demak, *qadïn* so‘zi xotin uchun erning yaqinlariga nisbatan keyingi davrlarda qo‘llanila boshlagan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqsak, *qazïn~ qajïn~ qaδïn* kabi turli fonetik variantlari bo‘lgan *qadïn* so‘zining *qatun* (ayol) dan o‘sib chiqqanligi haqiqatga yaqin” degan fikrni ilgari suradi (Usmanova, 2004, p. 65-66).

Sh. Usmanova tahlillarini yanada chuqurroq davom ettirib, ushbu guruhga eski koreys tilida “xotin” ma’nosida qo‘llanilgan 갓 [kat] hamda 가시 [kaši] so‘zlarini ham birlashtiradi. Binobarin, koreys tilining etimologik lug‘atlarida “ayol, xotin” ma’nosini ifodalagan 갓 [kat] so‘zining qadimda “kishi, odam” ma’nosida qo‘llanilganligi qayd qilingan . “Keyinchalik xuddi turkiy tillardagidek, 갓 [kat] so‘zi 가시 [kashi] shaklida “xotin va xotinning qarindoshlari” ma’nosida qo‘llanila boshlaganligi kuzatiladi. Xususan, hozirgi shimoliy koreys tilida 가시아비지 [kashiabeoji] “xotinning otasi, qaynata”, 가시어미 [kashieomeoni] “xotinning onasi, qaynana”, 가시집 [kashijib] “xotinning qizlik uyi” ma’nosida ishlatiladi” (Usmanova, 2004, p. 66-67).

Zotan, Kyonsangdo shevasidagi 가시나 [kashina], 가이내 [kainae], Hamkyongdo shevasida 간나 [kanna] so‘zlarining etimologiyasi 간나히 [kannahi] , 갓나히 [katnahi], 갇나히 [kadnahi] so‘zlariga borib taqaladi. 갓 [kat] – 여자 [yoja] “ayol”, 아내 [anae] “xotin” ma’nolarini ifodalaydi. 나히 [nahi] esa manjur tilidagi “har” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “inson” ma’nosini anglatadi. Demak, 나히>나이>내 bo‘lib shakllangan (소정범, 2000, p. 14~16).

Biz bu o‘rinda Sh. Usmanovaning fikrlariga to‘liq qo‘shilamiz va olima tomonidan taklif etilgan ushbu guruhga koreys so‘zlashuv tilida betakkaluf qo‘llaniladigan 가시나 [kashina], yapon erkaklarining nutqida turmush o‘rtoqlariga nisbatan qo‘pol tarzda ishlatadigan 구사이 [kusai] yoki 가나이 [kanai] kabi xitoblarni ham kiritishimiz mumkin. Bu o‘rinda 구사이 [gusai] so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “ahmoq” yoki “ahmoq xotin” degan ma’noni anglatadi. 가나이 [kanai]

esa koreys tilidagi 안사람 [ansalam] “ichkaridagi odam”, yani xotin yoki 집사람 [jibsalam] kabi uyni qo‘riqlovchi ayolni anglatadi.

내자 [naeja] 內子 xitoycha iyerogliflari bilan ifodalanadigan so‘z bo‘lib, u “rafiqam”, “mening turmush o‘rtog‘im, ayolim” ma’nolarini aglatib, 안사람 [ansalam] “ichkaridagi odam” yoki 집사람 [jibsalam] “uy bekasi” so‘zlariga sinonim hisoblanadi.

내자 so‘zi Pekinda nashr etilgan “Koreys adabiyoti lug‘ati”da “yuqori martabali amaldorning asosiy xotini” ma’nosida qayd etilgan. Shuningdek, bu birlamchi ma’no o‘z xotiniga yoki birovning xotiniga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin (김욱동, 2012, p. 118).

Aytilganlar bilan birga, 지어미 [jieomi], 마누라 [manura] va 여편네 [yeopyeonne] atamalari, odatda, erkaklar tomonidan turmush o‘rtog‘iga kamsitish ohangida murojaat qilganda qo‘llaniladi. 지어미 [jieomi] erkak tarafidan kattalar oldida kamtarona tarzda xotiniga murojaat qilish uchun ishlatadigan xitob sanaladi. 지어미 [jieomi] leksemasidagi “지” [ji] “uy” degan ma’noni anglatadi. Bu o‘rinda “집” [jib] “uy” so‘zidagi “ㅂ” o‘rta koreyscha “지아비” [jiabi] va “지어미” [jieomi] so‘zlaridan tushirib qoldirilgan. Shu bois keng ma’noda “지어미” atamasi “집사람” yoki “안사람” [ansalam] bilan bir xil ma’noda qo‘llaniladi.

마누라 [manura] “xotin”, “ayol”, “turmush o‘tog‘i” so‘zi 지어미 [jieomi]ga o‘xshaydi, chunki uning zamonaviy va qadimiy ma’nolari bir-biridan farq qiladi. Hozirgi zamon koreys tilida 마누라 [manura] murojaati erkaklarning nutqida o‘zining yoki birovning turmush o‘rtog‘iga nisbatan salbiy, kamsituvchi munosabatni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Zero, ayolning yuziga qarab 마누라 [manura] deyish hurmatsizlik hisoblanadi. Masalan:

“**마누라,** 그렇게 하리다. 내가 다녀오겠소” (박세정, 2012, p. 22). [Manura, geuleohge harida. Naega danyeoogessso].

***Xotin,*** *unda shunday qilaman. Borib kelay endi.*

마누하 [manuha] / 마누하라 [manuhara] → 마누라 [manura] so‘zi qadimda “katta, hurmatga loyiq ayol” ma’nosida sharafli atama vazifasida qo‘llanilgan. Binobarin, eski koreys tilida 마누라 [manura] qirol yoki qirolichaga murojaat qilish uchun unvon sifatida, shuningdek, qullarning o‘z xo‘jayinlariga murojaat qilish uchun unvon sifatida ishlatilgan. “마노라/ 마누라” [manura] dagi “마” [ma] , odatda, qirollik saroyida 마님 [manim] yoki xizmatkorlar o‘z xo‘jayinlariga ishlatadigan 마님 [manim] sifatida ishlatiladigan “마” [ma] dir.

마누라 [manura] so‘zining etimologiyasi haqida turlicha qarashlar mavjud. Qadimgi koreys jamiyatida 마누하 [manuha] / 마누하라 [manuhara] murojaati oilaning eng katta ayoliga nisbatan ishlatilgan. Shu bois 마누라 [manura] so‘zi ←

“bosh, buyuk, katta” ma’nosini ifodalagan 마노 [mano]/ 마누 [manu] o‘zagidan kelib chiqqan degan qarashlar keng tarqalgan. Xususan, Yang Chudong (양주동) “마노라”/ “마누라” va “하” [ha] birikmasini shunday talqin qiladi: «“ㅁ,ㄹ” “으뜸” 宗 “boshliq” degan ma’noni bildiradi, “하” [ha] esa hurmatni bildiruvchi hurmat kelishigi hisoblanadi» (김욱동, 2012, p. 119).

Yu Changdong (유창돈) esa “마” [ma] so‘zi va “오라” 門 [ora] so‘zi birikmasidan “마누라” [manura] so‘zi hosil bo‘lgan degan fikrni ilgari suradi. Aytilganlar bilan birga, “마누라” [manura] so‘zi “bir-biriga qarama-qarshi yotgan odam” ma’nosidan kelib chiqqan degan farazlar ham mavjud, ammo bu xalq etimologiyasidan boshqa narsa emas (김욱동, 2012, p. 119).

Bizning fikrimizcha, 마누라 [manura] murojaati qadimda oilaning yoshi ulug‘, hurmatli ayoliga nisbatan qo‘llanilgani uchun uni eski koreys tilidagi 마누하 [manuha]/ 마누하라 [manuhara] ← 마노 [mano]/ 마누 [manu] “bosh, buyuk, katta” + 하 [ha] hurmatni ifodalovchi hamda 라 [ra] vokativ (biron kishini chaqirish uchun qo‘llaniladigan) qo‘shimchalarining birikuvidan kelib chiqqan deyish semantik va fonetik jihatdan asosli bo‘ladi.

Koreys tilida 여편네 [yeopyeonne] “u ayol/ ana u ayol” xitobi o‘z xotini yoki boshqa birovning xotiniga ishora qilish uchun ishlatiladi. Mazkur atama o‘tmishda 남편 [nampyeon] “er” so‘zining o‘xshashi sifatida qo‘llanilgan. Boshqacha qilib aytganda, 여편 [yeoopyeon] “xotin” so‘zi 남편 [nampyeon] “er”ga qarama-qarshi yoki qarama-qarshi ma’noda ishlatilgan. Shuningdek, er va xotin ham “네” [n] qo‘shimchasini qo‘shib, ularni 남편네 [nampyeonne] yoki 여편네 [yeopyeonne] deb atashgan. O‘sha davrda 여편네 [yeopyeonne]/녀편네 [nyeopyeonne] xitoblari 남편네 [nampyeonne] kabi boshqa odamni kamsitishga mo‘ljallanmagan. Buning isboti sifatida 1632-yildagi “가례언해 (家禮諺解)” [galyeeonhae] asarida qayd etilgan “Ayolga erining opasidek munosabatda bo‘lishadi” jumlasini keltirish mumkin (김욱동, 2012, p. 119).

여편네 [yeopyeonne]/녀편네 [nyeopyeonne] “u ayol/ ana u ayol” atamasi XVII asrdan keyin ayolni kamsituvchi, unga past nazar bilan mensimasdan qarash ma’nosida ishlatila boshlandi.

Aslida 여편네 [yeopyeonne]ga nisbatan 녀편네 [nyeopyeonne] shakli qadimiyroq bo‘lib, uning tarkibidagi 여 [yeo] tovushi tarixan 녀 [nyeo] bo‘lgan. Keyinchalik koreys tilining standart talaffuz qoidalariga ko‘ra, ㄴ [n] tovushi tushirilib 여 [yeo] tovushi me’yorga aylangan.

여편네 [yeopyeonne] so‘zining kelib chiqshini quyidagicha ko‘rsatish mumkin: sino koreys tilida 여 女 [yeo] “ayol” + 편 偏 [pyeon] “egilgan, notekis” (salbiy

munosabat ifodalaydi) + “네” kamsitishni ifodalaydigan qo‘shimcha. Ya’ni 여편네 [yeopyeonne] “to‘g‘ri bo‘lmagan ayol”, chunonchi “kamsitilgan ayol”ni bildiradi. Quyidagi ayrim misollarga murojaat qilamiz:

**저 여편네는** 왜 맨날 남 얘기만 해? [jeo yeopyeonneneun wae maennal nam yaegiman hae?]

***Ana u ayol*** *nega doim boshqalarning aytganini qiladi?*

**여편네가** 어디서 큰소리야? [yeopyeonnega eodiseo keunsoliya?]

***Sen kim*** *bo‘libsanki, ovozingni ko‘tarasan?*

아따 **그년의 가시내**, 건방지게…… 늬 뭐라 캤노? 뭐라 캐? [atta geunyeon-ui gasinae, geonbangjige…… nui mwola kaessno? mwola kae?]

*Voy, o‘sha yaramas, sen beadab yaramas... Nima deding? Nima deding?*

O‘zbek tilida nikohdan keying munosabatlarda *xotin* leksemasidan keyin *ayol* so‘zi keng ishlatilib, u quyidagi ma’nolarda keladi:

1. Erkakka qarama-qarshi jinsdagi shaxsni anglatib, ko‘plik, umumlashma ma’noni ifodalaydi (xotin-qizlar).

2. Erkakka qarama-qarshi jinsdagi yetuk yoshdagi shaxs (qizga nisbatan).

3. Xotin, rafiqa (erga nisbatan).

Shuni alohida ta’kidlash joizki,

*Ayol* leksemasi erkaklarning nutqida turmush o‘rtog‘iga nisbatan bevosita qo‘llaniladigan murojaat vazifasida kelmasa-da, bilvosita “erkakning xotini, rafiqasi” ma’nosini ifodalaydi. Quyidagi misollarga e’tibor qaratamiz:

*– To‘gri aytasiz. Kechirasiz,* ***bizning ayolimiz*** *qayerga ketdi?*

*– Bozorlik qilaman, deb ketdilar-a. Hali zamon kep holadilar.*

Yoki:

*– Sabohat opangiz Quvvatbekovning* ***ayollarimi?***

*– O‘sha kishi. – Xoldor xo‘rsinib, davom etdi: – Endi, men nima qilay, menda unaqa orzu yo‘q* (Холмирзаев, 1976, б. 196, 134).

Aytilganlar bilan birga, o‘zbek lingvomadaniyatida ayollarning erlariga “xo‘jayin” deb murojaat qilishlari erkakning ustun mavqega ega ekanligini, ya’ni o‘z ayolining xo‘jayini ekanligini ko‘rsatadi. “Xo‘jayin” so‘zi “egalik, sohiblik qiluvchi”, “boshqaruvchi”, “hukmron shaxs” ma’nolarini bildiradi. Masalan:

*– **Xo‘jayin** yo‘qmilar? — dedi Jamshid, dabdurustdan. U ko‘z oldida ulg‘ayib voyaga yetgan qizchaning juvonlik olamida bu qadar latofat kasb etishini kutmagan edimi, har holda ostonada pariruxsorni ko‘rib andak dovdiradi. Hol-ahvol so‘rashni unutdi. Juvonning chiroyi aqlini shoshirgan bo‘lsa-da, ko‘ngliga yomon fikr oralamadi.*

*– U kishi o‘rtoqlari bilan ketuvdilar, – dedi Zaynab* (Малик, 1998, б. 140).

Koreys oilasida farzand tug‘ilgach, 어미/엄마/어머니 [eomi/eomma/eomeoni] *ona/onajon/onaxon* yoki (farzandning ismi + 엄마) 영희 엄마 [Yeonghui eomma]

*Yeonghining onasi = onasi* deb chaqiriladi. Fikrimizni quyidagi misollar vositasida quvvatlash mumkin:

밤에 명희 어머니가 또 왔다. “**영희 엄마.**” 명희 어머니가 말했다 (조세희, 1978, p. 11). [bame myeonghui eomeoniga tto wassda. “**Yeonghui eomma.**” myeonghui eomeoniga malhaessda.]

*Kechasi Myungheening onasi yana keldi. “**Youngheening onasi.**”, dedi Myungheening onasi.*

**수미의 엄마는** 늘 손님을 맞을 때면 정성껏 밥상을 차렸다. (신경숙, 2008.) [sumiui eommaneun neul sonnim-eul maj-eul ttaemyeon jeongseongkkeos babsang-eul chalyeossda.]

***Sumining onasi** har safar mehmon kelganda mehr bilan dasturxon tuzaydi.*

Ko‘rinadiki, koreys jamiyatida ayolning asl ismi bilan chaqirish zarurati yo‘q deb hisoblanadi. Chunki u allaqachon munosabat orqali aniqlangan bo‘ladi.

O‘zbek madaniyatida nikohdan keyingi murojaatlarning qo‘llanilishida biroz farqli holatlarni kuzatish mumkin. O‘zbek oilalarida er va xotin bir-biriga farzandlaridan birining nomi bilan, aksariyat hollarda to‘ng‘ich farzand nomi murojaat qiladi:

*Nigor oyim yugurib erining orqasidan chiqdi:*

*– **Hay, Ra’no!** – dedi havlida ketib borg‘an maxdumga, – nonlarimizning suvi qochqan, xamir qilishg‘a vaqt oz, bozordan issig‘ non oldirasizmi?* (Қодирий, I994, б. 45).

Shuningdek, farzandlarning ota-onalarga xitobi asosida murojaat qilinadi. Binobarin, erkak ayoliga uchinchi shaxs egalik qo‘shimchasini olgan *onasi,* (shevalarda *oyisi, ayasi, opasi, enasi*), ayol esa eriga *otasi, dadasi, adasi* deb xitob qiladi. Masalan:

*– **Onasi**, – dedi. – Dunyoga kelib nima ko‘rdik o‘zi?*

*– Bilmasam, — dedi ayoli xo‘rsinib...* (Hoshimov, 2022, б. 16).

Yoki:

*Qani **dadasi,** fotiha o‘qib yuboring, deya qo‘llarini juftladi* (Аҳмад, 2006, б. 35).

Umuman, yuqorida tahlilga tortilgan koreys va o‘zbek tillaridagi murojaat shakllari “ibtidoiy davrlardan qolgan tabu qoldig‘i bo‘lib”, u “oilada er-xotindan ko‘ra ko‘proq bolalarning ota-ona juftligini” namoyon qiladi.

**XULOSA.**

Koreys va o‘zbek tillaridagi nikohdan keyingi murojaat birliklarida gender tavofutlar, xususan, lisoniy kamsitishni koreys va o‘zbek jamiyatlaridagi tarixiy-ijtimoiy tizim, o‘ziga xos nikoh modeli hamda gender rollar bilan bog‘lash mumkin. Patriarxga asoslangan oilaviy munosabatlar, ayniqsa, nikoh modelida namoyon bo‘ladi. Chunonchi, har ikkala madaniyatda ham nikohdan keyin ayol erining uyiga ko‘chib boradi, erkak o‘z oilasida qoladi. Buning natijasida ayolga kelin, ya’ni

“kelgindi”, “oilaga keyin kelib qo‘shilgan shaxs”, erkakka esa “oilaning asl a’zosi” sifatida qaraladi. Shu tarzda ayolga nisbatan ko‘pincha cheklovchi, kamsituvchi atamalar, erkak va uning qarindoshlariga nisbatan esa neytral, hurmat darajasi yuqori bo‘lgan murojaatlar qo‘llaniladi.

Patriarxal-markazli koreys va o‘zbek oilalarida ayollarning uy ichidagi faoliyat doirasi cheklab qo‘yilgan bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlari xonadondan tashqariga chiqa olmagan. Ayollarga qaratilgan bunday munosabatlar, ayniqsa, erning xotiniga nisbatan ishlatadigan atamalar va murojaatlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayolga xitoban qo‘llaniladigan aksariyat so‘zlarning etimologiyasida “uyda qoladigan odam” ma’nosining ustuvorligi kuzatiladi.

Shunday qilib, koreys va o‘zbek tillarida nikohdan keyingi munosabatlarda maxsus atamalar, o‘ziga xos murojaat shakllari qo‘llanilib, ularda diskriminatsion gender asimmetriya yuzaga chiqadi. Ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat birliklarida baholovchi semalar, xususan, kamsituvchi semalarning ustuvorligi kuzatiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Акбарова З. (2007) *Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи*: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент.

2. Аҳмад С. (1976) *Уфқ. Трилогия*. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

3. Аҳмад С. (2006) *Қария. Қиссалар, ҳикоялар*. – Тошкент: Шарқ.

4. Аҳмедова Н.Ш. (20080 *Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи*: Филол. фанл. номз. дисс. ... – Тошкент.

5. Бердиалиев А., Эржигитова Ш. (2016) Супплетивизм лексического плана и его отношение к явлениям гипонима и гетеронимических отношений в тюркских языках (на материале терминов родства кыргызского языка). *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 4.

6. Бердиалиев А. (2018) *“Подшо”ликка чек қўйган “почча”лар*. – Хужанд.

7. Каримова В. (2020) *Аёл жинсидаги қариндошлик ва яқинлик маънолари тизими мантиқий-лисоний категория сифатида*: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона.

8. Кормушин И.В. (1971) Лексико-семантические развития корня -qa в алтайских языках. *Тюркская лексикология и лексикография*. – М.: Наука, 9-28.

9. Нарзиева М. (19920 *Ўзбек тилида шахсни ёш жиҳатидан тавсифловчи отларнинг маъно таркиби*: Филол. фан. номз. …дисс. – Самарқанд.

10. Малик Т. (1998) *Шайтанат*. Биринчи китоб. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти.

11. Холмирзаев Ш. (1976) *Сўнгги бекат*. – Тошкент: “Ёш гвардия”.

12. Қодирий А. (1994) *Меҳробдан чаён*. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

13. Usmanova Sh. (2004) The Etymological Pecurarities of the Relatives Words in Korean and Turkic Languages. *The Fifth International Association of Central Asian Studies Conference:"XXth Century in the History of Central Asia"*. – Tashkent, 65-67.
14. Hoshimov O'. (2022) *Daftar hoshiyasidagi biriklar*. – Toshkent: Nurli dunyo.
15. 김욱동 (2012) 속담의 성차별과 젠더 번역, 통번역학연구 제 16 권 4 호.
16. 박세정 (2012) 슬프도록 아름다운 황후 심청.
17. 신경숙 (2008) 엄마를 부탁해, 창비.
18. 소정범 (2000) 국어원사전, 서울: 도서출판보고사.
19. 왕한석 등 (2005) 한국 사회와 호칭어. 도서출판 역락.
20. 조세희 (1978) 난쏘공, 이성과 힘.
21. https://cdn.uza.uz/2024/06/07/15/51/qEJtmI3faQ2pLPGluwlaTPjornJtZU1N.pdf

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA DINIY TERMINLARNING MORFOLOGIK TAHLILI VA TARJIMASI MUAMMOLARI

***FERUZA ISMOILOVA***
*Tayanch doktorant, TDSHU*
*ORCID ID: 0000-0002-3824-9886*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada islomiy terminlarning morfologik xususiyatlari hamda ularning ingliz va o'zbek tillaridagi umumiy va xususiy jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida diniy matnlarning xalqaro miqyosda keng tarqalishi islomiy terminologiyani turli til tizimlarida qo'llash zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, Qur'on va hadislarning ingliz tiliga tarjimasi hamda o'zbek tilidagi talqinida yuzaga keladigan morfologik o'zgarishlar tadqiq etiladi.*

*Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi islomiy atamalarning morfologik turlarini aniqlash va ularning tarjima jarayonidagi transformatsiyalarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-lingvistik, differensial va klassifikatsion metodlardan foydalanilib, diniy terminlarning strukturaviy hamda morfologik nomutanosibliklari aniqlanadi. Empirik material sifatida hadis matnlari, diniy ilmiy manbalar va Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Ochiq xat" asari hamda uning inglizcha tarjimasi tahlilga jalb etilgan.*

*Natijalarga ko'ra, har ikki tildagi islomiy terminlar uch asosiy morfologik guruhga ajratilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot morfologik tuzilish tarjima strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini hamda islomiy terminlarning konseptual va doktrinal mazmunini saqlash tarjimada ekvivalentlikni ta'minlovchi asosiy omil ekanini tasdiqlaydi. Olingan natijalar diniy matnlar tarjimashunosligi, qiyosiy tilshunoslik va islomiy terminologiya tadqiqotlari rivojiga ilmiy hissa qo'shadi.*

***Kalit so'zlar:*** *islomiy terminlar, morfologik tasnif, sodda, yasama, qo'shma, qiyosiy-*

*lingvistik tahlil, diniy matnlar, tilshunoslik*

***Abstract***

*This article comparatively analyzes the morphological features of Islamic terminology and their common and distinctive characteristics in English and Uzbek. In the context of globalization, the widespread international dissemination of religious texts has intensified the use of Islamic terminology across different linguistic systems. From this perspective, the study examines the morphological transformations that occur in the translation of the Qur'an and Hadiths into English as well as in their interpretation in Uzbek.*

*The primary objective of the research is to identify the morphological types of Islamic terms in English and Uzbek and to analyze their transformations in the translation process. The study employs comparative-linguistic, differential, and classification methods to determine the structural and morphological inconsistencies of religious terminology. The empirical materials include Hadith texts, religious*

*scholarly sources, and the original version and English translation of the book Open Letter by Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.*

*The findings demonstrate that Islamic terms in both languages can be classified into three major morphological groups, while their similarities and differences are illustrated through comparative examples. The study confirms that morphological structure has a direct influence on translation strategies and that preserving the conceptual and doctrinal meaning of Islamic terminology remains the principal criterion for achieving equivalence in translation. The results contribute significantly to the development of religious translation studies, comparative linguistics, and research on Islamic terminology.*

***Keywords:*** *Islamic terms, morphological classification, simple, synthetic, compound, comparative-linguistic analysis, religious texts, linguistics*

***Аннотация***

*В данной статье проводится сравнительный анализ морфологических особенностей исламской терминологии, а также её общих и специфических характеристик в английском и узбекском языках. В условиях глобализации широкое международное распространение религиозных текстов усиливает использование исламской терминологии в различных языковых системах. В этой связи исследуются морфологические трансформации, возникающие при переводе Корана и хадисов на английский язык, а также при их интерпретации на узбекском языке.*

*Основная цель исследования заключается в определении морфологических типов исламских терминов в английском и узбекском языках и анализе их трансформаций в процессе перевода. В работе применяются сравнительно-лингвистический, дифференциальный и классификационный методы, позволяющие выявить структурные и морфологические несоответствия религиозной терминологии. Эмпирический материал исследования включает тексты хадисов, религиозные научные источники, а также оригинал и английский перевод произведения «Открытое письмо» Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.*

*Результаты исследования показывают, что исламские термины в обоих языках могут быть классифицированы на три основные морфологические группы, при этом их сходства и различия раскрываются на основе сравнительных*

*примеров. Исследование подтверждает, что морфологическая структура оказывает непосредственное влияние на переводческие стратегии, а сохранение концептуального и доктринального значения исламской терминологии является основным критерием достижения эквивалентности перевода. Полученные результаты вносят значительный вклад в развитие религиозного переводоведения, сравнительного языкознания и исследований исламской терминологии.*

***Ключевые слова:*** *Исламские термины, морфологическая классификация, простые, синтетические, сложные, сравнительно-лингвистический анализ, религиозные тексты, лингвистика*

## KIRISH/ INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ

Bugungi globalizatsiya sharoitida diniy matnlarning xalqaro muomalaga kirib borishi islomiy terminlarning turli tillarda faol qo‘llanilishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, Qur’on va hadislarning ingliz tiliga tarjima qilinishi, ularning o‘zbek tilidagi talqinlari bilan qiyosiy o‘rganilishi lingvistik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan dolzarb masaladir. Islomiy terminlar oddiy leksik birliklar emas, balki diniy-doktrinal va madaniy konseptlar sifatida namoyon bo‘ladi [Smith, 1998]. Shu sababli ularning tarjimasida nafaqat semantik, balki morfologik xususiyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, bir tilda mavjud qo‘shimcha yoki ko‘makchilar ikkinchi tilga tarjima qilinishi jarayonida nomutanosiblik keltirib chiqishi aynan diniy terminlarda ham kuzatilishi tabiiy va bu o‘z navbatida tarjima sifatiga ham ta’sir etadi. Salomov [1979] tarjimada mazmuniy ekvivalentlikni ustuvor qo‘ygan holda, terminlarning ichki shakli va morfologik tuzilishini saqlash zarurligini ta’kidlaydi.Demak, tarjima jarayonida mohir tarjimon tilshunoslikning nozik masalalari hisoblangan morfologik birliklarga nisbatan ehtiyotkor bo‘lishi talab etiladi [Nida, 1964]. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi islomiy terminlarning ingliz va o‘zbek tillaridagi morfologik tasnifini aniqlash, ularning tarjima jarayonida yuz beradigan morfologik o‘zgarishlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.Bundan tashqari tadqiqot etimologik jihatdan arab tiliga tegishli bo‘lgan atamalarni boshqa til oilasiga tegishli ikki tildagi strukturaviy talablarga moslashish jarayonini va mazkur jarayondagi o‘zaro bog‘liqlik va farqli tomonlarini o‘rganib, misollar yordamida asoslaydi. Bugungi kunda o‘zbek tilida ayni sohada qo‘llanmalar, izohli va tarjima lug‘atlari yetishmovchiligi sabab, o‘zbek tilida yaratilgan nodir diniy asarlarni aynan ingliz tiliga tarjima qilish borasida sustkashlik yuzaga kelayotgani mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

## MAQSAD VA VAZIFALAR/ GOALS AND OBJECTIVES/ ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ

Tadqiqot o‘z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo‘yadi:

- O‘zbek va ingliz tillaridagi diniy terminlarning morfologik tasnifini aniqlash

➢ Ushbu terminlarning tarjima jarayonida yuz beradigan strukturaviy va morfologik o‘zgarishlarini qiyosiy tahlil qilish, umumiy va farqli jihatlarini qiyosiy lingvistik asosda aniqlash

➢ Morfologik xususiyatlarning tarjima jarayonida konseptual mazmunni saqlashga ta’siri va mazkur jarayonning tarjima strategiyalari bilan munosabatini baholash

**TADQIQOT METODLARI/ RESEARCH METHODS/ МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ**

Tadqiqot davomida quyidagi metodlar asosida tahlil olib borildi:

- **Qiyosiy-lingvistik metod** – tadqiqot jarayonida ingliz va o‘zbek tillarida mavjud morfologik strukturalar diniy terminlar doirasida qanchalik darajada amalda ekanligini qiyosiy tahlil etish maqsadida mazkur metoddan foydalanildi. Unga ko‘ra, sodda va yasama so‘z ko‘rinishidagi islomiy terminlarda har ikkala tilda ham tub so‘z sifatida talqin etilib, uyg‘unlikni ifodalasa-da, qo‘shma so‘z formasidagi terminlar strukturaviy jihatdan farqlanishi aniqlandi.
- **Differensiyalash metodi** – ingliz va o‘zbek tilidagi diniy terminlar arab tiliga tegishli bo‘lsa-da, tarjima jarayonida morfologik moslashuv maqsadida umumiy va xususiy kategoriyalarni namoyon etishi mazkur metod yordamida tahlil qilindi.
- **Klassifikatsiyalash metodi** – bir qancha islomiy leksik komponentlar sintaktik-morfologik xususiyatiga ko‘ra guruxlarga ajratilishini inobatga olish maqsadida tasniflandi va ularning tarjimaga ta’siri tadqiq etildi.

Empirik material sifatida ingliz va o‘zbek tilidagi hadis matnlari, diniy-ilmiy adabiyotlar, xususan, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Ochiq xat” asarining asli va inglizcha tarjima varianti tanlab olindi.

**MUHOKAMA/ DISCUSSION/ ОБСУЖДЕНИЕ**

Barcha tillardagi leksik birliklarda kuzatilgani kabi, islomiy terminologiya ham morfologik tuzilishiga ko‘ra asosan uch asosiy kategoriyaga ajratiladi: sodda, yasama va qo‘shma terminlar. Mazkur tasnif diniy terminlarning strukturaviy shakllanishi, semantik funksiyasi hamda tarjima jarayonidagi lingvistik transformatsiyalarini tadqiq etishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Islomiy terminlarning morfologik klassifikatsiyasi ularning nafaqat grammatik tuzilishini, balki diniy-konseptual mazmunni ifodalashdagi funksional xususiyatlarini ham ochib beradi. Shu bois mazkur terminlarni qiyosiy-lingvistik aspektda o‘rganish tarjimashunoslik, morfologiya va lingvokulturologiya kesishgan nuqtadagi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Quyida mazkur terminlarni guruxlarga ajratgan holda tahlil qilib chiqamiz.

**1. Sodda islomiy terminlar**

Sodda islomiy terminlar bir morfemadan tashkil topgan bo‘lib, ular tarkiban bo‘linmas morfologik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur terminlarning

asosiy qismini arab tilidan o‘zlashgan diniy leksik birliklar tashkil etadi. Lingvistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bunday terminlar ingliz va o‘zbek tillariga asosan tub o‘zak shaklida, ya’ni morfologik strukturasi deyarli saqlangan holda kirib kelgan. Bu holat diniy terminologiyaning xalqaro xarakterga ega ekanligini hamda ularning diniy diskursdagi barqarorligini ko‘rsatadi. Xususan, Qur’on va hadislarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi jarayonida aksariyat tarjimonlar arabcha terminlarni to‘liq semantik substitutsiya qilishdan ko‘ra transliteratsiya usulidan foydalanishni afzal bilganlar. Mazkur yondashuv, bir tomondan, terminning asliyligini saqlab qolishga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning diniy-konseptual mazmunini buzib yubormaslik imkonini yaratgan. Natijada “haj”, “zakot”, “taqvo”, “fatvo”, “jihod”, “iymon” kabi terminlar o‘zbek tilida ham asl morfologik shakliga maksimal darajada yaqin holda qo‘llanila boshlagan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ingliz tilida ham mazkur terminlarning katta qismi transliteratsion model asosida shakllangan. Masalan, “hajj”, “zakat”, “imam”, “sharia”, “jihad” kabi birliklar ingliz tilidagi diniy diskursda mustaqil termin sifatida faol qo‘llanadi. Bu esa ingliz tilining analitik tabiatiga qaramay, islomiy terminologiyaning xalqaro diniy leksika sifatida universallashganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan sodda islomiy terminlar tarjimasida transliteratsiya nafaqat lingvistik, balki teologik adekvatlikni ta’minlovchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, sodda terminlarning morfologik invariant holatda saqlanishi ularning semantik barqarorligini ham ta’minlaydi. Chunki diniy terminlarning to‘liq ekvivalent bilan almashtirilishi ko‘pincha konseptual torayish yoki ma’no siljishiga olib kelishi mumkin. Masalan, “taqvo” terminini oddiygina “piety” yoki “godliness” shaklida tarjima qilish uning islom aqidasidagi chuqur ruhiy-ma’naviy mazmunini to‘liq qamrab olmaydi. Shu sababli ko‘plab tarjimonlar transliteratsiya va izohli tarjimani kombinatsiyalash usulidan foydalanadilar. Yillar davomida diniy matnlar, xususan Qur’on va hadislar o‘zbek tiliga turli mualliflar tomonidan tarjima qilingan bo‘lsa-da, tarjimonlarning aksariyati arabcha terminlarni o‘zbek tiliga transliteratsiya qilish bilan cheklanganligi mazkur birliklarning morfologik xususiyatini saqlab qolishga xizmat qilgan. Bu esa diniy terminlarning milliy til

tizimiga moslashish jarayonida ham ularning strukturaviy yadrosi saqlanib qolganini anglatadi. Qizig‘i shundaki, ayni terminlarning ingliz tilida ham tub holatda yoki qisman fonetik adaptatsiya asosida qo‘llanilishi kuzatiladi. Mazkur holat islomiy terminologiyaning global diniy diskursdagi universalligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Demak, sodda islomiy terminlar diniy matnlar tarjimasida morfologik jihatdan eng barqaror qatlam hisoblanib, ular tarjima jarayonida asosan transliteratsiya, qisman semantik ekvivalentlik va izohli tarjima strategiyalari orqali ifodalanadi. Shu bois ushbu terminlar nafaqat lingvistik birlik, balki diniy-madaniy

identifikator sifatida ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Quyida sodda tarkibdagi islomiy terminlar uch tilde qiyosiy tahlil etilganini jadval asosida ko‘rib chiqamiz:

| Arabcha asos | Inglizcha ekvivalent | O‘zbekcha ekvivalent |
|---|---|---|
| Iman | faith | Imon |
| Hajj | pilgrimage | Haj |
| Sawm | fasting | Ro‘za |
| Zakat | Almsgiving/zakah | zakot |
| Mu’min | Muslim | Mo‘min/musulmon |

**Jadval 1. Sodda islomiy terminlar**

“*Endi ular ham bir-birlarini kofirga chiqara boshlashdi, chunki Islom ta’limoti bo‘yicha* ***mo‘min mo‘min*** *bilan jang qilishi mumkin emas”*[Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2010].- *They now began to declare each other disbelievers, because according to the Islamic doctrine a* ***Muslim*** *cannot be at war with another* ***Muslim.*** [F.Inog‘omov, 2017]

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilidagi sodda islomiy termin ingliz tilida ham ayni tarkibdagi ekvivalenti bilan muvaffaqiyatli almshtirilib ishlatilgan va bu tarjimada semantik va morfologik uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

## 2. Yasama islomiy terminlar

Yasama islomiy terminlar derivatsion jarayon, xususan affiksatsiya usuli orqali shakllanadigan morfologik birliklar hisoblanadi. Bunday terminlarning hosil bo‘lishida asosiy lingvistik mexanizm sifatida o‘zak morfemaga turli derivatsion affikslarning qo‘shilishi kuzatiladi. Ayniqsa, ot so‘z turkumiga mansub diniy leksik birliklardan sifat va abstrakt ma’no ifodalovchi terminlar yasash jarayoni islomiy terminologiya tarkibida keng tarqalgan hodisalardan biri sanaladi. Ushbu morfologik transformatsiya diniy tushunchalarning semantik doirasini kengaytirish hamda ularni turli funksional-uslubiy kontekstlarda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Yasama terminlarning shakllanishi o‘zbek tilida ayniqsa faol xarakter kasb etadi. Bu holat o‘zbek tilining agglutinativ tabiatga egaligi bilan izohlanadi. Ya’ni, o‘zbek tilida grammatik va semantik ma’nolar ko‘pincha affikslar vositasida ifodalanadi hamda diniy terminlar ham mazkur lingvistik qonuniyat asosida derivatsion taraqqiyotga uchraydi. Masalan, “islom”, “iymon”, “din”, “taqvo” kabi ot turkumiga mansub birliklarga -iy, -li, -dor, -lik singari affikslarning qo‘shilishi natijasida “islomiy”, “iymonli”, “dindor”, “taqvodor”, “islomiylik” kabi yangi semantik-morfologik birliklar hosil bo‘ladi. Mazkur

jarayon diniy terminlarning nafaqat grammatik shaklini, balki ularning konseptual va stilistik funksiyasini ham boyitishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yasama islomiy terminlarning shakllanishi ingliz va o‘zbek tillarining tipologik xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Ingliz tilida derivatsion modellarda asosan -ic, -ism, -ful kabi affikslar faol qo‘llansa, o‘zbek tilida sintetik va affiksal model ustunlik qiladi. Shu sababli yasama terminlarning morfologik tahlili diniy terminologiyaning strukturaviy taraqqiyotini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda qiyosiy tahlil asosidagi o‘xshashliklar yaqqol ko‘zga tashlanadi:

| Arabcha asos | Ingliz tilida | O‘zbek tilida |
|---|---|---|
| Islamiyyah | Islam***ism*** | Islom***iylik*** |
| I’man | Faith***ful*** | Iymon***li*** |
| taqiyy | pious | Din***iy*** |
| ghufron | forgive***ness*** | kechir***im*** |

**Jadval 2. Yasama terminlar**

Ko‘rinib turibdiki, arab tilida agglyutinatsiya orqali hech qanday morfologik birliklarsiz yasama so‘z hosil qilinsa, ingliz va o‘zbek tillarida ushbu jarayon yoki transliteratsiya, ekvivalent tarjima yoki affiks qo‘shish orqali sodir bo‘ladi. Matnichida tahlil qilganda, ingliz tilida *Islam → Islamism* modeli sifatlovchi affiks ***-ic*** orqali hosil qilinsa, o‘zbek tilida *islom → islomiy* shaklida ***-iy*** affiksi yordamida sintetik usul qo‘llaniladi. Bu holat o‘zbek tilining agglutinativ tabiatidan dalolat beradi [Rahmatullayev, 2000]. Quyida, “Ochiq xat” asaridan ayni birlikka namuna keltiramiz:

*“Terror arab ixtirosi yoki* ***islomiy*** *bid’at emas, balki zamonaviy asrda siyosiy iztiroblar natijasida yuzaga kelgan nafratning bir ko‘rinishidir”*[Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2010].- *«Terror is not the Arabic invention or* ***Islamic*** *innovation (bid’ah), this is one of manifestations of a hatred, which emerged in result of political disturbances of modern epoch”.* [F.Inog‘omov, 2017].

## 3. Qo‘shma islomiy terminlar

Qo‘shma islomiy terminlar ikki yoki undan ortiq mustaqil leksik komponentlarning o‘zaro birikishi asosida shakllanadigan murakkab morfologik birliklar hisoblanadi. Bunday terminlar tarkibida komponentlar o‘zaro semantik va grammatik jihatdan bog‘lanib, yagona diniy-konseptual ma’noni ifodalovchi terminologik birlikni hosil qiladi. Qo‘shma terminlarning shakllanishida asosan **ot+ot** modelidagi qo‘shma otlar hamda **sifat+ot** modelidagi terminologik birikmalar faol qo‘llaniladi. Mazkur strukturaviy model diniy tushunchalarning aniqroq va kengroq semantik ifodalanishiga xizmat qiladi.

Islomiy terminologiyada qo‘shma birliklarning yuzaga kelishi, avvalo, diniy-huquqiy, aqidaviy va ibodatga oid murakkab tushunchalarni ifodalash zarurati bilan bog‘liqdir. Masalan, “Islamic law”, “Sharia law”, “religious duty”, “farz amallar” kabi terminlarda komponentlarning o‘zaro semantik integratsiyasi natijasida mustaqil diniy tushuncha shakllanadi. Ingliz tilida bunday birliklar asosan analitik model asosida hosil qilinsa, o‘zbek tilida sintetik va izofali konstruksiyalar ustunlik qiladi. Shu bois qo‘shma terminlarning morfologik tahlili nafaqat ularning grammatik tuzilishini, balki tarjima jarayonidagi strukturaviy va semantik transformatsiyalarni aniqlashda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Jadvalda ingliz va o‘zbek tillarida bir xil strukturaga ega qo‘shma so‘z shaklidagi islomiy terminlarni ko‘rish mumkin:

| **Inglizcha termin** | **O‘zbekcha termin** |
|---|---|
| Islamic law | islom huquqi |
| Sharia law | shariat qonuni |
| Fard deeds | Farz amallar |
| religious duty | Diniy burch |

**Jadval 3. Qo‘shma terminlar**

Masalan, ***“****Islamic law”* termini ingliz tilida analitik birlik bo‘lsa, o‘zbek tilida “*islom huquqi”* shaklida sintetik birlik sifatida qo‘llaniladi. Ushbu vaziyatda tarjimada terminning morfologik tarkibiga putur yetmay, tarjima jarayoni osonlashadi.

Lekin hamma ekvivalent tarjima qilingan terminlar ham konseptual mazmunni to‘liq yetkazib bera olmasligiga teologik nazariyalar qarshilik qilishini inobatga olish zarur. Bu asosan kitobxon boshqa din vakili bo‘lganda yuz berishi kutiladigan jarayon.Yuqorida sanab o‘tilgan har uchala turdagi morfologik guruxlar strukturaviy jihatdan tarjimada qulay bo‘lsa-da, diniy matn tarjimasida muallif tasavvuri bilan kitobxon ongida ayni manzarani hosil qilish tarjimada biroz muammoli masaladir. Misol uchun, *“diniy burch”-“religious duty”* yoki *“ro‘za tutmoq”-“fasting”* diniy terminlari islomda ham, xristianlik va buddaviylik dinlarida ham mavjud termin bo‘lib, ushbu amalning tartib-qoidalari har uchala dinda tubdan farq qiladi. Lekin xristian kitobxon o‘z tasavvuriga tayanib, buddist kitobxon o‘z bilimidan kelib chiqib asarga yondoshadi.Ya’ni xristianlar “ro‘za” deganda 40 kun davomida ovqatdan, ichkilikdan tiyilib, faqat meva yoki sabzavotlar bilan cheklanishni tasavvur qilsa, buddistlar 1 sutka davomidagina butunlay har qanday ozuqadan voz kechishni tasavvur qilishini tarjimon albatta inobatga olishi va “islomiy ro‘za”ni tasavvurda mukammal shakllantirish uchun kerakli usulni tanlay bilishi lozim. Ushbu jarayonni dunyo

bo‘yicha umumiy manzarani hosil qilishni maqsad qilgan tarjimon esa deskriptiv tarjimaga murojaat qilib, matn osti izohi berishga majbur bo‘ladi.

**NATIJALAR/ RESULTS/ РЕЗУЛЬТАТЫ**

Yuqoridagi tahlildan so‘ng shunisi oydinlashdiki, diniy tushunchalarni ifodalovchi so‘z va iboralar tarkibining morfologik tadqiqi nafaqat tarjimashunoslikda, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham e’tiborga molik yo‘nalish hisoblanadi. Shunday ekan, tadqiqot davomida quyidagi natijalar belgilandi:

1. Ingliz tilida islomiy terminlar asosan **analitik va transliteratsion** modellarga tayangan.
2. O‘zbek tilida esa **yasama va sintetik morfologik modellarning ustuvorligi** kuzatiladi.
3. Morfologik tuzilish tarjima strategiyasini belgilovchi asosiy omillardan biridir.
4. Diniy terminlarning konseptual mazmunini saqlash tarjimaning asosiy mezoni hisoblanadi.

**XULOSA/CONCLUSION/ ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Tadqiqot davomida belgilangan maqsad va vazifalar bajarildi. Unga ko‘ra:

✓ Morfologik tuzilishlar har ikki tilda aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda diniy terminlar sodda, yasama, qo‘shma so‘z shaklida mavjud. Lekin asl termin arab tiliga tegishli ekanligi va agglyutinatsiya asosida yasalishini hisobga olinsa, o‘zbek tilida mazkur terminlarda affiksatsiya va sintetik modelga tayanib tarjima qilinganligi, ingliz tilida esa tranliteratsiya va analitik tarjima ustunligi oydinlashdi.

✓ Qiyosiy tahlil asosida umumiylik sifatida har ikkala tilda diniy terminlar 3 xil kategoriyada tasniflanishi inobatga olinsa, farqli jihati tarjima jarayonidagi lingvistik usullar farqida sezilishi aniqlandi.

✓ Garchi morfologik xususiyatlar tarjimada muhim rol o‘ynasa-da, semantik ma’noni saqlab qolishga xizmat qilmasligi aniqlandi. Bunda tarjimon tarjimashunoslik nazariyasi, tilshunoslik va teologik nazariya kabi turli fanlarni integratsiyalashtirishga e’tiborli bo‘lishi zarurligi misollar yordamida isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda, islomiy terminlarning ingliz va o‘zbek tillaridagi morfologik tasnifi ularning tarjima jarayonini chuqur anglash imkonini beradi. Ingliz tilining analitik tabiati va o‘zbek tilining agglutinativ xususiyatlari islomiy terminlarning morfologik shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Bundan tashqari, ikki til strukturaviy jixatdan bir xil bo‘lmaganidek, bu ikki tilda gaplashuvchi millatlar ham milliy qadriyatlar, ayniqsa diniy e’tiqod jixatdan bir-biridan tubdan farq qilishi tarjimaga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, yuqorida muhokamaga tortilgan lingvistik birliklarning tarjimadagi aksi lingvokulturologiya va teologiya jihatdan aloxida e’tiborga muxtoj. Tadqiqot

natijalari diniy terminologiya, Qur’on va hadis tarjimasi hamda lingvokulturologik tadqiqotlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI/ REFERENCES/ЛИТЕРАТУРЫ


1. Inog‘omov, F. (2017). *Open letter*. Tashkent.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2010). *Ochiq xat*. Toshkent.
3. Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating*. Leiden: Brill.
4. Rahmatullayev, S. (2000). *O‘zbek tilining etimologik lug‘ati*. Toshkent: Universitet.
5. Salomov, G‘. (1979). *Tarjima nazariyasiga kirish*. Toshkent: Fan.
6. Smith, W. C. (1998). *The meaning and end of religion*. Minneapolis: Fortress Press.
7. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. London: Prentice Hall.
8. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. London: Routledge.
9. Catford, J. C. (1965). *A linguistic theory of translation*. Oxford: Oxford University Press.
10. Crystal, D. (2003). *The Cambridge encyclopedia of the English language*. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Aronoff, M., & Fudeman, K. (2011). *What is morphology?* Oxford: Wiley-Blackwell.
12. Hatim, B., & Munday, J. (2004). *Translation: An advanced resource book*. London: Routledge.


# Sharq olimlari tadqiqotlarida fonologik reduplikatsiyaning nazariy va amaliy masalalari


***NAVRO‘ZBEK TOHIROV***
*Tayanch doktorant , TDSHU*



***Annotatsiya:*** *Tadqiqotda Sharq tilshunosligi maktablari vakillarining fonologik reduplikatsiyaga oid qarashlari tizimlashtiriladi. Ishning maqsadi Janubiy va Janubi sharqiy Osiyo, Turkiy, Eron hamda Sino-Tibet tillari misolida fonologik reduplikatsiyaning fonosemantik, prosodik va areal xususiyatlarini aniqlashdir. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik tahlil, morfonologik modellashtirish va fonosemantik tasniflash usullaridan foydalanildi.*

*Tahlillar natijasida fonologik reduplikatsiya tilning leksik va fonosemantik tizimini boyituvchi dinamik jarayon ekanligi aniqlandi. Janubiy Osiyo tillarida "exo shakllar" va bosh tovush almashishi ekspressivlikni yuzaga chiqaruvchi asosiy mexanizmdir. Turkiy tillarga xos C-tipli reduplikatsiyada {p, m, s, r} elementlari yordamida yuzaga keladigan kuchaytirma darajalar qat’iy fonotaktik cheklovlar va prosodik andozalarga bo‘ysunadi. Xitoy va Sino-Tibet tillarida fonologik reduplikatsiyaning tonal simmetriya va prosodik shablonlar bilan bog‘liqligi, uning emotsional-evfonik funksiyasi oydinlashtirildi.*

*Muhokama jarayonida fonologik reduplikatsiyaning ikoniklik prinsipi asosida ma'no intensivligini oshirishi va leksikalizatsiya jarayoniga uchrashi dalillandi. Sharq olimlari ushbu hodisani nafaqat morfologik qoida, balki tilning qadimiy emotsional qatlami, onomatopeya va tovush simvolikasining ko'rinishi sifatida talqin etadilar. Xulosa qilib aytganda, fonologik reduplikatsiya universal hodisa bo'lsa-da, Sharq tillari areallarida u fonetik iyerarxiya va madaniy-estetik ehtiyojlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi fundamental tizimdir.*

***Kalit so'zlar**: Fonologik reduplikatsiya, sharq tilshunosligi, ekspressiv morfologiya, echo-reduplikatsiya (aks-sado), prosodik yaxlitlik, morfologik Ikkilanish nazariyasi (MDT), onomatopeya, fonotaktik cheklovlar, areal lingvistika, intensifikatsiya*

***Abstract:** The research systematizes theoretical and practical views on phonological reduplication within Eastern linguistic schools. The objective is to identify the phonosemantic, prosodic, and areal characteristics of reduplication based on South and Southeast Asian, Turkic, Iranian, and Sino-Tibetan languages. Comparative-typological analysis, morphonological modeling, and phonosemantic classification methods were applied.*

*Findings indicate that reduplication is a dynamic process enriching the lexical and phonosemantic systems. In South Asian languages, echo-forms and onset replacement function as primary mechanisms for generating expressivity. In Turkic languages, C-type reduplication producing intensive degrees via {p, m, s, r} elements adheres to strict phonotactic constraints and prosodic templates. Using Chinese and Sino-Tibetan examples, the study clarifies the connection between reduplication and tonal symmetry, highlighting its emotional-euphonic function.*

*Discussion reveals that phonological reduplication increases semantic intensity based on the principle of iconicity and undergoes lexicalization over time. Scholars from the East interpret this phenomenon not just as a morphological rule, but as a manifestation of the language's ancient emotional layer, onomatopoeia, and sound symbolism. In conclusion, while reduplication is a universal phenomenon, in Eastern linguistic areas, it manifests as a fundamental system balancing phonetic hierarchy with cultural and aesthetic needs.*

***Key words:** Phonological reduplication, oriental linguistics, expressive morphology, echo-reduplication, prosodic unity, morphological doubling theory – (MDT), onomatopoeia, phonotactic constraints, areal linguistics, intensification*

***Аннотация:** В исследовании систематизируются теоретические и прикладные взгляды восточных лингвистических школ на фонологическую редупликацию. Цель работы — выявление фоносемантических, просодических и ареальных характеристик редупликации на материале южноазиатских, тюркских, иранских и сино-тибетских языков. Применялись методы сравнительно-типологического анализа, морфонологического моделирования и фоносемантической классификации.*

*Результаты показывают, что редупликация является динамическим процессом, обогащающим лексическую и фоносемантическую системы языка. В южноазиатских языках «эхо-формы» и замена анлаута выступают основными механизмами создания экспрессивности. Установлено, что С-тип*

*редупликации в тюркских языках с использованием элементов {p, m, s, r} подчиняется строгим фонотактическим ограничениям и просодическим моделям.*

*На примере китайского и сино-тибетских языков уточнена связь редупликации с тональной симметрией и просодическими шаблонами.*

*В ходе обсуждения доказано, что фонологическая редупликация усиливает интенсивность значения на основе принципа иконичности и подвергается лексикализации. Восточные ученые трактуют это явление как проявление древнего эмоционального пласта языка, ономатопеи и звукового символизма. В заключение подчеркивается, что в восточных ареалах редупликация выступает фундаментальной системой, обеспечивающей баланс между фонетической иерархией и культурно-эстетическими потребностями.*

***Ключевые слова:*** *Фонологическая редупликация, восточная лингвистика, экспрессивная морфология, эхо-редупликация, просодическая целостность, морфологическая теория удвоения (MDT), ономатопея, фонотактические ограничения, ареальная лингвистика, интенсификация*

## INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ/KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining ekspressiv va estetik imkoniyatlarini o‘rganish, ayniqsa, Sharq tillari areallarida morfonologik hodisalarning o‘ziga xosligini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Fonologik reduplikatsiya universal lingvistik hodisa bo‘lsa-da, u turli tillarda o‘ziga xos fonosemantik va prosodik qoliplar asosida namoyon bo‘ladi. Sharq tillari, xususan, Hind-Oriy, turkiy, eroniy va sino-tibet tillari o‘zining boy reduplikativ tizimi bilan ajralib turadi. Ushbu hududlarda reduplikatsiya nafaqat so‘z yasalishi yoki grammatik shakl hosil qilish vositasi, balki nutqning jo‘shqinligi va emotsional bo‘yog‘ini ta’minlovchi fundamental mexanizm hisoblanadi.

Fonologik reduplikatsiya hodisasi uzoq vaqt davomida an’anaviy tilshunoslikda shunchaki “takror” sifatida talqin qilib kelindi. Biroq, XX asrning oxiri va XXI asr boshlariga kelib, Sharq olimlarining tadqiqotlarida ushbu hodisaga nisbatan yangicha nazariy yondashuvlar shakllandi. Masalan, taniqli hind tilshunosi Anvita Abbi Janubiy Osiyo tillari materiallari asosida fonologik reduplikatsiyani tilning leksik va fonosemantik tizimini boyituvchi dinamik fonoestetik vosita sifatida tahlil qiladi (Abbi, 1992). Shuningdek, turkiy tillar kontekstida G. Mahmudova (2018), eroniy tillar yo‘nalishida A. Khanjan va B. Alinezhad (2010) kabi tadqiqotchilar reduplikatsiyaning qat’iy fonotaktik cheklovlar va morfologik ikkilanish nazariyasi (MDT) bilan bog‘liqligini isbotlab berdilar.

Shunga qaramay, Sharq tillaridagi fonologik reduplikatsiya jarayonlarini yagona nazariy tizimga solish, ularning areal xususiyatlarini va prosodik yaxlitligini qiyosiy jihatdan o‘rganish masalasi hali yetarlicha yoritilmagan. Aksariyat tadqiqotlar faqat bitta til yoki til oilasi doirasida cheklanib qolmoqda, bu esa Sharq tillari uchun umumiy bo‘lgan fonologik takror qonuniyatlarini yaxlit tasavvur qilishga to‘sqinlik qiladi. Xususan, "exo-shakllar" va tovush simvolikasining nutqiy iyerarxiyadagi o‘rni hamda ularning ekspressiv morfologiya bilan aloqasi chuqur tahlilga muhtoj.

Ushbu maqolaning maqsadi Sharq olimlarining tadqiqotlarini sintez qilgan holda, fonologik reduplikatsiyaning nazariy asoslarini va amaliy ko‘rinishlarini qiyosiy tahlil qilish, ushbu hodisaning Sharq tillari areallaridagi o‘ziga xos lingvistik tabiatini ochib berishdan iboratdir. Tadqiqotda fonologik reduplikatsiyaning nafaqat

mexanik takror, balki murakkab prosodik va semantik tizim ekanligi turli tillar materiallari asosida dalillanadi.

**METHODS/ МЕТОДЫ / TADQIQOTNING USULLARI**

Mazkur ishning o‘rganish obyekti sifatida Sharq tillari areallariga mansub bo‘lgan to‘rtta asosiy til oilasi va guruhlari tanlab olindi: Hind-Oriy (hindiy, panjobi), Turkiy (o‘zbek, turk, qumiq), Eron (fors, pashtu) va Sino-Tibet (xitoy, kyanashi, kiamnyungan) tillari. Tadqiqotda ushbu tillardagi fonologik reduplikatsiya hodisasi, xususan, "exo-shakllar", tovushga taqlidiy birliklar va intensifikatorlar tahlilga tortildi. Ma’lumotlar bazasini shakllantirishda Sharq olimlarining (A. Abbi, G. Mahmudova, S. Dattamajumdar va b.) ilmiy monografiyalari, tadqiqotlari natijalari hamda zamonaviy korpus materiallaridan foydalanildi.

Maqolada qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hal etish uchun quyidagi ilmiy usullar majmuasidan foydalanildi:

**Qiyosiy-tipologik tahlil usuli:** Turli tizimli tillarda (masalan, agglyutinativ turkiy tillar va flektiv hind-eroni tillari) fonologik reduplikatsiyaning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qo‘llanildi. Bu usul yordamida reduplikatsiyaning universal va areal xususiyatlari ajratib ko‘rsatildi.

**Morfonologik modellashtirish:** Fonologik reduplikatsiya jarayonida yuz beradigan fonetik o‘zgarishlar, xususan, bo‘g‘in boshi (onset) almashishi va affiksatsiya jarayonlarini struktural tahlil qilishda foydalanildi. Bunda Morfologik Ikkilanish nazariyasi (MDT) prinsiplari asos qilib olindi.

**Fonosemantik tahlil:** Takrorlanayotgan birliklardagi tovush simvolikasi va onomatopeik xususiyatlarning ma’no kuchayishiga (intensifikatsiya) ta’sirini o‘rganish uchun xizmat qildi.

**Prosodik tahlil:** Reduplikativ birliklarning urg‘u va ohang (ton) tizimidagi o‘rni, ularning yaxlit fonetik butunlik sifatida shakllanish qonuniyatlarini aniqlashda qo‘llanildi.

Taniqli hind tilshunosi, Janubiy Osiyodagi qabilalar va yo‘qolib borayotgan tillarni hujjatlashtirish va saqlab qolish bo‘yicha dunyodagi eng yetakchi mutaxassislardan biri, 2013-yilda Hindiston hukumati tomonidan adabiyot va ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun oliy davlat mukofoti (Padma Shri) sovrindori Anvita Abbining[1]Janubiy Osiyo tillari materiallari asosida shakllangan tadqiqotlari fonologik reduplikatsiyani tilning estetik va ekspressiv imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi dinamik jarayon sifatida talqin etadi. U reduplikatsiyani shunchaki mexanik takrorlanish emas, balki tilning leksik va fonosemantik tizimini

boyituvchi fonoestetik vosita deb hisoblaydi. Uning yondashuvida "exo-shakllar" markaziy

o‘rin tutib, bu jarayon bazadagi so‘zning fonologik tarkibini, ko‘pincha birinchi segmentini tizimli ravishda o‘zgartirish orqali amalga oshadi; bu esa o‘z navbatida

[1] Abbi A. (1992). *Reduplication in South Asian languages: An areal, typological, and historical study*. Allied Publishers.

so‘zga umumlashtiruvchi va hissiy-ekspressiv ma’no yuklovchi sof fonologik almashtirish mexanizmiga tayanadi.

Shu bilan birga, Abbi reduplikatsiyani faqat tashqi takror sifatida emas, balki ichki unlilar va undoshlarning almashinuvi hamda interfixatsiya kabi ichki fonetik transformatsiyalar bilan kechadigan murakkab hodisa deb tavsiflaydi. Bu jarayonda urg‘u va ohang kabi prozodik vositalar modifikatsiya funksiyasini bajarib, takrorlanayotgan birlikning ma’nosini kuchaytirish yoki o‘zgartirishga xizmat qiladi. U fonologik reduplikatsiyaning diakronik barqarorligiga alohida urg‘u beradi: proto-tillar darajasidagi fonologik rekonstruksiyalar reduplikatsiya qoliplari tillarning tarixiy rivojlanishida eng mustahkam saqlanib qoluvchi elementlardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Anvita Abbi talqinida fonologik reduplikatsiya turli til oilalariga mansub tillarni birlashtiruvchi areal xususiyat hamda tilning fonetik iyerarxiyasi va estetik ekspressiv ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi fundamental tizimdir.

Armanistonlik tilshunos olima Gayane Ambardaryanning[2] **"Исследование понятия редупликация в современной лингвистике"** nomli ilmiy ih rus va ingliz tillari materiallarida reduplikatsiyaning **fonosemantik** va **qiyosiy-tipologik** jihatlarini tizimlashtirib beradi. Manba bizning nazariy zanjirimizga G‘arbiy (ingliz) va Sharqiy (rus) tillari o‘rtasidagi fonetik parallellarni, ayniqsa **Ablaut**[3] va **Rifma** qonuniyatlarini olib kirdi.

Tadqiqotning eng muhim xulosasi fonologik reduplikatsiyaning **tovush almashinuvi tartibiga** (Ablaut) bo‘ysunishidir. Ingliz tilidagi *tic-tac* yoki *zig-zag* kabi misollarda fonologik qoida tasodifiy emas, balki **yuqori unlidan past unliga** qarab harakatlanadi. Bu tilning ichki akustik iyerarxiyasi reduplikatsiya shaklini belgilab berishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, **Rifmalangan takrorlar** (rus tilidagi *shuri-muri*, ingliz tilidagi *lovey-dovey*) reduplikantning birinchi undoshi o‘zgarishi orqali fonetik jozibadorlik va ekspressivlik hosil qiladi. Tadqiqotda **m-reduplikatsiyasi** (*knigi-migi*) kabi morfonologik qoliplarning rus tilida naqadar barqarorligi va ularning ironik ma’no yuklashdagi roli alohida ko‘rsatib o‘tilgan. **Onomatopeik** tabiat esa real dunyodagi ritmik tovushlarni tilning fonetik qobig‘iga ko‘chirishda reduplikatsiyani asosiy model sifatida ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqot fonologik reduplikatsiyani **"Leksikalizatsiya"**[4]jarayoni bilan bog‘laydi. *Helter-skelter* yoki *shilly-shally* kabi birliklar vaqt o‘tishi bilan yagona fonologik blok sifatida lug‘at tarkibiga kirishi, dastlabki jonli fonetik jarayonning til tizimida "muhrlanishi" sifatida baholanadi.

[2] Ambardaryan G. (2018). *Issledovanie ponyatiya reduplikatsiya v sovremennoy lingvistike* [The study of the concept of reduplication in modern linguistics]. *Vestnik MGLU. Gumanitarnye nauki, 10*(803), 9–17. [3] Ablaut (yoki ichki fleksiya) — bu so‘z o‘zagidagi unli tovushning grammatik ma’no (zamon, son yoki kelishik) o‘zgarishi natijasida muntazam ravishda almashinishi hodisasidir. Bu tushuncha tilshunoslikda, ayniqsa, hind-evropa tillari oilasini o‘rganishda markaziy o‘rin tutadi.

[4] Leksikalizatsiya — bu tilshunoslikda grammatik shakl, so‘z birikmasi yoki morfologik strukturaning tilda yaxlit bir leksik birlik (alohida so‘z) sifatida mustahkamlanib qolishi jarayonidir.

Uning yana bir **"Образование редуплицированных прилагательных"**[5](Sifat reduplikatsiyasining hosil bo‘lishi) nomli tadqiqoti fonologik reduplikatsiya nazariyasiga **kategoriyalararo ko‘chish (transpozitsiya)** va **sifat darajalarining fonetik modellashtirilishi** kabi muhim jihatlarni qo‘shadi. Arman, rus va ingliz tillarining qiyosiy tahlili bu hodisaning nafaqat grammatik, balki chuqur fonetik-ritmik asoslarini ochib beradi.

Ambardaryanning eng muhim xulosalaridan biri — **fonologik hajm va ma’no intensivligi** o‘rtasidagi mutanosiblikdir. Sifatlarning reduplikatsiyasi (masalan: *sariq-sariq, krasniy-krasniy*) "ikoniklik" prinsipiga tayanadi: fonetik materialning miqdoriy ortishi bevosita belgi-xususiyatning kuchayishiga (intensifikatsiyaga) olib keladi. Bu jarayonda bir va ikki bo‘g‘inli so‘zlarning ustunlik qilishi nutq tejamkorligi va talablari bilan tushuntiriladi.

Tadqiqotning ijobiy jihati — **funksional transpozitsiya** masalasidir. Ingliz va arman tillari misolida ko‘ramizki, ikki fonetik birlikning reduplikativ birikishi natijasida so‘z turkumi butunlay o‘zgarishi mumkin (masalan, undov yoki taqlid so‘zdan sifat yoki ravishning shakllanishi). Ingliz tilidagi *hurly-burly* kabi shakllar esa qat’iy **metrik andozalarga** (rifma va alliteratsiya) tayanishi orqali fonologik jihatdan "yopiq" va barqaror tizimni hosil qiladi.

Gayane Ambardaryanning tadqiqoti fonologik reduplikatsiyani **morfologiya va fonologiyaning o‘zaro ta’sir nuqtasi** (interface) sifatida ko‘rsatib berdi. Uning xizmati — reduplikatsiyaning yangi funksional qiymatlarni yaratishda fonetik vositalardan (ritm, urg‘u, bo‘g‘in miqdori) qanchalik unumli foydalanishini isbotlaganidir.

Rossiyalik tilshunos olima, turkiy tillar bo‘yicha mutaxassis A. Abdullayevaning[6] **"Qumuq tilida takrorlar tizimi"** nomli tadqiqoti bizning ilmiy zanjirimizga **Turkiy tillar fonologiyasi**ning fundamental asoslarini olib kirdi. Bu manba Wilbur,

Marantz va McCarthy kabi g‘arb olimlarining nazariyalarini turkiy tillardagi **kuchaytirma daraja** va **aks-sado (echo) takrorlari** bilan boyitadi.

Turkiy tillar, xususan, qumuq tili fonologiyasining eng o‘ziga xos jihati — bu **sifatlarning kuchaytirma darajasidir** (*qip-qizil, yam-yashil*). Abdullayeva bu jarayonni qat’iy fonotaktik cheklov sifatida tahlil qiladi: so‘zning birinchi bo‘g‘ini (C)V ko‘rinishida olinib, unga *p, m, r, s* kabi yopiq undoshlar qo‘shiladi. Bu McCarthy va Prince nazariyasidagi "minimal so‘z" yoki "prozodik andoza" tushunchalarining turkiy tillardagi jonli isbotidir.

Tadqiqotning yana bir muhim nuqtasi — **Anlaut almashinuvi** (birinchi undosh o‘zgarishi). *Kitap-mitap* kabi echo-reduplikatsiya modellari fonetik qobiqni qisman "deformatsiya" qilish orqali kollektiv ma’no hosil qilishini ko‘rsatadi. Muallif, shuningdek, **ikkinchi bo‘g‘inning fonetik o‘zgarishini** ham alohida tur sifatida ajratib ko‘rsatadiki, bu qumuq tilining boshqa turkiy tillardan farqli fonetik imkoniyatlarini ochib beradi.

[5] Ambardaryan G. (2017). *Obrazovanie reduplitsirovannykh prilagatelnykh* [Formation of reduplicated adjectives]. *Filologicheskie nauki. Voprosy teorii i praktiki, 12*(78), 58–61.

[6] Abdullaeva A. A. (2004). *Sistema povtorov v kumykskom yazyke* [The system of repetitions in the Kumyk language] [Candidate dissertation abstract, Dagestan State University].

Abdullayeva **onomatopeik (taqlidiy) so‘zlar** ritmikasini tahlil qilib, fonetik simmetriya tovush va harakatni akustik modellashtirishning asosiy vositasi ekanligini asoslaydi.

Rossiyadagi Ufa fan va texnologiya universiteti (Ufa University of Science and Technology) tadqiqotchisi, xitoylik Vang Tsyan-tsyan[7] Yu Xuanning “Aka uka’” romanida reduplikatsiyaning emotsional funksiyasi" (*Эмоциональная функция редупликации в романе Юй Хуа «Братья»*) nomli maqolasi bizning ilmiy silsilamizga **Xitoy tili (tonal va izolatsiyalovchi til)** materialini va uning **prosodik fonologiyasini** olib kirdi. Bu manba orqali fonologik reduplikatsiyaning nafaqat grammatik, balki **ritmik-estetik konstrukt** sifatidagi ahamiyati yanada oydinlashdi.

Xitoy tili fonologiyasining o‘ziga xosligi shundaki, reduplikatsiya bu yerda **bo‘g‘inli va tonli simmetriyaga** tayanadi. Maqolada keltirilgan **AA, ABB, AABB** qoliplari McCarthy va Prince nazariyasidagi "prozodik shablonlar" tushunchasining Xitoy tili materialidagi eng yorqin ko‘rinishidir. Ayniqsa, **ABB** shaklidagi fonetik "dumlar" (takrorlanuvchi bo‘g‘inlar) asosiy so‘zning semantik maydonini fonetik vositalar orqali bo‘rttirib ko‘rsatishga (intensifikatsiyaga) xizmat qiladi.

Manbaning eng muhim jihati — **reduplikatsiyaning evfonik va emotsional funksiyasidir**. Fonologik darajada tovushlar zanjiri (ayniqsa, onomatopoetik takrorlar) matnning "akustik manzarasi"ni yaratadi. Bu esa

o‘quvchida subyektiv idrokni (quvonch, istehzo, qayg‘u) faqat so‘z ma’nosi orqali emas, balki **tovushlarning ritmik tebranishi** orqali ham shakllantiradi.

Eronlik taniqli tilshunos olimlar Alireza Khanjan va Batool Alinezhadning[8] **"A Morphological Doubling Approach to Full Reduplication in Persian"** tadqiqoti bizning ilmiy zanjirimizga **Eron tillari** fonologiyasini va **Morfologik Ikkilanish (MDT)** nazariyasining eng nozik jihatlarini olib kirdi. Bu manba orqali biz fonologik nusxa ko‘chirish (copying) va morfologik dublyaj o‘rtasidagi farqni aniq chegaralab oldik.

Mualliflarning eng katta hissasi — fonologik reduplikatsiyani **"fonologik talab"** (masalan, bo‘g‘in to‘ldirish) va **"morfosemantik birlik"** (MDT) sifatida farqlashidir. Fors tilida *daste-daste* (guruh-guruh) kabi to‘liq reduplikatsiyalarda fonologik ayniyat qat’iy saqlanadi, biroq bu shunchaki mexanik nusxa ko‘chirish emas, balki ikki mustaqil morfologik birlikning fonologik butunlikka aylanishidir.

Xususan, Fransiya, Britaniya, Prussiya va Rossiyada doimiy harbiy attashelar lavozimlari keng joriy etildi. Harbiy diplomatlarga asosan quyidagi vazifalar yuklatilgan:

1. Qabul qiluvchi davlat harbiy va jangovar mashg‘ulotlarini nazorat hamda tahlil qilish.
2. Chegaradosh davlatlarning strategik rivojlanishlari, tashkiliy tuzilmasi va qurollanishi haqida muntazam axborot-tahliliy hisobotlar taqdim etish.
3. Davlatlar armiyalari va flotlari o‘rtasida muzokara olib borish hamda hamkorlikni tashkillashtirish uchun vositachi vazifasini bajarish.
4. Raqib davlatlar harbiy qo‘mondonlari va siyosiy rahbarlari bilan diplomatik aloqa o‘rnatish. [3]

1 Тарле Е. В. (2020). Наполеон. Москва: АСТ. — С. 273-310.
2 Anderson, M. S. (2017). The rise of modern diplomacy. London: Longman. — pp. 132–138.
3 Кузнецов И.Н. (2019). Военная дипломатия. Москва: Юрайт. — С. 83-112.

Bu amaliyotlar davlatlarga o‘z qurolli kuchlarining rivojlanishi, harbiy siyosat va diplomatik qarorlarni aniq hamda tezkor qabul qilish imkonini berdi.

Misol uchun Rossiya harbiy attashelari Parij, London va Berlin elchixonalarida muntazam faoliyat yuritib, Yevropa davlatlari armiyalarining taktik usullari, yangi qurollari va mashg‘ulot o‘tkazish tizimlari haqida to‘plangan ma’lumotlarni Sankt-Peterburgga yuborgan. Xususan, Prussiya va Avstriya davlatlari armiyalarining mashg‘ulotlari va chegara xavfsizligi rus attashelari tomonidan tahlil qilib borilgan.

Shuningdek, XIX asrda mudofaa maqsadlariga mo‘ljallangan milliy tashkilotlar va mustamlaka davlatlarning vujudga kelishi ko‘pchilik mamlakatlarning harbiy diplomatiya faoliyatini rivojlantirishiga sabab bo‘ldi. Mazkur davrga kelib, harbiy diplomatik vakillarni nafaqat dushman davlatlar balki, ittifoqdosh, neytral, yaqin qo‘shni va uzoq masofada joylashgan davlatlarga ham safarbar etish boshlandi.

Ushbu asrda xalqaro diplomatik munosabatlarda harbiy diplomatiya tarkibiga kiruvchi harbiy attashe atamasi keng tarqaldi. “Harbiy attashe” birinchi bo‘lib 1833 yil 23 fevralda Fransiya hukumati harbiy muassasasi buyrug‘ida, xususan, “Birlashgan shtab ofitserlari elchixonaga turli diplomatiyaviy vazifalarni bajarish uchun biriktirilishi mumkin”, deb belgilab qo‘yildi. Attache (fransuzchadan olingan bo‘lib, biriktirilgan, yordam berish ma’nolarini bildiradi) tushunchasi asosida harbiy attashe atamasi yuzaga keldi va xalqaro diplomatiyada harbiy diplomatlarga nisbatan keng qo‘llanila boshlandi. [1]

Shu tariqa, XIX asrning 80 yillarida ayrim mamlakatlarda harbiy diplomatiya tarkibiga kiruvchi attashe apparatlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Apparatning tarkibiy qismiga qurolli kuchlarning qo‘shin turi bo‘yicha harbiy attashelar, ularning o‘rinbosarlari va texnik xodimlar kiritildi. Mazkur xodimlarning har biriga aniq va tizimli vazifalarni yuklash ishlari amalga oshirildi.

Bu davrda harbiy diplomatiya alohida institut sifatida paydo bo‘ldi. Yevropa davlatlari o‘rtasidagi kuchli geosiyosiy raqobat sharoitida harbiy-siyosiy axborotni tizimli ravishda yig‘ish, tahlil qilish va markazlashtirilgan tarzda yuqori rahbariyatga etkazish ishlari amalga oshirildi. Harbiy diplomatiya davlatlar tashqi siyosatini axborot bilan ta’minlovchi muhim mexanizmga aylandi.

Natijada harbiy diplomatiya mamlakatlar o‘rtasidagi kuchlar muvozanatini saqlash, ehtimoliy tahdidlarni oldindan prognoz qilish va harbiy-siyosiy qarorlar qabul qilishda strategik vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Markaziy Osiyo hududida XIX asrning birinchi yarmida mustaqil siyosiy tuzilmalar tariqasida faoliyat yuritgan Xiva xonligi, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligining tashqi siyosati hamda harbiy diplomatiyasi bir tomondan ichki xavfsizlikni ta’minlash, ikkinchi tomondan esa tashqi tahdidlarga qarshi muvozanatni saqlashga qaratilgan edi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasining janubiy hududlarga

1 Винокуров В.И. (2011). История военной дипломатии. В четырех т.Москва. ООО НИЦ «Инженер». Т.3. — С. 65.

kengayishi va Britaniya imperiyasi bilan strategik raqobat (“Buyuk o‘yin”) fonida mintaqadagi mustaqil davlatlar o‘z xavfsizligini ta’minlash maqsadida harbiy-diplomatik mexanizmlardan foydalanishga majbur bo‘lgan.

Jumladan, 1830 yilda Xiva xoni Muhammad Ibrohim tinchlik kelishuviga erishish maqsadida Rossiyaga elchilarni yuborgan. 1831 yilga kelib ikki davlat o‘rtasida tinchlik shartnomasi imzolanishiga erishilgan va asirga olingan 416 nafar rus harbiylari o‘z vatanlariga qaytarilgan.

1839-1840 yillarda Rossiya generali Perovskiy ekspeditsiyasi Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlarni amalga oshirgan. Ushbu harakatlar muvaffaqiyatsiz tugagan bo‘lsa-da, Rossiya va Xiva o‘rtasida diplomatik munosabatlar faollashishiga olib kelgan.

1842 yilda esa Xiva xoni Alloqulixon Rossiya imperiyasi asirlarini ozod qilish haqida qaror qabul qilib, ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni yumshatishga xizmat qilgan. [1]

Xiva xonligi tashqi siyosatni olib borishda asosan quyidagi yo‘nalishga alohida e’tibor qaratgan:

1. Qo‘shni davlatlar, xususan Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi bilan harbiy kuch tuzilmalar muvozanatini saqlash, raqobat va ba’zan vaqtinchalik ittifoqlar asosida munosabatlarni olib borgan.

2. XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlaridan boshlab Xiva Rossiya bilan savdo hamda elchilik munosabatlarini yo‘lga qo‘ygan. Mazkur aloqalar ko‘pincha asirlar masalasi, savdo yo‘llari va chegara xavfsizligi sohasida ekanligi ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan.

3. Xiva xonligi armiyasi ko‘pincha otliq askarlardan tashkil etilgan bo‘lib, xonlikda harbiy yurishlar (kuch tuzilmalarning namoyishkorona harakati) orqali siyosiy ta’sir o‘tkazish amaliyoti mavjud bo‘lgan. O‘sha zamonning yetakchi davlatlari bilan harbiy diplomatik munosabatlar faol olib borilmaganligi bois xonlik qo‘shinlari zamonaviy qurollarga ega bo‘lmagan.

Xonlikda harbiy diplomatiya mudofaa xarakteriga ega bo‘lib, strategik ittifoq siyosati yaxshi rivojlanmagan.

Buxoro amirligi mintaqadagi eng nufuzli siyosiy markazlardan biri hisoblanib, uning diplomatik munosabatlari ko‘proq an’anaviy va diniy qoidalarga asoslangan.

Amirlik Eron, Usmonliylar davlati, Rossiya va Afg‘oniston bilan muntazam diplomatik munosabatlarni amalga oshirgan.

Shuningdek, Buxoro amirligi islom olamida nufuzli markazi hisoblanganligi bois, xalqaro aloqalarni o‘rnatishda diniy birdamlik va siyosiy ittifoq g‘oyalarini ilgari surgan.

Biroq, XIX asr o‘rtalarida Rossiya bilan bir necha marotaba harbiy diplomatik

1 Аллаева, Н. (2023). Дипломатия Хивинского ханства и торговые связи (XVI–XIX вв.). Ташкент: Фан. — С 122-131.

muzokaralar olib borilgan bo‘lsa-da, ikki hukumat o‘rtasidagi qurolli mojarolarning oldi olinmadi.

Amirlikda an’anaviy tuzilmaga ega armiya faoliyat yuritgan va harbiy islohotlar cheklangan darajada amalga oshirilgan.

Buxoro amiri Nasrulloxon hukmronlik davrida Rossiya imperiyasi bilan bir necha marotaba diplomatik missiyalar amalga oshirilgan.

1841–1842 yillarda Britaniya tomonidan ofitserlar Charlz Stoddart va Artur Konolli Buxoro amirligiga diplomatik vazifalarni bajarish uchun yuborilgan. Aslida harbiy razvedka tadbirlarini o‘tkazish uchun yuborilgan ofitserlar missiyasi amirlikning “Buyuk o‘yin” siyosiy maydonida muhim o‘rin tutayotganligini ko‘rsatadi. [1]

Qo‘qon xonligi ko‘pincha hududiy kengayishni (Toshkent, Chimkent va boshqa mintaqalar) maqsad qilgan holda tashqi siyosiy munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan. Bu borada diplomatik aloqalarni o‘rnatish bilan bir vaqtda harbiy kuchdan ham foydalangan.

Harbiy tuzilmalar siyosiy boshqaruv bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mahalliy beklar vositasida boshqarilgan.

XIX asrning 60-yillarida Qo‘qon xonligi Rossiya bosqiniga qarshi bir necha marotaba harbiy harakatlarni amalga oshirgan. Xonlikdagi ichki ziddiyatlar va siyosiy beqarorlik harbiy diplomatik munosabatlarni samarali yo‘lga qo‘yishga imkon bermagan.

Xonlik tomonidan faol va moslashuvchan diplomatik munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan, biroq tashqi siyosatni olib borishda markazlashgan boshqaruvning etishmovchiligi diplomatik munosabatlarni zaif holatga keltirgan. [2]

Qo‘qon xonligi Sin imperiyasi bilan savdo va chegara xavfsizligi sohasida diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan hamda Qo‘qonda Xitoy elchixonasi faoliyat yuritganligi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan. 1831-1832 yillarda ushbu ikki davlat o‘rtasida qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tgan. Mazkur davrda Yevropa davlatlarining (Fransiya, Angliya) Xitoy va Hindiston hududlarini egallab olishga intilishlari natijasida Xitoy mustaqilligi ham xavf ostida qolgan. Shu sababli mazkur davlat Qo‘qon xonligi bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga majbur bo‘lgan. Natijada xonlik Sharqiy Turkiston hududida erkin savdo faoliyatini yuritish imkoniyatiga ega bo‘lgan, Xitoy tomoni esa qurolli to‘qnashuvlarsiz Sharqiy Turkiston hududini o‘z tarkibida saqlab qolishga erishgan.

XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligining Sharqiy Turkiston tarkibidagi Qashg‘ar, Yarkent va Xotan shaharlarida savdo va diplomatik vakolatxonalari mavjud

1 Шарипов Г.З. (2020). Штрихи к истории военного дела Бухарского эмирата периода правления эмира Насруллы (1826-1860 гг.). Retrieved from https://cyberleninka.ru

2 Халфин Н.А. (1960). Политика России в Средней Азии (XIX век). Москва: Наука. — С. 201-214.

bo‘lgan. Bu holat xonlikning Markaziy Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi savdo aloqalarini o‘rnatishda muhim vositachi bo‘lganligidan dalolat bermoqda. [1]

Yuqoridagi davlatlarning harbiy diplomatik munosabatlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi jadval shakllantirildi:

| Asosiy mezonlar | Xiva xonligi | Buxoro amirligi | Qo‘qon xonligi |
|---|---|---|---|
| **Diplomatik siyosat** | Savdo va asirlar masalasi | Diniy-siyosiy legitimlik | Harbiy-siyosiy kengayish |
| **Harbiy qudrat va salohiyat** | Otliq qo‘shinlar | Regulyar armiya | Namoyishkorona harbiy harakatlar va beklar boshqaruvidagi qo‘shin |
| **Rossiya bilan munosabatlar** | Cheklangan harbiy qarshilik va diplomatik muzokara | Diplomatik muzokara va cheklangan qarshilik | Qurolli qarshilik |
| **Tashqi aloqalar** | Yaxshi rivojlangan | Islomiy davlatlar | Savdo-diplomatik aloqalar (Sin imperiyasi) |

Ma’lumotlar tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, 3 ta davlatda ham harbiy diplomatiya ichki siyosiy barqarorlik, iqtisodiy imkoniyatlar va tashqi tahdid darajasiga qarab shakllangan. Zamonaviy harbiy-texnik islohotlarning etarli darajada emasligi ularning Rossiya imperiyasiga qarshi samarali strategiya ishlab chiqishiga hamda kurashishiga to’sqinlik qilgan. Mazkur davlatlar o’rtasidagi harbiy-do’stona munosabatlar zaif darajada ekanligi, o’zaro strategik ittifoq tuzaolmaganligi hamda ichki nizolarning salbiy ta’siri natijasida ruslar Markaziy Osiyo hududini egallab olgan.

XX asrda xalqaro munosabatlar, xususan, harbiy diplomatiya sohasida tub o’zgarishlar sodir bo’ldi hamda harbiy hamkorliklar kengayishni boshladi. Yangi mustaqil mamlakatlarning vujudga kelishi, harbiy razvedka ma’lumotlariga bo’lgan ehtiyojlarning ortishi va qurol-aslaha tizimini kompleks rivojlantirishga bo’lgan zaruratning kuchayishi davlatlarda harbiy diplomatiyaning ahamiyati oshishiga olib keldi.

Jumladan, 1917 yildan keyin xorijiy davlatlarga safarbar etiladigan ofitserlar zimmasiga o’zi borgan mamlakatning harbiy-iqtisodiy qudrati, mudofaa salohiyati va rejalarini o’rganish, turli sohaga oid ma’lumotlarni to’plash kabi vazifalar yuklatila boshlandi.

Ushbu asrda yuzaga kelgan keng miqyosdagi harbiy harakatlar hamda qurolli

1 Турсунов Б.Р. Дипломатические отношения Кокандского ханства с империей Цинь. Retrieved from https://cyberleninka.ru

to’qnashuvlar xalqaro munosabatlar, shu jumladan, diplomatiya sohasida tubdan o’zgarishlarni vujudga keltirdi.

Xususan, ikkinchi jahon urushi vaqtida davlatlar o’rtasida harbiy vakillarni yuborish yanada kuchaydi. Ushbu davrdagi ma’lumotlarni tizimli hamda qiyosiy tahlil qilish natijasida harbiy diplomatiya razvedka ma’lumotlarini almashish, koalitsiyalar tuzish va ittifoqchilar o’rtasida hamkorlikni koordinatsiyalashda muhim rol o’ynaganini guvohi bo’lishimiz mumkin. Shuning uchun yetakchi davlatlar o’zining xorijiy davlatlardagi harbiy attashe vakillarini kengaytirishni muhim vazifa sifatida belgiladi. Urush boshlanishigacha Sobiq Sovet Ittifoqining xorijdagi harbiy attashe apparati soni 15 taga yaqin bo’lgan bo’lsa, 1960 yil oxiriga kelib 36 taga (13 ta harbiy dengiz attashe apparati, 5 ta harbiy havo attashesi, qolganlarini umumiy harbiy attashe apparati) etgan. Ushbu harbiylarga butun dunyodagi harbiy-siyosiy va harbiy-strategik vaziyatni kuzatish va tahlil qilib borish vazifasi yuklatilgan. [1]

Sovuq urush (1947–1991) davri harbiy diplomatiya uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Jahon ikki raqib blokka bo‘lingan bir paytda harbiy diplomatiya qurol-aslaha nazorati muzokaralari, iqtisodiy inqiroz holatida muloqot va pragmatizmni ta’minlashning asosiy vositasiga aylandi. Misol uchun, Xotlayn kelishuvi (1963), Amerika Qo‘shma Shtatlari va Sovet Ittifoqi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni o‘rnatish bo‘yicha anglashuv memorandumi (Memorandum of Understanding Between The United States of America and The Union of Soviet Socialist Republics Regarding the Establishment of a Direct Communications Link) va Dengizda to‘qnashuvlarni oldini olish to‘g‘risidagi kelishuv (Convention on the International Regulations for Preventing Collisions at Sea — COLREGs, 1972) tasodifiy mojarolarning oldini olish uchun ishlab chiqilgan edi. Bundan tashqari, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik konferensiyasi ishonch va xavfsizlikni ta’minlash borasida chora-tadbirlarni ishlab chiqdi, bu keyinchalik Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti amaliyotining asosini tashkil etdi. [2]

1961 yilda xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasida muhim huquqiy asos bo‘lgan **Vena Konvensiyasi** qabul qilindi. Unda harbiy diplomatiya, xususan, harbiy attashening huquqiy maqomi belgilandi hamda diplomatlar bilan bir xil immunitet va imtiyozlar joriy etildi.

“Diplomatik aloqalar to‘g‘risida”gi Vena Konvensiyasining 7-moddasida, “Konvensiyaning 5, 8, 9 va 11-moddalarida belgilanganidan tashqari, akkreditatsiya qilayotgan davlat hukumat a’zolarini mustaqil ravishda lavozimga tayinlashi mumkin. Harbiy, harbiy-dengiz yoki harbiy-havo attashelarini lavozimga tayinlashda, qabul qilayotgan davlat tomonidan nomzodlarning nomlari oldindan ma’qullanishi uchun

1 Kennedy, P. (2017). The rise and fall of the great powers. London: Penguin. — pp. 195-206.

**2** احمدی، عبدالواحد. (۲۰۱۸). روابط بین‌الملل معاصر. کابل: انتشارات سعید، صص ۱۳۴–۱۴۸.

(Ahmadi, A. (2018). *Revabet-e beynolmelal-e moaser*. Kabul: Entesharat-e Saeed. -pp-134-148).

yuborilishini talab qilinishi mumkin", deb belgilangan. [1]

Yuqoridagi huquqiy me'yorlardan kelib chiqqan holda harbiy diplomat (harbiy attashe) diplomatik korpus vakili sifatida baholandi, diplomatik korpus a'zosiga berilgan barcha imtiyozlar hamda huquqlarga ega hisoblandi.

1991 yildan so'ng harbiy diplomatiyaning asosiy e'tibori xalqaro harbiy hamkorlikni tashkillashtirish, kengaytirish, tinchlikparvar missiyalar va mudofaa islohotlariga qaratildi. NATOning "Tinchlik yo'lida hamkorlik dasturi" (PfP — Partnership for Peace) mazkur tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlar bilan ham hamkorlik qilish imkonini yaratdi. Xalqaro harbiy diplomatiya gumanitar yordam, tabiiy ofatlar va terrorizmga qarshi kurashda ham muhim ahamiyat kasb etdi. [2]

XXI asrda esa **kiber va kosmos xavfsizligi** kabi yangi yo'nalishlar harbiy diplomatiya doirasini yanada kengaytirdi va texnologik raqobat mamlakatlar o'rtasida yanada kuchaydi.

Endilikda harbiy diplomatiya qurolli kuchlar va elchixonalar orqali amalga oshirilgan an'anaviy diplomatik hamkorlikdan tashqari, yangi va texnologiyaga bog'liq sohalar – kiberxavfsizlik va kosmosdagi xavfsizlikni ham qamrab oldi.

Hozirgi kunda kiberxavfsizlik mamlakatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Davlatlar kiberhujumlar va kiberrazvedka imkoniyatlarini kuzatish, kiberhimoya tizimlarini muvofiqlashtirish va xalqaro kiber qoidalarga rioya qilishda harbiy diplomatiyadan foydalanmoqda.

Misol uchun ochiq manbalar tahlillariga asosan, NATOning Kiber operatsiyalar markazi (NATO Cyber Operations Centre) tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida kiberxavfsizlik bo'yicha hamkorlikni muvofiqlashtirish va kiber tahdidlarni kuzatishda harbiy attashelar muhim o'rin egallamoqda. [3]

Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida qayd etilishicha, AQSh va Buyuk Britaniya hamkorligida olib borilayotgan Kiber maxsus operatsiyalar (Cyber Special Operations) harbiy attashelar va kiberrazvedka xizmatlari yordamida Rossiya hamda Xitoyning kiber harakatlarini tahlil qilib bormoqda. Tahliliy ma'lumotlar harbiy sohadagi rejalashtirish va global kiberxavfsizlik siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanmoqda.

Shu bilan birga kosmos sohasi ham harbiy diplomatiya uchun strategik platformaga aylandi. Dunyo mamlakatlari sun'iy yo'ldoshlar, raketalar va kosmik qurilmalarning xavfsizligi, xalqaro kosmos qoidalariga rioya qilish masalalarida diplomatik hamkorlik va raqobatni muvofiqlashtirishga majbur bo'lmoqda.

---

1 Венская конвенция о дипломатических сношениях от 18 апреля 1961 года. (1961) Вена. Ст. 7.

2 Willard J.E. (2006). Military Diplomacy: An Essential Tool of Foreign Policy at the Theater Strategic Level. Kansas. — p. 22.

3 Singer, P., Friedman, A. (2018). Cybersecurity and cyberwar. Oxford: Oxford University Press. — pp. 25–30.

Qo‘shma Kosmik Faoliyat va DoD Space Operations (AQSh). Amerika harbiy attashelari va kosmos qo‘mondonligi elchixonalar vositasida Rossiya va Xitoyning kosmosdagi harbiy faoliyatini kuzatib borishadi. Masalan, 2020–2023 yillar oralig‘ida Qo‘shma Shtatlar kosmos qo‘mondonligi eng muhim sun’iy yo‘ldoshlar va ilmiy kosmik qurilmalarning xavfsizligini ta’minlash uchun kiber hamda diplomatik tadbirlarni muvofiqlashtirgan. [1]

**XULOSA**

Harbiy diplomatiya insoniyat tarixidagi davlatlararo hamda xalqaro munosabatlarning ajralmas qismi bo‘lib, XVII asrdan boshlab institutsionallashgan va XX–XXI asrlarda global xavfsizlik arxitekturasining muhim qismiga aylangan.

Qadim zamonlarda xalqaro munosabatlar doirasida harbiy diplomatiya faoliyati harbiy qudratni namoyon etish, dushman davlatlar armiyalari haqida ma’lumotga ega bo‘lish uchun razvedka tadbirlarini amalga oshirish, hamkor davlatlarga harbiy yordam ko‘rsatish va raqib davlatlarga qarshi turli tadbirlarni amalga oshirish uchun foydalanilganligi ilmiy izlanishlar davomida ma’lum bo‘ldi.

Hozirgi kunda kiber va kosmos sohalarining kirib kelishi harbiy diplomatiyaning funksional doirasini kengaytirib, uni mamlakat tashqi siyosati va milliy xavfsizligini ta’minlashning strategik mexanizmiga aylantirmoqda.

Zamonaviy bosqichda harbiy diplomatiya mamlakatlar o‘rtasida harbiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ishonch choralarini mustahkamlash, ehtimoliy harbiy mojarolardan ogohlantirish va oldini olish, xalqaro miqyosda tinchlik hamda xavfsizlikni ta’minlashda asosiy vositalardan biri hisoblanmoqda.

## IX – XI ASRLARDA BUXORODA KUTUBXONALAR TARIXI

***KOMILJON RAHIMOV***
*Professor, tarix fanlari doktori, TDSHU*
*O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti*
*yetakchi ilmiy xodimi*

O‘rta asrlar islom sharqining ko‘pgina o‘lkalarida bo‘lgani kabi ibodat maskani sifatidagi masjidlar hamda aynan ta’limga ixtisoslashgan maktablar va madrasalardan tashqari ko‘plab madaniy va ijtimoiy muassasalar ham u yoki bu darajada ta’lim markazlari vazifasini bajarganlar. O‘zlarining birlamchi vazifalaridan tashqari o‘zaro bilim almashish hamda tajqiqot va ta’lim markazlari vazifasini ham bajargan muassasalarning birinchi qatorida, albatta, kutubxonalar va kitob do‘konlari turgan.

1 U.S. Department of Defense. (2020). Defense space strategy. Washington. — pp. 1–7.

Shu o‘rinda eslatib o‘tish lozimki, O‘rta Osiyoda, jumladan Buxoro shahrida ta’lim, fan va madaniyatning boshqa barcha sohalari qatorida kutubxonachilik sohasida ham ulkan o‘zgarishlar va taraqqiyot davri bo‘ldi. Zero, Buxoro islom sivilizatsiyasining ilk kutubxonalari vujudga kelgan shaharlardan biridir[1]. Aynan Somoniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrda o‘lkamizda nafaqat ilk tizimli kutubxonalar vujudga keldi, balki bir necha tur kitob maskanlarini o‘z ichiga oluvchi butun boshli kutubxonalar tizimi shakllandi. Jumladan, bu davrda Buxoroda kutubxonalarning quyidagi besh turi mavjud bo‘lgan.

***1. Shaxsiy kutubxonalar***. Yurtimizda, jumladan Buxoroda vujudga kelgan ilk kutubxonalar shaxsiy kutubxonalardan iborat bo‘lgan. Kitob qimmat bo‘lganligi sababli faqatgina boy kishilar kitob sotib olib, kutubxona saqlash imkoniyatiga ega bo‘lishgan[2]. O‘z navbatida shaxsiy kutubxonalarning quyidagi turlari mavjud bo‘lgan:

*1.1. Podshohlarning kutubxonalari*. Bunday kutubxonalardan podshohning oila a’zolari, vazirlar, saroy mulozimlari va olimlar foydalanganlar. Podshohlarning kutubxonalari rahbari olimlar va yozuvchilar orasidan saylangan[3]. Manbalarda eslatilgan yagona podshoh kutubxonasi Somoniylar davlatining 976 – 997-yillari hukmronlik qilgan amiri Abu-l-Qosim Nuh ibn Mansur Somoniy (964 – 997) kutubxonasi bo‘lib, Ibn Sino undan foydalangan[4]. Nuh ibn Mansur Somoniy kutubxonasi o‘z davrining eng yirik[5] va eng boy kitob xazinalaridan biri hisoblangan[6].

---

[1] Расулий, Ҳужжат. Хуросон ва Мовароуннаҳр минтақаси Эрон ва Марказий Осиёдаги китоб ва кутубхона ҳаракати пешқадамлари (форс тилида) // «Гуманитар фанлар тадқиқотлари» журнали. – Теҳрон, 1387/2008 й. №58. Б. 59.

[2] Фараҳноз Куҳан. Сомонийлар даврида кутубхона ва кутубхоначилик // «Кутубхоначилик ва ахборотни ташкиллаштириш миллий тадқиқотлари» уч ойлик журнали (форс тилида). – Теҳрон. 26-йил. №4. 1394/2015 йил қиши. Б. 117.

[3] Даль, Свенд. Китоб тарихи: энг қадимги замонлардан ҳозирги давргача (форс тилида) [дан тилидан Муҳаммадали Хоксорий таржимаси]. – Машҳад: «Остони Қудси Разавий», 1372/1993.

[4] Ҳумоюнфаррух, Рукниддин. Эрон шаҳаншоҳлигида китоб ва кутубхоналар (форс тилида). – Теҳрон: Маданият ва санъат вазирлиги нашриёти, 1347/1968.

[5] Расулий. Хуросон ва Мовароуннаҳр минтақаси Эрон ва Марказий Осиёдаги китоб ва кутубхона ҳаракати пешқадамлари. Б. 59.

[6] ал-Қифтий, Абу-л-Ҳасан Али ибн Юсуф (ваф. 646/1248). Ахбор ал-уламо би-ахбор ал-ҳукамо (араб тилида). [Муҳаммад Амин ал-Хонжий таҳрири остида]. Қоҳира: «Саодат», 1326/1908. Б. 271; Ибн Абу Усайбиъа, Аҳмад ибн ал-Қосим ибн Халифа ал-Хазражий. Уюн ал-анбо фи табақот ал-атиббо / Табиблар табақалари тўғрисида «Маълумотлар булоғи» асари (араб тилида). [Наззор Ризо таҳрири остида]. – Байрут: «Дору мактабат ал-ҳаёт», 1965. Б. 439; аш-Шаҳразурий, Шамсиддин Муҳаммад ибн Маҳмуд (VII/XIII а.). Нузҳат ал-арвоҳ ва равзат ал-афроҳ / Руҳлар сайри ва хурсандчилик боғи (араб тилида). [Муҳаммад Али Абу Райён таҳрири остида]. Биринчи нашр. – Искандария: «Дор ал-маърифат ал-жомиъийя», 1993. Б. 591.

*1.2. Vazirlar va boshqa amaldorlarning kutubxonalari*. Fan va madaniyat taraqqiyotiga homiylik qilgan vazirlar va boshqa davlat amaldorlari ham o‘z shaxsiy kutubxonalarini ochishgan. Somoniylar davlati vazirlari ota-o‘g‘il Abu-l-Fazl Muhammad ibn Abdulloh Bal’amiy (vaf. 940) va Abu Ali Muhammad ibn Muhammad Bal’amiyning (vaf.975) shaxsiy kutubxonalari shunday kutubxonalar jumlasidan bo‘lgan[1].

*1.3. Olimlarning kutubxonalari*. IX asr boshlaridan olimlar va yozuvchilar ham o‘z shaxsiy kutubxonalarini tashkil eta boshlashdi. Bular jumlasiga Buxoro shahrida yashab, faoliyat ko‘rsatgan Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad al-Forobiy (872 – 950)[2] va Abu Nazr Muhammad ibn Mas’ud Ayyoshiy Samarqandiy (vaf. 932)[3] kabi olimlar kutubxonalari kiradi. Ayyoshiyning kutubxonasi faqatgina kitoblar saqlash va kitobxonlarning ushbu kitoblardan foydalanishlari uchun sharoit yaratish vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmagan. Bu kutubxonada kitob ko‘chirish va ko‘chirilgan asarlarga izohlar yozish ham amalga oshirilgan[4].

***2. Masjidlar kutubxonalari***. Ilk davrlarda masjidlarda Qur’on va boshqa diniy kitoblar saqlangan. Islom ilmlarining rivojlanishi va ko‘plab asarlarning yozilishi bilan masjidlar huzurida kutubxonalar tashkil etila boshladi. Bu kutubxonalardan foydalanish tekin edi[5]. Har bir masjid kutubxonasidagi kitoblar undagi dars halqasida beriladigan darslarga oid bo‘lardi[6].

***3. Madrasalar kutubxonalari***. IX asrda islom o‘lkalarida madrasalar vujudga kelishi bilan madrasalar kutubxonalari ham tashkil topa boshladi. U paytlarda kutubxonasi bo‘lmagan madrasani topish qiyin edi[7]. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Nishopur, Buzjon, Bast, Marvro‘d va G‘azna shaharlarida ko‘plab madrasa kutubxonalari tashkil topdi[8]. Bunday kutubxonalar uchun ko‘plab xonalarga ega

[1] Ҳумоюнфаррух, Рукниддин. Эронда китоб ва кутубхона тарихи (форс тилида) // «Санъат ва халқ» журнали. – Теҳрон, 1345/1966 й. №50. Б. 18-20; Ҳусайний, Муҳсин. Мўғуллар истилосига қадар бўлган даврда Хуросон ва Мовароуннаҳр кутубхоналари (форс тилида) // «Ислом цивилизациясида китоб ва кутубхона» халқаро конгресси мақолалари тўплами. – Машҳад: Ислом тадқиқотлари фонди нашриёти, 1379/2000. Б. 426.

[2] Ҳумоюнфаррух, Рукниддин. Эрон кутубхоналари тарихи ва умумий кутубхоналар (форс тилида). – Теҳрон: Умумий кутубхоналар ташкилоти нашриёти, 1344/1965.

[3] Давоний, Али. Исломнинг буюк шахслари (форс тилида). – Теҳрон: «Амири кабир», 1366/1987.

[4] Фараҳноз Куҳан. Сомонийлар даврида кутубхона ва кутубхоначилик. Б. 116.

[5] ал-Куравий, Иброҳим Сулаймон. Араб ислом цивилизацияси манбалари (араб тилида). – ал-Кувайт: «Зот ас-салосил», 1987.

[6] Фараҳноз Куҳан. Сомонийлар даврида кутубхона ва кутубхоначилик. Б. 116.

[7] Шиблий, Аҳмад. Исломда таълим тарихи (форс тилида) [араб тилидан Муҳаммадҳусайн Сокит таржимаси]. – Теҳрон: «Фарҳанги исломий», 1370/1991. Б. 158.

[8] Мақдисий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Аҳмад. Аҳсан ат-тақосим фи маърифат ал-ақолим [Араб тилидан Али Нақий Мунзавий таржимаси]. 2 жилдлик. Аҳсан ат-тақосим. 2-ж. – Теҳрон: Муаллифлар ва таржимонлар компанияси, 1361/1982. Б. 482-488.

maxsus binolar qurilar, kutubxona xodimlari tayinlanardi[1]. Bu davrdagi eng mashhur madrasa kutubxonalari jumlasiga IX asr boshlarida tashkil topgan Hazrati imom – Abu Hafs Kabir Buxoriy madrasasi kutubxonasi[2] va IX asr oxirlarida tashkil etilgan Ismoil Somoniy madrasasi kutubxonasi[3] kirgan.

***4. Ixtisoslashtirilgan kutubxonalar***. Somoniylar davrida rasadxonalar, shifoxonalar, xonaqohlar, ziyoratgohlar va maqbaralar huzurida ixtisoslashtirilgan kutubxonalar ham faoliyat ko‘rsatgan. Somoniylar imperiyasiga tobe bo‘lgan Xuroson o‘lkasidagi Abu Hotim Muhammad ibn Hibbon at-Tamimiy ad-Dorimiy al-Bustiy (883–965) xonaqohi kutubxonasi[4] va Abu Said Fazlulloh ibn Abu-l-Xayr Ahmad Mayxoniy (967–1049) xonaqohi kutubxonasi[5] shular jumlasidandir.

***5. Umumiy kutubxonalar***. Dastlab masjidlar kutubxonalari umumiy kutubxona vazifasini o‘tagan. Kutubxona asosida bunyod etilgan, ammo bayt ul-hikmalar kabi tadqiqotlar o‘tkaziladigan dor ul-ilmlarni ham umumiy kutubxonalar qatoriga qo‘shish mumkin[6].

Ushbu kutubxonalar o‘zlarining birlamchi vazifalaridan – turli fanlarga oid kitoblarni saqlash, kitob ko‘chirish va kitoblarni kitobxonlar foydalanuvi uchun taqdim etishdan tashqari bilim almashish va ilmiy bahs-munozara makonlari hamda ta’lim markazlari vazifalarini ham bajarishgan.

Bu davrda Buxoroda kitob sotish bilan asosan mualliflar tomonidan alohida varaqlarga yozilgan asarlarni biriktirib, kitob shakliga kirgizuvchi kishilar – *varroq*lar yoki kitoblarni ko‘paytirish maqsadida ulardan nusxa ko‘chiruvchi kishilar – *nosix*lar shug‘ullangan bo‘lib, shu jihatdan kitobfurushlik do‘konlari “varroqlik do‘konlari”

[1] Маъруф, Ножий. Низомия мадрасасидан олдинги илмий мадрасалар (форс тилида) [араб тилидан Жамолиддин Шерозиён таржимаси]. – Теҳрон: «Анжумани осор ва мафохири фарҳангий», 1379/2000. Б. 220.

[2] Нишот, Наргис; Ҳуррий, Аббос. Кутубхоналарнинг кутубхонага асосланган мадрасалардаги таълим маскани сифатидаги роли (форс тилида). – Теҳрон: «Шабакайи китоб», 1383/2004.

[3] Ҳусайний, Муҳсин. Мўғуллар истилосига қадар бўлган даврда Хуросон ва Мовароуннаҳр кутубхоналари (форс тилида) // «Ислом цивилизациясида китоб ва кутубхона» халқаро конгресси мақолалари тўплами. – Машҳад: Ислом тадқиқотлари фонди нашриёти, 1379/2000. Б. 425; Расулий. Хуросон ва Мовароуннаҳр минтақаси Эрон ва Марказий Осиёдаги китоб ва кутубхона ҳаракати пешқадамлари. Б. 60.

[4] Касоий, Нуруллоҳ. Ибн Ҳиббон Бастий: таҳсили, сафарлари, илмий асарлари ва таълим тизимига кўрсатган хизматлари (форс тилида) // «Ислом тадқиқотлари» журнали. – Теҳрон, 1374/1995 йил, №10. Б. 69-82.

[5] Ҳумоюнфаррух, Рукниддин. Эронда китоб ва кутубхона тарихи (форс тилида) // «Санъат ва халқ» журнали. – Теҳрон, 1346/1967 й. №56-57. Б. 36-49.

[6] Аш, Юсуф. Ўрта асрларда умумий ва ярим умумий араб кутубхоналари: Икки дарё оралиғи, Сурия ва Миср (форс тилида) [араб тилидан Асадуллоҳ Алавий таржимаси]. – Машҳад: Ислом тадқиқотлари фонди нашриёти, 1372/1993.

deb atalgan[1]. Buxoroda alohida kitob do‘konlaridan tashqari yirik kitob bozorlari[2], jumladan varroqlar do‘konlarini o‘z ichiga olgan maxsus bozor bo‘lgan[3].

U davrning kitobdorlari – kutubxonalar egalari yoki kutubxonalar boshqaruvchilari, shuningdek varroqlari – kitob do‘konlariga ega kitobfurushlari bilimli odamlar bo‘lib, ularning kutubxonalari va kitob do‘konlari shoirlar, faylasuflar, tabiblar, munajjimlar va boshqa sohalar bilimdonlari to‘planadigan joy bo‘lib, suhbatlashish, bahslashish va kitob sotib olish uchun u yerga kelishardi. Jumladan Buxoro varroqlari (kitobfurushlari) orasida tarixchi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-G‘unjor (948–1028)[4], shuningdek boshqa ilm sohalarining olimlari hisoblanmish Muhammad ad-Dallol[5], Abu-l-A’lo Komil ibn Makkiy ibn Muhammad ibn Vardon at-Tamimiy al-Buxoriy (vaf. 923)[6], Ahmad ibn Shuayb ibn Solih[7], Muhammad ibn Zakariyo ibn Yahyo ibn Abdulloh ibn Dinor[8] va Muhammad ibn Yahyo ibn an-Nazr ibn Muoviyalar[9] bo‘lganlar. Umuman kitob do‘konlari ilmiy va madaniy markazlardan biri hisoblangan bo‘lib, ular, avvalo, turli manbalardan kitoblar sotib olishgan, so‘ngra ularning ilmiy ahamiyati va foydasini o‘rganib, xaridorga tavsiya etishgan. Varroqlar yangi kelgan kitoblar borasida fikr almashish uchun yig‘ilganlar. Ular davrasida tolibi ilmlar bu qimmatli bahslarga quloq solish

[1] Имом Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур ат-Тамимий. ал-Ансоб (араб тилида) [Сўзбоши ва иловалар муаллифи Абдуллоҳ Умар ал-Борудий. Маданий тадқиқотлар маркази] 5 жилдлик. 5-ж. Б. 444.

[2] Ровандий, Муртазо. Эроннинг ижтимоий тарихи (форс тилида). 2-жилд. – Теҳрон: «Нигоҳ», 1382/2003. Б. 234-235.

[3] ал-Қифтий, Абу-л-Ҳасан Али ибн Юсуф (ваф. 646/1248). Ахбор ал-уламо би-ахбор ал-ҳукамо (араб тилида). [Муҳаммад Амин ал-Хонжий таҳрири остида]. Қоҳира: «Саодат», 1326/1908. Б. 270; Ибн Абу Усайбиъа, Аҳмад ибн ал-Қосим ибн Халифа ал-Хазражий. Уюн ал-анбо фи табақот ал-атибо / Табиблар табақалари тўғрисида «Маълумотлар булоғи» асари (араб тилида). [Наззор Ризо таҳрири остида]. – Байрут: «Дор мактабат ал-ҳаёт», 1965.Б. 438; Нузҳат ал-арвоҳ. Б. 590.

[4] ал-Ансоб. 1-ж. Б. 78.

[5] Тариху ҳукамо ал-ислом / Ислом ҳакимлари тарихи (араб тилида). Муҳаммад Курд Али таҳрири остида. – Дамашқ: Тараққий, 1946.Б. 55.

[6] Шиҳобиддин Ёқут ибн Абдуллоҳ ал-Ҳамавий ар-Румий ал-Бағдодий. Муъжам ал-булдон / Мамлакатлар тўплами (араб тилида). 5 жилдлик. 3-ж. – Байрут: «Дору Содир», 1397/1977. Б. 223; Тарих ал-ислом ва вафаёт ал-машоҳир вал-аълом (311-320 ҳ. й. ҳодисалари). Б. 421.

[7] Тарих ал-ислом ва вафаёт ал-машоҳир ва-л-аълом (араб тилида) (351 – 380 ҳ.й. ҳодисалари). [Умар Абдуссалом Тадмирий таҳрири остида]. Биринчи нашр. Байрут: Дор ал-кутуб ал-арабия, 1992. Б. 119.

[8] Ибн Мокуло, Абу Наср Али ибн Ҳаббатуллоҳ ибн Жаъфар (ваф. 475/1082). ал-Икмол фи рафиъ ил-иртиёб ан-ал-муъталаф вал-мухталаф фи-л-асмо вал-куно ва-л-ансоб / Исмлар, кунялар ва насаблар тўғрисида бир хил ёки турли хил фикрга келинганда гумонни олиб ташлашга бағишланган «Тўлиқлаштириш» асари (араб тилида) [Нойиф ал-Аббос таҳрири остида]. 7 жилдлик. 7-жилд. – Байрут, 1967. Б. 329; Тарих ал-ислом ва вафаёт ал-машоҳир вал-аълом (301-310 ҳ. й. ҳодисалари). Б. 98.

[9] Ал-Икмол. 7-ж. Б. 354.

uchun o‘tirganlar[1]. Bundan tashqari kutubxonalar va kitob do‘konlari turli ilm sohalari talabalari yig‘iladigan markazlar ham hisoblanardi. Bu do‘konlar, kitob sotishdan tashqari, yuqorida aytib o‘tilganidek, kitob ko‘chirish, shuningdek, hadis tinglash va yozib olish markazlari ham hisoblangan[2]. Shayx ur-rais Abu Ali ibn Sino ham Buxoroning kitob bozori o‘xshashi yo‘q bo‘lganligi, undagi kitobfurushlarning aksariyati bilimli kishilar bo‘lganligi, ularning kitob do‘konlari esa bilim almashish va ilmiy bahs-munozaralar joyi bo‘lganligini eslatgan[3].

Kutubxonalar va kitob do‘konlaridan tashqari karvonsaroylar va rabotlar[4], ҳазиралар[5], xonaqohlar[6], suffalar (shiftli ayvonlar)[7], guzarlar[8], shifoxonalar va tibbiyot madrasalari[9] kabi boshqa madaniy va ijtimoiy muassasalar ham u yoki bu darajada tadqiqot va ta’lim markazlari vazifasini bajarganlar.

Bularning barchasi insoniyat tarixida, jumladan islom sivilizatsiyasida Buxoro fenomeni deb atalmish sivilizatsion hodisaning yuz berganligi to‘g‘risida gapirish uchun asos bo‘la oladi. Bu esa o‘z navbatida mazkur sivilizatsion hodisaning vujudga kelish va rivojlanish shart-sharoitlarini o‘rganish va ochib berishni taqozo etadi.

[1] Ахбор ал-уламо. Б. 270; Уюн ал-анбо. Б. 438; Нузҳат ал-арвоҳ. Б. 590.
[2] ал-Ансоб. 3-ж. Б. 523; ал-Қанд. Б. 196-197.
[3] Рованди, Муртазо. Эроннинг ижтимоий тарихи. Б. 234-235.
[4] Мақдисий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Аҳмад. Аҳсан ат-тақосим фи маърифат ал-ақолим [Араб тилидан Али Нақий Мунзавий таржимаси]. 2 жилдлик. 2-жилд. – Теҳрон: Муаллифлар ва таржимонлар компанияси, 1361/1982. Б. 482-488.
[5] Қушайрий, Абдулкарим ибн Ҳавозан. Рисолайи Қушайрия [Араб тилидан Абу Али Ҳасан ибн Аҳмад Усмоний таржимаси (XI а.); Бадиуззамон Фурўзонфар таҳрири остида]. – Теҳрон: «Илмий-маданий нашриёт», 1361/1982. Б. 21.
[6] Аҳсан ат-тақосим. 2-ж. Б. 482-488.
[7] ибн Нуқта, Муҳаммад ибн Абдулғани. Такмилат ал-икмол / «Тўлиқлаштириш» асарига қўшимча (араб тилида) / Абдулқаюм Абд Рабб ан-Набий томонидан нашрга тайёрланган. 3-жилд. – Макка: Марказ иҳё турос ал-исломий, 1408/1987. Б. 122.
[8] ал-Қанд. Б. 196-197.
[9] Савоқиб, Жаҳонбахш. Мусулмонлар ўртасида таълимнинг ривожланиши. Б. 175-176.

# LOTIN ILMIY AN'ANASIDA AHMAD FARG'ONIY HAQIDAGI TASAVVURLAR

## *("Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm" lotincha tarjimalari nashrlarining qiyosiy tahlili asosida)*

***OTABEK MAHMUDOV***
*Dotsent, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti*
*ORCID: 0000-0001-9897-2796*

***Annotatsiya.*** *Maqolada "Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm"ning XII–XVII asrlarda yaratilgan lotincha tarjimalari hamda ularning bosma nashrlari asosida Ahmad Farg'oniy shaxsiyati haqidagi Yevropadagi tasavvurlar tahlil qilingan. Tadqiqotda asarning 1493-yildagi Ferrara, 1537-yildagi Nyurnberg, 1546-yildagi Parij, 1590-yildagi Frankfurt va 1669-yildagi Amsterdam nashrlari qiyosiy o'rganilgan. Tadqiqot natijada Yevropa ilmiy muhitida Farg'oniy shaxsiyatiga doir dastlabki jiddiy qarashlar arabshunoslik ilmiy bosqichga ko'tarilgan XVI asr oxiri va XVII asrda shakllangani aniqlangan. Bu jarayonda "Elementa Astronomica" nomi bilan mashhur Amsterdam nashri alohida ahamiyat kasb etgan. Jumladan, Yakob van Golning 1669-yilgi nashri chuqur filologik va tarixiy yondashuvi bilan ajralib turadi. Unda Farg'oniy qadimgi astronom sifatidagina emas, balki arabcha asl matn asosida qayta tiklanishi lozim bo'lgan ishonchli muallif va islomiy Sharq astronomik an'anasining muhim vakili sifatida talqin qilingan. Shuningdek, Y. van Gol Yevropa ilmiy an'anasida Farg'oniyning vatani aynan Farg'ona ekanini birinchi bo'lib to'g'ri aniqlab, uning geografik kelib chiqishini G'arb ilmida mustahkam asosda belgilab bergani dalillangan. Maqolada muallifning 1669-yilgi nashr noshirlari haqidagi 2019-yilda e'lon qilingan xulosalariga ham yangi tadqiqotlar asosida aniqlik kiritilgan. Bundan tashqari, ishga XII asrda yaratilgan va bugungi kunda Yevropa fondlarida saqlanayotgan "Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm" lotincha tarjimalarining 72 ta qo'lyozma nusxasidan iborat ilk batafsil ro'yxat ilova qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *Ahmad al-Farg'oniy, "Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm", Farg'ona, Kristmann, van Gol, lotincha tarjimalar, Sevilyalik Xuan, Kremonalik Jerard, Ferrara, Nyurnberg, Parij, Frankfurt, Amsterdam.*

***Abstract.*** *The article examines European perceptions of Aḥmad al-Farghānī's scholarly identity on the basis of the Latin translations of "Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm" produced between the twelfth and seventeenth centuries, as well as their printed editions. The study offers a comparative analysis of the Ferrara edition of 1493, the Nuremberg edition of 1537, the Paris edition of 1546, the Frankfurt edition of 1590, and the Amsterdam edition of 1669. The findings demonstrate that the first substantial reflections on Aḥmad al-Farghānī's intellectual profile within the European scholarly milieu emerged only in the late sixteenth and seventeenth centuries, when Arabic studies had begun to assume a more fully developed scholarly character. In this process, the Amsterdam edition, widely known under the title "Elementa Astronomica", played a particularly significant role. Jacobus Golius' 1669*

*edition, in particular, stands out for its markedly philological and historical approach. In this edition, al-Farghānī was interpreted not merely as an ancient astronomer, but as a reliable author whose text ought to be restored on the basis of the Arabic original, and as an important representative of the astronomical tradition of the Islamic East. The article also demonstrates that J.Golius was the first scholar in the European intellectual tradition to identify correctly Farghāna as al-Farghānī's homeland, thereby establishing on a firmer scholarly basis the true geographical origin of the author in Western scholarship. In addition, the study revises the author's conclusions, first published in 2019, concerning the publishers of the 1669 edition, drawing on new and more in-depth research. Finally, the article includes as an appendix the first detailed list of 72 manuscript copies of the Latin translations of "Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm", produced in the twelfth century and currently preserved in European collections.*

***Key words:*** *Aḥmad al-Fargānī, "Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm", Farghāna, Christmannus, Golius, Latin translations, Joannes Hispalensis, Gerardus Cremonensis, Ferrara, Nuremberg, Paris, Frankfurt, Amsterdam.*

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются представления об учёной личности Ахмада ал-Фергани, сложившиеся в Европе на основе латинских переводов "Китāб фī усӯл 'илм ан-нуджӯм", созданных в XII–XVII веках, а также их печатных изданий. В исследовании проведён сравнительный анализ изданий, вышедших в Ферраре в 1493 году, Нюрнберге в 1537 году, Париже в 1546 году, Франкфурте в 1590 году и Амстердаме в 1669 году. Полученные результаты показывают, что первые по-настоящему серьёзные суждения о научной личности Ахмада ал-Фергани в европейской интеллектуальной среде сформировались лишь в конце XVI и в XVII веке, когда арабистика стала приобретать признаки зрелой научной дисциплины. Особо важную роль в этом процессе сыграло амстердамское издание, широко известное под названием "Elementa Astronomica". В особенности издание Якоба ван Гола 1669 года выделяется своим выраженным филологическим и историческим подходом. В нём ал-Фергани трактуется уже не просто как древний астроном, а как надёжный автор, текст которого должен быть восстановлен на основе арабского оригинала, и как важный представитель астрономической традиции исламского Востока. В статье также показано, что именно Я. ван Голь первым в европейской научной традиции правильно установил, что родиной ал-Фергани была Фергана, тем самым заложив более прочную научную основу для определения подлинного географического происхождения учёного в западной науке. Кроме того, в статье уточняются выводы автора, опубликованные в 2019 году, относительно издателей выпуска 1669 года на основе новых и более углублённых исследований. Наконец, в качестве приложения в статье приводится первый подробный список 72 рукописного экземпляра латинских переводов "Китāб фī усӯл 'илм ан-нуджӯм", созданных в XII веке и ныне хранящихся в европейских собраниях.*

***Ключевые слова:*** *Ахмад ал-Фергани, "Китāб фī усӯл 'илм ан-нуджӯм", Фергана, Кристманн, ван Голь, латинские переводы, Иоанн Севильский, Герард Кремонский, Феррара, Нюрнберг, Париж, Франкфурт, Амстердам.*

## KIRISH / INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ

“Yevropada Sharq olimlari asarlarini o‘rganishda o‘rta asr arabshunoslik tarjima markazlarining o‘rni” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi doirasida olib borilgan tadqiqot natijalaridan biri shuki, XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda faoliyat yuritgan arabshunos tarjimonlar musulmon Sharqi allomalari shaxsiyatiga oid ma’lumotlarga ega bo‘lmaganliklari sababli o‘z ishlarida arab tilidagi asar muallifining biografiyasiga doir ma’lumotlarni qayd etmaganlar. Ayni holat sharqlik mutafakkirlarni XIV–XVI asr yevropalik tarixchilar tomonidan G‘arb olimlari sifatida ta’riflanishiga hamda ularning sun’iy tarjimai holi yaratilishiga olib kelgan. Natijada lotin tilli solnomalarda allomalarning shaxsiyatiga oid to‘qima va afsonaga asoslangan, misol uchun Ibn Sino (980–1037) – Sevilya, Qurtuba va Kichik Osiyo qiroli, Abu Mash’ar Balxiy (787–886) – afinalik, Abu Bakr Roziy (865–925) esa afrikalik ekanligi, Ibn Sinoni Ibn Rushd (1126–1198) tomonidan zaharlaganligi kabi tarixiy haqiqatga zid ma’lumotlar shakllangan. Biz bu boradagi ayrim tahlillarni bir qator markaziy jurnal va xalqaro anjumanlarda[1] e’lon qildik.

XII–XVII asrlarda Yevropa ilmiy muhitida katta shuhrat qozongan mintaqamiz allomalaridan biri Ahmad Farg‘oniy (taxm. 798–865) bo‘lib, uning *“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”* (“Falakiyot ilmi asoslari haqida kitob”) nomli asari lotincha tarjimalari orqali mintaqa bo‘ylab keng tarqalib, sohadagi eng muhim qo‘llanmaga aylanganligi tarixdan yaxshi ma’lum.

Qayd etish joizki, fan tarixida Ahmad Farg‘oniy ismi ancha mashhur bo‘lsa-da, uning hayoti va shaxsiyatiga oid ma’lumotlar juda kam. Bu borada mavjud ma’lumotlarning asosiy qismi, odatda, mashhur tarixchilar Ibn Nadim (taxm. 932–995)ning *“Kitāb al-Fihrist al-ʿulūm”*[2] (“Ilmlar bibliografiyasi oid kitob”), Ibn Qiftiy (1172–1248)ning *“Iḫbār al-ʿulamāʾ bi-aḫbār al-ḥukamāʾ”* [3] (“Hakimlarga oid xabarlar bilan olimlarni tanishtirish”), Ibn Usaybi’a (1200–1270)ning *“ʿUyūn al-*

[1] Mahmudov O.V. Shayx ar-raislikdan Qurtuba qirolligigacha: Ibn Sino siymosining lotin mediyevistikasidagi interpretatsiyalari. // Fan va turmush. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2025. – № 4. – B. 28-35; Makhmudov O.V. In Latin-language sources Ibn Sinā – as a European King: reasons to describe and clarifications to them. // Collection of scientific articles of the International scientific conference on theme «Issues of the Central Asian History of World Historiography». – Fergana: Fergana University Press, – London: OMNI Scriptum, 2022. – P. 213-229; Makhmudov O.V. Avicienna – The King of Sevilla and Cordova. // Proceedings of the 18th International Academician U.Karimov Conference of Young Orientalists “Current conditions of the preservation and research of Ancient written Sources”. – Istanbul: IRCICA, 2024. – P. 117-125.

[2] Ibn an-Nadim. The Fihrist. – 2 vols. / ed. and tr. B.Dodge. – New York & London: Columbia University Press, 1970. – 1186 p.

[3] Al-Qifṭī Jamāl al-Dīn Abū al-Ḥasan ʿAlī ibn Yūsuf ibn Ibrāhīm al-Shaybānī. Iḫbār al-ʿulamāʾ bi-aḫbār al-ḥukamāʾ / Taḥqīq: Ibrāhīm Shams al-Dīn. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-ʿIlmiyyah, 2005. – 324 ṣ.

*anbāʾ fī ṭabaqāt al-aṭibbāʾ”*[1] (“Tabiblarning toifalariga oid asosiy xabarlar”), Ibn Xallikan (1211–1286)ning *“Vafayāt al-aʿyān va-anbāʾ abnāʾ al-zamān”*[2] “Mashhur kishilar vafoti va zamondoshlar haqidagi xabarlar”), Abu-l-Faraj ibn Horun (1226–1286)ning *“Tārīḫ Muḫtaṣar al-duval”*[3] (“Davlatlar tarixining muxtasar bayoni”) nomli biobibliografik asarlarida uchraydigan qisqa qaydlarga tayanadi.

Ammo, ayni manbalardagi ma’lumotlar alloma tarjimai holini to‘liq va qat’iy shakllantirish uchun yetarli asos bermaydi. Shu sababdan tarixshunoslikda Ahmad Farg‘oniy shaxsiyati haqidagi ilmiy tasavvurlar ko‘p hollarda bevosita biografik dalillarga emas, balki olim asarlari, ularga yozilgan sharhlar hamda keyingi davr mualliflarining qisqa eslatmalari va ilmiy an’anada shakllangan taxminiy qarashlarga tayanib talqin etiladi. Mazkur jihat mavjud qaydlarning qay darajada ishonchli, o‘zaro bog‘liq va tarixiy rekonstruksiya uchun yaroqli ekanini aniqlash zaruratini yuzaga chiqaradi.

Ayni paytda, Ahmad Farg‘oniyning Yevropa ilmiy muhitida, avvalo, *“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”* asarining lotincha tarjimalari vositasida tanilishi, uning shaxsiyati va ilmiy maqomiga doir tasavvurlar Sharq manbalari negizida shakllanganmi yoki, XIV–XVII asrlar lotin solnomachiligi an’analariga xos ravishda sun’iy ravishda qayta konstruksiya qilinganmi, degan masalani ham dolzarb ilmiy muammo sifatida kun tartibiga qo‘yadi. Binobarin, Ahmad Farg‘oniy haqidagi tarixiy-bibliografik ma’lumotlarni arab manbalari va lotin tarixshunosligi materiallari asosida qiyosiy hamda tanqidiy tahlil qilish, alloma shaxsiyatining tarixiy qiyofasi va uning o‘rta asr hamda yangi davr Yevropa ilmiy ongidagi talqinini aniqlash nuqtai nazaridan muhim ilmiy muammo hisoblanadi.

**TADQIQOT USULLARI / RESEARCH METHODS / МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ**

Mavzuni yoritishda tarixiylik tamoyili, tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, muammoviy-xronologik, tasniflash, kompleks yondashish kabi usullardan foydalanilgan.

[1]Ibn Abī Uṣaybi’ah. Uyūn ul-Anbā fī Ṭabaqāt ul-Aṭibbā. Lives of the physicians. / ed. Ibn Al-Tahhan. – Cairo: Al-Wahbah Printing Press, 1882. – 406 p.

[2]Ibn Khallikan. Biographical Dictionary. – Vol. I. / tr. Baron Mac Guckin de Slane. – Paris: Oriental Translation Fund of Great Britain and Ireland, 1842. – 734 p.; Ibn Khallikan. Biographical Dictionary. – Vol. II. / tr. Baron Mac Guckin de Slane. – Paris: Oriental Translation Fund of Great Britain and Ireland, 1843. – 718 p.; Ibn Khallikan. Biographical Dictionary. – Vol. III. / tr. Baron Mac Guckin de Slane. – Paris: Oriental Translation Fund of Great Britain and Ireland, 1868. – 708 p.

[3]Abū al-Faraj ibn Hārūn. Taʾrīḫ muḫtaṣar al-duval. Historia compendiosa dynastiarum. / Arabice edita et latine versa ab Eduardo Pocockio. – Oxoniae: excudebat H.Hall Celeberrimae Academiae typographus, impensis Ric. Davis, 1663. – 1102 p.

## NATIJALAR / RESULTS / РЕЗУЛЬТАТЫ

Ahmad Farg‘oniyning *“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”*asari 30 bobdan iborat bo‘lib, unda astronomiyaning asosiy masalalari to‘g‘risida so‘z yuritilib, muallif davridagi sohaga oid barcha jihatlar qamrab olingan. Asar ilk marotaba 1135-yilda Toledo maktabida Sevilyalik Xuan (1090–1150) tarafidan *“Rudimentis astronomiae”* (“Astronomiya asoslari”) nomi bilan lotin tiliga o‘girilgan. Ikkinchi tarjima esa maktabning yana bir mashhur vakili Kremonalik Jerard (1114–1187)ga tegishli. 1175-yilda amalga oshirilgan mazkur tarjima *“De rudimentis astronomiae”* (“Astronomiya asoslari haqida”) deb nomlangan.

Hozirga qadar yurtimizda e’lon qilingan tadqiqotlarda mazkur ikki tarjimaning turli davrlarda ko‘chirilgan o‘nga yaqin qo‘lyozma nusxalari mavjudligi qayd etib kelinadi. F.J.Carmodi (1907–1982) esa o‘zining mashhur katalogida [1] ushbu tarjimalarning Yevropa va AQSh fondlarida saqlanayotgan jami 51 ta qo‘lyozma nusxasi ro‘yxatini keltirgan. Mazkur yo‘nalishdagi dastlabki tadqiqotlarimiz natijasida Yevropa fondlarida ushbu ikki tarjimaning turli nomlar ostida saqlanayotgan jami 31 ta nusxasi aniqlanib, mazkur ro‘yxat akademik U.Karimov nomidagi Sharqshunoslar xalqaro konferensiyasining joriy yilda bo‘lib o‘tgan XXI anjumanida ilmiy jamoatchilikka taqdim etilgan edi.

Keyingi izlanishlar davomida esa ushbu ikki tarjimaning Yevropa fondlarida saqlanayotgan yana 41 ta qo‘lyozma nusxalari aniqlandi. Shundan kelib chiqib, avval e’lon qilingan ro‘yxatimizni to‘ldirish maqsadida mazkur maqola so‘ngida jami 72 ta qo‘lyozmaning ikki tarjimon kesimidagi mufassal ro‘yxati ilova qilinadi. Qayd etish joizki, ushbu ro‘yxat hozirga qadar Farg‘oniy asari lotincha tarjimalarining eng mukammal va mufassal katalogi sifatida baholab kelinayotgan F.J.Carmodi ro‘yxatini yangi qo‘lyozmalar bilan boyitadi hamda uni qo‘lyozmalarning nomlanishi, mansublik davri, saqlanish o‘rni va kodikologik tavsiflariga oid ma’lumotlar bilan to‘ldiradi. Masalan, F.J.Carmody o‘z katalogida Sevilyalik Xuan tarjimasiga mansub qo‘lyozmalarni umumiy holda *“De scientia astrorum”* (“Astronomiya ilmi haqida”), Kremonalik Jerard tarjimasi nusxalarini esa *“Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum”* (“Yulduzlar ilmi majmualari va osmon jismlari harakatlari asoslari haqidagi kitob”) nomi ostida keltiradi. Holbuki, mazkur tarjimalarning qo‘lyozma nusxalari turli fond va kutubxonalarda bir-biridan farq qiluvchi nomlar bilan saqlanadi.

Aniqlangan qo’lyozmalarning 41 tasi Sevilyalik Xuanga, 31 tasi esa Kremonalik Jerard tegishli. Ulardan Jerard tarjimasi hisoblangan Salamanka universiteti tarix kutubxonasida (MS 2051: fols. 1r–13v) saqlanayotgan nusxa o‘zining noyob tarkibiy va matniy xususiyatlari bilan alohida ahamiyat ega. Jumladan, unda tarjimonning asarda bayon qilingan ma’lumotlarga doir tahliliy qaydlari, shuningdek, jadval

[1]Carmody F.J. Arabic Astronomical and Astrological Sciences in Latin Translation: A Critical Bibliography. – Berkeley: California University Press, 1956. – P. 114-115.

shaklida berilgan qo‘shimcha izohlari mavjud. Mazkur nusxa shu paytgacha ilmiy muomalaga to‘liq kiritilmaganligi sababli, unda Ahmad Farg‘oniy asarining lotincha tarjima an’anasiga oid yangi va muhim dalillar saqlanganligining ehtimoli ancha yuqori. Shu bois ushbu qo‘lyozmaning alohida tadqiqiga bag‘ishlangan natijalarni keyingi ishlarimizda e’lon qilish ko‘zda tutilmoqda.

Muhim jihati shundaki, yuqorida qayd etilgan lotincha tarjima qo‘lyozmalarining birortasida ham Ahmad Farg‘oniy shaxsiyati, hayoti yoki ilmiy faoliyatiga doir bevosita ma’lumotlar uchramaydi. Aksariyat hollarda kolofon va kirish qaydlarida asar muallifidan ko‘ra tarjimon hamda uning homiysi yoki tarjima buyurtmachisi haqida ma’lumot beriladi, xolos. Jumladan, Sevilyalik Xuan tarjimasi odatda Toledo arxiyepiskopi Raymondo de Salveta (1125–1152)ga[1], Kremonalik Jerard tarjimasi esa arxiyepiskop Xuan Kastelmoron (1152–1166)ga[2] bag‘ishlanganligi qayd etilgan. Boshqa ayrim qo‘lyozmalarda esa hech qanday biografik yoki tarixiy izoh berilmay, matn odatiy rubrika bilan – *“Incipit liber Alfragani in quo sunt 30 capitula...”*[3] (“al-Farg‘oniyning 30 bobdan iborat kitobi quyidagicha...”) – deb boshlanadi. Shundan so‘ng asarning tarkibiy tuzilishi bayon qilinib, o‘ttiz bob sarlavhasi ketma-ket sanaladi, so‘ng har bir bobning lotincha matni keltiriladi.

Sevilyalik Xuan tarjimasi ilk bor 1493-yilda Italiyaning Ferrara shahrida yuqoridagi uslub kabi qo’shimcha izohlarsiz chop etilgan. *“Brevis ac perutilis compilatio Alfragani astronomorum peritissimi, totum id continens quod ad rudimenta astronomica est opportunum”* [4] (“Astronomiya ibtidosi uchun zarur bo‘lgan barcha masalalarni qamrab olgan, astronomlar orasida eng yetuklardan bo‘lgan al-Farg‘oniyning qisqa va juda foydali qo‘llanmasi”) deb nomlangan mazkur nashr sohadagi dastlabki urinishlardan biri bo‘lganligi bois, unda qator kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, nashrda ayrim o‘rinlarda so‘z va jumlalar tushirib qoldirilgan. Misol uchun, asarning “yoritqichlar sferasining shakli, tarkibi va ularning Yerdan uzoqlik darajalari”ga oid 12-bobida keltirilgan ma’lumotlar nashrga to’liq holatda kiritilmagan. Bunday holat asarning 15, 18–20, 28-boblari misolida ham kuzatiladi. Shuningdek, nashrda bosh harflar uchun qoldirilgan bo‘sh joylar

[1]Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – (1) Ii 1.13 (1705): fols. 100r–109v.; (2) Kk 1.1 (1935): fols. 212r–222v. || Cambridge University Library, Cambridge, UK.

[2]Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Gerardus Cremonensis. – (1) MS 10009 (ol. Toledo 98-20): fols. 70va–84vb.; (2) MS 10053 (ol. Toledo 98-21): fols. 19ra–27ra. || Biblioteca Nacional de España, Madrid, Spain.

[3]Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – Reg. lat. 1241: fols. 47r–107v. || Biblioteca Apostolica Vaticana, Vatica.; Alfraganus. Liber de aggregationibus scientiae stellarum. / tr. Gerardus Cremonensis. – Pal. lat. 1376: fols. 238r–253v. || Biblioteca Apostolica Vaticana, Vatican.

[4]Alfraganus. Brevis ac perutilis compilatio Alfragani astronomorum peritissimi, totum id continens quod ad rudimenta astronomica est opportunum. / tr. Joannes Hispalensis. – Ferrara: Andreas Belfortis, 1493. – 110 p.

to‘ldirilmagani, rubrikatsiya amalga oshirilmagani, ksilografik tasvirlarning ayrim sahifalarda bo‘yalgan, ayrimlarida esa bo‘yalmagan holda qolib ketgan. Mazkur belgilar 1493-yilgi inkunobula[1] nashrning noshiri Andrea Belfortis (1471–1493) matnni nuqsonli qo‘lyozma asosida tayyorlaganini hamda bosmaxona ish jarayonida nazorat va tahrir ishlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, ayni nashr Yevropada Ahmad Farg‘oniy haqidagi dastlabki tasavvurlar qanday shakllanganini yoritishda kichik, ammo, muhim dalillarni o‘zida mujassam etadi. Xususan, ichki zarvaraqning orqa tomonida alloma qo‘lida kitob ushlab o‘tirgan holatda tasvirlangan ksilografik frontispis[2] berilgan bo‘lib, unda Ahmad Farg‘oniy boshiga salla o‘ragan sharqlik donishmand sifatida gavdalantiriladi. Bu hol XV asr Yevropa intellektual muhitida allomaning kelib chiqishi va madaniy mansubligi haqidagi umumiy tasavvurlar (Abu Ma’shar Balxiy yoki Ibn Sino obrazlaridan farqli ravishda) nisbatan to‘g‘ri shakllanganini anglatadi. Bundan tashqari, kolofonda keltirilgan *“Opus praeclarissimum consumatissimumque introductorium in astronomiam explicit, quod peritissimus astronomus Alfraganus edidit”* (“Astronomiyaga kirish bo‘yicha nihoyatda mashhur va mukammal ushbu asar yakunlandi, unga eng mohir astronom Farg‘oniy tartib bergan”)[3] jumlasi ham Ahmad Farg‘oniyning G‘arb ilmiy an’analarida yuqori nufuzga ega bo‘lgani va keng tanilganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Sevilyalik Xuan tarjimasi 1537-yilda Nyurnbergda Iogann Shyoner (1477–1547) tahriri ostida *“Rudimenta astronomica Alfragrani”*[4] (“Farg‘oniynning astronomik asoslari”) nomi bilan chop etilgan. Ayni nashrga Muhammad Battoniy (858–929) qalamiga mansub *“Kitāb az-Zīj aṣ-Ṣābi’”* nomli asarni Tivolalik Platon (XII asr) yaratgan lotincha (*“De motu stellarum”* (“Yulduzlar harakati to‘g‘risida”) tarjimasining mashhur nemis olimi Regiomontan, ya’ni Iogann Myuller (1436–1476) qo‘shimchalari asosida qayta ishlangan varianti, shuningdek, Filipp Melanxton

[1]Izoh: Inkunobula (lot. incunabula, birlik shakli: incunabulum) – kitobshunoslik va matbaachilik tarixida Yevropada bosma kitob chop etish san’atining ilk davriga mansub, 1500-yil oxirigacha bosilgan nashrlarni anglatuvchi ilmiy atama hisoblanadi. U lotin tilida “beshik”, “ilk bosqich”, “go‘daklik davri” ma’nolarini bildiradi va shu sababli u “bosmachilikning ilk bosqichi mahsuli” degan mazmunda qo‘llanadi.

[2]Izoh: Ksilografik frontispis – kitobning titul varag‘i yoki uning orqa qismida joylashgan, yog‘och o‘ymakorligi asosidagi bosma usulda ishlangan tasviriy sahifa.

[3]Alfraganus. Brevis ac perutilis compilatio Alfragani astronomorum peritissimi, totum id continens quod ad rudimenta astronomica est opportunum. / tr. Joannes Hispalensis. – Ferrara: Andreas Belfortis, 1493. – P. 104.

[4] Alfraganus. Continentur in hoc libro: Rudimenta astronomica Alfragani. Item Albategnius astronomus peritissimus de motu stellarum ex observationibus tum propriis, tum Ptolemaei, omnia cum demonstrationibus geometricis et additionibus Ioannis de Regiomonte; item Oratio introductoria in omnes scientias mathematicas; item introductio in elementa Euclidis; item Epistola Philippi Melanthonis nuncupatoria. / tr. Joannes Hispalensis. – Norimbergae: apud Ioannem Petreium, 1537. – 257 p.

(1497–1560)ning Nyurnberg senatiga yo'llagan maktubi hamda Regiomontanning matematik fanlar bayoniga bag'ishlangan ma'ruza matni ham kiritilgan.

Nashrga muqaddima tarzida keltirilgan F.Melanxton maktubida matematika va astronomiya ilmlarining ahamiyati, Nyurnbergda ilm-fan rivojiga qaratilayotgan e'tibor xususida so'z yuritiladi. Maktubda Ahmad Farg'oniy yoki uning asari haqida bevosita, nomma-nom bibliografik yoki biografik qaydlar uchramasa-da, ayni jildda chop etilayotgan Farg'oniy va Battoniy asarlari umumiy holda *"cum hos libellos, plenos eruditionis, & verae philosophiae"*[1] ("ilm va haqiqiy falsafa bilan to'la kitoblar") sifatida maqtaladi. F.Melanxton ushbu asarlar I.Shyonerning sinchkov tahriri bilan tuzatilgan holda chop etilayotganligini *("prodeunt emendati diligentia uiri doctissimi Ioannis Schoneri")*[2] ta'kidlaydi. Biroq matnlarning qiyosiy tahlili ushbu nashrga kiritilgan Farg'oniy asarining tarjimasi yuqorida tahlil qilingan 1493-yilgi nashr asosida ekanligidan dalolat bermoqda. Shu sababdan ham Farg'oniy asarining tarjimasi keltirilgan qismda alloma shaxsiyatiga oid biror bir qayd uchramaydi.

Nyurnberg nashrining e'tiborga molik jihatlaridan biri shundaki, unda Regiomontanning Ahmad Farg'oniyga doir umumiy tasavvurlari o'z ifodasini topgan nutq matni[3] ham keltirilgan. *"Oratio Iohannis de Monteregio, habita Patavii in praelectione Alfragani"* ("Monteregiolik Iogannning Farg'oniy asariga bag'ishlab Paduyada o'qigan ma'ruzasi") deb nomlangan ushbu matn, bir qarashda, bevosita Farg'oniy asarining mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan ma'ruzadek taassurot uyg'otadi. Shu bois ham ayrim tadqiqotlarda, jumladan, mashhur fan tarixchisi F.Sezgin (1924–2018) ishlarida, Regiomontan 1464-yilda Paduya universitetida o'qigan ma'ruzalarini aynan Farg'oniy asari asosida bayon qilgan, degan fikr ilgari surilgan[4]. Bunday qaydlarni turk tarixchisiga asoslangan ayrim zamonaviy tadqiqotlarda[5] ham uchratish mumkin. Biroq yuqoridagi holat F.Sezgin va unga ergashgan fan tarixchilarining Regiomontan ma'ruzasi matni bilan bevosita tanish bo'lmaganliklarini, demakki, bu boradagi xulosalari ko'proq nashr

[1]Yuqoridagi asar. – B. 1.
[2]O'sha joyda.
[3]Yuqoridagi asar. – B. 6-11.
[4]Al-Farġānī Aḥmad ibn Muḥammad ibn Kathīr al-Jawāmiʿ ʿilm al-nujūm wa-uṣūl al-ḥarakāt al-samāwīya: (Text arabisch und lateinisch). / Herausgegeben als Elementa astronomica mit lateinischer Übersetzung von Jacobus Golius; Nachdruck der Ausgabe Amsterdam 1669. / Herausgegeben von Fuat Sezgin. – Frankfurt am Main: Institut für Geschichte der Arabisch-Islamischen Wissenschaften, 1986. – S. 6; Sezgin F. Geschichte des arabischen Schrifttums. – Bd. VI. Astronomie. – Leiden: E.J.Brill, 1978. – S. 149-151.
[5]Abdukhalimov B. Aḥmad al-Farghānī and His "Compendium of Astronomy". // Journal of Islamic Studies. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – Vol. 10, No. 2. – P. 143; Абдуҳалимов Б.А. «Байт ал-ҳикма» ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 202.

sarlavhasi va unga yondosh paratekstual[1] qaydlarga tayangan holda shakllanganini anglatmoqda. Darhaqiqat, nashr zarvarag‘ida *“...cum Alfragannum publice praeleggeret”* (“Farg‘oniyni omma oldida o‘qib-sharhlab bergan paytida”), ma’ruza sarlavhasida esa *“habita Patavii in praelectione Alfragani”*[2] (“Farg‘oniy asariga bag‘ishlab Paduyada o‘qilgan”) degan iboralar qo‘llangan bo‘lsa-da, matnning real mazmuni bundan birmuncha farq qiladi. Chunki ushbu nutqda asosiy e’tibor Farg‘oniy asarining ichki tuzilishi yoki ilmiy mazmunini izchil sharhlashga emas, balki matematika va astronomiya fanlarining qadimgi davrlardan XV asrgacha bo‘lgan taraqqiyotini umumiy tarixiy-ilmiy kontekstda qisqacha yoritishga qaratilgan.

Chunonchi, Regiomontan nutqida Ahmad Farg‘oniyga doir qaydlar son jihatidan ko‘p emas, biroq mazmunan nihoyatda muhimdir. Muallif avvalo o‘z nutqining kompozitsion yo‘nalishini belgilarkan, *“ad primordia Alfragani, qui nudam totius Astronomiae tradit historiam”* [3] (“butun astronomiyaning sodda tarixini bayon qiluvchi Farg‘oniyning ibtidosiga o‘tamiz”), deya alloma asarini astronomik bilimlarga kirish uchun qulay boshlang‘ich nuqta sifatida ko‘rsatadi. Bu yerda *“nudam ... historiam”* iborasi Farg‘oniy matnining murakkab nazariy munozaralardan ko‘ra, fan asoslarini ixcham va ravshan shaklda taqdim etuvchi didaktik xususiyatiga urg‘u beradi. Keyingi o‘rinda Regiomontan: *“Alfragano deinceps nudam Astronomiae scribenti historiam, ingentes habebimus gratias, si doctrinam eius senserimus”* [4] “Astronomiya tarixini tushunarli yozib bergan Farg‘oniyga, agar uning ta’limotini anglasak, katta minnatdorlik bildiramiz”), deya farg‘onalik allomani astronomiya ilmini tushuntirib beruvchi ishonchli muallif sifatida baholaydi. Nihoyat, nutq yakunida u *“Alfraganum insignem Astronomiae historicum ... salutemus”*[5] (“astronomiya tarixining mashhur muarrixi Farg‘oniyni qutlab qo‘yaylik”), deb ta’kidlaydi. Mazkur uchala ibora birgalikda shuni ko‘rsatadiki, Regiomontan nazarida Farg‘oniy, avvalo, astronomik bilimni tartibli, qisqa va o‘quv jarayoniga mos shaklda jamlab bergan yirik sharq muallifidir. Demak, Regiomontan Farg‘oniyni yangi ilmiy tizim yaratuvchisidan ko‘ra, yunon va musulmon astronomik merosini lotin ilmiy muhitiga tushunarli shaklda olib kirgan

[1]Izoh: Paratekst – adabiyotshunoslik, matnshunoslik va nashr nazariyasida asosiy matnni o‘rab turuvchi, unga hamroh bo‘luvchi va uni o‘quvchiga taqdim etish hamda talqin qilishga xizmat qiluvchi qismlar majmuini anglatuvchi ilmiy tushuncha.

[2] Alfraganus. Continentur in hoc libro: Rudimenta astronomica Alfragani. Item Albategnius astronomus peritissimus de motu stellarum ex observationibus tum propriis, tum Ptolemaei, omnia cum demonstrationibus geometricis et additionibus Ioannis de Regiomonte; item Oratio introductoria in omnes scientias mathematicas; item introductio in elementa Euclidis; item Epistola Philippi Melanthonis nuncupatoria. / tr. Joannes Hispalensis. – Norimbergae: apud Ioannem Petreium, 1537. – P. 6.

[3]Yuqoridagi asar. – B. 7.

[4]Yuqoridagi asar. – B. 10.

[5]Yuqoridagi asar. – B. 16.

nufuzli didaktik muallif va astronomiya tarixini bayon etishda ishonchli manba sifatida tasavvur qilgan. Shunday ekan, mazkur ma’ruzani Farg‘oniy asariga yozilgan maxsus sharh sifatida emas, balki Regiomontanning matematika va astronomiya fanlari tarixiga doir umumiy qarashlarini ifoda etuvchi matn sifatida baholash to‘g‘riroq bo‘ladi. Bu nutqda Farg‘oniy nomi asarning ichki mazmunini batafsil tahlil qilish obyekti emas, balki astronomik bilimlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va ta’limiy ahamiyati haqidagi mulohazalarni bayon etishga xizmat qilgan kompozitsion hamda konseptual kirish nuqtasi vazifasini bajargan.

Sevilyalik Xuan tarjimasining uchinchi bosma nashri 1546-yilda Parijda Kristian Vehel (1495–1554) bosmaxonasida chop etilgan. *“Alfragani astronomorum peritissimi compendium, id omne quod ad astronomica rudimenta spectat complectens”* [1] (“Astronomlar orasida eng mohirlaridan bo‘lgan Farg‘oniyning astronomiya asoslariga oid barcha masalalarni qamrab olgan qisqacha bayoni”) nomi bilan e’lon qilingan mazkur nashr, 1493-yilgi variant singari, alohida kirish va izohlarsiz tuzilgan bo‘lib, zarvaraqdan so‘ng to‘g‘ridan to‘g‘ri asar boblarining sarlavhalari ketma-ket sanab o‘tiladi. Biroq uning sarlavha paratekstida ushbu matnning Sevilyalik Xuanga mansubligi hamda nashr “juda qadimiy nusxa” bilan qiyoslanib, ko‘plab o‘rinlarda tuzatilgan holda qayta e’lon qilingani *(“Ioanne Hispalensi interprete, nunc primum pervetusto exemplari consulto, multis locis castigatius redditum”)* qayd etilgan. Shu jihatdan 1546-yilgi Parij nashri Sevilyalik Xuan tarjimasining mualliflik nisbatini aniq ifodalashi va matnning tahririy jihatdan qayta ko‘rib chiqilganini ta’kidlashi bilan avvalgi bosma variantlardan ajralib turadi. Jumladan, qiyosiy tahlil natijalari ayni nashrga 1493 va 1537-yildagi matnlarda tushirib qoldirilgan yoritqichlar sferasining shakli, tarkibi va ularning Yerdan uzoqlik darajalari (12-bob), beshta harakatlanuvchi yoritqichning epliktika bo‘yicha qaytma harakati (15-bob), qo’zg’almas yoritqichlar va sayyoralarning kenglik bo’yicha harakati va soni (18–19-boblar), Oy manzillari va uning tutilishiga (20 va 28-boblar) oid ma’lumotlar toliq holatda kiritilgan.

Ma’lumot o‘rnida qayd etish joizki, Kremonalik Jerard tarjimasi faqat 1910-yildagina bosma shaklda e’lon qilingan[2]. Shu bois mazkur nashrning muharriri hisoblangan italiyalik sharqshunos Romeo Kampani (taxm. 1885–1931) arab tilidagi manbalarga tayangan holda Ahmad Farg‘oniy haqida ayrim bio-bibliografik ma’lumotlarni ham keltiradi. Biroq mazkur nashr Yevropada arabshunoslik tadqiqotlari akademik mezonlar asosida shakllanib bo‘lgan zamonaviy davr mahsuli

[1] Alfraganus. Alfragani astronomorum peritissimi compendium, id omne quod ad astronomica rudimenta spectat complectens, Ioanne Hispalensi interprete: nunc primum pervetusto exemplari consulto, multis locis castigatius redditum. – Paris: ex officina Christiani Wecheli, 1546. – 109 p.

[2] Alfragano. Il “libro dell’aggregazione delle stelle” (Dante, Conv., II, VI–134) secondo il Codice Mediceo-Laurenziano Pl. 29, Cod. 9 contemporaneo a Dante. / Pubbl. con introduzione e note da Romeo Campani. – Città di Castello: S.Lapi, 1910. – 175 p.

bo‘lgani uchun, maqolaning xronologik doirasi va tadqiqot maqsadidan kelib chiqib u maxsus tahlilga tortilmadi.

**MUHOKAMA / DISCUSSION / ОБСУЖДЕНИЕ**

*“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”*ning lotincha tarjimalari va ularning bosma nashrlari tahlili shundan dalolat bermoqdaki, Yevropa ilmiy muhitida Ahmad Farg‘oniy shaxsiyatida oid dastlabki jiddiy tahlillar mintaqada arabshunoslik ilmiy bosqichga ko‘tarilgan XVI asr oxiri – XVII asrda amalga oshirilgan. Ayni tahlillar alloma asarining 1590-yildagi Frankfurt[1] hamda 1669-yildagi Amsterdam[2] nashrlarida e’lon qilingan. Umumiy nom bilan “*Astronomiae Elementa” va “Elementa Astronomica”* ya’ni “Astronomiya asoslari” deb nomlangan bu ikki nashr to‘g‘risidagi qaydlar alloma ilmiy merosi bilan bog‘liq tadqiqotlarda tez-tez tilga olinsa-da, ular hanuz maxsus tadqiq etilmay qolmoqda.

1590-yilgi nashr Haydelberg universitetining ibroniy tili bo‘yicha professori, nemis arabshunoslik ilmiy maktabining asoschilaridan biri Yakob Kristmann (1554–1613) tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur lotincha tarjima *“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”*ning XIII asrda Neapol universitetida Yakob Anatoliy (1194–1256) tomonidan tayyorlangan ibroniycha nusxasiga asoslanadi. *“Muhammedis Alfarganii Arabis Chronologia et Astronomiae Elementa”* (“Muhammad al-Farg‘oniyning xronologiya va astronomiya asoslari”) deb nom berilgan mazkur nashrning muhim ilmiy ahamiyati shundaki, Y.Kristmann unda Farg‘oniy asarini faqat lotin tiliga tarjima qilish bilan cheklanmay, balki asarning har bir bobini izchil, filologik va xronologik asosda alohida sharhlagan. Bu borada olim nashrning muqaddima qismida Farg‘oniyning xronologiya va astronomiya asoslariga oid asarini diqqat bilan mutolaa qilganida, qadimda uni beparvolik bilan tarjima qilingani va nihoyatda nuqsonli, qisqartirilgan holda ommaga taqdim etilganidan chin dildan afsuslanganligini *(... de chronologia & astronomiae principiis Alfraganu perlegissem; equidem indolui, quod is negligenter versús & pessime mutilatus in publicum prodiisset)*[3] yozadi. Shu sababli, Y.Antoliyning ibroniycha tarjimasini lotin tiliga qayta o‘girganligini,

[1] Alfraganus. Muhamedis Alfragani Arabis chronologica et astronomica elementa, e Palatinae Bibliothecae veteribus libris versa, expleta, et scholiis expolita. Additus est commentarius, qui rationem calendarii Romani, Aegyptiaci, Arabici, Persici, Syriaci et Hebraei explicat. / Autore M. Iacobo Christmanno. – Francofurdi: apud Andreae Wecheli heredes, Claudium Marnium et Ioannem Aubrium, 1590. – 565 p.

[2] Alfraganus. Muhammedis fil. Ketiri Ferganensis, qui vulgo Alfraganus dicitur, Elementa astronomica, Arabicè et Latinè. Cum notis ad res exoticas sive orientales, quae in iis occurrunt. Opera Iacobi Golii. – Amstelodami: apud Johannem Janssonium à Waasberge et viduam Elizei Weyerstraet, 1669. – 524 p.

[3] Alfraganus. Muhamedis Alfragani Arabis chronologica et astronomica elementa, e Palatinae Bibliothecae veteribus libris versa, expleta, et scholiis expolita. Additus est commentarius, qui rationem calendarii Romani, Aegyptiaci, Arabici, Persici, Syriaci et Hebraei explicat. / Autore M. Iacobo Christmanno. – Francofurdi: apud Andreae Wecheli heredes, Claudium Marnium et Ioannem Aubrium, 1590. – P. ep. 1.

jarayonda matnni imkon qadar ilmiy izohlar bilan boyitgani va butun kalendarlar tarixini munosib ilmiy sharh bilan izohlab chiqqanligini *(Quamobrem paraphrasin Hebraeam Iacobi Antolii, multis abhinc annis in Alfraganu conscriptam, Latinè reddidi; scholiis, quantum fieri potuit, exornavi, totámque calendariorum historiam iusto commentario declaravi)*[1] qayd etadi.

Umumiy hajmi 565 betni tashkil etgan mazkur nashrning dastlabki 153 sahifasida Farg‘oniy qalamiga mansub matnning to‘liq lotin tilidagi tarjimasi kichik ichki sharhlar bilan keltirilgan. 154–531-sahifalarda esa Y.Kristmann tomonidan Farg‘oniy asarining barcha boblariga alohida-alohida yozilgan sharhlar jamlangan. Muhim jihati shundaki, mazkur sharhlar umumiy izoh yoki qisqa eslatmalar emas, balki har bir bobning mazmuni, undagi astronomik, xronologik va matematik tushunchalarning kelib chiqishi, ularning Klavdiy Ptolemey (taxm. 100–170) an’anasi bilan uyg‘unligi, shuningdek, turli xalqlarning taqvim tizimlari bilan qiyosiy tahliliga asoslangan mustaqil ilmiy matn sifatida bayon etilgan.

Yana bir muhim jihati, maqolada maqsad qilingan masala nuqtai nazaridan izohlar qismining avvalida Y.Kristmann asardagi ma’lumotlarga tayangan holda Farg‘oniy shaxsiyatiga oid mulohazalarini ham keltiradi.

Y.Kristmann Farg‘oniyni, avvalo, Ptolemey an’anasining mustaqil davomchisi sifatida tavsiflaydi. Buni sarlavha qismidayoq ochiq ifodalab, *mazkur kitob o‘z muallifining nomi bilan “Alfraganus” deb ataladi, u bu asarni Ptolemeyning “Almagest”idan ixcham tarzda ajratib olib, osmon sferalari va samoviy jismlarning harakatlari haqidagi ta’limotni qadimgi olimlar an’anasiga muvofiq holda bayon qilgan (“Liber iste vocatur Alfraganus de nomine authoris sui, qui eum succinte deprompsit ex Almagesto, sphaerarum motuumque coelestium doctrinam, iuxta veterum traditionem explicante”)*[2], deb ta’kidlaydi. Bundan ko‘rinadiki, Y.Kristmann muallifni oddiy tarjimon yoki kompilyator sifatida emas, balki Ptolemeyning *“Almagest”* (asarning asl nomi: “Μεγάλη Μαθηματικὴ Σύνταξις” [Megálē Mathēmatikē Sýntaxis] (“Ҳисобга оид буюк китоб”) asaridan materiallarni tanlab olib, ularni o‘z davri ilmiy an’analariga muvofiq qayta tizimlashtirgan alloma sifatida ko‘rsatadi.

Ahmad Farg‘oniyning shaxsiyati masalasida Y.Kristmann filologik yondashuv asosida uning nisbasini geografik kelib chiqish bilan bog‘lab, *“Verisimile mihi videtur, ipsum a patria sua Fragana cognominatum fuisse Alfraganum” (“katta ehtimol bilan u o‘z vatani – Farg‘ona nomidan kelib chiqib al-Farg‘oniy deb atalgan”)*[3], degan xulosani ilgari suradi. Bu hol Y.Kristmann allomaning nisbasini to‘g‘ri anglaganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, u Haydelbergdagi Palatina kutubxonasida saqlangan alloma asari lotincha tarjimasida muallifning ismi haqida

[1]O‘sha joyda.
[2]Yuqoridagi asar. – B. lb. 1.
[3]Yuqoridagi asar. – B. com. 157.

qayd borligini eslatib, mazkur tarjimada unga *“Ametus”* deb ism berilgani, bu esa *Ahmad* yoki *Muhammad* degan ma’noni anglatishini *(“in Latina versione bibliotheca Palatina tribuitur illi nomen proprium Ametus, hoc est, Ahmed sive Muhamed”)*[1] ta’kidlaydi. Ayni o‘rinda Y.Kristmann *Ametus* shaklini ikki ism – *Ahmad* va *Muhammad*ga tenglashtiradi. Biz, mazkur identifikatsiya uslubi haqida quyiroqda batafsilroq to‘xtalamiz. Muhim jihati shuki, Farg‘oniy asarining Palatina kutubxonasida mavjud bo‘lganiga oid Y.Kristmann qaydlari XVI asrda uning nusxalari Germaniyada ham bo‘lganini dalillaydi.

Farg‘oniyning yashagan davrini aniqlash masalasida Y.Kristmann astronomik kuzatuvlarga tayangan holda *“Quo tempore vixerit, ex observationibus illius conicere licet: testatur enim cap. 6 suo seculo maximam solis declinationem fuisse 23 graduum & 35 minutorum”*[2] deb yozadi. Ya’ni, *allomaning qaysi davrda yashaganini uning astronomik kuzatuvlari asosida taxmin qilish mumkin, chunki u 6-bobda o‘z davrida Quyoshning maksimal og‘ishi 23 daraja 35 daqiqa bo‘lganini* qayd etadi. Olim shu asosda xulosa chiqarib, *allomaning taxminan milodiy 950-yillar atrofida yashaganini (“ex quibus omnibus apparet, Alfraganum vixisse circa annum Christi 950”)*[3] ta’kidlaydi. Bu hol Y.Kristmannning metodik yondashuvi ilmiy bo‘lsa-da, astronomik ma’lumotlarni xronologik jihatdan qiyosiy aniqlashda xatolikka yo‘l qo‘yganini ko‘rsatadi. Chunki Farg‘oniy davirida kuzatilgan Quyoshning 23 daraja 35 daqiqalik maksimal og‘ishi hisob kitoblarga asosan aslida 830-yillarga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, Y.Kristmann o‘z davrida Yevropa tarixshunosligida Farg‘oniyni Sobit ibn Qurra (836–901)ning shogirdi sifatida talqin qilgan qarashlarni qat’iy rad etib, “*quamobrem illi qui existimant eum fuisse discipulum Thebitii… falluntur”*[4] deya, ular o‘rtasida ustoz-shogird munosabati bo‘lishi mumkin emasligini, chunki Sobit ibn Qurra Farg‘oniydan keyinroq faoliyat yuritgan, deb to‘g‘ri qayd etadi.

Nashrning 532–565-sahifalari maxsus ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lib, bu ham Y.Kristmann nashrining ilmiy darajasini belgilovchi muhim bo‘lim hisoblanadi. Ko‘rsatkichda shaxs nomlari, geografik va astronomik atamalar va muhim tushunchalar tizimli tarzda jamlangan. XVI asr oxiri uchun bunday keng qamrovli ko‘rsatkichning mavjudligi mazkur nashrning oddiy tarjima emas, balki keng foydalanishga mo‘ljallangan akademik qo‘llanma sifatida rejalashtirilganini ko‘rsatadi.

Biroq tarjimashunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan Y.Kristmann tarjimasi turli kamchiliklardan xoli emas. Misol uchun, asli 30 bobdan iborat Farg‘oniy asari 32 bob qilib tarjima qilingan. Bu holat asar mazmuni kengayganidan

[1] O‘sha joyda.
[2] Yuqoridagi asar. – B. lb. 5.
[3] O‘sha joyda.
[4] Yuqoridagi asar. – B. lb. 7.

emas, balki ayrim boblarning qayta bo‘linib, lotin o‘quvchisi uchun qulayroq shaklda berilganidan kelib chiqqan. Masalan, *“Fī khavāṣṣ al-rubʿ al-maskūn”* (“Yerning aholi yashaydigan choragi xossalari haqida”) nomli 7-bob Y.Kristmann tarjimasida ikkiga ajratilib, *“Tractat de proprietatibus partium in quadrante terrae habitato”* (Yerning aholi yashaydigan choragidagi qismlarning xossalari haqida bahs yuritish) va *“Examinat loca reliqua quadrantis nimirum inhabitabilis...”* (“Yashash mumkin bo‘lmagan joylarini tekshirish...”) tarzida sakkizinchi va to‘qqizinchi boblar sifatida ikkiga ajratilgan[1]. Xuddi shuningdek, *“Fī maṭāliʿ al-burūj va-ikhtilāfihā fī al-falak al-mustaqīma va-l-māʾila”* (“Burjlarning chiqishlari va ularning to‘g‘ri hamda og‘ma sferadagi farqi haqida”) nomli 10-bob tarjimada avval *“Exponit duodecim esse signa caelestia”* (“Osmoniy belgilar [ya’ni burjlar] o‘n ikkita ekanini bayon qilish”), keyin esa *“Proponit ascensiones signorum rectas... & obliquas...”* (“Burjlarning to‘g‘ri va og‘ma chiqishlarini bayon qilish”) tarzida 12 va 13-boblarga ajratilgan[2]. Bundan tashqari, Farg‘oniy asarida alohida mustaqil bob sifatida ajratilmagan *“Fī kuraviyyat al-shams va-l-qamar va-sāʾir al-kavākib”* (Quyosh, Oy va boshqa yulduzlarning sferikligi haqida)gi masala *“Declarat solem, lunam, omnesque reliquas stellas sphaericas esse”* (“Quyosh, Oy va boshqa barcha yulduzlarning sferik ekanini tushintirish”) shaklida alohida 5-bob[3] qilib kiritgan. Aksincha asl *“Fī manāzil al-qamar”* (“Oy manzillari haqida”) mavzusidagi 20-bob esa mustaqil bob sifatida ajratilmagan. Bundan ayon bo‘ladiki, Y.Kristmann tarjimasining tuzilishi asarning asl 30 boblik tartibini emas, balki undagi ayrim mavzularni bo‘lish, ayrimlarini esa qo‘shish orqali hosil qilingan strukturaviy tahrirni aks ettiradi. Katta ehtimol bilan ayni holatga Y.Kristmanni asl arabcha matnga emas balki, XIII asrdagi ibroniycha nusxaga asoslanganligi ham sabab bo‘lishi mumkin. Biroq bu mulohaza tasdig‘i uchun Y.Anatoliy va Y.Kristmann tarjimalarini maxsus qiyosiy tahlil qilish talab etiladi. Ma’lumot o‘rnida aytish lozimki, Y.Kristmann nashrga tayyorlagan tarjima 1618-yilda Frankfurtda[4] o‘zgartirish va qo‘shimchalarsiz qaytadan chop qilingan.

1669-yilda *“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”*ning Oksford va Leyden qo‘lyozmalari asosida arabcha matni va uning lotincha tarjimasi birgalikda e’lon qilingan. U golland arabshunoslik ilmiy maktabining asoschilaridan biri bo‘lgan Yakob van Gol (1596–1667) tomonidan 1665–1666-yillarda nashrga tayyorlangan. Shunga qaramay, yurtimiz fan tarixiga oid adabiyotlarda 1669-yilgi nashrni bevosita Yakob van Golning o‘zi e’lon qilgan, degan qarash ustunlik qiladi. Aslida esa mazkur nashr olim

[1]Yuqoridagi asar. – B. lb. 2; lb. 32–36.
[2]Yuqoridagi asar. – B. lb. 2; lb. 59–63.
[3]Yuqoridagi asar. – B. lb. 1; lb. 23–24.
[4]Alfraganus. Muhamedis Alfragani Arabis chronologica et astronomica elementa. Additus est commentarius, qui rationem calendarii Romani, Aegyptiaci, Arabici, Persici, Syriaci et Hebrai explicat et intervalla praecipuarum aerarum declarant. / Iacobus Christmannus. – Francofurti ad Moenum: A. Gambierii, 1618. – 565 p.

vafotidan ikki yil keyin, Yoxann Yanson van Vasberg (1616–1681) hamda Sara Jansson (taxm. 1644–1669) tomonidan Amsterdamda chop etilgan.

Biz, ushbu masalaga doir tadqiqotimizning dastlabki natijalarini 2019-yilda akademik U.Karimov nomidagi Yosh sharqshunoslar konferensiyasining XVI yig‘inida[1] ilmiy jamoatchilik e’tiboriga havola qilingan edik. Biroq tan olish lozimki, o‘sha tezisda 1669-yilgi nashr noshirlari qatorida Yoxann Yanson van Vasberg bilan birga ikkinchi matbaachi sifatida Elizei Veyerstrayet (taxm. 1633–1666)[2] ko‘rsatilgan edi. Bunday xulosaga kelinishiga Amsterdam nashr zarvarag‘ida aynan shu ikki ismning noshirlar sifatida keltirilganligi asos bo‘lgan. Ammo sohadagi takroriy manbashunoslik tahlillari bu talqinning aniqlashtirilishi lozimligini ko‘rsatdi. Xususan, zarvaraqning quyi qismida Elizei Veyerstrayet ismiga qadar *“Viduam”* (“beva”) so‘zi mavjud bo‘lib, bu yerda gap Elizei Veyerstrayetning o‘zi haqida emas, balki *“Viduam Elizei Weyerstraet”*, ya’ni “Elizey Veyerstratning bevasi” haqida ketayotgani ayon bo‘ldi.

2019-yilgi tadqiqotda mazkur chalkashlikning yuzaga kelishiga 1669-yilgi nashrning nuqsonli nusxasidan foydalanilgani sabab bo‘lgan. Chunki ayni nusxada *“Viduam”* so‘zi aniq ko‘rinmay qolgan. Bundan tashqari, Elizei Veyerstrayet vafotidan so‘ng uning matbaachilik faoliyatini davom ettirgan bevasi Sara Janssonning ismi nashrning boshqa qismlarida, shu jumladan *“Lectori benevolo typographus salutem”* (“Mehribon o‘quvchiga bosmaxonadan salomlar”) nomli noshirlar muqaddimasida[3] ham tilga olinmagan. Shu bois, 1669-yilgi arabcha-lotincha nashrning ilmiy tavsifida Yakob van Golni asarning muharriri va lotincha tarjimoni, Yoxann Yanson van Vasberg hamda Sara Janssonni esa noshirlar sifatida ko‘rsatish tarixiy va manbashunoslik nuqtai nazaridan to‘g‘ri bo‘ladi.

1669-yilgi Amsterdam nashri *“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”*ning Yevropa arabshunosligida tayyorlangan dastlabki yetuk filologik nashrlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy ahamiyati shundaki, Yakob van Gol mazkur asarni ilk bor asl arabcha matn va lotincha tarjima bilan birga, Sharq manbalari hamda terminologiyaga oid izohlar ilova qilgan holda ilmiy muomalaga kiritdi. Shu jihatdan ushbu nashr G‘arb olamida Ahmad Farg‘oniy asarini ikkilamchi lotincha tarjimalar orqali emas, balki bevosita arabcha asl matn asosida o‘rganish imkonini bergan muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Ayni paytda, nashr sarlavhasi va izohlarida muallifning ismi, nisbasi va ilmiy maqomi avvalgi bosma an’analarga qaraganda ancha aniqroq ifodalangan bo‘lib, bu

[1]Маҳмудов О.В. Фарғонийнинг «Китоб фи усул илм ан-нужум» асари ноширн ким ? // Ёш шарқшуносларнинг академик У.Каримов номидаги илмий-амалий конференцияси тезислар тўплами. – Тошкент: ЎзР ФА Шарқшунослик институти, 2019. – Б. 220-221.

[2]Yuqoridagi maqola. – B. 220.

[3] Alfraganus. Muhammedis fil. Ketiri Ferganensis, qui vulgo Alfraganus dicitur, Elementa astronomica, Arabicè et Latinè. Cum notis ad res exoticas sive orientales, quae in iis occurrunt. Opera Iacobi Golii. – Amstelodami: apud Johannem Janssonium à Waasberge et viduam Elizei Weyerstraet, 1669. – P. pr. 1–3.

uni Ahmad Farg‘oniy shaxsiyatiga oid nisbatan to‘g‘riroq va to‘laroq ma’lumotlarni bergan ilk muhim sharqshunoslik tadqiqotlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi. Jumladan, *“Elementa Astronomica”* deb nomlangan sarlavha paratekstida asar *Alfraganus* nomi bilan tanilgan farg‘onalik alloma Muhammad ibn Kasirga tegishli ekanligi *(“Muhammedis fil. Ketiri Ferganensis, qui vulgo Alfraganvs dicitur, Elementa Astronomica”)* ko‘rsatilib, nashr asarda uchraydigan g‘ayrioddiy yoki Sharqqa oid masalalarga doir izohlar bilan *(“Cum Notis ad res exoticas sive Orientales, quae in iis occurrunt”)* boyitilganligi qayd etilgan. Jami 577 betdan iborat mazkur nashr avvalida dastlab noshirlar muqaddimasi, undan so‘ng boblar va mavzular ko‘rsatkichlari, shuningdek, Farg‘oniy tomonidan IX bobda, ya’ni 35–39-betlarda zikr etilgan yetti iqlim tarkibiga kiritilgan mamlakatlar va shaharlarning alifbo tartibidagi ro‘yxati keltirilgan. Shundan keyin 109 betdan iborat asarning arabcha matni, uning ortidan esa xuddi shuncha hajmdagi lotincha tarjima o‘rin olgan. Tarjima matnidan so‘ng van Golning 306 betlik sharhlari berilgan. Nashr yakunida esa umumiy ko‘rsatkichlar ilova qilingan.

Sharhlar qismi avvalida Farg‘oniy shaxsiyatiga oid ma’lumotlar tahlil qilingan. Jumladan, van Gol alloma ismini arabcha *al-Farġānī* tarzida keltirib, uning Yevropada qabul qilingan shakli *Alfergani* yoki *Alfragani* ekani, aslida esa uni *“Ferganensis”*[1] (Farg‘onalik), deb aytish kerakligini ta’kidlaydi. Chunki, allomaning vatani Farg‘ona bo‘lgani, bu hudud esa Sug‘diyona yaqinidagi shahar va viloyat ekanligini [2] qayd etib, Yevropa ilmiy muhitida allomaning kelib chiqishini ilk marotaba asosli ravishda to‘g‘ri ko‘rsatadi.

Sharhning Farg‘onaga oid qismida esa van Gol *“... haec autoris nostri Muhammedis patria est; at quam pro regione potius quam urbe autores celebrant”*, ya’ni *bu hudud bizning muallifimiz Muhammadning vatanidir, ammo olimlar uni shahar sifatida emas, balki ko‘proq o‘lka sifatida ta’riflashlari*ni[3] qayd etadi.

Bu o‘rinda Farg‘onaning joylashuv koordinatlariga oid golland olimi tahlillari ham muhim ahamiyatga ega. Yakob van Gol Farg‘ona nomini ko‘pincha mintaqa sifatida ishlatilishini Ibn Havqal (vaf. 976)ning *“Kitāb al-Masālik va-l-Mamālik”*[4] (“Mamlakatlar yo‘llari haqida kitob”)ida keltirilgan *“Farġāna ism al-iqlīm”* (“Farg‘ona – iqlim/mintaqa nomi”) degan qaydi hamda Abulfido Ayyubiy (1273–1331)ning *“Taqvīm al-Buldān”*[5] (“Mamlakatlar taqvimi”) asaridagi *“ism nāḥiya*

[1]Yuqoridagi asar. – B. nt. 1.
[2]O‘sha joyda.
[3]Yuqoridagi asar. – B. nt. 168
[4]Ibn Ḥawqal Abū al-Qāsim Muḥammad ibn ʿAlī. Viae et regna: descriptio ditionis moslemicae. Kitāb al-Masālik wa-l-mamālik. / ed. M.J. de Goeje. – Lugduni Batavorum: E.J.Brill, 1873. – 406 p.
[5]Abū al-Fidāʾ Ismāʿīl ibn ʿAlī ibn Maḥmūd. Taqwīm al-buldān. Géographie d’Aboulféda: texte arabe publié d’après les manuscrits de Paris et de Leyde. / Publié par M.Reinaud et M. le Baron Mac Guckin de Slane. – Paris: Imprimerie royale, 1840. – 539 p.

*ʿaẓīma”* (“katta nohiyaning/viloyatning nomi”) degan ma’lumotlar asosida dalillashga harakat qiladi. Biroq klassik geograflarda keng tarqalgan odatga ko‘ra, mintaqa nomi bilan uning bosh shahri ham atalishi *(“regionis nomine sæpe indigitatur primaria ejus urbs”)* mumkinligi toponimik muammoni yuzaga keltirishini ta’kidlab, agar “Farg‘ona” ba’zan shahar ma’nosida ishlatilsa, u holda “Farg‘ona” deb qaysi shahar tushunish lozimligini[1] savol qilib qo‘yadi.

Yakob van Gol bu savolga javoban anonim fors muallifining jadvalida *“Farġāna va-hiya Anduġān”*, ya’ni Farg‘ona shahar sifatida Andijon bilan tenglashtirilganligi va uning koordinatasi uzunlik 102, kenglik 42°20′ etib ko‘rsatilganligini aytadi. Ikkinchi manba sifatida esa *“Olugbegi tabulis”*, ya’ni Ulug‘bek jadvallari *(“Zīj-i Sulṭānī”)*[2] ga ishora qilib, unda “Farg‘ona” nomi alohida shahar sifatida umuman berilmagani, balki faqat *“Aḫshīkat qaṣaba Farġāna” (“Axsikent – Farg‘onaning shaharchasi, ya’ni Achsiket oppidum Ferganae”)* sifatida ko‘rsatilgani, koordinatalari esa uzunlik 101°20′, kenglik 42°25′ bilan belgilanganligini[3] qayd etadi.

Bu ikki ko‘rsatkich (42°20′ va 42°25′) bir-biriga juda yaqin bo‘lgani uchun, van Gol, mualliflarning “Farg‘ona – shahar” tushunchasi amalda Farg‘ona vodiysidagi muayyan markaziy nuqtani – Andijon yoki Axsikentni anglatgan bo‘lishi mumkin, deb mulohaza yuritadi. Aniqrog‘i toponimik jihatdan “Farg‘ona” – ko‘pincha viloyat, lekin koordinatalar berilayotgan kontekstda u ko‘pincha viloyatning bir asosiy shahrini anglatishini[4] ta’kidlaydi.

Masalaning ikkinchi qismi, ya’ni iqlim va kenglik mosligi borasida van Gol kenglik 42°20′ atrofidagi joy iqlimlar tasnifida Abulfido Ayyubiy tomonidan

[1] Alfraganus. Muhammedis fil. Ketiri Ferganensis, qui vulgo Alfraganus dicitur, Elementa astronomica, Arabicè et Latinè. Cum notis ad res exoticas sive orientales, quae in iis occurrunt. Opera Iacobi Golii. – Amstelodami: apud Johannem Janssonium à Waasberge et viduam Elizei Weyerstraet, 1669. – P. nt. 168.

[2] Binae tabulae geographicae, una Nassir Eddini Persae, altera Ulug Beigi Tatari: opera et studio Johannis Gravii nunc primum publicatae. – Londini: Typis Jacobi Flesher, prostant apud Cornelium Bee, 1652. – 64 p.; Ulugh Beg. Epochae celebriores, astronomis, historicis, chronologis, Chataiorum, Syro-Graecorum, Arabum, Persarum, Chorasmiorum, usitatae : ex traditione Ulug Beigi, Indiae citra extraque Gangem principis. / Eas primus publicavit, recensuit et commentariis illustravit Johannes Greavius. – Londini: Typis Jacobi Flesher, prostant apud Cornelium Bee, 1650. – 104 p.; Ulugh Beg. Tabulae longitudinis ac latitudinis stellarum fixarum: additur demum elenchus nominum stellarum; in calce libri accesserunt Mohammedis Tizini tabulae declinationum et rectarum accensionum. / Ex tribus invicem collatis manuscriptis Persicis jam primum luce ac Latio donavit et commentariis illustravit Thomas Hyde. – Oxonii: Typis Henrici Hall Academiae Typographi, sumptibus authoris; venales prostant apud Richardum Davis Bibliopolam, 1665. – 288 p.

[3] Alfraganus. Muhammedis fil. Ketiri Ferganensis, qui vulgo Alfraganus dicitur, Elementa astronomica, Arabicè et Latinè. Cum notis ad res exoticas sive orientales, quae in iis occurrunt. Opera Iacobi Golii. – Amstelodami: apud Johannem Janssonium à Waasberge et viduam Elizei Weyerstraet, 1669. – P. nt. 168.

[4] O‘sha joyda.

beshinchi iqlim doirasiga kiritilgani, holbuki Farg‘oniy esa u joyni to‘rtinchi iqlim bilan bog‘laganligini bayon etadi. Yakob van Gol to‘rtinchi iqlim 39° kenglikda tugashini, shu sababdan 42°20′ ko‘rsatkich beshinchi iqlimga chiqib ketishini [1] ta’kidlaydi.

Yakob van Gol bu ziddiyatni Abulfido Ayyubiy Farg‘oniy obro‘sini saqlab qolish uchun “nusxa xatosi” bilan tushuntirishga uringanligini, ammo yuqorida qayd qilingan anonim fors muallifi hamda *“Zīj-i Sulṭānī”*dagi koordinatalar bir biriga yaqin 42°20′ va 42°25′da ko‘rsatilganligi tasodifiy bitta raqam emas, balki bir nechta mustaqil manbalarda takrorlanayotgan dalillar ekanligi[2] qayd etadi.

Ayni o‘rinda van Gol yanada qiziq tahlilni ham amalga oshiradi. Olim *manbalarda Ulug‘bek Movarounnahr iqlimining podshohi sifatida o‘z zijini ishonchliligini mustahkamlash uchun imkon qadar aniq kuzatuvlar amalga oshirgani qayd etilgani, shu sababdan yuqoridagi ziddiyatda Farg‘oniyni himoya qilish uchun sun’iy ravishda Ulug‘bekni bunchalik qo‘pol xatoda ayblashga jur’at etma olmasligini*[3], qayd etadi. Chunki, *Farg‘oniy asaridagi ko‘rsatkich allomaning shaxsiy kuzatuvi bo‘lmasligini ehtimoli mavjudligi, bu ma’lumotni berishda u boshqa muallifga asoslangan bo‘lishi mumkin*ligini[4] ta’kidlaydi. Yakunda, *qayt etishga qulay fursat tug‘ilganda muallifimiz o‘z vatanini boshqa olim ma’lumoti bilan esga olishining nimasi ajablanarli*[5], deb ritorik savol qo‘yadi.

Shundan so‘ng van Gol Farg‘oniy bergan ko‘rsatkichni uning asarini o‘zi bilan oqlash osonroq[6], deb metodik jihatdan juda ehtiyotkor, lekin muhim bir yechim taklif qiladi. Jumladan, Farg‘oniy “Farg‘ona”ni shahar sifatida qat’iy koordinata bilan emas, viloyat *(ditio)* sifatida aytgan. Viloyat esa kenglik bo‘yicha ma’lum “cho‘zilishga” ega. Agar muallif aniq “qaysi nuqta”ni ko‘rsatmay, faqat “Farg‘ona” desa, bunda u Farg‘onaning “birinchi qismi”ni *(primam ejus partem)* nazarda tutgan bo‘lishi mumkin[7]. Yakob van Gol bu “birinchi qism”ni *Ostruxenae*, ya’ni Ustushona bilan bog‘laydi. Olim fikricha u sharq tomondan Farg‘ona bilan chegaradosh bo‘lib, to‘rtinchi iqlimga kiradi. Demak, Farg‘oniy Farg‘onani 4-iqlimga kiritganida, ehtimol, Farg‘ona hududining shimoliy markazlari (Andijon yoki Axsikent kabi 42° atrofidagi shaharlar)ni emas, balki iqlim chegarasi bilan “bir xil belbog‘” hosil qiladigan janubroq, chekka qismini nazarda tutgan bo‘lishi mumkin[8]. Ayni o‘rnida van Gol Ustushonani to‘rtinchi iqlimning chegarasi, ya’ni 39° kenglik atrofida

[1]Yuqoridagi asar. – B. nt. 169.
[2]O‘sha joyda.
[3]O‘sha joyda.
[4]O‘sha joyda.
[5]O‘sha joyda.
[6]O‘sha joyda.
[7]Yuqoridagi asar. – B. nt. 170.
[8]O‘sha joyda.

joylashganini to‘g‘ri taxmin qiladi, chunki zamonaviy koordinatalarga ko‘ra u taxminan 39°30′ – 40°30′ shimoliy kengliklar diapazonida joylashgan.

Ayon bo‘lganidek, Yakob van Gol Farg‘oniy yetishib chiqqan hududning joylashuvini aniqlash masalasida manbalarni qiyosiy tahlil qilish, toponimik referentni (viloyat-shahar) ajratish hamda iqlim-kenglik ko‘rsatkichlarini tanqidiy tekshirish kabi usullarni birlashtirib matn va geografik tasnif mantig‘idan kelib chiqqan holda talqin qiladi. Natijada uning sharhlari Farg‘ona atamasining turli kontekstlarda turlicha qo‘llanishini ochib berib, Farg‘oniy vatani haqidagi Yevropadagi tasavvurni aniqroq ilmiy asosga ko‘taradi.

Yakob van Gol farg‘onaliklar orasida ilm-ma’rifatda mashhur bo‘lganlar ko‘p bo‘lganini[1] qayd etib bu boradagi ayrim misollar *Abulfeda*ning *“Geographia”* (Abu-l-Faraj ibn Horunning *“Tārīḫ Muḫtaṣar al-duval”* asari), *Jacutus Hamataeus*ning *“Thesaurus Geographicus”* (Yoqut Hamaviyning *“Muʿjam al-buldān”* asari), Ibn Castraning *“Philosophorum Historia”* (Ibn Qiftiyning *“Iḫbār al-ʿulamāʾ bi-aḫbār al-ḥukamāʾ”* asari)da mavjudligini[2] ta’kidlaydi.

Olimning Farg‘oniy nisbasi borasidagi tahlillari o‘z davri uchun ancha mukammal. Chunki, van Gol fikricha aslida joy nomidan kelib chiqqan allomaning *Alfergani* va *Alfragani* nisbalari Yevropada uning shaxsiy ismiga aylanib ketgan. Buni, tarjima qo‘lyozmalari nusxalarining sarlavhalaridan ham, uni keltirgan ko‘plab mualliflardan ham bilish mumkin[3]. Ayni fikrlar *Alfraganus, Alfergani* va *Alfragani* nisbalari van Gol uchun shunchaki etnik yoki hududiy belgi emas, balki allomaning tarixiy-madaniy identifikatori bo‘lib xizmat qilganligini anglatadi. Biroq, golland olimi Farg‘oniyning asl ismi borasida ayrim chalkashliklarga yo‘l qo‘ygan. Jumladan, ism bilan bog‘liq fikr yakunida Ibn Castraga, ya’ni Ibn Qiftiyga murojaat qilib, muarrix boshqalardan farqli ravishda allomani *Muḥammad* emas *Aḥmad* deb ataganini, *Aḥmad* ismi xususida *Y.Kristmann ham guvohlik berishicha qadimgi lotin tarjimalarida ham shunday yozilganligini*[4] ta’kidlaydi. Bundan tashqari, *Aḥmad* va *Muḥammad* bir ma’noni bildirgani uchun, bir kishiga nisbatan aralash qo‘llangani, shu bois payg‘ambar Muḥammad (s.a.v.) ham *Aḥmad* deb ham atalganligini[5] qayd etadi. Aslida, *Aḥmad* va *Muḥammad* bir ildiz – arabchadagi *“ḥ-m-d”* (“maqtash, hamd aytish”) dan kelib chiqqan, ma’nodosh va juda yaqin bo‘lsa-da, til nuqtai nazaridan ikki alohida ism hisoblanadi. *Muḥammad* odatda *“ko‘p maqtalgan / qayta-qayta maqtaluvchi”*, *Aḥmad* esa *“hamdga eng loyiq, eng maqtovli”* kabi ma’nolarni anglatadi. Yakob van Gol urg‘u berganidek, islomiy an’anada bu ikki nom haqiqatdan ham Payg‘ambarimizga nisbatan yaqin nomlar sifatida ham ishlatiladi. Xususan,

[1]Yuqoridagi asar. – B. nt. 1.
[2]O‘sha joyda.
[3]O‘sha joyda.
[4]O‘sha joyda.
[5]Yuqoridagi asar. – B. nt. 2.

*"Qurʾān"*ning *"aṣ-Ṣaff"* (61) surasi 6-oyatida[1] *"Aḥmad"* ismi tilga olinadi. Shuning uchun diniy ma'noda ular bir shaxsga nisbat berilishi mumkin, ammo til, ya'ni leksik-semantik jihatdan baribir ikki mustaqil ism hisoblanadi.

Nazdimizda, van Gol tahlilida allomaning haqiqiy ismi *Aḥmad*ni otasining ismi bo'lgan *Muḥammad* bilan chalkashtirib yuborishiga, avvalo, u tayangan arabiy fihrist va biografik manbalardagi ma'lumotlarning turlicha ekanligi sabab bo'lgan. Jumladan, Ibn Nadim alloma ismini *al-Farġānī va-ismuhu Muḥammad ibn Kaṯīr*[2] tarzida, Ibn Qiftiy esa *Aḥmad ibn Muḥammad ibn Kaṯīr al-Farġānī*[3] shaklida keltirgan. Demak, van Gol o'z tadqiqotida Ibn Nadim ma'lumotini asos uchun qabul qilgan. Bu 1669-yilgi nashr sarlavhasi paratekstida qo'llanilgan *Muhammedis fil. Ketiri Ferganensis* ismida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Yakob van Gol o'z tahlillarida Farg'oniyni Sharq ilmiy an'anasida tan olingan alloma sifatida ko'rsatib, *Abulfergius* (Ibn Nadim) allomani *"ilm va san'atda yetuk zot" ("...uni praestantem doctrina & arte virum")* sifatida *"Scriptorum veterum & recentiorum catalogus"* ("Qadimgi va yangi mualliflar katalogi", ya'ni*"Kitāb al-Fihrist al-ʿulūm "*)da tilga olgani, *Ibn Castra* (Ibn Qiftiy) esa uni *"ravshan va pok bayoni uchun maqtagan*ligini *("atque ob perspicuam puramque dictionem commendat"),* arifmetika va astronomik hisobda o'ta zukko bo'lganligi sabab xalq orasida *al-ḥāsib* (hisobchi) deb ham nom qozonganligini[4] qayd etadi.

Qiyosiy tahlil etadigan bo'lsak, haqiqatdan ham Ibn Nadim o'z asarida Farg'oniyni *"... va-kāna fāḍilan munajjiman muqaddaman fī ṣināʿatihi"*[5] ("... u yetuk munajjim va o'z sohasida peshqadam sanalgan") deb ta'riflagan. Ibn Qiftiy bu borada *"Aḥmad munajjimī al-Maʾmūn va-ṣāḥib al-madẖal ilā ʿilm hayʾat al-aflāk va-ḥarakāt al-nujūm, va-huva kitāb laṭīf al-jirm, ʿaẓīm al-fāʾidah, muḍamman thalāthīn bāban, iḥtavat ʿalā javāmiʿ kitāb Baṭlamyūs bi-aʿḏab lafẓ va-abyan ʿibārah"*[6]

---

[1] Қуръони карим. Маънолари, таржима ва тафсири. / Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2004. – Б. 552.

[2]Ibn an-Nadim. The Fihrist. – 2 vols. / ed. and tr. B.Dodge. – New York & London: Columbia University Press, 1970. – P. 270.

[3]Al-Qifṭī Jamāl al-Dīn Abū al-Ḥasan ʿAlī ibn Yūsuf ibn Ibrāhīm al-Shaybānī. Iẖbār al-ʿulamāʾ bi-aẖbār al-ḥukamāʾ / Taḥqīq: Ibrāhīm Shams al-Dīn. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-ʿIlmiyyah, 2005. – Ṣ. 65.

[4] Alfraganus. Muhammedis fil. Ketiri Ferganensis, qui vulgo Alfraganus dicitur, Elementa astronomica, Arabicè et Latinè. Cum notis ad res exoticas sive orientales, quae in iis occurrunt. Opera Iacobi Golii. – Amstelodami: apud Johannem Janssonium à Waasberge et viduam Elizei Weyerstraet, 1669. – P. nt. 1–2.

[5]Ibn an-Nadim. The Fihrist. – 2 vols. / ed. and tr. B.Dodge. – New York & London: Columbia University Press, 1970. – P. 276.

[6]Al-Qifṭī Jamāl al-Dīn Abū al-Ḥasan ʿAlī ibn Yūsuf ibn Ibrāhīm al-Shaybānī. Iẖbār al-ʿulamāʾ bi-aẖbār al-ḥukamāʾ / Taḥqīq: Ibrāhīm Shams al-Dīn. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-ʿIlmiyyah, 2005. – Ṣ. 65.

(“Ahmad – Ma’munning munajjimi va osmon sferalarining tuzilishi hamda yulduzlar harakatlari ilmiga kirish kitobining muallifidir. U hajman ixcham, ammo foydasi ulug‘ kitob bo‘lib, o‘ttiz bobni o‘z ichiga oladi. Bu boblar Ptolemey kitobi mazmunining eng go‘zal lafz va eng ravshan bayon bilan qamrab olgan”)ligini qayd etadi. Allomaga nisbatan ishlatilgan *al-ḥāsib* tarifini esa Ibn Xallikanning *“Vafayāt al-aʿyān va-anbāʾ abnāʾ al-zamān”* asarida uchraydi. Muarrix *“miqyās al-nīl”* (nilometr) xususida fikr yuritganda alloma ismini *“...Aḥmad ibn Muḥammad al-ḥāsib al-Qarṣānī”* (“Ahmad ibn Muhammad al-hosib al-Qarsoniy”)[1] tarzida keltiradi. Biroq bu o‘rinda arabiy manbalarda *al-ḥāsib* nisbasi Ahmad Farg‘oniydan ko‘ra, uning zamondoshi va “Bayt al-hikma”dagi hamkori Ahmad ibn Abdulloh Habash al-Hosib Marvaziy (766–869)ga nisbatan ko‘proq qo‘llanganligi va musulmon Sharqi fan tarixida bu nisbaga erishgan boshqa allomalar ham borligini[2] qayd etish zarur. Bundan tashqari, Ibn Xallikan alloma ismi *al-Qarṣānī,* deb keltirib xatolikka yo‘l qo‘ygan. Katta ehtimol bilan ayni holatga *Farġānī* hamda *Qarṣānī* so‘zlarini arab yozuvida deyarli bir xil yozilishi sabab bo‘lgan.

Yakob van Gol allomaning yashagan davrini ham aniqlashga harakat qilib, bu borada aniq ma’lumot topa olmagani, biroq, Ibn Nadim uni *Almamonis* (Ma’mun, 813–833) zamonidagi matematiklar qatorida tilga olganligini[3] qayd etadi. Mazkur mulohazani mustahkamlash maqsadida van Gol arab tarixiy manbalarida xalifa Ma’munning milodiy 833-yilda vafot etgani haqidagi ma’lumotni eslatadi hamda Farg‘oniyning o‘zi ham asarining V va VIII boblarida Ma’mun davridagi astronomik kuzatuvlarni keltirganligini[4] ta’kidlaydi. Bundan tashqari, u yana bir olim *Ibn Jonis Aegyptius*, ya’ni o‘rta asrlarda Ibn Yunus nomi bilan mashhur bo‘lgan astronom va matematik Abulhasan Ali ibn Abdurahmon Misriy (950–1009)ni tilga olib, uning 1000-yillar atrofida yozilgan *“Tabulis Hakimicis”* (ya’ni *“al-Zīj al-kabīr al-Ḥākimī”*) asarida keltirilgan Quyoshning eng katta og‘ish burchagi haqidagi ma’lumotlar Farg‘oniydan olinganini[5] bayon etadi. Shu tariqa Yakob van Gol mavjud dalillarni qiyosiy tahlil qilish asosida allomani Ma’mun bilan Ibn Yunus orasidagi davrda yashagan[6], degan xulosaga keladi. Bu orqali allomaning ijod qilgan zamonini yevropalik boshqa mualliflardan farqli ravishda nisbatan ancha to‘g‘ri ko‘rsatib,

[1]Ibn Khallikan. Biographical Dictionary. – Vol. II. / tr. Baron Mac Guckin de Slane. – Paris: Oriental Translation Fund of Great Britain and Ireland, 1843. – P. 112.

[2]Ibn an-Nadim. The Fihrist. – 2 vols. / ed. and tr. B.Dodge. – New York & London: Columbia University Press, 1970. – P. 275, 279.

[3] Alfraganus. Muhammedis fil. Ketiri Ferganensis, qui vulgo Alfraganus dicitur, Elementa astronomica, Arabicè et Latinè. Cum notis ad res exoticas sive orientales, quae in iis occurrunt. Opera Iacobi Golii. – Amstelodami: apud Johannem Janssonium à Waasberge et viduam Elizei Weyerstraet, 1669. – P. nt. 2.

[4]O‘sha joyda.

[5]O‘sha joyda.

[6]O‘sha joyda.

tarixiy jihatdan asosliroq belgilashga harakat qiladi. Biroq van Gol ayni masala doirasida o‘zi foydalangan Ibn Qiftiy asarini nima uchundir e’tibordan chetda qoldiradi. Chunki, ayni asarda avvalroq keltirilganidek, alloma xalifa Ma’mun munajjimi *(munajjim al-Maʾmūn)* sifatida aniq ko‘rsatilgan.

Yakob van Gol Ahmad Farg‘oniy haqida fikr yuritganda olimning *“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”* asaridan tashqari *“al-Kāmil fī ṣanʿat al-asṭurlāb al-shamālī va-l-janūbī va-ʿilalihimā bi-l-handasa va-l-ḥisāb”* (“Shimoliy va janubiy asturlob yasash san’atini geometriya va arifmetika bilan asoslash haqida mukammal risola”) hamda *“Kitāb ʿamal al-ruḵāmāt”* (“Marmarga chiziladigan quyosh soatlari haqida risola”) nomli asarlar muallifi sifatida[1] ko‘rsatadi. Allomaning asturlobga oid asariga alohida e’tibor qaratib, uni mufassal va qat’iy dalillangan *(absolutum & apodicticum)* asar ekanligini e’tirof etadi. Hatto ayni asarni *“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”* bilan qiyosiy tahlil qilib, ularda ekliptika og‘maligi *(obliquitas Zodiaci / maxima declinatio)* ikki xil ($\varepsilon \approx 23°33'$ va $23°35'$) qayd etilganligiga e’tibor qaratadi. Yakob van Gol ayni nomuvofiqlikni asosiy dalil qilib olib, undan quyidagi ehtimoliy xulosani chiqaradi: *“Atque hinc forte est, quod Alferganus in tractatu de Astrolabio… refert XXXIII… in hisce vero Elementis videtur praehabere XXXV”*. Ya’ni, Farg‘oniy asturlob haqidagi risolasida *“al-Zīj al-Maʾmūnī al-Mumtaḥan”* (“al-Ma’munning sinalgan jadvallari”)da keltirilgan 33 daqiqa variantiga asoslangan, *“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”*da esa 35 daqiqani ustun qo‘ygandek ko‘rinadi. Yakob van Gol buni *“posterioris observationis… continuata experimenta”* – keyingi kuzatishlar va takroriy tajribalar natijalari bilan bog‘laydi[2]. Shu orqali olim Farg‘oniyni qotib qolgan bir ma’lumotni takrorlovchi emas, balki kuzatuv natijalariga munosabat bildirgan, ilmiy ma’lumotlarni tanlab va qayta baholab ishlatgan muallif sifatida tasvirlaydi.

E’tirof etish zarurki, Ahmad Farg‘oniyning ekliptika og‘maligi bo‘yicha keltirgan $23°35'$ qiymati zamonaviy nazariy hisoblar bilan solishtirilganda, xalifa Ma’mun davri, jumladan, “Bayt al-hikma” olimlari tomonidan Bag‘doddagi *al-Shammāsīyah* (ash-Shammosiya) hududi hamda Damashqdagi *Qāsiyūn* (Qasiyun) tog‘ida amalga oshirilgan astronomik kuzatuvlar o‘tkazilgan 830–833-yillar uchun juda yuqori darajada mos keladi. Xalqaro astronomiya ittifoqining IAU 2006 (mean obliquity) modeli bo‘yicha 830–833-yillar atrofida o‘rtacha og‘malik $\approx 23°35'25''$ (soniyalar darajasida) bo‘lgan. Demak, Farg‘oniy bergan $23°35'$ ko‘rsatkichi nazariy qiymatdan atigi ~25–30″ farq qiladi. Bunday tafovut o‘sha davr meridian kuzatuvlari va burchak o‘lchash amaliyotida daqiqagacha yaxlitlash hamda instrument va atmosferaga bog‘liq xatoliklar doirasida tabiiy hisoblanadi. Shunday qilib, Farg‘oniy asaridagi $23°35'$ natija, zamonaviy astronomik model nuqtai nazaridan, IX asr boshidagi real ekliptika og‘maligini ishonchli aks ettiradi.

[1] O‘sha joyda.
[2] Yuqoridagi asar. – B. nt. 70.

Yakob van Golni Farg‘oniyning *“al-Kāmil fī ṣanʿat al-asṭurlāb al-shamālī va-l-janūbī va-ʿilalihimā bi-l-handasa va-l-ḥisāb”* asaridan foydalanganligiga oid ma’lumot mazkur asarning qo‘lyozma nusxalari XVII asrga kelib Yevropa ilmiy muhitida ham mavjud bo‘lgan, degan xulosa beradi. Bu nusxalarning Yevropaga kirib kelishi van Golning Sharq mamlakatlari bo‘ylab amalga oshirgan ilmiy safarlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Chunonchi, olimning germaniyalik shogirdi Iogann Elixmann (1600–1639) o‘zining 1631-yilda yana bir nemis arabshunosi Iogann Zexendorf (1580–1662)ga yozgan maxsus maktubida van Golni Sharq mamlakatlariga sayohat qilgani *(Ipse est qui peregrinatus est in Orientalibus regionibus)*, bu o‘lkalardan 400 ta asar olib kelgani *(Et retulit secum inde CCCC libros hujus Linguae)*, mazkur asarlarning katalogi Parijda nashr etilganligini *(Catalogum librorum… Parisiis prodiit)*[1] ta’kidlaydi. Tarixiy jihatdan, haqiqatdan ham van Gol 1622-yilda Marokashga, 1626–1629-yillarda esa Suriya va Arabiston hududlariga sayohat qilib, uning davomida Konstantinopolga ham boradi va sayohat davomida to‘plagan kitoblarini Leyden universiteti kutubxonasiga joylashtiradi[2]. Shundan kelib chiqib, asturlobga oid mazkur risola ham ayni safarlar doirasida qo‘lga kiritilgan va keyinchalik Yevropadagi yirik arabshunoslik markazlariga tarqalgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Buni, ayni asarning arabcha nusxalarini bugungi kunda Berlin[3], London[4] hamda Parij[5] fondlarida mavjudligi ham tasdiqlaydi. Ayni risolaning arabcha matni ilmiy izohlar va inglizcha tarjima bilan 2005-yilda Shtutgartda Richard Lorch tomonidan[6] e’lon qilingan.

Qayd etish lozimki, Yakob van Golning Ahmad Farg‘oniy asariga yozgan sharhi IX–XI asrlar islom astronomiya maktabi hamda Sharq biografik va geografik adabiyotiga oid qator muhim shaxslar haqida ham qimmatli, ba’zan Yevropa ilmiy muhitida erta davrdayoq shakllangan tasavvurlarni yorituvchi ma’lumotlarni jamlaydi. Xususan, unda al-Ma’mun davrida olib borilgan astronomik kuzatuvlar,

[1]Elichmann J. Literae exoticae scriptae arabice. / ed. Zechendorf J. – Iena, 1639. – P. 5.

[2]Hartmann A.T. Nachricht von einem literarischen Nachlaß des berühmten Orientalisten Jacobus Golius. // Neue Leipziger Literaturzeitung. Intelligenzblatt. – 1805. – Jg. 3. – S. 713–717.

[3]Al-Farġānī. al-Kāmil fī ṣanʿat al-asṭurlāb al-shamālī va-l-janūbī va-ʿilalihimā bi-l-handasa va-l-ḥisāb. – (1) Landberg 56 (Ahlwardt 5790); (2) Landberg 58 (Ahlwardt 5791); (3) Ms. or. quart. 99 (Ahlwardt 5792) || Staatsbibliothek zu Berlin, Berlin, Germany.

[4]Al-Farġānī. al-Kāmil fī ṣanʿat al-asṭurlāb al-shamālī va-l-janūbī va-ʿilalihimā bi-l-handasa va-l-ḥisāb. – Or. 5479. || British Library, London, UK.

[5]Al-Farġānī. al-Kāmil fī ṣanʿat al-asṭurlāb al-shamālī va-l-janūbī va-ʿilalihimā bi-l-handasa va-l-ḥisāb. – Arabe 2456. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

[6]Al-Farghānī. On the Astrolabe: Arabic text edited with translation and commentary. / Ed. and trans. by Richard Lorch. – Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 2005. – 447 p.

ularning natijasida yozilgan *“al-Zīj al-Maʾmūnī al-Mumtaḥan”*[1], ayni jarayonlarda ishtirok etgan Yahyo ibn Abu Mansur (vaf. 832), Ahmad Marvaziy, Muhammad Xorazmiy (783–850), Sanad ibn ʿAli (vaf. taxm. 864), Abbos Javhariy (taxm. 800–860), aka-uka Banu Musolar (IX asr), shuningdek Ibn Yunus kabi olimlarning ilmiy merosiga oid ma’lumotlar Ibn Nadim, Ibn Qiftiy, Yoqut Hamaviy, Abulfido Ayyubiy singari mualliflar orqali tahlil qilingan. Shu sabab, van Gol izohlarini alohida korpus sifatida ko‘rib, undagi shaxslar va iqtiboslar tarmog‘ini manbashunoslik nuqtai nazaridan chuqurlashtirilgan holda tadqiq etish lozim. Bu nafaqat Ahmad Farg‘oniy haqidagi tasavvurlar genezisini aniqlashtiradi, balki XVII asr Yevropa arabshunosligida musulmon Sharqi, shu jumladan yurtimiz allomalari shaxsiyati va ilmiy merosi qanday talqin qilinganini ham aniqroq ko‘rsatadi. Misol uchun, van Golga asoslangan XVII asrning mashhur sharqshunoslaridan biri Bartalemi d’Erbelo (1625–1695) o‘zining *“Bibliothèque orientale, ou Dictionnaire universel contenant tout ce qui regarde la connoissance des peuples de l’Orient”* (“Sharq kutubxonasi yoki Sharq xalqlari haqidagi barcha bilimlarni o‘z ichiga olgan mufassal lug‘at”)ida Ahmad Farg‘oniy xususida alohida qisqa maqola keltirib, uni *Ma’mun xalifaligi davrida, hijriy 210/810-yillar atrofida astronomik kuzatuvlar ustida ishlagan*ligini[2] qayd etadi. 1694-yilda *“Qur’on”*ni asl arabcha variantda chop etgan gamburglik sharqshunos Abraham Hinkelmann (1652–1695) esa *“Al-Coranus sive Lex Islamitica Muhammedis”* (“Qur’on yoxud Muhammadning islom huquqiy-ta’limiy qonunlari”) nomli nashrning kirish qismida *musulmon geograflari asarlari hali ko‘p bilimlar berishi mumkin*ligini ta’kidlab, *Ahmad Farg‘oniyga oid Yakob van Golning qaydlarida to‘ldirilishi kerak bo‘lgan masalalar ko‘p*ligini[3] qayd etadi. Bu bilan A.Hinkelmann farg‘onalik allomaning *“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”* asarini 1669-yildagi nashrini to‘ldirilgan holda qayta ishlash va chuqur o‘rganishga ishora qilib, bu holatni *“insoniyat uchun dunyoning katta qismini bilmaslik, o‘z yurtida notanish o‘rmonda yashagandek holatda qolishdan ko‘ra og‘irroq”*[4], deb ta’riflagan.

**XULOSA / CONCLUSION / ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Qisqa xulosa sifatida aytish mumkinki, Y.Kristman va van Gol nashrlari orqali Farg‘oniy Yevropada, avvalo, Sharq, jumladan, farg‘onalik yirik astronom olim, osmon tuzilishi va harakatlarini qisqa, tartibli hamda tushunarli shaklda bayon qilgan muallif sifatida tasavvur qilingan. Y.Kristman nashrida bu tasavvur ko‘proq didaktik ruhda

[1]Yaḥyā ibn Abī Manṣūr. Al-Zīj al-Maʾmūnī al-mumtaḥan. The Verified Astronomical Tables for the Caliph al-Maʾmūn: reproduced from MS Arabe 927, Escorial Library. / ed. by F.Sezgin. – Frankfurt am Main: Institute for the History of Arabic-Islamic Science, 1986. – 213 p.

[2]D’Herbelot de Molainville, B. Bibliothèque orientale, ou Dictionnaire universel contenant tout ce qui regarde la connoissance des peuples de l’Orient. / Préf. A. Galland. – A Paris: Par la Compagnie des libraires, 1697. – P. 340.

[3]Hinkelmannus A. Al-Coranus sive Lex Islamitica Muhammedis. – Hamburgi: Ex Officina Schultzio-Schilleriana, 1694. – P. 48.

[4]O‘sha joyda.

shakllanib, Farg‘oniy lotin o‘quvchisi uchun astronomiyaga kirish beruvchi sharq donishmandi sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni unda muallifning ilmiy qiyofasi ko‘proq o‘quv qo‘llanma muallifi sifatida gavdalanadi. Yakob van Gol nashrida esa Farg‘oniyga munosabat ancha filologik va tarixiy tus oladi. U endi shunchaki qadimgi astronom emas, balki arabcha asl matni asosida qayta kashf etilishi lozim bo‘lgan ishonchli muallif, Sharq astronomik bilimlarining muhim vakili sifatida talqin qilinadi. Shu bois 1590-yilgi nashr Yevropada Farg‘oniy haqidagi dastlabki didaktik tasavvurni mustahkamlagan bo‘lsa, 1669-yilgi nashr uning shaxsiyatini yanada aniqroq, manbashunoslik asosida tiklangan tarixiy-ilmiy siymo sifatida namoyon etgan.

Umumiy xulosa shundan iboratki, Ahmad Farg‘oniyning *“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”* asari o‘rta asrlar astronomiya ilmining muhim manbalaridan biri bo‘lib, uning Yevropa ilmiy muhitiga kirib borishi, avvalo, lotin tiliga qilingan tarjimalar orqali amalga oshgan. Shu jihatdan Sevilyalik Xuan, Kremonalik Jerard, Yakob Kristmann hamda Yakob van Gol tomonidan tayyorlangan tarjima va nashrlar asarning G‘arb ilmiy an’anasida qanday qabul qilinganini ko‘rsatuvchi asosiy manbalar hisoblanadi. Ushbu tarjimalarni o‘zaro hamda Farg‘oniy asarining mavjud arabcha qo‘lyozma nusxalari bilan qiyosiy tahlil qilish kelgusidagi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu jarayon manbashunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan bir nechta muhim masalalarni aniqlashtirish imkonini beradi. Xususan, arabshunoslikning turli bosqichlarida amalga oshirilgan lotincha tarjimalarning matn tuzilishi, terminologik talqini, boblar tizimi hamda astronomik tushunchalarni ifodalash uslublarini arabcha asl matn bilan qiyoslash orqali tarjimalarning qaysi darajada aniq, to‘liq yoki redaksion o‘zgarishlar bilan berilganini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Bunday tadqiqot nafaqat Farg‘oniy asarining Yevropa ilmiy an’anasidagi talqinini chuqurroq anglashga xizmat qiladi, balki asarning eng ishonchli matnini tiklash, terminologik qatlamini aniqlashtirish hamda uning ilmiy mazmunini to‘g‘ri talqin etish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda arabcha asl matn va lotincha tarjimalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni tizimli ravishda o‘rganish orqali Farg‘oniy asarining ilmiy jihatdan asoslangan, filologik va terminologik jihatdan aniq o‘zbekcha tarjima matnini yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi. Natijada mazkur yondashuv Farg‘oniy merosining matnshunoslik asosida tanqidiy o‘rganilishiga, uning astronomik qarashlarini zamonaviy ilmiy muhitda yanada to‘g‘ri va mukammal talqin etishga hamda Markaziy Osiyo ilmiy merosining jahon ilm-fani tarixidagi o‘rnini yanada ravshanroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

**Ilova**

***“Kitāb fī uṣūl ʿilm al-nujūm”* asarining**
**1135 va 1175-yillarda Toledoda yaratilgan lotincha tarjimalarini**
**xorijiy fondlarda saqlanayotgan nusxalari**
**RO‘YXATI**
***Sevilyalik Xuan (1090–1150) tarjimalari***

1. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – lat. qu. 510: fols. 194r–209r. || Staatsbibliothek Preußischer Kulturbesitz, Berlin, Germany.
2. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Gonville 141/191: fols. 125–161. || Gonville and Caius College Library, Cambridge, UK.
3. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Gonville 504/271: fols. 14–30. || Gonville and Caius College Library, Cambridge, UK.
4. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – Ii 1.13 (1705): fols. 100r–109v. || Cambridge University Library, Cambridge, UK.
5. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – Kk 1.1 (1935): fols. 212r–222v. || Cambridge University Library, Cambridge, UK.
6. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Erfurt 2° 378: fols. 1r–18v. || Bibliotheca Amploniana, Erfurt, Germany.
7. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Erfurt 2° 395: fols. 228r–238v. || Bibliotheca Amploniana, Erfurt, Germany.
8. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Erfurt 4° 330: fols. 33v–50r. || Bibliotheca Amploniana, Erfurt, Germany.
9. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Erfurt 4° 348: fols. 90r–110r. || Bibliotheca Amploniana, Erfurt, Germany.
10. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Erfurt 4° 351: fols. 103r–130r. || Bibliotheca Amploniana, Erfurt, Germany.
11. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Erfurt 4° 385: fols. 139r–142r || Bibliotheca Amploniana, Erfurt, Germany.
12. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Florence BN J I 32 (San Marci 206): fols. 19r–34r. || Biblioteca Nazionale Centrale di Firenze, Florence, Italy.
13. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Florence BN J II 20 (San Marci 200): fols. 143r–167r. || Biblioteca Nazionale Centrale di Firenze, Florence, Italy.
14. Alfraganus. Rudamenta astronomica. / tr. Joannes Hispalensis. – Arundel MS 377: fols. 43v–56r. || British Library, London, UK.
15. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS 383: fols. 133r–144r. || Royal College of Physicians, London, UK.
16. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Lyon 328: fols. 1r–21v. || Bibliothèque municipale de Lyon, Lyon, France.
17. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. e III 15: fols. koʻrsatilmagan. || Real Biblioteca del Monasterio de San Lorenzo de El Escorial, San Lorenzo de El Escorial, Spain.

18. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. & IV 19: fols. 51–79. || Real Biblioteca del Monasterio de San Lorenzo de El Escorial, San Lorenzo de El Escorial, Spain.

19. Alfraganus. De differentiis XXX, est eius liber de aggregationibus scientiae stellarum. – Clm 534: fols. 1r–12. || Bayerische Staatsbibliothek, Munich, Germany.

20. Alfraganus. De differentiis. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Auct. F. 3. 13: fols. 176r–192v. || Bodleian Library, Oxford, UK.

21. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – Oxford Bodl. cat. Madan 2².6562: fols. ko‘rsatilmagan. || Bodleian Library, Oxford, UK.

22. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientiae stellarum. – MS. Digby 40. Part 5: fols. 89r–113. || Bodleian Library, Oxford, UK.

23. Alfraganus. De differentiis. – MS. Digby 168. Part 1: fols. 13v–21; oxiri yo‘qolgan. || Bodleian Library, Oxford, UK.

24. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Digby 190: fols. 9–87. || Bodleian Library, Oxford, UK.

25. Alfraganus. De scientia astrorum siue de differentiis. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Digby 207. Part 1: fols. 1–16. || Bodleian Library, Oxford, UK.

26. Alfraganus. De scientia astrorum siue de differentiis. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Digby 228: fols. 41–50. || Bodleian Library, Oxford, UK.

27. Alfraganus. De scientia astrorum siue de differentiis. / tr. Joannes Hispalensis. – Merton College MS. 259: fols. ko‘rsatilmagan. || Merton College, Oxford, UK.

28. Alfraganus. Rudimenta. – MS. Savile 16. Part 2: fols. 40–end. || Bodleian Library, Oxford, UK.

29. Alfraganus. Rudimenta. – MS. Savile 25. Part 2: fols. ko‘rsatilmagan. || Bodleian Library, Oxford, UK.

30. Alfraganus. De motibus planetarum. – MS. Arch. Selden. B. 34. Part 2: fols. 13–63. || Bodleian Library, Oxford, UK.

31. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – BN 6506: fols. 27r–38. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

32. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – lat. 7316A: fols. 19ra–45ra. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

33. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – BN 7377B: fols. 99r–119v. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

34. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – BN 7434: fols. 52–77. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

35. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – BN 14704 (St. Victor 848): fols. 248r–259r. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

36. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – BN 15171 (St. Victor 900): fols. 66r–77r. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

37. Alfraganus. De astronomia (frag.). – MS 98-27: fol. 98r. || Biblioteca de la Santa Iglesia Catedral, Toledo, Spain.

38. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – Reg. lat. 1241: fols. 47r–107v. || Biblioteca Apostolica Vaticana, Vatican City.

39. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Vienna 5417: fols. 91–112 (?). || Österreichische Nationalbibliothek, Vienna, Austria.

40. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – MS. Vienna Dominican. 121: fols. 146v–156v. || Dominican Library, Vienna, Austria.

41. Alfraganus. Differentie scientie astrorum. / tr. Joannes Hispalensis. – W. M. Voynich 1: fols. 3r–27v. || Beinecke Rare Book and Manuscript Library, Yale University, New Haven, USA.

***Kremonalik Jerard (1114–1187) tarjimalari***

1. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Gerardus Cremonensis. – F.II.33: fols. 44r–57r. || Universitätsbibliothek Basel, Basel, Switzerland.

2. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – MS. Berlin 956: fols. 19v–21r; 8-bob boshigacha. || Staatsbibliothek Preußischer Kulturbesitz, Berlin, Germany.

3. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – MS. Berlin 963 (lat. 2° 192): fol. 18r seq.; 29-bob o‘rtasigacha. || Staatsbibliothek Preußischer Kulturbesitz, Berlin, Germany.

4. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Gerardus Cremonensis. – lat. fol. 610: fols. 101r–129r. || Staatsbibliothek Preußischer Kulturbesitz, Berlin, Germany.

5. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – MS. Bordeaux 419: fols. 10–23. || Bibliothèque municipale de Bordeaux, Bordeaux, France.

6. Alfraganus. Ameti liber aggregationis scientiae stellarum. – Plut. 29.9: fols. ko‘rsatilmagan. || Biblioteca Medicea Laurenziana, Florence, Italy.

7. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – Florence BN II II 457: fols. 15r–25v. || Biblioteca Nazionale Centrale di Firenze, Florence, Italy.

8. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – Florence BN II IV 267: fols. 34r–43r. || Biblioteca Nazionale Centrale di Firenze, Florence, Italy.

9. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – Florence Magliab. 39, 74: fols. 14–25. || Biblioteca Nazionale Centrale di Firenze, Florence, Italy.

10. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Gerardus Cremonensis. – e.III.15: fols. 25ra–36va. || Real Biblioteca del Monasterio de San Lorenzo de El Escorial, San Lorenzo de El Escorial, Spain.

11. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Gerardus Cremonensis. – MS 10009 (olim Toledo 98-20): fols. 70va–84vb. || Biblioteca Nacional de España, Madrid, Spain.

12. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Gerardus Cremonensis. – MS 10053 (olim Toledo 98-21): fols. 19ra–27ra. || Biblioteca Nacional de España, Madrid, Spain.

13. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientiae stellarum et principiis celestium motuum. – Clm 234: fols. 1–37. || Bayerische Staatsbibliothek, Munich, Germany.

14. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – MS. Digby 215: fols. 46v–75r. || Bodleian Library, Oxford, UK.

15. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientiae stellarum. – MS. Bodl. 463: fols. ko‘rsatilmagan. || Bodleian Library, Oxford, UK.

16. Alfraganus. Liber de aggregationibus. – MS. Laud. Misc. 644: fols. ko‘rsatilmagan. || Bodleian Library, Oxford, UK.

17. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – BN 7195: fols. 117r–137v. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

18. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – BN 7267: fols. 33r–40v; oxiri yo‘qolgan. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

19. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – 7280: fols. 1r–14v. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

20. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – 7281: fols. 1–15. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

21. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – BN 7298: fols. 124–142. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

22. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – BN 7400: fols. 1r–17r. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

23. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Gerardus Cremonensis. – lat. 7413: fols. II/50ra–75va. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

24. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – BN 16202 (Sorb. 972): fols. 1–26. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

25. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – BN 16654 (Sorb. 1820): fols. 1–32. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

26. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientiae stellarum [sive Rudimenta astronomica]. / tr. Gerardus Cremonensis. – MS 2051: fols. 1r–13v. || Biblioteca Histórica, Universidad de Salamanca, Salamanca, Spain.

27. Alfraganus. De scientia astrorum. / tr. Gerardus Cremonensis. – XI.619: fols. 169va–186r. || Stiftsbibliothek, Sankt Florian, Austria.

28. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – Stalingrad Acad. Scien. AB-III: fols. 2–12 || Academy of Sciences, Stalingrad.

29. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientiae stellarum. / tr. Gerardus Cremonensis. – Pal. lat. 1376: fols. 238r–253v. || Biblioteca Apostolica Vaticana, Vatican City.

30. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – MS. Venice 344: fol. 175r seq. || Venice, Italy.

31. Alfraganus. Liber de aggregationibus scientie stellarum et principiis celestium motuum. / tr. Gerardus Cremonensis. – MS. Vienna 5277: fols. 237r–248v; parchalar. || Österreichische Nationalbibliothek, Vienna, Austria.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES / СПИСОК ИСТОЧНИКОВ

### *Manbalar / Sources / Источники*

1. Abū al-Faraj ibn Hārūn. Taʾrīḫ muḫtaṣar al-duval. Historia compendiosa dynastiarum. / Arabice edita et latine versa ab Eduardo Pocockio. – Oxoniae: excudebat H.Hall Celeberrimae Academiae typographus, impensis Ric. Davis, 1663. – 1102 p.

2. Abū al-Fidāʾ Ismāʿīl ibn ʿAlī ibn Maḥmūd. Taqwīm al-buldān. Géographie d’Aboulféda: texte arabe publié d’après les manuscrits de Paris et de Leyde. / Publié par M.Reinaud et M. le Baron Mac Guckin de Slane. – Paris: Imprimerie royale, 1840. – 539 p.

3. Al-Farġānī Aḥmad ibn Muḥammad ibn Kathīr al-Jawāmiʿ ʿilm al-nujūm wa-uṣūl al-ḥarakāt al-samāwīya: (Text arabisch und lateinisch). / Herausgegeben als Elementa astronomica mit lateinischer Übersetzung von Jacobus Golius; Nachdruck der Ausgabe Amsterdam 1669. / Herausgegeben von Fuat Sezgin. – Frankfurt am Main: Institut für Geschichte der Arabisch-Islamischen Wissenschaften, 1986. – 233 s.

4. Al-Farġānī. al-Kāmil fī ṣanʿat al-asṭurlāb al-shamālī va-l-janūbī va-ʿilalihimā bi-l-handasa va-l-ḥisāb. – (1) Landberg 56 (Ahlwardt 5790); (2) Landberg 58 (Ahlwardt 5791); (3) Ms. or. quart. 99 (Ahlwardt 5792) || Staatsbibliothek zu Berlin, Berlin, Germany.

5. Al-Farġānī. al-Kāmil fī ṣanʿat al-asṭurlāb al-shamālī va-l-janūbī va-ʿilalihimā bi-l-handasa va-l-ḥisāb. – Or. 5479. || British Library, London, UK.

6. Al-Farġānī. al-Kāmil fī ṣanʿat al-asṭurlāb al-shamālī va-l-janūbī va-ʿilalihimā bi-l-handasa va-l-ḥisāb. – Arabe 2456. || Bibliothèque nationale de France, Paris, France.

7. Al-Farghānī. On the Astrolabe: Arabic text edited with translation and commentary. / Ed. and trans. by Richard Lorch. – Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 2005. – 447 p.

8. Alfraganus. Alfragani astronomorum peritissimi compendium, id omne quod ad astronomica rudimenta spectat complectens, Ioanne Hispalensi interprete: nunc primum pervetusto exemplari consulto, multis locis castigatius redditum. – Paris: ex officina Christiani Wecheli, 1546. – 109 p.

9. Alfraganus. Brevis ac perutilis compilatio Alfragani astronomorum peritissimi, totum id continens quod ad rudimenta astronomica est opportunum. / tr. Joannes Hispalensis. – Ferrara: Andreas Belfortis, 1493. – 110 p.

10. Alfraganus. Continentur in hoc libro: Rudimenta astronomica Alfragani. Item Albategnius astronomus peritissimus de motu stellarum ex observationibus tum propriis, tum Ptolemaei, omnia cum demonstrationibus geometricis et additionibus Ioannis de Regiomonte; item Oratio introductoria in omnes scientias mathematicas; item introductio in elementa Euclidis; item Epistola Philippi Melanthonis nuncupatoria. / tr. Joannes Hispalensis. – Norimbergae: apud Ioannem Petreium, 1537. – 257 p.

11. Alfraganus. Muhamedis Alfragani Arabis chronologica et astronomica elementa, e Palatinae Bibliothecae veteribus libris versa, expleta, et scholiis expolita. Additus est commentarius, qui rationem calendarii Romani, Aegyptiaci, Arabici, Persici, Syriaci et Hebraei explicat. / Autore M. Iacobo Christmanno. – Francofurdi: apud Andreae Wecheli heredes, Claudium Marnium et Ioannem Aubrium, 1590. – 565 p.

12. Alfraganus. Muhamedis Alfragani Arabis chronologica et astronomica elementa. Additus est commentarius, qui rationem calendarii Romani, Aegyptiaci, Arabici, Persici, Syriaci et Hebrai explicat et intervalla praecipuarum aerarum declarant. / Iacobus Christmannus. – Francofurti ad Moenum: A. Gambierii, 1618. – 565 p.

13. Alfraganus. Muhammedis fil. Ketiri Ferganensis, qui vulgo Alfraganus dicitur, Elementa astronomica, Arabicè et Latinè. Cum notis ad res exoticas sive orientales, quae in iis occurrunt. Opera Iacobi Golii. – Amstelodami: apud Johannem Janssonium à Waasberge et viduam Elizei Weyerstraet, 1669. – 524 p.

14. Alfragano. Il “libro dell’aggregazione delle stelle” (Dante, Conv., II, VI–134) secondo il Codice Mediceo-Laurenziano Pl. 29, Cod. 9 contemporaneo a Dante. / Pubbl. con introduzione e note da Romeo Campani. – Città di Castello: S.Lapi, 1910. – 175 p.

15. Al-Qifṭī Jamāl al-Dīn Abū al-Ḥasan ʿAlī ibn Yūsuf ibn Ibrāhīm al-Shaybānī. Iḫbār al-ʿulamāʾ bi-aḫbār al-ḥukamāʾ / Taḥqīq: Ibrāhīm Shams al-Dīn. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-ʿIlmiyyah, 2005. – 324 ṣ.

16. Binae tabulae geographicae, una Nassir Eddini Persae, altera Ulug Beigi Tatari: opera et studio Johannis Gravii nunc primum publicatae. – Londini: Typis Jacobi Flesher, prostant apud Cornelium Bee, 1652. – 64 p.

17. D’Herbelot de Molainville, B. Bibliothèque orientale, ou Dictionnaire universel contenant tout ce qui regarde la connoissance des peuples de l’Orient. / Préf. A. Galland. – A Paris: Par la Compagnie des libraires, 1697. – 1059 p.

18. Elichmann J. Literae exoticae scriptae arabice. / ed. Zechendorf J. – Iena, 1639. – 16 p.

19. Hinkelmannus A. Al-Coranus sive Lex Islamitica Muhammedis. – Hamburgi: Ex Officina Schultzio-Schilleriana, 1694. – 660 p.

20. Ibn Abī Uṣaybi'ah. Uyūn ul-Anbā fī Ṭabaqāt ul-Aṭibbā. Lives of the physicians. / ed. Ibn Al-Tahhan. – Cairo: Al-Wahbah Printing Press, 1882. – 406 p.

21. Ibn an-Nadim. The Fihrist. – 2 vols. / ed. and tr. B.Dodge. – New York & London: Columbia University Press, 1970. – 1186 p.

22. Ibn Ḥawqal Abū al-Qāsim Muḥammad ibn ʿAlī. Viae et regna: descriptio ditionis moslemicae. Kitāb al-Masālik wa-l-mamālik. / ed. M.J. de Goeje. – Lugduni Batavorum: E.J.Brill, 1873. – 406 p.

23. Ibn Khallikan. Biographical Dictionary. – Vol. I. / tr. Baron Mac Guckin de Slane. – Paris: Oriental Translation Fund of Great Britain and Ireland, 1842. – 734 p.

24. Ibn Khallikan. Biographical Dictionary. – Vol. II. / tr. Baron Mac Guckin de Slane. – Paris: Oriental Translation Fund of Great Britain and Ireland, 1843. – 718 p.

25. Ibn Khallikan. Biographical Dictionary. – Vol. III. / tr. Baron Mac Guckin de Slane. – Paris: Oriental Translation Fund of Great Britain and Ireland, 1868. – 708 p.

26. Ulugh Beg. Epochae celebriores, astronomis, historicis, chronologis, Chataiorum, Syro-Graecorum, Arabum, Persarum, Chorasmiorum, usitatae : ex traditione Ulug Beigi, Indiae citra extraque Gangem principis. / Eas primus publicavit, recensuit et commentariis illustravit Johannes Greavius. – Londini: Typis Jacobi Flesher, prostant apud Cornelium Bee, 1650. – 104 p.

27. Ulugh Beg. Tabulae longitudinis ac latitudinis stellarum fixarum: additur demum elenchus nominum stellarum; in calce libri accesserunt Mohammedis Tizini tabulae declinationum et rectarum accensionum. / Ex tribus invicem collatis manuscriptis Persicis jam primum luce ac Latio donavit et commentariis illustravit Thomas Hyde. – Oxonii: Typis Henrici Hall Academiae Typographi, sumptibus authoris; venales prostant apud Richardum Davis Bibliopolam, 1665. – 288 p.

28. Yaḥyā ibn Abī Manṣūr. Al-Zīj al-Maʾmūnī al-mumtaḥan. The Verified Astronomical Tables for the Caliph al-Maʾmūn: reproduced from MS Arabe 927, Escorial Library. / ed. by F.Sezgin. – Frankfurt am Main: Institute for the History of Arabic-Islamic Science, 1986. – 213 p.

29. Қуръони карим. Маънолари, таржима ва тафсири. / Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2004. – 618 б.

***Ilmiy tadqiqotlar / Scientific Research / Научные исследования***

30. Abdukhalimov B. Aḥmad al-Farghānī and His "Compendium of Astronomy". // Journal of Islamic Studies. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – Vol. 10, No. 2. – P. 142-158.

31. Carmody F.J. Arabic Astronomical and Astrological Sciences in Latin Translation: A Critical Bibliography. – Berkeley: California University Press, 1956. – 193 p.

32. Hartmann A.T. Nachricht von einem literarischen Nachlaß des berühmten Orientalisten Jacobus Golius. // Neue Leipziger Literaturzeitung. Intelligenzblatt. – 1805. – Jg. 3. – S. 713–717.

33. Mahmudov O.V. Fan tarixida arabshunoslikning shakllanish bosqichini qayta davrlashtirish zarurati. // «Sharq mash'ali» ilmiy jurnali. – Arabshunoslik turkumi. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025. – № 2. – B. 151-171.

34. Mahmudov O.V. Shayx ar-raislikdan Qurtuba qirolligigacha: Ibn Sino siymosining lotin mediyevistikasidagi interpretatsiyalari. // Fan va turmush. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2025. – № 4. – B. 28-35.

35. Makhmudov O.V. Avicienna – The King of Sevilla and Cordova. // Proceedings of the 18th International Academician U.Karimov Conference of Young Orientalists "Current conditions of the preservation and research of Ancient written Sources". – Istanbul: IRCICA, 2024. – P. 117-125.

36. Makhmudov O.V. In Latin-language sources Ibn Sinā – as a European King: reasons to describe and clarifications to them. // Collection of scientific articles of the International scientific conference on theme «Issues of the Central Asian History of World Historiography». – Fergana: Fergana University Press, – London: OMNI Scriptum, 2022. – P. 213-229.

37. Sezgin F. Geschichte des arabischen Schrifttums. – Bd. VI. Astronomie. – Leiden: E.J.Brill, 1978. – 522 s.

38. Абдуҳалимов Б.А. «Байт ал-ҳикма» ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 264 б.

39. Маҳмудов О.В. Фарғонийнинг «Китоб фи усул илм ан-нужум» асари нашри ким ? // Ёш шарқшуносларнинг академик У.Каримов номидаги илмий-амалий конференцияси тезислар тўплами. – Тошкент: ЎзР ФА Шарқшунослик институти, 2019. – Б. 220-221.

***QAHRAMON IMAMNAZAROV***
*Katta o'qituvchi, TDSHU*

# Mo'g'ullarning mahfiy tarixi manbasi tavsifi

***Annotatsiya****. Mo'g'ul tilidagi manbalar o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'liga ega. Mo'g'ulistonning keng dashtlarida qadimdan yashab kelgan ko'chmanchi qabila va xalqlarning ko'p asrlik tarixshunoslik an'analarini rivojlantirgan va boyitgan holda, odatiy ko'chmanchilik muhitini asks ettirgan. Mo'g'ullarning tarixiy bilimlari manbalari muammosini ularga Mo'g'ulistonning protomo'g'ul va turkiy zabon aholisidan meros bo'lib qolgan an'analardan ajratgan holda hal qilib bo'lmaydi. Zero, ko'chmanchi xalqlarning nafaqat madaniy hayotning boshqa sohalaridagi, balki tarixiy bilimlardagi yutuqlari ham izsiz yo'qolmasdan, biridan ikkinchisiga o'tib, pirovardida mo'g'ullarda yozma tarixning paydo bo'lishi va rivojlanishiga zamin yaratgani isbotlangan. Turkiy va mo'g'ul xalqlarining afsona va rivoyatlarida, totem ajdodlardan kelib chiqqani haqidagi tasavvurlarida, tashqi olam va tarixga, xon hokimiyatiga oid shomoniy qarashlarida, shuningdek, tarixiy voqealarni qayd etish usullarida umumiy jihatlar ko'p.*

***Аннотация.*** *Источники на монгольском языке имеют своеобразный путь исторического развития. Они отражают привычную кочевую среду, развивая и обогащая многовековые историографические традиции кочевых племен и народов, издревле проживавших в обширных степях Монголии. Проблему источников исторических знаний монголов невозможно решить в отрыве от традиций, унаследованных ими от протомонгольского и тюркоязычного населения Монголии. Доказано, что достижения кочевых народов не только в других сферах культурной жизни, но и в области исторических знаний не исчезали бесследно, а передавались от одного к другому, в конечном итоге создав основу для возникновения и развития письменной истории у монголов. В мифах и преданиях тюркских и монгольских народов, в их представлениях о происхождении от тотемных предков, в шаманских взглядах на внешний мир, историю и ханскую власть, а также в способах фиксации исторических событий много общего.*

***Abstract.*** *Sources in the Mongolian language have followed a unique path of historical development. They reflect the familiar nomadic environment, developing and enriching the centuries-old historiographical traditions of the nomadic tribes and peoples who have inhabited the vast steppes of Mongolia since ancient times. The issue of the sources of the Mongols' historical knowledge cannot be addressed in isolation from the traditions they inherited from the Proto-Mongolian and Turkic-speaking populations of Mongolia. It has been proven that the achievements of nomadic peoples—not only in other spheres of cultural life but also in the field of historical knowledge—did not disappear without a trace but were passed down from one to another, ultimately creating the foundation for the emergence and development of written history among the Mongols. There is much in common in the myths and legends of the Turkic and Mongolian peoples, in their concepts of descent from totemic ancestors, in shamanistic views on the external world, history, and khanly power, as well as in their methods of recording historical events.*

**Kirish**.Mo‘g‘ullar tarixini o‘rganishda hozirga qadar mo‘g‘ulshunos mutaxassislar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan, XIII-XIV asrlardagi mo‘g‘ul xalqining etnik tarixiga oid har tomonlama va izchil tahlil qilingan ishlar deyarli kam uchraydi.

Mo‘g‘ul tilidagi manbalar mo‘g‘ullar tarixining qadimgi va hozirgi bosqichlari hamda davrlarini o‘rganishga imkon beradi. Mo‘g‘ullar tarixining qadimgi va o‘rta asrlar davri bo‘yicha birlamchi manba xalq og‘zaki ijodidir. Ko‘chmanchi xalqlarda, jumladan, mo‘g‘ullarda ham tarixiy ma’lumotlar og‘zaki an’ana sifatida boshqa xalqlarga nisbatan kam uchramaydi. Mo‘g‘ullarda butun bir tarixiy voqealarni yoddan aytib berish odat tusiga kirgan. Afsonalar va dostonlarning yaxshi bilimdonlari ham ba’zi uzun dostonlarni bir necha kun ketma-ket yoki bir oy davomida aytib bera olganlar. Og‘zaki an’ana bugungi kunda ham avvalgidek muhim rol o‘ynaydi. Yozma yodgorliklarga kiritilmagan qimmatli tarixiy ma’lumotlar va dalillarni mo‘g‘ul folkloridan o‘rin olgan. Mo‘g‘ulistonning keng hududidagi tarqoq qabilalarning birlashishini yakunlagan yagona mo‘g‘ul davlatining barpo etilishi mo‘g‘ullarning tarixiy bilimlarini rivojlantirishda tub burilish yasadi. 1206-yilda

Chingizxon tomonidan asos solingan bu davlat ilk davlat edi. Ushbu davlatning yaratilishi mo‘g‘ul xalqi tarixida ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan ilg‘or hodisa ekani umume’tirof etilgan.

Mo‘g‘ulistonda yagona davlat doirasida munosabatlarning o‘rnatilishi va mo‘g‘ul elatining shakllanishi jarayoni yakunlandi, bu esa o‘z navbatida mo‘g‘ullarning ma’naviy madaniyati rivojida sezilarli siljishlarga olib keldi.

XIII asr boshlarida uyg‘ur yozuvi asosidagi umummo‘g‘ul yozuvining joriy etilishi eng yirik madaniy-tarixiy voqea bo‘ldi. Yosh davlat ehtiyojlari uchun savodli va bilimli kishilar talab qilinardi, bu esa mo‘g‘ullarga savod o‘rgatish tizimini yuzaga keltirdi. Natijada nafaqat davlat idoralarida xizmat qila oladigan, balki adabiy ijod bilan shug‘ullanishga ham qodir bo‘lgan odamlar paydo bo‘ldi. Mo‘g‘ul xoqonlari saroyida turli davlat hujjatlarini tayyorlaydigan kotiblar saqlangan. Bu ishni mo‘g‘ullar bilan bir qatorda uyg‘urlar, naymanlar, xitoylar va Markaziy Osiyodan chiqqanlar ham bajarganlar; ularning asosiy vazifasi mo‘g‘ul xoqonlarining farmonlari va boshqa hujjatlarini tegishli tillarda tuzishdan iborat bo‘lib, bu o‘z navbatida madaniyatning yoyilishiga xizmat qilgan.

Xususan, mo‘g‘ul xalqining og‘zaki ijodini o‘rganmay turib, mo‘g‘ul qabilalari va urug‘larining kelib chiqishi haqida biror asarni yozish juda murakkab bo‘lgan. Masalan, bugungi kunda Mo‘g‘ulistonning g‘arbida istiqomat qiluvchi zaxchin va elet qabilalari: “Bizning ota-bobolarimiz, naymanlar va bizga qarindosh bo‘lgan uch daryoliklar!” deb aytish odati hali ham mavjud[1]. Bu dalillar bir vaqtlar zaxchin va elet urug‘larining ajdodlari naymanlar bo‘lganligidan dalolat berib, ular o‘sha davrda Markaziy Mo‘g‘ulistondagi Onon, To‘le va O‘rxun daryolari havzasidagi mo‘g‘ullar bilan qarindoshlik urug‘chilik munosabatlarida yashab kelganlar.

Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodini tizimli o‘rganish haqiqatan ham katta ahamiyatga ega. Xalq og‘zaki ijodining buyuk merosidan biz tarixiy asarlarda qayd etilmagan noyob ma’lumotlarni olishimiz mumkin. S. Damdinsurenning “Mo‘g‘ul adabiyoti antologiyasining eng yaxshi yuzta namunasi”[2] kitobida xalq og‘zaki ijodi asarlari – “Uch yuz askar ustidan qozonilgan g‘alaba haqida qissa”, “Chingizning to‘qqiz urlugi bilan bahsi”, “Chingizning ikki o‘giti tarixi” va boshqa ko‘plab noyob tarixiy materiallar jamlangan.

***1.Mo‘g‘ullarning mahfiy tarixi manbasi tasnifi***. “Mongγol-un niγuča tobčiyan”[3] (Mo‘g‘ullarning mahfiy tarixi) Chingizxonning butun hayoti va faoliyati tarixi qayd

[1]Чулууны Далай. Монголия в XIII—XIVвеках. М.,Изд-во “Наука”,1983. – С 7.

[2] Дамдинсурен Ц. Обзор монгольской литературы. Т. И. Улан-Батор, 1957. — 157 с.

[3] Козин С. А. Сокровенное сказание. Монгольская хроника 1240 г. под названием Mongγol-un niγuča tobčiyan. Юань чао би ши. Монгольский обыденный изборник. — Ленинград: Изд-во АН СССР, 1941. -619 с. Палладий Кафаров Старинное Монгольское сказание о Чингисхане// Труды членов российской духовной миссии в Пекине. Т. IV. СПб: типография В. Безобразова и комп., 1866. — 258 с. Mongolica: К 750-летию “Сокровенного сказания”. Под ред. Солнцев В.М. — М.: Наука.1993. — 343 с.

etilgan asar bo‘lib, matn oxirida O‘qtoy xoqon haqidagi qo‘shimchalar keltirilgan. Xitoy manbalarida tilga olingan mo‘g‘ul asarlarida 国书(“Goshu” Davlat tarixi), Mongγol-un tobčiyan (Mo‘g‘ullar tarix) yoki “Goshu to bi chi yan” (Davlati tarixi kitobi), “Mo‘g‘ullarning mahfiy tarixi” manbasining deyarli kompilyatsiyasi bo‘lgan deb hikoya qilingan, shu bilan birga 国书 “Goshu” yoki 国史“Goshi”ehtimol, mo‘g‘ulcha "Tobchiyan"ning xitoycha tarjimasi bo‘lgan[1].

Yuan sulolasiga sidqidildan xizmat qilgan xitoylik amaldor Syuy Yutzi shunday yozgan edi: 国书(Goshu “Davlat tarixi”), deb ataladigan manba “Tobchiyan”dir. Yuan sulolsai davri yakunida — Min davri boshlarida yashagan tarixchi Yan Veychjen ham “Go shu” va “Tobchiyan” bir-birini kompiliyatsiya qilgan ta’kidlagan, yapon olimi Takashiro Kobayasi esa o‘zining “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi“tadqiqotida[2] “Go shu to bi chi yan” — mo‘g‘ulcha “Mo‘g‘ul bichig un tobchiyan” (Mo‘g‘ullarning mahfiy tarix) bir xil asar ekanligini va ular ostida mo‘g‘ulcha “Tobchiyan” nazarda tutilganligini ta’kidlaydi.

“Mong‘ol-un-niucha tobchaan” (“Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi”) mo‘g‘ullarning ilk tarixi bo‘yicha eng muhim manba hisoblanadi. Ushbu yodgorlik mo‘g‘ul tilida Sichqon yilida yaratilgan. Ma’lumki, yodgorlikning yozilish sanasi haligacha aniq emas va 1228, 1240, 1252 va 1264-yillarga to‘g‘ri kelishi mumkin va hokazo, ammo 1240-yil yodgorlikning yaratilishining eng ehtimoliy sanasi deb tan olingan. Matn dastlab uyg‘ur yozuvida yozilgan, keyinchalik esa Xitoy iyerogliflari bilan transkripsiya qilingan va shu sababli ham bizgacha yetib kelgan.

Xitoy manbalarida ko‘p uchraydigan “Goshu” nomi “Mo‘g‘ullar davlati tarixi kitobi’ ma’nosida keltirilgan. ’Ulus un bichig un tobchiyan” yoki “Mo‘g‘ul bichig n tobchiyan” “Tobchiyan” bilan bir xil asar bo‘lib, ba’zan “Yeke tobchiyan” (Buyuk tarix) deb ham ataladi.[3] Bu haqda Yuan tariningning 181-bobida ma’lumot berilgan.[4] Sh.Birauning ta’kidlashicha, tibetlik tarixchi Gungadorj “Ulagan debter” (Qizil kitob) asarini yozishda “Yeke tobchiyan”ni tadqiq etgan.[5]

1268-yilda Xubilay xoqonning farmoniga binoan olimlar mo‘g‘ullarning barcha davrlardagi tarixini yozishga kirishdilar. Uni “Mo‘g‘ul bitig un tobchiyan” yoxud “Yeke tobchiyan” deb atay boshladilar. “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi”da VII – XIII asr o‘rtalaridagi voqealar qayd etilgan, biroq XIII–XIV asrlardagi mo‘g‘ullar haqida deyarli ma’lumot uchramaydi. Shunga qaramay, ko‘rib chiqilayotgan davrning siyosiy institutlari, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini o‘rganishda ularni

[1] Дамдинсурен Ц. Тайная история Монголов. Улан-Батор, 1975.- 240 с.
[2]小林高四郎 訳(蒙古の秘史)生活社、1940 年 2 月 20 日 70 页。Kobayashi Takashiro tarjimasi (Mo’g’ullarning maxfiy tarixi), Seikatsusha, 1940-yil 20-fevral.70 bet
[3] 张荣刚. 《蒙古秘史》的体例及散文体特征. 贵阳学院学报(社会科学版), 2019, 第 14 卷 (6):62 页.
[4] https://zh.wikisource.org/wiki/元史/181 卷/虞集〈
[5] Ш. Бира . О Золотой книге Ш. Дамдина. У. Б., 1964, с. 61.

“Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi”dagi ma’lumotlar bilan qiyoslash zarur.Manbada mo‘g‘ul qabilalari ichidagi siyosiy kurashlar aks etaganini ko‘rish mumkin. Bu manbaga bag‘ishlangan tadqiqotlar orasida yapon olimi Takasiro Kobayasining ishi alohida qiziqish uyg‘otadi[1].

Mo‘g‘ul xoqonlari haqidagi xitoycha “Shi lu deb atalgan (Haqiqiy yozuvlar) asari “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi”dan farqli o‘laroq, mo‘g‘ul xoqonlari faoliyatining batafsil tavsifini o‘z ichiga olgan. Haqiqiy yozuvlar xitoy imperatorlarining (Shi lu)larini tuzishning an’anaviy uslubiga taqlidan yaratilgan. Yuan tarixi asaridagi amaldor Yuy Szining tarjimayi holida shunday deyiladi: «Imperator ajdodlari haqidagi “Haqiqiy yozuvlar”ning ayrimlari hali tayyor bo‘lmagani bois [Yuy Szi] Xanlin akademiyasi va Davlat tarixi akademiyasiga ularni tuzishni iltimos qildi. O‘sha davrda barcha idora va bo‘limlar [vafot etgan imperatorlarning] faoliyati haqidagi [yozuvlarni] tekshirish va tahrirlash bo‘yicha hisobotlar taqdim etardi. Adabiyot akademiyasi amaldorlari imperatorga [Yuy Szining iltimosi yuzasidan] shunday dedilar: “Qonunga ko‘ra, “Haqiqiy yozuvlar”ni begonalarga berish mumkin emas. Shu sababli, faoliyat haqidagi [yozuvlarni] ham boshqa shaxslarga ko‘rsatmaslik lozim”[2]. Yuy Szi yana davlat tilidagi “Tobchiyan”ni Tay-szu davridan boshlab [imperatorlarning] faoliyati [tavsiflari] bilan to‘ldirishni ham iltimos qildi. Imperator ma’ruzachisi Tosh Xayya bunga javoban: “Tobchiyonni chet elliklarga berish mumkin emas!” – dedi. Shu tariqa bu ishlarning barchasi to‘xtatildi». Bundan ko‘rinib turibdiki, “Tobchiyan”va «Haqiqiy yozuvlar» sir saqlangan ikki xil asar bo‘lgan.

Garchi “Haqiqiy bitiklar” aksariyat hollarda xitoy tilida tuzilgan bo‘lsa-da, ularning asl nusxasi mo‘g‘ul tiliga tarjima qilinib, xoqonlar va yuqori martabali mo‘g‘ul amaldorlariga o‘qish uchun taqdim etilgan va shu tariqa tekshiruvdan o‘tkazilgan. Shu sababli, bu bitiklarni asl asarlar deb hisoblash mumkin bo‘lgan.

Shuningdek, zodagonlar faoliyatini yorituvchi hujjatlar bilan ishlashning amaliy tajribasidan ayon bo‘ladiki, “Haqiqiy bitiklar”da xoqonlar hayoti, muhim maxfiy ishlar yoki bevosita Mo‘g‘ulistonning o‘ziga oid yirik tadbirlar haqidagi paragraflar mo‘g‘ul tilida yozilgan. Shu bois, “Haqiqiy bitiklar”ni nafaqat xitoy, balki mo‘g‘ul manbasi sifatida ham ko‘rib chiqishimiz o‘rinlidir.

Ba’zi Xitoy manbalarida Mo‘g‘ulistonda tarixiy asarlar shunchaki muqovasining rangiga qarab “ko‘k, sariq, qizil, oltin va oq” deb nomlanganligi qayd etilgan. “Mo‘g‘ul-tibet o‘n kunligi” jurnalida shunday deyilgan edi: “Mo‘g‘ulistonda besh xil rangdagi [jildli] sutra va kitoblar ko‘p bo‘lgan. Afsuski, ulardan oz qolgan. Shunga qaramay, Pekindagi imperatorning qishki saroyida ko‘plab kitoblar saqlanayotganiga shubha yo‘q”. Ayrim tarixchilar “Oltin kitob”ni “Maxfiy tarix”ning bir nusxasi bo‘lsa kerak, deb hisoblaydi. Nima bo‘lganda ham, “Oltin kitob” mo‘g‘ullar tarixiga oid

[1]小林高四郎 訳(蒙古の秘史)生活社、1940 年 2 月 20 日 75 页

[2] https://zh.wikisource.org/wiki/元史/181/虞集〈

qiziqarli va sermazmun asar bo‘lganligi shubhasiz. Keyinchalik Mo‘g‘ulistonda “Oltin tobchi” (“Oltin tarix”) yoki “Oltin daftar” (“Oltin kitob”) nomi ostida ko‘plab shunga o‘xshash asarlar paydo bo‘ldi; jumladan, “Oltin kitob” an’analarini davom ettirgan[1].

Lyu Szinsyaoning 1979-yilda Xuxa-Xotoda nashr etilgan “Arban gurba – arban doldugar jagun u mongol un teuke bichleg” (XIII–XVII asrlar mo‘g‘ul tarixshunosligi) asarida qayd etilishicha, unda “Altay xaqan u tuguji” asari batafsil tahlil qilingan.[2] Mazkur asarda Altay xaqonning (1507–1582) Mo‘g‘ulistonda dehqonchilik va polizchilikni joriy etish, chorvachilik mahsulotlarini ko‘paytirish, Xuxa-Xoto shahrini qurish hamda savdo va hunarmandchilikni rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlari haqida yangi ma’lumotlar uchraydi. Shuningdek, ushbu asarda 1558-yilda Mo‘g‘uliston va Xitoyning Min imperiyasi o‘rtasida teng huquqli tinchlik shartnomasi tuzilgani haqidagi qiziqarli ma’lumotni ham topamiz.

“Yuan dyan chjan” (“Yuan sulolasi qoidalari”) nomli asar XIII asrda yaratilgan. Hozirda uning mo‘g‘ul tilidagi asl nusxasi mavjud emas, faqat xitoy tilidagisi saqlanib qolgan. Ayrim olimlar “Yuan sulolasi qoidalari”ning mo‘g‘ulcha asl nusxasini hatto hozirgi kunda ham topish mumkin, deb hisoblaydi. Haqiqatan ham, so‘nggi paytlarda mamlakatning turli hududlaridan qadimiy mo‘g‘ul tilidagi matn parchalari topilmoqda va ular “Yuan sulolasi qoidalari”ning asl nusxasi bo‘lishi mumkin. Biroq olimlar bu parchalarning aynan shu asar asl nusxasiga tegishli ekanini hali aniq tasdiqlagani yo‘q. Mazkur asar xitoycha matnining mo‘g‘ul tiliga qilingan to‘liq tarjimasi MXR Fanlar akademiyasi Tarix institutining ilmiy kutubxonasi qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.[3]

XIII asrda mo‘g‘ul olimi, xorijiy tillarni mukammal bilgan taniqli tarixchi Chog‘on tomonidan yozilgan. “Yuan shi”ning 137-bobida aytilishicha, Chog‘on Buyantu xaqon (1311–1320) farmoni bilan “Tobchiyan”dan ko‘chirmalarni tarjima qilgan[4]. Manjur imperatori Kansi (1662–1723) hukmronligi davrida xuddi shu nom ostida yana bir asar – “Muqaddas jangovar zotning shaxsiy yurishlari tavsifi” nashr etilgan.

Olim Chog‘on xorijiy tillarda o‘qiy olgan, xitoycha savodli yozgan. Xitoy tarixiy adabiyotida u ko‘pincha Bay Yun degan xitoycha ism-sharif bilan tilga olinadi. Xitoy manbalarida uning G‘arbiy o‘lkadan ekani qayd etilgan. Bizningcha, u mo‘g‘ul bo‘lishi ehtimoli katta, chunki o‘sha davrda sarkarda Bayandan tortib ko‘plab mashhur mo‘g‘ul siyosiy arboblari G‘arbiy o‘lkada istiqomat qilgan. Adabiyotlardan ma’lumki, Chog‘on muallifligidagi “O‘qtoy xoqon tomonidan Szin davlatining

[1]张荣刚. 《蒙古秘史》的体例及散文体特征. 贵阳学院学报(社会科学版), 2019, 第 14 卷 (6):65 页.

[2]王素敏、温斌 . 《中国古代草原文学研究》 . 南开大学出版社 . 2014：101 页

[3]亦邻真：《元朝秘史》的流传与价值[J]，《文史知识》1985 年第 3 期，32 页.

[4] https://zh.wikisource.org/wiki/元史、/137 卷/察罕

tinchlantirilishi tarixi haqida qaydnoma” nomli mo‘g‘ulcha asar mavjud bo‘lgan, biroq u hozirgacha topilmagan[1].

XIII–XIV asrlarda mo‘g‘ul tilida juda ko‘p asarlar yozilgan, ammo ularning oz qismigina saqlanib, bizgacha yetib kelgan. Mo‘g‘ul adabiyoti bir necha bor yo‘q qilingan. Xususan, Xitoyda mo‘g‘ullar hukmronligi ag‘darilgach, ko‘p sonli mo‘g‘ul kitoblari, sutralari, qaydnomalari va hujjatlari Min armiyasi otlari tuyoqlari ostida toptalgan. Bu boradagi ayrim dalillarni keltirish mumkin. Masalan, To‘g‘on Temur hukmronligining so‘nggi davrida mo‘g‘ul olimi Bayan bir necha yuz oilani boshlab, Xitoyning Xenan viloyatidan vataniga qaytayotganda Chju Yuanchjanning isyonkor armiyasi askarlariga duch keladi. Bayan va uning rafiqasi o‘ldiriladi, karvonidagi ko‘plab kitoblar va sutralar esa xitoylar tomonidan yoqib yuboriladi.

Aynan Bayan halok bo‘lgan paytda butun Xitoy bo‘ylab “Tatarlarni o‘ldiring va tatar tilidagi kitoblarni yoqing!” degan chaqiriq tarqaldi. Aftidan, bunday vaziyatda ko‘p sonli mo‘g‘ul kitoblari va sutralari yo‘q qilingan. Shuningdek, Chju Yuanchjan qo‘mondoni Syuy Da Yuan imperiyasining poytaxti Xanbalg‘asunni (hozirgi. Pekin), xonning qishki saroyini qamal qildi va ko‘plab kitoblarni yo‘q qildi. 1381-yilda Syuy Da boshchiligidagi Xitoy qo‘shinlari Ordosga bostirib kirganida, ular aholini taladilar va mo‘g‘ul kitoblarini yoqib yubordilar.

1410-yilda Min imperatori Yun le qo‘shinlari Qoraqurum shahrini vayron qilib, yondirib yuborganida, u yerda saqlanayotgan qimmatli tarixiy asarlar g‘oyib bo‘lgan. Shu va boshqa sabablarga ko‘ra, Yuan davridagi mo‘g‘ul kitoblari juda kamyob bo‘lib qoldi va o‘sha davrdan faqat ayrim shaxslar tomonidan yashirilgan ayrim asarlargina saqlanib qolgan.

***2.“Nigucha Tobchiyan” asarida tarixi va tarixiy qarashlar***. Ko‘plab tadqiqotchilar “Nigucha Tobchiyan”ning mo‘g‘ullarning qadimgi tarixi bo‘yicha eng qimmatli manba ekanligini allaqachon isbotlaganlar. Hozirda ushbu manbaning ma’lumotlaridan u yoki bu tarzda foydalanilmagan birorta jiddiy ilmiy asar yo‘q, deyish mubolag‘a bo‘lmaydi.

Hozirgi vaqtda hukmronlik qilayotgan xoqonning shajarasini iloji boricha uzoq ajdodlarga olib borish va uning g‘ayrioddiy kelib chiqishini asoslash maqsadida o‘sha davr mo‘g‘ullarida xoqonlar shajarasining uzluksiz vorisiyligi konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Chunonchi, Chingizxonning shajara tarixi afsonaviy Burte-chinoga — aslida Chingiz urug‘ining totemik ajdodiga borib taqaladi. Agar bu shajarani tasvirlasak, uzoq o‘tmishdan yodgorlikda tasvirlangan vaqtgacha uzluksiz cho‘zilgan uzun zanjir hosil bo‘ladi. Chingizxonning ajdodlari haqidagi hikoyalar qat’iy ravishda: urug‘ boshlig‘i bo‘lgan otadan merosxo‘r o‘g‘ilga qarab olib borilgan. Natijada hukmron urug‘ vakillarining izchil shajara tarixi vujudga kelib, keyinchalik butun mo‘g‘ul tarixshunosligiga asos bo‘ldi. Bu tarixda afsonaviy va yarim afsonaviy

[1]钱伯泉：《蒙古秘史》的版本、内容及其成书年代研究，“西部蒙古论坛”，2017-05-15，3-10 页

nomlar bilan bir qatorda haqiqiy tarixiy shaxslar, qabila va qabila ittifoqlarining omadli sardorlari ko‘p. Yaqinlashgan sari yodgorlik tuzilgan vaqtga ko‘ra, u bergan ma’lumotlar shunchalik ishonchli bo‘ladi. Bodonchar, Xadu, Tumbikay-sechen, Ambagay, Xabul-xoqon, Xutula-xoqon, Barton-bahodir, Yesugey-bahodir va boshqa tarixiy personajlarning mavjudligi shubhasizdir. G‘oya asosida mo‘g‘ul xoqonlarining yaxlit shajarasini ishlab chiqish ularning tarixiy davomiyligini “Nigucha Tobchiyan”ning fazilatlaridan biri deb hisoblash lozim. Ammo uning muhim kamchiligi aniq xronologiyaning yo‘qligidir, garchi vaqt ketma-ketligi g‘oyasi tuzuvchilarga begona bo‘lmasa-da. Xalq xotirasi ozmi-ko‘pmi aniq sanalarni saqlab qola olmadi.

“Nigucha Tobchiyan”ning asosiy qismlari o‘sha davr voqealari bilan bog‘liq. Mo‘g‘ullarning tarix sahnasiga chiqishi ularning o‘z davri voqealarini qayd etishga bo‘lgan qiziqishlarining ortishiga olib kelganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, hukmron sinf vakillarining qilgan ishlarini abadiylashtirish, zamondoshlari va avlodlari oldida o‘zini va qarindosh-urug‘larini ulug‘lash. Shu maqsadda ular bundan buyon birinchi navbatda hozirgi zamon bilan, amaldagi xoqonlar tarixi bilan shug‘ullanishi kerak bo‘lgan solnomachilar xizmatiga murojaat qilishdi. Yilnomachilar oldiga qo‘yilgan bu yangi vazifalar yozma tarixni eski og‘zaki tarixiy an’anaga qaraganda ta’sirchanroq va aniqroq bilim predmetiga aylantirdi.

Voqealar haqidagi afsona va rivoyatlar to‘plami bo‘lgan o‘tmish. “Nigucha Tobchiyan”[1] tarixiy yodgorlik sifatida shunisi bilan diqqatga sazovorki, unda hatto bu o‘tish. Agar uning birinchi qismi operatsiyani amalga oshirib xalq xotirasini tarixiy o‘tmishga bag‘ishlangan bo‘lsa, uning hozirgi zamonga bag‘ishlangan boshqa qismlari haqiqiy tarixiy faktlarga qat’iy asoslanadi.

Ayrim ma’lumotlar, Chingizxon hayotining dastlabki davri haqidagilar, asosan, Chingizni yaqindan bilgan zamondoshlarining, ehtimol, uning qarindoshlarining og‘zaki guvohliklariga asoslanadi. Bu ma’lumotlar tasvirlanayotgan voqealarga vaqt jihatidan yaqinligi va axborot beruvchilarning yaxshi xabardorligi sababli oldingi og‘zaki rivoyatlardan ishonchliligi bilan jiddiy farq qiladi. Shuni inobatga olgan holda, Temuchinning bolaligi va yoshligi haqidagi asosiy ma’lumotlar aksariyat hollarda tadqiqotchilarda shubha uyg‘otmasligi mumkin, deb hisoblash mumkin.

“Nigucha Tobchiyan”ning yana bir manbasi Chingiz xoqon va O‘qtoy xoqon qarorgohlaridan olingan hujjatli materiallardir. Diqqat bilan o‘qilganda, yodgorlikda xoqonlarning farmon va farmoyishlari, elchilik xabarlari, saroy yozuvlari, rasmiy hujjatlardan foydalanilganini sezish qiyin emas. Yozma hujjatlarning muhim tarixiy manba sifatida baholanishi mo‘g‘ullarning tarixiy bilimlarini yanada rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Yozma tarix manbalaridan foydalanish takomillashdi. Keltirilayotgan ma’lumotlar ishonchliligining ortishi va yodgorlikning asosiy

[1]亦邻真：《元朝秘史》的流传与价值[J]，《文史知识》1985 年第 3 期，33 页.

qismlarida xronologiyaning paydo bo‘lishini, katta ehtimol bilan, aynan shu bilan bog‘lash lozim. Ba’zi joylarda Chingiz xoqonning farmon va farmoyishlaridan (masalan, 95 mingboshini tayinlash, ularning ismlarini aniq sanab, kelib chiqishini ko‘rsatish, gvardiya-keshik tuzish, uning huquq va majburiyatlari to‘g‘risida), shuningdek, O‘qtoyning xoqon gvardiyasining imtiyozlari va majburiyatlari, o‘rton xizmatini ta’sis etish to‘g‘risidagi farmonlaridan ko‘chirmalar uchraydi[1].

Yagona mo‘g‘ul davlatining barpo etilishining batafsil tarixi, Chingizxon va O‘qtoyning Markaziy Osiyo mamlakatlariga, shuningdek, Janubiy Rusga qarshi yurishlarining qisqacha yoritilishi, geografik nomlarning ancha aniq ro‘yxati va hokazolar — bularning barchasi xronikaning asosiy bo‘limlari faqat og‘zaki guvohliklar asosida yozilishi mumkin emasligini, aksincha, ularning asosiy qismi yozma, hujjatli ma’lumotlarga tayanganligini qo‘shimcha isbotlaydi.

Manbada qaysi tarixiy masalalar yoritilgani va ularning qanday talqin qilinganini tahlil qilib ko‘ramiz. Bu masalalar ichidan quyidagilarni ajratib olamiz: Temuchinning mo‘g‘ullarni yagona davlatga birlashtirish va uning umummo‘g‘ul taxtiga saylanishi uchun olib borgan kurashi; mo‘g‘ul davlatining tuzilishi; Chingizxonning tashqi yurishlari va nihoyat, O‘qtoy xoqon tarixi. Bunday tahlil yodgorlik mualliflarining tarixiy qarashlari bilan yaqinroq tanishishga yordam beradi. Shungdek, mo‘g‘ul-turk qabillarining o‘zaro munosabalarida yagona davlatga birlashish maqsadi ko‘rsatib o‘tilgan. Bosh qahramon faoliyatini ochib beruvchi ma’lumotlarning mohirona tanlangani o‘z-o‘zidan mualliflarning tarixiy bayonga yangicha yondashganidan, tarixiy hodisa va dalillarning ahamiyatini, ularni yilnomaga kiritish maqsadga muvofiqligini anglaganidan dalolat beradi. Nazarimizda, aynan shu g‘oya mualliflarga yo‘l ko‘rsatgan va nafaqat Chingizxon hamda uning urug‘i, balki butun mo‘g‘ul jamiyati hayotidagi eng muhim voqealarni qayd etishga ko‘maklashgan.

Aslini olganda, yosh Temuchinning Borjigin urug‘i huquqlarini tiklash uchun kurashi, obyektiv jihatdan, barcha mo‘g‘ul va turk qabilalarini bir davlatga birlashtira oladigan kuchli xoqonlik hokimiyatini o‘rnatish uchun kurash edi.

Shunday qilib, “Nigucha Tobchiyan” asarida XIII asr boshlari tarixining muhim va eng dolzarb muammolaridan biri – mo‘g‘ul davlatining barpo etilishi tarixi yoritiladi. Ushbu yodgorlikning eng muhim tarixiy g‘oyalaridan biri bo‘lgan mo‘g‘ul davlatchiligi g‘oyasi – o‘sha davr mo‘g‘ullarining tarixiy bilimlari erishgan eng yirik yutuqdir. To‘g‘ri, bu g‘oya “Nigucha Tobchiyan”da biror joyda shakllangan tarixiy konsepsiya sifatida alohida ifodalanmagan, biroq yodgorlikdagi asosiy ma’lumotlarni tahlil qilish orqali u haqda bemalol tasavvur hosil qilish mumkin[2].

[1]阿拉坦：从《蒙古秘史》的复译看翻译原则的普适性，“第 18 届世界翻译大会论文集”(2009 / 05)：313 — 319 页

[2]谢友坤, 黑龙. 20 世纪 80 年代以来《蒙古秘史》研究成果评析. 西部蒙古论坛, 2022, (3):67-76 页

Bo‘lajak mo‘g‘ul xoqonining bolaligi va yoshligi yuksak badiiy ifodaviylik bilan tasvirlanadi; o‘quvchi go‘yoki Chingizxonning ota ulusini tiklash va barcha mo‘g‘ul mulklarini birlashtirish yo‘lidagi bo‘lg‘usi shafqatsiz harakatlari haqidagi hikoyalarga tayyorlanadi. Uning otasi Yesugey bahodirni zaharlab, Oelun-ekeni besh farzandi bilan og‘ir ahvolda qoldirganlar ham o‘sha tatarlar edi. Yesugey bahodirning bevasini taqdir hukmiga tashlab ko‘chib ketganlar ham, keyin esa hali o‘smir bo‘lgan Temuchinni o‘g‘irlab, omad kulib boqib qochishiga yordam bermagunicha asirlikda saqlaganlar ham o‘sha tayjiutlar edi. Musibat va qiyinchiliklarni yengib o‘tgan, shuhratparast, dushmanlariga nisbatan murosasiz nafrat tuygan yosh Temuchin Chingizxonga aylanadi va yakkahokimlikka qarshilar bilan bo‘lgan shafqatsiz va qonli kurashda o‘z maqsadlariga erishadi.

Yosh Temuchin har qanday qiyinchiliklar, o‘z dushmanlariga nisbatan murosasiz nafratni yashirgan Chingizxon yakkahokimlikka erishgandan keyin dushmanlari bilan shafqatsiz va qonli jangda o‘z maqsadlariga yetadi. “Nigucha Tobchiyon”ga ishonadigan bo‘lsak, Chingizxonning asosiy maqsadi “ko‘p tilli davlatni haqiqat yo‘liga solish” va uni “yagona jilov ostiga olish”dan iborat edi.

“Nigucha Tobchiyon”da yagona mo‘g‘ul davlati Mo‘g‘ulistondagi “umumxalq nifoqi” davriga chek qo‘yadigan “umumiy farovonlik”ning kafolatidir, degan g‘oya ilgari suriladi. Mo‘g‘ul qabila guruhlari va uluslari o‘rtasidagi tinchlik va totuvlik g‘oyasi o‘sha davr uchun dolzarb va muhim edi. Unda nafaqat feodallashayotgan zodagonlarning zulmidan, balki tarqoqlik davridagi tinimsiz o‘zaro nizolardan ham aziyat chekkan mo‘g‘ul xalq ommasining kayfiyati va orzu-umidlari o‘z ifodasini topgan edi[1].

B. Y. Vladimirtsev ta’kidlaganidek, Chingizxonning shaxsiy gvardiyasini tashkil etgani haqidagi materiallar qiziqarlidir. Bu gvardiya avvalgi nukerlar drujinalari va qabila xoqonlarining tan soqchilari guruxlarining bevosita merosi edi. Chingizxonning gvardiyasi xoqonning harbiy tashkiloti bo‘lib, u zodogon sinfining qudratli harbiy-diktatura institutiga, bevosita ishlab chiqaruvchilar ommasi – xarachular ustidan hukmronlik qilish quroliga aylandi[2]. Manbada Chingizxonning rafiqasi Yesuy tilidan, bizningcha, yuzaki tarzda uning olis Turkistonga yurishga hozirlanayotgani munosabati bilan mo‘g‘ul davlatining taqdiridan xavotirlanish ifodalangan.

“Nigucha Tobchiyan”da qisqacha bayon etilgan Chingizxon va O‘gedeyxon yurishlarining tarixi mo‘g‘ullar hukmron sinfining ekspluatatsiya doirasini hamda boyish manbalarini kengaytirishdan manfaatdor bo‘lganidan dalolat beradi. Shuningdek, manbada ma’lumotlar mo‘g‘ul tarixshunosligi o‘zining ilk davrlaridayoq Markaziy

[1] Козин С. А. Сокровенное сказание. Монгольская хроника 1240 г. под названием Mongγol-un niγuča tobčiyan. Юань чао би ши. Монгольский обыденный изборник. — Ленинград: Изд-во АН СССР, 1941. – С 168.

[2] Владимирцов Б. Я- Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. Л., 1934. – С 169-170.

Osiyo, qisman Yevropaning ko‘plab mamlakatlari haqida ancha ishonchli geografik ma’lumotlarga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda “Nigucha Tobchiyan”da uchraydigan toponimlarning zamonaviy muqobillari asosan aniqlangan bo‘lib, ayrim hollarda hatto ularning etimologik ma’nosi ham oydinlashtirilgan.

Bir nechta misol keltiramiz: *Kitad yoki Jiircid* (Shimoliy Xitoy), *Solunvas* (Koreya), *Tangyud* (Minyak), *Fujou* (Fuchjou), *Cabiyal* (Xitoyning Szyuyunguan qal’asi), (hozirgi Nankou), *Jundu* (Pekin), *Duncan* (Dunszin), *Djundu* (Chjundu), *Sarta’ul* (Turkiston), *Buqar* (Buxoro), S*emiskyab* — Samisgab, *Semisken* — *Samisgan* (Samarqand), *Orunkeci* (Urganch), *Isebur* (Nishopur), *Aru-Iru* (Hirot), *Maru* (Marv), *Baqtat* (Bag‘dod), *Hidusun* (Hinduston, Hindiston), *Sin-miiren* (Hind), *Ajil* (Volga), *Ardisi* (Irtish), *Jayag-Yaik* (Ural daryosi), *Kanlin* (Sirdaryo havzasidagi turkiy xalq nomi), *Kibcat* (qipchoqlar,), *Orus* (ruslar), *Majarat (*majarlar, madyarlar), Serkesiit-Sargasiit *(cherkeslar), Bolar (*bolgarlar*) va hakozo*[1].

Xulosalarda kelib chiqib,“Nigucha Tobchiyan” shubhasiz, mo‘g‘ullarning o‘ziga xos tarixiy ijod namunasi bo‘lib, unda nafaqat qadimgi mo‘g‘ul tarixining asosiy voqealari yoritilgan, balki eng muhim tarixiy-siyosiy g‘oyalar, asosan, hukmron sinfning qarashlari ham o‘z aksini topgan.

“Nigucha Tobchiyan” o‘zining bir qator xususiyatlari bilan o‘rta asrlar Yevropasining odatiy voqeanavis solnomalaridan hamda, Xitoy va Tibet yilnomalaridan yaqqol ajralib turadi. Bu yodgorlik mo‘g‘ul tarixshunosligi paydo bo‘lgan ilk davrdanoq o‘ziga xos milliy xususiyatga ega bo‘lganini, har qanday xorijiy tarixshunoslik an’analari va maktablari ta’siridan mustaqil ravishda, asl ko‘chmanchilik muhitida vujudga kelib, rivojlanganini ko‘rsatadi. “Nigucha Tobchiyan” — hozircha Markaziy Osiyo ko‘chmanchi xalqlaridan biri tomonidan yaratilgan o‘z turida yagona tarixiy asardir. Uning yaratilishi bilan Mo‘g‘uliston ko‘chmanchi xalqlarining tarixiy bilimlari yozma tarix shaklida uzil-kesil rasmiylashdi.

## MAHMUD IBN VALI VA UNING “BAHR UL-ASROR” ASARI

***SIYOVASH HAFIZOV***
*Tayanch doktorant, TDSHU*

***Annatatsiya.*** *Mahmud ibn Amir Valining “Bahr ul-asror fi manoqib ul-axyor” asari o‘rta asr Movarounnahr, Xuroson, Eron, Dashti Qipchoq, Sharqiy Turkiston va Hindiston tarixini aks ettiruvchi muhim tarixiy manba hisoblanib, mazkur asarda biz nafaqat tarixga doir balki, geografiya, etnografiya, javohirshunoslik, o‘simlikshunoslik hamda ijtimoiy va tabiiy fanlarning boshqa yo‘nalishlariga doir bir qancha muhim masalalarni uchratishimiz*

[1] Дамдинсурен Ц. Тайная история Монголии. Улан-Батор, 1975. – С 52-53.

*mumkin. Qimmatli ma'lumotlariga boy bo'lishiga qaramasdan mazkur asar yillar davomida tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan. Buning asosiy sababi sifatida mazkur asarning hajm jihatdan anchayin kattaligi va kam sonli qo'lyozma nusxalarining zamonamizgacha yetib kelganligini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotda biz "Bahr ul-asror" asarining tarixiy ahamiyati, mazmuni, tuzilishi, tarkibiy qismlari, yozishdan ko'zlangan maqsadi, zamonamizgacha saqanib qolgan noyob qo'yozma nusxalari va ularning o'rganilishi singari muhim jihatlarga to'xtalib o'tamiz. Mazkur tadqiqot ishida "Bahr ul-asror" asarini o'z tadqiqot obyektiga aylantirgan tadqiqotchi olimlarning ishlaridan iqtiboslar keltirilgan, ular bo'yicha fikr-mulohazalar bildirilgan hamda o'zaro o'xshash va farqli jihatlari taqqoslangan. Tadqiqotda "Bahr ul-asror" asarini tadqiq etgan olimlar aynan asarning qaysi jihatlariga ko'proq to'xtalganligi va qaysi muhim jihatlari hanuz o'z izlanuvchilarini kutayotganligiga ham urg'u berilgan. Ushbu tadqiqotda asar muallifning hayotiga ham to'xtalib, uning ilmiy merosi, yangi o'lkalar tarixini kashf etish yo'lida amalga oshirgan safarlari va sarguzashtlari haqidagi yangi ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Mahmud ibn Vali, Bahr ul-asror, Ashtarxoniylar, B.A. Ahmedov, India Office, Riyoz ul-Islom, Sarandib*

***Abstract.*** *Mahmud ibn Amir Wali's work "Bahr al-Asrar fi Manakib al-Akhyar" is considered an important historical source reflecting the history of medieval Movarounnahr, Khorasan, Iran, Dasht-i Qipchaq, Eastern Turkestan, and India. In this work, we encounter not only historical information but also numerous important issues related to geography, ethnography, gemology, botany, as well as other fields of social and natural sciences. Despite being rich in valuable information, this work remained outside the attention of researchers for many years. The main reasons for this can be identified as the considerable size of the work and the fact that only a small number of manuscript copies have survived to the present day. In this study, we examine important aspects of the work "Bahr al-Asrar", including its historical significance, content, structure, constituent parts, the purpose behind its composition, the rare manuscript copies that have survived to our time, and their scholarly study. In this research, quotations from the works of scholars who have taken "Bahr al-Asrar" as the object of their studies are presented, their views are discussed, and similarities and differences among their approaches are compared. The study also emphasizes which aspects of "Bahr al-Asrar" have received the greatest attention from researchers and which significant aspects still await further scholarly investigation. Additionally, the research touches upon the life of the author, presenting new information about his scholarly legacy, as well as the journeys and adventures he undertook in the course of discovering the history of new regions.*

***Key words:*** *Mahmud ibn Wali, Bahr al-Asrar, Ashtarkhanids, B. A. Akhmedov, India Office, Riazul Islam, Sarandib.*

***Аннотация.*** *Произведение Махмуда ибн Амира Вали «Бахр ал-асрар фи манакиб ал-ахйар» считается важным историческим источником, отражающим историю средневековых регионов Мавераннахра, Хорасана, Ирана, Дешт-и Кипчака, Восточного Туркестана и Индии. В данном труде можно встретить не только сведения исторического характера, но и ряд важных вопросов, связанных с географией, этнографией, геммологией, ботаникой, а также другими направлениями общественных и естественных наук. Несмотря на богатство ценной информации,*

*данное произведение на протяжении многих лет оставалось вне поля зрения исследователей. Основными причинами этого можно считать значительный объём произведения, а также то, что до нашего времени дошло лишь небольшое количество рукописных экземпляров. В настоящем исследовании рассматриваются такие важные аспекты произведения «Бахр ал-асрар», как его историческое значение, содержание, структура, составные части, цель написания, а также редкие рукописные экземпляры, сохранившиеся до наших дней, и степень их изученности. В работе приводятся цитаты из трудов учёных-исследователей, которые избрали «Бахр ал-асрар» объектом своих научных исследований, анализируются их мнения, а также сопоставляются сходства и различия их подходов. Кроме того, в исследовании подчёркивается, на каких именно аспектах данного произведения больше всего сосредоточились учёные, а какие важные стороны до сих пор ожидают дальнейшего изучения. В работе также затрагивается жизнь автора произведения, приводятся новые сведения о его научном наследии, а также о путешествиях и приключениях, совершённых им на пути изучения истории новых земель.*

***Ключевые слова:*** *Махмуд ибн Вали, Бахр ал-асрар, Аштарханиды, Б.А.Ахмедов, India Office, Рияз ул-Ислам, Сарандиб.*

**Kirish.** Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror fi manoqib al-axyor” qomusiy asari XVII-asr ikkinchi choragida Ashtarxoniy hukmdorlaridan Nadr Muhammadxon (1642-1645) topshirig’i bilan yozilgan bo’lib, o’rta asrning ilm nujum, geografiya, ma’danshunoslik, o’simlikshunoslik, javohirshunoslik, tarix va etnografiya singari muhim yo’nalishlarni qamrab oladi. Mazkur asarda Movarounnahr va Xuroson tarixi, tarixiy geografiyasi hamda mazkur o’lkalarda sodir bo’lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarga doir muhim ma’lumotlar keltirilgan. “Bahr ul-asror” asarining muqaddimasida keltirilishicha, ushbu asar yetti jildan iborat bo‘lgan. Ammo bizgacha mazkur asarning faqat I va VI jildlari yetib kelgan. Mahmud ibn Vali o‘z asarining jildlarini muayyan tarixiy jarayonlarga bag‘ishlagan. Mazkur yirik qomusiy asar XIX asar oxirlaridan boshlab tadqiqotchilarga ma’lum bo‘lgan hamda ushbu asardan birinchilardan bo‘lib V.V. Bartold o‘z tadqiqot ishlarida foydalangan. XX asar boshlarida bir qator yirik asarlar singari “Bahr ul-asror”ning ham bir necha qo‘lyozma nusxalari aniqlangan. Ammo XX-asr 60-yillarigacha ushbu asar bo‘yicha yirik tadqiqotlar amalga oshirilmagan. O‘tgan asr 60-yillarida akademik B.A. Ahmedov ushbu asarga doir qator ilmiy ishlarini e’lon qilib, “Bahr ul-asror” asari I jildining Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasiga bag‘ishlangan qismini rus tiliga o‘girgan. XX asr 80-yillarida ushbu asar bir qator pokistonlik va afg‘onistonlik olimlar tomonidan o‘rganilib, qo‘lyozmalarining zamonaviy usulda terilgan matnlari e’lon qilingan. XXI asar boshida ham qator tadqiqotchi-olimlar o‘z ilmiy ishlarida mazkur asardan faol tarzda foydalanishgan va uni ilmiy ommaga yanada batafsilroq yetkazishga harakat qilishgan.

**Asosiy qism.** Ensiklopedik xarakterga ega bo‘lgan “Bahr ul-asror fi manoqib ul-axyor” (“Oliy janob insonlarning fazilatlari to‘g‘risida sirlar dengizi”) yoki “Bahr u-

asror fi ma’rifat al-axyor”[1] qisqacha “Bahr ul-asror” asarining muallifi Mahmud ibn Amir Vali Kitobdor[2] XVI asr oxirlarida Balx shahridagi ziyoli oilasida tavvalud topgan. Uning otasi Shayboniy hukmdorlardan Pir Muhammadxon (1546-1567) davrida Farg‘ona vodiysining Koson shahridan (hozirgi Namangan viloyati Koson tumani) Balxga ko‘chib kelgan. Mahmudning otasi Amir Vali Shayboniylar saroyida katta nufuzga ega bo‘lgan. Mahmud ibn Valining hayoti to‘g‘risida juda kam ma’lumotlar saqlanib qolgan bo‘lib, biz muallif to‘g‘risidagi ma’lumotlarni faqat “Bahr ul-asror”ning muqaddimasida[3] hamda tarixchi olimning Hindiston va Sarandib (Seylon)ga amalga oshirgan sayohatiga doir safarnoma qismida uchratishimiz mumkin[4].

Mahmud ibn Vali nazmda ham sermazmun ijod qilib, o‘zi bitgan she’rlarga “Mir Xislat” taxallusini qo‘ygan. Uning akasi Amir Abdulboriy o‘z zamonasining mashhur faqih va tabiblaridan biri bo‘lgan[5]. Mahmud ibn Vali 19 yoshida yirik mutasavvif va muhaddis olim Mirakshoh Husayniy xizmatiga kiradi va undan 10 yil davomida ya’ni Husaynining vafotiga qadar tasavvuf va islom ilmlarini o‘rganadi. Mirakshoh Husayniy yosh Mahmudga begona bo‘lmasdan uning opasi bilan turmush qurgandi. “Bahr ul-asror”da qayd etilishicha, Mahmud ibn Vali ustozining tarix, geografiya, adabiyot, falsafa, fiqh va tasavvufga doir juda qimmatli kitoblar saqlanadigan boy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Aynan mana shu kitoblar yosh Mahmudning yirik olim bo‘lib yetishishiga xizmat qilgan[6].

Ustozi Mirakshoh Husayniy vafotidan so‘ng Mahmud ibn Vali dunyoviy bilimlarini yanada mustahkamlash, yangi ilmlarni o‘rganish maqsadida 1625 yil savdo karvoniga hamrohlik qilib, Hindiston va Sarandibga jo‘nab ketadi. U o‘zining sayohati davomida Peshavor, Lahor, Dehli, Agra, Raj-Mahal, Gulkanda, Haydarobod, Vijayangar, Kalkutta va Bixar singari shaharlarda bo‘lib, mazkur shaharlar to‘g‘risida favqulodda qimmatli va noyob ma’lumotlarni to‘playdi[7]. Mahmud ibn Vali 1631 yil Balx shahriga qaytadi va Nadr Muhammadxon uni katta tantana bilan kutib olib, saroy kutubxonachisi (kitobdor) lavozimiga tayinlaydi.

[1] Mahmud b. Amir Wali. Bahr al-asrar fi ma’rifat al-akhyar. – Karachi: Pakistan Historical Society, 1984. – P. 2.
[2] Mayel Herawi. Mahmud Iban-i-Amir Wali Bahrul-asrar. A chapter of Balkh. – Afghanistan: Academy Science of Afghanistan, 1981. – P. 3.
[3] Mahmud b. Amir Wali. Bahr al-asrar fi ma’rifat al-akhyar. – Karachi: Pakistan Historical Society, 1984. – P. 15.
[4] Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror. Qo‘lyozma (fotokopiya). – London: India Office, №575. – V. 388b.
[5] Ахмедов Б.А. Махмуд ибн Вали. Море тайн относителъно доблестей благородных. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 4.
[6] Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 223-224.
[7] Аҳмедов. Б.А. Маҳмуд ибн Вали. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 3.

Mahmud ibn Vali umrining oxirigacha saroy kutubxonachisi bo‘lib qoladi[1]. Uning vafot etgan sanasi ham hech qaysi manbada uchramaydi. Lekin “Bahr ul-asror” asaridagi oxirgi qayt etilgan voqealar 1641 yilga oid ekanligidan kelib chiqib, muallif XVII asr 40-yillari boshida ham hayot bo‘lgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Mahmud ibn Vali ko‘plab sohalarda ijod qilgan qomusiy olim bo‘lgan. Uning ilmiy qiziqshlari tarix, adabiyot, geografiya, o‘simlikshunoslik, tibbiyot, javohirshunoslik va boshqalarni qamrab olgan. U “Bahr ul-asror”dan tashqari didaktik, axloqiy, ilohiy va she’riy mazmundagi quyidagi asarlarni yaratgan:

1. “Muhabbatnoma” (mazkur asar Nizomiy Ganjaviyning “Xusarav va Shirin” dostoni vaznida yozilgan);
2. “Gulkada” (Orissa hokimiga bag‘ishlab yozilgan she’riy doston. Mahmud ibn Vali “Bahr ul-asror”ning Hindiston va Sarandibga qilgan sayohatiga bag‘ishlangan faslida mazkur asarni ikki kun ichida yozib tugatganini qayd etib o‘tgan[2];
3. “Najmi soqib” (Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma”si vaznida yozilgan);
4. “Nuzhat ul-arvoh” (Nizomiy Ganjaviyning “Mahzan ul-arvoh”i vaznida yozilgan);
5. “Axloqi Husayniy”;
6. “Ravoyihi tayyiba” (Mirakshoh Husayniyning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan);
7. Sherlar devoni (50 min baytdan iborat)[3].

Ammo mazkur asarlardan hech biri bizning davrimizgacha yetib kelmagan. To‘g‘rirog‘ini aytadigan bo‘lsak, ushbu asarlarning qo‘lyozma nusxalari hozirgacha topilmagan. Kelajakda yangi qo‘lyozma kitoblar xazinasining topilishi natijasida, mazkur asarlarning ham nusxalari topiladi deb, umid qilamiz.

Kirish qismida ta’kidlab o‘tganimizdek, Mahmud ibn Valining yirik qomusiy asari bu “Bahr ul-asror fi manoqib ul-axyor” (“Olijanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi”) hisoblanadi. Tarix, geografiya, ma’danshunoslik, javohirshunoslik, o‘simlikshunoslik va etnografiyaga bag‘ishlangan mazkur yirik asar 1634-1641 yillarda Ashtarxoniy hukumdorlardan Nard Muhammadxon topshirig‘i bilan yozilgan. Mahmud ibn Vali “Bahr ul-asror”ning muqaddimasida ushbu asar yetti jild va har bir jild to‘rt rukn (qism)dan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tgan[4]. Quyida mazkur asarning jildlari nimalar haqida hikoya qilishi keltirilgan:

---

[1] Ахмедов Б.А. Махмуд ибн Вали. Море тайн относителъно доблестей благородных. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 5.

[2] Riazul Islam. Mahmud b. Amir Wali Balkhi. The Bahr ul-asrar travelogue. – Karachi: Institute of Central and West Asian Studies, 1980. – P. 2.

[3] Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 225. // Ахмедов Б.А. Махмуд ибн Вали. Море тайн относителъно доблестей благородных. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 5.

[4] Mahmud b. Amir Wali. Bahr al-asrar fi ma’rifat al-akhyar. – Karachi: Pakistan Historical Society, 1984. – P. 15-17.

1. Dunyoning yaratilishi, yer yuzidagi tog‘, daryo, dengizlar va yerlarning xalqi, nabotot va hayvonot olami haqida;

2. Islomgacha bo‘lgan davrlardagi payg‘ambarlar, sultonlar, xonlar va hokimlar haqida;

3. Sayyid ul-anbiyo Muhammad (s.a.v) hazratlari haqida;

4. Xulafoyi roshidin va din imomlari haqida;

5. Xalifalik zamonida islom o‘lkalarida hukmronlik qilgan hukumdorlar haqida;

6. Yofas ibn Nuh alayhissalomdan to Ashtarxoniy Nadr Muhammadxongacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyo, Eron va Xitoyda bo‘lib o‘tgan voqealar haqida;

7. Chig‘atoy hukmdorlari tarixi haqida[1].

Kirish qismida ta’kidlab o‘tganimizdek, “Bahr ul-asror” asarining faqat I va VI jildlarining qismlari bizning davrimizgacha yetib kelgan bo‘lib, ayni damda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida (№1375, №1385, №2371 va №7418[2]), Londondagi India Office kutubxonasida (№575[3]) va Qo‘qon shahridagi masjid imomi Mullo Rojiy qiroatxonasida (№6842[4]) saqlanadi. Quyida ushbu qo‘lyozmalarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

1. №2372. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadigan mazkur nusxa “Bahr ul-asror” asarining I jildi bo‘lib, u mazkur asarning yagona nusxasi hisoblanadi. Mazkur nusxa 533 varaqdan iborat. Hajmi 27x31,5 smni tashkil etib, XVIII asar oxiri – XIX asr boshlarida Qo‘qon qog‘ozida, nasta’liq xatida 20 dan ortiq xattot tomonidan qora siyohda hamda mavzu nomlari qizil siyohda ko‘chirilgan[5]. Ammo ushbu nusxaning o‘ziga xos nuqsonlari, xususan, fotiha qismi va to‘rtinchi ruknining qismlarida kamchiliklar uchraydi. Mazkur nusxa katta tarixiy ahamiyotga ega bo‘lib, unda ma’danshunoslik, javohirshunoslik, o‘simlikshunoslik, geografiya va to‘rt unsur (olov, suv, tuproq va havo)ga doir muhim ma’lumotlar keltirilgan[6].

2. №1385. Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadigan ushbu nusxa “Bahr ul-asror”ning VI jildi ikkinchi va uchinchi ruknlarini o‘z ichiga oladi.

[1] Mahmud b. Amir Wali. Bahr al-asrar fi ma’rifat al-akhyar. – Karachi: Pakistan Historical Society, 1984. – P. 15-17. // Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 225.

[2] Алексеев. А.К. Политическая история Тукай-Тимурдов. – Санкт-Петербург: С.-Петербургского университета, 2006. – С. 17.

[3] Ethe H. Persian Manuscripts in the Library of the India Office. – Vol. I. – Oxford, 1903. – P. 229-230.

[4] Алексеев. А.К. Политическая история Тукай-Тимурдов. – Санкт-Петербург: С.-Петербургского университета, 2006. – С. 18.

[5] Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 225.

[6] Алексеев. А.К. Политическая история Тукай-Тимурдов. – Санкт-Петербург: С.-Петербургского университета, 2006. – С. 18.

Nusxa 301 varaqdan tashkil topib, hajmi 20x25,5 sm, Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan silliqlangan qog‘ozda, nasta’liq xatida, paleografik belgilariga ko‘ra XVIII asrda ko‘chirilgan[1]. Mazkur qo‘lyozmadagi voqealar Chig‘atoy xonlaridan Baroqxonning (1265-1270) 1268 yil Xurosonga lashkar tortib, Ilxoniylardan Abaqaxonga (1265-1282) qarshi kurashidan boshlanadi[2].

3. №1375. Mazkur qo‘lyozma 297 varaq va qog‘oz hajmi esa 22x35 smdan iborat bo‘lib, yaxshi silliqlangan qog‘ozda, buxorocha nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Akademik B.A. Ahmedov tomonida berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur nusxa №1385-sonli nusxadan Sharqshunoslik instituti sobiq ilmiy xodimi Ibodullaxo‘ja Odilov (1872-1944) tomonidan 1933-yil 25 oktyabrda ko‘chirib tamomlangan[3]. [5: 226-227.]

4. №7418. Mazkur nusxa general Jo‘rabek dodxoh (1840-1906)ning o‘g‘li Ollohqulibekka tegishli bo‘lib, nasta’liq xatida yozilgan va hajmi 22x25 smni tashkil etadi. [5: 226] Ushbu qo‘lyozma 419 varaqdan iborat bo‘lib, “Bahr ul-asror”ning VI jildi ikkinchi va uchinchi ruknlarini o‘z ichiga oladi. Undagi voqealar Shayboniy hukmdorlardan Abudullaxon II (1533-1598) vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Abdulmo‘minxonning Balxdan Samarqandga qo‘shin tortishi tafsilotlari bilan yakunlanadi. F.A. Saidovning ma’lumotlariga ko‘ra, mazkur nusxaning ba’zi varaqlarini o‘qish imkoniyati mavjud emas. Uning fikricha, qo‘lyozma bir necha havaskor xattotlar tomonidan ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin[4].

5. №575. 409 varoqdan iborat, nasta’liq xatida ko‘chirilgan mazkur qo‘lyozma Londondagi India Office kutubxonasida saqlanadi. Ushbu nusxa “Bahr ul-asror”ning VI jildi to‘rtinchi rukni bo‘lib, uni tadqiq etgan yevropalik mashhur sharqshunos H.Etening ma’lumotlariga ko‘ra, mazkur qo‘lyozma Nadr Muhammadxonning Balxdagi saroyida xizmat qiluvchi Shoh Kozim nomli xattot tomonidan xon kutubxonasi uchun muallif qo‘lidagi asl nusxadan ko‘chirilgan[5]. Ta’kidlash lozimki, xattot mazkur nusxani ko‘chirish davomida muayyan qoidaga amal qilmasdan ilova va qaydlarni xoshiya va qatorlar orasida yozib ketgan[6]. Akademik B.A. Ahmedovning ta’kidlashicha, “Bahr ul-asror” asarining VI jildi mustaqil asar hisoblanadi[7].

---

[1] Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 226.

[2] Саидов. Ф.А. Баҳру-л-асрор-и Маҳмуд ибни Вали ва тавсифи нусхаҳои он // Муаррих. №3 (19). – Душанбе, 2019. – С. 72.

[3] Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 226-227.

[4] Саидов. Ф.А. Баҳру-л-асрор-и Маҳмуд ибни Вали ва тавсифи нусхаҳои он // Муаррих. №3 (19). – Душанбе, 2019. – С. 73.

[5] Ethe H. Persian Manuscripts in the Library of the India Office. – Vol. I. – Oxford, 1903. – P. 229-230.

[6] Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror. Qo‘lyozma (fotokopiya). – London: India Office, №575. – V. 11a,b, 115a, 141a,b.

[7] Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 227.

6. №6842. Mazkur qo‘lyozma Qo‘qon shahridagi masjidi imomi Mulla Rojiyning qiroatxonasida saqlanadi. Ushbu qo‘lyozma ham boshqalari singari noqis bo‘lib, asarning VI jildi ikkinchi, uchinchi ruknlarining ba’zi qismlari hamda to‘rtinchi ruknining ma’lum qismlarini o‘z ichiga oladi[1]. Mazkur nusxada Jo‘ji ulusi va o‘zbek qabilalarining mavqeiga doir ma’lumotlar uchraydi. Qo‘lyozmada Mahmud ibn Valining Hindiston va Sarandibga sayohati to‘g‘risidagi fasl ham mavjud[2].

Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asari to‘g‘risidagi dastalabki ma’lumotlarni XX asr boshlarida akademik V.V. Bartoldning tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. U o‘zining “Turkistonga safar haqida hisobot” (“Отчёт о командировке в Туркестан” – Санкт-Петербург: Императорской академии наук, 1904. – 280 с.) kitobida “Bahr ul-asror”ning VI jildi to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tadi: “Mahmud ibn Valiga tegishli “Bahr ul-asror” asarining VI jildi to‘rt rukn va xotima qismidan iborat. Xotima qismida muallif o‘zining Hindiston va Seylonga safarini bayon qilgan. Londondagi India Office kutubxonasida №575-inventar raqami ostida saqlanadigan mazkur qo‘lyozma bilan 1899 yilda tanishib chiqqanman. Qo‘lyozmada xattot imzosi tushirilgan bo‘lib, ushbu nusxa Nadr Muhammadxon kutubxonasi uchun ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning o‘ziga xos jihati shundaki, undagi dastlabki uch rukn deyarli boshqa yerda uchramaydi…[3]”. V.V. Bartold keyinchalik bir necha bor ushbu asarga murojaat qilib, uning ma’lum qismlarini rus tiliga ham tarjima qiladi. Uning 1909 yil “XVII asrda o‘zbek xonlari huzuridagi saroy marosimlari yoki protokol tizimi” (“Церемониал при дворе узбецких ханов в XVII веке”) nomi ostida chop etilgan maqolasi tarix fani uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, unda saroy amaldorlarining vazifalari va ularning rasmiy marosimlarda qanday ketma-ketlikda joylashuvi haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan[4]. Ushbu ma’lumotlar o‘rta asrlarda yaratilgan boshqa asarlarda deyarli uchramaydi.

“Bahr ul-asror” asari bo‘yicha yirik tadqiqotlarni amalga oshirgan o‘zbek olimlaridan biri bu – akademik B.A. Ahmedov hisoblanadi. U o‘z tadqiqotlarida “Bahr ul-asror”ning mavjud qo‘lyozma nusxalaridan faol ravishda foydalanadi. Xususan, olim “Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati” (Ахмедов Б.А. Государство кочевых узбеков. – Москва: Наука, 1965. – 196 с.), “Oliyjanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi” (Ахмедов Б.А. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. – Ташкент: Фан, 1977. – 168 с.) “XVI – XVIII birinchi yarmida Balx tarixi” (Ахмедов Б.А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в). – Ташкент: Фан, 1982. – 295 с.) va boshqa kitoblarida “Bahr ul-

[1] Алексеев. А.К. Политическая история Тукай-Тимурдов. – Санкт-Петербург: С.-Петербургского университета, 2006. – С. 18.

[2] Саидов. Ф.А. Баҳру-л-асрор-и Маҳмуд ибни Вали ва тавсифи нусхаҳои он // Муаррих. №3 (19). – Душанбе, 2019. – С. 73.

[3] Бартольд В.В. Отчёт о командировке в Туркестан. – Санкт-Петербург: Императорской академии наук, 1904. – С. 62-63.

[4] Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. – Москва: Наука, 1964. – С. 388-399.

asror”ning qo‘lyozma nusxalaridagi qimmatli ma’lumotlardan samarali ravishda foydalangan. B.A. Ahmedov tomonidan asarning I jildidagi Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasiga doir ma’lumotlarning saralanib, rus tiliga tarjima qilinib chop etilganligi katta ahamiyatga ega[1]. Olim asarning mavjud qo‘lyozma nusxalarini chuqur tadqiq etib, o‘zidan keyingi tadqiqotchilar uchun e’tiborga sazovor ilmiy meros qoldirgan[2].

XX asr 70-80 yillarida Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asariga pokistonlik va afg‘onistonlik olimlar katta qiziqish bildirib, o‘z tadqiqotlarida asardan faol ravishda foydalanishadi. Xususan, pokistonlik olimlar Riyoz ul-Islom[3], Hokim Muhammad Said, Muinul Haq, Ansor Zohidxon[4] va afg‘onistonlik Moil Hiraviy[5] “Bahr ul-asror”ning ma’lum qismlarini zamonaviy fors alifbosiga tabdil qilib, unga kirish so‘zi va asar tadqiqoti bo‘yicha fikr-mulohazalarini izofa qilib, chop etishdi.

XX asr boshlarida ham Mahmud ibn Amir Valining “Bahr ul-asror” asari tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘ldi. Rosiyalik tadqiqotchi olimlardan biri A.K.Alekseyev o‘zining “To‘qay-Temuriylarning siyosiy tarixi” (Алексеев А.К. Политическая история Тукай-Тимуридов. – СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2006. – 229 с.) nomli asarini yozishda “Bahr ul-asror”da keltirilgan tarixiy va siyosiy-ijtimoiy ma’lumotlarga tayanadi. Olim “Bahr ul-asror”ning qo‘lyozma nusxalari ustida chuqur izlanishlar olib, borib ular to‘g‘risida oldingi tadqiqotchilarga tayanib, batafsil ma’lumotlarni berib o‘tadi. Mazkur kitobda XVII asrlarda Buxoro xonligi Ashatarxoniylar sulolasi davrida davlat boshqaruv shakli, davlat lavozimlari va yer egaligi shakli to‘g‘risida ham muhim ma’umotlar keltirilgan[6].

“Bahr ul-asror” asari tojikistonlik tadqiqotchi-olimlarning ham e’tiboridan chetda qolmagan. Xususan, tojikistonlik tadqiqotchilardan biri F.A. Saidov Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asari bo‘ychi qator ilmiy maqola, monografiya va risolalar yozib ilmiy tadqiqot olib borgan. U o‘zining nomzodlik dissertatsiyasini “XVI asr oxiri – XVII asr birinchi yarmida Mahmud ibn Valining Movarounnahr va Xuroson haqidagi tarixiy-geografik ma’lumotlari” (“Историко-географические сведения Махмуда ибн Вали о Мавераннахре и Хорасане конца XVI – первой половины

[1] Ахмедов Б.А. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 5.
[2] O’sha asar. – B. 3-12. // Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 223-234.
[3] Riazul Islam. Mahmud b. Amir Wali Balkhi. The Bahr ul-asrar travelogue. – Karachi: Institute of Central and West Asian Studies, 1980.
[4] Mahmud b. Amir Wali. Bahr al-asrar fi ma’rifat al-akhyar. – Karachi: Pakistan Historical Society, 1984.
[5] Mayel Herawi. Mahmud Iban-i-Amir Wali Bahrul-asrar. A chapter of Balkh. – Afghanistan: Academy Science of Afghanistan, 1981.
[6] Алексеев. А.К. Политическая история Тукай-Тимурдов. – Санкт-Петербург: С.-Петербургского университета, 2006. – С. 132-134.

XVII вв.”) mavzusi ostida 2022 yil Dushanba shahrida muvaffaqiyatli ravishda himoya qilgan. Tadqiqotchi o‘zining ilmiy ishida ilgarigi olimlar ilmiy merosidan faol ravishda foydalanib, “Bahr ul-asror”da uchraydigan Movarounnahr va Xuroson tarixiy geografiyasiga doir muhim ma’lumotlarni saralab olgan. F.A. Saidovning ta’kidlashicha, garchi XX asr davomida tadqiqotchi-olimlar “Bahr ul-asror” asariga bir nech marta murojaat qilishgan bo‘lsa, lekin mazkur asar o‘tgan vaqt davomida maxsus manbashunoslik obyektiga aylantirilmagan[1].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Mamud ibn Amir Valining “Bahr ul-asror” asari bir biridan qiziqarli va qimmatli ma’lumotlarni berishi bilan o‘rta asrlar bo‘yicha tadqiqot olib boradigan mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar mazkur ensiklopedik xarakterdagi asardan tarix va geografiyaga doir ma’lumotlarni olish bilan bir vaqtda, javohirshunoslik, o‘simlikshunoslik, etnografiya, to‘rt unsur va fanning boshqa sohalariga doir favqulodda noyob ma’lumotlarni uchratishlari mumkin. Hajm jihatidan ancha yirik bo‘lgan mazkur asarni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etgan o‘zbek akademigi B.A. Ahmedov ta’kidlanidek, mazkur asarni to‘liq tadqiq etishda bir inson umri kamlik qiladi. Darhaqiqat, “Bahr ul-asror” asari ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar tarmog‘lari uchun muhim ahamiyat kasb etib, o‘tgan asrlar davomida ham mazkur muhim ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Zero, mazkur asarda keltirilgan ba’zi muhim ma’lumotlar o‘rta asrlarda yaratilgan boshqa asarlarda uchramaydi.

[1] Саидов Ф.А. Историко-географические сведения Махмуда ибн Вали о Мавераннахре и Хорасане конца XVI – первой половины XVII вв. Дисс. – Душанбе, 2022.

# XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

## HINDISTONDA TA’LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI VA ISLOHOTLAR TAHLILI

***IRODA XAYRULLAYEVA***
*O’qituvchi, PhD, TDSHU*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Hindiston ta’lim tizimining qadimgi davrdan XXI asrgacha bo‘lgan tarixiy evolyutsiyasi izchil va tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Vedalar davri, buddizm davri, musulmonlar hukmronligi, Britaniya mustamlakachiligi hamda mustaqillikdan keyingi davr ta’lim siyosatining o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda yoritilgan. Har bir tarixiy bosqichda ta’lim tizimining ijtimoiy-siyosiy, diniy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi.*

*Shuningdek, mustamlaka davrida shakllangan zamonaviy ta’lim modeli hamda mustaqillikdan keyin amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Jumladan, Indira Gandi, Radjiv Gandi va Narendra Modi hukumatlari davrida qabul qilingan Milliy ta’lim siyosatlari hamda ularning ta’lim tizimini modernizatsiya qilishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.*

*XXI asrga kelib Hindiston ta’lim tizimi global raqobat, raqamli texnologiyalar va inklyuziv rivojlanish tamoyillari asosida shakllanayotganligi, ta’lim qamrovi, kasbiy tayyorgarlik va oliy ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar bilan tavsiflanadi.*

***Tayanch so‘z va iboralar:*** *Hindiston ta’lim tizimi, ta’lim evolyutsiyasi, Vedalar davri, buddizm ta’limi, gurukul tizimi, madrasalar, Britaniya mustamlakachiligi, Milliy ta’lim siyosati, mustaqillik davri, ta’lim islohotlari, raqamli ta’lim, inson kapitali.*

***Аннотация:*** *В статье всесторонне анализируется историческая эволюция системы образования Индии от древнейших времён до XXI века. Рассматриваются особенности образовательных традиций ведийского и буддийского периодов, этап мусульманского правления, трансформации в период британского колониализма и реформы после обретения независимости. Показана взаимосвязь образовательных процессов с социально-политическими, культурными и идеологическими изменениями в обществе.*

*Особое внимание уделяется модернизации образовательной системы в XX–XXI вв., включая принятие Национальных образовательных политик в период правления Индира Ганди, Ражив Ганди и Нарендра Моди. В статье раскрываются основные направления реформ, направленные на расширение доступа к образованию, повышение его качества, развитие профессиональной подготовки и внедрение цифровых технологий. Делается вывод о том, что современная система образования Индии*

*сформировалась как результат длительного исторического развития и сочетания национальных традиций с глобальными тенденциями.*

***Ключевые слова:*** *система образования Индии, эволюция образования, ведийский период, буддийское образование, система гурукул, медресе, британский колониализм, Национальная образовательная политика, образовательные реформы, модернизация образования, цифровое образование, человеческий капитал.*

***Annotation:*** *This article provides a comprehensive analysis of the historical evolution of the Indian education system from ancient times to the twenty-first century. It examines the distinctive features of education during the Vedic and Buddhist periods, the transformations under Muslim rule, the structural changes during British colonialism, and the reforms implemented after independence. The study highlights the interconnection between educational development and broader socio-political, cultural, and ideological processes.*

*Particular attention is given to the modernization of the education system in the twentieth and twenty-first centuries, including the adoption of National Education Policies during the administrations of Indira Gandhi, Rajiv Gandhi, and Narendra Modi. The article outlines the key reform directions aimed at expanding access to education, improving quality, strengthening vocational training, and integrating digital technologies. It concludes that the contemporary Indian education system has emerged as a result of long-term historical development combining national traditions with global trends.*

***Keywords:*** *Indian education system, evolution of education, Vedic period, Buddhist education, Gurukul system, madrasas, British colonialism, National Education Policy, educational reforms, modernization, digital education, human capital.*

**KIRISH.** Hindiston dunyodagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biri bo‘lib, uning ta’lim tizimi ham bir necha ming yillik tarixga ega. Mamlakatda ta’limning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning siyosiy, diniy, iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda kechgan. Qadimgi Vedalar davridan boshlab buddaviylik, islomiy ta’lim an’analari, Britaniya mustamlakachiligi davridagi islohotlar hamda mustaqillikdan keyingi davlat siyosati Hindiston ta’lim tizimining bugungi qiyofasini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

XXI asrda ta’lim inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omili sifatida e’tirof etilayotgan bir sharoitda Hindiston tajribasini tarixiy nuqtayi nazardan o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakat ta’lim tizimi uzoq tarixiy taraqqiyot davomida milliy an’analar va zamonaviy global tendensiyalar uyg‘unligida rivojlangan. Shuningdek, Hindistonning ta’lim sohasidagi islohotlari rivojlanayotgan davlatlar uchun ham muhim tajriba manbai hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Hindiston ta’lim tizimining qadimgi davrdan XXI asrgacha bo‘lgan tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilish, uning rivojlanish bosqichlari, asosiy xususiyatlari va ta’lim siyosatidagi o‘zgarishlarni ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Tadqiqot davomida ta’lim tizimining turli tarixiy davrlardagi rivojlanish omillari hamda ularning zamonaviy Hindiston ta’limiga ta’siri ochib beriladi.

**TADQIQOTNING USULLARI.** Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, xolislik va ilmiylik tamoyillariga tayanildi. Mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, davrlashtirish hamda retrospektiv tahlil usullaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy usul yordamida Hindiston ta'lim tizimining turli davrlardagi rivojlanish xususiyatlari o'zaro taqqoslandi. Davrlashtirish usuli asosida ta'lim tizimining Vedalar davri, buddizm davri, musulmonlar hukmronligi davri, Britaniya mustamlakachiligi davri hamda mustaqillik davri bosqichlari ajratib o'rganildi. Tizimli tahlil usuli orqali ta'lim tizimining siyosiy, iqtisodiy, diniy va madaniy omillar bilan o'zaro bog'liqligi tadqiq qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda Hindiston va xorijiy mamlakatlar olimlarining ilmiy ishlari, monografiyalar, maqolalar, rasmiy statistik ma'lumotlar, Milliy ta'lim siyosati hujjatlari hamda tarixiy manbalar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarishda analiz va sintez usullaridan foydalanildi.Bu matnlar maqolangizning ilmiy darajasini oshiradi va OAK talablariga mos ravishda shakllantirilgan.

**NATIJA VA MUHOKAMALAR.** Qadimdan Hindistonda ta'lim sohasi muhim ahamiyat kasb etib, bugungi ta'lim tizimining shakllanishiga asos bo'lib kelgan. Mustaqillikka erishishgacha bo'lgan davrda Hindistondagi ta'lim tizimi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida shakllangan. Shu bois Hindiston ta'lim tizimi davlat rivojlanishining uzluksiz tarkibiy qismi bo'lib, tarixiy jarayon sifatida o'ziga xos evolyutsiyani boshdan kechirgan[1].

Tahlil qilinayotgan masalaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ko'pgina hindistonlik olimlar, jumladan, S. Paleeri[2], S. Nurullah, J.P. Naik[3], Dr. N.P. Rajashre[4], C.V. Sindhuja[5] , Dr. S. Pednekar, Dr. D. Harichandan, R. A. Bankar[6] va boshqalar hind ta'lim tizimi shakllanishini davrlarga bo'lib, tahlil qilganlar. Misol uchun, R.N. Sharma hamda P.K. Sharma o'zlarining "Hindistonda ta'lim tarixi" nomli asarlarida Hindiston ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishini quyidagicha davrlashtiradilar:

**Qadimgi davr Hindiston ta'lim tizimi:**

[1] Xayrullayeva I.F. XX asr o'rtalari – XXI asr boshlarida Hindistonda xotin-qizlar ta'limining mintaqaviy xususiyatlari. – Toshkent, 2025. – B. 18.

[2] Sankaranarayanan P. A brief history of educational developments in India. Towards an educated society. – U.K.: Cambridge Scholars publishing, 2024. – 162 p.

[3] Nurullah S., Naik J.P. A history of education in India. – India: Macmillan, 1951. – 212 p.

[4] Dr. Rajashree N. P. Indian Education System — A Historical Journey // Vaidya Shri M.M. Patel College of Education. International jurnal research in education. Vol.3. Issue 3. – India, 2014. – P. 46-49.

[5] Sindhuja C.V. Education in India: A historical perspective // A Quarterly Refereed Journal of Dialogues on Education. Vol.10. Issue 3, 2021. – P. 47-64.

[6] Dr. Suhas P., Dr. Dhaneswar H. and Bankar A.R. History of education. Part II. Paper IV. M.A. Education. – India: University of Mumbai, 2018. – P. 202.

a) Vedalar davri ta’limi (miloddan avvalgi 1500-500);
b) Buddizm davri ta’limi (miloddan avvalgi 500 — milodiy 1200);

**O‘rta asr Hindiston ta’lim tizimi:**

c) Musulmonlar hukmronligi davri ta’lim tizimi (1200-1757);

**Zamonaviy davrda Hindiston ta’lim tizimi:**

d) Britaniya mustamlakachiligi davri ta’lim tizimi (1757-1947);
e) Mustaqillik davri ta’lim tizimi (1947-yildan hozirgacha).

Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Hindiston ta’lim tizimi tarixiy davrlar davomida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga, uzluksiz rivojlanish jarayonini ham namoyon qiladi. Har bir bosqich oldingisidan ta’sirlanib, uni to‘ldirgan holda shakllangan va jamiyatning iqtisodiy, siyosiy hamda ijtimoiy mafkuraviy o‘zgarishlariga mos ravishda takomillashgan[1]. Shu boisdan, Hindiston ta’lim tizimining tarixiy rivojlanishi murakkab, lekin uzviy jarayon bo‘lib, har bir davr keyingi bosqichning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Hindistonda ta’lim tizimining ildizlari buddizm davridan ham avvalgi qadimgi Veda davriga borib taqaladi. “*Veda*” atamasi “*bilim*” ma’nosini anglatib, o‘sha davrdagi ta’lim jarayonlari asosan jamiyatning yuqori tabaqa vakillari uchun ochiq bo‘lgan, quyi tabaqa vakillari esa bilim olish huquqiga ega emasdilar. O‘qituvchidan o‘quvchiga bilim berish jarayoni jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan va shu davrdan boshlab o‘quvchilar “*qayta tug‘ilganlar*” sifatida e’tirof etila boshlagan. Bu jarayon Veda ta’lim an’analarining asosiy tamoyillaridan biriga aylangan bo‘lib, keyinchalik Hindistonning ilmiy va ma’naviy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan[2].

Veda davrining so‘nggi bosqichlarida ta’lim tizimi yanada rivojlanib, o‘quvchilar nafaqat veda matnlari, qo‘shiq va madhiyalarini o‘rganishni, balki dunyoviy fanlarni *gurukul tizimi* orqali o‘zlashtira boshladilar. “Gurukul tizimi”[3] bu o‘qituvchining uyida tashkil etilgan qadimiy maktablar majmuasi bo‘lib, uyerda nafaqat diniy bilimlar, balki zamonaviy deb qaraladigan fanlar, jumladan, falsafa, astronomiya, grammatika va matematika ham o‘rgatilgan[4]. Bu esa ta’lim jarayonini yanada kengroq qamrab olgan bo‘lib, Hindistonda ilmiy tafakkur va ijtimoiy taraqqiyotning shakllanishiga zamin yaratgan.

Tarixchi Ram Babu Guptaning ta’kidlashicha, milodiy IV–V asrlardan boshlab Hindistonda ta’lim tizimi yanada rivojlanib, maxsus o‘quv binolari, aniq o‘quv

[1] Xayrullayeva I.F. XX asr o‘rtalari – XXI asr boshlarida Hindistonda xotin-qizlar ta’limining mintaqaviy xususiyatlari. – Toshkent, 2025. – B. 20.

[2] Кузнецов Н.Я. Из истории высшего образования в Индии. Учёные записки. Том 300, выпуск 22. – М., 1971. – С.186.

[3] गुरुकुल के हिंदी अर्थ | हिन्दवी डिक्शनरी | Gurukul — meaning in Hindi. https://www.hindwidictionary.com/meaning-of-gurukul?wref=rweb (18.11.2024)

[4] डॉ. पंकज गौर | प्राचीन भारत में गुरुकुल शिक्षा प्रणाली | // विज्ञान, इंजीनियरिंग और प्रौद्योगिकी में बहुविषयक अनुसंधान का अंतर्राष्ट्रीय जर्नल। खंड १| अंक ८, २०१९. – प| १६३६|

dasturlari va malakali ustozlarga ega bo‘lgan maktablar tashkil etila boshlagan. Bu jarayon ta’limni yanada tizimli va samarali shaklga keltirib, ilm-fanning rivojlanishiga zamin yaratgan[1].

Qadimgi hind jamiyatida shakllangan ta’lim tizimi o‘zida milliy hamda diniy jihatlarni mujassam etib, Hindistonning keyingi davrlardagi ta’lim sohasi rivojlanish jarayoniga zamin yaratgan.

Veda davrida shakllangan ta’lim tizimi avvaliga diniy marosimlar, urf-odatlar va diniy qoidalarni o‘rganishga qaratilgan edi. Biroq ushbu davrning o‘rta va oxirgi bosqichlarida dunyoviy bilimlarga qiziqish ortib, matematika, iqtisodiyot, adabiyot, grammatika, tibbiyot, tarix hamda tabiiy fanlar asta-sekin rivojlanib bordi. Shu bilan birga, ayollar bevosita Gurukulda tahsil olmagan bo‘lsalar-da, ko‘pincha o‘z uylarida ota-onalari yoki qarindoshlari rahbarligida diniy ta’lim bilan bir qatorda adabiyot, raqs, musiqa va she’riyat singari san’at yo‘nalishlarida ham ma’lum bilimlarga ega bo‘lishgan[2]. Bu holat qadimiy hind jamiyatida xotin-qizlarning ta’lim olishi va ularning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rniga nisbatan muayyan e’tibor bo‘lganidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi VI asrda yuzaga kelgan buddizm dini Hindiston ta’lim tizimining keyingi taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan[3]. Dastlab “budda birodarlari” sifatida shakllangan jamoa asta-sekin kengayib, ibodatxonalar tarmog‘iga aylandi va mamlakatdagi ta’lim jarayonini boshqaruvchi asosiy nazorat organiga aylandi.

Buddistlar sekinlik bilan Veda davridagi diniy marosimlarni rad etgan bo‘lsalar-da, o‘sha davr ta’lim an’analarining ilg‘or jihatlaridan foydalanib, uni yanada rivojlantirishga intildilar. Ular zo‘ravonlikni qoralab, demokratiya g‘oyalarini ilgari surdilar. Buddizm davrida ta’lim maskanlari ibodatxonalar yonida ya’ni *vihara*larda[4] tashkil etilib, ular diniy aqidalarni o‘rgatish markazlari sifatida faoliyat yuritdi. Keyinchalik esa bu ilm maskanlari yirik ma’rifat va ilm-fan o‘choqlariga aylangan.

Buddizm ta’limotida insoniyat hayoti aql, mantiq va shaxsiy tajribaga tayangan holda kechishi zarurligi ta’kidlanadi. Unda eng avvalo axloqiy tamoyillar ustuvor sanalib, jamiyatda mavjud kasta tizimi keskin tanqid qilingan.

Veda davrining oxirlari taxminan miloddan avvalgi 200-yillarda ayollarning ta’lim olish jarayoni sekinlashgan bir davrda buddizm xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar taqdim qildi. Rivoyatlarga ko‘ra, Budda o‘zining eng yaqin shogirdi

---

[1]. राम बाबू गुप्त। भारतीय शिक्षा और उसकी समस्याएँ। कानपुर – १, १९७३, प० — २०|

[2] Komilova D. Hindiston ta’limtizimi. – T.: TDShU, 2012. – B. 42.

[3] Natchapapha W. The Buddah’s intention to establish the bhikkhuni sangha // The chulalingkorn journal of buddhist studies. Vol.8, 2014. – P. 68.

[4] Vihara – sanskritcha so‘z bo‘lib, budda monastri hisoblanadi, shuningdek, Hindistondagi qoyatoshlarga o‘yib ishlangan sun’iy g‘orlarning maxsus turi bo‘lib, ular budda rohiblari yashashi uchun hujra vazifasini ham o‘tagan.

Anandning iltimosidan so‘ng ayollarni diniy jamoaga qabul qilishga rozi bo‘lgan. Shu tufayli jamiyatda xotin-qizlarning ta’lim olishi yana faollashdi. Buddizm davrida ma’rifatli ayollar safi kengaydi, xususan shoir va dramaturg Kalidasdan keyin mashhur bo‘lgan Shubha, Anupama, Sulidha (mil. avv. III asr) kabi targ‘ibotchilar, shuningdek imperator Ashokaning singlisi Sangamitta (mil. avv. 282–203) ham o‘z faoliyati bilan e’tirof etilgan[1].

Buddizm dini bugungi kunda ham hind jamiyati va hinduizm diniga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatib keladi, biroq jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasida mustahkam o‘rnashgan kasta tizimi sababli u milodiy asr boshida mamlakat bo‘ylab keng yoyilmadi. Shunga qaramay, buddizm davridagi ta’lim tizimi Hindistonda ilm-fan, ishlab chiqarish, madaniyat hamda savdo-sotiq taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shgan.

Hindiston ta’lim tizimining shakllanish va rivojlanish tarixida islom dinining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. VII–VIII asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududlarida keng yoyilgan islomiy ilmiy-ma’rifiy an’analar keyinchalik Hindiston hududlariga ham kirib kelgan. XI asr boshlarida sulton Mahmud G‘aznaviyning (967–1030) Hindistonning shimoliy shtatlariga qilgan harbiy yurishlari natijasida islom dini va madaniyati bu mintaqada tarqala boshladi[2]. Mazkur jarayon Hindiston ta’lim tizimiga yangi ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kelishiga, madrasalar faoliyatining shakllanishiga hamda mahalliy ta’lim jarayonida diniy-ilmiy merosning boyishiga sabab bo‘ldi.

Hindistonda Dehli sultonligi tashkil topishida zamin yaratgan Muhammad G‘uriy 1192-yilda (1144–1206) Dehlini egallab, so‘nggi hukmdor Prithviraj Chauhanni mag‘lub etdi va zabt etilgan yerlarni sodiq sarkardasi Qutbiddin Oyboqqa (1150–1210) topshirdi[3]. Shundan so‘ng, G‘ulomlar, Hiljiylar, Tug‘loqlar, Sayyidlar va Lo‘diylar sulolalari (1192–1707 yillarda) mamlakatda hukmronlik qildilar[4]. Mazkur jarayon natijasida Hindistonda masjid va madrasalar tashkil etilib, islom ta’lim tizimi keng yoyildi. Aynan shu davrda Qur’on, hadis, fiqh, mantiq, falsafa va adabiyot kabi fanlar o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilib, mahalliy ta’lim an’analari bilan uyg‘unlashgan yangi ilmiy muhit shakllandi.

Tadqiqotchi E. Y. Vaninaning ta’kidlashicha, “Hindistonda ham madrasalar boshqa musulmon mamlakatlaridagidek diniy-ta’limiy muassasa sifatida faoliyat

[1] पाठक पि।दी। भारतीय शिक्षा और उसकी समस्याएँ। विनिद पुस्तक मंदिर आगरा। प० २। ७३२। |

[2] Неру Ж. Открытие Индии. Перевод с английского. – М.: Иностранная литература, 1955 – С. 245.

[3] Dr. Kurash S., Fatemah A. Sh. Reasons and consequences of Ghaznavids’ Invasion of India //Journal of Subcontinent Research. University of Sistan and Baluchestan. Vol. 5. Issu 15. 2013. – P. 161.

[4] डॉ ० रामशकल पाण्डेय एवं करुणाशंकर मिश्र । भारतीय शिक्षा की समसाभयिक समस्याएँ । विनोद पुस्तक मंदिर, आगरा -२, प०-३८४, प० – १६ |

yuritgan. Shu bois asosiy o‘quv dasturi Qur’on ta’limi bilan bir qatorda mantiq, falsafa, ritorika, huquq, matematika, astronomiya, tibbiyot va boshqa fanlarni ham qamrab olgan”[1].

Hindistonda islom ta’lim tizimi bir necha asrlar davomida hukm surib, mamlakatning ilmiy va madaniy rivojlanish jarayoniga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Boburiylar sulolasi davrida (1526-1857) esa pathshala[2] va madrasalarning keng tarmog‘i shakllanib, ta’lim jarayonida diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarning ham rivojlanishiga sharoit yaratildi. Natijada, Hindiston jamiyati ma’naviy, madaniy va ijtimoiy sohalarda yangi bosqichga ko‘tarildi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, “Dehli, Agra, Fathpur-Sikri, Lahur, Ollohobod kabi qator shaharlar ilm markazlariga aylantirilgan. Dehlidagi Valiulloh madrasasi mantiq ilmini, Sialkot (hozirgi Pokiston hududiga to‘g‘ri keladi) shahridagi madrasa esa savodxonlik (grammatika) ilmini o‘qitish bo‘yicha peshqadamlik qilgan. Banoras shahridagi ilm maskani hind talabalariga tahsil berish bo‘yicha asosiy markazlardan biri hisoblanib, din nazariyasi va sanskrit adabiyotini o‘qitish sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishgan”[3].

Islom dini Hindistonga kirib kelishi natijasida mamlakatda fan, madaniyat va ta’lim sohalarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi, xususan, Boburiylar davrida ta’lim tizimi rivojlanishida musulmon va hind an’analarining uyg‘unlashuvi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, qadimgi hind falsafasi va madaniy merosi o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lsa-da, Boburiylar tomonidan yaratilgan tarixiy, falsafiy va ma’rifiy boyliklar Hindiston ta’lim tizimining keyingi taraqqiyotida beqiyos o‘rin egalladi.

Bugungi zamonaviy hind ta’lim tizimi poydevori ingliz mustamlakachiligi davrida shakllana boshladi. Britaniya mustamlakachiligi davrida Hindiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida transformatsiyon jarayonlar ro‘y berdi. Mazkur davrda ta’lim tizimi, mehnat bozori hamda ijtimoiy va siyosiy huquqlar sohasida erkak va ayollar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlashga qaratilgan islohot va ijtimoiy harakatlar boshlandi. Sanoatlashtirishning jadallashuvi, urbanizatsiya jarayonlarining kengayishi va ijtimoiy harakatlarning faollashuvi Hindistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeyining yuksalishida muhim omil bo‘ldi.

Ingliz mustamlakachiligi Hindiston ta’lim tizimida amaliy va zamonaviy yondashuvlarni joriy etdi. Inglizlar dastlab mamlakat hayotini chuqur tushunish, mahalliy urf-odatlar, an’analar va qonunlarni o‘rganish maqsadida ta’lim

[1] Ванина Е. Ю. Наука и образование в Индии позднего средневековья и начало нового времени (XVI-XVIII в.в.) // Индия — 1987. Ежегодник. – М., 1988. – С. 281.

[2] Pathshala – mahalliy ta’lim muassasasi, o‘rta asrlarda butun Hindiston bo‘ylab, ayniqsa, Bengaliya, Bihar hamda Uttar-Pradesh kabi hududlarda keng tarqalgan.

[3] Satimov G‘., Karimov R. Boburiylar Hindistonida maorif tizimi. Boshlang‘ich ta’lim. – T.: Ma’naviyat, 1998. – B. 29.

muassasalarini tashkil etdilar, bu esa ularning Hindistonni boshqarish siyosati bilan chambarchas bog‘liq edi. Shu davrda zamonaviy ta’limning shakllanishida hind ziyolilari va islohotchilar, xristian missionerlar hamda Sharqiy Hindiston kompaniyasi faol ishtirok etib, muhim qonun, komissiya va dasturlar orqali ta’lim tizimini tartibga soldi va bu orqali Hindistonda ta’limning yangi shakliga zamin yaratdilar[1]. Shuningdek, bu davrda xotin-qizlar ta’limiga ham alohida e’tibor qaratildi va aynan shu vaqtdan boshlab ayollar ta’limini rivojlantirish harakati keng yoyila boshlandi.

1813-yilgi Britaniya parlamenti qaroriga ko‘ra, Sharqiy Hindiston kompaniyasi nazorati ostidagi hududlarida faoliyat yuritayotgan missionerlarga mahalliy xotin-qizlar ta’limini rivojlantirishga ruxsat berildi. Shu imkoniyatdan foydalangan missionerlar hududda maktab va kasalxonalar tashkil qilib, mahalliy aholiga yaqinlashdilar hamda jamiyatdagi qizlarga ham o‘g‘il bolalar kabi ta’lim olish imkonini yaratdilar. Dastlab bunday maktab 1821-yilda Tamil Nadu shtatidagi Tirunelvelida ochilgan, 1837-yilda esa Anna Dryu xonim tomonidan keyingi maktab tashkil etildi[2].

XIX asr oxirlariga kelib Britaniya Hindistonidagi ommaviy boshlang‘ich maktablar quyi va yuqori sinflarga ajratildi. Bu albatta o‘sha davrga nisbatan amalga oshirilayotgan ijobiy harakatlardan biri hisoblanardi.

Talaba qizlar sonining ortishi bilan ayollar uchun alohida oliy ta’lim muassasalari tashkil etish zarurati yuzaga keldi. Xotin-qizlarning oliy ma’lumot olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida islohotchi Dhondo Keshav Karve (1858–1962) 1916-yilda Maharashtrada *SNDT (Shreemati Nathibai Damodar Thackersey) Women’s Universityni* ta’sis etdi. Ushbu ta’lim dargohi Hindiston hamda Janubiy-Sharqiy Osiyodagi ilk ayollar universiteti sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi[3].

Hindistonda zamonaviy ta’lim tizimi yaratish faoliysati asosan mustaqillik davridan emas, balki XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlangan deb tushunish to‘g‘riroqdir. Ayniqsa, xotin-qizlar savodxonligini oshirish, boshlang‘ich ta’limni keng hududlarda tashkil etish g‘oyalari aynan shu davrda shakllanib, amaliy iz qoldirgan. Jumladan, Robindranat Tagor (1861-1941) o‘zining ilmiy ijodiy faoliyatida ta’lim-tarbiya muammolariga alohida e’tibor qaratadi va o‘zi yozgan asarlarida ham bu mavzu asosiy ahamiyat kasb etadi. U o‘z maqolalarida *(“Ta’lim islohoti”, “Ta’lim muammosi”, “O‘qitish metodi”, “Ayollar ta’limi”, “Ta’lim va madaniyat”*) Hindiston ta’lim tizimidagi dolzarb muammolarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatadi. Tagor ta’lim islohotining markaziga milliy g‘oyani qo‘yib, chet el madaniyatiga so‘zsiz ergashishni qoralaydi va o‘z xalqining ma’naviy

[1] Parminde K., Kuldeep K.D. Women empowerment during the British period in India // Journal of emerging technologies and innovative research. Vol. 6. Issue 6, 2019. – P. 376.
[2] A visual journey of girl’s education in India. https://anuraag-shukla.medium.com (21.11.2023).
[3] O‘sha manba. – P. 141.

hamda madaniy qadriyatlarini himoya qilish orqali milliy zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish zarurligini ta’kidladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Robindranat Tagor ilgari surgan g‘oyalar Hindistonda milliy ongning kuchayishiga xizmat qildi va keyinchalik zamonaviy ta’lim tizimining shakllanishiga asos bo‘ldi. Shu davrda jamiyatdagi an’anaviy tartiblarni yangilash, xususan, ayollar ta’limini kengaytirishga ta’sir ko‘rsatgan omillardan biri millatchilik harakati edi. Mazkur jarayon Mahatma Gandi (1869-1948) faoliyati davrida yanada keng tus oldi. Uning tashabbusi bilan uyushtirilgan *satyagraha*larda (zo‘ravonliksiz qarshilik harakatlari) nafaqat hududlardagi yuqori tabaqa vakillari, balki chekka hududlarda yashovchi oddiy qishloq xotin-qizlari ham faol qatnashdilar.

XX asrning 30-yillarida Hindistonda Mahatma Gandi tashabbusi bilan नई शिक्षा (*Asosiy ta’lim*) g‘oyasi shakllandi. Unga ko‘ra, ta’lim jarayonining asosini amaliy mehnat tashkil etishi kerak edi. Gandi nazarida haqiqiy bilim faqat nazariy emas, balki ishlab chiqarish va kundalik mehnat bilan uyg‘unlashgan holda shakllanadi[1]. U ta’lim sohasida kasta, din va jins tafovutlarni inkor qilib, barcha qatlamlarning teng ishtirokini muhim deb bildi. Shuningdek, xotin-qizlar ta’limini rivojlantirish orqali jamiyatni qashshoqlik, qoloqlik va ekspluatatsiyadan ozod qilish mumkinligiga ishonar edi. Shu bois, uning ta’lim konsepsiyasi milliy-ozodlik harakati mafkurasining muhim qismi bo‘ldi.

Angliya mustamlakachiligi davridagi ta’lim siyosati avvalo hind xalqining an’anaviy ma’naviy qadriyatlari va milliy maorif tizimini zaiflashtirish, shu orqali inglizparast kadrlarni yetishtirishga qaratilgan edi. Lord Makoleyning 1835-yildagi mashhur “Ta’lim to‘g‘risidagi memorandumi”da ham aynan ingliz tilini asosiy o‘qitish vositasi qilib belgilash, hindlarni “qora *tanli inglizlar*” sifatida tarbiyalash maqsadi ko‘zda tutilgan edi[2]. Bu siyosat natijasida an’anaviy gurukul va madrasalarning mavqeyi pasayib, ingliz modeli asosidagi maktab va kollejlar shakllandi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib esa Hindistonda zamonaviy ta’lim tizimi shakllana boshladi. Bu tizim boshlang‘ich bosqichdan tortib oliy ta’limgacha keng qamrovli bo‘lib, mamlakatning intellektual taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Xotin-qizlar uchun ochilgan alohida maktab va oliy o‘quv yurtlari, shuningdek, ularga universitet eshiklarining ochilishi Hindiston ta’lim tizimi tarixida muhim burilish yasadi. Bunday yangiliklar nafaqat modernizatsiya jarayonining bir qismi, balki jamiyatda gender tenglik tamoyillarining asta-sekin qaror topishiga ham xizmat qildi.

[1] Gandhi M.K. Basic Education (Nai Talim). – Ahmedabad: Navajivan Publishing house, 1951. – P. 45.
[2] Macaulay T.B. Minute on Indian education. – London, 1835. – P. 105.

Shu bilan birga, ta’lim sohasidagi bu ijobiy o‘zgarishlarni faqat ingliz hukmronligining insonparvarlik siyosati natijasi deb baholash biryoqlama yondashuv bo‘ladi. Aslida, ularning shakllanishida hind xalqining milliy uyg‘onish davrida ko‘rsatgan tashabbuslari, mahalliy ziyolilar va islohotchilarning sa’y-harakatlari hal qiluvchi omil edi. Shunday qilib, inglizlar tomonidan joriy qilingan ta’lim tizimi ma’lum ma’noda mustaqillikka olib boruvchi ijtimoiy-madaniy jarayonlarga zamin yaratsa-da, inglizlar olib borgan siyosati aslida aholi, xususan, xotin-qizlarning ziyolilashuviga emas, balki amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar mustamlaka siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, arzon ishchi kuchini tayyorlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda inson kapitalidan yanada unumli foydalanish orqali Britaniya hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan edi.

1947-yil 15-avgust kuni Hindiston Britaniya imperiyasi tarkibidan chiqib, siyosiy mustaqillikka erishdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq Hindiston hukumati ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga yo‘naltirilgan “*Hindistonda yangi ta’lim tizimini yaratish va rivojlantirish konsepsiyasi*”ni ishlab chiqdi hamda uni davlat siyosati darajasiga ko‘tardi[1]. Ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadlaridan biri mustamlaka davrida inglizlar tomonidan tashkil etilgan o‘quv muassasalarini hukumat tasarrufiga o‘tkazish va ularni davlat nazorati ostida rivojlantirish edi.

Biroq yangi mustaqillikka erishgan davlat oldida bir qator iqtisodiy qiyinchiliklar mavjud edi. Shunga qaramay, hukumat hamda demokratik kuchlar ta’lim sohasini rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab, xalq ta’lim tizimini shakllantirish bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdilar va keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishga kirishdilar. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan dastlabki chora bu mustamlakachilik siyosati asoratini bartaraf etish, ta’lim tizimini zamon hamda hind xalqi ruhiga mos tarzda barcha fuqarolarga tili, dini, e’tiqodi, teri rangi va albatta jinsidan qat’iy nazar ta’lim olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berish bo‘ldi.

1948-1949-yillarda Hindiston hukumati tomonidan “Universitet ta’lim komissiyasi” tashkil etildi[2]. Ushbu komissiya xalq orasida “Radhakrishnan komissiyasi” nomi bilan ham tanilgan. Komissiyaning asosiy maqsadi mamlakatdagi oliy ta’lim tizimini isloh qilish va uning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishdan iborat edi. Shuningdek, komissiya xotin-qizlarning kollej va universitetlarda oliy ta’lim olishi bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish, ularning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda gender tengligini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga ham alohida e’tibor qaratdi[3].

[1] Govenrtment of India. Indian Information. Library of the university of California – P. 78.
[2] Jayapalan. N. History of Education in India. – India: Atlantic Publishers and distributors, 2005. – P. 99.
[3] Parimal Mandal. A study on the development of women education in Indian in the light of government initiatives // International journal of creative research thoughts (IJCRT). Vol. 9, Issue 1. 2021. – P. 2726.

XX asrning 50-60 yillarida Hindistonda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan qator islohotlardan biri bu madaniy sohadagi, xususan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar bo‘ldi. Chunonchi, amaldagi mustamlaka davrida tashkil etilgan ta’lim tizimini isloh etmasdan, yangi milliy g‘oya asosida yo‘g‘irilgan ta’lim tizimini tashkil etish, jamiyatga kerakli bo‘lgan kadrlar jamoasini shakllantirishning ilojisi yo‘q edi. Hind xalqining milliy qahramonlari bo‘lmish R. Tagor, M. Gandi, J. Neru kabilar mustaqillik g‘oyalari to‘g‘risida so‘z yuritganlarida avvalambor, Hindiston kelajagini birinchi navbatda ma’naviy jihatdan yetuk kishilar, xususan, ziyoli xotin-qizlar qo‘lida ekanligini doimo o‘qtirganlar. Misol uchun, J. Neruning “Millat taraqqiyotini bilmoqchi bo‘lsang, avvalo o‘sha jamiyatdagi xotin-qizlar ahvoliga qara”[1], degan o‘giti xotin-qizlar ta’lim olishi mamlakat taraqqiyoti uchun naqadar muhim omil ekanligining dalilidir.

Hindiston hukumati xotin-qizlarning ta’lim olishini nafaqat qaror va dasturlar orqali, xususan, qonuniy tomonlama ham kafolatladi. 1950-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning 45-moddasida 6 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar bepul va majburiy ta’lim olish huquqi belgilandi[2].

Hindiston hukumati tomonidan mamlakatdagi mavjud muammolardan kelib chiqib ta’lim sohasini yanada rivojlantirish va tartibga solish maqsadida bir necha marotaba Milliy ta’lim siyosati (*NPE*) ishlab chiqildi. Milliy ta’lim siyosati o‘z doirasiga Hindistonning qishloq va shaharlar hududlaridagi boshlang‘ich ta’limdan oliy ta’limga qadar bo‘lgan masalalarni qamrab oladi. Birinchi Milliy ta’lim siyosati (NPE) 1968-yilda Indira Gandi hukumati davrida, 1986-yilda Radjiv Gandi hukumati davrida Ikkinchi Milliy ta’lim siyosati hamda Uchinchi Milly ta’lim siyosati esa 2020-yilda Narendra Modi hukumati davrida ishlab chiqilgan[3].

1968-yilda Hindiston hukumati Indira Gandi boshchiligida ta’lim sohasiga oid Kothari Kommissiyasi (1964-1966) tavsiyasi asosida “Milliy ta’lim siyosat – 1968” dasturini qabul qildi. Mazkur siyosatning bosh maqsadi ta’lim tizimida ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini qaror toptirish, ta’lim jarayonining sifatini oshirish va nazoratni kuchaytirish, darslarni avvalo ona tilida olib borishga erishish hamda ta’limni milliy taraqqiyot vazifalariga xizmat qiladigan tizimga aylantirishdan iborat edi.

Shuningdek, bosh vazir Radjiv Gandi davrida xotin-qizlar ta’limi sohasida sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Shu jumladan, 1986-yilda qabul qilingan “Milliy

[1] Jawaharlal Nehru. Toward Freedom: The autobiography of Jawaharlal Nehru. – New York: The John Day Company, 1941. – P. 327.

[2] Balaji P. Post-Independence educational development among women in India // Paper presented in the Seminar on “Women in Changing Society” at the Centre for Women’s Development Studies, University of Hyderabad, 1987. – P. 16.

[3] The Times of India. National education Policy 2020: All you need to know. https://timesofindia.indiatimes.com/home/education/news/national-education-policy-2020-all-you-need-to-know/articleshow/77239854. (12.02.2024).

ta’lim siyosati” hamda 1988-yilda tashkil etilgan “*Mahila Samakhya*” dasturi xotin-qizlar ta’limini rivojlantirish va ularning ijtimoiy tengligini ta’minlashga qaratilgan asosiy tashabbuslar sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi[1].

1986-yilda qabul qilingan Milliy ta’lim siyosati (*National Policy on Education – 1986*) mamlakat ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga yo‘naltirilgan muhim strategik hujjatlardan biri edi[2]. Mazkur siyosat doirasida xotin-qizlarning ta’limga bo‘lgan huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu gender tengligini ta’minlash sari tashlangan muhim qadam sifatida baholanadi.

XXI asr Hindiston ta’limi mustamlaka davri va mustaqillikdan keyingi islohotlar tarixiy kontekstini davom ettirgan holda, global raqobat, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy inklyuzivlik talablari bilan uyg‘unlashgan tizimga aylanmoqda. Mustamlaka davrida ta’lim asosan elita va diniy guruhlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ingliz tilida bilimli kadrlar tayyorlashga qaratilgan edi. Mustaqillikdan so‘ng universal va majburiy ta’lim tizimi joriy qilinib, qishloq hududlarida maktablar soni oshirildi, qizlar va quyi guruh vakillari uchun inklyuziv dasturlar ishlab chiqildi. Shu tarixiy ildizlar XXI asr ta’lim siyosatining asosini tashkil qiladi.

XXI asr Hindiston ta’limida birinchi o‘rin maqbul qamrov va kirish imkoniyatlariga beriladi. Right to Education Act (2009) va maktabgacha ta’lim dasturlari orqali bolalar uchun 3–14 yoshgacha ta’lim majburiy va bepul qilindi, qizlar va oromgoh oilalar vakillari ta’limga jalb qilindi. Shu bilan birga, raqamli ta’lim va masofaviy o‘qitish texnologiyalari, xususan Digital India va SWAYAM platformalari, qishloq va shahar hududlarida ta’lim imkoniyatlarini kengaytirdi, ammo hududiy va infratuzilmaviy tafovutlar hali ham muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ta’limning ikkinchi muhim yo‘nalishi kasbiy, texnik va oliy ta’limning modernizatsiyasi. 6-sinfdan boshlab kasbiy va texnik tayyorgarlikni joriy qilish, oliy ta’limda ko‘p disiplinli dasturlar va malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish orqali Hindiston ishchi kuchi bozoriga moslashtirilmoqda. Shu bilan birga, ko‘p tilli ta’lim va ona tilidagi o‘qitish bolalarning akademik muvaffaqiyati va madaniy identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, XXI asr Hindiston ta’limi tarixiy tajribalarni saqlagan holda, global va raqamli tendensiyalar bilan uyg‘unlashgan tizimga aylangan. Siyosat va dasturlar ta’lim qamrovini oshirish, gender va ijtimoiy inklyuzivlikni ta’minlash, texnologik imkoniyatlardan foydalanish va ishchi kuchi bozoriga tayyorlash kabi strategik vazifalarni bajaradi. Shu tariqa, XXI asr Hindiston ta’limi nafaqat akademik

[1] Digumarti B.R. Women, education and empowerment. India: Discovery Publishing house, 1999. – P. 120.

[2] Government of India. National policy on education 1986 // Ministry of Human Resource Development. – New Delhi, 1986. – P. 21.

va texnologik jihatdan rivojlangan, balki ijtimoiy barqarorlik va teng imkoniyatlarni yaratuvchi tizim sifatida shakllangan.

**XULOSA.**Hindiston ta’lim tizimi ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, har bir davr o‘zining ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy xususiyatlariga mos ravishda rivojlangan. Qadimgi Vedalar va buddizm davrida ta’lim asosan diniy-ma’rifiy xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsa, o‘rta asrlarda islom ta’lim an’analari bilan boyidi. Britaniya mustamlakachiligi davrida esa zamonaviy, dunyoviy va institutlashgan ta’lim modeli shakllandi.

Mustaqillikdan keyin Hindiston hukumati ta’limni milliy taraqqiyotning asosiy omili sifatida belgilab, keng qamrovli islohotlarni amalga oshirdi. Milliy ta’lim siyosatlari orqali ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, bepul va majburiy ta’limni joriy etish hamda oliy ta’lim sifatini oshirish yo‘lida muhim natijalarga erishildi.

Bugungi kunda Hindiston ta’lim tizimi tarixiy merosni saqlagan holda, global tendensiyalar va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanmoqda. Ta’limning inklyuzivligi, sifatni oshirish va inson kapitalini shakllantirish mamlakat taraqqiyotining strategik omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

## ZAMONAVIY DAVR AQSH VA XITOY MUNOSABATLARIDA TAYVAN MUAMMOSI

***HABIBULLO SADIBAQOSEV***
*Professor v.b., siyosiy fanlar doktori (DSc), O‘zXIA*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada zamonaviy davrda AQSh va Xitoy o‘rtasidagi strategik raqobat kontekstida Tayvan muammosining geosiyosiy, harbiy-iqtisodiy va nazariy jihatlari tahlil qilinadi. XXI asr boshidan xalqaro tizimda kuchlar muvozanatining o‘zgarishi, Xitoyning tezkor iqtisodiy va harbiy yuksalishi hamda Hind–Tinch okeani mintaqasining strategik ahamiyati oshishi fonida Tayvan masalasi global xavfsizlik arxitekturasining markaziy elementiga aylangani asoslab beriladi. Maqolada Tayvanning geografik joylashuvi, Birinchi orol zanjiridagi o‘rni va Xitoyning A2/AD strategiyasi doirasidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqolada Tayvanning global yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishidagi ustuvor mavqei, “kremniy qalqoni” konsepsiyasi va AQShning texnologik qaramlikni kamaytirishga qaratilgan siyosati tahlil etiladi. Energetik qaramlik, ehtimoliy dengiz blokadasi va kiberxavfsizlik tahdidlari Tayvanning asosiy strukturaviy zaifliklari sifatida baholanadi. AQShning “strategik noaniqlik” siyosati, 1979-yilgi Taiwan Relations Act doirasidagi majburiyatlari hamda mintaqaviy ittifoqlarni mustahkamlash jarayoni alohida ko‘rib chiqiladi. Nazariy jihatdan masala realizm, neorealizm va liberalizm yondashuvlari asosida sharhlanadi. Realizm Tayvan muammosini kuch siyosati va xavfsizlik dilemmasi doirasida izohlasa, liberalizm iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikning urush ehtimolini kamaytiruvchi omil sifatidagi rolini ta’kidlaydi. Ssenariy tahlili orqali strategik noaniqlikning davom etishi,*

*qisman blokada, cheklangan harbiy eskalatsiya va keng ko‘lamli bosqin variantlari baholanadi.*

***Tayanch so‘z va iboralar:*** *AQSh–Xitoy strategik raqobati, Tayvan muammosi, Hind–Tinch okeani mintaqasi, “strategik noaniqlik”, A2/AD konsepsiyasi, Birinchi orol zanjiri, yarimo‘tkazgich ta’minot zanjiri, “Kremniy qalqoni”, xavfsizlik dilemmasi, geosiyosiy kuchlar muvozanati.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется тайваньский вопрос в контексте стратегического соперничества между Соединёнными Штатами и Китаем в современную эпоху, рассматриваются его геополитические, военно-экономические и теоретические аспекты. С начала XXI века изменения баланса сил в международной системе, стремительный экономический и военный подъём Китая, а также возрастание стратегического значения Индо-Тихоокеанского региона превратили тайваньскую проблему в центральный элемент глобальной архитектуры безопасности. В статье исследуются географическое положение Тайваня, его место в цепи Первых островов и значение в рамках китайской стратегии A2/AD (ограничение доступа и блокирование зоны). Также рассматривается ведущая роль Тайваня в мировом производстве полупроводников, концепция «кремниевого щита» и политика США, направленная на снижение технологической зависимости. Энергетическая зависимость, риск возможной морской блокады и киберугрозы оцениваются как ключевые структурные уязвимости Тайваня. Анализируются политика США «стратегической неопределённости», обязательства в рамках Закона об отношениях с Тайванем 1979 года, а также процесс укрепления региональных союзов. С теоретической точки зрения проблема интерпретируется через призму реализма, неореализма и либерализма. Реализм объясняет тайваньский вопрос в рамках политики силы и дилеммы безопасности, тогда как либерализм подчёркивает роль экономической взаимозависимости в снижении вероятности войны. На основе сценарного анализа оцениваются возможные траектории развития, включая сохранение стратегической неопределённости, частичную блокаду, ограниченную военную эскалацию и широкомасштабное вторжение.*

***Ключевые слова:*** *стратегическое соперничество США и Китая, тайваньский вопрос, Индо-Тихоокеанский регион, стратегическая неопределённость, концепция A2/AD, цепь Первых островов, цепочка поставок полупроводников, «кремниевый щит», дилемма безопасности, геополитический баланс сил.*

***Abstract:*** *This article analyzes the Taiwan issue within the context of strategic competition between the United States and China in the contemporary era, examining its geopolitical, military-economic, and theoretical dimensions. Since the beginning of the 21st century, shifts in the balance of power in the international system, China’s rapid economic and military rise, and the growing strategic significance of the Indo-Pacific region have transformed the Taiwan issue into a central element of the global security architecture. The article explores Taiwan’s geographic location, its position within the First Island Chain, and its importance within China’s A2/AD (anti-access/area denial) strategy. The article further examines Taiwan’s leading role in global semiconductor production, the concept of the “silicon shield,” and U.S. policies aimed at reducing technological dependence. Energy dependence, the risk of a potential maritime blockade, and cybersecurity threats are assessed*

*as Taiwan's key structural vulnerabilities. The U.S. policy of "strategic ambiguity," its commitments under the 1979 Taiwan Relations Act, and the strengthening of regional alliances are also analyzed. From a theoretical perspective, the issue is interpreted through the lenses of realism, neorealism, and liberalism. Realism explains the Taiwan question within the framework of power politics and the security dilemma, while liberalism emphasizes the role of economic interdependence in reducing the likelihood of war. Through scenario analysis, possible trajectories are evaluated, including the continuation of strategic ambiguity, partial blockade, limited military escalation, and large-scale invasion.*

***Keywords:*** *U.S.–China strategic competition, Taiwan issue, Indo-Pacific region, strategic ambiguity, A2/AD concept, First Island Chain, semiconductor supply chain, silicon shield, security dilemma, geopolitical balance of power.*

**Kirish:** XXI asr boshidan boshlab xalqaro tizim yirik transformatsiya bosqichiga kirdi. Bir qutbli tartibning nisbiy zaiflashuvi va yangi kuch markazlarining shakllanishi global siyosatda strategik raqobatni kuchaytirdi. AQSh va Xitoy o‘rtasidagi tizimli qarama-qarshilik zamonaviy xalqaro munosabatlarning asosiy determinanti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur raqobatning markazida esa Tayvan muammosi turibdi. Tayvan masalasi oddiy hududiy nizo emas, balki mintaqaviy xavfsizlik, global iqtisodiyot, texnologik ustunlik va normativ tartib bilan bog‘liq murakkab geosiyosiy masala. Bugungi sharoitda Tayvan Hind–Tinch okeani mintaqasida kuchlar muvozanatini belgilovchi strategik nuqtasiga aylangan. Uning Birinchi orol zanjiridagi joylashuvi Xitoyning Tinch okeaniga to‘liq chiqish imkoniyatini cheklaydi, AQSh va uning ittifoqchilari uchun esa mintaqaviy tiyib turish (deterrence) siyosatining tayanch elementi hisoblanadi. Tayvan global yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishining markazlaridan biri bo‘lib, zamonaviy iqtisodiyot (sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, mudofaa sanoati va avtomobilsozlik) aynan shu ta’minot zanjirlariga tayanadi. Tayvandagi har qanday beqarorlik global iqtisodiy inqiroz xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, Tayvan masalasi endilikda faqat Xitoy–Tayvan munosabatlari doirasida emas, balki AQSh–Xitoy strategik raqobatining markaziy elementi sifatida qaralmoqda. Harbiy modernizatsiya, A2/AD strategiyasi, “strategik noaniqlik” siyosati va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik kabi omillar ushbu muammoni ko‘p qatlamli va murakkab jarayonga aylantirmoqda. Shu bois maqolada Tayvan muammosining geosiyosiy, harbiy-iqtisodiy va nazariy asoslari kompleks tahlil qilinadi.

**Usullar:** Ushbu maqolada kompleks va tizimli yondashuv qo‘llanildi. Avvalo strukturaviy-tahliliy usul asosida AQSh–Xitoy strategik raqobatining xalqaro tizimdagi o‘rni va Tayvan muammosining geosiyosiy determinantlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida Xitoyning A2/AD strategiyasi va AQShning “strategik noaniqlik” siyosati o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, siyosiy realizm, neorealizm va liberalizm nazariyalariga tayangan holda konseptual-tahliliy metod qo‘llanildi, bu esa

muammoni turli nazariy prizmalarda sharhlash imkonini berdi. Statistik va faktologik ma’lumotlar asosida Tayvanning yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishidagi ulushi, energetik qaramligi va harbiy salohiyati baholandi. Ssenariy tahlili (scenario analysis) usuli orqali ehtimoliy rivojlanish variantlari prognoz qilindi. Mazkur metodlar tadqiqotning obyektivligi va tizimliligini ta’minlashga xizmat qildi.

**Natijalar va mulohaza:** XXI asr boshidan boshlab xalqaro tizim tub o‘zgarishlar bosqichiga kirdi. Ko‘p qutbli dunyo modelining asta-sekin yemirilishi va yangi kuch markazlarining shakllanishi fonida AQSh–Xitoy strategik raqobati global tartibning asosiy determinantiga aylandi. Ushbu tizimli qarama-qarshilikning markazida Tayvan turibdi. Tayvan masalasi nafaqat hududiy suverenitet nizosi, balki xalqaro normalar, savdo arxitekturasi, ta’minot zanjirlari xavfsizligi va demokratik institutlarning barqarorligi bilan bog‘liq kompleks muammo hisoblanadi [1]. Bugungi sharoitda Tayvan Hind-Tinch okeani mintaqasida kuchlar muvozanatini belgilovchi geosiyosiy markazga aylangan.

Xitoyning Jahon savdo tizimiga integratsiyalashuvi global iqtisodiy muvozanatni tubdan o‘zgartirdi. Xitoy qisqa muddatda dunyoning ishlab chiqarish markaziga aylandi, texnologik sohada yuqori o‘sish sur’atlariga erishdi, harbiy-dengiz kuchlarini keskin kengaytirdi. Bugungi kunda Xitoy dunyodagi eng yirik flotlardan biriga ega bo‘lib, uzoq masofali raketa tizimlari, kiberurush salohiyati va uchuvchisiz platformalar bo‘yicha sezilarli ustunlikka erishmoqda. Bu jarayon AQSh uchun strategik chaqiriq yuzaga keltirdi. AQSh uzoq vaqt davomida dengiz ustunligi va yuqori aniqlikdagi zarba berish qobiliyatiga tayangan bo‘lsa, Xitoyning A2/AD (anti-access/area denial) konsepsiyasi ushbu ustunlikni cheklashga qaratilgan[2]. Center for Strategic and International Studies (CSIS) tomonidan o‘tkazilgan harbiy simulyatsiyalar Tayvan bo‘g‘ozidagi ehtimoliy mojaro sharoitida AQShning uzoq masofali aniqlikdagi o‘q-dorilari qisqa muddatda tugashi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu esa sanoat bazasini modernizatsiya qilish va mudofaa ishlab chiqarishini kengaytirish zarurligini anglatadi.

Tayvan orollar zanjirining markazida joylashgan bo‘lib, u Xitoyning Tinch okeaniga to‘liq chiqish imkoniyatini cheklaydi. Agar Tayvan ustidan nazorat Pekinga o‘tsa, Xitoyning dengiz kommunikatsiyalari kengayadi va Yaponiya hamda Filippin yo‘nalishidagi bosim kuchayadi[3]. Tayvanning ahamiyati uch asosiy omilda namoyon bo‘ladi:

---

[1] Быков Н.Р. (2024). Геополитический статус Тайваня: анализ ключевых характеристик и исторического контекста. Этносоциум и межнациональная культура, 6 (192), 57-69.

[2] Чжан Цзинюнь (2025). Китай и США: стратегии взаимодействия в международных отношениях. Общество: политика, экономика, право, (7), 102-106. Doi: 10.24158/pep.2025.7.13

[3] Why Taiwan Is So Important for China — and Equally Crucial for the United States.Strategic Position, Technology and Sea Control https://www.geopolitika.it/en/why-taiwan-is-so-important-for-china-and-equally-crucial-for-the-united-states-strategic-position-technology-and-sea-control/

1. Tayvan geografik joylashuvi sababli AQSh va ittifoqchilari uchun mintaqaviy barqarorlikning tayanch nuqtasidir. U Xitoyning dengizdagi harakat erkinligini nazorat qiluvchi “tabiiy platforma” hisoblanadi.

2. Global yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishining katta qismi Tayvan hissaga to‘g‘ri keladi. Smartfon, sun’iy intellekt tizimlari, avtomobil sanoati va mudofaa texnologiyalari Tayvan chiplariga bog‘liq. Tayvanning destabilizatsiyasi global iqtisodiyotda zanjirli inqirozni keltirib chiqarishi mumkin.

3. Tayvan Sharqiy Osiyoda demokratik boshqaruv modeli sifatida avtoritar boshqaruvga alternativ tizimni namoyish etadi. Shu bois Tayvan masalasi xalqaro siyosatda normativ qarama-qarshilik elementiga ham ega.

So‘nggi yillarda Tayvan o‘z mudofaa siyosatini qayta ko‘rib chiqdi: majburiy harbiy xizmat muddati uzaytirildi, dron va raketa tizimlari kengaytirildi, assimetrik mudofaa konsepsiyasi ustuvor yo‘nalish sifatida qabul qilindi. Assimetrik strategiya Xitoyning miqdoriy ustunligini texnologik moslashuvchanlik orqali muvozanatlashtirishga qaratilgan[1]. Biroq Xitoyning kiber salohiyati va blokada strategiyasi Tayvanning harbiy bo‘lmagan zaifliklarini kuchaytiradi.

Tayvanning asosiy strukturaviy zaifligi bu energetik qaramlik. Tabiiy gaz zaxiralari taxminan 8 kun, ko‘mir 42 kun, energiya o‘zini o‘zi ta’minlash darajasi esa atigi 2 foiz atrofida. Dengiz blokadasi savdo yo‘llarini uzishi, energiya importini to‘xtatishi, iqtisodiy tizimni falaj holatga keltirishi mumkin[2]. Bu holatda Xitoy minimal harbiy aralashuv bilan maksimal strategik natijaga erishishi mumkin. Shuning uchun Tayvan uchun energetik diversifikatsiya, LNG terminallarini kengaytirish va zaxira infratuzilmasini mustahkamlash strategik ustuvor vazifa hisoblanadi.

So‘nggi davrda AQSh–Tayvan aloqalari mazmun jihatidan mustahkamlanmoqda. Prezident Donald Trampning Xitoy Raisi Si Szinpin bilan 2025-yil oktabr oyida o‘tkazgan uchrashuvida Tayvan masalasi kun tartibiga kiritilmagan. Bu esa Vashington Tayvan bo‘yicha yon berishga tayyor degan taxminlarni inkor etdi. Shundan so‘ng AQSh va Tayvan o‘rtasida savdo kelishuvi imzolandi, unga ko‘ra AQSh Tayvanga nisbatan boj stavkalarini pasaytirdi. O‘z navbatida, Tayvan texnologik kompaniyalari AQShda kamida 250 milliard dollarlik investitsiya kiritishni rejalashtirdi. Dunyodagi yetakchi yarimo‘tkazgich ishlab chiqaruvchi kompaniya TSMC AQShdagi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishini e’lon qildi. Tayvan AQSh boshchiligidagi “Pax Silica” tashabbusiga qo‘shildi, bu esa sun’iy intellekt davri uchun ishonchli ta’minot zanjirlarini shakllantirishga qaratilgan.

[1] Губин Андрей Владимирович (2016). Тайваньский кризис – новая надежда. Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право, 9 (4 (48)), 108-128.

[2] Yen, A. (2025, January 19). Taiwan at the crossroads of the US-China rivalry. Ketagalan Media.

Mudofaa sohasida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi: 11,5 milliard dollarlik qurol-yarog‘ paketi e’lon qilindi va yangi bitimlar ehtimoli saqlanib qolmoqda[1].

Ilgari AQSh jamoatchiligi ongida Tayvan “kichik, ammo qat’iyatli demokratiya” sifatida tasvirlangan. Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishidan so‘ng Tayvan demokratiya va hududiy yaxlitlik tamoyillarini himoya qilish kontekstida talqin qilindi. Biroq hozirgi bosqichda “kremniy qalqoni” (silicon shield) haqidagi yondashuv o‘zgarib bormoqda. Ilgari Tayvanning global yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishdagi monopoliyaga yaqin mavqei uni himoya qiluvchi omil sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, endilikda aynan shu omil AQSh uchun strategik qaramlik va zaiflik sifatida talqin qilinmoqda.

AQShning 2025-yilgi Milliy xavfsizlik strategiyasida Tayvanning geografik va iqtisodiy ahamiyati qayd etilgan bo‘lsa-da, iqtisodiy siyosat doiralarida Tayvanga qaramlikni tezda kamaytirish g‘oyasi ilgari surilmoqda. Ayrim rasmiylar 2028–2029-yillarga borib Tayvan yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishining 40 foizini AQShga ko‘chirish mumkinligini ta’kidlamoqda. Tayvan tomoni esa buni real emas, deya baholamoqda [2] . Bunday yondashuv Tayvanni AQSh strategik balansidagi “majburiyat” sifatida ko‘rishga olib kelmoqda. Bu esa Pekinning “muqarrarlik narrativi”ga mos tushadi. Xitoy rasmiylari Tayvan bilan “birlashuv” tarixiy zarurat ekanini ta’kidlab, AQShni aralashmaslikka undaydi.

AQSh–Xitoy o‘rtasida Tayvan sababli urush muqarrar emas. Xitoy harbiy salohiyatini sezilarli oshirgan bo‘lsa-da, amfibiya desanti orqali tog‘li va zich aholi yashaydigan orolni egallash Ikkinchi jahon urushidagi Normandiya operatsiyasiga teng darajadagi murakkab operatsiya bo‘ladi. Tayvan assimetrik mudofaa imkoniyatlarini kengaytirmoqda: dronlar, mobil raketa tizimlari, dengiz minalari, havo mudofaasi vositalari va boshqa texnologiyalarni rivojlantirmoqda. AQSh esa Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstraliya va Filippin bilan birgalikda Birinchi orol zanjiri bo‘ylab harbiy tayyorgarlikni kuchaytirmoqda. Sanksiyalar tahdidi Pekinni yetarlicha qo‘rqitmayotgan bo‘lishi mumkin, biroq harbiy tayyorgarlik va ishonchli tiyib turish strategiyasi real ta’sir ko‘rsatadi. Eng muhimi Pekin hali ham harbiy ssenariy xavfini ehtiyotkorlik bilan baholamoqda.

AQShning iqtisodiy kelajagi sun’iy intellekt rivojiga bog‘liq. Bu jarayonning apparat asosi aynan Tayvanda ishlab chiqariladigan ilg‘or chiplar hisoblanadi. AQSh innovatsiyalarni ishlab chiqishda yetakchi bo‘lsa-da, ishlab chiqarish infratuzilmasi Tayvanga tayanadi. TSMC va boshqa tayvanlik kompaniyalar AQShda investitsiyalarni oshirayotgan bo‘lsa-da, ilmiy-tadqiqot va eng ilg‘or ishlab chiqarish

[1] Ryan Hass. (2026, February 18). America’s narrative on Taiwan needs an update. Brookings Institution.

[2] Ryan Hass. (2026, February 18). America’s narrative on Taiwan needs an update. Brookings Institution.

quvvatlari asosan Tayvanning o‘zida qolmoqda. Yaqin o‘n yillikda AQShning Tayvanga texnologik qaramligi saqlanib qoladi, deyish mumkin.

2026-yil boshida Xitoy Raisi Si Szinpin o‘zining Yangi yil murojaatida “milliy qayta birlashuv” jarayonini “zamonaviy davrning to‘xtatib bo‘lmas tarixiy tendensiyasi” sifatida baholadi. Uning ta’kidlashicha, materik Xitoy va Tayvan o‘rtasidagi “qon-qarindoshlik rishtalari” ushbu jarayonning asosini tashkil etadi[1]. Si Szinpin nutqi Xitoy Xalq Ozodlik Armiyasining Tayvan atrofida o‘tkazgan keng ko‘lamli harbiy mashg‘ulotlari ortidan yangradi. “Justice Mission 2025” kod nomi ostida tashkil etilgan ushbu mashqlar ikki kun davom etib, orolni qamal qilish ssenariysini simulyatsiya qildi hamda jonli o‘q otish amaliyotlarini o‘z ichiga oldi. Rasmiy Pekin bu harakatlarni “separatistik kuchlar” va “tashqi aralashuv”ga qarshi qat’iy ogohlantirish sifatida talqin qildi. Mazkur mashg‘ulotlar geografik qamrovi jihatidan Tayvan atrofida o‘tkazilgan eng yirik harbiy mashqlar sifatida qayd etildi. Harbiy faollik AQSh tomonidan Tayvanga qiymati 11,1 milliard dollarlik eng yirik qurol-yarog‘ paketi tasdiqlanganidan so‘ng amalga oshirildi. Bu esa Tayvan masalasining nafaqat Xitoy–Tayvan o‘qi, balki AQSh–Xitoy geosiyosiy raqobati doirasida ham keskinlashayotganini ko‘rsatadi.

Pekin Tayvanni o‘z hududining ajralmas qismi deb hisoblaydi va zarurat tug‘ilganda kuch ishlatish ehtimolini istisno qilmaydi. Bunga javoban Tayvan rahbariyati orolning amalda mustaqil siyosiy tuzilma ekanini ta’kidlaydi. Tayvan prezidenti Uilyam Lai Ching-te Yangi yil murojaatida mamlakat “yanada xavfsiz va barqaror” bo‘lishi zarurligini qayd etdi. Uning bayonotiga ko‘ra, Xitoyning kengayib borayotgan strategik ambitsiyalari sharoitida Tayvan jamiyati o‘zini himoya qilishga tayyor ekanini namoyon etishi lozim. Lai o‘z nutqida milliy suverenitetni qat’iy himoya qilish, mudofaa salohiyatini mustahkamlash, butun jamiyat darajasida barqarorlik va qarshilik mexanizmlarini shakllantirish ustuvor vazifa ekanini ta’kidladi[2]. Bu yondashuv Tayvan hukumatining “status-kvo”ni saqlash va bir vaqtning o‘zida mudofaa imkoniyatlarini kuchaytirish strategiyasiga mos keladi.

Hozirgi kunda Tayvan o‘z prezidenti, armiyasi, pasporti va valyutasiga ega bo‘lsa-da, rasmiy ravishda atigi 11 davlat hamda Muqaddas Taxt (Vatikan) tomonidan tan olingan. Xitoy esa boshqa davlatlardan Pekin bilan diplomatik aloqalarni saqlash uchun Tayvanni rasman tan olmaslikni talab qiladi. AQSh Tayvanni rasmiy ravishda mustaqil davlat sifatida tan olmasa-da, 1979-yildagi “Taiwan Relations Act” doirasida orolning o‘zini himoya qilish imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash majburiyatini olgan. Vashington Tayvanning asosiy qurol-yarog‘ yetkazib beruvchisi hisoblanadi. Biroq mazkur qonun AQShni ehtimoliy Xitoy blokadasi yoki bosqini sharoitida bevosita

[1] China’s Xi says ’reunification’ with Taiwan ’unstoppable’ | Xi Jinping News | Al Jazeera https://www.aljazeera.com/news/2026/1/1/chinas-xi-says-reunification-with-taiwan-unstoppable

[2] President Lai delivers 2026 New Year’s Address https://english.president.gov.tw/News/7067

harbiy aralashuvga majbur etmaydi. Bu holat “strategik noaniqlik” siyosati sifatida talqin qilinadi.

Realizm nuqtai nazaridan Tayvan muammosi klassik kuch siyosati (power politics) namunasidir. Neorealistik yondashuvga koʻra, xalqaro tizim anarxik boʻlib, davlatlar oʻz xavfsizligini ta’minlash uchun nisbiy kuchni maksimal darajada oshirishga intiladi. Xitoy uchun Tayvan ustidan nazorat oʻrnatish mintaqaviy gegemoniyaga erishish va Birinchi orol zanjiri cheklovlarini bartaraf etish imkonini beradi. Bu esa uning dengiz kommunikatsiyalari va strategik imkoniyatlarini kengaytiradi. AQSh Tayvanni Hind–Tinch okeani mintaqasida kuchlar muvozanatini saqlovchi tayanch nuqta sifatida koʻradi. Shu bois xavfsizlik dilemmasi yuzaga keladi: Xitoyning harbiy modernizatsiyasi AQShni harbiy ittifoqlarni mustahkamlashga undaydi, bu esa Pekin tomonidan tahdid sifatida talqin qilinadi. Offensive realizm (J. Mearsheimer konsepsiyasi) Xitoyning “milliy qayta birlashuv” narrativini strategik ekspansiya sifatida talqin qiladi. Kuchlar oʻzgarishi nazariyasiga koʻra, koʻtarilayotgan davlat mavjud status-kvoni qayta koʻrib chiqishga intiladi. Bu kontekstda Si Szinpin tomonidan ilgari surilayotgan tarixiy birlik gʻoyasi faqat ideologik emas, balki geostrategik maqsadga xizmat qiladi. Liberalizm Tayvan masalasini iqtisodiy oʻzaro bogʻliqlik prizmasida koʻradi. Global yarimoʻtkazgich ta’minot zanjirlari, savdo hajmi va investitsiya oqimlari harbiy eskalatsiya narxini keskin oshiradi. TSMC ishlab chiqaradigan ilgʻor chiplar AQSh va global iqtisodiyot uchun ulkan ahamiyatga ega. Liberal nazariyaga koʻra, yuqori iqtisodiy integratsiya urush ehtimolini kamaytiradi, chunki toʻqnashuv barcha tomonlar uchun katta iqtisodiy yoʻqotishlarga olib keladi.

Tayvan atrofidagi strategik vaziyatni baholashda ssenariy tahlili kerak, chunki u ehtimoliy rivojlanish yoʻnalishlarini tizimli ravishda koʻrib chiqish va har bir ssenariyning siyosiy, harbiy hamda iqtisodiy oqibatlarini prognoz qilish imkonini beradi. Eng ehtimoliy ssenariy sifatida strategik noaniqlik (strategic ambiguity) siyosatining davom etishini koʻrish mumkin. AQSh Tayvanni rasmiy tan olmasdan mudofaa salohiyatini qoʻllab-quvvatlashni davom ettiradi. Xitoy esa harbiy bosim, mashgʻulotlar va diplomatik izolyatsiya orqali psixologik va siyosiy ta’sirni kuchaytiradi, biroq toʻliq harbiy harakatdan tiyiladi. Bu modelda keskinlik yuqori darajada saqlanadi, lekin ochiq urush yuz bermaydi. Mazkur ssenariy iqtisodiy oʻzaro bogʻliqlik va global bozorlar barqarorligi tufayli qisqa muddatda eng maqbul variant hisoblanadi. Ikkinchi ssenariyda Pekin toʻliq bosqin oʻrniga bosqichma-bosqich iqtisodiy va harbiy boʻlmagan bosim strategiyasini qoʻllaydi. Dengiz va havo hududida qisman blokada, kiberhujumlar, logistika uzilishlari va savdo yoʻllarining cheklanishi orqali Tayvanning iqtisodiy tizimi zaiflashtiriladi. Bu holatda rasmiy urush e’lon qilinmaydi, ammo energetik va savdo qaramligi sababli orol iqtisodiy zaiflikka duch kelishi mumkin. Bunday yondashuv Pekin uchun nisbatan past riskli va xalqaro hamjamiyat reaksiyasini minimal darajada saqlovchi strategiya boʻlishi

mumkin. Uchinchi ssenariyda qisqa muddatli va hududiy jihatdan cheklangan harbiy eskalatsiya yuzaga keladi. Masalan, kichik orollar ustidan nazorat uchun to‘qnashuv yoki raketa zarbalari orqali siyosiy signal yuborish. Bu variantda AQSh bevosita aralashish yoki aralashmaslik masalasida murakkab tanlovga duch keladi. Cheklangan harbiy to‘qnashuv tezkor diplomatik vositachilik orqali to‘xtatilishi mumkin, biroq xatolik (miscalculation) xavfi yuqori bo‘ladi. Eng xavfli ssenariy bu amfibiya desanti va keng ko‘lamli harbiy operatsiya. Bunday operatsiya logistika, dengiz ustunligi va havo nazorati talab qiladi hamda regional ittifoqchilarni jalb etish ehtimolini oshiradi. Bu global iqtisodiy inqiroz, yarimo‘tkazgich ta’minot zanjiri uzilishi va mintaqaviy xavfsizlik tizimining transformatsiyasiga olib keladi. Biroq bunday operatsiya katta yo‘qotishlar va noaniqliklar sababli eng kam ehtimolli variant sifatida baholanadi.

**Xulosa:** AQSh va Xitoy o‘rtasidagi raqobat tobora tizimli xarakter kasb etib, iqtisodiy, harbiy va ideologik o‘lchamlarni birlashtirgan kompleks strategik qarama-qarshilikka aylangan. Tayvan esa bu qarama-qarshilikning eng sezgir nuqtasi sifatida Hind–Tinch okeani xavfsizlik arxitekturasining barometriga aylanmoqda. Fikrimcha, yaqin istiqbolda AQSh–Xitoy o‘rtasida to‘liq ko‘lamli urush ehtimoli mavjud bo‘lsa-da, u yuqori emas. Buning asosiy sababi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlik, global moliyaviy tizimning integratsiyalashganligi va har ikki tomon uchun urush badallarining favqulodda yuqoriligidir. Yuqori texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasidagi ishlab chiqarish zanjirlari har qanday keng ko‘lamli harbiy mojaroni nafaqat mintaqaviy, balki global inqirozga aylantiradi. Shu bois tomonlar o‘z strategiyasini ko‘proq tiyib turish, bosim o‘tkazish va diplomatik harakatlar orqali olib borishga intiladi. Biroq bu optimistik ssenariy xavf omillarini inkor etmaydi. Harbiy mashg‘ulotlarning intensivlashuvi, blokada ehtimoli, kiberhujumlar yoki cheklangan harbiy to‘qnashuvlar kabi “kulrang zona” usullari mintaqada doimiy beqarorlikni saqlab turadi. Mintaqaning kelajagi ko‘p jihatdan uch omilga bog‘liq bo‘ladi: birinchidan, Xitoyning strategik sabr darajasi va ichki iqtisodiy barqarorligi; ikkinchidan, AQShning ittifoqchilar bilan hamkorlikdagi tiyib turish mexanizmlarining ishonchliligi; uchinchidan, Tayvanning o‘z mudofaa va iqtisodiy chidamliligini oshirish qobiliyati. Agar ushbu uchlik muvozanatda saqlansa, strategik noaniqlik modeli uzoq muddat davom etishi mumkin. Tayvan atrofidagi vaziyat yaqin yillarda ochiq urushdan ko‘ra yuqori darajadagi raqobat va nazorat ostidagi keskinlik shaklida davom etishi ehtimolga yaqin. Biroq bu muvozanat zaif bo‘lib, global geosiyosiy tizimning eng nozik sinov nuqtasi bo‘lib qoladi.

# “Eski” va “yangi” mintaqaviylik: nazariy yondashuvlar va zamonaviy ahamiyati

***RAHMATULLA NURIMBETOV***
*Siyosiy fanlari doktori*
***ZULFIYA KARIMOVA***
*Magistratura talabasi*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada zamonaviy xalqaro munosabatlarda regionalizm fenomenining tarixiy rivojlanishi, nazariy asoslari va evolyutsiyasi tahlil qilinadi. An’anaviy regionalizm asosan Ikkinchi jahon urushidan keyingi Yevropa tajribasi asosida shakllanib, iqtisodiy integratsiya va xavfsizlik masalalariga qaratilgan edi. Yangi regionalizm esa sovuq urush tugaganidan so‘ng globallashuv, siyosiy ko‘p qutblilik va mintaqalararo hamkorlik sharoitida rivojlanib, nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, madaniy va ijtimoiy o‘lchamlarni ham qamrab oldi. Maqolada ushbu ikki yondashuvning o‘xshash va farqli jihatlari, shuningdek, ularning zamonaviy dunyo tartibini shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *regionalizm, an’anaviy regionalizm, yangi regionalizm, xalqaro munosabatlar, globallashuv, mintaqaviy integratsiya, ko‘p qutblilik, mintaqalararo hamkorlik, dunyo tartibi.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются историческое развитие, теоретические основы и эволюция феномена регионализма в современных международных отношениях. Традиционный регионализм сформировался преимущественно на основе европейского опыта после Второй мировой войны и был ориентирован на экономическую интеграцию и вопросы безопасности. Новый регионализм, возникший после окончания холодной войны, развивался в условиях глобализации, политической многополярности и межрегионального сотрудничества, охватывая не только экономические, но и политические, культурные и социальные аспекты. В статье рассматриваются сходства и различия между этими двумя подходами, а также их роль в формировании современного мирового порядка.*

***Ключевые слова:*** *регионализм, традиционный регионализм, новый регионализм, международные отношения, глобализация, региональная интеграция, многополярность, межрегиональное сотрудничество, мировой порядок.*

***Abstract.****This article analyzes the historical development, theoretical foundations, and evolution of the phenomenon of regionalism in contemporary international relations. Traditional regionalism primarily emerged on the basis of the European experience after the Second World War and focused on economic integration and security issues. New regionalism, which developed after the end of the Cold War, evolved in the context of globalization, political multipolarity, and interregional cooperation, encompassing not only economic but also political, cultural, and social dimensions. The article examines the similarities and differences between these two approaches, as well as their role in shaping the modern world order.*

***Keywords:*** *regionalism, traditional regionalism, new regionalism, international relations, globalization, regional integration, multipolarity, interregional cooperation, world order.*

**Kirish.** Zamonaviy xalqaro munosabatlarda mintaqaviylik muhim fenomenga aylanib ulgurgan. Uning shakllanishi bevosita Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro munosabatlarning rivojlanishi ta’sirida dastlab G‘arbiy Yevropada yuzaga kelgan. O‘tgan asrning o‘rtalarida ushbu qit’a mamlakatlari siyosiy-harbiy bloklarga asoslanmagan mintaqaviy birlashma tuzishga urinishib, bundan asosiy maqsad, eng avvalo, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, eskidan meros bo‘lib o‘tgan o‘zaro qo‘rquv va ziddiyatlarni bataraf qilish bo‘lgan[1]. Shu davrda ommabop bo‘lgan mintaqaviylikning federalizm (A.Spinelli), funksionalizm (D.Mitrani), neofuksionalizm (E.Xaas, F.Shmitter, A.Etzioni), transaksionalizm (K.Doychning “xavfsizlik hamjamiyati”) kabi nazariyalar ishlab chiqilib, ular asosan yevropatsentristik mohiyat kasb etgan. Hozirgi paytda “eski mintaqaviylik” deb ataluvchi ushbu nazariyalar mintaqaviy hamkorlik va integratsiya jarayonlarini, eng avvalo, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati misolida o‘rganishgan, boshqa mintaqalarga nisbatan qo‘llanilmagan[2]. Xalqaro tashkilotlar bo‘yicha yetuk mutaxassislardan biri italiyalik olim M.Teloning bu boradagi fikricha, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda mintaqaviylik AQSh gegemonligi ostida shakllangan va uning siyosiy (sobiq SSSRni ushlab turish) va iqtisodiy (transatlantik xo‘jalik aloqalari kompleksini shakllashtirish, bozor iqtisodiyoti va erkin savdoni yoyish) manfaatlariga xizmat qilgan. Yevropadagi iqtisodiy ittifoqning muvaffaqiyatii shundaki, u AQSh “g‘amxo‘rligida” va uning qadriyatlarini targ‘ib qilish va barqaror valyuta tizimi sharoitida yuz berdi. Yevropadan tashqari mintaqalarda bunday muvaffaqiyatning takrorlanmasligi sababi esa – bu davrda mintaqaviy tashkilotlar mustaqil subyekt sifatida faoliyat ko‘rsata olmagan, chunki ular AQSh yoxud SSSR ta’siri doirasiga tushib qolavergan[3]. Demak, globallashuv jarayonlariga qaramasdan, ikki qutbli xalqaro munosabatlar sharoitida mintaqaviy tashkilotlar, AQSh va SSSRning raqobati tufayli mos ravishda rivojlana olishmagan. Bu fikrni regionalizm muammolari bo‘yicha taniqli hindistonlik ekspert K.Gupta ham tasdiqlab, “eski mintaqaviylik”ni qudratli davlatlarning ta’siri tufayli asosan hukumatlar tomonidan, ko‘proq mintaqa ichidagi jarayonlarga, xavfsizlik yoki iqtisodiy hamkorlik sohasidagi cheklangan

[1] Ефремова К.А. От регионализма к трансрегионализму: теоретическое осмысление новой реальности // Сравнительная политика и геополитика. – 2017. – Т. 8. – № 2. – С. 58–70.

[2] Никитина Ю.А. От интеграции к регионализму: эволюция теорий регионального межгосударственного сотрудничества // Вестник МГИМО-Университета. – 2010. – № 6(15). – С. 134–140.

[3] Тело М. Регионализм и будущее глобального управления // Международные процессы. – 2017. – Т. 15. – № 3. – С. 113–119.

masalalarga qaratilganligini va proteksionistik mohiyatidagi jarayon bo‘lganligini ko‘rsatadi. Regionalizm bu davrda serqirrali bo‘lmagan[1].

**Metodologiya**

Ushbu maqola regionalizmning “eski” va “yangi” shakllarini nazariy va empirik tahlil asosida o‘rganadi. Tadqiqotda deduktiv yondashuv qo‘llanilgan bo‘lib, M.Teloni, K.Gupta kabi klassik nazariyotchilarning ishlaridan kelib chiqib, ularning Yevropa va boshqa mintaqalardagi qo‘llanilishini taqqoslash amalga oshirildi. Ma’lumotlar manbalari sifatida ikkinchi darajali adabiyotlar (monografiyalar, ilmiy maqolalar), xalqaro tashkilotlar hujjatlari va statistik ma’lumotlar ishlatildi. Tahlil sifati va ishonchliligini ta’minlash uchun taqqosiy usul va diskurs tahlili metodlaridan foydalanildi, bu esa nazariy yondashuvlarning zamonaviy ahamiyatini obyektiv baholashga imkon berdi.

**Natijalar va muhokama**

“Sovuq urush”ning tugashi mintaqalar darajasidagi hamkorlikka bo‘lgan intilishni va mintaqaviy tashkilotlarning ko‘payishiga jiddiy turtki bo‘ldi. Yevropada integratsiyaviy jarayonlarning muvaffaqiyatlari, AQShning boshqa mintaqalardagi jarayonlarga aralashuvining pasayishi, qutblardan biri bo‘lgan sobiq SSSRning parchalanishi, yangi mintaqaviy va global kuchlarning yuzaga kelishini (masalan, Xitoy, Hindiston, Braziliya, JAR, Turkiya) mintaqaviy hamkorlikning kuchaytirishga bo‘lgan intilishlarni belgilab bergan omillar sifatida keltirish mumkin. Shuni ta’kidlash joizki, yaqin davrga qadar ayrim g‘arblik mutaxassislar Yevropadan tashqaridagi mintaqaviy hamkorlik loyihalari va tashkilotlarni EI bilan qiyoslagan holda, ularni “muvaffaqiyatsiz” deb baholashgan. Yangi turdagi mintaqaviy tashkilotlar har bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlari ta’sirda rivojlanganligini inobatga olishmagan. Bu esa, o‘z navbatida, G‘arbdan tashqarida yuzaga kelgan mintaqaviy hamkorlik tuzilmalarini eski nazariyalar doirasida ishlab chiqilgan uslublar bilan o‘rganish maqbul emasligi va shu sabab yangi nazariyalarning vujudga kelishini taqozo etdi[2].

Nazariy jihatdan bu muammo ilk marotaba 1980-yillarda shvediyalik olimlar B.Hettne va F.Soderbaum tomonidan batafsil o‘rganilgan bo‘lib, aynan ular “yangi mintaqaviylik” konsepsiyasining asoschilari hisoblanishadi. Keyinchalik, ushbu nazariyani L.Foset, M.Telo, M.Shults, I.Ojendal kabi olimlar boyitishgan. Bugungi kun ilmiy adabiyotlarida yangi mintaqaviylikning turli nazariyalarini uchratish

[1] Gupta K. Globalization and the Theory of New Regionalism: A Post-Cold War Theoretical Perspective on Regional Organizations // The International Journal of Humanities & Social Studies. – 2014. – Vol. 2. – Issue 7. – P. 236–242.

[2] Михайленко Е. Б. «Старый» и «новый» регионализм: теоретический дискурс. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. – С. 116.

mumkin: “qiyosiy mintaqaviylik”, “mintaqalar dunyosi”, “Osiyo mintaqaviyligi”[1], “qattiq mintaqaviylik” [2] , “yumshoq mintaqaviylik” va boshqalar. Yangi mintaqaviylikning yuzaga kelishini bipolyar tizimning tanazzulidan keyin yangi mustaqil davlatlar siyosiy noaniqlik va barqarorlikka girdobiga kirib qolishdi va bu ularni mintaqalar doirasida hamkorlikni kuchaytirishga undagan. Shuningdek, globallashuv natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikning turli oqibatlarini mutanosiblashtirish ko‘plab mamlakatlarning mintaqaviy hamkorlik sxemalariga murojaat qilishini taqozo etgan edi[3]. Yangi mintaqaviylik nazariyachilari uning “eskisi”dan quyidagilar bilan farq qilishini ko‘rsatishadi: 1) yangi mintaqaviylik qariyb ko‘plab mintaqalarga doir, ya’ni umujahon fenomen, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda; 2) u yevropatsentrik emas; 3) eski mintaqaviylikdagidek tor, faqat himoyaviy yoki iqtisodiy maqsadlarni ko‘zda tutmaydi, balki keng maqsadlarga yo‘naltirilgan (siyosiy, madaniy va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oladigan hamkorlik); 4) integratsiyalashuv jarayoni, ham “quyidan” (fuqarolik jamiyati va xususiy sektor tomonidan), ham “yuqoridan” (ya’ni hukumatlar tomonidan) rag‘batlantirilishi mumkin[4].

Yangi mintaqaviylik konsepsiyalari xilma-xil va hatto bir-biriga zid jihatlarga ham ega. Ulardagi eng asosiy munozarali, zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasi uchun muhim bo‘lgan ikkita masalani ko‘rsatish mumkin. Birinchisi, globallashuv va mintaqalashuv jarayonlarining o‘zaro bog‘liqlik yoki ziddlik muammosi. Dastlabki nazariyotchilar, “globallashuv va mintaqaviylashuv o‘zaro yaqin jarayonlar hamda turli shartlar ta’sirida mintaqaviylashuvning bir-biridan farq qiluvchi modellarining shakllanishini belgilab beradi, deb hisoblashgan[5]. Lekin, bu boradagi oxirgi tadqiqotlarda globallashuv va mintaqaviylashuv bir-biridan mustaqil jarayonlar, aksincha aynan mintaqaviylashuv keyingi davrda globallashuv xususiyatlariga ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda, deyiladi[6]. Bunday munozara o‘z-o‘zidan ikkinchi – mintaqaviy tashkilotlar va mintaqaviy hamkorligining boshqa

[1] Лагутина М.Л., Михайлов Е.Б. Регионализм в глобальную эпоху: обзор зарубежных и российских подходов // Вестник РУДН. Серия: Международные отношения. – 2020. – Т. 20. – № 2. – С. 261–278.

[2] Fawcett L. Exploring Regional Domains: A Comparative History of Regionalism // International Affairs. – 2004. – Vol. 80. – No. 3. – P. 429–446.

[3] Ilmiy adabiyotlarda mintaqaviy kelishuvlar soni “Sovuq urush” yakuni va 2000-yil oralig‘ida besh marotaba ortganligi qayd etiladi Caporaso J.A. Regional Integration Theory: Understanding Our Past and Anticipating Our Future // Journal of European Public Policy. – 1998. – Vol. 5. – No. 1. – P. 1–16.

[4] Hosli M.O., Selleslaghs J. (eds.). The Changing Global Order. – Cham: Springer, 2020. – P. 150.

[5] Söderbaum F., Shaw T. (eds.). Theories of New Regionalism: A Palgrave Reader. – London: Palgrave Macmillan, 2003.

[6] Gupta K. Globalization and the Theory of New Regionalism: A Post-Cold War Theoretical Perspective on Regional Organizations // The International Journal of Humanities & Social Studies. – 2014. – Vol. 2. – Issue 7. – P. 236–242.

platformalarining dunyo tartibotiga ta’siri bilan bog‘liq masalani keltirib chiqaradi. Ayrim olimlar mintaqaviylikni globallashuvga zid bo‘lgan va shu sabab global boshqaruv[1] uchun xalaqit beruvchi salbiy fenomen, deb biladi. Ularning yondashuvi asosida “yangi turdagi mintaqaviy tashkilotlar G‘arb tomonidan o‘rnatilgan dunyo tartibotini shubha ostiga qo‘yishadi va shu sabab zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimiga putur yetkazishi mumkin”[2], degan g‘oya yotadi (shu kabi qarashlar ayniqsa 1990-yillarda kuchli bo‘lgan). Bunga misollar tariqasida, Saudiya Arabistoni yetakchiligidagi Fors ko‘rfazi Kengashi, Venesuela va Kuba tomonidan tuzilgan ALBA (“Bizning Amerikalik xalq uchun bolivarian alyans”), SADC (Janubiy Afrika taraqqiyot Hamjamiyati) va ShHT kabi mintaqaviy tashkilotlar ko‘rsatiladi. Mintaqaviylikning bu shaklini “avtoritar mintaqaviylik” deb ta’riflashlar ham uchraydi[3].

“Yangi mintaqaviylik” konsepsiyasining boshqa nazariyotchilari mintaqaviy tashkilotlar va tashabbuslarning muayyan mintaqalarni barqarorlashtirish va iqtisodiy salohiyatini oshirish orqali xalqaro munosabatlarning barqarorlashuviga hissa qo‘shishini ta’kidlashadi. Shundan kelib chiqib, keyingi paytlarda mintaqaviy tashkilotlarni “o‘z qadriyatlari va normalariga ega va shu asosda boshqa institutlar bilan, shu jumladan, global boshqaruv doirasida ham aloqa qiladigan xalqaro munosabatlarning mustaqil subyektlari” deb baholashlar konstruktivizm va neomarksizm kabi nazariya maktablarida ko‘plab uchraydi[4].

Mintaqaviy tashkilotlarning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rnini tadqiq qilishda M.Telo tomonidan ishlab chiqilgan nazariya alohida qiziqish uyg‘otadi. Olim mintaqaviylikni doimiy o‘zgarish holatidagi global boshqaruv va dunyo tartibotining tuzilmaviy qismi deb biladi. Shunday ekan, hozirgi sharoitda mintaqaviy tashkilotlar faqatgina savdo va iqtisodiy faoliyat bilan cheklanib qolmasdan, raqobat va hamkorlik orqali ko‘p qutblilikka asoslangan yangi dunyo tartibotini shakllantirishda ishtirok etmoqda. Uning fikricha, kelgusida xalqaro munosabatlar ikkita ssenariy bo‘yicha rivojlanishi mumkin: ziddiyatli ko‘p qutblilik yoki ikki qutblilik (AQSh-Xitoy), boshqacha aytganda — ko‘p sonli ishtirokchilardan iborat ko‘p tomonlama hamkorlikka asoslangan tizim. Xalqaro munosabatlarning inklyuziv bo‘lishi uchun dunyo tartiboti ikkinchi ssenariy bo‘yicha rivojlangani afzal.

[1] “Global boshqaruv” tushunchasi globallashuv natijasida xalqaro munosabatlarda nafaqat suveren davlatlar, balki nohukumat tashkilotlar, transmilliy kompaniyalar va boshqa yangi turdagi aktorlarning ishtirokini ham nazarda tutadi.

[2] Bhagwati J. Regionalism versus Multilateralism // The World Economy. – 1992. – Vol. 15. – No. 5. – P. 535–556.

[3] Maria J.D. The Dark Side of Regionalism: How Regional Organizations Help Authoritarian Regimes to Boost Survival // Democratization. – 2021. – Vol. 28. – Issue 2. – P. 394–413.

[4] Лагутина М.Л., Михайлов Е.Б. Регионализм в глобальную эпоху: обзор зарубежных и российских подходов // Вестник РУДН. Серия: Международные отношения. – 2020. – Т. 20. – № 2. – С. 261–278.

Unda mintaqaviy tashkilotlar global boshqaruvning yangi tizimini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanadi. Bu yerda nafaqat muayyan mintaqalar darajasidagi hamkorlik, balki turli mintaqaviy platformalar o‘rtasidagi (mintaqalararo pog‘ona) hamkorlik formatlarining ham ahamiyati muhim[1]. Ushbu tendensiyani Yevropa Ittifoqi – ASEAN, “ASEAN plus”, Osiyo-Tinch okeani sherikligi (ATP), “BRIKS+” va boshqa mintaqalararo muloqot formatlarining ortib borayotganligida ko‘rish mumkin.

Regionalizm sohasidagi yangi nazariyalar orasida MDH davlatlari, xususan, rossiyalik olimlar orasida uchraydigan “yevroosiyo/postsovet mintaqaviyligi” konsepsiyasini ham ko‘rsatib o‘tish mumkin. Uning doirasida ShHT, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH), Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXShT) kabi tuzilmalarni (o‘rganishga harakatlar mavjud) o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda[2]. Aytish mumkinki, ushbu nazariya maktabi hali to‘liq shakllanib ulgurganmagan. Dastlab “Yevroosiyo mintaqaviyligi” asosan Rossiyaning sobiq SSSR hududidagi hukmronligini yangi integratsiyaviy loyihalar yordamida qayta tiklashni nazarda tutgan bo‘lsa, oxirgi paytda bu “Katta Yevroosiyo” konsepsiyasi shaklida ilgari surilmoqda. Masalan, rossiyalik mutaxassislar N.Vasilyeva va M.Lagutina “yangi mintaqaviylik” sohasidagi boshqa nazariyalarning uslublaridan foydalangan holda “Yangi Yevroosiyo mintaqaviyligi”ni rivojlantirishni taklif qiladi. Yevroosiyoni “global ahamiyatdagi mintaqa” sifatida talqin etib, bu yerdagi integratsiya jarayonlariga davlatlar bilan birga biznes tuzilmalar va fuqarolik institutlarini ham jalb qilish zaruratini ko‘rsatadi[3]. Lekin, Rossiyada tobora ommalashib borayotgan bu konsepsiya g‘arbiy olimlar tomonidan tanqidiy, “avtoritar mintaqaviylik”ning bir turi sifatida baholanib, Rossiyaning geosiyosiy manfaatlarini ifoda etuvchi va uning sobiq SSSR hududidagi gegemonligini qayta tiklashga qaratilgan, deyiladi[4].

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalqaro munosabatlarda mintaqaviy tashkilotlar ahamiyatining ortib borishi “Sovuq urush”ning tugashi bilan bevosita bog‘liq. Bugun ular yangi dunyo tartibotini tuzishda faol ishtirok etishmoqda. Turli nazariy maktablar o‘rtasidagi mavjud bahs-munozaralardan qat’iy nazar keyingi davrda mintaqaviy tashkilotlar zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasining muhim omili sifatida gavdalanmoqda. Mazkur tuzilmalarning bunday mohiyati quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

---

[1] Libman A., Obydenkova A.V. Understanding Authoritarian Regionalism // Journal of Democracy. – 2018. – № 4. – P. 151–165.

[2] Романов О.А. Евразийская регионализация в контексте глобальных трансформаций миропорядка: историческое значение и сущность // Вестник Томского государственного университета. История. – 2017. – № 50. – С. 76–83

[3] Vasilyeva N.A., Lagutina M.L. O‘sha joyda.

[4]. Krapohl S., Vasileva-Dienes A. The Region That Isn’t: China, Russia and the Failure of Regional Integration in Central Asia // Asia Europe Journal. – 2020. – Vol. 18. – P. 347–366.

Birinchidan, mintaqaviy tashkilotlar global iqtisodiyot va siyosat kun tartibini belgilashda va uni hayotga tadbiq etishda bevosita ishtirok etmoqda;

Ikkinchidan, mintaqaviy tashkilotlar, ayniqsa, yangi turdagi mintaqaviy institutlar (masalan, ASEAN, ShHT, BRIKS) yangi dunyo tartibotini shakllantirishda faol ishtirok etib, xalqaro munosabatlarda ko‘p qutblilikka asoslangan tizimning shakllanishiga hissa qo‘shishmoqda;

Uchinchidan, muayyan mintaqa doirasida siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida hamkorlikni kuchaytirish va tahdidlarga qarshi samarali kurashish orqali ular global barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, zamonaviy mintaqaviylik jarayonlari xalqaro munosabatlar tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Mintaqaviy tashkilotlar nafaqat iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish, balki siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, xavfsizlikni ta’minlash va global muammolarni hal etishda ham muhim platforma vazifasini bajarmoqda. Shu bois, “eski” va “yangi” mintaqaviylik konsepsiyalarini o‘rganish zamonaviy xalqaro munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini tushunishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

## O‘ZBEKISTON XITOY MUNOSABATLARI “XAVFSIZLIK ALOQALARI MODELI” SIFATIDA

**Javlon Abdazimov**
*Mustaqil izlanuvchi TDSHU*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada zamonaviy global o‘zgarishlar sharoitida xavfsizlik va taraqqiyot masalalarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasining 1997–2025-yillar davomida shakllangan xavfsizlik va global boshqaruv konsepsiyalarining evolyutsiyasi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. “Yangi xavfsizlik konsepsiyasi”dan boshlab global xavfsizlik, rivojlanish va sivilizatsiya tashabbuslarigacha bo‘lgan jarayon izchil tahlil etiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikdan buyon shakllangan milliy xavfsizlik va tashqi siyosat konsepsiyalari, ularning huquqiy va strategik asoslari yoritiladi. Maqolada O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar, ayniqsa xavfsizlik sohasidagi hamkorlik modeli tahlil qilinib, uning mintaqaviy barqarorlik va global xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot natijasida ikki*

*davlatning milliy va global xavfsizlik yondashuvlarini uyg‘unlashtirish orqali samarali strategik sheriklik modeli shakllangani asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *xavfsizlik konsepsiyasi, global xavfsizlik, tashqi siyosat, strategik sheriklik, O‘zbekiston, Xitoy, global boshqaruv, mintaqaviy barqarorlik, xalqaro hamkorlik, suverenitet, “Bir kamar, bir yo‘l”, terrorizm, ekstremizm, milliy xavfsizlik, global tashabbuslar.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется взаимосвязь вопросов безопасности и развития в условиях современных глобальных трансформаций. Особое внимание уделяется эволюции концепций безопасности и глобального управления Китайской Народной Республики в период с 1997 по 2025 годы. Последовательно рассматриваются этапы формирования китайского подхода — от «новой концепции безопасности» до глобальных инициатив в области безопасности, развития и цивилизационного взаимодействия. Наряду с этим исследуются национальные концепции безопасности и внешней политики Республики Узбекистан, сформированные с момента обретения независимости, а также их правовые и стратегические основы. В статье также анализируется модель двустороннего сотрудничества Узбекистана и Китая в сфере безопасности, раскрывается её значение для обеспечения региональной стабильности и глобальной безопасности. В результате обосновывается, что синтез национальных и глобальных подходов к безопасности способствует формированию эффективной модели стратегического партнёрства.*

***Ключевые слова:*** *концепция безопасности, глобальная безопасность, внешняя политика, стратегическое партнёрство, Узбекистан, Китай, глобальное управление, региональная стабильность, международное сотрудничество, суверенитет, «Один пояс — один путь», терроризм, экстремизм, национальная безопасность, глобальные инициативы*

***Abstract:*** *This article examines the interrelationship between security and development in the context of contemporary global transformations. Particular attention is paid to the evolution of the security and global governance concepts of the People’s Republic of China from 1997 to 2025. The study consistently analyzes the stages of China’s strategic thinking, from the “New Security Concept” to the Global Security Initiative, Global Development Initiative, and Global Civilization Initiative. In parallel, the article explores the national security and foreign policy concepts of the Republic of Uzbekistan since its independence, highlighting their legal and strategic foundations. Furthermore, the paper analyzes the bilateral security cooperation model between Uzbekistan and China, emphasizing its role in ensuring regional stability and global security. The findings demonstrate that the integration of national and global security approaches contributes to the formation of an effective model of strategic partnership.*

***Keywords:****security concept, global security, foreign policy, strategic partnership, Uzbekistan, China, global governance, regional stability, international cooperation, sovereignty, Belt and Road Initiative, terrorism, extremism, national security, global initiatives*

Bugun jahonda yuz berayotgan global o‘zgarishlar fonida davlatlar tinchlik, taraqqiyot, hamkorlik va umumiy muvaffaqiyatga erish bayrog‘ini baland tutish zarur. Davlatning ichki va xalqaro faoliyati borasida rejalarini muvofiqlashtirish, ikki muhim vazifa – tinchlik va taraqqiyotni birlashtirish darkor. Bosh rishta — tinchlik va taraqqiyotni qattiq ushlab, milliy tiklanish sari borish, davlat suvereniteti, xavfsizlik va taraqqiyot manfaatlarini og‘ishmasdan himoya qilish lozim. Bizning mamlakatimiz tinch-osoyishta rivojlanish uchun yanada qulay xalqaro vaziyat yaratish, oldimizga qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirish hamda muhim strategik qulayliklar davrini saqlash va davom ettirish sari ildamlamoqdamiz.

Hozirgi dunyo – bu o‘zgarishlar dunyosidir, unda tinimsiz yangi imkoniyatlar va yangi tahdidlar paydo bo‘lmoqda. Bu – xalqaro munosabatlar va xalqaro tartibot tizimida ulkan qayta shakllanish boshidan kechirayotgan dunyodir. Bu – xalqaro kuchlar muvozanati tinchlik va taraqqiyot yo‘nalishida o‘zgarib borayotgan dunyodir. Ayni vaqtda biz turfa xavf va tahdidlarga alohida e’tibor qaratishimiz, xatarlarni qulay imkoniyatlarga aylantirishni, tang vaziyatlardan chiqib olishni o‘rganishimiz lozim.

Ma’lumki, o‘tgan asrning oxirgi 10 yilligining tugash davrida xalqaro munosabatlar tizimida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Markaziy Osiyodagi yangi suveren davlatlar murakkab harbiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan yuzlashdi, bu esa asosan milliy va mintaqaviy darajada xavfsizlik muammolarining oshishi bilan bog‘liq edi.

Mintaqaning asosiy murakkab siyosiy muvozanatini mintaqaviy va xalqaro mojaro maydonlarining kengayishi, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm, separatizm, narkotik kontrabanda va transmilliy tashkilotlangan jinoyatchilikning ko‘payishi bilan yanada murakkablashtirdi. Bularning barchasi xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘llarini izlash masalasini birinchi o‘ringa chiqardi.

O‘zbekiston va Xitoyning xavfsizlik sohasidagi qadamlari, xususan, “uch yomonlik” – separatizm, terrorizm va ekstremizmga qarshi birgalikdagi kurash juda sezgir va muhim qadam bo‘ldi. Ikki tomonlama xalqaro kelishuvlardan tashqari, har ikkala davlat o‘zaro ko‘p tomonlama shartnomalarni ham imzolashdi. Yangi mustaqil davlatlarining mustaqillik jarayoni, nafaqat bozor munosabatlari ko‘rsatkichlarining nisbatan zaifligi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning unchalik qulay emasligi bilan murakkablashgan, balki konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, mustaqillikni mustahkamlash va davlat qurilishi zaruriyati bilan bog‘liq edi. Shuningdek,

mintaqadagi yosh davlatlar yangi siyosiy haqiqatga muvofiq qo‘shni davlatlar bilan chegaralarda o‘zaro ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash vazifasiga duch keldi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar mustaqillikning dastlabki yillariden to bugungi qadar tobora chuqurlashib, yaqin strategik sheriklik darajasiga qadar yetdi. Bu munosabatlar nafaqat iqtisodiy va savdo yo‘nalishlarni, balki xavfsizlik va strategik hamkorlikni ham o‘z ichiga oladi. Albatta bu jarayonlar ikki davlatning milliy xavfsizlik konsepsiyalari bilan uzviy bog‘lanadi va bugungi global geosiyosiy sharoitda o‘zaro ta’sirchan modelni hosil qilmoqda.

Ushbu yondashuv O‘zbekistonning mustaqillikdan boshlab shakllangan xavfsizlik konsepsiyalari bilan Xitoyning xavfsizlik va global boshqaruv konsepsiyalari o‘rtasidagi uyg‘unlik va hamkorlikni o‘rganadi.

Sovuq urush tugaganidan so‘ng Xitoy Xalq Respublikasi xalqaro xavfsizlik va global boshqaruv masalalarida bosqichma-bosqich evolyutsion yondashuvni shakllantirdi. 1990-yillarda mintaqaviy xavfsizlikdan boshlangan bu jarayon XXI asrning 2025-yillarga kelib global xavfsizlik, rivojlanish, sivilizatsiya va boshqaruvni qamrab olgan yaxlit konseptual tizimga aylandi.

Xitoy tomonidan 1997-yildan 2025-yilgacha ilgari surilgan xavfsizlik, rivojlanish va global boshqaruv konsepsiyalarining shakllanishi va evolyutsiyasi tahlil qilinsa “yangi xavfsizlik konsepsiyasi”dan boshlab global xavfsizlik tashabbusi, global rivojlanish tashabbusi, global sivilizatsiya tashabbusi hamda global boshqaruv konsepsiyasigacha bo‘lgan jarayon izchil ravishda takomillashtirib chiqilganligini ko‘rish mumkin. Xitoyning tashqi siyosiy tafakkuri mintaqaviy xavfsizlikdan global boshqaruv modeliga qanday o‘tgani, ushbu konsepsiyalarning asosiy tamoyillari, maqsadlari va mexanizmlarini ko‘rib chiqish muhim sanaladi.

Bugun jahonda xalqaro xavfsizlik tizimi tubdan o‘zgardi, ikki qutbli qarama-qarshilik o‘rnini ko‘p qirrali va murakkab xavfsizlik muammolari egalladi. Shu sharoitda Xitoy Xalq Respublikasi o‘z tashqi siyosatini yangilashga kirishib, xavfsizlikka nisbatan an’anaviy harbiy yondashuvdan voz kechgan holda, bosqichma-bosqich kooperativ, kompleks va global xarakterdagi konsepsiyalarni ilgari surishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Xitoyning zamonaviy xavfsizlik yuzasidan ishlab chiqilgan eng muhim nuqta 1997-yilda ASEAN Regional Forumida ilgari surilgan “*yangi xavfsizlik konsepsiyasi*” bilan boshlandi. Ushbu konsepsiya sovuq urush davriga xos bo‘lgan harbiy bloklar va qarama-qarshilikka asoslangan xavfsizlik modelini tanqid qilib mamlakatlarni teng yani bloklar va harbiy ittifoqlarga asoslangan qarama-qarshilikni rad etadi.

“Yangi xavfsizlik konsepsiyasi”ning asosiy tamoyillarini nimalarda kuzatamiz, bular: o‘zaro ishonch, o‘zaro manfaat, tenglik, hamkorlik hisoblanib, bu konsepsiya Xitoy tashqi siyosatida realistik-harbiy xavfsizlikdan kooperativ xavfsizlikka o‘tishni anglatadi.

Mazkur yondashuv Xitoy tashqi siyosatida xavfsizlikni harbiy kuchdan ko‘ra diplomatiya va hamkorlik orqali ta’minlash g‘oyasini ilgari surdi. Ilmiy jihatdan bu konsepsiya Xitoyning realizmdan konstruktiv xavfsizlik paradigmasiga o‘tishining boshlanishi sifatida baholanadi [1]. Shu bilan birgalikda Xitoyning harbiy-blok yondashuvidan voz kechib, xavfsizlikni siyosiy-diplomatik yo‘l bilan ta’minlashga o‘tganini ko‘rsatadi.

Keyingi davrda esa mintaqaviy va hamohang kengayish bosqichi boshlandi desak bo‘ladi, bu davrda asosan yangicha xavfsizlik metodlariga asoslangan model ishlab chiqildi. “Harmoniyali dunyo” konsepsiyasi bevosita Hu Jintaoning rahbarlik davrida ilgari surilgan konsepsiya hisoblanib, asosiy mazmuni:

1. tinchlik yo‘li bilan rivojlanish;
2. kuch ishlatishga qarshi turish;
3. global hamkorlikni kengaytirish va adolatni ta’minlash

kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab olgan. U avvalgi “Yangi xavfsizlik konsepsiyasi”ni mintaqaviy doiradan global falsafaga ko‘tarilishida muhim turtki bo‘ldi[2].

Globalizatsiya sharoitida milliy davlatlarning tezkor o‘zaro bog‘liqligi va kuchayishi, shuningdek, mintaqadagi zamonaviy tahdid va chaqiriqlarning keng ko‘lami, barcha davlatlarini xavfsizlik va barqarorlik masalalarini ikki va ko‘p tomonlama formatlarda javobgarlik bilan ko‘rib chiqishga majbur qildi.

Xitoyning tashqi siyosat borasidagi yo‘li butun dunyoda tinchlikni saqlash va birgalikda taraqqiy etishda hamkorlik qilishdan iboratdir. Xitoy tashqi dunyoga ochiq bo‘lishi borasidagi asosiy yo‘liga ildam qadam tashlab bormoqda, mamlakat ochiq eshiklar sharoitida sotsialistik jamiyat qurmoqda hamda hamkorlikni ta’minlash sohasida “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi muhim vazifalarni bajarib bermoqda.

Bu konsepsiya asosan iqtisodiy tashabbus bo‘lsa-da, rivojlanish orqali xavfsizlikni mustahkamlash g‘oyasini ilgari surishga qaratiladi. Uning asosiy mexanizmlari: infratuzilmalarni rivojlantirish, savdo va logistikani mustahkamlash, energetika tarmoqlarini kengaytirishga qaratilgan muhim loyihadir[3].

Keyingi muhim model esa Si Szinpin “Umumiy milliy xavfsizlik tushunchasi” konsepsiyasi unda xavfsizlikni harbiy, siyosiy, iqtisodiy, axborot, ekologik tizim sifatida ko‘riladi va kompleks xavfsizlik modeli sifatida olinadi[4].

Yangi davrda Xitoyning milliy mudofaasi — 2019-yilda e’lon qilingan ushbu hujjat Xitoyning mudofaa siyosatini rasmiy va tizimli tarzda bayon qiladi. Unda Xitoyning mudofaviy xarakterga ega strategiyasi, qurolli kuchlar islohoti va global

[1] New security concept. https://en.wikipedia.org/wiki/New_security_concept?utm_source
[2] Hu Jintao Calls for Building Harmonious World. https://www.peoplechina.com.cn/17thCPC/txt/2007-10/15/content_80549.htm
[3] Chaina belt and road. https://www.beltandroadforum.org
[4] https://en.wikipedia.org/wiki/Holistic_national_security

xavfsizlikdagi roli belgilandi. Asosiy tamoyillari sifatida: mudofaviy boshqaruv, global xavfsizlikni mustahkamlash sifatida belgilanib, maqsadi milliy mudofaa kuchlari bilan global barqarorlikni ta’minlashga qaratiladi. Amalga oshirish mexanizmlari sifatida mudofaa sohasida islohotlari, xalqaro hamkorlik tizimini mustahkamlash tushuniladi[1]. Uning asosiy yutug‘i avvalgi nazariy konsepsiyalar institutsionallashuvini ta’minlab hujjatli shaklga keltirildi.

Albatta bundan oldingi nomlari keltirilgan modellar nafaqat ichki jarayonlarda balki, tashqi jarayonlarda ham xavfsizlikni ta’minlashga katta ko‘mak bera oldi.

Keyinga davrni endi Global tashabbuslar bosqichi (2021–2025) deb atash mumkin. Sababi bu davrda Xitoy o‘zining boshqa mamlakatlarning huquq va manfaatlariga dahl qilmaslik, hech kimning taraqqiyotiga hasad qilmaslik vas hu bilan birgalikda o‘zining qonuniy huquq va manfaatlaridan ham hech qachon voz kechmaslik haqida chaqiriqlarini yangrashi bilan boshlandi.

Bularni tahlil qilsak, (1) Global rivojlanish tashabbusi “GDI, 2021” — ushbu tashabbus xavfsizlik va rivojlanish o‘zaro bog‘liq degan g‘oyaga asoslanadi. Iqtisodiy tenglik va barqaror rivojlanish global barqarorlikning muhim sharti sifatida ko‘riladi. (2) Global xavfsizlik tashabbusi “GSI, 2022” — 2022-yilda Boao Osiyo forumida Si Szinpin tomonidan e’lon qilingan GSI Xitoyning xavfsizlik bo‘yicha eng muhim global konsepsiyasidir. U “bo‘linmas xavfsizlik” tamoyiliga asoslanadi va quyidagi yo‘nalishlarni ilgari suradi:

- davlatlar suverenitetini hurmat qilish;
- bloklarga qarshi turish;
- mojarolarni siyosiy yo‘l bilan hal etish;
- BMT markaziy rolini mustahkamlash.

2023-yilda e’lon qilingan GSI “Concept Paper” ushbu tashabbusning institutsional asoslarini belgilab berdi.

(3) Global sivilizatsiya tashabbusi “GCI, 2023” — mazkur tashabbus xavfsizlik va rivojlanish masalalariga madaniy-gumanitar o‘lchamni qo‘shadi. Madaniyatlar xilma-xilligi va sivilizatsiyalararo muloqot global barqarorlik omili sifatida ko‘rsatildi. (4) Global boshqaruv konsepsiyasi “GGI,2025” — eng yangi bosqich bo‘lib, u Xitoyning barcha avvalgi tashabbuslarini yagona strategik tizimga birlashtiradi. Konsepsiya adolatli, ko‘p qutbli va BMTga asoslangan global boshqaruv modelini ilgari surishni taqdim etdi.

Ko‘rib o‘tganimizdek Xitoy o‘zining do‘stona hamkorlik munosabatlarini o‘rnatgan holda, mustaqil, erkin va tinch diplomatik siyosatini olib bormoqda.

Shu o‘rinda O‘zbekiston ham davlatlararo va ichki siyosatida xavfsizlik modelini yaratib, o‘zining xavfsizlik konsepsiyalarini ishlab chiqdi.

[1] Белая книга о национальной безопасности Китая в новую эпоху | Национальная безопасность Китая в новую эпоху.
http://www.mod.gov.cn/gfbw/fgwx/bps/16385614.html?utm_source

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakat xavfsizlik, tashqi siyosat va davlat boshqaruviga oid milliy konsepsiyalarini bosqichma-bosqich ishlab chiqdi, mamlakatimiz o‘zining Xitoydagi kabi rasmiy konsepsiyalar tizimi shakllangan bo‘lib, u mustaqillik, suverenitet, tinchlik, barqarorlik va mintaqaviy hamkorlik kabi asosiy tamoyillarni o‘zida mujassam etadi.

Xususan O‘zbekistonning tashqi siyosat o‘zani bosh qomus davlat konstitutsiyasining 17-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti, O‘zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanishi”[1] qayd etilganligi bilan muhimdir.

O‘zbekistonning mustaqillikdan to bugungi kungacha bo‘lgan xavfsizlik va tashqi siyosat konsepsiyalarini ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak:

1) Mustaqillik e’lon qilinishi asosi 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik Deklaratsiyasi boshlanish nuqtasidir. Uning mazmuni mustaqillikka erishish jarayonining boshlanishi sifatida Deklaratsiya qabul qilinganini va bu hujjatda O‘zbekiston o‘z qonunchiligini Sovet Ittifoqining qonunlari ustidan qo‘yish, tashqi va ichki siyosatni mustaqil yuritish niyatini e’lon qiladi[2]. Asosiy tamoyillari sifatida suverenitet, mustaqillik, qonun ustuvorligi berilib, mustaqil tashqi siyosat va xavfsizlik konsepsiyalarining poydevori sifatida e’zozlanadi.

2) Tashqi siyosat konsepsiyasi — 2012-yil 28-avgustda O‘zbekiston parlamenti tomonidan yangi tashqi siyosat konsepsiyasi qabul qilindi, unda davlatning suveren manfaatlari, harbiy bazalar va bloklarga qat’iy kirilmaslik, “milliy manfaatlar birinchi o‘rinda” tamoyili e’lon qilindi.

3) Xalqaro hamkorlik va barqarorlik yo‘nalishlari integratsiyasini kuchaytirishni maqsad qilgan “Harakatlar strategiyasi” (2017–2021): bu strategiya to‘rt yillik davlat islohotlarini belgilagan bo‘lib, uning beshinchi ustuvor yo‘nalishi aynan tashqi siyosat, xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlikka asoslangan siyosatni belgilab bergan[3].

4) Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi 2021-yil 30-noyabrda jamoat xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha konsepsiya tasdiqlandi, unda aholini har qanday tahdidlardan himoya qilish, jamoat tartibini ta’minlash, huquq-tartibot organlarining samarali ishlash mexanizmlari belgilandi[4].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://constitution.uz/oz/clause/index
[2] Mustaqillik Deklaratsiyasi. https://en.wikipedia.org/wiki/Declaration_of_Sovereignty_%28Uzbekistan%29?utm_source
[3] Harakatlar strategiyasi. https://lex.uz/ru/docs/-3114480
[4] O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://president.uz/oz/4865?utm_source

5) Yangi O‘zbekiston tashqi siyosiy yo‘nalishini “O‘zbekistonning 2021–2025 strategiyasi” mazmunan tashqi siyosat, demokratik islohotlar, inson huquqlari, hamda global hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Asosiy tamoyillar: tinch va do‘stona tashqi siyosat, global hamkorlik va BMT bilan faol integratsiya, suverenitetni himoya qilishni ko‘zlaydi va maqsadi xalqaro maydonda barqaror obro‘, tinchlik va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga erishdan iborat[1].

6) “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi 2023-yil 11-sentabrda qabul qilindi va yangi uzoq muddatli strategiya sifatida uning “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyili asosiy yo‘nalishlardan biri qilib belgilangan. Unda BMT, mintaqaviy hamkorlik, suveren manfaatlar, tinchlik va barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. BMT va boshqa xalqaro platformalarda faol qatnashish, iqtisodiy diplomatiya, investitsiyalarni jalb qilish kabi muhim vazifalar ham qayd etilgan.

Umuman O‘zbekistonning mustaqillikka erishganidan buyon tartib bilan shakllangan konsepsiyalari mavjud bo‘lib, ular eng asosiy yo‘nalish sifatida (1)Suverenitet va mustaqillik poydevorini mustahkamlashga, (2)Qonun ustuvorligini ta’minlashga va ichki barqarorlikni saqlashga, (3)Tinch, suveren va konstruktiv tashqi siyosatni olib borishga, (4)Mintaqaviy tinchlik va global hamkorlik tamoyillariga asoslanishi bilan mustahkamlanadi, ushbu konsepsiyalar O‘zbekistonning milliy manfaatlarni himoya qilishga, tinchlikni mustahkamlashga, BMT bilan faol hamkorlik hamda global obro‘ni oshirish strategik yo‘nalishlari sifatida o‘sib borayotganini ko‘rsatdi.

Albatta yuqoridagi O‘zbekistonning mustaqillikka erishganidan buyon amalga oshirib kelayotgan siyosiy konsepsiyalarini xavfsizlik yo‘nalishidagi konsepsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Shunday qilib, O‘zbekiston va Turkiya Xitoyning hududiy yaxlitligini tan oladi, biroq Turkiya uyg‘urlarning huquqlarini alohida e’tirof etadi. O‘zbekiston BMT va boshqa tashkilotlarda Xitoyning siyosatiga e’tiroz bildirmaydi. Turkiya hukumati ba’zan BMT doirasida inson huquqlari sohasidagi vaziyat bo‘yicha xavotir bildirib turadi. O‘zbekiston hukumati Xitoyga nisbatan vazmin diplomatik siyosat olib boradi. Turkiya hukumati ba’zan keskin tanqid, ba’zan konstruktiv muloqot tarafdori bo‘ladi.

*Tojik-qirg‘iz konflikti* 2025 yilda o‘zining yuqori fazasiga chiqdi va u tinchlik sulhi bilan yakunlandi. Bu borada O‘zbekiston va Turkiya hukumatlarining tojik-qirg‘iz munosabatlaridagi taranglikni diplomatiya yo‘li bilan hal etilishi tarafdori hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2025 yil 31 mart kuni Xo‘jand shahrida Tojikiston Respublikasi Prezidenti E.Rahmon va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti S.Japarov bilan uch tomonlama uchrashuvda ishtirok etdi. Uchrashuv davomida uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risida shartnoma imzolandi[2].

Turkiya tashqi ishlar vaziri X.Fidan 2025 yil 13 martda Tojikiston va Qirg‘iziston o‘rtasida chegaralarning delimitatsiyasiga oid imzolangan kelishuvni qo‘llab-quvvatlab, mazkur oliy darajadagi hujjat mintaqada tinchlik, barqarorlik va hamkorlikka muhitini rivojlantirishga imkon berishini qayd etdi[3].

Shunday qilib, qirg‘iz-tojik konflikti va uning yechimi bo‘yicha O‘zbekiston va Turkiyaning pozitsiyalari o‘xshash va yakdil. Jumladan, nizoni diplomatik vositalar yordamida, muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan yechish mumkin. Uch tomonlama kelishuv mintaqa mamalakatlar o‘rtasida tinchlik va hamkorlikni mustahamlaydi, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

*Ozarbayjon-Armaniston konflikti* postsovet makonida 2020 yilga qadar saqlanib kelgan, yakuniga yetmagan va o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Masalaning o‘ziga xosligi Ozarbayjonning turkiy xalq ekani va Turkiya tomonidan qo‘llab-quvvatlangani bilan xarakterlanadi.

---

[1] Foreign Ministers of Turkey and Iran to Visit China // ministry of foreign affairs People’s Republic of Chine 11.01.2022 https://www.fmprc.gov.cn/eng/xw/wsrc/202405/t20240530_11335217.html

[2] Ўзбекистон Президенти давлат раҳбарларининг уч томонлама учрашувида иштирок этди // Ўзбекистон Республикаси Президентининг Матбуот хизмати 31.03.2025 https://president.uz/uz/lists/view/8001

[3] Kırgızistan ve Tacikistan Arasında Sınır Hattının Belirlenmesi Anlaşmasının İmzalanması Hk // Türkiye Cumhuriyeti Dışişleri Bakanlığı No: 52, 13 Mart 2025, // https://www.mfa.gov.tr/no_-52_-kirgizistan-ve-tacikistan-arasinda-sinir-hattinin-belirlenmesi-anlasmasinin-imzalanmasi-hk.ru.mfa

2017 yil 20 oktabrda O‘zbekistonga Kavkaz musulmonlar idorasi raisining tashrifi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev Tog‘li Qorabog‘ konfliktini hal qilishda Ozarbayjon pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlashi va BMT HK rezolyusiyasining bajarilishi lozimligi ma’lum qilingan[1].

2021 yil 31 martda Qozoziston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan Turkiy Kengashning videokonferensiya shaklida o‘tkazilgan norasmiy sammiti doirasida Prezident Sh.Mirziyoev quyidagi fikrlarni bildirib o‘tdi: *“... Ozarbayjon Prezidenti hurmatli I.Aliev va Ozarbayjon xalqini, Tog‘li Qorabog‘ hududini qaytarib, tarixiy adolatni tiklash yo‘lidagi g‘alabasi bilan yana bir bor tabriklayman”. O‘zbekiston Tog‘li Qorabog‘ zaminidagi ko‘hna obidalar, madaniyat va ma’rifat maskanlarini tiklash ishlariga hissa qo‘shishga tayyor ekanini bildiramiz”*[2]

2023 yil 9 sentabrda O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi bayonotida “Ozarbayjon hududiy yaxlitligini tan olishi, mazkur mamlakat ichki ishlariga turli aralashishlarni qoralashi va Qorabog‘da o‘tkazilgan prezidentlik saylovlarini tan olmasligi” qayd etildi.

Ozarbayjon hududiy yaxlitligi masalasi doirasida Prezident Sh.Mirziyoev 2023 yil 3 noyabrda Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining 10-sammiti doirasida quyidagi fikrlarni bildirdi: *“Tarixiy adolat qaror topib, mamlakatning ajralmas qismi bo‘lgan Qorabog‘ hududini bunyodkorlik makoniga aylantirish borasida ulkan natijalarga erishilmoqda. Men avgust oyida Shusha va Fuzuliy shaharlarida bo‘lib, keng ko‘lamli o‘zgarishlarga, zamonaviy infratuzilma barpo etilayotgani, vayron bo‘lgan madaniy meros ob’ektlari qayta tiklanayotganiga shaxsan guvoh bo‘ldim. Ozarbayjon xalqini buyuk g‘alaba – mamlakat hududiy yaxlitligi to‘liq tiklangani bilan yana bir bor chin yurakdan samimiy tabriklayman*[3]

Shuningdek, Prezident Sh.Mirziyoev Qorabog‘ hududlari borasida 2024 yil 6 iyulda Ozarbayjonning Shusha shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti doirasida quyidagi fikrlarni qayd etdi: *“Bugungi kunda tarixiy adolat qaror topgan va yana Ozarbayjon bag‘riga qaytgan Qorabog‘da hurmatli I.Haydarovich rahbarligida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlariga, me’moriy obidalar va madaniy yodgorliklarni qayta tiklash borasidagi mislsiz jonbozlikka kecha bevosita guvoh bo‘ldik. Siz, aziz qardoshimizning bunday ezgu ishlaringiz yaqin do‘stlar sifatida barchamizga albatta cheksiz quvonch va g‘urur bag‘ishlaydi.*

[1] Президент: Узбекистан поддерживает Азербайджан в карабахском вопросе 20.10.2017 https://news.az/news/president-uzbekistan-supports-azerbaijan-in-karabakh-issue?utm_source=chatgpt.com

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy Kengashning videokonferensiya shaklida o’tkazilgan norasmiy sammitidagi nutqi 31.03.2021 // O’zbekiston Respublikasi Prezidentning Matbuot xizmati https://president.uz/oz/lists/view/4272

[3] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi // https://president.uz/oz/lists/view/6831 03.11.2023

*Birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz va alohida e'tiborimiz bilan ushbu bebaho shahar timsolida butun Qorabog' kelgusida abadiy do'stligimizning chinakam ramziga aylanishiga ishonaman"*[1].

Rossiya Federatsiyasi boshchiligida Armaniston va Ozarbayjon o'rtasida saqlanib qolayotgan konfliktni hal qilish bo'yicha sa'y-harakatlar ijobiy natija bermadi. Mazkur maqsadga erishish yo'lida ikki taraf ishtirokida AQSh hukumati shafeligi ostida muzokaralar olib borilib, uzoq ko'zlangan natijaga erishildi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tashqi ishlar vazirligi bayonotida 2025 yil 8 sentabrda Vashingtonda Ozarbiyjon va Armaniston yetakchilari o'rtasida imzolangan qo'shma deklaratsiya O'zbekiston hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlagan[2].

Turkiyaning Tog'li Qorabog'ga nisbatan pozitsiyasi nafaqat tarixiy do'stlikka asoslanadi, balki geosiyosiy manfaatlarga ham bog'liq. Ekspertlar fikricha, Ozarbayjon bilan hamkorlik Turkiyaga Kavkazdagi ta'sirni mustahkamlash imkonini beradi. Turkiyaning Janubiy Kavkaz yo'nalishila ta'siri kuchayishi, jumladan energetika va tranzit yo'llarini kengaytirish majmuasi bilan bog'liq. Turkiya Ozarbayjon hududiy yaxlitligini qo'llab-quvvatlaydi. Rasmiy Anqara yondoshuviga ko'ra, "Tog'li Qorabog' – bu "Ozarbayjon yerlari"[3]. Turkiya hukumati xalqaro jamoatchilikni "Ozarbayjon tomonini qo'llab-quvvatlashga" chaqirgan[4].

Shunday qilib, Ozarbayjon-Armaniston konflikti borasida O'zbekiston va Turkiya pozitsiyalarida ayrim uyg'unlik jihatlar mavjud. Masalan, Tog'li Qorabog' Ozarbayjon hududi sifatida tan olingan. Turkiya O'zbekistondan farqli o'laroq, Ozarbayjonga harbiy-texnikaviy yordam qo'rsatib kelmoqda. Ozarbayjon bir vaqtning o'zida ham Turkiya bilan ham O'zbekiston bilan ittifoqchi mamlakat sanaladi. Biroq Turkiya va O'zbekiston strategik sherik mamlakatlar hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalar asosida mavzu yuzasidan quyidagi matritsa taklif etiladi:

O'zbekiston va Turkiya tashqi siyosiy pozitsiyalarining qiyosiy matritsasi

| **Mezon** | **O'zbekiston pozitsiyasi** | **Turkiya pozitsiyasi** | **Uyg'unlik darajasi** | **Asosiy risk (O'zbekiston uchun)** | **Amaliy imkoniyat** |
|---|---|---|---|---|---|

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkilotining sammitidagi nutqi 06.07.2024 // https://president.uz/oz/lists/view/7382

[2] O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining bayonoti 08.09.2025 https://gov.uz/oz/mfa/news/view/76632

[3] Turkey supports diplomatic solution to Karabakh crisis | Anadolu Ajancy https://www.aa.com.tr/en/azerbaijan-front-line/turkey-supports-diplomatic-solution-to-karabakh-crisis/2001504?utm_source=chatgpt.com

[4] Turkey urges world to back 'right side,' Azerbaijan, in Nagorno-Karabakh conflict | Daily Sabah" https://www.dailysabah.com/politics/diplomacy/turkey-urges-world-to-back-right-side-azerbaijan-in-nagorno-karabakh-conflict?utm_source=chatgpt.com

| | | |
|---|---|---|
| Tog‘li Qorabog‘ | Isroil-Falastin konflikti | Afg‘oniston |
| Hudud Ozarbayjonga tegishli. Xalqaro huquq normalari doirasida hal etish | “ Ikki xalq uchun ikki davlat” tamoyili. Xalqaro huquq normalari doirasida hal etish | Tolibon hukumati rasman tan olinmagan. Bevosita muloqot asosida muzokaralar olib borish |
| Hudud Ozarbayjonga tegishli. Muzokaralar yordam bermasi harbiy yo‘l bilan hal qilish | “ Ikki xalq uchun ikki davlat” tamoyili. Isroilga nisbatan keskin choralar qo‘llash | Tolibon hukumati rasman tan olinmagan. Qatar orqali vositachilikni amalga oshirish |
| Qisman uyg‘un | Qisman uyg‘un | Uyg‘un. Afg‘onistonni mintaqaviy transport loyihalariga jalb qilish |
| Armaniston bilan munosabatlarga salbiy ta’siri. Biroq risklar yo‘q. | G‘arb bilan investitsiya va kredit shartnomalarida bilvosita salbiy ta’sir ko‘rsatish ehtimoli. Resurs sarfi, migratsiya oqimi | Iqtisodiy (sanksiya, investitsiya), ekologik (suv), siyosiy (xalqaro imij) |
| Xavfsizlikni ta’minlash, transport-logistika, savdo-iqtisodiy rivojlanish | Yangi savdo marshruti, iqtisodiy harajatlar kamayishi, arab investitsiyasini jalb etish, turizm | Dengiz portlariga chiqish, chegaralar xavfsizligi, eksport bozori |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Shinjon uyg‘ur avtonom respublikasi maqomi | Tojik-qirg‘iz konflikti | Rossiya-Ukraina konflikti | |
| Xitoyning yagonaligi tan olinadi, ichki ishlariga aralashmaslik, separatizm, ekstremizm, terrorizm | Chegaralar daxlsizligi, suverenitetni tan olish, mojaroni diplomatik yo‘l bilan hal etish | Ukraina hududiy yaxlitligi tan olinadi. Nizolar diplomatiya yo‘li bilan hal etish | |
| Xitoyning yagonaligi tan olinadi, separatizm, ekstremizm, terrorizm qoralanadi | Chegaralar daxlsizligi, suverenitetni tan olish, mojaroni diplomatik yo‘l bilan hal etish | Ukraina hududiy yaxlitligi tan olinadi. Nizolar diplomatiya yo‘li bilan hal etish | |
| Uyg‘un | Uyg‘un | Qisman uyg‘un. Turkiya Ukrainaga mediatorlikni taklif qiladi hamda qurol-yarog‘ yetkazib beradi | |
| Uyg‘urlarning o‘zbeklarga munosabatida ishonchsizlik, G‘arb davlatlari tomonidan “ demokratik qadriyatlardan chekinish” sifatida ko‘rilishi, | O‘zbekiston manfaatlari keyingi o‘rinlarga tushib qolishi, Tojikiston va Qirg‘iziston o‘rtasida chegara chizig‘ining o‘zgarishi O‘zb | O‘zbekiston kompaniyalari Yel sanksiyalari ro‘yxatiga kiritilishi, urush sababli o‘zbek migrantlaridan keladigan mablag‘larning | |
| O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiya jalb etish, eksport mahsulotlari/ marshrutlari Shinjon orqali o‘tishi | Chegaralarda to‘planib qolgan muammolarni birgalikda hal etish | Transport yo‘laklarini tiklash, investitsiya jalb etish, mehnat migratsiyasi | |

# MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING INNOVATSION SALOHIYATI: GLOBAL INNOVATION INDEX REYTINGI TAHLILI

***SIROJIDDIN MAXATOV***
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasining besh davlati – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonning innovatsion salohiyati Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) tomonidan 2025-yil 16 sentyabrda e’lon qilingan Global Innovation Index 2025 (GII 2025) ma’lumotlari asosida tahlil qilinadi. GII 2025 ning 18-nashri 139 iqtisodiyotni qamrab oladi. Tahlil GII 2021-2025-yillardagi reyting dinamikasi, ustunlar bo‘yicha taqqoslama ko‘rsatkichlar, mintaqaviy tendensiyalar va strategik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Alohida e’tibor O‘zbekistonning ilk bor Top-80 ga kirishi, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasining birinchi bor Lotin Amerikasini ortda qoldirishi va global innovatsion investitsiyalar o‘sishining sekinlashuvi muammosiga qaratiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *innovatsion salohiyat, Global Innovation Index 2025 (GII 2025), Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, Qozog‘iston, innovatsion overperformer, tadqiqot va ishlanmalar (R&D), intellektual mulk, WIPO.*

***Abstract:*** *This article analyzes the innovation potential of five Central Asian states — Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Turkmenistan — based on the Global Innovation Index 2025 (GII 2025) released by the World Intellectual Property Organization (WIPO) on September 16, 2025. The 18th edition of the GII covers 139 economies. The analysis encompasses GII ranking dynamics from 2021 to 2025, pillar-by-pillar comparative indicators, regional trends, and strategic recommendations. Special attention is given to Uzbekistan’s historic entry into the Top 80, the Central and South Asia region’s first-ever overtaking of Latin America, and the global slowdown in innovation investment growth.*

***Keywords:*** *innovation potential, Global Innovation Index 2025 (GII 2025), Central Asia, Uzbekistan, Kazakhstan, innovation overperformer, research and development (R&D), intellectual property, WIPO.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется инновационный потенциал пяти государств Центральной Азии — Узбекистана, Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана и Туркменистана — на основе данных Глобального инновационного индекса 2025 (GII 2025), опубликованного Всемирной организацией интеллектуальной собственности (WIPO) 16 сентября 2025 года. 18-е издание GII охватывает 139 экономик. Анализ включает динамику рейтингов GII 2021–2025 годов, сравнительные показатели по пилларам, региональные тенденции и стратегические рекомендации. Особое внимание уделяется историческому вхождению Узбекистана в Top-80, впервые достигнутому опережению регионом Центральной и Южной Азии Латинской Америки, а также замедлению роста глобальных инновационных инвестиций.*

***Ключевые слова:*** *инновационный потенциал, Глобальный инновационный индекс 2025 (GII 2025), Центральная Азия, Узбекистан, Казахстан, инновационный*

*опережающий (overperformer), научные исследования и разработки (R&D), интеллектуальная собственность, WIPO.*

**1. Kirish**

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida innovatsiyalar barqaror rivojlanishni ta’minlash, raqobatbardoshlikni oshirish hamda iqtisodiy diversifikatsiyani chuqurlashtirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylanmoqda. Global Innovation Index (GII) esa innovatsion rivojlanishni baholovchi yetakchi xalqaro reytinglardan biri bo’lib, u Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan Portulans instituti hamkorligida har yili e’lon qilinadi. Mazkur indeks siyosatchilar, tadqiqotchilar hamda xalqaro investorlar uchun muhim analitik axborot manbai hisoblanadi.

Indeksning 18-nashri hisoblangan GII 2025 139 ta iqtisodiyotni 78 ta ko‘rsatkich asosida baholagan bo‘lib, 2025-yil 16-sentyabr kuni “Innovatsiyalar chorrahada” (Innovation at a Crossroads) mavzusi ostida e’lon qilindi.[1] Mazkur nashr GII tarixida birinchi marta venchur kapital joylashuvi ma’lumotlarini eng yaxshi 100 innovatsion klaster reytingiga qo‘shdi.[2]

GII 2025 ning global kontekstida innovatsion investitsiyalar o‘sishi so‘nggi o‘n yillikning eng past darajasiga – 2024-yilda atigi 2,9 foizga – tushdi. Korporativ R&D xarajatlari inflatsiyani hisobga olgan holda real ifodasida 1 foizga o‘sgan bo‘lib, bu o‘tgan o‘n yillikning 4,6 foizlik o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan sezilarli pasayish hisoblanadi. Bundan tashqari, venchur kapital bozori ham qisqardi.[3]

Markaziy Osiyo mintaqasi bu global manzaraga nisbatan o‘ziga xos istisno ko‘rsatdi: O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘zlarining GII tarixi davomidagi eng yaxshi natijalarini qayd etdi[4] va Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi birinchi bor Lotin Amerikasi va Karib havzasini mintaqaviy innovatsion ko‘rsatkichlar bo‘yicha ortda qoldirdi.[5] Ushbu maqolaning maqsadi GII 2025 natijalari asosida Markaziy Osiyo davlatlarining innovatsion salohiyatini har tomonlama tahlil qilish va ilmiy asoslangan strategik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**2. Innovatsion salohiyat: nazariy va konseptual asoslar**

Innovatsion salohiyat tushunchasi zamonaviy iqtisodiy nazariyada markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Neoklassik iqtisodiy nazariya doirasida innovatsiya asosan texnologik omil (A) sifatida ishlab chiqarish funksiyasiga kiritilgan bo‘lib, Solow (1956) va Romer (1990) ning endogen o‘sish modellarida fundamental rol

[1] WIPO. (2025). Global Innovation Index 2025: Innovation at a Crossroads. Geneva: WIPO. Published 16 September 2025. ISBN 978-92-805-3556-3.
[2]WIPO GII 2025, p. 15.
[3]WIPO GII 2025, p. 21.
[4]WIPO GII 2025 Press Release. (2025, September 16). WIPO Global Innovation Index 2025 — Switzerland, Sweden, US Top Ranking. URL: wipo.int/pressroom/en/articles/2025/article_0009.html.
[5]WIPO GII 2025, p. 18.

o‘ynaydi. Romerning endogen o‘sish nazariyasiga ko‘ra, bilim va innovatsiya “qaytim ortib boruvchi” (increasing returns) xususiyatiga ega: innovatsiyaga doimiy investitsiya kiritish uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning asosi hisoblanadi. GII 2025 metodologiyasi aynan shu nazariy asosga tayanadi — indeks innovatsion “kirish” (kapital, inson resurslari, institutlar) va “chiqish” (bilim, texnologiya, ijodiy mahsulotlar) o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘lchash orqali milliy innovatsion tizimlarni baholaydi.

Milliy innovatsion tizimlar (National Innovation Systems — NIS) nazariyasi Freeman (1987), Lundvall (1992) va Nelson (1993) asarlarida ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu yondashuv innovatsiyani alohida firma yoki tadqiqotchi faoliyati sifatida emas, balki davlat, sanoat, universitetlar va moliya institutlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi sifatida ko‘radi. Markaziy Osiyo davlatlari nuqtai nazaridan bu nazariya ayniqsa dolzarb: mintaqadagi “innovatsion paradoks” — ya’ni kirish ko‘rsatkichlarining chiqish ko‘rsatkichlaridan yuqori bo‘lishi — aynan milliy innovatsion tizim elementlari o‘rtasidagi aloqalarning zaifligi bilan izohlanishi mumkin. O‘zbekiston va Qozog‘istonda ilmiy-tadqiqot natijalarining tijoratlash-tirilmasligi, patent faolligining pastligi va universitetlar bilan sanoat o‘rtasidagi instituttsional bo‘shliq ushbu nazariy tushunchani amaliy jihatdan to‘liq tasdiqlaydi.

“Uchlik spiral” (Triple Helix) modeli — Etzkowitz va Leydesdorff (1995) tomonidan ishlab chiqilgan — davlat, universitet va sanoatning birgalikdagi innovatsion faoliyatini innovatsion rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘radi. Ushbu model Markaziy Osiyo uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega: O‘zbekistonning biznes muhiti bo‘yicha global 9-o‘rini — raqobatbardosh biznes ekotizimi mavjudligini ko‘rsatsa ham — ijodiy natijalar ustunida 95-o‘rinda turishi “uchlik spiral”ning amalda to‘liq ishlamasligini ko‘rsatadi. Porter’ning “olmos modeli” (Diamond Model, 1990) ham shu xulosani tasdiqlaydi: milliy raqobatbardoshlik faqat omil sharoitlari (resurslar, kadrlar) bilangina emas, balki mahalliy talab sifati, tegishli tarmoqlar klaster muhiti va firma darajasidagi raqobat bilan birga shakllanadi. Markaziy Osiyo davlatlari ushbu to‘rtta qirradan hali ikki-uchtasini to‘liq rivojlantirmagan.

Nihoyat, absorptiv quvvat nazariyasi (Cohen & Levinthal, 1990) Markaziy Osiyo uchun yana bir amaliy tavsiya beradi: mamlakat xorijiy texnologiyalarni o‘zlashtirish va mahalliy sharoitga moslashtirib rivojlantirish qobiliyati uning ichki R&D salohiyatiga bevosita bog‘liq. Bu degani, O‘zbekiston va Qozog‘iston xorijiy investitsiya va texnologiya transferini to‘liq o‘zlashtirish uchun avvalo mahalliy tadqiqotchilar va muhandislar sonini sezilarli ko‘paytirishi zarur. Fan va muhandislik yo‘nalishlarida bitiruvchilar ulushi bo‘yicha O‘zbekistonning 13-o‘rini — bu yo‘ldagi muhim ustunlik — absorptiv quvvatni yanada mustahkamlash uchun strategik tayanch bo‘lishi lozim. Ushbu nazariy fikr keyingi bo‘limlarda GII 2025 empirik ma’lumotlari bilan taqqoslab tahlil qilinadi.

**3. GII 2025 metodologiyasi va o‘ziga xos yangiliklari**

GII 2025 metodologiyasi ikki asosiy blokdan iborat: innovatsiya kirish omillari (Innovation Input Sub-Index) va innovatsiya chiqish natijalari (Innovation Output Sub-Index). Kirish omillari besh ustunni qamrab oladi: (1) institutlar; (2) inson kapitali va tadqiqotlar; (3) infratuzilma; (4) bozor rivojlanganligi; (5) biznes rivojlanganligi. Chiqish natijalari ikki ustundan: bilim va texnologiya natijalari hamda ijodiy natijalardan tashkil topadi.

GII 2025 ning oldingi nashrlardan asosiy farqi shundan iboratki, bu yil eng yaxshi 100 innovatsion klaster reytingi metodologiyasiga uchinchi o‘lchov sifatida venchur kapital bitimlarining joylashuvi qo‘shildi va “Shenzhen–Gonkong–Guangzhou” klasteri birinchi o‘ringa ko‘tarildi. GII 2025 da ishtirokchi iqtisodiyotlar soni 133 tadan 139 taga, ko‘rsatkichlar soni esa 80 tadan 78 taga o‘zgardi.

Mintaqamiz uchun ayniqsa muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlar qatoriga quyidagilar kiradi: mehnat unumdorligining o‘sishi, fan va muhandislik yo‘nalishlarida bitiruvchilar ulushi, ta’limga sarflanayotgan xarajatlar, biznes muhiti sifati, yuqori texnologik tovarlar va xizmatlar eksporti, foydali modellar va patentlar soni hamda venchur kapital jalb etish darajasi.[1]

**4. Markaziy Osiyo davlatlarining GII reytingidagi dinamikasi**

**4.1. Besh yillik taqqoslama tahlil (2021–2025)**

Quyidagi jadvalda Markaziy Osiyo davlatlarining GII reytingidagi o‘rni 2021-2025-yillar kesimida keltirilgan. Reyting o‘rinlarini taqqoslashda metodologik o‘zgarishlar va ma’lumotlar mavjudligining yildan yilga farqlanishi inobatga olinishi zarur:

***1-jadval***

***Markaziy Osiyo davlatlarining GII reytingidagi o‘rni (2021-2025)***

| Davlat | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|
| **O‘zbekiston** | 86 | 82 | 82 | 83 | 79 |
| **Qozog‘iston** | 79 | 79 | 81 | 78 | 81 |
| **Qirg‘iziston** | 94 | 105 | 107 | 99 | 96 |
| **Tojikiston** | 111 | 116 | 108 | 107 | 108 |
| **Turkmaniston** | – | – | – | – | – |

*Manba: WIPO GII Database, 2021–2025; GII 2025 – 139 ta iqtisodiyot qamrovi.*

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, O‘zbekiston 2024-yildagi 83-o‘rindan 2025-yilda 79-o‘ringa ko‘tarilib, Top-80 ga ilk bor kirdi – bu davlatning GII tarixi davomidagi eng yaxshi natijasi hisoblanadi.[2] Qozog‘iston esa 78-o‘rindan 81-o‘ringa ikki pog‘ona

[1]WIPO GII 2025, Annex 1. Ishtirokchi iqtisodiyotlar ro‘yxati va metodologik o‘zgarishlar bayoni.

[2] WIPO GII 2025 Economy Profile: Uzbekistan, p. 4. URL: wipo.int/edocs/gii-ranking/2025/uz.pdf. O‘zbekiston GII 2025 da 79-o‘rinni egalladi.

tushdi – bu metodologik o‘zgarishlar va raqobat kuchayishi bilan izohlanadi.[1] Qirg‘iziston 99-o‘rindan 96-o‘ringa yaxshilandi.[2] Tojikiston 107-o‘rindan 108-o‘ringa bir pog‘ona tushdi.[3] Turkmaniston GII 2025 da ham ishtirok etmadi.[4]

**4.2. GII 2025 ustunlar bo‘yicha taqqoslama tahlil**

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston va Qozog‘istonning GII 2025 yetti ustuni bo‘yicha o‘rinlari keltirilgan. Bu tahlil ikkala davlatning kuchli va zaif tomonlarini aniqroq ko‘rish imkonini beradi:

***2-jadval***

***O‘zbekiston va Qozog‘istonning GII 2025 ustunlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari***

| GII 2025 ustunlari | O‘zb. o‘rni | Qoz. o‘rni | Qisqacha izoh |
|---|---|---|---|
| Institutlar | 82 | 69 | Qonun ustuvorligi, siyosiy muhit |
| Inson kapitali va tadqiqotlar | 67 | 74 | Ta’lim, R&D; Qirg‘iziston: 42-o‘rin |
| Infratuzilma | 75 | 52 | AKT, energetika, ekologiya |
| Bozor rivojlanganligi | 88 | 83 | Kredit, investitsiya, savdo |
| Biznes rivojlanganligi | 60 | 89 | O‘z.: biznes muhiti 9-o‘rin |
| Bilim va texnologiya natijalari | 71 | 90 | Patentlar, YaIMga nisbatan R&D xarajatkari |
| Ijodiy natijalar | 95 | 102 | Brend, media, ijodiy tovarlar |

*Manba: WIPO GII 2025 Economy Profiles (Uzbekistan, Kazakhstan)*

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston infratuzilma va biznes rivojlanganligi yo‘nalishlarida Qozog‘istondan ustunlik qilmoqda – ayniqsa biznes muhiti quyi ustunida 9-o‘rin jahon miqyosida e’tiborga sazovor yutuqdir.[5] Qozog‘iston esa institutlar va inson kapitali yo‘nalishlarida O‘zbekistonga nisbatan yaxshiroq natija ko‘rsatmoqda.[6]

**5. GII 2025: O‘zbekistonning tarixiy muvaffaqiyati**

GII 2025 O‘zbekiston uchun tarixiy ahamiyatga molik natijani qayd etdi: davlat 79-o‘rinni egallab, o‘zining GII tarixi davomidagi eng yuqori ko‘rsatkichini qayd etd. WIPO Press Release da ta’kidlanishicha, O‘zbekiston to‘rtinchi yil ketma-ket “dinamik overperformer” ya’ni daromad darajasiga nisbatan yuqori innovatsion samaradorlikka ega mamlakat maqomini saqlab qoldi.

[1] WIPO GII 2025 Economy Profile: Kazakhstan, p. 4. URL: wipo.int/edocs/gii-ranking/2025/kz.pdf. Qozog‘iston GII 2025 da 81-o‘rinni egalladi.

[2] IMP.News. (2025, November 10). Innovation Climbers of 2025. URL: imp.news. Qirg‘iziston GII 2025 da 96-o‘rinni egalladi.

[3] Asia-Plus. (2025). Tajikistan ranks 108th in Global Innovation Index 2025. URL: asiaplustj.info.

[4] WIPO GII 2025, Annex 1. Kiritilish uchun kirish quyi indeksi bo‘yicha kamida 35 ta ko‘rsatkich talab etiladi. Turkmaniston bu talablarni qondirmadi.

[5] WIPO GII 2025 Economy Profile: Uzbekistan, p. 5.

[6] WIPO GII 2025 Economy Profile: Kazakhstan, p. 5.

O‘zbekiston GII 2025 da quyidagi xalqaro ko‘rsatkichlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqda: mehnat unumdorligining o‘sishi – dunyo bo‘yicha 6-o‘rin; fan va muhandislik yo‘nalishlaridagi bitiruvchilar ulushi – 13-o‘rin; biznes muhiti sifati quyi ustuni – 9-o‘rin; ta’limga sarflanayotgan xarajatlar – 24-o‘rin. Eurasianet nufuzli tahliliy nashri O‘zbekiston va Qozog‘istonni “innovatsion faollikning egizak markazlari” deb ta’rifladi.[1]

O‘zbekistonning innovatsion rivojlanishidagi ayrim zaif jihatlar ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xususan, ijodiy natijalar ustunida 95-o‘rin, bilim va texnologiya natijalari ustunida 71-o‘rin hamda bozor rivojlanganligi ustunida 88-o‘rin qayd etilgani mamlakat innovatsion ekotizimida mavjud “bottleneck” ya’ni rivojlanishni sekinlashtiruvchi tor bo‘g‘in yoki cheklovchi omillar mavjudligini ko‘rsatadi.[2] Xususan, patent faolligining nisbatan pastligi, venchur kapital jalb etish darajasining yetarli emasligi hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining past ulushi innovatsion tizim natijalarining hali to‘liq darajada tijoratlashtirilmayotganini ko‘rsatadi.

**6. GII 2025: Qozog‘istonning mintaqaviy pozitsiyasi**

Qozog‘iston GII 2025 da 81-o‘rinni egallab, 2024-yildagi 78-o‘ringa nisbatan uch pog‘ona pastga tushishni qayd etdi. Biroq Qozog‘iston Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida Hindiston (38-o‘rin) va Eron (70-o‘rin) dan so‘ng to‘rtinchi o‘rinda egallamoqda.[3]

GII 2025 natijalariga ko‘ra Qozog‘istonning ayrim raqobat ustunliklari saqlanib qolmoqda. Xususan, davlat onlayn xizmatlari sifati bo‘yicha mamlakat dunyo bo‘yicha dastlabki o‘ntalikdan joy olgan. Shuningdek, foydali modellar (utility models) bo‘yicha 10-o‘rin, elektron ishtirok (e-participation) ko‘rsatkichi bo‘yicha 16-o‘rin hamda tadbirkorlik siyosati va madaniyati bo‘yicha 27-o‘rin qayd etilgan.

Qozog‘iston uchun asosiy rivojlanish imkoniyatlari innovatsiya natijalari bilan bog‘liq ustunlarda namoyon bo‘ladi. Xususan, bozor rivojlanganligi ustunida 93-o‘rin, bilim va texnologiya natijalari ustunida 87-o‘rin hamda ijodiy natijalar ustunida 82-o‘rin qayd etilgan. Bu ko‘rsatkichlar mamlakat innovatsion tizimida yaratilayotgan ilmiy va texnologik salohiyat hali to‘liq iqtisodiy natijalarga aylantirilmayotganini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, tadqiqot va ishlanmalar (R&D) hamda innovatsion faoliyatga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hali yetarli darajada tijoratlashtirish bosqichiga chiqmayapti.

**7. Mintaqaning qolgan davlatlari: GII 2025 tahlili**

**7.1. Qirg‘iziston: barqaror yuksalish tendensiyasi**

Qirg‘iziston GII 2025 da 96-o‘rinni egallab, 2024-yildagi 99-o‘ringa nisbatan uch pog‘ona yaxshilanishga erishdi. Mamlakat ayrim global indikatorlar bo‘yicha alohida

[1] Eurasianet. (2025, September 19). Kazakhstan and Uzbekistan deemed twin hotbeds of innovation. URL: eurasianet.org.
[2] WIPO GII 2025 Economy Profile: Uzbekistan, p. 6.
[3] WIPO GII 2025 Press Release, op. cit.

ajralib turadi: ta’limga sarflanadigan xarajatlar bo‘yicha dunyo miqyosida 5-o‘rin, past karbonli energiya ishlatish bo‘yicha esa 14-o‘rin qayd etilgan. Shu bilan birga, inson kapitali va tadqiqotlar ustunida 58-o‘rin egallagan.[1]

Biroq Qirg‘izistonning innovatsion rivojlanishidagi zaif jihatlar ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, raqamli infratuzilma, venchur kapital, yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti hamda patent faolligi ko‘rsatkichlari nisbatan past. Bundan tashqari, iqtisodiyotning kichikligi va xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmining cheklanganligi mamlakat innovatsion ekotizimini tezkor kengaytirishga imkon bermaydi.

**7.2. Tojikiston: struktural to‘siqlar muammosi**

Tojikiston GII 2025 da 108-o‘rinni egallab, mintaqa ichida eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.[2] amlakat innovatsion rivojlanishida bir qator tizimli muammolar mavjud. Xususan: R&D sohasiga sarflanadigan xarajatlarning YaIMga nisbati 0,1 foizdan past; malakali kadrlarning tashqi migratsiyasi (brain drain) yuqori darajada; kapital bozorlarining rivojlanmaganligi va xususiy sektorning innovatsiyaga qo‘shayotgan hissasining minimal darajasi. Ushbu omillar Tojikistonning innovatsion ekotizimini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi.

**7.3. Turkmaniston: institutsional shaffoflik muammosi**

Turkmaniston GII 2025 reytingida ishtirok etmagan. Mamlakat GII uchun zarur bo‘lgan minimal ma’lumot talabini bajara olmadi: kirish quyi indeksi bo‘yicha kamida 35 ta ko‘rsatkich, chiqish quyi indeksi bo‘yicha esa kamida 15 ta ko‘rsatkich taqdim etilmagan. Ushbu holat xalqaro investorlar va donor tashkilotlar uchun mamlakat innovatsion ekotizimini aniq baholashni murakkablashtiradi.

**8. Mintaqaviy yutuq: birinchi bor Lotin Amerikasini ortda qoldirish**

GII 2025 ning eng muhim mintaqaviy yangiligi shundaki, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi birinchi bor Lotin Amerikasi va Karib havzasi mintaqasini mintaqaviy GII reytingida ortda qoldirdi. GII 2025 hisobotida ta’kidlanishicha: ushbu siljish Hindiston, O‘zbekiston va Qozog‘istonning kuchli natijalar ko‘rsatishi bilan bog‘liq.[3]

Shu bilan birga, GII 2025 global tendensiyasi doirasida innovatsion investitsiyalar o‘sishining sekinlashuvi Markaziy Osiyo uchun ham xavf tug‘diradi. R&D o‘sishi 2024-yilda 2,9 foizga tushdi va WIPO 2025-yilda bu ko‘rsatkich 2,3 foizgacha pasayishini bashorat qilmoqda.[4] Bunday sharoitda xususiy sektori zaif bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari uchun davlat qo‘llab-quvvatlashining roli yanada oshishi zarur.

**9. Qiyosiy tahlil: o‘xshash o‘tish iqtisodiyotlari tajribasi**

[1]WIPO GII 2025 Economy Profile: Kyrgyzstan
[2] WIPO GII 2025 Economy Profile: Tajikistan
[3]WIPO GII 2025 Press Release, op. cit.
[4]WIPO GII 2025, p. 22.

Markaziy Osiyo davlatlarining innovatsion rivojlanish yo‘lini nazariy asoslar bilan birga ko‘rib chiqishda, o‘xshash o‘tish iqtisodiyotlari tajribasi qimmatli empirik dars beradi. Estoniya 2000-yillar boshida raqamli davlat xizmatlari va e-rezidentlik tizimini joriy etib, GII reytingida tezkor ko‘tarilishga erishdi — 2025-yilda 15-o‘rinni egallash orqali u o‘z iqtisodiyoti hajmiga nisbatan dunyo bo‘yicha eng samarali innovatsion tizimlardan biriga aylandi. Estoniyaning muvaffaqiyati instituttsional islohot (shaffof raqamli ma’muriyat), ta’limga strategik investitsiya va xalqaro hamkorlikni uyg‘unlashtirgan modelga asoslangan. Ushbu “kichik davlat, katta ambitsiya” yondashuvi O‘zbekiston va Qozog‘iston uchun ham dolzarb: iqtisodiy hajm emas, instituttsional sifat va siyosiy iroda innovatsion o‘sishning asosiy omili bo‘la oladi.

Koreya Respublikasi tajribasi Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston uchun eng muhim qiyosiy namuna hisoblanadi. Koreya 1960-yillarda past daromadli agrar iqtisodiyotdan bugun GII 2025 da 9-o‘rinni egallagan global innovatsion kuchga aylandi. Ushbu transformatsiya “innovatsion rivojlantiruvchi davlat” (developmental state) modeli asosida amalga oshdi: davlat strategik sanoat tarmoqlarini maqsadli moliyalashtirdi, sanoat va universitetlar o‘rtasida mustahkam instituttsional aloqalar o‘rnatdi va R&D xarajatlarini YaIMning 4,8 foiziga yetkazdi. O‘zbekistonning GII 2025 da ta’lim xarajatlari bo‘yicha 24-o‘rin hamda fan va muhandislik bitiruvchilari bo‘yicha 13-o‘rin egallashi — Koreya yo‘lidan ilhomlanib, ta’lim-sanoat-davlat uchligini mustahkamlash uchun muhim asos yaratmoqda.

Quyidagi jadvalda Markaziy Osiyo davlatlari va qiyosiy o‘tish iqtisodiyotlarining asosiy GII ko‘rsatkichlari taqqoslangan holda keltirilgan:

***3-jadval***

***Markaziy Osiyo va qiyosiy davlatlarning GII 2025 ko‘rsatkichlari***

| **Davlat** | **GII 2025 o‘rin** | **YaIM/jon boshiga (USD)** | **Asosiy ustunliklar** | **Rivojlanish imkoniyatlari** |
|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston | 79 | ~2 400 | Biznes muhiti (9-o‘rin), mehnat unumdorligi (6-o‘rin), muhandislik bitiruvchilari (13-o‘rin) | Patent faolligi, venchur kapital, yuqori texnologik eksport |
| Qozog‘iston | 81 | ~13 500 | Institutlar (69-o‘rin), infratuzilma (52-o‘rin), e-ishtirok (16-o‘rin) | Bozor rivojlanganligi, bilim va texnologiya natijalari |
| Estoniya (qiyosiy) | 15 | ~28 000 | Raqamli davlat xizmatlari, ICT ekotizimi, startap madaniyati | Kichik bozor hajmi, demografik cheklov |
| Koreya | 9 | ~35 000 | R&D (YaIMning 4,8%), | Demografik bosim, |

| Davlat | GII 2025 o‘rin | YaIM/jon boshiga (USD) | Asosiy ustunliklar | Rivojlanish imkoniyatlari |
|---|---|---|---|---|
| (qiyosiy) | | | patentlar, sanoat klasterlari | xizmatlar sektori ulushi |

*Manba: WIPO GII 2025; World Bank Open Data 2024; muallif tuzgan.*

3-jadvaldagi qiyosiy ma’lumotlar muhim xulosaga olib keladi: O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘z daromad darajasiga nisbatan yuqori GII o‘rinlarni egallaydi — bu “overperformer” maqomini tasdiqlovchi empirik dalil. Shu bilan birga, Estoniya va Koreya bilan solishtirganda, Markaziy Osiyo davlatlari innovatsiyaning iqtisodiy samarasi — yuqori texnologiyali eksport, xalqaro patent, xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya jalb etish — bo‘yicha sezilarli farqga ega. Aynan shu farqni bartaraf etish — ya’ni innovatsion “kirish” ko‘rsatkichlari afzalligini “chiqish” natijalariga aylantirish — keyingi bo‘limda muhokama qilinadigan strategik tavsiyalarning asosiy maqsadi hisoblanadi.

**10. Strategik tavsiyalar**

GII 2025 tahlili asosida Markaziy Osiyo davlatlari uchun quyidagi strategik tavsiyalar ishlab chiqildi:

**Birinchidan,**

innovatsiya «output» ko‘rsatkichlarini kuchaytirish ustuvor yo‘nalish bo‘lishi lozim. O‘zbekiston va Qozog‘iston kirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha yaxshi natijalar ko‘rsatayotgan bo‘lsada, chiqish ko‘rsatkichlari – patentlar, yuqori texnologik eksport, ijodiy tovarlar – hali ham past. Bu «innovatsion paradoks»ni bartaraf etish uchun oliy o‘quv yurtlari va sanoat o‘rtasidagi texnologiyalar transferi mexanizmlarini institutsional jihatdan mustahkamlash zarur.[1]

**Ikkinchidan,**

GII 2025 global tendentsiyasi doirasida innovatsion investitsiyalar o‘sishining sekinlashuviga qarshi mintaqaviy miqyosda chora ko‘rish muhimdir. Venchur kapital bozorini rivojlantirish, «biznes-farishta» investitsiyalarini soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirish va mintaqaviy innovatsion fond yaratish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish kerak.

**Uchinchidan,**

Qirg‘izistonning ta’lim xarajatlari bo‘yicha 5-o‘rini va past karbonli energiya bo‘yicha 14-o‘rini «yashil innovatsiya» ixtisoslashuvini shakllantirish uchun asos bo‘lishi mumkin. Mintaqaning gidroenergetika potentsiali va ta’lim tizimining

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi UP-158-sonli Farmoni. O‘zbekiston-2030 Strategiyasi. Toshkent.

nisbatan rivojlanishi bu ikkala ustunni «yashil texnologiyalar» eksporti bilan birlashtiruvchi innovatsion klaster shakllantirishga imkon beradi.

**To‘rtinchidan,**

Turkmaniston uchun eng dolzarb masala xalqaro statistik shaffoflikni ta’minlash va GII ga qo‘shilishdir. GII ishtirokchisi bo‘lish nafaqat xalqaro e’tiborni jalb etadi, balki siyosatchilarni innovatsion tizimni o‘lchash va takomillashtirish uchun tizimli ma’lumot bilan ta’minlaydi.

**Beshinchidan,**

Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi birinchi bor Lotin Amerikasini ortda qoldirgandan foydalanib, mintaqaviy innovatsion hamkorlikni – texnologiyalar transferi, qo‘shma ilmiy dasturlar va innovatsion malaka oshirish – kuchaytirish strategik imkoniyat sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

**11. Xulosa**

GII 2025 natijalari Markaziy Osiyo mintaqasi innovatsion rivojlanishda tarixiy yutuqlarga erishayotganini tasdiqladi. O‘zbekistonning ilk bor Top-80 ga kirishi (79-o‘rin), Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasining Lotin Amerikasini ortda qoldirishi va Qirg‘izistonning 96-o‘ringa ko‘tarilishi – bularning barchasi mintaqaning 2013 yildagi holatidan tubdan farq qiladigan innovatsion ekotizim shakllanayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston to‘rtinchi yil ketma-ket overperformer maqomini saqlab, 2013 yildagi 133-o‘rindan 2025-yilda 79-o‘ringa ko‘tarilish orqali 54 ta pog‘ona ko‘tarildi.

Biroq global innovatsion investitsiyalar o‘sishining sekinlashuvi (2024-yilda 2,9 foiz, 2025-yil uchun bashorat 2,3 foiz) va korporativ R&D xarajatlarining real ifodasida 1 foizga o‘sganligi kelajakda mintaqaning innovatsion tizimlarini moliyalashtirish uchun yangi manbalar va mexanizmlar izlashini taqozo etadi.

O‘zbekiston 2030-yilga borib GII Top-60 ga kirishni maqsad qilgan. GII 2025 natijalari ushbu maqsadning amalga oshirish imkoniyatini tasdiqlaydi. Buning uchun mavjud kuchli tomonlar — xususan, mehnat unumdorligi, ta’limga sarflanayotgan xarajatlar va biznes muhiti — saqlab qolingan holda, zaif tomonlar — jumladan, patent faolligi, venchur kapital jalb etish va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti — bo‘yicha maqsadli siyosiy choralar amalga oshirilishi zarur.

Shuningdek, GII 2025 ning “Innovatsiyalar chorrahada” (Innovation at a Crossroads) mavzusi Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham to‘g‘ri: mintaqa innovatsion rivojlanishning to‘g‘ri yo‘liga kirgan, biroq hali bosib o‘tilishi zarur bo‘lgan uzoq yo‘l oldida turibdi.

# O‘ZBEKISTONNING AFG‘ONISTONGA NISBATAN GEOIQTISODIY TASHABBUSLARI:BARQARORLIKNI TA’MINLASH MEXANIZMLARI SIFATIDA

***ABDURASULOV JAVLON***
*O‘qituvchi, JIDU*
*ORCID 0009-0006-1553-1471*

***Aabstrakt.*** *Mazkur maqolada XXI asr boshlarida Afg‘onistonda yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyat sharoitida O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy tashabbuslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Afg‘onistonga nisbatan O‘zbekiston tashqi siyosatida shakllanayotgan yangi yondashuvlar, xususan, transport-kommunikatsiya, savdo-logistika va energetika sohalaridagi hamkorlik loyihalari kompleks o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi asosida yoritib beriladi. Hayraton–Mozori Sharif temir yo‘li, “Termiz–Mozori Sharif–Kobul–Peshovar” Transafg‘on temir yo‘l loyihasi, “Surxon–Puli Xumri” elektr uzatish liniyasi hamda Termiz xalqaro savdo markazi misolida infratuzilmaviy hamkorlikning mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy integratsiyaga ta’siri baholanadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston tashabbuslari Afg‘onistonni xavfsizlikka tahdid manbai sifatida emas, balki Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi geoiqtisodiy imkoniyatlar makoni sifatida shakllantirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *O‘zbekiston tashqi siyosati, Afg‘oniston, transport koridorlari, kompleks o‘zaro bog‘liqlik, infratuzilma, mintaqaviy integratsiya.*

***Abstract.*** *This article analyzes Uzbekistan’s foreign economic initiatives in the context of the complex political situation that emerged in Afghanistan at the beginning of the 21st century. The study examines new approaches forming in Uzbekistan’s foreign policy toward Afghanistan, particularly in the fields of transport and communications, trade and logistics, and energy cooperation, based on the theory of complex interdependence. The impact of infrastructural cooperation on regional stability and economic integration is assessed through the examples of the Hairatan–Mazar-i-Sharif railway, the “Termez–Mazar-i-Sharif–Kabul–Peshawar” Trans-Afghan railway project, the “Surkhan–Puli Khumri” power transmission line, and the Termez International Trade Center. The findings demonstrate that Uzbekistan’s initiatives contribute to transforming Afghanistan not as a source of security threats, but as a geo-economic space connecting Central and South Asia.*

***Keywords:*** *Uzbekistan’s foreign policy, Afghanistan, transport corridors, complex interdependence, infrastructure, regional integration.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются внешнеэкономические инициативы Узбекистана в условиях сложной политической ситуации, сложившейся в Афганистане в начале XXI века. В исследовании раскрываются новые подходы, формирующиеся во внешней политике Узбекистана по отношению к Афганистану, в частности в сферах транспортно-коммуникационного взаимодействия, торгово-логистических связей и энергетического сотрудничества на основе теории комплексной взаимозависимости. На примере железной дороги Хайратон–Мазари-Шариф, проекта Транс-афганской железной дороги «Термез–Мазари-Шариф–Кабул–*

*Пешавар», линии электропередачи «Сурхон–Пули-Хумри», а также Международного торгового центра в Термезе оценивается влияние инфраструктурного сотрудничества на региональную стабильность и экономическую интеграцию. Результаты исследования показывают, что инициативы Узбекистана способствуют формированию Афганистана не как источника угроз безопасности, а как геоэкономического пространства, соединяющего Центральную и Южную Азию.*

***Ключевые слова:*** *внешняя политика Узбекистана, Афганистан, транспортные коридоры, комплексная взаимозависимость, инфраструктура, региональная интеграция.*

**Kirish.** XXI asr boshlarida Afg'onistonda yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyat mintaqaviy va xalqaro tinchlik hamda xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi eng dolzarb masalalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Xususan, keskin global raqobat sharoitida O'zbekiston tashqi siyosatining dastlabki bosqichlaridanoq dunyo hamjamiyatining e'tiborini Afg'oniston masalasiga qaratishga intilib, "Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo xavfsizligi uchun muhim omil" ekanini xalqaro maydonda isbotlashga harakat qilib kelmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlarning holati va istiqbollari soha tadqiqotchilari uchun dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Shu bilan birga, so'nggi yillarda yetakchi siyosatshunoslar orasida Afg'onistonga endilikda mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka tahdid manbasi sifatida emas, balki Markaziy va Janubiy Osiyo rivojlanishida muhim imkoniyatlar yaratadigan omil sifatida qarash tendensiyasi keng tarqalayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda mavjud muammolarni samarali hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari yirik xalqaro anjumanlarda faol muhokama qilinmoqda. Ushbu maqsadlarda O'zbekiston afg'on zaminida bir qancha infratuzilmalarni yaxshilashga qaratilgan loyihalarni bir necha yildan beri amalga oshirishga harakat qilinmoqda.

Robert Keoxeyn hozirgi globallashuv sharoitida kompleks o'zaro bog'liqlik nazariyasi O'zbekiston tashqi siyosatida amaliy namoyon bo'lmoqda deb ayta olishimiz mumkin. Davlat rahbarlarimizning tashabusslari bilan afg'on diyoridagi transport koridorlar loyihalarini ishga tushirish ushbu nazariyaga tayanib tushuntirib berish qulay bo'ladi. Xalqaro munosabatlarda davlatlar keskinlikka emas, balki bir-biriga daxldorlik, o'zaro ishonch va o'zaro manfaat aloqalariga asoslanishi ko'zda tutilgan. Bu nazariyani globalizm sharoitida davlatlar orasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy aloqalarni tushunish uchun ishlatdilar. Bu nazariyaga ko'ra:

- Davlatlar bir-biridan turli jihatlarda (savdo, transport, energetika, infratuzilma) bog'liq bo'ladi;
- Bog'liqlik oshganda, konflikt ehtimoli kamayadi, chunki har bir tomon uchun ziyon yetishi ehtimoli ortadi;

- Diplomatik va institutlararo hamkorlar muhim ahamiyatga ega, chunki nizolarni hal qilishda ular oraliq vosita bo‘ladi[1].

Ikki davlat o‘rtasidagi infratuzilmaviy loyihalar aynan shunday o‘zaro bog‘liqlikni chuqurlashtiruvchi vositalardan biridir. Ular iqtisodiy almashinuvni osonlashtiradi, transport xarajatlarini pasaytiradi, hududiy integratsiyani kuchaytiradi va barqarorlik uchun platforma yaratadi.

**Transport komunikastsiya sohasidagi hamkorlik**. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish» nomli 91-maqsadida “Afg‘oniston bilan ko‘p qirrali va o‘zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, uning iqtisodiy tiklanishiga yaqindan ko‘maklashish, transport-tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarishga hissa qo‘shish” vazifasi alohida belgilangani ayni muddaodir[2]. Shu bilan birga PF-60 2022-yil “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan MO mintaqasida barqarorlik va afg‘on muammosini hal etish bo‘yicha vazifalarni doirasida 82-maqsadida “Dunyo hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e’tiborini Afg‘onistonda tinchlik va hamjihatlikni ta’minlashga jalb qilish borasidagi tashabbuslarni jadallashtirish va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga, shu jumladan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilish” Afg‘onistonda barqarorlikni ta’minlashda ayni muddao bo‘ladi. 2025-yil 9-oktabr kuni Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo — Rossiya” sammitida O‘zbekiston rahbari mamlakatlar tranzit-transport salohiyatidan, eng avvalo, “Shimol — Janub” yo‘lagi doirasida samarali foydalanish g‘oyat muhim ekanini ta’kidlagani[3], transport yo‘laklarining mintaqaviy barqarorlikda muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi. Bu, albatta, institutsional liberalizm hamda kompleks o‘zaro bog‘liqlik nazariyalariga mos tushishi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

**Hayraton – Mozori Sharif temir yo‘li loyihasi**. Ushbu temir yo‘lning uzunligi 75 km bo‘lib, umumiy qiymati 129 million AQSh dollarini tashkil etdi[4]. Temir yo‘l kengligi 1,520 mm bo‘lib, u sovet standarti bo‘yicha qurilgan. Ushbu o‘lcham

[1] “Об интеграции и комплексной взаимозависимости о взаимопроникновении внутренней и международной политики” сидоров Сергей Александрович DOI 10.47643/1815-1337_2023_4_103 file:///C:/Users/CICAdmin/Downloads/ob-integratsii-i-kompleksnoy-vzaimozavisimosti-i-vzaimoproniknovenii-vnutrenney-i-mezhdunarodnoy-politiki.pdf

[2] 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

[3] Mintaqaviy xavfsizlik, savdo va energetika. Shavkat Mirziyoyevning “MO- Rossiya” sammitidagi nutqi 2025-yil oktabr https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/09/summit/

[4] “21st International Exhibition Transport and Logistics – TransLogistica Uzbekistan 2025” https://trans.uz/en/news/uzbekistan-railways-completes-restoration-of-hairatan-naibabad-mazar-i-sharif-railway-line-in-afghanistan?utm_source=chatgpt.com 11 — 13 November 2025 trans.uz

O‘zbekiston uchun ham imkoniyat va noqulaylik tug‘dirishi mumkin. Qulay tomoni shuki, MDH mamlakatlari bilan savdo-sotiqni arzon narxlarda amalga oshirish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, ushbu yo‘l kengaytirilsa, Eron standartlariga (1 435 mm) mos kelmasligi yuk tashishdagi xarajatlarning oshishiga olib keladi.

Loyiha qurilishi 2010-yillarda Osiyo Taraqqiyot Banki mablag‘larini jalb qilgan holda amalaga oshirilgan. Hozirgi kunda ushbu loyiha yordamida bir oylik o‘rtacha daromad (yuk tashishdan keladigan) $2,5-4 million atrofida bo‘lsa,[1] bugungi kunda 1 200 yaqin odamlar ish bilan ta’minlangan.

Ushbu yo‘l xalqaro yuk tashish hajmini (yiliga taxminan 3 million tonna) oshirishning muhim omiliga aylandi. Kelajakda umumiy uzunligi 2 ming km bo‘lgan “Mozori Sharif — Kobul — Qandahor — Hirot” yo‘nalishida temir yo‘l qurilishi va uni Mozori Sharifga qayta ulash rejalashtirilgan edi. Ushbu loyiha Yevropadan Hindiston, Xitoy, Eron va Pokistonga chiqish imkonini beradigan Trans-afg‘on avtomobil transporti koridorining temir yo‘l analogini yaratishga imkon bergan bo‘lardi. Loyiha qiymati taxminan 3 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Afg‘oniston iqtisodiyoti o‘sishini va ayniqsa, mamlakat ichidagi sanoat ishlab chiqarishini sekinlashtirayotgan asosiy muammolardan biri infratuzilmaning – transport kommunikatsiyalari, transchegaraviy suv resurslarni boshqarishda umumiy qoidalarning mavjud emasligi[2] va energiya ta’minoti tarmoqlarining yetishmasligidir. Shu nuqtai nazardan, Afg‘oniston hududi orqali temir yo‘l qurilishi loyihasi muhim ahamiyat kasb etdi. Afg‘onistonlik mahalliy ekspertlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarga ko‘ra, Afg‘oniston dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan tog‘li mamlakat bo‘lib, uzoq yillar davomida savdo va sayohatlar uchun asosan avtomobil transportiga tayanib kelgan. Biroq so‘nggi yillarda temir yo‘l tarmog‘ini keng miqyosda rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlar mamlakatning transport infratuzilmasini tubdan o‘zgartirish, savdo aloqalarini kuchaytirish va mintaqaviy integratsiyani oshirishga xizmat qilmoqda[3]. Qo‘shni davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ko‘magida amalga oshirilayotgan Afg‘oniston temir yo‘lini rivojlantirish loyihasi mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish hamda uzoq muddatli o‘sish imkoniyatlarini yaratish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Tahlillarimizga ko‘ra, O‘zbekiston va Afg‘oniston tomonlari bunday

[1] “ARA to Manage Hairatan-Mazar Railway” https://tolonews.com/business-177599?utm_source 16.04.2022 Tol news

[2] Abdurasulov J. A. The Role of Water Resources in Geopolitical Processes in Central Asia //World esonomy and international relations. – 2025. – T. 69. – №. 12. – C. 102-108. https://www.imemo.ru/en/publications/periodical/meimo/archive/2025/12-t-69/at-post-soviet-space/the-role-of-water-resources-in-geopolitical-processes-in-central-asia

[3] “Afghanistan’s Railway Development: A Path to Economic Integration and Growth” 18.10.2025 https://www.alemarahenglish.af/afghanistans-railway-development-a-path-to-economic-integration-and-growth/

loyihalarni amalga oshirishdan birdek manfaatdor. Eng asosiy kun tartibidagi masala Afg‘onistonda barqarorlik o‘rnatilishi hamda barqaror hukumat shakllanishidir.

**- “Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar” temir yo‘li**. Ushbu loyiha taxminan 4-6 milliard AQSH dollar atrofida baholangan. O‘zbekiston, Afg‘oniston va Pokiston hududlarini bog‘laydigan temir yo‘l koridori. Loyiha Termizdan boshlanib, Mozori-Sharif, Kobul orqali Pokistonda Peshavargacha bo‘lgan masofani ichiga oladi. 2021-yilda O‘zbekiston, Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasida ushbu liniyani rejalashtirish hamda qurish bo‘yicha shartnomalar tuzilgan. Loyiha uzunligi taxminan 573 km bo‘lishi rejalashtirilgan. Qurilish ishlar 2027–2030 yillar orasida yakunlanishi rejalashtirilmoqda. Afg‘oniston yo‘llaridan o‘tadigan hududlarda xavfsizlik va siyosiy barqarorlik muammolari katta muammo. Ushbu vaziyatga qaramasdan O‘zbekiston tomonidan Afg‘onistonni qayta tiklash dasturi doirasida “Mozori Sharif – Kobul” yo‘nalishida 11 ta ko‘prik qurildi.

Xususan, Suhrob Bo‘ronov transport koridorlari haqida “O‘zbekiston eng yaqin bandargohlarga chiqishida Afg‘oniston muhim o‘rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan Trans-afg‘on transport yo‘lagi (Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar) strategik jihatdan dolzarb loyiha hisoblanadi. Mazkur tashabbus gumanitar inqirozni boshdan kechirayotgan afg‘on xalqiga qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish barobarida Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lab, tarixiy savdo aloqalarini tiklashga imkon yaratadi”[1]. Jumladan, bu borada Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyada temir yo‘l tarmog‘i mintaqalarimiz o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik arxitekturasining asosiy bo‘g‘iniga aylanishiga ishonch bildirgan edi[2]. Bizga o‘zbek siyosiy maktab vakillari hamda davlatimizning yuqori lavozim vakillarining qarashlari bir xil ekanligi ilmiy xulosalar asosida hamohang qarorlar qabul qilinayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Aripov Eldor transchegaraviy loyihalarning Afg‘onistondagi barqarorlikdagi ro‘lini baholar ekan u “Afg‘oniston, Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi halqa sifatida, endilikda navbatdagi harbiy to‘qnashuvlar maydoni emas, balki o‘zaro manfaatli mintaqalararo hamkorlik timsoliga aylanmoqda. “Mo‘zarisharif – Peshovar” temiryo‘lining ishga tushirilishi Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari uchun inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydigan kuchli platforma yaratadi”[3]. Fikrimizcha, loyiha ijtimoiy-iqtisodiy ko‘paytiruvchi

[1] Bo‘ronov S. “Transafg‘on transport yo‘lagi Markaziy va Janubiy Osiyo tarixiy savdo aloqalarini tiklaydi” 2025 p

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. 16- iyul 2021y. https://president.uz/uz/lists/view/4484

[3] “Мазари-Шариф – Пешавар”: коридор в новое будущее Централной и Yижной Азии. -С.1-4. https://isrs.uz/ru/page/pdf/mazari-sarif-pesavar-koridor-v-novoe-budusee-centralnoj-i-uznoj-azii

ta’sirga ega bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, yo‘l bo‘yi infratuzilmaning qurilishi va temiryo‘l yo‘nalishi bo‘ylab boy foydali qazilma zaxiralarini o‘zlashtirish uchun sharoitlar yaratilishiga olib keladi. Faqatgina temiryo‘lning o‘zi qurilishida 264 ta ko‘prik, 7 ta tonnel, 641 ta suv o‘tkazuvchi inshoot barpo etilishi rejalashtirilgan. Infrastrukturaviy loyihalarda O‘zbekiston ishtirok etishi ikki mamlakat o‘rtasidagi taxminiy xavflarni iqtisodiy imkoniyatlarga aylanishiga olib keladi.

Shuni aytish joizki, Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilish hamda yangilangan tashqi siyosiy yondashuvlar borasida O‘zbekiston Oliy Majlisi Senati raisining birinchi o‘rinbosari va JIDU rektori Sodiq Safoyevning fikricha, “Markaziy Osiyodagi geosiyosiy va geoiqtisodiy sharoit batamom o‘zgaradi. Bu holatda Trans-afg‘on yo‘lagi ochilishi va O‘zbekiston uchun eng yaqin dengiz portiga hozirgiday 22 kunda emas, 2-3 kun muddatlarda yetish imkoni paydo bo‘ladi”. Shu jumladan, Safoevning BMT tadqiqotlariga tayanib aytishicha, “quruqlik va havo orqali yuk tashish xarajatlari yuqori bo‘lgani uchun O‘zbekistonning import-eksport amaliyotlarining o‘rtacha narxi 15-20%, ba’zi hollarda esa 70 foizgacha oshadi”. [1] Ma’lumki, O‘zbekiston dengizga chiqishi uchun kamida ikkita davlat hududidan o‘tishi kerak bo‘lgan dunyodagi ikki davlatdan bittasidir. Afg‘onistonda barqarorlikning ta’minlanishi arzon dengiz yo‘llaridan kamida 3 ming km. uzoqlikda joylashgan O‘zbekistonga katta miqdordagi mablag‘ni tejash va tashqi savdoni rivojlantirish imkonini beradi. Demak, bizga katta iqtisodiy manfaat keltiradigan hududda tinchlikni o‘rnatishga hissa qo‘shish biz qo‘shnilarning ham asosiy qo‘shnilik burchimizdir.

**Iqtisodiy komunikatsiya hamkorlik.** 2024-yil 13-may kuni “Termiz xalqaro savdo Markazi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-176-sonli qaroriga muvofiq 2024- yilning avgust oyida savdo markazi rasman ochildi. Ushbu qarorga muvofiq, O‘zbekistonga kirish vizasini rasmiylashtirmasdan, chegara va bojxona nazoratidan o‘tgan holda maxsus yo‘lak orqali kirishi (chiqishi) hamda 15 kun davomida markaz hududida bo‘lishi tartibi joriy etiladi. U yerda tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar, jumladan, 15 kunlik vizasiz tartib va soliqdan ozod hudud maqomi mavjud, erkin savdo zonasida ulgurji va chakana savdo uchun to‘lov sifatida AQSH dollari, yevro, Rossiya rubli va yuan valyutalarini qabul qilishga ruxsat berildi [2] . Mazkur markazning yillik savdo aylanmasi $1,2 milliardga yetishi kutilmoqda.

O‘zbekiston yuk tashuvchilari uchun Afg‘onistonda undiriladigan yig‘im miqdori kamaytirildi. Qayd etilishicha, o‘zbek haydovchilaridan mamlakat hududida undiriladigan yig‘imlar 6 500 Afg‘oni miqdorida ( taxminan 99 dollar) kamaytirildi.

[1] Safoyev S. “Afg‘onistonda gumanitar inqirozning oldini olish” Toshkent 2021 -B. 3

[2] 2024-yil 13-may kuni “Termiz Termiz Xalqaro Savdo Markazi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-176-sonli qarori https://www.lex.uz/docs/-6921771

Jumladan, Amudaryo ko‘prigidan o‘tish uchun avval 12 000 Afg‘oni (taxminan 182 dollar) miqdorida undiriladigan yig‘im 2024-yilning 28-sentabrdan 7 000 Afg‘oni (taxminan 106 dollar) etib belgilandi. Afg‘onistonga yuk avtotransport vositasini kirishi uchun avval 5 000 Afg‘oni (taxminan 76 dollar) miqdorida undiriladigan yig‘im esa 3 500 afg‘oni (taxminan 53 dollar) etib belgilandi. Afg‘oniston Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi mintaqaviy aloqa tarmog‘ining muhim bo‘g‘inidir. So‘nggi yillarda Afg‘oniston hududi orqali yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu borada JIDU professori Xasanov U. Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish nafaqat ushbu mamlakat balki butun Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo uchun hayotiy zaruratdir[1]. Barqaror va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Afg‘oniston – bu mintaqaviy hamkorlik, savdo va transport koridorlari rivojlanishi, umumiy xavfsizlik va farovonlik garovidir degan firklarni bildirgan[2]. 2023-yilda “O‘zbekiston–Afg‘oniston–Pokiston” multimodal transport yo‘lagi bo‘ylab yuk tashish hajmi 2021-yilga nisbatan 1,5 barobarga ko‘paydi. Afg‘onshunos Suhrob Bo‘ronov O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va transport munosabatlaridagi yangi yondashuvlarning hayotga tatbiq etilishi sezilarli o‘zgarishlarni boshlab berganiga ishora qilgandi[3]. Amaliy jihatlari ko‘plab jabhalarda namoyon bo‘lmoqda hamda keltirilgan statistik ma’lumotlarni nazariy dalillanganidan dalolat beradi.

Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekiston va Afg‘oniston chegarasida qurilgan Xalqaro savdo markazi mintaqadagi geosiyosiy barqarorlikni ta’minlashga beqiyos xizmat qilib kelmoqda hamda savdo sotiq va transport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyo geosiyosiy va geoiqtisodiy rivojlanishida transport-logistik koridorlarning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu yo‘laklar orqali yuk tashish hajmining o‘sishi hamda zarur infrastrukturalarning yaratilishi Markaziy Osiyoni geostrategik markazga aylantirishga xizmat qilmoqda. Fikrimizcha, mintaqa barqarorligini ta’minlashi ichki va tashqi investitsiyani jalb qilinishga erishilishi bevosita geosiyosiy muammolarni o‘z-o‘zidan yechim topishiga olib keladi. Investitsiya qilgan davlatlar ushbu hududda geosiyosiy keskinliklarni yuz berishdan manfaatdor emas aksincha, barqarorlik va iqtisodiy integratsiya tarafdor bo‘lishi diqqatga sazovordir

2024-yil 7-avgust kuni “Xayraton–Naybobod–Mazori Sharif” temir yo‘li qayta tiklangan liniyasining faoliyati tiklanishi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni

[1] Murtozayev, S. (2025). ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL AND GOVERNANCE) TAMOYILLARINING IQTISODIY RIVOJLANISH VA KORPORATIV FAOLIYATGA TA’SIRI: MAKRO VA MIKRO DARAJADAGI TAHLIL. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 3(12).

[2] Khasanov U., Gafarov I. Changing specifics of the regional development. UWED: International Affairs, Vol 7-8. 2023. -P. 33-34.

[3] Бўронов С. “Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёнларида Ўзбекистон геосиёсати” 2021 -Б.54. Буронов_С_афгонистонда _тинчлик_ва_баркарорлик_урнатиш_ жараёнларида (5).пдф

yanada mustahkamladi. Ushbu ishlar “O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyasi tomonidan Afg‘on temir yo‘l boshqarmasi bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshirildi. 75 km uzunlikdagi “Xayraton–Mazori Sharif” temir yo‘lining bir qismi bo‘lgan Naybobod stansiyasi mintaqadagi muhim logistika markazidir. Ushbu yo‘l dastlab 2010-yilda “O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyasi tomonidan savdo aloqalarini rivojlantirish maqsadida qurilgan. Birgina, 2024-yilning avgust oyida Tomonlar o‘zbekistonlik mutaxassislar tomonidan 100 nafar afg‘on temiryo‘lchilarini o‘qitish va 500 afg‘on talabalarini grant asosida qabul qilish bo‘yicha kelishib olishgani hamkorlikni kengayayotganidan dalolat beradi.

**Energetika sohasidagi hamkorliklar.** “Surxon-Puli Xumri” elektr uzatish liniyasi. Loyiha bo‘yicha elektr uzatish liniyasining umumiy uzunligi 245,6 km ni tashkil etadi. Shundan 45 km O‘zbekiston hududiga, 200,6 km esa Afg‘oniston hududiga to‘g‘ri keladi. Ushbu loyihaning 2022-yilning iyul oyida Afg‘oniston hududidagi qiymati 100,1 million AQSH dollarga baholangan edi. Hozirgi kunga kelib O‘zbekiston Afg‘onistonni 25% elektr energiya bo‘lgan ehtiyojini qoplab kelmoqda.

2024-yilning 17-dekabrda Afg‘oniston milliy elektr kompaniyasi bosh direktori vazifasini bajaruvchi Abdul Bari Umar va “O‘zenergosotish” kompaniyasi boshqaruvi raisi Jahongir Obidjonov Afg‘onistonga energiya yetkazib berishni 2025-yil oxirigacha uzaytirish to‘g‘risidagi bitimni imzoladi. Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Afg‘onitonga elektr energiyani “Surxon–Puli Xumri” elektr uzatish liniyasi orqali uzatib beriladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, ayni paytda Afg‘onistonning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojining qariyb 75 % qo‘shni davlatlar hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Yetakchi iqtisodiy sohadagi energiya ta’minotchilari biri O‘zbekiston bo‘lib, Afg‘oniston iqtisodiy barqarorligini o‘rnatishda muhim ro‘l o‘ynab kelmoqda.

2025 yilning 17-avgust kuni Afg‘onistonning Da Afghanistan Breshna Sherkat (DABS) energetika kompaniyasi va O‘zbekiston elektr ta’minoti sohasida to‘rtta loyiha bo‘yicha shartnoma imzoladi. Ushbu loyihalar doirasida:

- Quvvati 1000 MVt bo‘lgan 500 kV kuchlanishli Surxon -Dashti-Alvan elektr uzatish tarmog‘ini quriladi;
- Quvvati 800 MVA (Magavatt amper) bo‘lgan “Argandi” podstansiyasini kengaytiriladi;
- 220 kV kuchlanishli, quvvati 800 MVt bo‘lgan Kobul -Shayx-Masri elektr uzatish tarmog‘i;
- Nangarhorda quvvati 126 MVA bo‘lgan Shayx-Mesri podstansiyasini quriladi.

O‘zbekiston 18 oy ichida yakunlanishi rejalashtirilgan to‘rtta loyihaga $243 mln sarmoya kiritadi. Bu orqali Afg‘oniston O‘zbekistondan 800−1000 MVtgacha elektr energiyasini import qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi[1].

[1] “Contracts for Four Power Projects Worth USD 243 Million Signed with Uzbekistan” 17.10.2025 https://dpmea.gov.af/index.php/1404-English-News-81

2025-yilning yilning 6–7 sentyabr kunlari Kobul shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti (ISRS) delegatsiyasi, birinchi direktor o‘rinbosari Akramjon Ne’matov rahbarligida, Afg‘onistonda “Investitsiyalarni jalb qilish va elektr energetikasi sohasini qo‘llab-quvvatlash” mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etdi.

Tadbirda so‘zga chiqqan Afg‘oniston hukumati iqtisodiy masalalar bo‘yicha bosh vazir o‘rinbosari Abdul G‘ani Barodar, energetika mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tarmog‘i ekanini ta’kidladi. U, ayniqsa, “mamlakatda gidroenergetika, shamol va quyosh energiyasi bo‘yicha katta salohiyat mavjud, ushbu resurslardan samarali foydalanish Afg‘onistonni elektr energiyasi bilan to‘liq ta’minlash va eksportchi davlatga aylantirish imkonini beradi”, deya qayd etdi[1]. Bizningcha, O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi energetika hamkorligi ikki davlat o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligini mustahkamlovchi eng muhim yo‘nalishlardan biridir. “Surxon–Puli Xumri” elektr uzatish liniyasi va yangi to‘rtta loyiha (Surxon–Dashti-Alvan, Argandi, Kobul–Shayx-Masri, Shayx-Mesri) bu yo‘nalishda strategik ahamiyatga ega. Ushbu loyihalar Afg‘onistonning energiya taqchilligini kamaytirib, uning iqtisodiy tiklanishiga xizmat qilmoqda.

Enegetika sohasidagi yana bir yirik hamkorliklardan biri “Tuti-Maydon” tabiiy gaz konini o‘zlashtirish bo‘yicha 1 mlrd AQSH dollar qiymatdagi 10-yilga mo‘ljallangan investitsiya kiritilishi bo‘yicha muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlangani quvonarli holat bo‘ldi. 2024-yil 9-oktabr kuni O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasida Juzjon va Faryob viloyatlaridagi “Tuti-Maydon” gaz konini qidirish va qazib olish bo‘yicha 10 yil davomida 1 mlrd AQSH dollarlik sarmoya kiritishi belgilangan. Ikki davlatning turli sohalarda hamkorligi mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. Belgilab olingan rejalar Afg‘onistondagi vaziyatga qaramasdan asta-sekinlik bilan amalga oshirilishi o‘zbek diplomatiyasi tarixida yangi sahifalarni ochmoqda. O‘zbekiston Afg‘oniston Markaziy Osiyoda barqarorlikni saqlab turish bo‘yicha barcha o‘z imkoniyatlaridan foydalanmoqda hamda ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Siyosiy tahlilchi D. V. Kharitonovaga ko‘ra Tolibon iqtisodiy va energetik masalalarda inklyuziv yondashuvni ta’kidlagan bo‘lsa-da**,** siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishini muhokama qilishga tayyor emas. Afg‘oniston Islom Amirligi rahbariyati mamlakatning iqtisodiy va energetik rivojlanish masalalarida Shariat qonunlariga asoslanishni davom ettiradi**[2]**. Biz bu fikrga qo‘shila olmaymiz.

[1] “ISRS delegation took part in a conference in Afghanistan” https://isrs.uz/en/yangiliklar/delegacia-ismi-prinala-ucastie-v-konferencii-v-afganistane 08.09.2025

[2] Kharitonova D. V. “Afghanistan’s_energy_policy_after_the_taliban_returned_to_powerafghanistan’s energy policy after the taliban* returned to power” https://www.researchgate.net/publication/390619858_ aprel 2025

O‘zbekistonning faol va uzoqni o‘ylab yuritilayotgan tashqi siyosati Tolibon bilan murakkab sharoitlarda ham samarali muloqot o‘rnatish salohiyatiga ega ekanligini butun dunyoga isbotlab berdi. Tahlillarimizga ko‘ra, Afg‘onistonda barqarorlikni ta’minlash hamda diplomatik muloqotni rivojlantirish jarayonida O‘zbekiston mediatsiya davlatining rolini muvaffaqiyatli bajarmoqda, deb aytish mumkin.

Robert Keohane ta’kidlaganidek, institutsional liberalizmga ko‘ra, xalqaro hamkorlik davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaat, ishonch va institutlar orqali shakllanadi. O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi “Surxon–Puli Xumri” hamda “Tuti-Maydon” loyihalari aynan shunday institutsional hamkorlikning amaliy ifodasidir. Ushbu loyihalar siyosiy beqarorlik sharoitida ham o‘zaro manfaatga asoslangan holda, mintaqaviy energetik integratsiyani kuchaytiruvchi muhim mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Joseph Nayga ko‘ra “Energetika, transport va savdo kabi yumshoq kuch (soft power) omillari mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlovchi vositadir[1].” Tahlillarimizga ko‘ra, O‘zbekistonning Afg‘onistonga elektr energiyasi eksporti va investitsion loyihalarda faol ishtiroki mintaqaviy barqarorlikni yumshoq kuch va institutsional liberalizm uyg‘unligi asosida ta’minlash strategiyasi. Tangani ikkinchi tomoni bo‘lgani kabu ushbu loyihalarni amalga oshirishda xavfsizlilk masalasini ham chet qoldirib ketmaslik zarur deb hisoblaymiz. Neorealizim jihatdan esa O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan energetika sohasidagi faoliyati faqat iqtisodiy emas, balki strategik xavfsizlik siyosatining bir qismidir[2]. Elektr tarmoqlari va gaz loyihalari orqali Afg‘oniston ustidan iqtisodiy ta’sirni kuchaytirish, beqaror qo‘shni mamlakat ustidan barqarorlikni boshqarish imkonini beradi. John Mearsheimer esa shunday deydi: “Davlatlar iqtisodiy hamkorlikni ham o‘z nufuzini oshirish vositasi sifatida ko‘radi”[3]. O‘zbekistonning Afg‘onistondagi energetika loyihalari nafaqat savdo va investitsiya, balki geosiyosiy ta’sir doirasini kengaytirish vositasi deb hisoblashimizga imkon berishi mumkin.

**Gumanitar va ijtimoiy yo‘nalish.** O‘zbekiston iqtisodiy loyihalari doirasida ijtimoiy sohalarda bir qancha ishlar olib borilmoqda. Xususan, Mozori–Sharif shahrida o‘zbek mutaxassislari ishtirokida Imom Al-Buxoriy nomidagi madrasaning qurilishi 2024-yil boshlandi. 0,6 gektar maydonda barpo etilayotgan va 6 million AQSh dollariga teng bu loyiha Afg‘onistondagi eng yirik ta’lim muassasasiga aylanadi. Bu yerda islomiy merosni o‘rganish markazi ham faoliyat yuritadi. Afg‘onshunos Suhrob Bo‘ronov O‘zbekistonning Mozori Sharifda madrasa qurishi borasida o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, bir qancha muhim masalalarga e’tibor qaratdi. Siyosatshunos Suhrob Bo‘ronov qurilayotgan madrasa Afg‘onistonda islom dinining sof va ezgu mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish va targ‘ib etishda ulkan mayoq

[1] Jozef Nay “Soft Power: The Means to Success in World Politics”, 2004 -P.15-63.
[2] Ulug‘bek A. K., Gafarov I. CHANGING SPECIFICS OF THE REGIONAL DEVELOPMENT //International Affairs: Politics, Economics, Law. – T. 99. – №. 100. – C. 1-3.
[3] *Mearsheimer* Jhon *“The Tragedy of Great Power Politics”, 2001 -P.67-85.*

vazifasini bajarishini ta’kidlagan[1]. Afg‘oniston bo‘yicha mutaxassis Xaydarov Abdusamaad Afg‘onistondagi diniy omillar haqida to‘xtalar ekan O‘zbekiston rasmiylarining “Tolibon” harakati o‘rtasida muzokaralar jarayonida mazkur harakat rahbariyatining asosiy qismini nufuzli diniy arboblar tashkil etishi. Shubhasiz, diniy arboblar kelgusidagi Afg‘onlararo muzokaralarda hamda mamlakatning siyosiy jarayonlarida muhim ro‘l o‘ynashda davom etishlariga ishonch bildirgan[2]. Mazkur fikrlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz. Afg‘on diyorida madrasa qurilishi o‘sib borayotgan yosh avlodni yanada savodini oshirish, islom dinini niqob qilib terrorchilarga qo‘shilib ketayotgan afg‘on yoshlarni sonini sezilarli kamaytirishga xizmat qilishga ishonchimiz komil. Shu bilan bilan birga ikki tomonlama siyosiy muloqotlarni yanada samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## O‘ZBEKISTONNING AFG‘ONISTONGA NISBATAN GEOIQTISODIY TASHABBUSLARI SWOT TAHLILI

| **Strengths (Kuchli tomonlar)** | **Weaknesses (Zaif tomonlar)** | **Opportunities (Imkoniyatlar)** | **Threats (Tahdidlar)** |
|---|---|---|---|
| • Geoiqtisodiy diplomatiyaning izchil modeli.<br>• Transport, energetika va savdo integratsiyasi.<br>• Kompleks o‘zaro bog‘liqlik nazariyasining amaliy namoyoni.<br>• O‘zbekistonning mediatorlik salohiyati.<br>• Yumshoq kuch instrumentlarining qo‘llanilishi.<br>• Davlat strategiyalari bilan institutsional ta’minlangan. | • Loyihalar Afg‘oniston xavfsizligiga bog‘liq.<br>• Katta investitsiya talabi.<br>• Moliyalashtirishning tashqi manbalarga qaramligi.<br>• Ayrim texnik standartlar nomuvofiqligi.<br>• Siyosiy risklar yuqoriligi.<br>• Investitsiya qaytimi uzoq muddatli. | • Transafg‘on koridorining ishga tushishi.<br>• Dengiz portlariga qisqa chiqish.<br>• Mintaqaviy logistika xabiga aylanish.<br>• Energetika eksportini kengaytirish.<br>• Xalqaro investorlarni jalb qilish.<br>• Markaziy va Janubiy Osiyo integratsiyasini chuqurlashtirish. | • Terrorizm va ekstremizm xavfi.<br>• Siyosiy beqarorlik.<br>• Geosiyosiy raqobat.<br>• Xalqaro sanksiyalar.<br>• Moliyalashtirish uzilishi.<br>• Iqlim va infratuzilma xatarlari. |

[1] Bo‘ronov S. “Do‘stlaringni o‘zingga yaqin tut, dushmanlaringni yanada yaqinroq” 202s4

[2] Хайдаров А. Мусульманское духовенство vs. власть в современном Афганистане: взгляд из Узбекистана. Вестник РУДН. Серия: Международные отношения. 2020 Vol. 20 No. 4, -С. 747-762.

SWOT tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning Afg‘onistonga nisbatan geoiqtisodiy siyosati kompleks o‘zaro bog‘liqlik modeliga asoslangan bo‘lib, transport, energetika va savdo infratuzilmalari orqali iqtisodiy manfaatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini ta’minlaydi. Kuchli tomonlar va imkoniyatlar ustunligi mazkur strategiyaning uzoq muddatli istiqbolga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xavfsizlik, siyosiy barqarorlik va geosiyosiy raqobat bilan bog‘liq tahdidlar davlatning risklarni boshqarish siyosatini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi.

**Xulosa.** Tahlillarimizga ko’ra, ushu davr mobaynida Afg’oniston mojarosini hal qilish borasida O’zbekistonning pozitsiyasi dastlab ikki asosiy tamoyilga asoslangani bilan alohida ahamiyat kasb etad:

1. Harbiy harakatlar orqali mojaroni hal qilishning imkonsizligini tan olish;
2. Mojaroni tartibga solish va Afg‘onistonni qayta tiklash dasturida iqtisodiy komponentning ahamiyati va rolini oshirish.

Fikrimizcha, O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlar yangi imkoniyatlar davriga kirdi. Xususan, gumanitar yordam ko‘rsatish, elektr energiyasi bilan ta’minlash va Termiz orqali tranzit yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yish bunga misol bo‘la oladi. Shu bilan birga, bu davr ehtiyotkorlik bilan masofani saqlagan holda olib borilayotgan siyosat davri bo‘lib, tinchlik va xavfsizlik masalalari hanuz asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning Afg‘onistonga nisbatan olib borayotgan tashqi iqtisodiy tashabbuslari mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Transport-logistika, savdo va energetika yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan infratuzilmaviy loyihalar ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirib, konflikt ehtimolini kamaytirish va iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Kompleks o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, mazkur tashabbuslar O‘zbekiston tashqi siyosatining pragmatik va institutsional liberalizm tamoyillariga asoslanganini ko‘rsatadi. Afg‘onistonda barqarorlikning mustahkamlanishi nafaqat ushbu mamlakat, balki butun Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasining iqtisodiy rivoji va xavfsizligi uchun muhim omil hisoblanadi.

# Механизмы цифрового взаимодействия государственных органов с бизнес-сообществом в Узбекистане: на пути к “цифровому регуляторному диалогу”

***ФАРРУХ БЕКМИРЗАЕВ***
*Ведущий юрист, руководитель службы комплаенса, ТРЦ «Tashkent City Mall»*

***Abstract:*** *The article is devoted to the analysis of digital platforms for interaction between government agencies and the business community in Uzbekistan. In contrast to previous research focused on citizen e-participation, this study identifies the types of state-business digital engagement channels, evaluates their impact on the regulatory environment, and proposes a model of a “digital regulatory dialogue.” The relevance is underscored by Uzbekistan’s progress in improving its business climate (e.g., rising in the World Bank’s Doing Business rankings) and the growing use of e-government tools. However, a gap remains in understanding and systematizing specifically digital channels for regulatory consultation and service delivery to businesses. The paper presents a classification of such platforms, examines their usage and effectiveness, and develops an original multi-level cyclic model of “digital regulatory dialogue.” Key performance indicators are suggested to measure the effectiveness of these mechanisms in enhancing the business climate.*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola O‘zbekistonda davlat organlari va biznes-jamoatchilik o‘rtasidagi raqamli o‘zaro hamkorlik platformalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Fuqarolarning elektron ishtirokini o‘rganishga qaratilgan ilgarigi tadqiqotlardan farqli o‘laroq, ushbu tadqiqot davlat va biznes o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning raqamli kanallarini turlarga ajratish, ularning regulyativ muhitga ta’sirini baholash va “raqamli me’yoriy dialog” modelini taklif etishga qaratilgan. Uzbekistonning biznes-klimatini yaxshilash borasidagi yutuqlari (Jahon bankining Doing Business reytingida o‘rinning yaxshilanishi va boshqalar) hamda elektron hukumat vositalaridan foydalanishning ortib borayotgani mavzunung dolzarbligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, xususan biznes uchun mo‘ljallangan raqamli maslahatlashuv va xizmat ko‘rsatish kanallarini tizimlashtirishda bo‘shliq mavjud. Maqolada bunday platformalar klassifikatsiyasi keltirilgan, ulardan foydalanish holatlari va samaradorligi ko‘rib chiqilgan hamda “raqamli me’yoriy dialog”ning original ko‘p bosqichli siklik modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, biznes-klimatni yanada yaxshilashda ushbu mexanizmlar samaradorligini baholash uchun asosiy ko‘rsatkichlar taklif etilgan.*

***Аннотация:*** *Статья посвящена анализу цифровых платформ взаимодействия государственных органов с бизнес-сообществом в Узбекистане. В отличие от предыдущего исследования, ориентированного на цифровое участие граждан, в данной работе выявляются и систематизируются именно цифровые механизмы диалога государства с бизнесом, оценивается их влияние на регуляторную среду и предлагается оригинальная модель «цифрового регуляторного диалога». Актуальность темы обусловлена успешными реформами по улучшению бизнес-климата (Узбекистан вошел в число 20 стран-реформаторов по версии Doing Business 2020; внедряется новая методология World Bank B-READY, где страна показывает результаты выше среднего по ряду индикаторов). Отмечается, что при общем*

*сокращении бюрократических барьеров недостаточно изучены цифровые каналы консультаций и обратной связи с предпринимателями. В статье предлагается первая классификация таких платформ, включающая национальные порталы обсуждения нормативно-правовых актов, отраслевые электронные сервисы (налоговые, таможенные и др.), платформы ГЧП и цифровые ресурсы Бизнес-омбудсмена. Разработана многоуровневая циклическая модель «цифрового регуляторного диалога», включающая каналы, субъектов, процессы взаимодействия, аналитический блок и механизм обратной связи. Предложены показатели эффективности (количество онлайн-консультаций, доля учтенных предложений бизнеса, время получения электронных услуг и др.), применение которых позволит количественно оценивать влияние цифрового взаимодействия на деловую среду.*

***Ключевые слова:*** *цифровые платформы для бизнеса, электронное правительство, регуляторный диалог, бизнес-климат, государственно-частное партнёрство, Узбекистан, административные барьеры, «изнес-омбудсмен, цифровизация услуг, KPI эффективности.*

## 1.ВВЕДЕНИЕ

Последние годы характеризуются ускоренной цифровизацией государственного управления Узбекистана в целях улучшения делового климата и привлечения инвестиций. В международных рейтингах страна демонстрирует существенный прогресс: так, в отчете Всемирного банка «Doing Business 2020» Узбекистан поднялся на 69-е место, улучшив позицию с 76-го места в 2018 году. После прекращения программы Doing Business внедряется новая оценка **Business Ready (B-READY)**, где Узбекистан также достигает высоких результатов – по предварительным данным, страна попала в первую группу по операционной эффективности бизнеса (71,8 балла) и во вторую группу по качеству нормативной базы (69,5 балла) и уровню государственных услуг (65,1 балла). Опросы инвесторов, проведенные ОЭСР, подтверждают позитивные изменения: бизнес в целом оценивает деловой климат как благоприятный, особо отмечая упрощение регистрации и лицензирования предприятий. Это свидетельствует об эффективности проводимых реформ по дебюрократизации экономики.

Вместе с тем, исследовательский пробел заключается в недостаточном внимании к **цифровым каналам** взаимодействия государства с бизнесом. Большинство реформ направлено на снижение административных барьеров и улучшение показателей в регуляторной сфере (например, сокращение проверок, мораторий на инспекции и т.д.). Однако сами **механизмы цифрового диалога** – онлайн-платформы, на которых предприниматели могут взаимодействовать с органами власти – остаются малоизученными. Предыдущее наше исследование было посвящено электронным инструментам вовлечения граждан (например, портал обращения граждан, системы электронного голосования по общественным вопросам). Теперь же актуально

оценить, как государство в цифровой среде взаимодействует именно с представителями бизнеса в процессе разработки и реализации экономической политики.

Практическая значимость темы подтверждается несколькими факторами. Во-первых, международные организации переходят к оценке не только регуляторных норм *de jure*, но и фактической цифровизации государственных услуг для бизнеса. Во-вторых, сами предприниматели все активнее требуют прозрачности и удобства в диалоге с властью. Ежегодный прямой диалог Президента с предпринимателями выявляет тысячи обращений и предложений (свыше 33 тысяч за три года) и приводит к принятию более 150 инициатив по улучшению условий для бизнеса. Очевидно, что значительную часть таких обращений можно было бы более эффективно собрать и обработать через цифровые платформы.

Учитывая вышесказанное, целью данной статьи стало восполнение обозначенного пробела посредством системного исследования государственных цифровых платформ, ориентированных на бизнес-сообщество. Введение модели такого диалога и показателей его эффективности способно придать новый импульс реформам по улучшению бизнес-среды, повысить прозрачность и обоснованность регуляторных решений.

## 2.ЦЕЛЬ ИССЛЕДОВАНИЯ

**Целью исследования** является выявление и систематизация цифровых механизмов взаимодействия государственных органов с бизнес-сообществом в Республике Узбекистан, а также разработка на этой основе концептуальной модели **«цифрового регуляторного диалога»** и предложений по показателям (индикаторам) эффективности такого взаимодействия. В соответствии с поставленной целью в работе решаются следующие задачи:

(1) провести обзор нормативно-правовой базы и существующих электронных платформ, обеспечивающих коммуникацию государства и бизнеса;

(2) классифицировать данные цифровые платформы по их функциональному назначению; (3) проанализировать их влияние на регуляторную среду и деловой климат;

(4) сформулировать ключевые компоненты модели «цифрового регуляторного диалога»;

(5) разработать систему показателей для оценки эффективности каналов цифрового взаимодействия государства и предпринимателей.

Достижение указанной цели позволит определить, какие именно формы электронного взаимодействия наиболее востребованы бизнесом и эффективны с точки зрения улучшения качества регулирования. Это также создаст методическую основу для регулярного мониторинга прогресса в развитии

**«цифрового правительства 2.0»** – ориентированного не только на предоставление услуг, но и на интерактивный обмен информацией и обратную связь с ключевыми стейкхолдерами экономического развития.

## 3. МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Исследование основано на **комплексном подходе**, сочетающем правовой анализ, изучение статистики цифровых платформ и контент-анализ экспертных материалов. В первую очередь проанализирована **нормативно-правовая база**, регулирующая цифровое взаимодействие государства с бизнесом: Закон РУз «Об электронном правительстве» (2015) как правовая основа электронных госуслуг; Закон «Об Уполномоченном по защите прав предпринимателей (Бизнес-омбудсмене)» (2017), закрепляющий механизмы защиты интересов предпринимателей; Закон «О государственно-частном партнерстве» (2019) как фундамент для цифровых инструментов отбора и сопровождения ГЧП-проектов. Дополнительно учтены указы и постановления Президента и Правительства по цифровизации госуслуг и оптимизации регуляторных процедур, включая Указ Президента №УП-113 от 20.04.2022 о стратегии развития системы государственных услуг.

В рамках эмпирического блока использованы **статистические и функциональные данные** официальных порталов: **regulation.gov.uz** (обсуждение проектов НПА и обратная связь), **my.gov.uz** (услуги для предпринимателей, показатели доступности и качества), а также специализированные системы типа **Single Window** (внешнеторговые процедуры) и **invest.gov.uz** (инвестиционный портал). В качестве иллюстративных данных использованы сведения о том, что к 2022 году через центры и портал госуслуг оказано свыше **32 млн** услуг, а суммарные сроки предоставления ряда услуг сокращены с **787 до 471 дней** благодаря цифровизации и реинжинирингу процессов.

Дополнительно применён **контент-анализ** отчетов международных организаций и проектов (USAID, ЕБРР, Всемирный банк, ОЭСР), а также аналитики бизнес-ассоциаций. В частности, использован отчет ОЭСР (2023), отражающий оценку инвесторами реформ и указывающий на важность инвестиций в цифровую инфраструктуру и навыки. Экспертные материалы Торгово-промышленной палаты и отраслевых объединений привлекались для качественной оценки проблемных зон (в том числе ограниченной функциональности и недозагрузки отдельных порталов).

На основе собранной информации проведена **классификация цифровых платформ**, затем методом **структурно-логического моделирования** разработана модель «цифрового регуляторного диалога». Для обоснования системы показателей эффективности применён **сравнительный метод**: сопоставлены международные метрики результативности цифрового

взаимодействия (скорость процедур, доля онлайновых транзакций, индекс удовлетворенности пользователей и др.) и адаптированы к условиям Узбекистана с опорой на доступные данные.

## 4.КЛАССИФИКАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ ДЛЯ БИЗНЕСА

Исследование показало, что в Узбекистане сформировался комплекс разноплановых цифровых платформ, обеспечивающих взаимодействие государства и бизнеса. Для систематизации предлагается классифицировать их на четыре группы (A–D) по функциональному назначению и целевой аудитории.

**A. Национальные регуляторно-информационные платформы**

К данной категории относятся общенациональные порталы, предназначенные для информирования бизнеса о нормативно-правовых актах и вовлечения предпринимателей в публичные консультации при разработке регуляторных решений. Ключевой пример — портал общественного обсуждения проектов НПА **Regulation.gov.uz**, созданный Министерством юстиции. Первоначально функция обсуждения проектов НПА была реализована на Едином портале госуслуг (2015 г.), однако из-за высокой заинтересованности пользователей была выделена в отдельный ресурс. Платформа позволяет субъектам предпринимательства направлять предложения и замечания онлайн, тем самым участвуя в разработке нормативных актов. На раннем этапе на портале размещались десятки проектов, а в последующие годы активность существенно выросла: например, только за 2020 год на обсуждение выносились тысячи проектов НПА. Параллельно совершенствовалась функциональность (поиск, мобильная версия, статусы проектов, многофакторная авторизация). Существенно, что обсуждения стали оказывать влияние на регуляторные решения: отдельные инициативы корректировались или откладывались с учетом критики со стороны бизнеса. В целом Regulation.gov.uz выполняет роль цифрового канала «регуляторного краудсорсинга».

Другой национальный инструмент — раздел «Для предпринимателей» на **Едином портале интерактивных государственных услуг (my.gov.uz)**. Портал ориентирован на предоставление госуслуг и информации для всех категорий пользователей; бизнес-раздел включает сервисы по регистрации, получению справок, лицензированию, подаче электронных заявок и др. Интеграция услуг в формате «одного окна» снижает транзакционные издержки предпринимателей, однако потенциал расширения сохраняется: значительная часть процедур все еще распределена по ведомственным ресурсам или требует офлайн-действий. В этом контексте показателен опыт внедрения **Single Window** во внешнеэкономической деятельности: созданная в 2017 г. система «Единое окно» объединила несколько госорганов для выдачи экспортно-

импортных разрешений и позволила участникам ВЭД подавать единое электронное заявление, минимизируя дублирование документов и ускоряя процедуры.

К национальным информационно-консультативным ресурсам относится и **инвестиционный портал (invest.gov.uz)**, ориентированный на отечественных и иностранных инвесторов: база проектов, информация о льготах и механизмы подачи заявок. При этом эксперты отмечают, что потенциал ресурса реализован не полностью (недостаток сквозного сопровождения проектов и межведомственной координации). Тем не менее наличие портала отражает стремление государства развивать цифровой канал диалога с инвесторами и бизнесом на стратегическом уровне.

**B. Отраслевые (ведомственные) сервисные платформы**

Эта группа охватывает электронные сервисы отдельных министерств и ведомств, обеспечивающие контрольно-разрешительные и отчетные функции в цифровой форме. Они адресованы бизнесу как пользователю конкретных госуслуг в отдельных сферах.

К типичным примерам относятся:

- **Электронные налоговые сервисы** (портал soliq.uz и приложения): онлайн-отчетность, уплата налогов, получение справок, сверка расчетов, сервисы по льготам и калькуляторы. Это снижает временные и финансовые издержки взаимодействия с налоговыми органами и повышает прозрачность процедур.
- **Онлайн-сервисы таможенных и разрешительных органов:** электронное декларирование, предварительное информирование, цифровые заявки на санитарные/ветеринарные документы и др. Их интеграция с механизмами «Единого окна» позволяет не дублировать данные. Отдельное направление — перевод лицензий и разрешений в электронный формат через специализированные информационные системы (в том числе «Litsenziya»), что существенно ускоряет получение разрешительных документов, хотя полный переход в цифровую среду еще не завершен.
- **Отраслевые Telegram-боты и горячие линии:** инструмент оперативной обратной связи (например, по вопросам экспорта) для фиксации проблем, консультаций и эскалации обращений. Их преимущество — доступность и массовое распространение; ограничение — узкая функциональность (часто выполняют роль приема сообщений и первичной маршрутизации). В совокупности такие каналы дополняют экосистему цифрового взаимодействия государства и бизнеса.

**C. Платформы государственно-частного партнерства (ГЧП)**

Данная категория включает цифровые площадки для отбора и сопровождения проектов ГЧП и привлечения частных инвестиций в

инфраструктуру. В рамках институционального развития ГЧП создано профильное агентство, запустившее **официальный портал ГЧП (pppda.uz)**. На ресурсе размещаются объявления о конкурсах, типовые документы и предусмотрена подача заявок частными партнерами. В сочетании с нормами законодательства о конкурентности и прозрачности отбора партнеров это формирует основу для предсказуемого и открытого диалога государства и бизнеса. В перспективе логичным является развитие полноценного электронного реестра ГЧП-проектов и мониторинга их реализации в онлайн-режиме, что повышает доверие инвесторов и снижает информационные барьеры.

**D. Цифровые площадки бизнес-омбудсмена**

Отдельный блок составляют инструменты защиты прав и законных интересов предпринимателей, связанные с институтом **Бизнес-омбудсмена**. С момента учреждения института (2017 г.) параллельно развиваются цифровые каналы приема жалоб, мониторинга проверок и обратной связи.

Во-первых, функционирует **портал обращений предпринимателей** (например, business.gov.uz), интегрированный с общей системой электронных обращений, но ориентированный именно на проблематику бизнеса и тематическую маршрутизацию заявлений.

Во-вторых, внедрена информационная система **«Единый государственный контроль» (Govcontrol.uz)** — ключевой инструмент цифрового мониторинга проверок. В системе фиксируются основания, сроки и результаты проверок, а предприниматели через личный кабинет могут отслеживать назначенные проверки и знакомиться с итогами. Существенно, что платформа предусматривает возможность подачи жалоб на нарушения со стороны проверяющих, а проведение проверок без регистрации в системе недопустимо. Дополнительно формируются реестры проверяющих органов и инспекторов, что позволяет предпринимателю верифицировать полномочия проверяющего лица. В целом система усиливает прозрачность надзорной деятельности и снижает риск незаконного вмешательства.

Обобщая, цифровые инструменты, связанные с бизнес-омбудсменом, формируют экосистему электронной защиты прав предпринимателей и повышают доверие к институтам контроля. Для государства эти платформы также выступают каналом получения структурированной обратной связи о системных барьерах и нарушениях, что создает предпосылки для корректировки регуляторной политики и улучшения делового климата.

## 5.АВТОРСКАЯ МОДЕЛЬ «ЦИФРОВОГО РЕГУЛЯТОРНОГО ДИАЛОГА»

На основе анализа предложена **циклическая многоуровневая модель** цифрового регуляторного диалога между государственными органами и

бизнес-сообществом. Модель описывает постоянный обмен информацией и обратную связь при разработке и реализации регуляторных решений.

**1) Каналы взаимодействия (платформы)**

Базой модели выступает **совокупность цифровых платформ**, сгруппированных в классификации (A–D):

A. **консультативные** (public consultation по НПА — regulation.gov.uz);

B. **сервисные** (электронные услуги — my.gov.uz и ведомственные платформы);

C. **инвестиционно-партнерские** (порталы ГЧП, инвестиционные площадки);

D. **защитные** (обращения к омбудсмену, контроль проверок).

Ключевой принцип: платформы **не изолированы**, а должны работать как **единая сеть**. Например, типовые жалобы бизнеса с защитных платформ (канал D) должны учитываться в нормотворчестве (канал A); результаты публичных обсуждений НПА (канал A) — влиять на реинжиниринг госуслуг (канал B) при выявлении бюрократических барьеров.

**2) Субъекты диалога**

Модель включает:

A. **бизнес** (ИП, МСП, крупный сектор, ассоциации, иностранные инвесторы);

B. **госорганы** (министерства, комитеты, хокимияты, регуляторы, контрольные органы);

C. **посредники/институты развития** (Агентство ГЧП, Агентство стратегических реформ, ТПП, проектные офисы).

Особенность цифрового диалога — **многосторонность**: на платформах (особенно в обсуждении НПА) взаимодействуют сразу множество участников. Поэтому необходима **ясная архитектура ролей** и принцип «у каждого субъекта есть электронный голос»: бизнес — влияет через предложения и оценку регулирующего воздействия, государство — отвечает и корректирует процедуры, институты развития — модерируют и обеспечивают экспертизу.

**3) Процессы взаимодействия**

В модели выделены четыре ключевых процесса:

1. **Публичные консультации по НПА**: публикация проекта → сбор предложений → обсуждение/доработка → отчет о принятых/отклоненных замечаниях.

2. **Электронные разрешительные процедуры и сервисы**: подача заявки → рассмотрение/запрос доп. данных → выдача результата → оценка качества услуги пользователем.

3. **Выявление и устранение административных барьеров**: прием жалобы → рассмотрение → меры реагирования → информирование заявителя → подтверждение результата бизнесом (закрытие цикла).

4. **Привлечение бизнеса к проектам развития** (ГЧП, инвестиции, закупки): цифровая подача → обсуждение условий → конкурсный отбор → сопровождение проекта (приоритет — прозрачность и равные условия).

**4) Аналитический блок (data-driven управление)**

Центральным элементом модели является **аналитика и мониторинг** (BI/Big Data). Предполагается, что данные из всех процессов (комментарии к НПА, метрики услуг, жалобы, результаты опросов) аккумулируются в **едином центре анализа** при координирующем органе (например, Минэкономики / Агентство стратегических реформ). Аналитика обеспечивает:

A. выявление «болевых точек» бизнеса;

B. мониторинг KPI (время услуг, активность обсуждений, структура жалоб);

C. оценку эффективности изменений.

Важно: аналитический блок **замыкает цикл** — «питает» регуляторную политику данными “снизу”. Пример: систематическое игнорирование предложений бизнеса по налоговым НПА — сигнал корректировать процедуру ОРВ или формат рабочих групп.

**5) Обратная связь и отчетность перед бизнесом**

Финальное звено — **институционализированная отчетность** государства перед предпринимателями: ежегодные отчеты, публичные презентации, публикация статистики на порталах (сколько предложений учтено, сколько услуг оказано онлайн, каковы результаты рассмотрения жалоб). Без обратной связи диалог становится формальным. Практика обоснования принятых / отклоненных предложений должна применяться шире. Это усиливает доверие и стимулирует бизнес участвовать активнее.

**Итого:** цикл модели выглядит так:
**вклад/услуга → накопление данных → аналитика → корректировка политики/процедур → публичная отчетность → новый виток диалога**.
Модель опирается на принципы **прозрачности, проактивности и подотчетности**.

## 6.ПОКАЗАТЕЛИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЦИФРОВОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ

Для оценки результативности цифрового диалога предлагается система индикаторов, охватывающая как отдельные направления (консультации, услуги), так и общую зрелость взаимодействия.

**1) Консультативные платформы (Regulation и аналоги)**

A. **Активность обсуждений**: число проектов НПА в обсуждении; среднее число участников; среднее число комментариев на проект.

B. **Глубина учета предложений**: доля предложений бизнеса, полностью/частично учтенных в финальной редакции.

C. **Скорость обратной связи**: средний срок реакции разработчиков на замечания (критично — не оставлять предложения без рассмотрения).

**2) Сервисные платформы (электронные госуслуги бизнесу)**

A. **Оперативность**: фактическое среднее время получения услуги / разрешения онлайн; сокращение относительно офлайн.

B. **Доля цифровых транзакций**: процент регистраций / разрешений / отчетности, завершенных полностью онлайн.

C. **Успешность**: доля заявок, доведенных до результата без технических сбоев/повторных подач.

D. **Индекс удовлетворенности**: средний балл оценок пользователей (по шкале 1–5) и динамика.

**3) Платформы обратной связи и контроля (омбудсмен/контроль проверок)**

A. **Результативность рассмотрения обращений**: доля жалоб, по которым приняты реальные меры (отмена незаконных действий, ответственность должностных лиц, восстановление прав).

B. **Снижение административного давления**: динамика количества/структуры проверок после внедрения цифрового мониторинга.

**4) Интегральные показатели зрелости цифровизации регуляторных процедур**

A. Композитные индексы цифровых публичных услуг для бизнеса (наличие порталов, интеграция данных, возможность онлайн-взаимодействия на всех этапах бизнес-цикла).

B. Индикаторы B-READY по компонентам публичных услуг/регулирования и их рост за счет цифровизации.

**5) Показатели доверия и восприятия**

A. доля предпринимателей, считающих, что их мнение учитывается в экономической политике;

B. доля удовлетворенных качеством и скоростью госуслуг;

C. оценка снижения коррупционных рисков благодаря онлайн-процессам (по опросам/исследованиям) .

**Практический механизм:** рекомендуется ежегодное **«табло показателей цифрового взаимодействия»** при Правительстве / Минэкономики: консультации по НПА и доля учета предложений; объем и скорость электронных услуг; обращения и % результативных решений; интегральные индексы; индекс удовлетворенности.

## 7.НАУЧНАЯ НОВИЗНА

1. **Предложена первая системная классификация** цифровых платформ государства для диалога с бизнесом в Узбекистане (A–D), позволяющая рассматривать их как единую экосистему, а не разрозненные сервисы.
2. **Разработана оригинальная модель «цифрового регуляторного диалога»**, учитывающая многосторонность взаимодействия, роль аналитики данных и обязательную отчетность государства перед предпринимателями.
3. **Сформирована система KPI**, ориентированная на качество диалога (учет предложений бизнеса в НПА, сокращение транзакционных издержек, удовлетворенность услугами), а не только на количество цифровых сервисов.

## 8.ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Исследование систематизировало цифровые механизмы взаимодействия государства и бизнеса в Узбекистане и обосновало концепцию «цифрового регуляторного диалога» как следующего этапа развития e-government в части деловой среды.

**(1)** Сформирована базовая инфраструктура цифрового взаимодействия, но она остается **фрагментированной**. Отдельные сферы цифровизованы успешно (например, отчетность/часть услуг), в то время как другие направления требуют ускорения (в т.ч. полноценная цифровизация разрешительных процедур и интеграция ведомственных систем).

**(2)** Предложенная модель направлена на **интеграцию каналов** в единый контур обратной связи: технологическая совместимость платформ, единые стандарты данных, межведомственный обмен, переход к **data-driven регулированию** (проактивное выявление барьеров на основе аналитики), а также обязательная публичная отчетность перед бизнесом.

**(3)** Практическая ценность результатов — в возможности применять модель и KPI при совершенствовании Regulation-механизмов, улучшении качества услуг и усилении защиты прав предпринимателей. В частности, целесообразно расширять инструменты оценки воздействия и обратной связи в рамках обсуждения НПА [11], а также использовать данные цифрового контроля проверок для системных реформ [14]. Логичным шагом является развитие идеи единого «портала предпринимателя» (Business Cabinet), объединяющего услуги, консультации по НПА, инвестиционные возможности и канал жалоб.

**Ограничения:** неполная открытая статистика по ряду порталов (учет предложений, показатели использования) и отсутствие самостоятельного опроса предпринимателей.

**Перспективы:** эмпирические опросы бизнеса; сравнительный анализ с Казахстаном/Азербайджаном; количественная оценка влияния цифровых платформ на показатели бизнес-активности и транзакционные издержки.

## БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЕ ССЫЛКИ:

1. Shavkatov S.A., Karimov B.B. Mekhanizmy tsifrovogo vzaimodeystviya gosudarstvennykh organov s naseleniem v Uzbekistane: opyt realizatsii «tsifrovogo obshchestvennogo dialoga» [Mechanisms of digital interaction between government agencies and the population in Uzbekistan: experience of implementing "digital public dialogue"]. *Society and Innovations*, 2025, Issue 6, no. 6, pp. 34–41. (In Russian).

2. World Bank Group. Doing Business 2020: Reforms Propel Uzbekistan to Place Among World's Top 20 Business Climate Improvers. *Press Release*, 24 October 2019. Available at: https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2019/10/24/doing-business-2020-reforms-propel-uzbekistan-to-place-among-worlds-top-20-business-climate-improvers (accessed 10.09.2025).

3. Ministry of Economy and Finance of Uzbekistan. The latest results of the World Bank's "Business Ready" report have been released. *Press Release*, 29.12.2025. Available at: https://www.mef.gov.uz/en/news/view/115300 (accessed 05.01.2026).

4. OECD. *Insights on the Business Climate in Uzbekistan*. Paris, OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/317ce52e-en.

5. Spot.uz. V Uzbekistane poyavyatsya tsentry «edinogo okna» dlya biznesa pri TPP [Single window centers for business under the CCI will appear in Uzbekistan]. *News from 01.12.2025*. (In Russian). Available at: https://www.spot.uz/ru/2025/12/01/biznes-hamroh/.

6. Zakon Respubliki Uzbekistan ot 09.12.2015 g. No. ZRU-395 «Ob elektronnom pravitelstve» [Law of the Republic of Uzbekistan dated 09.12.2015 No. ZRU-395 "On e-government"]. *Nats. baza dannykh zakonodatelstva*, 10.12.2015, No. 12/15/395/0131. (In Russian).

7. Zakon Respubliki Uzbekistan ot 29.08.2017 g. No. ZRU-440 «Ob Upolnomochennom pri Prezidente Respubliki Uzbekistan po zashchite prav i zakonnykh interesov subyektov predprinimatelstva» [Law of the Republic of Uzbekistan ... "On the Commissioner for the Protection of Rights and Legitimate Interests of Entrepreneurs"]. *Sobr. zakonodatelstva RUz*, 2017, No. 35, art. 908. (In Russian).

8. Zakon Respubliki Uzbekistan ot 10.05.2019 g. No. ZRU-537 «O gosudarstvenno-chastnom partnerstve» [Law of the Republic of Uzbekistan ... "On Public-Private Partnership"]. *Sobr. zakonodatelstva RUz*, 2019, No. 20, art. 403. (In Russian).

9. OECD. *Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan: Enhancing Uzbekistan's investment promotion and facilitation framework*. Paris, OECD Publishing, 2023.

10. Norma.uz. Proekty NPA teper publikuyutsya na otdelnom portale [Draft regulatory acts are now published on a separate portal]. *Review from 01.06.2015*. (In Russian). Available at: https://www.norma.uz/uz/nashi_obzori/proekty_npa_teper_publikuyutsya_na_otdelnom_portale.

11. Spot.uz. Zapushchena novaya versiya sayta regulation.gov.uz. Chto izmenilos [A new version of the site regulation.gov.uz has been launched. What has changed]. *News from 26.10.2020*. (In Russian). Available at: https://www.spot.uz/ru/2020/10/26/regulation/.

12. Assotsiatsiya tamozhennykh brokerov. Vnedrenie unifitsirovannoy tamozhennoy informatsionnoy sistemy «Edinoe Okno» v Uzbekistane [Implementation of the unified customs information system "Single Window" in Uzbekistan]. *01.02.2017*. (In Russian).

Available at: https://atb.uz/2017/02/01/vnedrenie-unifitsirovannoj-tamozhennoj-informatsionnoj-sistemy-edinoe-okno-v-uzbekistane/.

13. Biznes smozhet soobshchat o problemakh s eksportom v Telegram-bote [Business will be able to report export problems in the Telegram bot]. *News from 29.05.2025*. (In Russian). Available at: https://www.spot.uz/ru/2025/05/29/miit-bot/.

14. Embassy of Uzbekistan in Latvia. Business rights are a priority of the New Uzbekistan. *Article from 15.07.2023*. Available at: https://uzembassy.lv/uzbekistan-news/39 (accessed 03.01.2026).

## AFG‘ONISTON VA TOJIKISTONNING MINTAQAVIY XAVFSIZLIKKA TA’SIRI: NAZARIY ASOSLAR VA ILMIY YONDASHUVLAR

***IKROMQUL RAXMONKULOV***
*Mustaqil tadqiqotchi, O‘zbekiston Respublikasi STIBOM*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Afg‘oniston va Tojikistonning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o‘rni nazariy va konseptual yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda klassik geosiyosiy nazariyalar, Z.Bjezinskiyning Yevroosiyo geostrategiyasi hamda mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyasi (RSCT) asosiy metodologik poydevor sifatida qo‘llanilgan. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda harbiy-siyosiy omillar bilan bir qatorda iqtisodiy integratsiya va institutsional hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *mintaqaviy xavfsizlik, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Tojikiston, «Hartlend», «Rimlend», «Buyuk shaxmat taxtasi» mintaqaviy xavfsizlik kompleksi, transmilliy tahdidlar.*

***Аннотация:*** *В данной статье проанализирована роль Афганистана и Таджикистана в системе региональной безопасности Центральной Азии на основе теоретических и концептуальных подходов. В исследовании в качестве основного методологического базиса использовались классические геополитические теории, геостратегия Евразии З. Бжезинского, а также теория регионального комплекса безопасности (RSCT). Кроме того, обоснована важность экономической интеграции и институционального сотрудничества наряду с военно-политическими факторами в обеспечении региональной безопасности.*

***Ключевые слова:*** *региональная безопасность, Центральная Азия, Афганистан, Таджикистан, «Хартленд», «Римленд», «Большая шахматная доска», региональный комплекс безопасности, транснациональные угрозы.*

***Annotation:*** *This article analyzes the role of Afghanistan and Tajikistan in the regional security system of Central Asia based on theoretical and conceptual approaches. The study employs classical geopolitical theories, Z. Brzezinski’s Eurasian geostrategy, and the Regional Security Complex Theory (RSCT) as the main methodological framework. Furthermore, the significance of economic integration and institutional cooperation, alongside military-political factors, in ensuring regional security is substantiated.*

***Keywords:*** *regional security, Central Asia, Afghanistan, Tajikistan, "Heartland", "Rimland", "The Grand Chessboard", regional security complex, transnational threats.*

**KIRISH.**

Markaziy Osiyo mintaqasi zamonaviy geosiyosiy jarayonlarda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan hududlardan biri bo‘lib, bu hududning xavfsizlik muhiti ko‘p omilli, murakkab va o‘zaro bog‘liq jarayonlar orqali shakllanib boradi. Mazkur mintaqada joylashgan Afg‘oniston va Tojikiston davlatlari nafaqat geografik yaqinlik, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar bilan ham bir-biriga uzviy bog‘langan bo‘lib, ular mintaqaviy xavfsizlik tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Ayniqsa, Afg‘onistondagi uzoq yillar davom etayotgan beqarorlik, transmilliy tahdidlar, qurolli guruhlar faolligi va narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun dolzarb xavfsizlik muammolarini vujudga keltirmoqda. Tojikiston esa Afg‘oniston bilan 1300 km dan ortiq umumiy chegaraga ega bo‘lgan davlat sifatida bu tahdidlarga birinchilardan bo‘lib duch keluvchi geostrategik bufer hudud hisoblanadi.

Ayniqsa, 2021-yil avgust oyidan boshlab «Tolibon» harakatining hokimiyat tepasiga kelishi Afg‘onistonni Markaziy Osiyo uchun ham xavf, ham muayyan geoiqtisodiy imkoniyatlar manbaiga aylantirdi. Tojikiston esa bu xavflarni jilovlash va mintaqani himoya qilishda asosiy to‘siq vazifasini bajarmoqda. Ikkalasi ham Markaziy Osiyoning xavfsizlik tizimi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**TADQIQOTNING USULLARI**

Ushbu maqolada Afg‘oniston va Tojikistonning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o‘rni va ta’sirini tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy tadqiqot usullari qo‘llanilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi mintaqaviy xavfsizlikni shakllantiruvchi omillarni aniqlash, geosiyosiy va institutsional munosabatlarni tushunish hamda mamlakatlarning strategik pozitsiyasini baholashdan iborat.

Shu maqsadda quyidagi usullar qo‘llanildi: nazariy va konseptual tahlil, tarixiy-tahliliy usul**,** komparativ tahlil, statistik va empirik usul.

**NATIJALAR/MUHOKAMA**

Afg‘on-tojik munosabatlari Markaziy Osiyo xavfsizlik muhitini belgilab beruvchi muhim mintaqaviy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonlarni tahlil qilish Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini tushunish, mintaqaviy hamkorlik salohiyatini baholash va uzoq muddatli barqarorlik istiqbollarini belgilashni ilmiy jihatdan taqozo etadi. Mintaqaviy xavfsizlik bo‘yicha ilmiy yondashuvlar, xususan, N.Spaykmen va X.Makkinderning geosiyosiy konsepsiyalari, B.Buzan va O.Vever tomonidan ishlab chiqilgan «Mintaqaviy xavfsizlik kompleksi» nazariyasi (RSCT), shuningdek, realizm, liberalizm va konstruktivizm maktablari Afg‘oniston va Tojikistonning mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o‘rnini tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

XX asr boshida britaniyalik geograf Xelford Makkinder Yevroosiyoning markaziy qismi ustidan geosiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan kuch butun dunyo taqdiriga ta’sir o‘tkazishi mumkinligi haqidagi «Hartlend» nazariyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, tayanch nuqta Yevroosiyo mintaqasida bo‘lib, uning o‘ziga xos geografiyaga ega yurak qismi – «Hartlend» deb atalab, bu hudud dunyoda harbiy-siyosiy ustunlikka erishish uchun eng muhim makon deb qaraladi. Unga Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa kiradi. Shu bois, «Kim Hartlendni nazorat qilsa, u dunyoning buyuk orollarini (Evroosiyo va Afrika) nazorat qiladi, kim ularni nazorat qilsa, u dunyoni nazorat qiladi» mazmunidagi ibora paydo bo‘lgan. Bugungi xalqaro munosabatlar tizimida Hartlend hududi hanuz geostrategik yadro sifatida qaraladi, biroq uning ahamiyati endilikda faqat harbiy ustunlik bilan cheklanmay, energetik xavfsizlik, transport-logistika aloqalari va siyosiy ta’sir omillari bilan belgilanmoqda.

Jumladan, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari bo‘yicha pokistonlik mutaxassislar: gender va rivojlanish bo‘yicha tadqiqotchi Ayishe Xon, islom tarixi, madaniyati va sivilizatsiyasi bo‘yicha mutaxassis Muhammad Doniyol Xon va Peshovar universiteti professori Tariq Amin «Hartlend» nazariyasi asosida AQShning Afg‘onistondagi geosiyosiy va geostrategik manfaatlarini tahlil qilgan[1]. Ularning fikricha, Afg‘onistonning geostrategik joylashuvi tarixan ko‘plab xorijiy bosqinchilar, investorlar va manfaatdor tomonlarni o‘ziga jalb qilgan. Afg‘oniston «Hartlend»ning markaziy qismi sifatida «yurak» hududga tenglashtiriladi. Shu bois bu hudud AQSh, RF, Xitoy, Eron, Pokiston va Hindiston o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat markazi sanalishi ta’kidlangan. AQShning 2001 yilda Afg‘onistonga kirishi esa aynan «Hartlend»ga egalik qilish strategiyasining zamonaviy shakli sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari, amerikaliklar bu hududga nafaqat «Tolibon» ta’sirini kamaytirish, balki neft va gaz boy resurslarini qo‘lga kiritish, Afg‘oniston orqali Markaziy Osiyoga yo‘l ochish, Xitoy va RF ta’sirini cheklashni ham ko‘zlagani aytilgan. Umuman, amerikaliklarning maqsadi ko‘p qirrali va ustuvor bo‘lib, mintaqani nazorat qilishga qaratilgan.

Pokistonlik mutaxassislar AQShning afg‘on zaminidan chiqib ketishi masalasiga ham to‘xtalgan. Ularga ko‘ra, mintaqada «kuch vakuumi»ni (power vacuum) hosil qiladi va bu hududni yana «Katta yangi o‘yin» maydoniga aylantiradi. O‘z navbatida Afg‘onistonning beqarorligi mintaqa xavfsizligi mexanizmlarini zaiflashtiradi.

XX asrning o‘rtalarida N.Spaykmen o‘zining «Rimlend» nazariyasini yaratdi va uni «Hartlend» nazariyasiga qarama-qarshi qo‘ydi. Uning fikricha, dunyo geosiyosiy ustunligi – «Hartlend»da (Markaziy Yevroosiyoda) emas, balki uni o‘rab turgan quyidagi hudud – «Rimlend», ya’ni Yevroosiyoning «yangi qirrasida» joylashgan

[1] Dr. Ayesha Khan, Dr. Muhammad Daniyal Khan, Mr. Tariq Amin. Sir Halford John Mackinder’s Theories and US Geopolitical and Geostrategic Interest in Afghanistan. Vol. 3. No. 03. – Pakistan, 2023. – P. 72-80.

davlatlar va sohilbo‘yi mintaqalarida. Bunga Yevropaning janubi va g‘arbi, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo va Sharqiy Osiyo sohillari kiradi. Shu tariqa N.Spaykmen «Kim «Rimlend»ni nazorat qilsa, Yevroosiyoni nazorat qiladi. Kim Yevroosiyoni nazorat qilsa, dunyoni nazorat qiladi» degan mashhur formulasini yaratdi. «Rimlend» nazariyasi hali ham geosiyosiy tahlilda dolzarb, chunki Yevroosiyo sohil hududlari global savdo, iqtisod va xavfsizlikning asosiy markazi bo‘lib qolmoqda.

Markaziy Osiyo va Afg‘oniston «Rimlend»ning bir qismi sifatida qaraladi. Bu hududlar strategik jihatdan juda ahamiyatli, chunki bu hudud zamin va dengiz qudratlari uchrashib, to‘qnashadigan bufer zonaga kiradi. Afg‘oniston Janubiy va Markaziy Osiyoni bog‘laydigan ko‘prik sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, energiya va savdo oqimlari hamda harbiy va siyosiy ta’sir nuqtasi sifatida xizmat qiladi. Hududning strategik ahamiyati faqat harbiy emas, balki geoiqtisodiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, energiya va savdo yo‘laklari uchun markazga aylanish salohiyatiga ega. Tojikiston esa markaziy transport yo‘laklari va Rossiya bilan bog‘lanish nuqtasi sifatida strategik ahamiyatga ega.

Siyosatshunos S.Bo‘ronov Afg‘onistonning istiqbolini «Rimlend» nazariyasi orqali tushuntirib o‘tadi[1]. Unga ko‘ra, Afg‘oniston Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo, Yaqin Sharqni Uzoq Sharq mintaqalari bilan bog‘laydigan mintaqalararo transport ko‘prigidir. Markaziy Osiyo mintaqasiga eng yaqin dengiz portlari aynan Afg‘oniston hududi orqali o‘tadi. Geografik jihatdan yopiq O‘zbekiston ham jahon dengiz va okean bandargohlariga chiqishi uchun qo‘shni Afg‘oniston hududi tranzit davlat vazifasini bajaradi. Ayni shu omil tufayli Markaziy Osiyo istiqbolini makrodarajada tasavvur qilish, uning geosiyosiy o‘rni va nufuzini nazariy jihatdan «Rimlend» bilan bog‘lash imkoniyati vujudga keladi. Shu tariqa, istiqbolda ushbu makromintaqa bepoyon Yevroosiyoning geosiyosiy arxitekturasini o‘zgartirib yuborishi mumkin bo‘ladi.

Prezident Sh.Mirziyoyev Afg‘oniston umumiy tinchlik va xavfsizlik, hamkorlik va taraqqiyot makonining bir qismiga aylanishi lozimligiga e’tibor qaratgan va bu mintaqaning barcha mamlakatlari manfaatlariga javob berishi, Markaziy Osiyoning janubiy sarhadlarida barqarorlik belbog‘ini shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlagan[2].

Amerikalik siyosatshunos va davlat arbobi Z.Bjezinskiyning «Buyuk shaxmat taxtasi» asari «Hartlend» va «Rimlend» nazariyalarining zamonaviy geosiyosiy sintezi bo‘lib, unda Yevroosiyo global hokimiyat uchun hal qiluvchi makon sifatida

[1] Бўронов С. Трансафғон транспорт коридорининг стратегик хусусиятлари // Oriental journal of history, politics and law, 2022. – Б. 392-398.

[2] Мирзиёев Ш. Марказий Осиё янги давр остонасида // Халқ сўзи, 2025 йил 13 ноябрь, № 235 (9130).

talqin etiladi[1]. Asarda Tojikiston va Afg‘onistonnnig mintaqaviy xavfsizlikdagi o‘rni va geosiyosiy ahamiyati talqin qilingan. Z.Bjezinskiy Afg‘oniston va Tojikistonni Yevroosiyo markazida joylashgan, etnik-siyosiy jihatdan parchalangan va geostrategik raqobat keskin kechadigan hududni anglatuvchi 9 ta «Evroosiyo Bolqonlari» jumlasiga kiritgan. Unga ko‘ra, garchi Afg‘oniston ortiq sovet respublikasi bo‘lmasa-da, undagi hozirgi boshboshdoqlikni sho‘rolarning merosiga o‘xshatadi. Sobiq Ittifoqning bu hududdagi istelochilik harakatlari mamlakatni alohida-alohida qismlarga ajratib tashlangan va Afg‘oniston faqat qog‘ozdagina milliy davlat sifatida mavjud.

Shuningdek, Afg‘onistonning shimoliy-sharqiy qismida tojik millatiga mansub aholining ko‘pligi ham mintaqada etnik vaziyatni yanada keskinlashtirishi aytilgan. Muallif fikricha, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar avvalo, musulmon o‘lkalardir, ular tarixdan uzoq vaqt davomida Eron, Turkiya va Rossiya imperiyasining vaqtincha ta’sirida bo‘lgan. Biroq bu tajriba ularda mintaqadagi manfaatlar mushtarakligi ruhini ta’minlamagan, aksincha, ularning etnik tarkibi turli-tuman bo‘lgani uchun ichki va tashqi ixtiloflarda bu davlatlarning ojizliklari bilinib qoladi, bu esa, oxir-oqibatda, ba’zi bir qudratli qo‘shnilarining (aktorlarning) tajavvuzkorligini qo‘zg‘atib turadi.

Bjezinskiyning «Buyuk shaxmat taxtasi» asarida ilgari surilgan geosiyosiy konsepsiya Markaziy Osiyoga nisbatan strukturaviy jihatdan hanuz dolzarb, biroq zamonaviy sharoitda amaliy mexanizmlari va aktorlar nisbatida qayta formatlangan. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida integratsiyaga qaratilgan amaliy harakatlarning faollashuvi mintaqaning geosiyosiy sub’ekt sifatidagi rolini mustahkamlamoqda. Bu jarayon mintaqani faqat katta kuchlar raqobati maydoni sifatida emas, balki ichki muvofiqlashuv va strategik manyovr imkoniyatiga ega aktorlar majmuasi sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

Geografik jihatdan yaqin joylashgan davlatlarning xavfsizlikka doir tahdidlari, manfaatlari va zaifliklari shunday darajada o‘zaro bog‘langanki, har bir davlat xavfsizligini alohida emas, balki mintaqaviy yaxlitlik doirasida hal qilishi zaruratga aylanmoqda. Xavfsizlik muammolarini har bir mintaqaning o‘zida hal qilishga qaratilgan ilmiy nazariya Markaziy Osiyo uchun ham amal qiladi. Bu nazariyani B.Buzan va O.Vever ishlab chiqqan. Ular xalqaro xavfsizlikni faqat global kuchlar raqobati nuqtai nazaridan emas, balki alohida mintaqalarda shakllanadigan xavfsizlik dinamikasi orqali tushuntirish mumkinligini isbotlab berdilar.

B.Buzan va O.Vever bu jihatdan Afg‘onistonni ko‘pincha Markaziy Osiyo xavfsizlik muhitiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi, lekin yaqin omil sifatida

[1] Збигнев Б. Буюк шахмат тахтаси. Инглиз тилидан “Шарқшунос таҳлилчилар” жамоаси таржимаси. – Тошкент: Тирилиш, 2022. – Б. 178-183.

baholaydi[1]. Ushbu mutaxassislar Markaziy Osiyoni O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg‘izistondan iborat to‘rt respublika va Qozog‘istondan iborat mintaqa deb qayd etgan. Ular mintaqaning xavfsizlik muammolari nihoyatda ko‘pligi, bu hududdagi barcha davlatlar ichki jihatdan zaifligiga e’tibor qaratgan. Ular o‘zlarinig mintaqaviy xavfsizlik kompleksi (Regional Security Complex – RSC) nazariyasida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarini «premodern», ya’ni rivojlanish darajasi va davlat boshqaruvi sust (davlatchilik institutlari shakllanish jarayonida bo‘lgan), deb ta’riflagan. Bu davlatlar zamonaviylikka intilayotgan bo‘lsa-da, hali yetarli darajada mustahkam emas. Mintaqada asosan Tojikiston va uning qo‘shnisi Afg‘oniston Osiyoning premodern davlatlari sifatida keltirilgan.

Shuningdek, B.Buzan va O.Vever xuddi Z.Bjezinskiy kabi Markaziy Osiyodagi etnik xaritaga e’tibor qaratadi va buni mintaqaviy xavfsizlik uchun muhim jihat sifatida ta’kidlaydi. Garchi 1991-yildan beri Afg‘oniston va Tojikiston o‘rtasida o‘zaro keng ko‘lamli etnik to‘qnashuvlar kuzatilmagan bo‘lsa-da, ular o‘rtasidagi munosabatlarning mintaqaviy xavfsizlikka ta’sirini baholashda ularning ichki muammolari va o‘zaro tansmilliy aloqalarni inobatga olishga chaqiradi.

Bu olimlar Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarini o‘zaro ta’sir salohiyati past, ularda milliy va etnik identifikatsiya zaif ekanligi, shu bois ular kelgusida boshqa identifikatsiya shakllari bilan raqobatlashishini taxmin qilgan. Bu esa kelajakda mojarolarga sabab bo‘lishi mumkinligi, ammo hozircha to‘g‘ridan-to‘g‘ri etnik mojarolar ehtimoli pastligi qayd etilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasi zaif davlatlar sababli transmilliy tahdidlar bilan kurashayotgani keltirilgan. B.Buzan va O.Vever o‘zlarining mintaqaviy xavfsizlik kompleksiga oid asarida 1990-yillar boshida Tojikistonda yuz bergan fuqarolar urushiga e’tibor qaratgan va yakunda mintaqada dastlabki hokimiyatni bo‘lishish tajribasi yuz berganini qayd etgan. Ya’ni Tojikiston Islom uyg‘onish partiyasi koalitsion hukumatga kiritilgan. Shunday bo‘lsa-da, mualliflar tomonidan Tojikiston xavfsizlik borasidagi qaramlik tufayli de-fakto Rossiya Federatsiyasining protektorati sifatida talqin qilingan.

B.Buzan va O.Vever Kavkaz va Markaziy Osiyoni postsovet mintaqaviy xavfsizlik kompleksiga juda bog‘langan, deb aytadi. Ammo Kavkaz Markaziy Osiyoga nisbatan ko‘proq izolyator, ya’ni ikki yoki undan ortiq katta xavfsizlik mintaqalarini bir-biridan ajratib turuvchi hudud vazifasini bajaradi. Chunki bu hududda Turkiya va Eron ta’sir doirasi faol sanaladi.

Markaziy Osiyo esa zaif kuchga ega subkompleks sifatida keltirilgan. Katta aktorlar bu hududni to‘liq nazorat qilishga ochiqdan-ochiq intilmaydi, chunki bu harakat boshqa aktorlarning qarshiligiga duch kelishi mumkin. Shu bois Markaziy Osiyoda potensial izolyatorlik roli bor, ammo hozirda bu vazifani bajarmaydi. Chunki bu hududda izolyatorlik rolini qo‘shni Afg‘oniston bajaradi. Mintaqaviy xavfsizlik

[1] Barry Buzan and Ole Wæver. Regions and Powers The Structure of International Security. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS. 4 dec, 2003 y. — Pages. 423-426.

kompleksi (Regional Security Complex – RSC) nazariyasiga koʻra, Afgʻoniston Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo mintaqasini ajratuvchi hudud sanaladi.

Umuman olganda B.Buzan va O.Vever Markaziy Osiyo hozircha alohida bir subkompleks boʻlib turgani, biroq istiqbolda mustaqil mintaqaviy xavfsizlik kompleksiga aylanish imkoniyatiga egaligini aytgan. Ya'ni mintaqa davlatlari konsolidatsiya qilsa, Rossiya Federatsiyasi asta-sekin kuchsizlanib borsa va boshqa biror katta aktor bu hududga kirib kelmasa, unda Markaziy Osiyo mustaqil mintaqaviy xavfsilik kompleksini yarata oladi. Mualliflar mintaqada kutilganidek, «geopolitik katta oʻyinlar» yuz bermagani, shu jihati bilan bu hudud Kavkazdan farqlanishi, chunki Markaziy Osiyoda Turkiya va Eronning faolligi past ekani aytilgan. Buning oʻrniga ushbu submintaqaga tashqi aralashuvlar koʻproq transmilliy shakllarda kechayotgani (islomiy jihodchi terrorchi harakatlar, narkotrafik, Afgʻonistondan kutiladigan tahdidlar kabi.) aytilgan.

Mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyasiga yaqin mazmundagi, ya'ni mintaqada iqtisodiy integratsiya va rivojlanishni faollashtirish orqali xavfsizlikni ta'minlash imkoniyati mavjudligi haqidagi qarash Markaziy Osiyo uchun ham mosdir. Harbiy barqarorlikka erishilmasdan turib iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish qiyin, biroq iqtisodiy integratsiyasiz barqaror xavfsizlik ham mustahkamlanmaydi. Bu oʻzaro bogʻliqlik B.Buzan va O.Veverning RSC nazariyasining ichki dinamikasini amaliy jihatdan toʻldiradi.

Xalqaro munosabatlar boʻyicha pokistonlik mutaxassislar P.Mugʻal va S.Sulaymon mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda «iqtisodiy determinizm» yondashuvini ilgari suradi[1]. Bu borada mintaqa davlatlarining iqtisodiy oʻzaro bogʻliqligi, madaniy xilma-xilligi va ijtimoiylashuvi chambarchas ekanini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, davlatlar va mintaqalar oʻzaro muammolarni hamkorlik asosida hal etishi, birgalikda oʻsishi mumkin. Bunday hamkorlik global muammolarni ham diplomatik yoʻl bilan hal qilishga yordam beradi. Jumladan, bu kabi nazariyaga asoslanish Afgʻonistonning mintaqaviy aktorga aylanishi uchun imkoniyat yaratadi: buning uchun avvalo tinchlik va barqarorlik, soʻng esa rivojlanish loyihalari zarur. Afgʻonistonning muhim Yevroosiyo quruqlik yoʻlagi va potensial savdo markazi sifatidagi geosiyosiy-geostrategik joylashuvi uning ichki bozorini jonlantirish, xorijiy investitsiyalar oqimini koʻpaytirish, iqtisodiyotning tashqi yordam va kreditlarga qaramligini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Mintaqaviy bogʻlovchi nuqta sifatida Afgʻoniston atrofdagi mintaqalar oʻrtasida savdo yoʻllarining tezlashuvini ta'minlaydigan tarmoqni bogʻlab berishi mumkin. Bu esa mintaqadagi raqib davlatlarning antagonistik (keskin raqobatga asoslangan) munosabatlarini kamaytib, oʻzaro aloqalarni tijorat manfaatlariga yoʻnaltiradi. Ushbu

[1] Pashmina Mughal, & Sadia Suleman. Global Geopolitical Dynamics and Prospects for Afghanistan's Regional Connectivity // NUST Journal of International Peace & Stability, 4(2)/2021. – P. 16–34.

konseptual doirada, mintaqaviy integratsiya va geosiyosat doirasida Afg‘oniston orqali amalga oshiriladigan mintaqaviy bog‘liqlik Janubiy Osiyo va undan keng hududlarda Afg‘onistonning ahamiyatini sezilarli oshiradi.

P.Mug‘al va S.Sulaymonning fikricha, davlatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik tarmog‘i orqali o‘zaro iqtisodiy integratsiya va savdo manfaatlari Afg‘onistonning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, boshqa davlatlar tomonidan investitsiya va savdo imkoniyatlarining kengayishiga, hamda quruqlikka qamalgan Afg‘onistonning dengizlarga va suv yo‘laklariga chiqishiga sharoit tug‘diradi.

O‘z navbatida, Prezident Sh.Mirziyoyev mintaqaviy hamkorlikning hozirgi holati haqida quyidagilarni ma’lum qilgan[1]: «Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo‘lib xizmat qilayotgan o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda. ... Yangi Markaziy Osiyo tinchlik, barqaror taraqqiyot va yaratuvchan sheriklik yo‘lini tanlamoqda. ... «Markaziy Osiyo plyus» hamkorlik formatlari mintaqaning xalqaro huquqiy sub’ekt sifatidagi mavqei kuchayib borayotganining ifodasi hamda barqarorlik va taraqqiyotning muhim markazi sifatidagi rolining e’tirofi bo‘ldi». Sh.Mirziyoyev mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishni davom ettirish, tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy salohiyatni shakllantirish, iqtisodiy sohada ichki mintaqaviy savdoni rivojlantirish, chegaralardan o‘tish tartib-taomillarini soddalashtirish va o‘zaro investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish zarurligini ta’kidlagan.

Badaxshon universiteti tadqiqotchisi (Afg‘oniston) Nizomiddin Nazariy Afg‘onistondagi inqirozning davom etishida Markaziy Osiyo davlatlarining rolini tahlil qiladi[2]. Unga ko‘ra, Afg‘onistondagi inqiroz Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizligi va milliy manfaatlariga bevosita ta’sir qiladi, ammo bu davlatlar o‘z ichki muammolari, xususan iqtisodiy qashshoqligi sabab, afg‘on inqiroziga yetarli darajada e’tibor qaratmaydilar. Muallif Afg‘onistondagi xavfsizlikni ta’minlashdagi muammolar mintaqa xavfsizligiga ham ta’sir qilishini ta’kidlagan va bu xatarlarni yengishda mintaqaviy hamkorlik samarali ekanini urg‘ulagan.

Siyosatshunos I.Boboqulov Afg‘onistonda tinchlikka erishish yo‘li – ichki va mintaqaviy barqarorlikning asosiy sharti – mazkur mamlakatni mintaqaviy hamkorlik tizimiga bevosita jalb etish ekanini ta’kidlaydi [3]. Afg‘oniston mintaqaviy xavfsizlikning muhim ustuni bo‘lishiga qaramay, hanuzgacha ushbu tizimdan

[1] Мирзиёев Ш. Марказий Осиё янги давр остонасида // Халқ сўзи. 2025 йил 13 ноябрью – № 235 (9130).

[2] Nazari N. The role of geopolitical factors in regional and trans-regional powers in continuing Afghanistan crisis. – Arch Pharma Pract, 2020. – P. 83-93.

[3] Bobokulov I. Central Asia as a security complex: theory and practice. Central Asia and The Caucasus. 2012. Volume 13. Issue 3. – Pages: 105-112.

tashqarida qolmoqda. Uning asosiy mintaqaviy tuzilmalardagi ishtiroki ramziy xarakterga ega, «Markaziy Osiyo + ...» formatlari kabi boshqa mintaqaviy forumlarda esa umuman ishtirok etmaydi. Shuningdek, energetika, transport va savdo sohalaridagi loyihalarga ham yetarlicha jalb etilmagan. Bu holat mintaqaviy davlatlar manfaatlariga mos kelmaydi va ularning xavfsizlik sohasidagi sa'y-harakatlarini samarasiz qiladi.

Tojik siyosatshunosi G'ayratjon Bobodjonov Tojikistonning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o'rnini tahlil qilgan va uning yondashuvi mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyasi (B.Buzan va O.Vever) bilan uyg'un[1]. U mintaqadagi mavjud va ehtimoliy xavfsizlik tahdidlari qatoriga xalqaro terrorizm, Afg'onistondagi beqarorlik muammosi (ayniqsa, talibonlar hokimiyatga kelganidan keyin), mintaqaning ayrim davlatlarining iqtisodiy qoloqligi, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanmasi hamda boshqa salbiy omillarni sanab o'tgan. Uning fikricha, xavfsizlik sohasida mintaqaviy hamkorlik ko'plab to'siq va murakkabliklarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda davlatlarga nisbatan umumiy tashqi tahdid va chaqiriqlarning mavjudligi ular o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish uchun muhim asos bo'ladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qay darajada qudratli bo'lishidan qat'i nazar, biror bir davlat bu kabi tahdidlarga yakka tartibda samarali ravishda qarshi tura olmaydi.

G'.Bobodjonov mustahkam mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllantirish uchun mintaqa davlatlari o'rtasida uzviy o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, shuningdek, yuqorida qayd etilgan tahdidlarning oldini olishda tezkor va muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb qayd etadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida integratsiya jarayonlarini yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etishini aytadi. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllantirishning asosiy yo'llaridan biri – davlatlar o'rtasidagi integratsiyani izchil ravishda rivojlantirishdan iborat.

Ijtimoiy fanlar bo'yicha tojikistonlik mutaxassis Feruz Hoshimov mintaqaviy xavfsizlik doirasida Tojikiston ko'p yillar davomida nafaqat o'z xavfsizligini, balki mintaqa va qo'shni davlatlar xavfsizligini ham ta'minlab kelayotganini ta'kidlagan[2]. Uning fikricha, bunda asosiy tahdidlar bo'lgan terrorizm, ekstremizm va transmilliy uyushgan jinoyatchilikning oldi olinmoqda.

F.Hoshimov Tojikiston Respublikasida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish maqsadida Milliy strategiya har 5 yilga mo'ljallangan milliy strategiya,

[1] Бободжонов Г.М. Таджикистан в системе региональной безопасности Центральной Азии. Культура и природа политической власти: теория и практика: сборник научных трудов. – Екатеринбург: УрГПУ, 2023. – С. 404-409.

[2] Хошимов Ф.Дж. Роль Республики Таджикистан в решении вопросов безопасности в Центральной Азии. Постсоветские исследования, 2024. – Т. 7. – № 7. – С. 736–743.

«Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida», «Terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida», «Vijdon erkinligi va diniy birlashmalar to‘g‘risida», «Ota-onalarning bolalarni o‘qitish va tarbiyalash javobgarligi to‘g‘risida», «Fuqarolarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to‘g‘risida» hamda «An’analar, tantanalar va marosimlarni tartibga solish to‘g‘risida» qonunlar qabul qilinganini amaliy harakatlar sifatida ko‘rsatgan. Shuningdek, diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi hamda 2018-2025 yillarga mo‘ljallangan jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish), terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy konsepsiyaning ahamiyatini yuqori baholagan.

U Tojikistonning Afg‘onistondagi beqaror vaziyat sharoitida xavfsizlik masalalarini hal etish va mintaqaviy xavfsizlikka dahl qiluvchi yangi tahdidlarga qarshi kurashishdagi o‘rni tobora ortib borayotganini qayd etgan. F.Hoshimovning fikricha, Markaziy Osiyoda muhim geosiyosiy mavqega ega bo‘lgan Tojikiston xalqaro terrorizm, ekstremizm, transchegaraviy uyushgan jinoyatchilik, narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi va qo‘shni Afg‘onistondan kelib chiqadigan boshqa jinoyatlarga qarshi kurashishda katta rol o‘ynashi mumkin. Bu tahdidlar, o‘z navbatida, nafaqat mintaqa davlatlari, balki barcha postsovet mamlakatlari uchun ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

F.Hoshimov Tojikiston doimo qo‘shni Afg‘onistonda mustahkam tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash tarafdori bo‘lib kelayotgani, shu maqsadda afg‘on xalqiga manzilli yordam yetkazib berish uchun o‘zining chegara oldi infratuzilmasi va logistik imkoniyatlarini taqdim etayotgani, bu esa ushbu mamlakatdagi gumanitar vaziyatni barqarorlashtirish uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratishga xizmat qilayotganini ta’kidlagan.

Tojikiston BMT va uning tegishli institutlari, shuningdek, boshqa mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda xavfsizlikka oid risk va tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy ravishda qo‘shma sa’y-harakatlarni amalga oshirayotganiga e’tibor qaratgan. Jumladan, 2025-yilda Al-Quvayt shahrida «Terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha Dushanbe jarayoni» doirasida o‘tkaziladigan xalqaro konferensiya Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik masalalarini hal etish, tinchlikni mustahkamlash va farovonlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**XULOSA**

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Afg‘oniston va Tojikistonning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o‘rni geografik yaqinlik va tarixiy-madaniy omillar bilan cheklanib qolmay, ularning geosiyosiy joylashuvi, davlatchilik salohiyati va transmilliy tahdidlarga duch keluvchanligi bilan belgilanadi. Afg‘onistondagi siyosiy beqarorlik, qurolli tuzilmalar faolligi, terrorizm va narkotrafik kabi xavflar mintaqada xavfsizlikni o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida shakllantirmoqda. Geosiyosiy (Hartlend va Rimlend) hamda mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyalari doirasida

Afg‘oniston mintaqalararo izolyator va bog‘lovchi hudud, Tojikiston esa bu tahdidlarni birinchi qabul qiluvchi bufer davlat sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash faqat harbiy-siyosiy vositalar bilan cheklanmasligi lozim. Iqtisodiy integratsiya, institutsional hamkorlik va ijtimoiy barqarorlik xavfsizlikning muhim tarkibiy qismlaridir. Shu bois, Afg‘onistonni bosqichma-bosqich mintaqaviy jarayonlarga jalb etish va Tojikistonning xavfsizlik sohasidagi institutsional tajribasidan foydalanish Markaziy Osiyoda barqaror va uzoq muddatli mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllantirish uchun zarur siyosiy shart hisoblanadi.